




MILLIY HISOBLAR TIZIMI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**



B. Mahmudov

MILLIY HISOBLAR TIZIMI

Darslik

TOSHKENT - 2011

657(07)

M 37


B.M. Mahmudov. Milliy hisoblar tizimi. Darslik. – T.: TDIU, 2011, 323 b.

Ushbu darslik Milliy hisoblar tizimi metodologiyasi asosida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash uslublarini yoritishga qaratilgan o'ziga xos qo'llanma hisoblanadi. Darslikni yozishdan ko'zlangan asosiy maqsad - o'quvchilarni mamlakatimizda bozor munosabatlarining yuzaga kelishi va tarkib topishi bilan uyg'unlashgan holda bozor iqtisodiyoti va unga asoslangan iqtisodiyotning xalqaro standarti hisoblangan milliy hisoblar tizimining muhim tushunchalari, kategoriyalari, tasniflari hamda mamlakatda kechayotgan iqtisodiy jarayonlarni Milliy hisoblar tizimi va To'lov balansi schyotlarida ifodalash usullari bilan tanishtirishdan iborat.

Darslik iqtisod, bank va moliya yo'nalishlaridagi oliy o'quv yurtlari (bakalavriat va magistratura) talabalariga, malaka oshirish institutlari tinglovchilariga, iqtisodchi olimlarga, iqtisodiyot va statistika yo'nalishidagi vazirliklar va idoralar, banklar, muassasalar va korxonalarining mutaxassislariga hamda bozor iqtisodiyoti nazariyasi va hisoboti tizimi metodologiyasi bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrirlar: Iskandarova D.B.,
kat. o'q. Yaminova G.Sh.

Taqrizchilar: i.f.d., prof. Nabiev H.,
i.f.n, dosent Qoraboev A.R.



СИСТЕМА НАЦИОНАЛЬНЫХ СЧЕТОВ

Предлагаемый учебник является своего рода пособием по познанию методологии учета Системы национальных счетов. Цель настоящего учебника является ознакомить читателей с основными понятиями, определениями и методами разработки счетов СНС и платежного баланса, широко используемых во всем мире для описания развития экономического процесса на макроуровне.

Он предназначен для студентов вузов экономических и финансовых специальностей (как для бакалавриатуры, так и для магистратуры) и слушателей институтов повышения квалификации в области экономики, финансов и государственного управления.

Учебник может быть использован специалистами органов государственного управления, исследователями и учёными в разработке национальных счетов, макроэкономической политики, анализе и прогнозировании экономического развития отраслей, секторов экономики, а также бизнесменами и менеджерами, заинтересованными в оценке макроэкономической ситуации в стране и зарубежных государствах.

Ответственные редакторы: Искандарова Д.Б.,
ст. пред. Яминова Г.Ш.

Рецензенты: д.э.н., профессор Набиев Х.,
к.э.н., доцент Карабаев А.Р.

SYSTEM OF NATIONAL ACCOUNTS

The offered textbook is a kind of a manual of methodology of System of national accounts. The purpose of the present textbook is to acquaint readers with the basic concepts, definitions and methods of development of SNA accounts and the balance of payments, widely used all over the world for the description of development of economic process at a macroeconomic level.

It is intended for students of high schools of economic and financial specialties (both for bachelors and masters) and listeners of professional skill improvement institutes in the field of economy, finance and government.

The textbook can be used by experts of state bodies, researchers and scientists in development of national accounts, macroeconomic policy, the analysis and forecasting of economic development of branches, sectors of economy, and also businessmen and the managers interested in an estimation of macroeconomic situation in the country and the foreign states.

Compiler: Iskandarova D.B.,
Yaminova G.Sh.

Reviewers: Doctor of economic sciences: prof. Nabief H.,
Candidates of economic sciences: Qoraboev A.R.

MUNDARIJA:

Muqaddima.....	8
I-BOB. MILLIY HISOBCHILIK, UNING YUZAGA KELISH TARIXI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI	12
1. Milliy hisobchilik tushunchasi.....	12
2. Xalq xo'jaligi balansi tizimi.....	14
3. Milliy hisoblar tizimining yuzaga kelishi tarixi.....	15
4. Milliy hisobchilikning taraqqiyot bosqichlari.....	19
5. Milliy hisobchilikni yuritish zarurati.....	20
6. Milliy hisobchilikning mamlakatlararo iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishidagi roli.....	21
II-BOB. MILLIY HISOBLAR TIZIMI VA XALQ XO'JALIGI BALANSI HISOBOT TIZIMLARI O'RTASIDAGI ASOSIY FARQLAR VA O'XSHASHLIKLAR	24
1. Milliy hisoblar tizimi va Xalq xo'jaligi balansi tizimi predmeti va vazifalari.....	24
2. Milliy hisoblar tizimi va Xalq xo'jaligi balansi tizimlari o'rtasidagi asosiy farqlar.....	26
3. Milliy hisoblar tizimining rivojlanishida Xalq xo'jaligi balansi tizimining roli.....	27
III-BOB. MILLIY HISOBLAR TIZIMI — BOZOR MUNOSABATLARIGA ASOSLANGAN IQTISODIYOTNI HISOBGA OLISH TIZIMIDIR.....	30
1. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot.....	30
2. Iqtisodiy ishlab chiqarish va uning chegarasi.....	30
3. Bozor va nobozor ishlab chiqarish	32
4. Iqtisodiy faoliyat va uning turlari.....	34
5. Iqtisodiy birliklar, rezidentlik, iqtisodiy hudud	36
IV-BOB. MILLIY HISOBLAR TIZIMIDAGI MUHIM TUSHUNCHALAR VA TASNIFLAR.....	41
1. Iqtisodiy operatsiyalar, oqimlar va zaxiralar.....	41
2. Ikki tomonlama va bir tomonlama operatsiyalar.....	42
3. Milliy hisoblar tizimida daromadlar, sarflar.....	45
4. Milliy hisoblar tizimida soliqlar, subsidiyalar va	

ularning tasnifi.....	46
5. Milliy hisoblar tizimida operatsiyalarni baholash qoidalari va baholar tizimi.....	49
6. Iqtisodiy aktiv va passiv tushunchalari va ularning tasnifi.....	51
V-BOB. MILLIY HISOBLAR TIZIMIDA TARMOQLAR VA SEKTORLARNING TASNIFI	59
1. Tarmoq va sektorlarga guruhlashning zarurati va ahamiyati.....	59
2. Tarmoq tushunchasi va uning tasnifi.....	60
3. Sektor tushunchasi va uning tasnifi.....	62
4. Institutsion birliklarni guruhlashdagi muammolar.....	68
VI-BOB. MILLIY HISOBLAR TIZIMI VA BUXGALTERIYA HISOBI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK, O'XSHASHLIK VA TAFOVUTLAR	74
1. Milliy hisoblar tizimi va buxgalteriya hisobi o'rtasidagi bog'liqlik, daromad konsepsiyasi.....	74
2. Mahsulot konsepsiyasi va uning turlari.....	75
3. Xarajatlar va ularning turlari.....	77
4. Foyda, aktivlar, investitsiyalar.....	79
5. Buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlarini Milliy hisoblar tizimi konsepsiyasiga o'tkazish.....	80
VII-BOB. MILLIY HISOBLAR TIZIMI SCHYOTLARI TARKIBI.....	86
1. Schyotlarni tuzishning umumiy qoidasi va sxemasi...	86
2. Ishlab chiqarish schyoti.....	88
3. Iqtisodiyot tarmoqlarida yalpi mahsulotni hisoblashga doir o'ziga xos xususiyatlar.....	97
4. Daromadlarning shakllanishi schyoti.....	113
5. Birlamchi daromadlar taqsimoti schyoti.....	118
6. Daromadlarning qayta taqsimlash schyotlari.....	136
7. Daromadlarning ishlatilishi schyotlari.....	143
8. Kapital sarflar schyoti.....	148
9. Moliya schyoti.....	155
10. Aktiv va passivlarda boshqa o'zgarishlar schyoti.....	160
11. Aktiv va passivlar balansi schyoti.....	162
12. Tashqi dunyo sektori schyotlari.....	165
13. Tovarlar va xizmatlar yig'ma schyoti.....	198

VIII-BOB. MILLIY HISOBLAR TIZIMIDA KO'RSAT-KICHLARNI O'ZGARMAS BAHOLARDA HISOBLASH USULLARI	234
1. Ko'rsatkichlarni o'zgarmas baholarda hisoblash zarurati.....	234
2. Milliy hisoblar tizimi ko'rsatkichlarini o'zgarmas baholarda baholash usullari.....	236
IX-BOB. TO'LOV BALANSI - TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT HISOBOT TIZIMI	244
1. To'lov balansining qisqacha mohiyati va rivojlanish tarixi.....	244
2. To'lov balansini tuzish tartibi.....	245
3. To'lov balansining ko'rsatkichlar tarkibi.....	247
4. To'lov balansida operatsiyalarni baholash.....	251
5. To'lov balansining axborot bazasi.....	253
6. To'lov balansida operatsiyalarni qayd etish.....	255
7. To'lov balansi va xalqaro investitsiyalar balansi.....	258
X-BOB. MILLIY HISOBLAR TIZIMI VA TO'LOV BALANSIDAN AMALIYOTDA FOYDALANISH YO'NALISHLARI	267
Bilimlarni mustaqil tekshirish uchun test savollari	272
Milliy hisoblar tizimida ishlatiladigan asosiy terminlar va ularning qisqacha ta'riflari.....	312
Xotima.....	321
Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati	322

Muqaddima

Hurmatli kitobxon, Siz kitobni qo'lingizga oldingiz. O'ylaymizki, bu asarda yoritilgan mavzular Sizning bozor iqtisodiyoti va uning hisobot tizimi to'g'risidagi bilimlaringizni yanada kengaytiradi, tasavvuringizga aniqliklar kiritadi. Ushbu kitob muallifning mustaqillik yillarida mamlakatimizda hisobot tizimini takomillashtirish yo'lida amalga oshirilgan ishlarning bevosita ishtirokchisi sifatida to'plagan tajribalaridan va ilmiy izlanishlaridan kelib chiqqan holda yozilgan. Unda kundalik hayotimiz bilan uyg'unlashib ketgan bozor iqtisodiyoti va munosabatlariga xos tushunchalarning mohiyatini ochib berishga harakat qilingan. Siz asardan bozor iqtisodiyotiga o'tayotganligimizni ifodalovchi ko'rsatkichlarni bilib olasiz. O'zingiz hayotimizda bo'layotgan iqtisodiy va sotsial jarayonlarni qanday kechayotganligini bilib olishingizga qaratilgan muhim tushunchalar va ko'rsatkichlar tizimi bilan tanishasiz. Bozor iqtisodiyotining murakkab va har birimiz uchun kundalik hayotimizda zarur bo'lgan sir asrorlarini ochasiz.

Mamlakat iqtisodiyoti holatini ko'z bilan ko'rib, uning to'g'risida to'la va to'g'ri tasavvurga kelish qiyin. Bir qarashda, hayot farovonday ko'rinishi mumkin, yoki aksincha, lekin uning nimalar evaziga bo'lganligini, kelajakda bizni nimalar kutayotganligini bilish va mushohada qilish murakkab va keng qamrovli masala. Bu masalani to'g'ri anglash va echimlarini topish ko'p jihatdan iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatayotgan kadrlarning malakasiga, mamlakatda yaxshi yo'lga qo'yilgan hisobot va statistika tizimiga bog'liqdir.

O'zbekistonda hisobot va statistika tizimini takomillashtirishga mustaqillikning birinchi yillaridanoq katta e'tibor berildi. Mustaqillikka erishgungacha bo'lgan davrda O'zbekistonda hisobot va statistika tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan birorta ilmiy dargoh bo'lmagan. 1992 yilning boshida mamlakatda hisobot va statistika tizimini takomillashtirish maqsadida hukumat qarori¹ qabul qilindi. O'zbekistonda xalqaro amaliyotda qabul qilingan, bozor iqtisodiyotiga mos bo'lgan hisobot va statistika tizimini amaliyotga tatbiq etish *dasturi*² ishlab chiqildi.

Dasturga binoan respublikada bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, o'tgan vaqt mobaynida bojxona, to'lov balansi va baho

¹ Hukumat qaroriga ko'ra Davlat statistika qo'mitasi qoshida «Statistika axboroti ilmiy – tekshirish instituti tashkil qilindi. Keyinchalik, Davlat reja va statistika qo'mitalari birlashtirilib Davlat Istiqlol belgilash va statistika qo'mitasi (1997 yilning 15 maydan boshlab Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi) tuzilgandan so'ng shu vazirlik qoshidagi institutga birlashtirildi.

² Ushbu dastur Vazirlar Mahkamasining 1994 yilning 24 avgustdagi 433 – sonli qarori bilan tasdiqlandi.

statistikasi barpo qilindi. Moliya, byudjet, bank, aholi, mehnat, ijtimoiy va ishlab chiqarish tarmoqlari statistikalari xalqaro andozalarga mos ravishda takomillashtirildi. Bozor munosabatlariga mos tarmoqlar, sektorlar, operatsiyalar tasniflari amaliyotga tatbiq etildi. Bozor munosabatlariga mos bo'lgan ishlab chiqarish va daromad konsepsiyalari va ularning hisobot tizimlari amalda ishlatilyapti. Tarmoqlararo balans jadvallarini tuzish ishlari boshlab yuborildi. Iqtisodiy jarayonlarni ifodalovchi yangi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi bunyod etildi va amaliyotga tatbiq etildi. Xo'jalik yurituvchi birliklarning yagona davlat ro'yxati tashkil qilindi. Hisobga olish usullari zamonaviy komp'yuterlar asosida takomillashtirildi.

Darhaqiqat hozirgi kunda: tayyorlanayotgan mutaxassislariga real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi mavjud talabga alohida e'tibor bergan holda, o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish sohasidagi moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, undan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash, davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'qub-uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish eng dolzarb va asosiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi³.

Mamlakatda milliy hisobchilik kurtak yoza boshladi. Davlat statistika departamentida milliy hisoblarni tuzadigan bo'limlar tashkil etildi. Hozirgi kunda mamlakatda milliy hisobchilik asoslarini egallagan yuzlab malakali mutaxassislar etishib chiqdi. Oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlariga milliy hisobchilik asoslarini yorituvchi kurslar kiritildi.

Mamlakatning ravnaqi birinchi navbatda rahbar va ishbilarmonlarning, iqtisodchi olimlarning, qolaversa xalqning bilim saviyasiga bog'liq. Hayotimizning darajasi va har bir daqiqasi iqtisod bilan bog'liq. Tuganmas boyliklarga va resurslarga ega bo'lish, ko'p harakat qilish, ishlash va pul topish hali farovonlik degani emas. Eng asosiysi bu kuchni va resurslarni to'g'ri yo'naltirish va ulardan oqilona foydalanish yo'llarini bilish kerak. Buning uchun, iqtisodiyotning hozirgi holatini bilgan holda uning farovonlikka olib keladigan rivojlanish yo'lini amalga oshirish kerak.

2011 yili mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 108,3 foiz, sanoatda o'sish – 109,3 foiz, qishloq xo'jaligida – 105,8 foiz hajmida bo'lishi ko'zda tutilmoqda. Inflyasiya darajasi 7-9 foiz atrofida bo'lishi nazarda tutilmoqda⁴.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barkamol avlod yili» davlat dasturi to'g'risidagi qarori. Toshkent oqshomi, 2010 yil 28 yanvar

⁴ Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzası. //Xalq so'zi, 2011 yil 22 yanvar.

Hozirgi davrda, iqtisodiyotni yanada tezroq rivojiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni hal qilishda milliy hisoblar tizimi, to'lov balansi, tarmoqlararo balans, moliya balansi va boshqa makroiqtisodiy balanslar imkoniyatlaridan to'la foydalanilyapti, deb bo'lmaydi. Bunga, bir tomondan, bu mavzulardagi ilmiy va o'quv adabiyotlarning kamligi (ayniqsa o'zbek tilida) bo'lsa, ikkinchi tomondan, bozor iqtisodiyoti mazmunini yorituvchi va ifodalovchi tushunchalar, ko'rsatkichlar va ulardan foydalanish usullarini egallagan kadrlarning kamligi va boshqaruv tizimining barcha bo'g'inlarida (oddiy fermerdan to hukumat idoralaridagi rahbarlargacha) keng ommalashmagani sabab bo'lmoqda.

Kelajakda iqtisodiyotning rivojini tashqi dunyosiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Biz milliy iqtisodiyot bilan tashqi iqtisodiyot uyg'unlashib, tovarlar va xizmatlar bozorlarida raqobat muhiti xalqaro miqyosga ko'tarilayotgan davrda yashayapmiz. Mamlakatning farovonligi ko'p jihatdan iqtisodiyotning dunyo "ayvonida" egallagan o'rniga bog'liq. Buning uchun, mamlakatimizdagi har bir ishlab chiqaruvchi birlik o'z faoliyatini dunyo miqyosida raqobat qiladigan darajada tashkil qilishi kerak. Raqobatbardosh bo'lmagan korxonaning kelajagi yo'q.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida hali hamma ishlab chiqaruvchi birliklarning iqtisodiy fikrlashi (mafkurasi) bozor aqidalariga mos keladi, deb bo'lmaydi. Davlat o'tish davrida iqtisodiyot uchun o'ta ahamiyatli ishlab chiqaruvchi birliklarni bozor to'fonidan himoya qilib turishi mumkin. Bunday korxonalar vaqtni aziz bilib, o'z iqtisodiyotlarini, xalqaro amaliyotda qabul qilingan kategoriyalardan kelib chiqqan holda, bozor sharoitiga tayyorlashlari kerak. Chunki, davlat tomonidan "qo'llab-quvvatlash" uzluksiz bo'lmaydi. Har bir korxonada o'z kunini o'zi ko'rishi lozim. Raqobatga chidamagan korxonada o'rnini boshqa korxonaga egallashi muqarrar.

Yuqorida keltirilgan muammolar o'z-o'zidan hal bo'lmaydi. Buning uchun, mamlakatda bozor iqtisodiyoti sir asrorlarini chuqur biladigan, hur fikrlaydigan iqtisodchilarni tayyorlash va borlarini qayta tayyorlash kerak. Shu sohadagi ilmiy izlanishlarni kengaytirish va chuqurlashtirish dolzarbligicha qolmoqda.

Mamlakatimizda malakali mutaxassis xodimlarni tayyorlashga e'tibor katta ekanligini hech kim inkor eta olmaydi. Lekin, masalaga yaqindan yondashganda, kadrlarni tayyorlash darajasi talab darajasida emasligi yaqqol nomoyon bo'ladi. Iqtisodiyot sohasida mutaxassislarni tayyorlaydigan va qayta tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlarida bozor

iqtisodiyotining hisobot tizimi asoslari, unda ishlatiladigan tasniflar, zamonaviy tahlil usullari iqtisod bo'yicha hamma fakultetlarda o'qitilmayapti. O'qitilayotgan fakultetlarda mavzular ko'lami juda tor⁵. Shu sohada olib borilayotgan ilmiy ishlarning ko'lami davr talabidan orqada qolmoqda, chop etilgan o'quv qo'llanmalarning sifatini oshirish zarurati bor. O'quv dasturlari, ko'p hollarda o'qituvchining bilim-saviyasiga moslab tuzilgan, mavzular ko'lami va mazmuni xalqaro andozalar va kvalifikasiya talablariga to'la javob bermaydi.

«Milliy hisoblar tizimi» darsligini tayyorlashda «Milliy hisobchilik asoslari»⁶ nomli monografiyadan keng foydalanilgan. U darslik talablariga mos ravishda qo'shimchalar bilan to'ldirildi va takomillashtirildi. Darslikning har bir qismi asosiy tushunchalar va misollar bilan boyitildi. O'quvchilar olgan bilimlarini mustaqil ravishda sinash uchun test savollari keltirilgan. Test savollari o'qituvchilar tomonidan o'tkaziladigan sinov amaliyotlarida foydalanishga mo'ljallangan.

Darslikning asl nushasi o'zbek tilida kirill yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida yozilgan. Darslikni lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga ko'chirish ishlari G.Yaminova va M. Safarovlar tomonidan bajarilgan.

⁵ «Milliy hisoblar tizimi» kursi Toshkent moliya institutining barcha fakultetlarda, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining faqat 1 fakultetida, Toshkent diplomatiya universitetida 3 fakultetida o'qitilyapti. O'qitilayotgan dars soatlari bor yo'g'i 38 soat. Iqtisod bo'yicha magistraturalarda ham ahvol bundan yaxshi emas.

⁶ B Maxmudov. Milliy hisobchilik asoslari "Akademiya" nashriyoti, Toshkent, 2003y

I-BOB. MILLIY HISOBCHILIK, UNING YUZAGA KELISH TARIXI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

1. Milliy hisobchilik tushunchasi

Milliy hisobchilik deganda, mamlakat miqyosida bo'layotgan iqtisodiy va sotsial jarayonlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, bu ko'rsatkichlarni hisoblash metodologiyasi va usullari tushuniladi. Milliy hisobchilik, dastlabki davrlarda (XVII-XIX asr) asosan mamlakat miqyosida yaratilgan milliy daromadni hisoblashga qaratilgan edi. Hozirgi zamon milliy hisobchiligi nazariy va amaliy jihatdan o'ta yuksak darajada rivojlangan hisobot tizimi bo'lib, mamlakatdagi va uning tarmoqlari va sektorlaridagi iqtisodiy va sotsial jarayonlarni to'la aks ettirishga qaratilgan. Bu tizimda qabul qilingan hisoblash usul va uslublari, tasniflar va tushunchalar boshqa hisobot (buxgalteriya, moliya, bank hisobotlari va boshqalar) va statistika tizimlari (moliya, bank, bojxona, baho va h.k. statistikasi) bilan uyg'unlashtirib tuzilgan.

Hozirgi vaqtda amaliyotda ishlatilayotgan milliy hisobchilik tizimi «Milliy hisoblar tizimi» (MHT) deb nom olgan. Bu tizim hozirgi vaqtda xalqaro standart sifatida er yuzining 160 dan ortiq mamlakatlar amaliyotida ishlatilyapti. Bu tizim, iqtisodiyoti bozor iqtisodiga asoslangan mamlakatlarda bo'layotgan iqtisodiy va sotsial jarayonlarni to'laqonli aks ettirishga qaratilgan. MHTda mamlakatda bo'layotgan ishlab chiqarish, iste'mol, jamg'arish, investitsiya jarayonlari, mamlakatning moliyaviy holati va chet el bilan bo'lgan iqtisodiy hamkorligining natijalari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan schyotlarda ifodalanadi.

MHT iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslangan rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda vujudga keldi. Dastlab bu mamlakatlarda hisobot tizimiga zarurat unchalik sezilmadi. Lekin, ilg'or texnologiyalarning rivojlanishi, kapitalistlarning yuqori darajada foyda olishga intilishlari tovarlar ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasida nomutanosibliklarni keltirib chiqara boshladi. Natijada, talab va taklif o'rtasidagi muvozanat buzilib, iqtisodiy inqiroz (krizis)lar sodir bo'la boshladi. Bunday inqirozlar XIX-asrning oxiri va XX asrning boshlariga kelib butun dunyo kapitalizmini qamrab ola boshladi. Ayniqsa, 1929-1933 yillardagi «buyuk inqiroz» yillari kapitalistlarning sillasini quritdi, bu mamlakatlarda sotsial va siyosiy noroziliklar yuzaga kela boshladi. Pirovardida, aholining katta qatlamlari qashshoqlashdi, kapitalistlar esa ishlab chiqargan mahsulotlarini sota olmay katta zarar ko'rdilar.

Mamlakatda talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni tiklash juda katta mablag'larni va vaqtni talab etadi. Bunday inqirozlarga asosiy sabab, bu mamlakatlarda mamlakat iqtisodiyotiga chetdan ta'sir o'tkazish (davlat idoralari tomonidan uni boshqarish yoki to'g'ri izga yo'naltirish) inkor qilinish kelinar edi. Shu davrga qadar bu mamlakatlarda «bozor iqtisodiyotining tabiatida bunday inqirozlarni oldini olish mexanizmi bor, bozorda bahoning o'zgarishi talab va taklifni muvozanatlashtiradi» degan nazariya hukm surardi. Lekin, 1929-1933 yilgi kapitalistik davlatlarning chuqur inqirozi kapitalistlarning ko'zini ochdi. Ular, bunday inqirozlarning oldini olish yo'llarini o'rganish zarurligini tushunib etdilar. Bozor iqtisodiga asoslangan iqtisodiyot talab va taklif o'rtasidagi muvozanat buzilganda ishlamasligi va bu muvozanatni tiklashda davlatning aralashuvi zarurligi his qilindi. Mamlakatda bozor muvozanatini tiklash uchun mamlakat miqyosida zarur choralar ko'rish va uning oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini tug'dirdi. Bunday ishlarni amalga oshirish mamlakat miqyosida hisob-kitoblarni yuritishni taqozo etadi. Chunki, to'laqonli axborotsiz mamlakat iqtisodiyotini ma'lum bir yo'lga yo'naltirish va boshqarish mumkin emas. Shu davrdan boshlab, kapitalistik dunyodagi mamlakatlarda mamlakat miqyosida hisobotlar yuritish zarurati tan olindi va bu sohadagi ishlar keng ko'lamda rivojlana boshladi.

Shuni aytish joizki, yarim asrdan ortiq bo'lgan davrda dunyo mamlakatlarida hisobot tizimi uch evolyutsion bosqichni o'tab, to'laqonli hisobot tizimi sifatida shakllandi. Lekin, shunga qaramay, dunyo mamlakatlarida global miqyosda moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, XX-asrning oxiri va XXI-asrning boshlarida Amerikada yuzaga kelgan moliyaviy inqiroz 2007-2008 yillarga kelib butun jahon mamlakatlarini o'zining domiga torta boshladi. Albatta, bu jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan O'zbekiston ham chetda qolmadi. Chunki, ".....O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi"⁷.

Bunday inqirozlarlarning kelib chiqishi va uning dunyo miqyosida tarqalib ketishining asosiy sabablaridan biri - birinchi navbatda mavjud hisobot tizimi tamoyillariga mos ravishda hisobot ko'rsatkichlarining ishlab chiqilmaganligi yoxud ularning keng ommaga oshkor etilmaganligi bo'lsa, ikkinchidan, hisobot tizimidan foydalanuvchilarning (siyosatdonlarning, xalqaro moliya institutlarining) mamlakat va jahon miqyosida kutilishi mumkin bo'lgan moliyaviy-iqtisodiy xavfni ko'ra

⁷ Karimov I A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni barataraf etishning yo'llari va choralar. - Toshkent O'zbekiston, 2009 11-b

bilmasliklari yoki ko'ra bila turib uning oldini olish chorasini ko'rmaganliklari hamda dunyo ahlini ogohlikka chaqirmaganliklaridir.

Shuni aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezident I.A.Karimov boshchiligida bu sohada o'ta hushyor moliyaviy-iqtisodiy siyosatni yuritib, mamlakatga yopirilib kelayotgan iqtisodiy inqirizning oldi olindi. Inqiriz yetib kelishidan qarib 2 yil avval, mamlakat bank-moliya tizimining raqobatbardoshligini ta'minlash borasida tegishli choralar ko'rildi. Mamlakatda jahon moliya-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini kamaytirish va bartaraf etish, inqiroz davrida iqtisodiyot real sektori bazaviy tarmoqlarining iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorligini ta'minlash, eksport qiluvchilar, sanoatning yetakchi tarmoqlari hamda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus farmoni qabul qilindi⁸.

Shuni ta'kidlash lozimki, samarali iqtisodiy siyosatni yuritishda milliy hisobchilikning qay darajada shakllanganligi muhim ahamiyatga egadir. Chunki, milliy hisoblar iqtisodiy siyosat yuritishda asosiy qurol hisoblanadi.

2. Xalq xo'jaligi balansi tizimi

1917 yilda sotsialistik inqilob g'alaba qozongandan so'ng er yuzida sotsialistik tizimga asoslangan davlat vujudga keldi. Dunyo ikki lagerga - kapitalistik va sotsialistik lagerga bo'lindi. Sotsialistik tizim mamlakatlarida iqtisodiyot markazdan rejali-ma'muriy boshqarishga va moddiy resurslarni markazdan taqsimot usuligi asoslangan. Bu tizimda iqtisodiy ishlab chiqarish negizida moddiy ishlab chiqarish yotadi. Mamlakat iqtisodiyotini boshqarish hisobot tizimini joriy etishni taqozo etadi. Shu sababli, bu mamlakatlarda hisobot tizimini yaratishga katta e'tibor qaratildi. Bu tizimdagi hisobot tizimi "Xalq xo'jaligi balansi" (XXB) deb ataldi. Ma'lumki, har qanday hisobot tizimi mos ravishda shu tizimning tabiatidan kelib chiqqan holda qabul qilingan siyosiy iqtisod nazariyasiga asoslanadi. XXB hisobot tizimini yaratishda metodologik asos sifatida dastlab Adam Smit tomonidan yaratilgan va keyinchalik K.Marks tomonidan rivojlantirilgan g'oyalar qabul qilingan. Bu g'oyaga ko'ra, iqtisodiy ishlab chiqarish deganda, faqat moddiy ne'matlarni yaratish va bu moddiy ne'matlarni iste'molchiga yetkazish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar (moddiy ishlab chiqarishni davomi sifatida) sohalari tushuniladi.

⁸ Karimov I A Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar - Toshkent O'zbekiston, 2009 5-20-b

Ularning fikriga ko'ra, xizmatlar ko'rsatish faoliyatlari noishlab chiqarish sohalari deb qaralib, iqtisodiy faoliyat qatoriga qo'shilmaydi. Va, xizmat ko'rsatish sohalari milliy daromad yaratilmaydi, deb qaraladi. Xizmat ko'rsatish sohalari milliy daromadni iste'molchisi sifatida qaraladi. Bu g'oyalar asosida qurilgan sotsialistik mamlakatlarda moddiy ishlab chiqarish sohalari rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratildi va xizmat ko'rsatish sohalari ikkilamchi sohalari deb qaralib, ularning kam rivojlanishiga sabab bo'ldi.

XXB hisobot tizimi sotsialistik tizimdagi mamlakatlarning hisobot tizimi bo'lib, u shu tizimga mos siyosiy iqtisod nazariyasi asosida qurilgan. Bu tizim sotsialistik tizim tabiatidan kelib chiqqan holda, shu tizimda bo'layotgan iqtisodiy va sotsial jarayonlarni mufassal ifodalashga qaratilgan tizimdir. 1953 yilda Birlashgan millatlar tashkilotiga (BMT) XXB tizimini xalqaro standart sifatida qabul qilish taklifi kiritildi. Lekin, BMT statistika hay'ati XXBni xalqaro standart sifatida qabul qilmadi. Bu tizim 1990 yillarning yarmigacha sotsialistik lagerdagi mamlakatlarda rasmiy hisobot tizimi sifatida amaliyotda qo'llanib kelindi.

3. Milliy hisoblar tizimining yuzaga kelishi tarixi

Hozirgi MHTni vujudga kelishi bir qancha intellektual manbalarga ega. Ularning ichida eng qadimgilaridan biri milliy daromad ko'rsatkichini hisoblash (baholash)dir. Bunday hisoblarni bajarishga urinishlar XVII asrning oxirlarida Evropa mamlakatlari - Angliya, Gollandiya va Fransiyada sodir bo'ldi. Bu davrda iqtisodchilarni asosan mamlakatda yaratilgan milliy daromad, boyluk ko'rsatkichlarini hisoblash va natijada armiya va davlat xarajatlarini moliya bilan ta'minlash muammolari qiziqtirar edi. Shunday qilib, iqtisodchilardan Peti (1665 -1676 yy.) va King (1696 y.) Angliyada, Voban (1707 y.) Fransiyada milliy daromad qiymatini hisoblab chiqdilar. Bu hisoblarni bajarishdan asosiy maqsad, mamlakatda yig'ilayotgan soliq miqdorini bilish va kelajakda uning tushumini ko'paytirish choralarini ko'rish edi. Bu hisoblarni basharish jarayonida, qo'yilgan maqsadga yarasha, mamlakatda yig'ilayotgan soliqlar tarkibi va manbalari bo'yicha axborotlarni ishlab chiqdilar. Bundan tashqari, hisoblarni bajarish usullari va manbalari o'rtasidagi bog'liqliklar ishlab chiqildi. Natijada, soliqlar tarkibi (egri va to'g'ri, mahsulotlarning guruhlari bo'yicha) va hajmi to'g'risidagi axborotlarga ega bo'lindi. Bu esa, soliq miqdorini (stavkasi) belgilash va istiqbolda yig'ilishi mumkin bo'lgan soliq miqdorini aniqlashga imkon yaratdi.

XVIII asrga kelib iqtisodiy ilm sohasida asosiy e'tibor ishlab chiqarish jarayonini o'rganish va hisobga olish muammolariga qaratildi. Natijada, milliy daromad ko'rsatkichini hisoblash ma'lum bir ishlab chiqarish chegarasida amalga oshirildi. O'sha davrdagi iqtisodiy nazariyaga asoslanib ayrim faoliyatlar ishlab chiqarish sifatida hisobga olindi, boshqa faoliyatlar esa ishlab chiqarish sifatida hisoblanmadi. Masalan, Fransiyada (Marshall) xizmatlar moddiy ishlab chiqarish bilan bir qatorda ishlab chiqarish sifatida qaralgan bo'lsa, Angliyada (A.Smit) xizmatlar ishlab chiqarish sifatida qaralmadi. Bunga asosiy sabab, bu davrlarda xizmat ko'rsatish sohasining kam rivojlanganligi va ular salmog'ining umumiy ishlab chiqarish hajmida ozligidir. Bundan keyingi davrlarda milliy hisobchilikning rivojiga fransuz iqtisodchisi, fiziokrat F.Kene (Iqtisodiy jadval), K.Marks (oddiy va kengaytirilgan ishlab chiqarish nazariyasi), A.Marshall, angliyalik olim K.Klark, amerikalik iqtisodchi S.Kuznes va J.M.Keynslar katta hissa qo'shdilar.

XVIII asr o'rtalarida fiziokratlar sardori bo'lgan fransuz iqtisodchisi F.Kene o'zining «Iqtisodiy jadval»ini tuzib, bu jadval orqali oddiy tovar ishlab chiqarish va kengaytirilgan tovar ishlab chiqarish jarayonlarini ifodalab, mamlakat iqtisodiyotining yaxlit tizim sifatida qanday rivojlanayotganligini o'rganishga harakat qildi. Albatta bu, milliy hisobchilik sohasida qo'yilgan muhim qadamlardan biri edi. Lekin, shuni aytish lozimki, F.Kening «Iqtisodiy jadval»ida qo'llanilgan g'oyalar va tushunchalar amaliyot sinoviga uzoq vaqt dosh beraolmadi. Shulardan biri, ishlab chiqarish konsepsiyasi edi. Kene qarashiga ko'ra, faqat qishloq xo'jaligi va kon sanoati ishlab chiqarish sifatida qaraldi va uning fikriga ko'ra faqat shu sohalardagina qiymat yaratiladi.

Makroiqtisodiy tahlilning rivojiga munosib hissa qo'shgan K.Marks, oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish nazariyasini yaratdi. Bu nazariyaga asosan u mamlakat iqtisodiyotida bo'layotgan jarayonlarni bilishga va tushuntirishga imkon yaratadigan modelni tuzishga harakat qildi.

Mashhur iqtisodchi A.Marshall (1925 y.) birinchilar qatorida milliy daromadni hisoblash prinsiplarini ishlab chiqdi. U milliy daromad ko'rsatkichini quyidagicha ta'rifladi. Mamlakatning kuzatilayotgan davrdagi sof daromadi mamlakatda ishlab chiqarilgan hamma tovarlarning, xizmatlarning va chet el investitsiyasidan olingan sof daromadlarning yig'indisidan shu tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda ishlatilgan tovarlar va asosiy kapital amortizatsiyasi qiymatini ayirilganiga teng. Milliy

daromadning bu ta'rifi o'tgan davrlarda juda kam o'zgardi va uning o'zagi MHTda hozirgi zamon talabidan kelib chiqqan holda rivojlanirildi.

Milliy daromad statistikasini va milliy hisobchilik rivojiga angliyalik olim K.Klark va amerikalik iqtisodchi S.Kuznetslar ham juda katta hissa qo'shdilar. Ular milliy daromadni hisoblash va MHT schyotlarini tuzish uslubiga bir qator oydinliklar, aniqliklar kiritdilar. Masalan, K.Klark uy xo'jaliklarining o'z uylarida turganliklari uchun «shartli ravishda hisoblangan ijara» miqdorini milliy daromad tarkibiga qo'shish kerakligini asoslab berdi. Bundan tashqari, u inflyatsiya natijasida qiymat o'sishini milliy daromaddan chegirishni va milliy daromadni bozor baholarida hisoblashni taklif qildi. K.Klark birinchilar qatorida milliy daromad va milliy mahsulot kategoriyalarining farqiga bordi va milliy hisoblarni choraklar mobaynida hisoblash zarurligini asoslab berdi. Uning bu sohada qilgan ishlari hozirgi zamon milliy hisobchiligida keng ishlatilayapti.

S.Kuznes makroiqtisodiyot va milliy hisobchilik sohasida uning asosiy tushunchalari va qoidalariga muhim takliflar kiritdi. Jumladan, milliy boylik va milliy daromad kategoriyalariga, davlat boshqaruv idoralarining nobozor xizmatlarini baholash usullariga aniqliklar kiritdi. U, pirovard iste'molni oraliq iste'moldan farqlash zaruratini va davlat boshqaruv idoralarining ko'rsatayotgan xizmatlarini qay birini pirovard iste'mol yoki oraliq iste'mol sifatida qarash kerakligini asoslab berdi. Uning fikriga ko'ra, davlat boshqaruv idoralarining aholiga ko'rsatgan xizmatlarining bevosita foydasi bo'lgan qismi (meditsina, maorif, madaniyat va san'at sohalari) milliy daromad tarkibiga kiritilishi lozim. Qolgan xizmat sohalarini (militsiya, havfsizlik va mudofaa, umumdavlat boshqaruvi) oraliq iste'mol sifatida qarash va bular milliy daromad tarkibiga qo'shilmaligi kerak, degan g'oyani ilgari surgan. Lekin, uning bu takliflari MHTda inobatga olinmay, davlat boshqaruv idoralarining hamma xizmatlari pirovard iste'mol sifatida qaraladigan bo'ldi.

1930-yillar boshlarida Kuznes o'zining «Sotsial fanlar ensiklopediyasi» asarida Amerika qo'shma shtatlari (AQSH) milliy daromadini hisoblash prinsiplarini ifodalab berdi. Bu asarda u, jumladan, milliy daromadni uchta usul: ishlab chiqarish, daromad va iste'mol usullari bilan hisoblash mumkinligini asoslab berdi. Natijada, hisoblangan «milliy daromadlar» bir-biridan farqli bo'lib, ularning axborot manbalari turli iqtisodiy jarayonlarni ifodalashi ko'rsatib berildi. Bu esa, iqtisodiy tahlilning maqsadi va yo'nalishiga mos ravishda milliy daromadni hisoblash usuli va axborot manbalarini tanlash imkonini yaratdi. Masalan, milliy daromadni hisoblashning «ishlab chiqarish usuli» va uning

ko'rsatkichlar tizimi mamlakatning tarmoqlari va sektorlarida ishlab chiqarishning holati qandayligini bilishga va bu jarayonlarni tahlil qilish uchun etarli imkon yaratadi. Milliy daromadni hisoblashning «daromad usuli» yaratilgan milliy daromadni mamlakat iqtisodiyotida qatnashuvchilar o'rtasida qanday taqsimlanganligini, natijada iqtisodiyot sektorlarining iqtisodiy faoliyat natijasida qay miqdorda birlamchi daromadlarga ega bo'lganliklarini ifodalaydi. Milliy daromadni hisoblashning «iste'mol usuli» mamlakatda yaratilgan milliy daromadning qanchasi pirovard iste'molga va eksportga ishlatilganligini, mamlakat miqyosida jamg'arishning (asosiy kapitalning yig'ilmasi, aylanma fondlarning o'sishi yoki kamayishi, sof aktivlar) ko'lamini bilishga imkon beradi.

Shuni aytib o'tish lozimki, milliy daromadni ishlab chiqarish, daromad va iste'mol nuqtai nazaridan tahlil qilish g'oyasini sovet iqtisodchisi A.Pervuxin 30-yillarning boshlarida Kuznes ishlaridan xabarsiz, mustaqil ravishda ishlab chiqqan. Kuznesning MHTni rivojiga qo'shgan hissasining buyukligi shundan iboratki, u milliy daromadni hisoblashning «iste'mol usuli»ni amaliyotga tatbiq etdi. Uning boshchiligida AQSHning 1929-1932 yillardagi milliy daromadi hisoblanib, AQSH Kongressi tamonidan chop etildi. Kuznesning milliy hisobchilikni va milliy daromad konsepsiyasini nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirishga qo'shgan xizmatlari munosib taqdirlanib, bu sohadagi ishlari uchun u Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi.

Milliy daromad konsepsiyasi nazariyasini yaratilishida va uning amaliyotda qo'llanishiga amerikalik iqtisodchilar M.Jilbert, E.Denison va D.Yassilar katta hissa qo'shdilar. Ularning rahbarligi ostida AQSHning milliy daromad va milliy mahsulot ko'rsatkichlarini hisoblash uchun schyotlar tarkibi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi. Natijada, AQSHning 1929-1946 yillar uchun milliy daromad va milliy mahsulot ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi va chop etildi.

Milliy hisobchilikni rivojlanishida buyuk rus iqtisodchi olimi V.Leontevning ham hissasi katta bo'ldi. U mamlakat iqtisodiyotida sodir bo'layotgan jarayonlarni uning tarmoqlari o'rtasidagi bog'lanishlar orqali ifodalash usulini ishlab chiqdi. Bu usul tarmoqlararo balans deb nom oldi. Bu usul orqali tarmoqlararo bog'liqliklarni matematik usullar yordamida ifodalab, ularning matematik tenglamalarini ishlab chiqdi. Tarmoqlararo balans usulining yaratilishi mamlakat iqtisodiyotini modelini yaratishga imkon yaratdi. Bu model orqali mamlakatning kelajakdagi ravnaqini prognoz qilish masalalarini, har xil ssenariylar asosida iqtisodiy siyosatning natijalarini baholash va maqbul iqtisodiy siyosat yo'nalishlarini

tanlab olish imkonini yaratdi. V.Leontev tarmoqlararo balans sohasidagi ishlari uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

Milliy hisobchilikning yuzaga kelishi jarayonida uch bosqich yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchi bosqich - XVII asrning ikkinchi yarmidan 1930 yilgacha bo'lgan davr. Ikkinchi bosqich – 1930 yildan 1945 yilgacha bo'lgan davr. Uchinchi bosqich – 1945–1953 yillar.

Birinchi bosqich yillarida milliy hisobchilik ilk bor kurtak yoza boshladi. Ilk bor mamlakat miqyosida hisoblar yuritishga qiziqishlar ayrim olim va iqtisodchilarda tug'ildi. Ular, shu davrlardagi mavjud siyosiy iqtisod nazariyasidan kelib chiqqan holda milliy daromad (mahsulot) ko'rsatkichlarini hisoblab chiqdilar. Bu davrlarda, milliy hisobchilik yagona bir tizim sifatida shakllanmadi. Bu ko'rsatkichlarga iqtisodiyotni boshqarish (iqtisodiyotga ta'sir o'tkazish) quroli va mamlakat e'tiboridagi ish sifatida qaralmadi. Bu davrdagi izlanishlar milliy hisobchilikning yuzaga kelishiga nazariy va amaliy poydevor yaratdi.

4. Milliy hisobchilikning taraqqiyot bosqichlari

Yuqorida qayd etilgan izlanishlardan keng foydalanilgan holda va ularni zamon talabi asosida rivojlantirish natijasida Amerikada XX asrning 30 - yillarida **yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichini** hisoblash konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bundan asosiy ko'zlangan maqsad mamlakatda kechayotgan iqtisodiy jarayon natijalarini bilish edi. Bu holda ham shu davrda mavjud iqtisodiy nazariya bilan hisoblash mazmuni o'rtasida uzviy bog'liqlik saqlangan edi.

1940 yildan keyingi davrlarda iqtisodiy nazariyada 3 ta yo'nalish vujudga keldi. Bu yo'nalishlardan **birinchisi** - Keynsning (1936 y.) **makroiqtisodiy nazariyasi** edi. Bu nazariyaga asosan, iqtisodiyotni (iqtisodiy jarayon natijalarini) o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan o'zgaruvchilar orqali ifoda etish mumkin.

Ikkinchi yo'nalish (Marshall, 1990y.) iqtisodiyot holatini iqtisodiyot sektorlari o'rtasida bo'layotgan iqtisodiy operatsiyalar orqali ifodalashga asoslangan.

Uchinchi yo'nalish - tovar va xizmatlarning ishlab chiqarish jarayonida holatini o'zgarishi yoki harakatini (ishlab chiqarish, qayta ishlab chiqarish, iste'mol jarayonlari) kuzatishga asoslangan (fiziokratlar, Kuesney, 1760 y.; Rikardo, 1817 y.; Marks, 1885 y.). Bu yo'nalish amaliyotga tatbiq etilishi uchun ancha vaqt sarflandi. Keyinchalik, bu yo'nalish Leontevning tarmoqlararo balans jadvallarida o'z rivojini topdi.

Hozirgi zamon milliy hisoblar tizimi (MHT) yuqorida keltirilgan uch yo'nalishning uzviy birikishi natijasida yuzaga keldi. Dastlab, 1952 yilda Birlashgan millatlar tashkilotining (BMT) statistika departamenti tashabbusiga binoan R.Stoun rahbarligida iqtisodchilar tomonidan MHTning birinchi umumlashgan metodologiyasi ishlab chiqildi va xalqaro standart sifatida amaliyotda qo'llash uchun tavsiya etildi. 1968 yilda, o'tgan 16 yil mobaynida iqtisodiy statistika nazariyasi va amaliyotida to'plangan tajribalar umumlashtirilib MHTning ikkinchi namunasi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etish uchun tavsiya qilindi. 1970-80 yillarda mamlakatlar o'rtasida (ayniqsa Evropada) iqtisodiy integratsiya yanada kuchaydi. MHT amaliyoti va nazariyasida ham bir qancha o'zgarishlar yuz berdi. 1993 yilning boshlarida MHTning yangi - uchinchi namunasi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etish uchun tavsiya qilindi. Uning asosini (tarmoqlararo balans jadvallari, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi, iqtisodiy sektorlar va ularning o'zaro munosabatlarini xarakterlovchi operatsiyalar) yuqorida qayd etilgan iqtisodiy nazariyadagi uch yo'nalish tashkil etgan.

Yuqorida keltirilgan MHTning rivojlanish tarixiga asoslanib shuni aytish mumkinki, MHT mamlakatlar iqtisodiyotida kechayotan jarayonlarni aks ettirishga qaratilgan va iqtisodiy nazariyada mavjud bo'lgan eng muhim yo'nalishlarni o'zida mujassamlashtirgan hisobot va statistika tizimidir.

5. Milliy hisobchilikni yuritish zarurati

Milliy hisobchilikni yuzaga kelish tarixiga nazar tashlasak, u dastlabki davrlarda ayrim iqtisodchi olimlarning o'z mamlakatlarining salohiyatini bilishga va mamlakatning umumxarajatlarini qoplash uchun soliq miqdorini aniqlashga bo'lgan qiziqishlar hosilasi sifatida paydo bo'ldi. Keyinchalik iqtisodiyotning sifat jihatdan tez rivojlanishi, iqtisodiyotda xizmatlar nufuzining oshishi va iqtisodiyotning tez sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keluvchi yangi ishlab chiqarish usullari va texnologiyalarning joriy etilishi talab va taklif muvozanatini tez-tez buzilishlariga olib kela boshladi. Shu davrlardagi iqtisodiy nazariyaga asosan «bozor iqtisodiyotida iqtisodiyotni tashqaridan, ya'ni hukumat tomonidan boshqarish zarurati yo'q» deb hisoblanar edi. Chunki, bozor iqtisodiyotida iqtisodiyot bozor qonunlari asosida, ya'ni talab va taklif asosida ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi, deb qaralar edi. Lekin, XX asrning boshlariga kelib, fan va

texnikaning taraqqiyoti va yangi ishlab chiqarish texnologiyalarining amaliyotga keng tatbiq etilishi natijasida yirik ishlab chiqarish korxonalari vujudga kela boshladi. Natijada, foyda normasi katta bo'lgan tovarlar ko'plab ishlab chiqarilib, ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi nomutanosibliklar vujudga keldi, talab va taklif o'rtasidagi muvozanat buzildi. Bozordagi muvozanatning buzilishi mamlakatlarda inqiroz (krizis)larni yuzaga keltirdi. Bu esa mamlakatlarda iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir etib, bir tomondan ishlab chiqaruvchilarning aylanma mablag'larini kamayishiga va ishlab chiqarishni qisqartirishga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan aholi o'rtasida ishsizlikni yuzaga keltirdi, uning turmush darajasini pasayishiga sabab bo'ldi. Natijada, jamiyatda noroziliklar yuzaga keldi, siyosiy tuzum inqirozi xavfi tug'ildi. Shu davrga kelib, bu mamlakatlarda iqtisodiyotni o'z holiga qo'yib bo'lmasligi, uni boshqarish zarurligiga tushunib etildi⁹. Ma'lumki, mamlakatda boshqarish usuli (ma'muriy yoki iqtisodiy) qanday bo'lishidan qat'iy nazar, u mamlakatning iqtisodiy holatini ifodalovchi axborot bazasiga tayanadi. Shu sababli, XX asrning 30 - yillariga kelib rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda mamlakatning iqtisodiy-sotsial rivojlanish holatini ifodalovchi tizim – MHTni yaratishga kirishildi. Uni yaratishdan maqsad, uning yordamida mamlakat iqtisodiyotini iqtisodiy usullar bilan taraqqiyotga yo'naltirish va kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan inqirozlarni oldini olishdan iborat. Shu davrdan boshlab, bu mamlakatlarda MHTni yaratish, uni takomillashtirish va axborot bazasini yaratish davlat miqyosidagi vazifa darajasiga ko'tarildi.

6. Milliy hisobchilikning mamlakatlararo iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishidagi roli

Ikkinchi jahon urushi arafasida Amerika qo'shma shtatlarida va boshqa rivojlangan Evropa mamlakatlarida mamlakat miqyosidagi hisoblarning amalga oshirilishi bu mamlakatlarda iqtisodiyotning holatini va inqirozlarning sabablarini o'rganishda katta ahamiyat kasb etdi. Bu hisoblarning mohiyati va nufuzi yildan-yilga oshib bordi. Ayniqsa, mamlakat miqyosidagi hisoblarning ahamiyati II jahon urushi tugagandan so'ng yanada ortdi. Chunki, urush natijasida juda ko'p mamlakatlar vayron bo'ldi, iqtisodiyot butunlay izdan chiqdi. Bu mamlakatlar iqtisodiyotlarini

⁹ Shu davrda ijtimoiyijtimoiyistik lagerga kiruvchi mamlakatlarda mamlakat iqtisodiyoti yuqoridan ma'muriy boshqarish usuli bilan boshqarilayotgan edi. Bu mamlakatlarda hisobot tizimi sifatida Xalq xo'jaligi balans tizimi ishlab chiqilgan edi

o'z kuchlari bilan tiklashi uchun bir qancha o'n yilliklar talab etilar edi. Bu mamlakatlarga iqtisodiyotni tiklash uchun chetdan yordam juda zarur edi. Bir mamlakatning ikkinchi mamlakatga iqtisodiyotni tiklashga yordam berishi uchun, albatta u mamlakat iqtisodiyoti holati to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Chunki yordam ob'ekti va adresini bilmasdan turib yordam berish mumkin emas. Shu davrga kelib, mamlakatlarda yuritilayotgan hisoblar tuzilishi metodologiyasi, uslublari va qoidalari hammaga tushunarli bo'lishi uchun yagona metodologiya, uslublar va qoidalar asosida ishlab chiqilishi zarurati tug'ildi. 1945 yilda tuzilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti bu masalani ijobiy hal qilishga turtki berdi va xalqaro miqyosda Milliy hisoblar tizimini yaratilishiga asos solindi. MHTni xalqaro miqyosda yagona metodologiya asosida yaratilishi mamlakatlararo yagona «statistik til»ni vujudga keltirdi va integratsiyaning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Jahon iqtisodiyotida bo'lishi mumkin bo'lgan inqirozlarning oldini olishga imkon yaratadi. MHTning vujudga kelishi va xalqaro miqyosda amaliyotga tatbiq etilishi dunyo mamlakatlarida kechayotgan jarayonlarni bilishga va ulardan ibrat olishga, ishlab chiqarish kuchlaridan, mehnat va investitsiya resurslaridan oqilona foydalanishga, ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga, pirovard natijada dunyo xalqlarining farovon yashashiga imkon yaratadi.

Asosiy termin va tushunchalar

1. Milliy hisobchilik - mamlakat miqyosida yuritiladigan hisob-kitoblar tizimidan iborat. Unga misollar: MXT, XXB tizimi.

2. MHT asosini iqtisodiy nazariyadagi uch yo'nalish tashkil etadi. Birinchisi - Keynsning makroiqtisodiy nazariyasi, ikkinchisi - Marshallning sektorlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar va bog'liqliklar nazariyasi va uchinchisi - Leontevning tarmoqlararo balans jadvallari.

3. Ishlab chiqarish konsepsiyasi - ishlab chiqarish faoliyatini ifodalovchi va hisobga olish tartib qoidalaridan iborat. Ishlab chiqarish va iqtisodiy ishlab chiqarish bir xil mazmunda qo'llaniladi.

4. Daromad konsepsiyasi - daromad tushunchasini ifodalovchi tartib va qoidalardan iborat.

5. T - ko'rinishidagi schyotlar - ikki ustundan iborat bo'ladi. Schyotlarda ko'rsatkichlar ikki tomonlama yozuvga asolangan bo'lib, schyotning o'ng tomonida iqtisodiy ko'rsatkichlar (turlari bo'yicha), schyotning mazmunidan kelib chiqqan holda, resurs (daromad manbasi)

sifatida keltiriladi. Schyotning chap tomonida ko'rsatkichlar schyotning mazmuniga ko'ra sarf qilinishi yoki ishlatilishi nuqtai nazaridan yoziladi.

Ayrim schyotlar (masalan, ishlab chiqarish, birlamchi daromadlarni taqsimoti, va boshqalar) ikkala tomon ko'rsatkichlari o'rtasidagi saldo (farq)ni ifoda etuvchi ko'rsatkich bilan to'ldiriladi. Ayrim schyotlarning (masalan, daromadlarning shakllanishi schyoti) ikki tomon ko'rsatkichlari saldo ko'rsatkichsiz muvozanatlashgan bo'ladi.

Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar

1. Milliy hisobchilik deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy hisoblar tizimi qachon yuzaga kelgan?
3. Nima uchun kapitalistik mamlakatlarda hisobot tizimi kech shakllangan?
4. Milliy hisobchilikni yuritish nima uchun kerak?
5. Iqtisodiyotni boshqarish nima uchun kerak?
6. Iqtisodiy boshqarish deganda nimani tushunasiz?
7. Milliy hisobchilik nima uchun xalqaro miqyosda standart bo'lishi kerak?
8. Milliy hisobchilikning xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishidagi roli nimadan iborat?

II-BOB. MILLIY HISOBLAR TIZIMI VA XALQ XO'JALIGI BALANSI TIZIMI O'RTASIDAGI ASOSIY FARQLAR VA O'XSHASHLIKLAR

1. Milliy hisoblar tizimi va Xalq xo'jaligi balansi tizimi predmeti va vazifalari

Mamlakat iqtisodiyotining holati, amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalari statistika axborotlari va ularni tahlil qilish natijasida aniqlanadi. Respublikamizning mustaqillikka erishgunga qadar va mustaqillikning dastlabki yillarida “Xalq xo'jaligi balansi (XXB)” hisobot va statistika ko'rsatkichlar tizimi amaliyotda qo'llanib kelindi. 1992-1993 yillardan boshlab mamlakatimizda Milliy hisoblar tizimi (MHT)ga o'tish tadbirlari ishlab chiqildi va bu tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda.

XXB tizimi markazlashgan taqsimotga asoslangan sotsialistik tuzumga xos hisobot tizimi bo'lganligi uchun, bozor munosabatlari asosida tarkib topayotgan yangi iqtisodiy munosabatlarni va mamlakatning iqtisodiy holatini to'laligicha ifoda etmaydi. Chunki, XXB mamlakat iqtisodiyotini markazlashgan ma'muriy-buyruqchilik asosida boshqarish sharoitiga moslab qurilgan tizimdir. Bu tizimning negizini ishlab chiqarishni markazlashgan tarzda rejalashtirish va resurslarni markazlashgan taqsimot uslubi tashkil qiladi. Bu tizimda faqat moddiy ishlab chiqarish va shu bilan bog'liq xizmat ko'rsatish sohalarigina ishlab chiqarish sifatida hisobga olingan. Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari, bank va moliyaviy xizmat ko'rsatish sohalari, meditsina xizmati, maorif, fan, madaniyat va shu kabi sohalar ikkilamchi sohalar deb qaralib, ishlab chiqarish jarayonidan alohida holda, moddiy ishlab chiqarish sohalarida yaratilgan milliy daromadni iste'mol qiluvchi sohalar deb qaralgan. Bu sohalar ishlab chiqarish sifatida qaralmaydi va yalpi milliy daromadni yaratishda qatnashmaydi deb hisoblanadi. Natijada xizmat ko'rsatish sohalarida yaratilgan daromad, bu sohalarning rivojlanish tendensiyalari yakuniy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda o'z aksini topmaydi. Bu esa mamlakatda yuz berayotgan sotsial-iqtisodiy o'zgarishlarni real aks ettirishga imkon bermaydi. Mamlakat iqtisodiyoti ko'rsatkichlarini boshqa xorijiy davlatlar ko'rsatkichlari bilan solishtirish imkoniyatini qiynlashtiradi.

XXB tizimida davlatning moliyaviy ahvoli, pul muomalasi va kredit holati, ishbilarmonlik va vositachilik singari bozor tarkibini belgilovchi iqtisodiy ko'rsatkichlarning yo'qligi, statistik metodlarning yuz berayotgan

o'zgarishlarni yetarli darajada kuzata olmasligi iqtisodiy va siyosiy islohot jarayonining borishini va natijalarini tizimli tahlil qilish imkoniyatlarini og'irlashtiradi, iqtisodiy boshqaruvning samaradorligini pasaytiradi. Bundan tashqari, XXB tizimi yalpi statistik kuzatishga asoslanganligi uchun, bozor munosabatlarining tarkib topishi natijasida har xil turdagi mulkka asoslangan minglab mayda tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini yalpi kuzatish uslubi orqali amalda hisobga olib bo'lmaydi. Chunki bu ishlarni yalpi usulda amalga oshirish katta mablag'lar sarf etishni talab etadi.

Milliy hisoblar tizimi - yaxlit jamlama iqtisodiy-statistik ko'rsatkichlar to'plami bo'lib, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, natijada yalpi milliy daromadni yaratish, ularni taqsimlash, qayta taqsimlash va iste'mol jarayonlarini o'zida mujassamlashtirgan hisobot va statistika tizimidir. Bu tizimda ishlab chiqarish va xizmatlarni ko'rsatish, iste'mol, investitsiya, jamg'arish jarayonlari ketma-ket T ko'rinishidagi hisoblarda tasvirlanadi. MHT - balans statistikasining rivojlanishi, milliy daromad, milliy boyluk, jamg'arma kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash ishlari evolyusiyasining natijasidir.

Aslini olganda, MHT va XXB tizimlari bir-biriga yaqin tizimlar. Ikkala tizimda ham moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari tan olinadi. Lekin, ularni hisobga olish bu ikkala tizimda bir-biridan farq qiladi. Ya'ni XXB tizimida yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromad faqat moddiy ishlab chiqarish sohalarida yaratiladi deb hisoblanadi. XXB tizimida xizmat ko'rsatish hisoboti milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida sarf-xarajatlar sifatida hisobga olinadi. MHTda moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hisobotida bunday farq qilinmaydi. Xizmat ko'rsatish natijasida yaratilgan yangi qiymat tovar ishlab chiqarishda yaratilgan qiymat bilan bir xil mavqega ega deb qaraladi. Bu esa mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotni va milliy daromadni to'la hisobga olish imkonini yaratadi.

Mamlakat miqyosida hisob-kitoblarni amalga oshirish juda murakkab va o'ta mas'uliyatli ishdir. Odatda, bunday hisoblarni amalga oshiruvchi mutaxassislarni *milliy hisobchilar* deb atashadi. Milliy hisobchilar mamlakatdagi mavjud statistika ma'lumotlaridan va o'ziga xos ekspert-baholash usullaridan foydalanib, mamlakat miqyosida tarmoqlar va sektorlar kesimida hisoblarni amalga oshiradilar. Milliy hisoblarni amalga oshirishda xalqaro amaliyotda qabul qilingan MHT metodologiyasini, unda foydalanilgan tasniflarni, ko'rsatkichlarni hisoblash qoidalarini chuqur bilish talab etiladi.

2. Milliy hisoblar va Xalq xo'jaligi balansi tizimlari o'rtasidagi asosiy farqlar

MHT va XXB tizimlari vazifalari bir-biriga o'xshash bo'lishiga qaramay, ular turlicha siyosiy iqtisodiy nazariyaga asoslangan tuzumlar hisobot tizimi bo'lganligi uchun ularni tuzish tartibi va ko'rsatkichlarini hisoblash konsepsiyasi bir-biridan farq qiladi. Ikkala tizim o'rtasidagi asosiy farqlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- MHT XXBga nisbatan o'zining keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. MHTda iqtisodiy jarayonlarda qatnashuvchi barcha xo'jalik birliklarining faoliyati natijalari, ular o'rtasidagi hamma iqtisodiy operatsiyalar, ularning aktivlari va passivlaridagi o'zgarishlar to'g'risidagi axborotlar ketma-ket, bir-biri bilan uzviy bog'langan schyotlarda keltiriladi. Iqtisodiyotda ishlab chiqarishni, daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlashni, aktiv va passivlardagi o'zgarishlarni va boshqa iqtisodiy jarayonlarni ifodalovchi millionlab operatsiyalar mavjud. Bu operatsiyalarning schyotlar ko'rinishida ixcham va sodda holda keltirilishi iqtisodiyotda bo'layotgan jarayonlarni tez anglashga imkon yaratadi, iqtisodiy tahlilni engillashtiradi;

- ikkala tizimda ishlab chiqarish konsepsiyasi bir-biridan tubdan farq qiladi. MHTda har qanday tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish ishlab chiqarish sifatida hisoblanadi. XXBda esa, ishlab chiqarish sifatida tovarlar ishlab chiqarish va bu tovarlarni iste'molchiga yetkazish bilan bog'liq xizmatlargina hisobga olinadi. Natijada, xizmat sohalarining ko'p qismi (aholiga transport, aloqa, meditsina, maorif, kommunal va shunga o'xshash boshqa xizmatlar, davlat idoralari va jamoat tashkilotlari xizmatlari) ishlab chiqarish qatoriga kiritilmaydi. Bu esa, mamlakatda ishlab chiqarish jarayonini qanday kechayotganligini to'la ifodalamaydi;

- MHTdagi daromad konsepsiyasi, hisoblash usuli va qamrovligiga ko'ra XXB tizimidagidan ancha farq qiladi. Ishlab chiqarish konsepsiyasidan kelib chiqqan holda XXBda xizmat sohalari daromad yaratmaydi, deb qaraladi. MHTda esa, har qanday iqtisodiy faoliyat natijasida daromad yaratiladi;

- tarmoq va sektorlar tasnifi ham ikkala tizimda turlicha. MHTda xalqaro tarmoq va sektorlar tasnifi ishlatiladi. XXBda esa unga xos bo'lgan tarmoq va sektorlar tasnifi ishlatiladi;

- jarayonlar MHTda T-ko'rinishidagi schyotlarda, XXBda esa balans jadvallari ko'rinishida ifodalanadi;

- axborotlarni yig'ish usuli XXBda yalpi kuzatish, MHTda esa tanlab kuzatish usuliga asoslangan;

- iqtisodiy tahlil usuli XXBda reja ko'rsatkichlariga solishtirish, MHTda esa o'tgan davrlarga solishtirish usuliga asoslangan;

- ayrim ko'rsatkichlar ikkala tizimda bir xil nomlansa ham, ularning mazmuni va hisoblash usullari ikkala tizimda bir-biridan tubdan farq qiladi.

Yuqoridagi keltirilgan asosiy farqlardan tashqari, shuni aytish lozimki, ikkala tizimda qo'llaniladigan baholar tizimi, ko'rsatkichlar tizimi tarkibi va hisoblash usullari bir-biridan katta farq qiladi.

3. Milliy hisoblar tizimining rivojlanishida Xalq xo'jaligi balansi tizimining roli

XXB tizimi XX-asrning 20-yillarida Sovet Ittifoqida yuzaga kelgan. Bu tizim Sovet Ittifoqida yuzaga kelgan iqtisodiyotga mos bo'lib, shu iqtisodiyotda kechayotgan jarayonlarni ifodalashga qaratilgan. XXB tizimi II-jahon urushidan keyingi davrlarda Sovet Ittifoqidan boshqa sotsialistik mamlakatlarda ham qo'llanilgan bo'lsa-da, u xalqaro standart sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan tan olinmadi. Keyinchalik, XX-asrning oxiriga kelib, sobiq sotsialistik va mustaqillikka erishgan yangi mustaqil davlatlarning bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni qurish yo'lini tanlab olishlari, bu mamlakatlarda ham hisobot tizimini MHT asosida qurishni taqozo etdi. MHT va XXB tizimlari bir-biridan farq qilishiga qaramay, MHTning yuzaga kelishida va rivojlanishida XXB tizimining ta'siri katta bo'lgan. Chunki, birinchidan, XXB MHTga nisbatan ancha oldin yuzaga kelgan bo'lsa, ikkinchidan ikkala tizimni asosini tashkil qiluvchi asosiy tushunchalar, tasniflar, operatsiyalar xarakteriga ko'ra bir-biriga yaqin yoki aynan bir xil. Masalan, ikkala tizimda ham ishlab chiqarishning moddiy va nomoddiyligi, tovar va xizmat bir-biridan farqlanadi. Ikkala tizimda daromadlar konsepsiyasi turlicha bo'lishiga qaramay, ularning hosil bo'lishi manbalariga ko'ra tasnifi bir-biriga o'xshash. Aktivlarning moliyaviy va nomoliyaviyligi ham ikkala tizimda tan olinadi. Iqtisodiyotni tarmoqlarga ajratish prinsipi, operatsiyalarning tasnifi (joriy yoki kapital), iste'mol va jamg'arish, ularning ichki tasniflari ham ikkala tizimda bir-biriga o'xshash yoki aynan bir xil. Bundan tashqari, Sovet Ittifoqining 1925-1926 yillar uchun tuzilgan balansi dunyoda *ilk bor* mamlakat iqtisodiyotini tahlil qilishda va o'rganishda makro yo'nalishni ochib bergan. Bunday balanslar mamlakatning ravnaqini bashorat qilishda va iqtisodiyotni u yoki bu

yo'nalishda rivojlantirishda asosiy vosita bo'lishi mumkinligini xayotning o'zi isbotlab berdi.

Dastlabki davrlarda, XXB tizimida ishlab chiqilgan xalq xo'jaligi tarmoqlarining bir-biriga uzviy bog'liqligini ifodalovchi jadvallar, keyinchalik MHT tizimida ham (tarmoqlararo balans jadvallari ko'rinishida) o'z o'rnini topdi. MHT yuzaga kelgan davrdan keyingi 40 yil davomida ikkala tizim yer yuzidagi sotsialistik va kapitalistik tuzum mamlakatlarida (MHT – bozor munosabatlariga asoslangan kapitalistik lagerdagi mamlakatlarda, XXB esa sotsialistik lagerdagi mamlakatlarda) amaliyotda qo'llanib kelindi. Bu o'tgan davrda, XXB tizimi bag'rida yaratilgan bir qancha yangiliklar MHTning yangi 1993 yilda ishlab chiqilgan nusxasida qabul qilindi va uning yanada takomillashishida muhim o'rin egalladi. Masalan, XXBda ishlab chiqilgan aholining umumiy iste'molini aniqlash konsepsiyasi va yakuniy iste'mol tasnifi (kollektiv va individual iste'mol) MHTda qabul qilingan. Ularning MHTda qo'llanilishi iste'mol jarayonlarini yanada aniqroq ifodalashga imkon yaratdi.

Asosiy termin va tushunchalar

1. XXB hisobot tizimi - markazlashgan taqsimotga asoslangan iqtisodiyot hisobot tizimidir.

2. MHT hisobot tizimi - bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot hisobot tizimidir.

3. XXB va MHT o'rtasidagi asosiy farqlar:

ishlab chiqarish va daromad konsepsiyalari turlicha;

ko'rsatkichlar tizimi, ularning mazmuni va mohiyati, ifoda etish usullari bir-biridan farq qiladi;

ikkala tizimda ishlatiladigan tarmoq va sektorlar tasniflari turlicha;

iqtisodiy tahlil usullari bir-biridan farq qiladi;

axborot yig'ish usullari turlicha;

ko'rsatkichlarni baholash usullari har xil.

4. Milliy hisobchilar - mamlakat miqyosida uning tarmoqlari va sektorlari kesimida MHT metodologiyasi asosida hisoblarni amalga oshiruvchilar.

Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar

1. MHT va XXB tizimlarining predmeti nimadan iborat?

2. MHT va XXB tizimlari o'rtasidagi asosiy farqlar nimalardan iborat?

3. Nima uchun XXB hisobot tizimini bozor iqtisodiyoti sharoitida qo'llab bo'lmaydi?

4. MHT va XXB tizimlarida ishlab chiqarish tushunchasi qaysi jihatlar bilan farq qiladi?

III-BOB. MILLIY HISOBLAR TIZIMI – BOZOR MUNOSABATLARIGA ASOSLANGAN IQTISODIYOTNI HISOBGA OLISH TIZIMIDIR

1. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot

Bozor munosabati deganda iqtisodiyotda qatnashuvchi birliklar o'rtasidagi tovarlar, xizmatlar va aktivlarni o'zaro boshqa aktivlarga ayirboshlashning talab va taklif asosida yuzaga kelgan baholarda amalga oshirilishi tushuniladi. Bozor munosabatlarining tarkib topishida raqobat muhiti yaratilganligi muhim shartlardan biridir. Chunki, faqat raqobat muhiti yaratilgandagina ayirboshlashuvning haqiqiy bahosi yuzaga keladi. Ayirboshlash baholari odatda *bozor baholari* deb yuritiladi. Masalan: bozor bahosi – tovar sotuvchining o'z ixtiyori bilan tovar evaziga beriladigan *miqdorga* rozi bo'lishi va tovar oluvchining o'z ixtiyori bilan shu tovar evaziga bu miqdorni berishga tayyorligi bilan namoyon bo'ladi.

Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot tushunchasi birmuncha nisbiy bo'lib, hech bir mamlakat iqtisodiyotidagi iqtisodiy birliklar o'rtasidagi operatsiyalarning hammasi hech qachon yuz foiz bozor baholarida amalga oshirilmaydi. Mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan operatsiyalarning aksariyati bozor baholarida amalga oshirilishi, bu iqtisodiyotning bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot deyilishga asos bo'ladi.

Sotsialistik tizimdagi iqtisodiyotni bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot deb bo'lmaydi. Chunki, bu tizimda iqtisodiy operatsiyalarning ko'pchiligi davlat tomonidan belgilangan baholarda va taqsimot tizimidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bu tizimda bozor baholarini faqat dehqon bozorlaridagina uchratish mumkin.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurishga dadil kirishdi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish o'ta murakkab jarayon bo'lib, jamiyatda va iqtisodiyotning har bir jabhalarida o'zaro raqobat muhitini va butunlay yangi iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishni taqozo etadi.

2. Iqtisodiy ishlab chiqarish va uning chegarasi

Iqtisodiy ishlab chiqarish deganda, ishlab chiqaruvchi birlik tomonidan mehnat, mablag', tovar va xizmatlar sarflari natijasida boshqa

turdagi tovar yoki xizmatni yaratib, iste'molchiga (pul yoki tovar evaziga, yoki bepul) yetkazib berish jarayoni tushuniladi.

Iqtisodiy ishlab chiqarish natijasida tovarlar va xizmatlar yaratiladi. Ularni bir-biridan farqlash uchun ularning xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Tovarlar - egalik huquqi tarqatilishi mumkin bo'lgan fizik predmetlardir. Tovarlar moddiy bo'lganligi uchun ularni saqlash mumkin. Tovarlar iste'mol talabining bo'lishi katta ahamiyatga ega. Agar ularga iste'mol talabi bo'lmasa, ulardan hech qanday naf bo'lmaydi. Ular har doim ham ishlab chiqarilgan davrlarida sotilavermaydilar. Shu sababli bu omilni tovarlar ishlab chiqarish hajmini hisoblayotganda e'tiborga olish zarur.

Xizmatlar - iste'molchi talabi asosida bajariladigan har xil faoliyat turlari hisoblanadi. Xizmatlarni saqlab bo'lmaydi. Ular aksariyat iste'molchilarga bevosita ko'rsatiladi. Xizmatlar boshqa birliklar tomonidan ehtiyoj bo'lganda bajariladi. Xizmatlar natijasida xizmatni oluvchida va uning buyumlarida turli xil o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Masalan: a) buyumlarni ta'mirlash natijasida buyum yaroqli holga keladi; b) davolash natijasida uning salomatligi o'zgaradi; v) maorif xizmati natijasida uning bilimi oshadi; g) sug'urta natijasida iqtisodiy holati turg'unligi ta'minlanadi va h.k.

Umuman aytganda, xarakteri iqtisodiy faoliyat nuqtai nazardan ma'noga ega bo'lmagan jarayonlar iqtisodiy ishlab chiqarish hisoblanmaydi. Bunday jarayonlarga quyidagilarni misol sifatida keltirish mumkin:

a) inson ishtirokisiz tabiiy jarayonlar natijasida tovarlarning ko'payishi;

b) insonning o'ziga o'zidan boshqalar qilolmaydigan faoliyatlar (ovqat eyish, sport bilan shug'ullanish uhlash va h.k.),

v) tashqi omillarni ta'siri, ya'ni tashqi omillar (inflyatsiya, valyuta kurslari, baholar o'zgarishi) natijasida aktivlar qiymatining o'zgarishi;

g) o'g'irliklar, poraxo'rlik va ta'magirlik;

d) bozor ishlab chiqaruvchilarning o'z binolarini ijaraga berishlari¹⁰.

Iqtisodiy ishlab chiqarish ko'lemi juda keng va rang-barang. Uni hisobga olish ancha murakkab va keng qamrovli masala hisoblanadi. Bu masalani biroz soddalashtirish maqsadida MHTda iqtisodiy ishlab chiqarishni hisobga olish birmuncha chegaralangan. 1993 yilda amaliyotga kiritilgan MHTda quyidagi faoliyatlar aslida xarakteriga ko'ra iqtisodiy

¹⁰ Bozor ishlab chiqaruvchilarning o'z binolarini ijaraga berishlari bevosita ishlab chiqarish hisoblanmaydi. Bu yordamchi faoliyat hisoblanadi.

ishlab chiqarish bo'lsa ham, ular ishlab chiqarish sifatida hisobga olinmaydi:

- uy xo'jaliklari¹¹ a'zolari tomonidan o'zlari va uy xo'jaligi a'zolari uchun bajariladigan xizmatlar (uyni saranjom va sarishta ushlab bilan bog'liq ishlar, taom tayyorlash, kir yuvish, dazmol qilish va h.k.);

- uy a'zolari tomonidan iste'mol tovarlarini ta'mirlash (dazmol, radio, televizor va shu kabilar);

- uyni engil ta'mirlash ishlari;

- uy xo'jaligi a'zolariga transport va boshqa xizmatlar ko'rsatish.

Amaliy hayotimizda iqtisodiy ishlab chiqarish quyidagi faoliyat turlaridan iborat:

- boshqa birliklarga sotish, o'zining iste'moli va asosiy kapitalini ko'paytirish maqsadida tovarlar ishlab chiqarish;

- nomoliya xizmatlar ko'rsatish;

- moliya tashkilotlarining faoliyatlari;

- davlat boshqaruv idoralarining faoliyatlari;

- jamoat tashkilotlarining faoliyati;

- uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi uy xizmatchilarining faoliyati;

- uy-joy egalarining uylarni holatini saqlash va yaxshilash bo'yicha yuritgan faoliyatlari (ta'mirlash, kapital ta'mirlash, rekonstruksiya va qo'shimcha xonalar qurish).

3. Bozor va nobozor ishlab chiqarish

Mamlakat iqtisodiyotida bozor munosabatlarning qanchalik darajada tarkib topganligini va bu munosabatlarning rivojlanish tendensiyalarini bilish muhim ahamiyatga ega. Bozor munosabatlariga asoslanib qurilgan har qanday iqtisodiyotda ham, iqtisodiyotning shunday jabhalari borki, ularning bozori yo'q yoki bu sohalarda raqobat muhitini yaratish imkoni yo'q. Misol tariqasida bu sohalarga armiya, milisiya, davlat havfsizlik va boshqaruv idoralarining xizmatlarini keltirish mumkin. Bundan tashqari, davlat aholining ayrim qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish maqsadida, ayrim tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishni tashkil qilib, ularni ishlab chiqarish xarajatlaridan ancha past narxlarda yoki bepul tarqatadi, xizmatlarni bepul yoki xizmat xarajatlaridan ancha past narxlarda

¹¹ MHTda uy xo'jaligi deb, daromadlarini birgalikda tasarruf etadigan shaxslar va oilalar guruhiga aytiladi. Masalan, xonadonda 3 oila istiqomat qilib, ular topgan – tutganlarini birgalikda baham ko'rsalar (yoki xonadonda bitta qozon qaynasa) bu bitta uy xo'jaligi hisoblanadi. Agar bu xonadonda ular alohida – alohida xo'jalik yunitsalar u holda bu xonadonda uchta uy xo'jaligi bor deb hisoblanadi.

ko'rsatadi. Odatda, bunday ishlab chiqarish birliklarining oldiga qo'ygan maqsadi, tovarlarni sotishdan va xizmatlarni ko'rsatishdan foyda olish emas. Ularning maqsadi aholiga yoki aholining ayrim guruhlariga yordam ko'rsatishdan iborat bo'ladi. Bu birliklar, oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga ko'ra, tovar va xizmatlarini ishlab chiqaruvchi va erkin bozor baholarida sotuvchi birliklardan keskin ajralib turadilar. Bundan tashqari, odatda bunday birliklar mahsulot uchun to'lanadigan soliqlardan ozod qilingan bo'ladilar.

MHTda xarakteriga ko'ra bozor uchun tovar va xizmatlar ishlab chiqaradigan ishlab chiqarish sohalari *bozor ishlab chiqarish* sifatida hisobga olinadi. Xarakteriga ko'ra bozor ishlab chiqarish bo'lmagan ishlab chiqarish sohalari *nobozor ishlab chiqarish* sifatida hisobga olinadi. *Nobozor ishlab chiqarishni* bozor ishlab chiqarishdan farqlash uchun quyidagi belgilardan foydalanish mumkin:

- ishlab chiqaruvchi birlikning maqsadi foyda olish emas;
- ishlab chiqarilgan tovar yoki xizmatlarni iste'molchiga yetkazilgandan olingan daromad, shu tovar yoki xizmatni ishlab chiqarish va yetkazishga ketgan sarf-xarajatlarni to'la qoplamasligi.

Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchi birlikning o'zining pirovard iste'moli uchun ishlab chiqargan tovar va xizmatlari (uy xo'jaligining o'zi iste'moli uchun yetkazgan mahsuloti, o'zi tomonidan bajarilgan kapital ta'mirlash), nobozor ishlab chiqarish faoliyatini bajarish maqsadida zaxiraga kelib tushgan mahsulotlar va tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi nobozor ishlab chiqarish sifatida hisobga olinadi.

Bozor ishlab chiqarish quyidagi belgilar bilan xarakterlanadi:

- ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni bozor baholarida sotilishi;
- ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni boshqa tovar yoki xizmatlarga bozor baholaridan kelib chiqqan holda almashish (barter operatsiyalari).

Bundan tashqari, bozor ishlab chiqaruvchilarning o'z xodimlariga ish haqi sifatida bergan tovarlar va ko'rsatgan xizmatlari, tayyor mahsulot zaxirasiga tushgan mahsulot, tugallanmagan ishlab chiqarish va asosiy kapitalning yig'ilmasi miqdorlari ham *bozor ishlab chiqarish* tarkibiga kiradi.

Har doim ham tovar va xizmatlarni bepul berish nobozor ishlab chiqarish bo'lavermaydi. Bir birlik tomonidan ikkinchi bir birlikka biror aktivni, tovar yoki xizmatni bepul berilishi yoki evaziga hech narsa talab etilmasligi taqsimot va qayta taqsimot operatsiyasi hisoblanadi. Odatda bunday operatsiyalar *transfertlar* deb yuritiladi. Bozor va nobozor ishlab chiqarishni bir-biridan farqlash va alohida-alohida hisobga olish, ishlab

chiqarish jarayonlarini kechishini hisobga olishda va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Chunki, aynan bir xil hajmdagi tovar yoki xizmatni bozor va nobozor ishlab chiqaruvchilardagi qiymatlari bir-biridan farq qiladi. Masalan, bozor va nobozor ishlab chiqaruvchi oshxonalarda bir turdagi mahsulotlarning narxi kamida foyda normasi miqdorida bir-biridan farq qiladi.

Bozor va nobozor ishlab chiqarish hajmlarini alohida hisobga olish mamlakatda bozor munosabatlarining qanday tarkib etayotganligini va iqtisodiy siyosat yo'nalishlarini bilishga imkon beradi. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda, umumiy ishlab chiqarish hajmida bozor ishlab chiqarish hajmi ulushining dinamikada o'sib borishi iqtisodiyotda bozor munosabatlarining rivojlanayotganligini, iqtisodiyotni boshqarishda administrativ-buyruq usuli o'rnini iqtisodiy mexanizmlar orqali boshqarish usuli egallayotganligini, bozor uchun zarur bo'lgan raqobat muhitining yaratilayotganligini bildiradi.

Bozor munosabatlari tarkib topgan rivojlangan mamlakatlarda umumiy ishlab chiqarish hajmida nobozor ishlab chiqarish hajmining o'sib borishi mamlakatda sotsial yo'naltirilgan siyosat olib borilayotganligini bildiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, mazkur hisobot tizimi mamlakatda yuritilayotgan iqtisodiy siyosat¹² natijalarini aks ettiradi.

4. Iqtisodiy faoliyat va uning turlari

MHTda iqtisodiyotda bo'layotgan jarayonlar keng qamrab olingan. Shu sababli, iqtisodiy faoliyat keng ma'noda qaraladi. **Iqtisodiy faoliyat** deganda tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, iste'mol va jamg'arish jarayonlari tushuniladi. Iqtisodiy faoliyatning bu tasnifi iqtisodiyotda kechayotgan jarayonlarni to'laroq va aniqroq ifodalashga imkon yaratadi.

Oldingi mavzularda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish to'g'risida batafsil to'xtab o'tganligimiz uchun, quyida iste'mol va jamg'arish faoliyatlarini mazmunini yoritishga o'tamiz.

Iste'mol deganda, institutsion birlikning o'zi yoki boshqa birliklar tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni ishlatishi (tasarruf etilishi) tushuniladi.

¹² Masalan, bir mamlakat prezidentligiga nomzod saylovoldi dasturida mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan siyosat yuritishni vada bergan bo'lsa, buni qanday tekshirish mumkin? — degan savol tug'iladi. Buning uchun, yalpi ichki mahsulotda nobozor ishlab chiqarish ulushini o'tgan yillarga solishtirish kifoya. Nobozor ishlab chiqarish ulushining o'sganligi va'dani bajarilganligini bildiradi.

Tovarlar va xizmatlar nimaga ishlatilayotganiga qarab oraliq va yakuniy (pirovard) iste'molga farqlanadi. **Oraliq iste'mol** deb tovar va xizmatni ishlab chiqarishda to'laligicha ishlatilgan tovarlar va xizmatlar miqdoriga aytiladi.

Oraliq iste'mol xarajatlarini hisoblayotganda bu xarajatlarning bevosita ishlab chiqarishda ishlatilganligini e'tiborga olish lozim. Masalan, ishchilarga bepul ish kiyimi yoki sut mahsulotlarini berish xarajatlari ishlab chiqarish texnologiyasi ko'zda tutilgan bo'lsa, oraliq iste'mol xarajatlariga qo'shiladi. Aks holda, bu xarajatlar natura holidayi ish haqi sifatida hisoblanishi kerak. Yana boshqa bir misol. Poyafzal ishlab chiqaruvchi korxonada o'z ishchilari yordamida biror inshoot qurdi yoki kapital ta'mirladi. Bunga qilingan sarf xarajatlar oraliq iste'mol hisoblanmaydi. Qayd etilgan faoliyat ishlab chiqarish sifatida qaralishi kerak. Ishlab chiqarish natijasi esa asosiy kapitalning ko'payishi sifatida qayd etilishi to'g'ri bo'ladi.

Yakuniy iste'mol deb, aholining kundalik iste'mol talablarini qondirish uchun ishlatilgan tovar va xizmatlar miqdoriga aytiladi. Yakuniy iste'mol tovarlariga aholi o'z ehtiyojini qondirish uchun ishlatadigan barcha tovarlar (oziq-ovqatlar, shaxsiy gigiena mahsulotlari, kiyim-kechaklar, televizorlar, va radio-video apparatlar, muzlatgichlar, boshqa uy-ro'zg'or buyumlari) kiradi. Yakuniy iste'mol xizmatlariga esa – kommunal xizmatlar, transport va aloqa xizmatlari, meditsina, maorif va boshqa shu kabi aholi talabini qondirishga qaratilgan individual xizmatlar kiradi.

Ma'lumki, ishlab chiqarish jarayonida ishlatilayotgan hamma tovarlar ham to'laligicha ishlatilavermaydi. Bunday tovarlarga misol tariqasida stanoklarni, binolarni, ishlab chiqarish qurollarini, mashina va uskunalarni, kom'pyuterlarni va shularga o'xshash tovarlarni keltirish mumkin. Bular kabi tovarlar bir ishlab chiqarish davri (sikli)da o'z qiymatlarini to'la yo'qotmaydilar. *O'z qiymatini bir ishlab chiqarish davri (bir yil va undan ko'proq vaqt)da to'la yo'qotmaydigan tovarlarga kapital tovarlar deb yuritiladi.*

Yuqoridagi mavzulardan ma'lum bo'ldiki, iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqariladi va ular o'z navbatida bir qismi oraliq va pirovard iste'mol uchun ishlatiladi. Iqtisodiyot birliklari – korxonada va tashkilotlar - o'z faoliyatlari natijasida ma'lum bir daromadga ega bo'ladilar. Bu daromadning bir qismini ishlab chiqarish xarajatlari (oraliq iste'mol), amortizatsiya ajratmalari, soliqlar va boshqa to'lovlar tashkil qiladi. Hamma xarajatlarni chiqarib tashlangandan so'ng korxonaning o'z

ixtiyorida qolgan miqdor sof ***jamg'arish*** deyiladi. Agar jamg'arish musbat ishora bilan chiqsa, korxonaga o'z faoliyatini sof foyda bilan yakunlagan va u ishlab chiqarishni kengaytirish uchun mablag'ga ega bo'ladi. Agar, jamg'arish manfiy ishora bilan chiqsa, korxonaga o'z faoliyatini qarz bilan yakunlagan bo'ladi.

Mamlakat miqyosida esa, barcha iqtisodiy sektorlarining ixtiyordagi daromadlari yig'indisidan uy xo'jaliklarining haqiqiy yakuniy iste'molini va asosiy kapitalning iste'moli xarajatlarini ayirib tashlasak, mamlakat miqyosidagi ***sof jamg'arish*** ko'rsatkichiga ega bo'lamiz.

5. Iqtisodiy birliklar, rezidentlik, iqtisodiy hudud

MHTda iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi birliklarni hisobga olishda qayta-qayta hisoblarning oldini olish va hisoblarning to'laligini ta'minlash maqsadida **institutSIONAL birlik** tushunchasi kiritiladi.

InstitutSIONAL birlik deb, iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan va boshqa iqtisodiy birliklar bilan o'zaro iqtisodiy faoliyatda va operatsiyalar qilish huquqiga ega bo'lgan ishlab chiqaruvchi birliklarga aytiladi.

InstitutSIONAL birlik quyidagi belgilarga ega bo'lishi lozim:

- aktivlar egasi bo'lishi, ya'ni mustaqil ravishda ishlab chiqargan mahsuloti va ko'rsatgan xizmatini sotishi, almashishi, tekinga berib yuborishi mumkin;

- o'ziga majburiyatlar olishi (shartnomalar tuzishi, kredit olishi va h.k.);

- boshqa birliklar bilan mustaqil iqtisodiy faoliyat va operatsiyalar olib borishi;

- buxgalteriya hisobini yuritishi yoki davlat oldida (qonun bilan belgilangan tartibda) hisob berib turishi;

- o'z faoliyati natijasiga o'zi javobgar.

InstitutSIONAL birliklar ikki turga bo'linadi:

- alohida shaxslar va ularning guruhlarini uy xo'jaliklari shaklida;

- huquqiy va jamoat birliklari qonun bilan belgilangan tartibda tuzilgan va tan olinadigan ishlab chiqaruvchi birliklar (korxonalar, zavod va fabrikalar, jamoat tashkilotlari, hissadorlik jamiyatlari, korporatsiyalar, kichik va o'rta ishlab chiqaruvchi korxonalar, vazirliklar va boshqa boshqaruv idoralari).

Bir necha kishidan iborat uy xo'jaliklarining a'zolari alohida-alohida institutsion birlik hisoblanmaydi, ular yagona birlik sifatida qaraladi.

Bunga sabab, uy a'zolari birgalikda xarajat qiladilar, ularning xarajatlarini alohida-alohida hisoblash qiyin.

Institutsion birliklar o'z faoliyatlarini yuritishda boshqa mamlakat institutsion birliklari bilan iqtisodiy operatsiyalar qilishlari mumkin. SHu sababli, bu birliklarni bir-biridan farqlash maqsadida rezidentlik tushunchasi kiritiladi.

Rezident institutsion birlik deb, iqtisodiy manfaati (qiziqishi) shu mamlakatning iqtisodiy hududiga qaratilgan (yoki joylashgan) institutsion birliklarga aytiladi.

Iqtisodiy manfaat quyidagi belgilar mavjudligida sodir bo'ladi:

- doimiy yashash uchun turar joyi bo'lsa;
- uzoq muddat davomida (odatda bir yil va undan ortiq) iqtisodiy faoliyatini olib borishi uchun ishlab chiqarish joylari bo'lsa.

Boshqa mamlakatning rezident birliklari biz uchun norezident birliklar bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatda joylashgan chet el elchixonalari, xalqaro va diplomatik tashkilotlar, qisqa muddatga (odatda 1 yildan kam) kelgan mavsumiy ishchilar, artistlar, sportchilar, turistlar va h.k.lar rezident hisoblanmaydi.

Mamlakatlar o'z jug'rofiy hududlaridan tashqarida ham iqtisodiy hududlarga yoki rezident birliklarga ega bo'lishlari mumkin. Masalan, mamlakatning dunyo okeanida iqtisodiy faoliyat yuritish huquqi bo'lsa, bu hudud shu mamlakatning iqtisodiy hududi hisoblanadi. Bu yerdagi iqtisodiy faoliyat esa rezident birlikning faoliyati hisoblanadi.

Bundan tashqari, bir mamlakat ikkinchi mamlakat jug'rofiy hududida neft', gaz, oltin, ko'mir va boshqa ma'danlarni ishlab chiqarish huquqini shartnoma asosida qo'lga kiritib, bu erda ishlab chiqarishni tashkil qilgan bo'lsa, bu institutsion birlik, shu mamlakatda uzoq muddatda bo'lishiga va muqim ish joyiga ega bo'lishiga qaramay, bu mamlakat uchun rezident birlik hisoblanmaydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga ko'ra iqtisodiy hudud - jug'rofiy hududdan birmuncha farq qilar ekan. Iqtisodiy hudud deganda, rezident birliklarning shu mamlakat jug'rofiy hududida va mamlakat tashqarisida, boshqa mamlakatlar jug'rofiy hududida va dunyo okeanida iqtisodiy faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan hududlari majmuasi tushuniladi. Odatda iqtisodiy hududda shaxslar, tovarlar va kapital erkin harakatda bo'ladi.

Milliy iqtisodiyot va tashqi dunyo tushunchalari jug'rofiy hudud, milliy valyuta va millatga emas, balki rezidentlik kriteriyasiga qarab aniqlanadi. Milliy iqtisodiyotning natijalari rezident institutsion

birliklarning iqtisodiy faoliyatlari natijalarining majmuasidan iborat bo'ladi.

Rezidentlikni aniqlashdagi muammoli holatlar. Quyidagilar shu mamlakatning rezident birligi hisoblanmaydi:

- rezident birliklar tomonidan va ular ishtirokida tashkil qilingan chet eldagi qo'shma yoki boshqa korxonalar;

- mamlakatda joylashgan xalqaro tashkilotlar;

- mamlakatda faoliyat ko'rsatuvchi norezident birlikning mustaqil bo'lmagan bo'limlari va vakillari (qurilish, qutqaruvchilar, murakkab texnika va uskunalarni sozlovchilar, maslahatchilar va h.k.);

- mamlakatda joylashgan armiya bo'linmalari;

- muddatidan qat'iy nazar, shu mamlakatda o'qiyotgan chet ellik studentlar, malaka oshiruvchilar, davolanuvchilar;

- shu mamlakatga investitsiya kirituvchi chet ellik investorlar, xalqaro tashkilotlar va banklar (Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va h.k.).

Asosiy termin va tushunchalar

1. Bozor munosabatlari - talab va taklif asosida yuzaga kelgan munosabat;

2. Taklif - aktiv egasining oluvchiga o'ziga tegishli aktivni kelishilgan narxlarda berishga tayyorligi;

3. Talab - oluvchining aktivni beruvchidan kelishilgan narxlarda olishga tayyorligi;

4. Raqobat muhiti - aktivlar taklifining rang-barangligi bilan ifodalanadi. Masalan: bozorda mahsulotni sotuvchilar yagona emas, ular 2 va undan ortiq;

5. Bozor baholari - talab va taklif asosida yuzaga kelgan narxlar. Aktivning bozor bahosi - aktivning talab va taklif asosida yuzaga kelgan narxidir. Bozor baholariga misollar - dehqon bozorlarida, tovar birjalarida va magazinlarda sotilayotgan tovarlar narxlari; Davlat idoralari, armiya, milisiya, chegarani qo'riqlash xizmatlari, davlat tomonidan (byudjetdan) moliyalashtirilayotgan meditsina, maorif va boshqa shu kabi xizmatlar *nobozor* baholarida amalga oshiriladi. Bunga sabab, ularning bozori yo'q.

6. Iqtisodiy ishlab chiqarish (qisqacha: ishlab chiqarish) - iqtisodiy faoliyat turi bo'lib, tovarni yaratish yoki xizmatni ko'rsatish jarayonini ifodalaydi. Ishlab chiqarishga misollar: zavod va fabrikalarda - mahsulotlar yaratish, dehqonchilikda - meva-sabzavotlar yetishtirish, qurilish sohasida - uy-joy, yo'llar, ko'priklar qurish, xizmatlar sohasida - savdo-sotiq,

meditsina, o'quv xizmatlari, davlat idoralarining faoliyati - boshqaruv, armiya, milisiya xizmatlari, uy xo'jaliklarida - tomorqada meva sabzovot yetishtirish va turli san'at asarlari va buyumlar yasash va h.k.;

7. Tovarlar - moddiy ne'matlar, ularni saqlash, ularga egalik qilish mumkin. Tovarlariga misollar – oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, avtomobil, televizor, stanoklar, mashina va uskunalar va h.k.;

8. Xizmatlar - iste'molchi talabi asosida bajariladigan amaliyotlardan iborat. Ular moddiy emas. Ularni saqlab bo'lmaydi. Xizmatlar moddiy aktivlar sifatini o'zgartirishi mumkin. Masalan: avtomobilni kapital ta'mirlash natijasida uning sifati yaxshilanadi. Xizmatlarga misollar - meditsina, maorif, transport, aloqa, savdo - sotiq, maishiy-kommunal va h.k. xizmatlar;

9. Ishlab chiqarish chegarasi - hisobot tizimida hisobga olinadigan tovar va xizmatlar ko'lamini belgilaydi;

10. Bozor ishlab chiqarish - bozor uchun tovar va xizmat yaratishga qaratilgan amaliyot yoki faoliyat turi;

11. Nobozor ishlab chiqarish - tovar va xizmatni bozor bahosidan past yoki bepul berishga qaratilgan amaliyot yoki faoliyat turi. Nobozor ishlab chiqarishga misollar - davlat boshqaruv idoralari, armiya, milisiya, chegarani qo'riqlash xizmatlari, davlat tomonidan (byudjetdan) moliyalashtirilayotgan meditsina, maorif va boshqa shu kabi xizmatlar, diniy tashkilotlar, partiyalar va boshqa notijorat tashkilotlar xizmatlari;

12. Iste'mol - iqtisodiy faoliyat turi bo'lib, tovar va (yoki) xizmatni tasarruf (ishlatish) amaliyotidir. Iste'mol foydalanish tabiatiga ko'ra 2 turga bo'linadi: *oraliq* va *yakuniy (pirovard)* iste'mol;

13. Jamg'arish - iqtisodiy faoliyat turi bo'lib, uning miqdori birlikning ega bo'lgan barcha daromadlaridan oraliq va yakuniy iste'molga bo'lgan xarajatlarini ayirgandan keyin qolgan qismi bilan ifodalanadi;

14. Institutsional birlik - mustaqil ravishda iqtisodiy faoliyat yurituvchi birlikdir;

15. Institutsional birlik - uy xo'jaligi yoki huquqiy maqomga ega bo'lgan korxonalar ko'rinishida bo'ladi;

16. Institutsional birlik rezident yoki norezident birlik bo'lishi mumkin. Rezident birlikka misollar - mamlakatda faoliyat yuritayotgan barcha zavod, fabrikalar, chet el sarmoyasi ishtirokidagi barcha korxonalar, doimiy yashovchi barcha fuqarolar. Norezident birlikka misollar - chet el korxonalari, chet el sarmoyadorlari, chet eldan kelgan turistlar, sportchilar, artistlar, davolanishga kelgan bemorlar, o'qishga kelgan talabalar, chet el konsulxonalari va vakolatxonalari;

17. Iqtisodiy hudud - rezident birliklarning erkin faoliyat yuritish huquqiga ega bo'lgan hududlar majmuasidan iborat. Iqtisodiy hududga misollar: O'zbekistonning iqtisodiy hududi - uning geografik hududi plyus chet eldagi konsulxonalar va vakolatxonalar minus O'zbekistonda joylashgan chet el konsulxonalari va vakolatxonalar; Rossiyaning iqtisodiy hududi - uning geografik hududi plyus dunyo okeanida egallagan hududlari plyus chet eldagi konsulxonalari va vakolatxonalar minus chet el mamlakatlarning unda joylashgan konsulxonalari va vakolatxonalar;

Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar

- 1. Bozor munosabati deganda nimani tushunasiz?*
- 2. Bozor munosabatlarining shakllanganligining asosiy belgilari nimalardan iborat?*
- 3. Bozor munosabatlarining shakllanishida raqobat muhitining o'rni qanday?*
- 4. Bozor bahosi deganda nimani tushunasiz? Unga misollar keltiring.*
- 5. MHTda iqtisodiy ishlab chiqarish qanday jarayon? Unga misollar keltiring.*
- 6. Nima uchun xizmatlar ko'rsatish iqtisodiy ishlab chiqarish sanaladi? Misollar bilan asoslab bering.*
- 7. Tovarlar va xizmatlar o'rtasida qanday tafovutlar bor?*
- 8. Ishlab chiqarish chegarasi deganda nimani tushunasiz?*
- 9. Qaysi faoliyat turlari ishlab chiqarish sifatida qaralmaydi? Misollar keltiring.*
- 10. Uy xo'jaligi ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadimi? Misollar keltiring.*
- 11. Bozor va nobozor ishlab chiqarish o'rtasida qanday farqlar bor? Misollar keltiring.*
- 12. Iqtisodiy faoliyat turlari nimalardan iborat? Ularga misollar keltiring.*
- 13. Institutsional birlik nima? Uning asosiy belgilari nimalardan iborat? Unga misollar keltiring.*
- 14. Institutsional birliklar qaysi belgilari asosida rezident va norezident birliklarga ajratiladi? Ularga misollar keltiring.*
- 15. Iqtisodiy va jug'rofiy hududlar o'rtasida qanday farq bor? Ularga misollar keltiring.*

IV-BOB. MILLIY HISOBLAR TIZIMIDAGI MUHIM TUSHUNCHALAR VA TASNIFLAR

1. Iqtisodiy operatsiyalar, oqimlar va zaxiralar

Iqtisodiy operatsiyalar. Institutsion birliklar o'rtasidagi har qanday iqtisodiy ma'noga ega bo'lgan munosabatlar – iqtisodiy operatsiyalar deyiladi. Iqtisodiy operatsiyalar ikki birlik o'rtasida bo'ladi va ikkala birlik bu munosabatni iqtisodiy operatsiya sifatida qayd etadi. Masalan, A birlik V birlikka 1000 so'mlik tovarni sotdi. Bu tovar ayirboshlash operatsiyasi hisoblanadi. Agar, A birlik rezident institutsion birlik, V - norezident bo'lsa bu operatsiya A uchun eksport V uchun esa import operatsiyasi hisoblanadi. Ma'lumki, iqtisodiyotda minglab institutsion birliklar mavjud. Ular o'rtasida millionlab operatsiyalar bajariladi. MHTda operatsiyalarning har biri alohida-alohida emas, balki ma'lum tartibda guruhlangan holda tarmoq va sektorlar miqyosida qayd etiladi.

Iqtisodiy operatsiyalar quyidagicha guruhlanadi:

- tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, ularni ayirboshlash, ishlatish va iste'mol qilish bilan bog'liq operatsiyalar;

- daromad taqsimoti va qayta taqsimot operatsiyalari;

- moliya instrumentlari bilan bog'liq operatsiyalar (moliya aktivlari va passivlariga ega bo'lish, ularning o'zgarishi, kreditlar olish va berish, qarzlarni to'lash, dividendlar va foizlar olish va to'lash, qarzdan voz kechish, aktiv yoki passivlarning inflyatsiya va valyuta kurslari o'zgarishi natijasida o'zgarishi va h.k.);

- favqulodda ro'y beradigan hodisalar, tabiiy ofatlar, urushlar natijasida aktivlarning o'zgarishini ifodalovchi boshqa operatsiyalar.

Operatsiyalarga misol qilib, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, sotish, tarmoq va sektorlar o'rtasidagi tovar va xizmatlarni ayirboshlash, ular o'rtasida daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash, ichki iqtisodiyot sektorlari bilan norezident birliklar (tashqi dunyo sektori) o'rtasidagi eksport, import, investitsiyalar ayirboshlash, ularni qaytarish kabi amaliyotlarni ko'rsatish mumkin.

Operatsiyalarni qayd etishda *oqimlar va zaxiralarni* farqlash lozim.

Oqimlar - kuzatilayotgan ma'lum bir davrdagi iqtisodiy o'zgarishlarni ifodalovchi operatsiyalardir. Masalan, tovar va xizmatni ayirboshlash, aktiv va passivlarning o'zgarishini ifodalovchi operatsiyalar, ma'lum bir davrdagi ishlab chiqarish hajmini yoki olingan (yoki berilgan)

daromadlarning miqdorini qayd etuvchi operatsiyalar oqimlarga misol bo'la oladi.

Zaxiralar esa – iqtisodiy va sotsial o'zgarishlarni ma'lum bir sanadagi holatini ifodalovchi operatsiyalardir.

Misol tariqasida, ombordagi mahsulotlarning oy boshidagi yoki oxiridagi holatini, asosiy kapitalning ma'lum sanadagi holatini, aholining yil boshidagi va oxiridagi holatini, mamlakatning oltin va valyuta zaxiralarining ma'lum bir sanadagi holatini ifodalovchi operatsiyalarni keltirish mumkin.

Odatda, oqim va zaxira operatsiyalari yordamida biridan ikkinchisini keltirib chiqarish mumkin. Masalan, davr boshidagi va oxiridagi zaxiralar o'rtasidagi farq, shu o'tgan davrdagi o'zgarish(oqim)larni ifodalaydi. Dinamikada oqimlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar orqali zaxira ko'rsatkichlarini topish mumkin. Masalan, ishlab chiqarish va sotish hajmini bilgan holda ombordagi mahsulotning ma'lum bir sanadagi holatini bilish qiyin emas. Bir davrdagi oqim va zaxirani ifodalovchi ko'rsatkichlar orqali, shu davrga yoki keyingi davrlar uchun oqim yoki zaxira xarakteridagi ko'rsatkichlarni topish mumkin. Masalan, tayyor mahsulot zaxirasining davr boshi va oxiridagi holati hamda shu davrdagi sotish hajmini bilgan holda ishlab chiqarish hajmini hisoblash mumkin.

2. Ikki tomonlama va bir tomonlama operatsiyalar

Odatda operatsiyalar ikki birlik o'rtasida bo'ladi. Masalan, bir birlik ikkinchi birlikka tovar yoki boshqa aktivni bersa, ikkinchi birlik buning evaziga boshqa aktivni (shu tovar qiymatiga teng pul, tovar, xizmat) beradi yoki shu tovar qiymati miqdorida qarz(majburiyat) bo'ladi. Bunday xarakterdagi operatsiyalar ikki tomonlama operatsiyalar deyiladi. Bu operatsiyalarda har doim bir tomonning ikkinchi tomonga *talabi* ortsa, o'z navbatida ikkinchi tomonning birinchi tomon oldida *majburiyati* ortadi.

Iqtisodiyotda shunday operatsiyalar borki, bu operatsiyalarda bir birlik ikkinchi birlikka o'z tovar va xizmatlarini, boshqa aktivlarini berganda evaziga ikkinchi birlikdan hech narsa talab qilmaydi, ya'ni birinchi birlikning *talabi*, ikkinchi birlikning esa – *majburiyati* ortmaydi. Bu xarakterdagi operatsiyalar **transfertlar** deyiladi.

Transfertlar - bir tomonlama iqtisodiy operatsiyalardan iborat. Bu operatsiyalar orqali bir institutsion birlikning boshqa institutsion birliklarga tovar va xizmatlarni, moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni,

nomoddiy aktivlarga egalik huquqini bepul berish operatsiyalari aks ettiriladi.

Transfert operatsiyalari mamlakat iqtisodiyotida ishtirok etuvchi rezident institutsion birliklar va rezidentlar bilan norezidentlar o'rtasida bo'lishi mumkin. Norezidentlar bilan bo'ladigan transfert operatsiyalari to'lov balansida va MHTning tashqi dunyo schyotlarida qayd etiladi.

MHTda transfertlar xarakteriga ko'ra *joriy va kapital* transfertlarga ajratiladi. To'lov balansida metodologiyasida ular 1993 yilgacha joriy va kapital transfertlarga ajratilmagan. To'lov balansining 1993 yilgi nashrida transfertlar MHTdagi kabi joriy va kapital transfertlarni alohida-alohida operatsiyalar sifatida qayd etiladigan bo'ldi.

MHTda joriy transfertlar *pul va natura holiday daromadlarni qayta taqsimlash* schyotlarida qayd qilinsa, kapital transfertlar kapital xarajatlar schyotida qayd qilinadi. To'lov balansida esa, joriy transfertlar *joriy operatsiyalar* schyotida, kapital *transfertlar kapital operatsiyalar* schyotida qayd etiladigan bo'ldi.

Transfertlarning joriy va kapital transfertlarga ajratilishining sababi ularning keyinchalik qay tarzda ishlatilishiga bog'liq. Agarda transfert sifatida berilayotgan yoki olinayotgan aktivlar ishlab chiqarish vositasi sifatida ishlatilsa, bunday aktivlar kapital transfertlar, oraliq va yakuniy iste'mol sifatida ishlatilsa - joriy transfertlar hisoblanadi. Odatda, kapital transfertlar bir hisobot yilidan ko'proq vaqtda¹³ ishlatiladigan aktivlardan iborat bo'ladi. Ya'ni, bu aktivlar bir hisobot yilida o'z qiymatini yo'qotmaydi va keyingi davrlarda ham ishlab chiqaruvchi asosiy vosita sifatida ishlatiladi. Joriy transfertlar – bir hisobot davrida iste'mol qilingani uchun, keyingi davrlarda ularning qiymati nolga teng bo'ladi. Ular schyotlarda oraliq va pirovard iste'mol sifatida qayd etiladi.

Kapital transfert operatsiyalariga kapital tovarlar va ular bilan bog'liq transfert operatsiyalar kiradi. Ularga ishlab chiqarilmagan (masalan, er va konlardan foydalanish huquqi), nomoddiy xarakterdagi aktivlar (masalan, patentlar, tovar belgilaridan va avtorlik huquqidan foydalanish huquqi), ish joylari, inshootlar, stanoklar, mashina va mexanizmlar, texnologik liniyalar va shu kabi aktivlar bilan bog'liq operatsiyalar kiradi¹⁴. Bulardan

¹³ Uy xo'jaliklarining o'z a'zolari foydalanishlari uchun sotib olingan avtomobillar, televizorlar, muzlatgichlar va boshqa ro'zg'orda foydalaniladigan texnik asbob-uskunalar kapital transfert sanalmaydi.

¹⁴ Harbly maqsadlarda foydalanish uchun berilgan harbly texnika va qurollar kapital transfertlar hisoblanmaydi. Ular qabul qilingan qoidaga ko'ra, asosiy fondlar qatoriga qo'shilmaydi va joriy transfert sifatida hisoblanadi. Agarda, ilgari harbly maqsadlarda foydalanilgan mashina va boshqa texnika vositalari boshqa ishlab chiqaruvchi birliklarga bepul berilsa, bu kapital transfert hisoblanadi va oluvchining asosiy vositasi hisoblanadi.

tashqari, kapital transfertlarni norezidentlarga berilganda olinadigan soliqlar¹⁵ (merosga va sovg'a sifatida berilganda olinadigan soliq, berilgan mulkdan soliq) va qarzdan voz kechish operatsiyalari ham kapital transfert operatsiyalari hisoblanadi.

Joriy transfertlarga kapital transfertlar tarkibiga kiritilmagan barcha transfert operatsiyalar kiradi. Ularga iste'mol tovarlarini va xizmatlarni boshqa birliklarga bepul berish va ko'rsatish; insonparvarlik va texnik yordamlar ko'rsatish misol bo'la oladi.

Transfertlar pul va natura holatida berilishi mumkin. Pul holatidagi transfertlar bir birlikning ikkinchi birlikka naqd pul yoki hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan bergan pul miqdoridan iborat. Natura holatidagi transfertlar deganda, bir birlikning ikkinchi birlikka evaziga hech narsa olmay, tovar va aktivlarni berish, hamda xizmatlarni ko'rsatish jarayoni tushuniladi. Natura holatidagi transfertlar ularning olingan (berilgan) davrdagi bozor baholaridagi miqdorida qayd etiladi.

MHTda har bir operatsiya 2 martadan qayd etiladi. Ikki tomonlama operatsiyalarda aktivni bergan birlik uchun bu holat uning schyotida "ishlatilish" tarafida qayd etiladi. Aktivni olgan birlik uchun - schyotning "resurs" tarafida qayd etadi. Transfertlar esa, mos ravishda olingani "resurs"da, berilgani "ishlatilishi"da "transfertlar" deb qayd etiladi.

Operatsiyalarni qayd etishda joriy va kapital xarajatlarni farqlash lozim. Kapital operatsiyalarga ikki birlik o'rtasidagi ishlab chiqarish vositalari (yer, binolar, inshootlar, stanoklar, texnik qurilmalar va uskunalar, mashinalar va h.k)ni ayirboshlash jarayonlari kiradi. Ishlab chiqaruvchi birliklar o'rtasidagi kapital operatsiyalar natijasida bir tomonning asosiy kapitali qanchaga ko'paysa, ikkinchi tomonda shunchaga kamayadi.

Operatsiyalarni qayd etishda, ularning qaysi guruhga va qaysi birliklarga tegishligini bilish muhim ahamiyatga ega. Masalan, tovar va xizmatlarni sotishdan, transfertlar sifatida, taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida olingan daromadlarni bir-biridan farqlash lozim. Ularning farqlanmasligi mamlakat miqyosida daromadlarni hisoblashda noaniqliklarga olib keladi. Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish natijasida yaratilgan daromadlarni iqtisodiy birliklar o'rtasida shakllanishi,

¹⁵ Masalan, uy-joy chet eldagi merosxo'rga berilgan vaqtda shu davlat qonunlarida belgilangan tartibda merosxo'r-norezident soliq to'laydi Keyinchalik merosxo'r-norezident uy-joy uchun mulk solig'i to'lab turadi Agarda, keyinchalik merosxo'r-norezident rezidentga aylansa, mulk solig'i kapital transfert bo'lmaydi

taqsimot va qayta taqsimot operatsiyalarini belgilangan tartibda mos schyotlarda alohida-alohida qayd etilishi lozim.

3. Milliy hisoblar tizimida daromadlar, sarflar

Iqtisodiyotda qatnashuvchi birliklar o'z faoliyatlarini yuritishi uchun ma'lum bir daromad manbasiga ega bo'lishlari mumkin. Mablag'siz iqtisodiy faoliyat yuritish mushkul. Har turdagi institutsion birliklar uchun daromad manbai turlicha bo'ladi. Masalan, bozor uchun tovar va nomoliyaviy xizmatlar ishlab chiqaruvchi korxonaning asosiy daromad manbai shu tovar va xizmatlarni sotishdan tushgan tushumlardan, mulkdan olgan daromadlaridan¹⁶ va transfertlardan iborat bo'lishi mumkin. Bir qarashda bu daromadlarning hammasi shu korxonanikidek ko'rinadi. Aslida esa, korxonalar yaratgan daromadlarining bir qisminigina o'z ixtiyorida qoldirishi va o'zi xohlaganday ishlatishi mumkin. Ya'ni, korxonalar daromadining ko'p qismi boshqa birliklarga tegishli ekanligini yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, ish haqi ishchilarniki, soliqlar davlat boshqaruv idoralariniki, ishlab chiqarishda ishlatilgan tovar va xizmatlar sarfi esa shu tovar va xizmatlarni ishlab chiqargan ishlab chiqaruvchi birliklarniki. Bundan, shunday xulosa qilish mumkinki, har qanday tushumlar ham shu birlikning daromadi bo'lavermaydi.

MHTda daromadlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- birlamchi daromadlar;
- ixtiyordagi daromadlar;
- o'zgartirilgan ixtiyordagi daromadlar.

Birlamchi daromadlarga iqtisodiy birliklarning ishlab chiqarishda bevosita va bilvosita qatnashganliklari uchun va mulkdan olgan daromadlariga aytiladi. Birlamchi daromadlar tarkibiga ish haqi, soliqlar va subsidiyalar, foyda va aralash daromad, olingan foizlar va dividendlar kiradi.

Ixtiyordagi daromadlar tarkibiga birlamchi daromadlar va joriy transfertlar saldosi kiradi.

O'zgartirilgan ixtiyordagi daromad ko'rsatkichi davlat boshqaruv idoralari, uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar va uy xo'jaliklari sektorlariga xos bo'lgan ko'rsatkich hisoblanadi. Bu ko'rsatkich, yuqorida sanalgan sektorlar "ixtiyordagi daromad"

¹⁶ Ish o'rinlari (masalan fermalar) odatda turgan yeri bilan birgalikda ijaraga beriladi. Bunday holatlarda iloji bo'lsa er rentasi miqdori alohida hisoblanadi. Chunki renta mulkdan olingan daromad, ijara esa xizmat (ya'ni ishlab chiqarish) hisoblanadi. Buning iloji bo'lmasa, erning qiymati uy-joynikidan ko'p bo'lsa ijara summasing hammasi renta yoki aks holda ijara xizmati sifatida qaraladi.

ko'rsatkichlarini natura holidayga transfert operatsiyalari hisobiga o'zgarishini ifodalaydi (7-bobga qarang).

Iqtisodiyotda ishlab chiqaruvchi birliklar o'rtasidagi ayirboshlash operatsiyalarida bir birlik uchun daromad hisoblangan operatsiya ikkinchi birlik uchun sarf-xarajat hisoblanadi yoki aksincha bir birlik sarf-xarajat qilsa, ikkinchi birlik uchun daromad hisoblanadi. Demak, daromadlar bilan sarflar bir vaqtda sodir bo'ladi va ikkala birlik schyotlarida alohida - alohida operatsiya sifatida qayd etiladi.

4. Milliy hisoblar tizimida soliqlar, subsidiyalar va ularning tasnifi

Asosiy tushunchalar va ta'riflar.

Institutsional birliklar tomonidan davlat birliklariga majburiy (qonun bilan belgilangan tartibda) ravishda to'lanadigan va o'rni qoplanmaydigan to'lovlarga **solliqlar** deyiladi.

Subsidiyalar¹⁷ - davlat tomonidan institutsional birliklarga ishlab chiqarish faoliyatini yuritish, chetga tovar va xizmatni sotish va boshqa faoliyatlaridagi xarajatlarini qisman qoplash uchun to'lanadigan va qaytarib olinmaydigan to'lovlardan iborat. Aslini olganda soliqlar va subsidiyalar xarakteriga ko'ra bir-biriga o'xshash. Biri institutsion birliklar tomonidan davlat birliklariga to'lansa, ikkinchisi aksincha. Shu sababli, subsidiyalarni minus ishorali soliqlar deb, qarash mumkin. Ularning tasnifi, to'lash ko'rinishlari va iqtisodiyotda ular bajaradigan vazifalar ham o'xshash.

Soliqlar va subsidiyalar pul, tovar va xizmat ko'rinishida bo'lishi mumkin. Ayrim hollarda, ular yashirin ko'rinishda bo'lishi mumkin. Agar ishlab chiqaruvchi tovar va xizmatni bozor bahosidan past narx bilan davlatga sotsa, bozor bahosi bilan sotib olingan narx o'rtasidagi farq yashirin soliq bo'ladi. Aksincha, esa subsidiya bo'ladi. Bundan tashqari, iqtisodiyotda bir necha valyuta ayirboshlash kurslari mavjud bo'lganda va tashqi savdo erkinlashmagan holatlarda ham yashirin soliqlar va subsidiyalar mavjud bo'lishi mumkin.

Soliq va subsidiyalarning iqtisodiyotni boshqarishda tutgan o'rni va vazifasi juda muhim. Bozor iqtisodiyotida mamlakat iqtisodiyotini boshqarish va uni kerakli tomonga yo'naltirish boshqa moliyaviy vositalar

¹⁷ Bevosita subsidiyalardan tashqari bilvosita subsidiyalarni anglash muhim ahamiyatga ega. Masalan, bunday subsidiyalar, institusion birliklarning chet el valyutasini bozor kursidan past ayirboshlash kurslarida milliy valyutaga almashirganlarida, bank kreditlarni bozor stavkalaridan past foiz stavkalarida olganlarida va shu kabi holatlarda payda bo'ladi.

bilan birga soliqlar va subsidiyalar stavkasi orqali amalga oshiriladi. Shu sababli, soliq va subsidiyalarning tabiatini va tasnifini to'g'ri ifodalash muhim ahamiyatga ega.

Soliqlar va subsidiyalar mohiyatiga va to'lanish jarayoniga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i - tovar va xizmat tayyor bo'lgandan so'ng va ishlab chiqaruvchi birlik tomonidan iste'molchiga berilayotgan (sotayotgan, ayirboshlayotgan) vaqtda to'lanadigan soliq bo'lib, uni iste'molchilar to'laydi. Soliqqa tortish bazasi sifatida ishlab chiqaruvchi birlikning shu tovar va xizmatni yaratishdagi hissasi, ya'ni qo'shilgan qiymati olinadi.

Import solig'i - tovar va xizmatlarni norezidentlardan rezidentlarga o'tganda to'lanadigan soliq bo'lib, tovar yoki xizmatlarning bojxona (davlat) chegarasidan o'tish vaqtida to'lanadi. Soliq bazasi sifatida joriy baholardagi import hajmi olinadi.

Ekspart solig'i - tovar va xizmatlarni rezident birliklardan norezident birliklarga o'tganda to'lanadigan soliq bo'lib, tovar va xizmatlar iqtisodiy hududdan chiqib ketish vaqtida to'lanadi. Soliq stavkasi joriy baholardagi eksport hajmiga nisbatan belgilanadi.

Bevosita ishlab chiqarish solig'i - ishlab chiqaruvchi birliklarning ishlab chiqarish jarayonida olgan foydalaridan (daromadlaridan) to'lanadigan soliqlardan iborat, amaliyotda u to'g'ri soliq deb ham yuritiladi. Bu soliq ishlab chiqarishda ishlatiladigan er, ish joylari, inshootlar va binolar, ishchi kuchidan foydalanganliklari uchun to'lanadigan soliqlar (er va mulk solig'i, ekologiya va transport to'lovlari va h.k.)dan iborat.

Mahsulot uchun soliq - ishlab chiqaruvchi birliklarning tovar yoki xizmatni boshqa institutsional birliklarga sotish (yoki berish va almashish) vaqtida to'laydigan solig'i bo'lib, tovar va xizmatning miqdoriga nisbatan aniqlanadi va u amaliyotda egri soliq deb ham yuritiladi. Soliq stavkasi mahsulot hajmiga nisbatan belgilanadi. Misol tariqasida mahsulot uchun soliqlarga *qo'shilgan qiymat* va *aksiz* soliqlarini keltirish mumkin.

Bevosita ishlab chiqarish uchun subsidiyalar - institutsion birliklarning ma'lum bir iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanganliklarini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan to'langan to'lovlardan iborat. Masalan, korxonaga tashqi muhitga ekologiyani buzadigan chiqitlarni miqdorini kamaytiradigan texnologiyani joriy etgani uchun subsidiya berilishi mumkin. Yoki, elektr ishlab chiqarish stansiyasida gaz o'miga

ko'mir ishlatgani uchun, import tovarlarini ishlatadigan korxonaga mahalliy xom ashyo ishlatgani uchun subsidiyalar joriy qilinishi mumkin.

Mahsulot uchun subsidiyalar - davlat tomonidan institutsional birliklarga ishlab chiqargan tovarlari yoki ko'rsatgan xizmatlarining har bir birligiga nisbatan beriladigan to'lovlardan iborat. Mahsulot uchun soliqlarning bir qismini ishlab chiqaruvchi birliklarda qoldirilishi ham subsidiya sifatida hisobga olinishi lozim. Masalan, korxonaga uchun soliq bazasi 1000 birlik va qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20% belgilangan bo'lsin. Soliqning 40% (ya'ni stavkaning 8%) korxonaga ixtiyorida qoldirish belgilangan bo'lsin. Bu misolda qo'shilgan qiymat solig'i 200ga teng va mahsulot uchun subsidiya 80 ga teng bo'ladi.

Import subsidiyasi - davlat tomonidan institutsional birliklarga ularning rezident birliklarga belgilangan turdagi import mahsulotini yetkazgan yoki xizmatini bajargan vaqtlarida beriladigan to'lovlardan iborat. Import subsidiyasi stavkasi odatda import hajmiga mos ravishda belgilanadi. Masalan, korxonaga chet eldan aholi uchun zarur mahsulotni import qilishi va ichki bozorda sotishi natijasida zarar ko'rsa, bunday hollarda, ichki bozorda bu mahsulotlar tanqisligining va narxining ko'tarilishini oldini olish maqsadida, import subsidiyasi belgilanishi mumkin.

Ekspart subsidiyasi - davlat tomonidan institutsional birliklarga ular tovar yoki xizmatlarni ekspart qilganlarida beriladigan to'lovlardan iborat. Ekspart subsidiyasi stavkasi ekspart hajmiga mos ravishda belgilanadi. Ekspart subsidiyasi ichki bozorda tovarlarning ko'payishi natijasida uning narxini keskin tushib ketishini oldini olish (ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish) va bu turdagi tovarlarni ekspartga yo'naltirishni rag'batlantirish maqsadida beriladi.

MHTda soliqlar va subsidiyalar tasnifi. MHTda soliqlar tasnifi quyidagicha:

I. Joriy soliqlar (1 + 2)

1. Ishlab chiqarish va import soliqlari (1.1+1.2)

1.1. Mahsulot uchun soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar va boshqalar)

1.2. Ishlab chiqarish uchun boshqa soliqlar (er, binolar, inshootlar va ishchi kuchi uchun soliqlar, ekologiya va yo'l solig'i, litsenziya to'lovlari, moliya operatsiyalari solig'i va boshqalar)

2. Daromad va mulk soliqlari (foydadan soliq, daromad solig'i, ishlab chiqarishda ishlatilmaydigan mulk solig'i)

II. Kapital soliqlar (merosdan qolgan mulk, sovg'a qilingan mulk va boshqa kapital operatsiyalar soliqlari)

III. Hamma soliqlar (I+II)

Subsidiyalar xarakteriga ko'ra kapital ko'rinishida bo'lmaydi. Davlat tomonidan bepul berilgan kapital transfertlar, odatda davlat tomonidan kiritilgan investitsiya sifatida talqin qilinadi. Shu sababli, subsidiyalar joriy transfertlar ko'rinishida bo'lib, institutsion birliklarga ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanganliklari va ishlab chiqarish jarayonida ma'lum bir texnologiyalarni (masalan, energiyani tejashga, ekologiyani va kamyob tabiiy resurslarni tejashga qaratilgan texnologiyalarni) qo'llaganliklari uchun berilishi mumkin. Bundan tashqari, subsidiyalar eksport va importni muvofiqlashtirish, valyuta tushumlarini ko'paytirish, tejash va tashqi bozorni saqlash (yoki egallash), ichki bozorda narx-navoni muvofiqlashtirish maqsadida ham berilishi mumkin. Subsidiyalar tasnifi ishlab chiqarish va import soliqlari tasnifi bilan bir xil. Ya'ni, subsidiyalar ham mahsulot uchun subsidiyalarga va ishlab chiqarish uchun boshqa subsidiyalarga ajratiladi.

5. Milliy hisoblar tizimida operatsiyalarni baholash qoidalari va baholar tizimi

Operatsiyalar ular sodir bo'lgan davrdagi bozor baholarida qayd etiladi. Bozor baholari talab va taklifdan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Iqtisodiyotda bo'layotgan iqtisodiy jarayonlar keng qamrovli bo'lib, unda bir qancha ishtirokchilar ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi sifatida qatnashadilar. Tovarni ishlab chiqarishdan to iste'molchiga etib borguncha uning ishlab chiqaruvchidagi, sotuvchidagi va sotib oluvchidagi baholari turlicha bo'lishi mumkin. Chunki, mahsulot ishlab chiqaruvchidan boshqa birliklarga sotilayotganda mahsulot narxiga keyinchalik, mahsulot uchun soliqlar, transport va savdo ustamaları qo'shilib, mahsulot iste'molchiga yetib borguncha uning narxi o'zgarib boradi.

Shu sababli, bu jarayonlarni hisobga olishda qayta hisoblarga yo'l qo'ymaslik va ularni o'zaro muvofiqlashtirish yagona baholash tizimini ishlab chiqishni talab etadi.

MHTda iqtisodiy jarayonlarni hisobga olishda, omil bahosidan, asosiy bahodan, ishlab chiqaruvchining bahosidan va sotib oluvchi (iste'molchi) bahosidan foydalanish mumkin. Bu baholarning tarkibi va biridan ikkinchisini keltirib chiqarish tartibi quyidagi sxemada keltirilgan:

MHTda baholar tizimi

Oraliq iste'mol	Omil bahosi	Asosiy baho	Ishlab chiqaruvchi bahosi	Sotib oluvchi (iste'molchi) bahosi
Mehnat haqi				
Yalpi foyda				
Bevosita ishlab chiqarish uchun sof soliqlar				
Mahsulot uchun sof soliqlar				
Savdo-transport ustamasi				

Bu baholarning tarkibini chuqurroq bilish bir bahodan ikkinchisiga o'tishda katta ahamiyatga ega. SHu sababli bu baholarni tashkil qiluvchi omillarga to'xtalib o'tamiz.

Omil bahosi tarkibiga ishlab chiqaruvchi birlikning **oraliq iste'molga va ishchi kuchiga qilgan xarajatlari (mehnat haqi)** hamda **yalpi foyda** miqdori kiradi.

Oraliq iste'mol tarkibiga ishlab chiqarishda boshqa ishlab chiqaruvchi birliklardan olib ishlatilgan va ishlab chiqarilgan tovar yoki xizmatni sotish qiymatiga kiritilgan tovar va xizmatlar miqdori kiradi.

Mehnat haqi tarkibiga ishlab chiqaruvchi birlikning ishchi-xizmatchilarga bergan ish haqi va ish haqi xarakteridagi to'lovlari (qo'shimcha ish haqi, mukofotlar, natura holiday ish haqi) va majburiy ijtimoiy sug'urta to'lovlari kiradi.

Yalpi foyda – ishlab chiqaruvchi birlikning ishlab chiqarishdan olgan yalpi foydasidan iborat.

Asosiy baho omil baho bilan *bevosita ishlab chiqarish uchun sof soliqlar* yig'indisidan iborat.

Bevosita ishlab chiqarish uchun sof soliqlar ishlab chiqaruvchi birlikning bevosita ishlab chiqarish uchun to'lagan soliqlaridan davlatdan olgan subsidiyalarni ayirish natijasida topiladi.

Ishlab chiqaruvchi bahosi asosiy baho bilan *mahsulotlar uchun sof soliqlar* yig'indisidan iborat.

Mahsulotlar uchun sof soliqlar ishlab chiqaruvchi birlikning *mahsulot uchun to'lagan soliqlaridan shu turdagi subsidiyalarni chegirish natijasida topiladi*.

Iste'molchi bahosi ishlab chiqaruvchi bahosi bilan *savdo-transport ustamasi* yig'indisidan iborat.

Savdo-transport ustamasi savdo va transport tashkilotlarining tovarni iste'molchiga yetkazishdagi xizmatlari uchun oladigan qiymat miqdoridan iborat.

6. Iqtisodiy aktiv va passiv tushunchalari va ularning tasnifi

Institutsion birliklarning egalik huquqini tarqatish mumkin bo'lgan va ularni ishlatganda va boshqa birliklarga berganda va almashganda biror *naf* keltirishi mumkin bo'lgan iqtisodiy ob'ektlarga aktivlar deyiladi. Aktivlarni berishdan va olishdan ko'zlangan *naflar* - turli xil maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Masalan:

- bir aktiv o'rniga boshqa turdagi aktivlarni olish va ulardan ishlab chiqarish jarayonida foydalanish;
- aktivlarni ma'lum muddatlarga berish va evaziga daromadlar (foizlar, dividendlar) olish;
- aktivlarni ijaraga berish va ijara to'lovlari olish;
- aktivlarni bepul, insonparvarlik yoki texnik yordam sifatida berish (ma'naviy naf) ;
- aktivlardan jamg'arish vositasi sifatida foydalanish va h.k.

Odatda bir birlik o'z aktivini ikkinchi birlikka iqtisodiy naf olish maqsadida berganda shu aktivga ekvivalent miqdordagi boshqa aktivga ega bo'lishi kerak. Lekin, amaliyotda aktivlarning ekvivalent almashishi har doim ham bir vaqtda sodir bo'lavermaydi. SHu sababli, olingan aktiv evaziga hali qaytarib berilmagan aktiv miqdori ikkinchi birlik uchun vaqtincha (ya'ni qaytarib berguncha), birinchi birlik oldida qarz yoki majburiyat hisoblanadi. Odatda bu majburiyat miqdori ikkinchi birlik uchun passiv bo'ladi. Aktivlarning institutsion birliklar o'rtasida almashishi tomonlar o'rtasida mos ravishda bir tomonda aktiv sifatida qayd etilsa, ikkinchi tomonda passiv sifatida qayd etiladi. Agar aktivlarni berishdan maqsad iqtisodiy naf ko'rish bo'lmasa, ya'ni evaziga ekvivalent aktiv talab etilmasa, bunday operatsiyalar ikkala tomonda ham mos ravishda transfert sifatida qayd etiladi.

Iqtisodiyotda institutsion birliklar o'rtasida turli-tuman aktivlar almashuvi sodir bo'ladi. Ularning har birini mamlakat miqyosida alohida-alohida qayd etish amaliy jihatdan mumkin emas. SHu sababli, ularning mohiyatiga, kelib chiqishiga, bajaradigan vazifasiga va boshqa belgilariga qarab guruhlash iqtisodiy jarayonlarni hisobga olishda va yoritishda katta ahamiyatga ega.

MHTda aktivlar quyidagicha guruhlanadi:

I. Nomoliyaviy aktivlar

1. Ishlab chiqariladigan aktivlar

1.1. Moddiy aktivlar

1.1.1. Moddiy asosiy fondlar

(Uy-joy, bino va inshootlar, konlar, ish o'rinlari, stanok va uskunalar, uzumzorlar, mevazorlar, ishlab chiqarishda foydalanilayotgan chorva mollari va h.k.)

1.1.2. Moddiy aylanma mablag'lar

(Zaxiradagi tayyor ishlab chiqarilgan mahsulotlar, butlovchi materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish mahsulotlari, qayta sotish uchun olingan tovarlar)

1.1.3. Qimmatbaho buyumlar, qiymatini uzoq muddatlargacha saqlaydigan moddiy aktivlar

(Qimmatbaho metallar, toshlar va ulardan tayyorlangan buyumlar, san'at asarlari)

1.2. Nomoddiy aktivlar

1.2.1. Nomoddiy asosiy fondlar

(Ishlab chiqarishda ishlatiladigan komp'yuterlar dasturiy ta'minotlari va axborot bazalari, geologiya-qidiruv ishlariga bo'lgan sarflar, yaratilgan adabiy va badiiy asarlar asl nusxalari yoki ularga egalik huquqi)

2. Ishlab chiqarilmagan aktivlar

2.1. Moddiy aktivlar

2.1.1. Yer *(binolar, inshootlar, yo'llar, suv omborlari joylashgan erlar, qishloq xo'jaligini yuritishda ishlatiladigan erlar)*

2.1.2. Konlar *(ko'mir, neft', gaz, rangli metallar, har xil rudalar konlari)*

2.1.3. Tabiiy biologik resurslar *(o'rmonlar, yovvoyi hayvonlar, tabiiy suv havzalaridagi baliqlar va boshqa foydali mahsulotlar)*

2.1.4. Suv resurslari

2.2. Nomoddiy aktivlar

(patentlangan iqtisodiy ob'ektlar, er yoki boshqa ishlab chiqarish o'rinlariga ijara huquqi, faoliyat turi yoki ishlab chiqarish texnologiyasiga avtorlik yoki egalik huquqi, hali ishlab chiqarilmagan aktivlarga egalik huquqi va h.k.)

II. Moliyaviy aktivlar

1. Monetar oltin.
2. Naqd pullar va depozitlar.
3. Qimmatbaho qog'ozlar (aksiyalardan tashqari).
4. Aksiyalar va boshqa aksiyadorlik kapitaliga egalik huquqini beradigan qog'ozlar.
5. Berilgan kreditlar.
6. Sug'urta rezervlari.
7. Debitorlik majburiyatlar.
8. Boshqa moliyaviy aktivlar.

Yuqorida keltirilgan aktivlar tasnifi tarkibi passivlar uchun ham o'rinni bo'ladi. Passivlar tasnifida yuqorida keltirilgan aktivlar tasnifidagi ayrim ko'rsatkichlarning nomlari mohiyati jihatidan passivga mos ravishda ifodalanadi. Masalan, moliyaviy aktivlardagi «debitorlik majburiyatlar» o'rniga «kreditorlik qarzarlar», «berilgan kreditlar» o'rniga «olingan kreditlar» va h.k. Institutsion birliklar o'rtasidagi aktivlar va passivlar operatsiyalari buxgalteriya hisoblarida qayd etib boriladi. Mamlakat miqyosida esa, bu operatsiyalar iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlari, hamda tashqi dunyo miqyosida guruhlanib, maxsus schyotlarda qayd etiladi.

Shuni aytish joizki, MHTda ishlatilayotgan aktiv va passiv tushunchalari amaliyotda tijorat banklarida ishlatilayotgan aktiv va passiv terminlaridan farq qiladi. Odatda, tijorat banklarida aktiv sifatida ishlayotgan aktivni, passiv deganda ishlayotgan aktivni tushunadilar.

Asosiy termin va tushunchalar

1. Iqtisodiy operatsiyalar - har qanday iqtisodiy ma'noga ega bo'lgan munosabatlardir. Iqtisodiy operatsiyalarga misollar - tovar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, moliya resurslarini berish yoki olish, qarzni qaytarish, foizlar va dividendlar to'lash yoki olish va h.k.;

2. Iqtisodiy operatsiyalar guruhlangan holda qayd etiladi. Guruhlash turlariga misollar - tovar va xizmat turlari bo'yicha, tarmoqlar va sektorlar bo'yicha va h.k.;

3. Iqtisodiy operatsiyalarni qayd etishda quyidagi qoidalardan foydalanish mumkin:

- ishlab chiqarish tovar va xizmatlarni ayirboshlash, ulardan foydalanish (oraliq va yakuniy iste'mol) operatsiyalari tovarlar va xizmatlar alohida guruhlangan holda qayd etiladi;

- daromadlarni hosil bo'lishi, ularni taqsimlash va qayta taqsimlash operatsiyalari ularning turlari bo'yicha alohida qayd etiladi. Masalan: birlamchi daromadlar - mehnat haqi, soliqlar turlari bo'yicha, yalpi foyda, aralash daromad, mulkdan olingan daromadlar turlari bo'yicha;

- moliya instrumentlari bilan bog'liq operatsiyalar instrument turlari bo'yicha aktivlar va passivlar alohida qayd etiladi. Masalan: **aktivlar**(ga ega bo'lish yoki berilgan aktivlar) - to'g'ri investitsiyalar, kreditlar (turlari bo'yicha), portfel investitsiyalar, debitorlik qarzlari, qarzni uzish; **passivlar** (majburiyalarga ega bo'lish yoki olingan aktivlar) - to'g'ri investitsiyalar, kreditlar (turlari bo'yicha), portfel investitsiyalar, kreditorlik qarzlari, qarzni qaytarish; inflyatsiya yoki valyuta kurslari o'zgarishi natijasida aktiv va passivlarning o'zgarishi alohida qayd etiladi;

- xarakteriga ko'ra iqtisodiy bo'lmagan, yani favqulodda ro'y beradigan hodisalar (urush, yong'in, suv toshqini va h.k.) natijasida aktiv yoki passivlarning o'zgarishi turlari bo'yicha alohida qayd etish lozim. Masalan; binolarning yo'q bo'lib ketishi, ekin maydonlarining payhon bo'lishi yoki oborotdan chiqishi, mashina uskunalarining ishdan chiqishi va h.k.

3. Oqimlar - hisobot davrida bo'lgan iqtisodiy o'zgarishlarni ifodalovchi operatsiyalardir. Masalan: hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, hisobot oxirida ombordagi tovar miqdorining hisobot davri boshiga nisbatan qanchaga ko'payganligi (qiymat yoki natura shaklida), hisobot davrida olingan daromad hajmi, 1 yilda qilingan eksport yoki import hajmi;

4. Zaxiralar - iqtisodiy, sotsial jarayonning ma'lum bir sanadagi holatini ifodalaydi. Zaxiralarga misollar - 1 yanvar (oy boshi va oxiridagi) holatiga, mamlakatdagi aholi soni, ombordagi tovarlar miqdori, mamlakatning rezerv aktivlari miqdori, banklarning aktiv yoki passivlar hajmi, mamlakatning milliy boylik hajmi va h.k.;

5. Oldi-berdi operatsiyalar odatda ikki birlik o'rtasida sodir bo'ladi va ikkala tomonda qayd etiladi. Aktivni bergan tomonda aktivni berish (sotish, investitsiya kiritish, daromadlar to'lash va h.k.), oluvchi tomonida majburiyatning oshishi yoki talabning kamayishi sifatida qayd etiladi. Shunday operatsiyalar borki, ularda aktivni oluvchi tomonida majburiyat oshmaydi, talab kamaymaydi. Bunday operatsiyalar aktivni oluvchi tomonida *transfert* deb qayd etiladi. Masalan: A birlik V birlikka 100 mln.so'mlik mahsulotni bepul berdi. Ikkiyoqlama qayd etish usuliga ko'ra: A birlik hisobida 1-yozuvda - 100 mln. so'm sotilgan mahsulot, deb yozadi; 2-yozuvda - 100 mln so'm transfert (berilgan), deb yozadi. Aktivni oluvchi V birlik hisobida 1-yozuvda - 100 mln so'm mahsulot olingan, deb yozadi; 2-yozuvda - 100 mln so'm transfert (olingan), deb yozadi.

Agarda ushbu misolda A rezident, V norezident birlik bo'lsa ikki tomonda qayd etish quyidagicha bo'ladi. A birlik hisobida 1-yozuvda - 100 mln. so'm eksport, deb yozadi; 2-yozuvda - 100 mln so'm transfert (berilgan), deb yozadi. Aktivni oluvchi V birlik hisobida 1-yozuvda - 100 mln so'm import, deb yozadi; 2-yozuvda - 100 mln.so'm transfert (olingan), deb yozadi.

6. Transfertlar - joriy yoki kapital transfert bo'ladi. Kapital transfertlar - bir hisobot davridan ko'proq vaqt mobaynida ishlab chiqarish vositasi sifatida foydalaniladigan tovarlar va nomoddiy aktivlardan iborat. Kapital tovarlar - mashina va uskunalar, stanoklar, apparatlar va h.k. Kapital nomoddiy aktivlar - programma dasturlari (axborot bazalarini boshqarish tizimlari, EHM translyatorlari, maxsus ishlarni bajaruvchi dasturlar), tovar va xizmatni ishlab chiqarishga huquq beradigan litsenziyalar, texnik-ishlab chiqarish loyihalari va h.k. Harbiy maqsadlarda foydalaniladigan texnika va qurollar kapital transfert hisoblanmaydi.

7. Joriy transfertlar kapital bo'lmagan barcha transfertlardan iborat. Joriy transfertga misollar - barcha iste'mol tovarlari va xizmatlar, harbiy texnika va o'q otish qurollari, o'q dorilar va h.k.

8. Soliqlar va subsidiyalar - iqtisodiyotni boshqarishdagi asosiy qurollardan biridir. Bu qurol - iqtisodiy usul bilan boshqarish qurolidir. U administrativ-buyruq usulidan mohiyatiga ko'ra tubdan farq qiladi.

Soliqlar - tovar yoki xizmatni ishlab chiqarish, eksport va import qilishda cheklov vazifasini bajarmasligi kerak.

Subsidiyalar - mamlakatda hali rivojlanmagan tovar va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Soliqlar va subsidiyalarning asosiy vazifasi iqtisodiyotda iqtisodiy birliklar o'rtasida, sog'lom va erkin raqobat muhitini shakllantirishdan iborat bo'lishi lozim.

9. Soliqlar - davlat byudjetiga bevosita yoki bilvosita (yashirin) to'lanadigan va o'rni qoplanmaydigan to'lovlardan iborat.

Bevosita soliqlar qonun bilan belgilangan tarif asosida to'lanadigan soliqlardan iborat. Unga misollar - qo'shilgan qiymat solig'i, mulk solig'i, import va eksport bojlari, foydadan olinadigan soliq, daromad solig'i va h.k.

Yashirin soliqlar (subsidiyalar) - davlat tomonidan uning buyurtmasi asosida tovarlarni belgilangan harid narxlari asosida sotib olib, boshqa birliklarga sotish natijasida yuzaga keladi. Agarda davlat xarid narxlari qayta sotish narxlari (saqlash, qayta ishlash, transport va boshqa shu kabi xarajatlardan tashqari)dan past bo'lsa oradagi farq musbat bo'lib, davlat foyda ko'radi. Bu foyda yashirin soliq sifatida talqin etiladi. Chunki, davlat sektori ishlab chiqarish faoliyatidan foyda oluvchi birlik hisoblanmaydi. Aks holda, ya'ni davlat bu faoliyatdan zarar ko'rsa, bu zarar subsidiya sifatida talqin qilinadi. Bu subsidiyani mahsulotni oxirgi sotuvchiga berilgan, deb qayd etilishi MHT uslublariga mos keladi.

10. Iqtisodiy jarayonlar sodir bo'lgan vaqtdagi bozor baholarida hisobga olinadi.

11. Iqtisodiy jarayonlarda mahsulotning bozor bahosini uch xil ko'rinishda talqin va qayd etish mumkin: asosiy bahoda, ishlab chiqaruvchi va ist'molchi bahosida. Bir bahodan ikkinchi bahoga o'tish uchun uni tashkil qiluvchi omillarni bilish kifoya.

12. Aktivlar - egasiga biror naf keltirishi mumkin bo'lgan iqtisodiy ob'ektdir.

13. Aktivlar mohiyatiga ko'ra moliyaviy yoki nomoliyaviy bo'lishi mumkin.

Moliyaviy aktivlarga misollar - monetar oltin, naqd pullar, depozitlar, qimmatbaho qog'ozlar, obligasiyalar, aksiyalar, berilgan kreditlar va qarzlar va h.k.

Nomoliyaviy aktivlarga misollar - er, uy-joylar, tovarlar, buyumlar, san'at asarlari, komp'yuter dasturlari, axborot bazalarini boshqarish dasturlari, konlar, suv xavzalari, o'rmonlar va boshqalar.

14. Aktivlar kelib chiqish tabiatiga ko'ra ishlab chiqarilgan va ishlab chiqarilmagan aktivlarga bo'linadi.

Ishlab chiqarilgan aktivlar - inson tomonidan yaratilgan aktivlardan iborat. Ularga misollar - uy-joylar, inshootlar, yo'llar, mashina va uskunalar, istemol tovarlari, yaratilgan asarlar asl nusxasi va ularga egalik huquqi, komp'yuterlar dasturlari, axborot bazalarini boshqarish tizimlari va h.k.

Ishlab chiqarilmagan aktivlar - er, konlar, suv xavzalari, daryo va uning irmoqlari, o'rmonlar, tabiiy o'tloqlar, patentlangan iqtisodiy ob'ektlar, hali ishlab chiqarilmagan aktivlarga egalik huquqi va h.k.

13. Passivlar - boshqa birlik oldidagi majburiyat. Passivlar tasnifi aktivlar tasnifi bilan deyarli bir xil. Asosiy farq aktivdagi monetar oltin boshqalar uchun passiv bo'lmaydi. Bundan tashqari, aktivdagi debitorlik majburiyati(qarzi), berilgan kreditlar, boshqa moliyaviy aktivlar turlari o'rniga mos ravishda passivda kreditorlik qarzi, olingan kreditlar va boshqa moliyaviy passivlar, deb yoziladi.

Bilimlarni mustaxkamlash va takrorlash uchun savollar

1. *Iqtisodiy operatsiyalar nima? Ularga misollar keltiring?*
2. *Iqtisodiy operatsiyalar nima uchun guruhlanadi? Ularga misollar keltiring.*
3. *Oqimlar nima? Ularga misollar keltiring.*
4. *Zaxiralar nima? Ularga misollar keltiring.*
5. *Transfertlar nima? Ularga misollar keltiring.*
6. *Nima uchun transfert tushunchasi kiritilgan? Uning turlariga misollar keltiring.*
7. *Daromad nima? Uning turlarini sharhlab bering.*
8. *Sarflar va daromadlar o'rtasidagi bog'liqlik nimadan iborat? Ularga misollar keltiring.*
9. *Soliqlar va subsidiyalar nima? Ularga misollar keltiring.*
10. *Bevosita va bilvosita olingan soliqlar o'rtasida qanday farq bor? Ularga misollar keltiring.*
11. *Bevosita va bilvosita to'langan subsidiyalar o'rtasida qanday farq bor? Ularga misollar keltiring.*
12. *Soliq tasnifining ahamiyati nimadan iborat?*
13. *MHTda baholar tizimi nima uchun kerak va uning ahamiyati nimadan iborat?*

- 14. Iqtisodiy aktiv nima? Aktivlarga misollar keltiring.*
- 15. Iqtisodiy passiv nima? Passivlarga misollar keltiring.*
- 16. Aktivlarni guruhlashdan ko'zlangan maqsad nima?*
- 17. Institutsional birlikning debitorlik qarzi aktivmi yoki passivmi?*
- 18. Institutsional birlikning kreditorlik qarzi passivmi yoki aktivmi?*

V-BOB. MILLIY HISOBLAR TIZIMIDA TARMOQLAR VA SEKTORLARNING TASNIFI

1. Tarmoq va sektorlarga guruhlashning zarurati va ahamiyati

Mamlakat iqtisodiyotida minglab institutsion birliklar faoliyat ko'rsatadilar. Ularning faoliyat turlari ham xilma-xil. Ularning ma'lum bir davrdagi faoliyat natijalarini qog'ozga tushiradigan bo'lsak, bir necha tomdan iborat kitoblar hosil bo'ladi. Bu kitoblarni o'qib chiqish bilan mamlakat iqtisodiyoti to'g'risida tasavvurga ega bo'lish qiyin. Bundan tashqari, bozor munosabatlari shakllangan iqtisodiyotda har bir korxonaning iqtisodiyotini bilish va uni boshqarish zarurati ham, imkoniyati ham yo'q. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqaruvchi birliklarning soni, tarkibi va faoliyat turlari juda tez o'zgarib turadi. MHTning yuzaga kelishi tarixini eslasak, uning asosiy maqsadi mamlakatda (korxonalarda emas) kechayotgan iqtisodiy jarayonlarni holatini bilish va bu axborotlarga tayangan holda kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan iqtisodiy jarayonlardan boxabar qilishga imkon yaratadigan axborot bazasini qurishdir. Mamlakatning asosiy iqtisodiy bazasini tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish tashkil qiladi. Shu sababli, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish va ularning qanchalik darajada mamlakatning iste'mol talablarini qondirayotganligini bilish muhim ahamiyatga ega. Tovarlarni va xizmatlar turli institutsion birliklar tomonidan ishlab chiqiladi. Ma'lum bir sifatga ega bo'lgan tovarni qaerda ishlab chiqarishdan qat'iy nazar, hamma erda ham, uni ishlab chiqarish texnologiyasi, sarf xarajatlari, uni ishlab chiqarishdan olinadigan naf ham tahminan bir-biriga yaqin. Tovar va xizmat ma'lum bir iqtisodiy faoliyat turi mahsuli bo'lganligi uchun, iqtisodiyotda mavjud faoliyat turlarini o'rganish orqali mamlakatda bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarni bilish mumkin.

Institutsion birliklar bir-birlariga, bir tomondan, o'zlarining faoliyat turlari bilan o'xshash bo'lsalar, ikkinchi tomondan, ular oldilariga qo'ygan maqsadlari, vazifalari va bu maqsadlarni qanday amalga oshirishlariga qarab ham bir-birlariga o'xshaydilar. SHu sababli, tarmoq va sektorlar tasniflaridan amaliyotda foydalanish iqtisodiyotni o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Tarmoq tasnifining qulayligi, shu tarmoqqa kiruvchi barcha korxonalarni alohida-alohida o'rganish o'rniga, yirik-yirik faoliyat turlarini

o'rganish bilan kifoyalanish imkonini beradi. Bu bir tomondan, iqtisodiy tahlilni soddalashtirsa, ikkinchi tomondan, tarmoqlararo iqtisodiy munosabatlarni o'zgarish tendensiyalarini o'rganish orqali mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish holatini bilish imkonini beradi. Tarmoqlararo hisobotlar kelajak uchun iqtisodiy rivojlanishning dasturlarini tuzishda va asoslashda axborot bazasi bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiyotning holatini tahlil qilishda sektor tasnifining ahamiyati juda katta. Bu tasnif orqali mamlakatda qanday jamiyat qurilganligini va kelajakka belgilangan iqtisodiy va sotsial siyosatning natijalarini bashorat qilish mumkin. Iqtisodiyot sektorlarining ishlab chiqarish, daromad, investitsiya ko'rsatkichlarini tahlil qilish va sektorlararo daromadlarni taqsimot jarayonlarini kuzatish orqali mamlakat iqtisodiyoti rivojiga salbiy yoki ijobiy ta'sir etuvchi holatlarni bilish mumkin.

2. Tarmoq tushunchasi va uning tasnifi

Institutsion birliklar ishlab chiqarish faoliyatining o'xshashligi yoki bir xilligiga qarab tarmoqlarga guruhlanadilar. Tarmoqlarga guruhlash natijasida iqtisodiy jarayonlarni ixcham va sodda holda ifodalash mumkin. Mamlakat miqyosida yagona tarmoq tasnifini tatbiq etilishi korxonadan to yirik tarmoqlar va milliy iqtisodiyot darajasigacha yagona axborot tizimini ishlab chiqishga, hamda iqtisodiyotni boshqarishda yoki yo'naltirishda tarmoqlarga xos umumiy jihatlarni hisobga olgan holda iqtisodiy siyosat yuritishga imkon yaratadi.

XX-asrning oxirlariga qadar dunyoda ikkita tarmoq tasnifi amaliyotda qo'llanib kelindi. Buning birinchisi, XXB tizimida ishlatib kelingan tarmoq tasnifi bo'lsa, ikkinchisi, MHT tizimida ishlatilayotgan Xalqaro tarmoq tasnifidir (XTT). Bu ikkala tarmoq tasniflari bir-biriga juda o'xshash. Bu tasniflarning bir-biridan farqi, ularning ikki iqtisodiy nazariyaga asoslangan tizimlarga xosligidan kelib chiqadi. Quyida, bu ikkala tarmoq tasniflarining eng yirik tarmoqlarini keltiramiz (5.1-jadval).

Dunyo miqyosida XTTni yuzaga kelishi nafaqat alohida olingan mamlakat, balki mamlakatlararo iqtisodiy va sotsial muammolarni bilishga va ularni bartaraf qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, shu tasnif asosida dunyo miqyosida oziq-ovqat, yoqilg'i va boshqa shu kabi mahsulotlarga talab va taklif o'rtasidagi munosabatni o'rganish, ular o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqish, dunyo miqyosida bo'lishi mumkin bo'lgan inqirozlarni (don, neft' mahsulotlari etishmovchiligi) oldini olish mumkin.

MHTda tarmoq tasnifi

XXB tarmoq tasnifi	Xalqaro tarmoq tasnifi
1. Moddiy ishlab chiqarish	Qishloq xo'jaligi, ovchilik va o'rmon xo'jaligi
Sanoat	Baliqchilik
Qishloq xo'jaligi	Kon sanoati
Qurilish	Tayyorlov sanoati
Transport(yuk transporti)	Elektr energiyasi, gaz, suv ta'minoti
Aloqa	Ulgurji va yakka savdo, avtomobil, mototsikl, teleradio apparaturalarni ta'mirlash
Savdo, tayyorlov, moddiy texnik ta'minot	Mehmonxonalar, restoranlar
Moddiy ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlari	Transport, aloqa, omborxonalar xizmati
2. Nomoddiy xizmatlar ko'rsatish	Moliya vositachiligi
Yakka xizmatlar ko'rsatish	Ko'chmas mulk, arenda va boshqa tijorat faoliyati
Uy-joy kommunal xizmati	Davlat boshqaruvi va mudofaa, majburiy sotsial ta'minot
Maishiy xizmatlar	Maorif
Maorif	Meditsina va sotsial xizmatlar
Madaniyat va san'at	Har xil kommunal, sotsial va maishiy xizmatlar
Meditsina	Yollanma xizmatchisi bor bo'lgan uy xo'jaliklari
Sotsial ta'minot	
Fizkultura	Xalqaro miqyosdagi tashkilotlar
Turizm	
Kollektiv xizmatlar	
Fan va ilmiy xizmatlar	
Moliya, kredit, sug'urta xizmati	
Boshqaruv idoralari	
Boshqa kollektiv xizmatlar	

Bu tasnif asosida tayyorlangan ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlari to'g'risidagi hisobotlardan foydalangan holda ishlab chiqaruvchilarning faoliyatlarini iste'mol talabi yuqori bo'lgan faoliyatlar bilan shug'ullanishga yo'naltirish mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida, bu yo'naltirish asosan iqtisodiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, mamlakatda u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun soliq stavkalarini boshqa tarmoqlar (faoliyat turlari)ga nisbatan kamaytirish (yoki soliq yo'q bo'lsa subsidiyalar berish) orqali amalga

oshiriladi. Bozorda iste'mol talabidan ko'p ishlab chiqarilayotgan faoliyat turlariga soliq miqdorini oshirish orqali ortiqcha mahsulotlarni ishlab chiqarishni oldini olish mumkin.

3. Sektor tushunchasi va uning tasnifi

XXB hisobot va statistika tizimi va MHTda milliy iqtisodiyotni sektorlarga guruhlash bir-biridan tubdan farq qiladi. XXB tizimida sektorlarga guruhlashda asosan institutsional birliklarning qanday mulk shaklida ekanligiga qarab, ya'ni bu birlik umumxalq (sotsialistik) yoki xususiylikiga qarab sektorlarga guruhlanadi.

XXBdagi sektorlar tasnifi

I. Sotsialistik sektor

1. Davlat sektori

1.1. Xo'jalik hisobidagi korxonalar

1.2. Moliya korxonalari

1.3. Budjet tashkilotlari

2. Kooperativlar

3. Jamoat tashkilotlari

4. Ishchi-xizmatchilarning yordamchi xo'jaligi

5. Kooperativ a'zolarining yordamchi xo'jaligi

II. Xususiy sektor

MHTda esa, institutsional birliklar iqtisodiy faoliyat yuritish turlari va bajaradigan vazifalarining o'xshashligi hamda mamlakat iqtisodiyotida o'zlarini tutishlariga qarab **sektorlarga** birlashtiriladi (5.2-jadval). Sektorlar o'z navbatida, quyi (kichik) sektorlarga ajratiladi. Quyi sektorlarga ajratish har bir mamlakatning axborotga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Iqtisodiyotni sektorlarga guruhlash natijasida mamlakatda ishlab chiqarishda bu sektorlarning o'rni yoki ulushi qanday bo'lganligini va bu jarayonda hosil qilingan daromadlarni ular o'rtasida qanday (qay darajada adolatli) shakllanganligi va taqsimlanganligini o'rganish mumkin. Masalan, moliya sektorining yalpi ichki mahsulotdagi *ulushining* muttasil o'sib borishi, moliya xizmatining «yuki» asossiz ravishda oshib real ishlab chiqarish sohasiga og'irlik qilayotganligini bildiradi. Davlat sektorining YAIMdagi ulushining katta yoki kichikligiga qarab, mamlakatda bozor munosabatlarining qay darajada

rivojlanayotganligini bilish mumkin. Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar sektorining ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining dinamikada o'sishi mamlakatda demokratik va umuminsoniy qadriyatlarining ravnaqini bildiradi.

Nomoliya korxonalar sektori. Bu sektorga asosiy faoliyatlari tovar va xizmatlar ishlab chiqarish bo'lgan va faoliyatlarini o'z mahsulotlarini sotishdan tushgan tushumlar evaziga yurituvchi institutsion birliklar kiradi.

Odatda bu birliklar, o'zlari ishlab chiqargan tovar va xizmatlarini talab va taklifdan kelib

5.2-Jadval.

MHTdagi sektorlar tasnifi

Sektorlar	Iqtisodiy vazifasi	Faoliyati uchun resurslar manbai
1.Nomoliyaviy korxonalar 1.1.Davlat sektori 1.2.Nodavlat (xususiy) sektor 1.3.Chet el firmalari	Tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish.	Tovar va xizmatlarni sotishdan tushgan tushumlar, mulkdan olgan daromadlari.
2.Moliya tashkilotlari 2.1.Markaziy bank 2.2.Pul korporatsiyalari 2.3.YOrdamchi moliya tashkilotlari 2.4.Sug'urta va nafaqa fondlari	Moliya resurslarini yig'ish, o'tkazish va taqsimlash. Sug'urta va nafaqa fondlarini tashkil qilish.	Moliya operatsiyalaridan olingan foizlar, foydalar. Sug'urta va nafaqa badallari. Mulkdan olgan daromadlari.
3.Davlat boshqaruv idoralari 3.1.Markaziy hukumat idoralari 3.2.Mahalliy hokimiyat idoralari 3.3.Sotsial ta'minot fondlari	Aholi guruhlariga, uy xo'jaligiga nobozor xizmatlar ko'rsatish, milliy daromad va boylikni taqsimlash va qayta taqsimlash.	Bevosita yoki bilvosita olingan soliqlar.
4.Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar	Uy xo'jaliklariga, aholi guruhlariga nobozor xizmatlar ko'rsatish.	Ixtiyoriy to'lovlar, badallar, mulkdan olgan daromadlari.
5.Uy xo'jaliklari 5.1.Ish beruvchilar 5.2.O'zi uchun ishlovchilar 5.3.YOllangan ishchi-	Tovar va xizmatlarni iste'mol qilish, tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish.	Ish haqi, mulkdan olgan daromadlari, transfertlar, tovar va xizmatni sotishdan tushgan tushumlar.

xizmatchilar 5.4.Xususiy mulkdan daromad oluvchilar		
---	--	--

chiqqan holda bozor baholarida sotadilar. Ularning pirovard maqsadlari foyda olishga qaratilgan bo'ladi. Bu korxonalarining faoliyati uchun kerak bo'lgan resurslar (aylanma mablag'lar, asosiy ishlab chiqarish vositalari) asosan ishlab chiqargan tovarlarini sotish va xizmat ko'rsatishdan tushgan mablag'lar hisobiga vujudga keladi. Ular deyarli hamma (qonun bilan chegaralanmagan) faoliyat turlari bilan shug'ullanadilar. Bu sektorga kiruvchi institutsion birliklarga misol tariqasida, barcha zavod va fabrikalarni, qurilish, qishloq xo'jaligi, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish, transport va boshqa xizmat ko'rsatish korxonalarini keltirish mumkin. Xo'jalik hisobida faoliyat yurituvchi maorif va meditsina xizmati ko'rsatuvchi korxonalar ham shu sektorga kiradi.

Bu sektorga kiruvchi korxonalar turli xil mulklar asosida tashkil qilingan bo'lishi mumkin. Masalan, davlat nazoratidagi nomoliya korxonalar, nodavlat nomoliya korxonalar, norezidentlar nazoratidagi nomoliya korxonalar, aralash mulk ishtirokida qurilgan nomoliya korxonalar bo'lishi mumkin. Har bir mamlakat o'z ehtiyojidan kelib chiqqan holda quyi sektorlar tarkibini aniqlaydi.

Moliya tashkilotlari sektori. Bu sektorga moliyaviy vositachilik yoki unga bog'liq bo'lgan yordamchi moliyaviy faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar kiradi. Ularning asosiy vazifasi institutsion birliklardagi bo'sh moliya resurslarini yig'ib, boshqa institutsion birliklarga kreditlar berish, turli xil fondlarni tashkil qilish hamda sug'urta faoliyatidan iborat. Bu sektorga markaziy bank, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va har xil fondlar kiradi.

Moliyaviy vositachilik deganda - institutsion birlikning o'ziga moliyaviy majburiyatlar olish evaziga moliya bozorida aktivlarga ega bo'lish maqsadidagi faoliyati tushuniladi. Moliya vositachilarining asosiy vazifasi qarz beruvchilardan mablag'larini kelishilgan majburiyat evaziga olib, boshqa institutsion birliklar (qarz oluvchilar)ni moliya resurslariga bo'lgan talabini qondirishdan iborat. Vositachi qarz oluvchidan xizmati evaziga ustama foizlar oladi. Vositachilar o'z faoliyatlarida aholi, korxonalar va tashkilotlarning bo'sh mablag'larini jamlaydilar, ularni moliya bozorida taqsimlaydilar va qayta taqsimlaydilar. Bundan tashqari, ular o'z hisobidan (o'zlariga majburiyat olgan holda) veksellar, obligasiya va qimmatbaho qog'ozlar chiqarish va sotish natijasida moliya resurslariga ega bo'ladilar.

Bu resurslardan moliya bozorida yangi aktivlarga ega bo'lishda foydalanadilar.

Bu sektorga kiruvchi banklar, sug'urta va boshqa moliya tashkilotlari tashkiliy strukturasi ko'ra korporativ yoki nokorporativ bo'lishi mumkin. Ular davlat va nodavlat tashkilotlari hamda xususiy shaxslar tomonidan tashkil qilingan bo'lishi mumkin. Ularni kichik sektorlarga bo'lish har bir kichik sektorning rivojlanish tendensiyalarini o'rganishga imkon beradi. Odatda Markaziy bank, oldiga qo'yilgan vazifalarga ko'ra boshqa moliya tashkilotlaridan tubdan farq qiladi. Uning asosiy vazifasi iqtisodiyotni pul bilan ta'minlash, pul massasini muqobilligini ta'minlagan holda inflyatsiyani oldini olishdan iborat. Bundan tashqari, Markaziy bank mamlakatning oltin va valyuta zaxiralarini saqlaydi va boshqaradi, xalqaro moliya tashkilotlari bilan mamlakat nomidan hamkorlik qiladi. Mamlakatda pul-kredit siyosatini yuritadi.

Tijorat banklari o'z mablag'lari va boshqa sektorlarning bo'sh mablag'larini yig'ib, institutsion birliklar talabiga muvofiq ularga kreditlar beradi. Bu banklar moliya mablag'larini olayotgan va berayotganda olinadigan va beriladigan foizlardan hosil bo'ladigan mablag'lar evaziga faoliyat yuritadilar.

Sug'urta tashkilotlari iqtisodiyotning turli sohalarida iqtisodiyot bilan bog'liq ko'zda tutilmagan yo'qotishlarni sug'urta qiladilar. Ular faoliyatlarini sug'urta badallari va bo'sh mablag'larini investitsiya qilishdan tushgan mablag' evaziga yuritadilar.

Bu sektorga, yuqorida keltirilganlardan tashqari, investitsiya, nafaqa va turli xil jang'arish foddari ham kiradi.

Davlat boshqaruv idoralari sektori. Bu sektorga mamlakat aholisiga kollektiv xizmatlar ko'rsatuvchi va davlat nazoratida bo'lgan tashkilotlar kiradi. Bu korxonalar asosan davlat byudjetidan moliya bilan ta'minlanadi.

Bu sektorga kiradigan institutsion birliklarning muhim belgilaridan biri ularning asosiy bajaradigan vazifasi mamlakat aholisiga nobozor xizmatlar ko'rsatish (mudofaa, milisiya, xavfsizlik, sud va prokuratura xizmati, sotsial ta'minot, maorif, meditsina, madaniyat, san'at, axborot vositalari va h.k.) ekanligidir. Ular aholi talabini qondirish maqsadida va mamlakat qonunlarida belgilangan tartibda individual yoki kollektiv (jamo) iste'moli uchun nobozor tovar va xizmatlarni ishlab chiqaradilar. Mamlakatda byudjet mablag'larining yig'ilishini va bu mablag'larni qonunda belgilangan tartibda taqsimlanishini ta'minlaydilar va nazorat qiladilar. Qonunlarda belgilangan siyosiy va iqtisodiy rivojlanish tadbirlarini amalga oshiradilar. Mamlakatning xavfsizligini, uning mudofaa

qobiliyatini mustahkamlash, xalqning farovonligini ta'minlash tadbirlarini ko'radilar. O'zbekiston sharoitida bu sektorga kiruvchi institutsion birliklarni markaziy hukumat idoralari, Qoraqalpog'iston respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy boshqaruv idoralari va sotsial sug'urta tizimi quyi sektorlariga guruhlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, davlat boshqaruv idoralari sektoriga kiruvchi tashkilotlar umuman olganda nobozor tovar va xizmatlar ishlab chiqaradilar va ularning asosiy maqsadi daromad yoki foyda olish emas. Nomoliya korxonalarini sektoriga kiruvchi korxonalar o'z mahsulotlari va xizmatlarini iqtisodiy ahamiyatga molik narxlarda sotadilar. Davlat boshqaruv sektoriga kiruvchi notijorat tashkilotlari esa o'z mahsulotlari va xizmatlarini odatda, bepul beradilar yoki iqtisodiy ahamiyatga molik bo'lmagan narxlarda sotadilar.

Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektori. Bu sektorga aholining individual va umum (kollektiv) talabini qondirishda band bo'lgan institutsion birliklar kiradi. Bunday tashkilotlar odatda aholi guruhlari tomonidan ixtiyoriy ravishda tuziladi va aksariyat hollarda o'z a'zolariga xizmat ko'rsatadilar. Bu tashkilotlarning resurslari asosan tashkilot a'zolarining badallari, aholi va boshqa rezident va norezident institutsion birliklar tomonidan to'langan ixtiyoriy to'lovlardan, hamda tashkilotning mulkdan olgan daromadlaridan hosil bo'ladi.

Bu sektorga kiruvchi institutsion birliklarga partiyalarni, kasaba uyushmalarini va diniy tashkilotlarni, turli xil ilmiy – madaniy jamiyatlarni, insonparvarlik yordami ko'rsatuvchi va atrof muhitni himoya qilish tashkilotlarini misol sifatida keltirish mumkin.

Ularning boshqa sektorlardan asosiy farqi faoliyatlarining notijorat xarakteri, ularning uy xo'jaligi (aholiga)ga xizmat qilishi, davlat boshqaruv idoralari yoki boshqa korxonalar tomonidan nazorat qilinmasligi va faoliyat yuritishi uchun resurslarning ixtiyoriylik tamoyili asosida hosil bo'lishi bilan izohlanadi.

Uy xo'jaliklari sektori. MHTda uy xo'jaligi alohida hisobot birligi sifatida institutsion birlik hisoblanadi. Uy xo'jaligi - o'z daromadlarini birgalikda tasarruf etuvchi alohida oila, yoki oilalar guruhi, yoki yakka xususiy shaxs bo'lishi mumkin. YA'ni, alohida institutsion birlik bo'lishning muhim sharti ularning topgan-tutgan moddiy yoki moliyaviy mablag'lariga birgalikda egalik qilishdadir.

O'zbekiston sharoitida, aksariyat hollarda bir uy(xonadon)da bir necha avlod birgalikda istiqomat qiladilar. Ular, bir necha oiladan iborat bo'lishi mumkin. Bu oilalar topgan-tutganlarini o'rtada birgalikda baham ko'rib,

yagona ro'zg'or yuritsalar yoki xonadonda bir qozon qaynasa, ular bir uy xo'jaligi hisoblanadilar. Ular birgalikda tursalaru, lekin ro'zg'orlarini alohida-alohida yuritsalar yagona uy xo'jaligi hisoblanmaydilar.

Uy xo'jaligi sektori boshqa sektorlar orasida alohida mavqega ega. Bu sektor birliklari boshqa hamma iqtisodiyot sektorlariga ishchi kuchini yetkazib beradilar, ular ishlab chiqargan tovar va xizmatlarni iste'mol qiladilar. Bundan tashqari, bu sektor birliklari bevosita ishlab chiqarish faoliyati bilan ham shug'ullanadilar.

Uy xo'jaligini quyidagi kichik sektorlarga guruhlash mumkin:

- ish beruvchi uy xo'jaliklari;
- mustaqil faoliyat yurituvchi uy xo'jaliklari;
- yollanma ishchi-xodimlar uy xo'jaliklari;
- mulkdan daromad oluvchi uy xo'jaliklari;
- boshqalar. —

Ish beruvchi uy xo'jaliklari quyi sektoriga uy xo'jaligi qoshida nokorporativ korxonalar bor va bu korxonalarda uy xo'jaligi a'zolaridan tashqari boshqa yollanma ishchi-xizmatchilarga ish beruvchi uy xo'jaliklarini kiritish mumkin.

Mustaqil faoliyat yurituvchi uy xo'jaliklari quyi sektoriga boshqa institutsion birliklarda yollanma mehnat bilan shug'ullanmaydigan uy xo'jaliklari kiradi.

YOllanma ishchi-xodimlar uy xo'jaliklari quyi sektoriga yashash uchun asosiy daromadlarini yollanma mehnat evaziga topadigan uy xo'jaliklarini kiritish mumkin.

Mulkdan daromad oluvchi uy xo'jaliklari quyi sektoriga yashash uchun asosiy mablag'larni o'zlariga tegishli aksiya, obligasiya, qimmatli qog'ozlardan va boshqa aktivlaridan daromad (dividend, foiz)lar oladigan uy xo'jaliklarini kiritish mumkin.

Har bir mamlakat uy xo'jaliklarining amaliyotdagi tarkibidan kelib chiqqan holda quyi sektorlar tasnifini ixtiyoriy ravishda qo'llash mumkin.

Tashqi dunyo. Biz yuqorida mamlakat iqtisodiyotida faoliyat yurituvchi institutsion birliklarni 5ta sektorga ajratdik. Bu institutsion birliklar o'z faoliyatlarida bu beshta sektorga kiruvchi birliklardan tashqari chet el rezident birliklari bilan ham operatsiyalar qiladilar. CHet el rezidentlari mamlakat rezidentlari uchun norezident birlik hisoblanadi. Rezident va norezident birliklar munosabatlarini yoritish va qulaylik uchun MHTda **tashqi dunyo** sektori kiritilgan.

Bu sektorga mamlakat rezident birliklari bilan operatsiyalar qiladigan barcha norezidentlar kiradi. Bu operatsiyalar tovar va xizmatlar,

aktiv va passivlar, investitsiyalar va kreditlar, daromadlar va transfertlar ayirboshlash ko'rinishida bo'lishi mumkin. Norezident birliklar mamlakat ichkarisida bo'lishi mumkin. Masalan, mamlakat xudida joylashgan chet el elchixonalari, harbiy bazalar, chet ellik turistlar, studentlar, artistlar, sportchilar, davolanishga kelganlar va h.k.

4. Institutsion birliklarni guruhlashdagi muammolar

Institutsion birliklarni tarmoqlar va sektorlarga guruhlashda ayrim chegaralash muammolariga duch kelish mumkin. Ularning ayrimlari to'g'risida mulohazalar bildirib o'tamiz.

Ish joylarini, binolarni boshqa birliklarga vaqtinchalik berib turish, tashqaridan qaraganda, o'z mulkini berib undan daromad olinayotganday ko'rinadi. Aslida, bu mulkka egalik huquqi egasida qoladi. Uni oluvchi vaqtinchalik foydalanish huquqiga ega xolos. Mulk egasi mulkini ijaraga berayapti xolos. Shu sababli, bu faoliyat ishlab chiqarish sifatida ijara xizmati hisoblanadi. Bu o'rinda, uyni ijaraga berish bilan mehmonxona xizmati o'rtasida farq yo'qligini eslash kifoya.

Korxonalar turlicha nomlanishi mumkin. Ularning nomlariga qarab, ularning qaysi sektorga tegishli ekanliklarini bilish oson emas. Masalan, davlat korxonalari, qo'shma korxonalar, birlashmalar, ma'suliyati cheklangan korxonalar, xususiy korxonalar va h.k. Sektorlarga guruhlashda korxonalarning nomlariga qarab emas, avvalo ularning oldilariga qo'ygan maqsadlariga, bu maqsadlarga qanday erishayotganliklariga va o'z faoliyatlarini yuritish uchun mablag'larni qaysi manbalardan olayotganliklariga e'tiborni qaratish zarur. Ayrim hollarda, korxonalar bir vaqtning o'zida bajarayotgan vazifalariga, o'zini tutishiga ko'ra turli sektorlarga tegishli belgilarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, davlat tasarrufidagi va nazoratidagi diagnostika markazi bir vaqtning o'zida bozor va nobozor xizmati ko'rsatadi. Bu markaz aholining ma'lum bir guruhlariga bepul va qolganlarga pulli xizmat ko'rsatadi. Mos ravishda davlat byudjetidan va pulli xizmatdan tushgan mablag' evaziga faoliyatini yuritadi. Bu markaz qaysi sektorga taalluqli? – degan savol tug'iladi. Bunday muammo davlatga, uy xo'jaliklariga va chet el rezidentlariga qarashli korxonalarda ham ko'plab uchraydi. Shu sababli, ikki sektorga moyil bunday korxonalarni shartli ravishda ikki institutsional birlikka ajratiladi. Shartli ravishda hosil bo'lgan korxonalar – *kvazikorxonalar* (*kvazikorporatsiya*) deb ataladi. Hosil bo'lgan bu ikki korxonalar mos ravishda sektorlarga kiritiladi. Keltirilgan misoldagi diagnostika markazini

ikkiga bo'linadi. Birinchisi, davlat boshqaruv idoralari sektoriga kiruvchi korxonalar, korxonaning nobozor xizmati ko'rsatadigan qismi. Ikkinchisi, -pulli xizmat ko'rsatuvchi qismi shartli ravishda hosil bo'lgan **kvazikorxonalar** nomoliya korxonalar sektoriga kiritiladi.

Chet el korxonalarining bizning mamlakatdagi bo'linmalari, filiallari, vakolatxonalari mustaqil korxonalar hisoblanmasada, ularning faoliyatlari mustaqil korxonalarikiga o'xshash va iqtisodiy faoliyatlari chegarasida mustaqil bo'lishlari mumkin. Ular mamlakatda uzoq vaqt iqtisodiy faoliyat yuritish maqsadini ko'zlab tashkil qilingan va ularning milliy iqtisodiyotga qo'shayotgan hissalarini katta bo'lishi mumkin. Shu sababli, ularni rezident birlik sifatida kvazikorxonalar hisoblab, ichki iqtisodiyot sektorlari tarkibiga kiritish mumkin. Bunday kvazikorxonalar mamlakatda uzoq muddat davomida faoliyat ko'rsatayotgan chet el korxonalarining qurilish brigadalarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Uy xo'jaliklari tasarrufida va nazoratida bo'lgan nokorporativ korxonalarining ayrimlari faoliyat yuritishlari va o'zlarini tutishlariga ko'ra ko'proq nomoliya korxonalar sektoriga qarashli xususiy korxonalar o'xshaydi. Shu sababli, ularni ham kvazikorxonalar sifatida nomoliya sektoriga kiritish mumkin. Bunga, uy xo'jaligi tomonidan litsenziya asosida tashkil qilingan va tashqaridan yollanma ishchi-xizmatchilar jalb etilgan nonvoyxonalar, oshxonalar, qurilish brigadalarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Notijorat tashkilotlari sektorlarga ajratishda ham bir qancha chegaraviy muammolar mavjud. Bu tashkilotlar tashqaridan qaraganda «notijorat» bo'lib ko'rsatilsada, faoliyatlariga ko'ra har doim ham ularni uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektoriga kiritib bo'lmaydi. Notijorat tashkilotlar davlat tomonidan, rezident yoki norezident korxonalar, aholi guruhlari va alohida shaxslar tomonidan turli maqsadlarni ko'zlagan holda tuzilishi mumkin. Ularning oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga qarab to'g'ridan-to'g'ri qaysi sektorga kirishlarini bilish ancha mushkul. Ularning asosiylari ustida to'xtalib o'tamiz.

Bozor uchun tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi notijorat tashkilotlar. Byudjet mablag'laridan moliyalashtiriladigan maktab, bog'cha, kasalxonalar va boshqa davolanish maskanlari, nogironlar uchun aravacha yoki protezlar ishlab chiqaradigan zavodlar, oliy o'quv yurtlari aholiga bepul xizmat ko'rsatadilar. Bu notijorat tashkilotlar bilan bir qatorda xuddi shu tovar va xizmatlarni haq evaziga ko'rsatuvchi tashkilotlar ham bor bo'lishi mumkin. Ular aholiga bozor xizmatlarini ko'rsatadilar. Bu tashkilotlar vazifalariga va maqsadlariga ko'ra nomoliya korxonalarini sektoriga kiradi. Ko'p hollarda, bir tashkilotning o'zi bozor va

nobozor xizmatlar ko'rsatishi mumkin. Masalan, kasalxona bepul va pulli xizmat ko'rsatadi. Bunday hollarda, bu birlik shartli ravishda ikkita birlikka bo'linadi va mos ravishda davlat boshqaruv idoralari va nomoliya korxonalar sektorlariga kiritiladi.

Bozor ishlab chiqaruvchilarga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar. Bu tashkilotlar o'z a'zolarining manfaatini himoya qilishga qaratilgan xizmatlar ko'rsatadi. Ular o'z a'zolari tomonidan to'langan badallar yoki ajratmalar hisobiga faoliyat ko'rsatadilar. Bu to'lovlar ularning xizmatlariga to'langan haq deb qaraladi. SHu sababli, ular bozor ishlab chiqaruvchilar qatoriga qo'shiladi va nomoliya korxonalar sektoriga kiritiladi. Masalan, fermer va dehqon, xunarmandlar va boshqa ishlab chiqaruvchilar uyushmalari faoliyati tashqaridan qaralganda, nobozor ishlab chiqarishga o'xshasa ham, ular aslida bozor ishlab chiqaruvchilardir. Ularning faoliyati bir jihatdan davlat boshqaruv idoralarinikiga o'xshasa, ikkinchi jihatdan uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat korxonalariga o'xshaydi. Bunday tashkilotlarni nomoliya korxonalar sektoriga kiritisa to'g'ri bo'ladi.

Davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va nazorat qilinadigan notijorat tashkilotlar. Bu tashkilotlar davlat tomonidan alohida tashkilot sifatida tashkil etilgan bo'lib, davlat byudjetidan moliya resurslari bilan ta'minlanadi. Bular qatoriga ilmiy-tekshirish institutlarini, sog'liqni saqlash bilan bog'liq xizmatlarni bajaruvchi tashkilotlar, maorif, atrof muhitni himoya qilish bilan bog'liq tashkilotlarni kiritish mumkin. Bu tashkilotlar o'z sohalari miqyosida davlat bajaradigan vazifalarni bajaradilar va davlat nazoratida bo'ladilar. Ular xo'jalik hisobidagi yoki byudjet tashkiloti bo'lishi mumkin. Nomlaridan nomoliya korxonalariga o'xshashlari mumkin. Masalan, «Kibernetika», «Quyosh» ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari. Bunday tashkilotlar nomi va faoliyati qanday bo'lishidan qat'iy nazar davlat boshqaruv idoralari sektoriga kiritiladilar.

Institutsion birliklarning rezident yoki norezident birlik ekanligini bilishda ham chegaraviy muammolar mavjud. Masalan, institutsion birlikning iqtisodiy manfaati qaysi mamlakat iqtisodiy hududiga qaratilganligini bilish bu birlikning qancha muddatga kelganligi bilan (bir yil va undan ortiq), ish joylari bor yoki yo'qligi, birlikning oldiga qo'ygan maqsadiga ko'p jihatdan bog'liq. Bu belgilar orqali institutsion birlikning rezident yoki norezident ekanligini bilishga ma'lum bir vaqt kerak bo'ladi. Lekin, ular bilan operatsiyalar ularning kelgan kunidayoq bo'lishi mumkin. SHu sababli, rezident yoki norezidentlikni belgilashda dastlab ularning maqsadlariga qarab ajratish tavsiya etiladi. Masalan, chet ellik fuqaro

O'zbekistonga yuz foiz o'z kapitali hisobiga korxonaga ochdi. Korxonaga O'zbekiston fuqarosidan ijrochi direktor tayinladi. Bu misolda, korxonaga tashkil qilingan vaqtidan boshlab rezident birlik hisoblanadi. Chunki korxonaning maqsadi shu mamlakatda uning qonunlari asosida iqtisodiy faoliyat ko'rsatib, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va foyda ko'rish. Bu korxonaga 100 foiz chet el (fuqarosi) nazoratidagi korxonaga hisoblanadi. Shu sababli, korxonaga egasi (chet ellik fuqaro) norezident birlik bo'lib hisoblanadi. Chunki, uning kapital olib kirishdan maqsadi foyda olishdir. Bu misolda korxonaning soliq to'lagandan keyin qolgan foydasi uning ixtiyorida bo'ladi.

1. Tarmoq (quyi tarmoq) - institutsion birliklarni tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish texnologiyalarining bir-biriga yaqinligi yoki o'xshashligiga qarab guruhlashdir. Masalan: erdan foydalanib mahsulot ishlab chiqarish - dehqonchilik quyi tarmog'i hisoblanadi; er va uy hayvonlarini boqib ulardan mahsulot olish - chorvachilik quyi tarmog'i hisoblanadi; tovarlarni qayta ishlash sanoat tarmog'i; tovarlarni sotish - savdo xizmati tarmog'i; tovarlarni bir joydan ikkinchi joyga yetkazib berish - transport tarmog'i; avtomobilda tovarni yetkazib berish - avtomobil transporti quyi tarmog'i; samolyotda yetkazib berish avia transporti quyi tarmog'i va h.k.

2. Tarmoqqa guruhlashdagi asosiy qoidalar:

- tarmoqqa kirgan birliklar aynan bir xil yoki o'xshash mahsulot ishlab chiqaradilar;

- bir-xil yoki turdosh ishlab chiqarish texnologiyalaridan va ishlab chiqarish vositalaridan foydalanadilar.

3. Tarmoq tasnifi - hisobotlarni soddalashtiradi, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishga va modellashtirishga imkon yaratadi, iqtisodiy siyosatini yuritishda qulayliklar tug'diradi.

4. Sektor - institutsion birliklarni oldiga qo'ygan maqsadi va iqtisodiy vazifalarining bir-biriga yaqinligi yoki o'xshashligiga qarab hamda asosiy faoliyatlarini yuritishga kerak bo'lgan mablag'lar manbaalarining o'xshashligiga qarab guruhlashdir. Masalan: bozor uchun tovar va nomoliyaviy xizmat ko'rsatuvchi birliklar - nomoliya korxonalar sektori sifatida guruhlanadi; davlat boshqaruv xizmatini bajaruvchi vazirliklar, idoralar, tashkilotlar hamda davlat byudjeti hisobiga mamlakat aholisiga

ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchilar - davlat boshqaruv idoralari sektoriga guruhlanadilar.

5. Har bir sektor ichida quyi sektorlarga guruhlashdagi asosiy belgilar har bir mamlakatning ma'lumotlarga bo'lgan o'z ehtiyojidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Masalan: Nomoliya korxonalar sektori mulk egaligi turiga qarab - davlat mulki ishtirokidagi, chet el kapitali asosidagi, xusuiy mulkga asoslangan va boshqa shu kabi korxonalar quyi sektorlariga guruhlanishi mumkin.

6. Nomoliya korxonalar sektoriga kiruvchi birliklarga misollar: tovar ishlab chiqaruvchi barcha zavodlar, fabrikalar, kichik biznes korxonalar, elektrostansiyalar, yuridik maqomga ega bo'lgan transport, aloqa korxonalar, xususiy - nodavlat tibbiy muassasalar, dam olish maskanlari va bog'chalar.

7. Moliya korxonalar sektoriga kiruvchi birliklarga misollar: markaziy bank, tijorat banklari, kredit uyushmalari, ixtiyoriy sug'urta kompaniyalari va nafaqa fondlari.

8. Davlat boshqaruv idoralari sektoriga kiruvchi birliklarga misollar: prezident apparati, oliy majlis, vazirliklar, qo'mitalar va boshqa davlat idoralari.

9. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektoriga kiruvchi birliklarga misollar: partiyalar, diniy tashkilotlar, yoshlar tashkiloti, turli nodavlat jamoat tashkilotlari.

10. Uy xo'jaligi sektoriga kiruvchi birliklarga misollar: alohida yashovchi fuqarolar, oilalar, oilalar guruhi.

Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar

1. Institutsional birliklarni tarmoqlarga guruhlash zarurati nimadan iborat?

2. Institutsional birliklar qaysi belgilariga ko'ra tarmoqlarga guruhlanadilar? Misollar keltiring.

3. Xalqaro tarmoq tasnifining amaliyotda qanday ahamiyati bor?

4. Institutsional birliklar MHTda qaysi belgilariga ko'ra sektorlarga guruhlanadilar?

5. MHTda sektorlar tasnifining amaliyotda qanday ahamiyati bor?

6. MHT va XXB tizimlarida sektor tasnifida qanday farqlar bor?

7. Nomoliya korxonalar sektoriga qanday institutsional birliklar kiradi?

8. Nomoliya korxonalar sektoriga qanday institutsional birliklar kiradi?

9. Moliya korxonalar sektoriga qanday institutsional birliklar kiradi?

10. Davlat boshqaruv idoralari sektoriga qanday institutsional birliklar kiradi?

11. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektoriga qanday institutsional birliklar kiradi?

12. Uy xo'jaligi sektoriga qanday institutsional birliklar kiradi?

13. Tashqi dunyo sektoriga qanday birliklar kiradi?

VI-BOB. MILLIY HISOBLAR TIZIMI VA BUXGALTERIYA HISOBI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK, O'XSHASHLIK VA TAFOVUTLAR

1. MHT va buxgalteriya hisobi o'rtasidagi bog'liqlik, daromad konsepsiyasi

Ma'lumki MHT mamlakat miqyosidagi hisoblar majmuasidan iborat bo'lsa, buxgalteriya hisoblari korxonada miqyosidagi, ya'ni korxonani boshqarish uchun mo'ljallab tuzilgan hisoblar majmuidan iborat. Buxgalteriya hisobi tizimidagi ko'rsatkichlar MHT uchun asosiy axborot bazasi bo'lib xizmat qiladi. Tashqaridan qaraganda, MHT ko'rsatkichlarini¹⁸ buxgalteriya hisoblaridagi ko'rsatkichlarni oddiy yig'ish natijasida olish mumkinday ko'rinadi. Bu masalaga yaqindan yondashilganda, MHT ko'rsatkichlarini to'g'ridan-to'g'ri buxgalteriya ko'rsatkichlarini yig'ish orqali hisoblab bo'lmaqligi ayon bo'ladi. Chunki,

1) buxgalteriya ko'rsatkichlari MHT ko'rsatkichlarini hisoblash uchun etarli emas;

2) buxgalteriya va MHT ko'rsatkichlarini hisoblash usullari o'rtasida uslubiy tafovutlar mavjud.

Eng muhim tafovutlardan biri, daromad ko'rsatkichini hisoblash uslubidadir. Ma'lumki, buxgalteriya hisobida daromadning miqdori ko'p jihatdan mamlakatda amalda bo'lgan soliqqa tortish qonuni va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqarilgan normativ hujjatlardagi ko'rsatmalarga bog'liq bo'ladi. Bu ko'rsatmalarda tannarx tarkibiga kiritilishi lozim bo'lgan xarajatlar tarkibi, amortizatsiya ajratish tartibi va korxonada bilan byudjet o'rtasidagi munosabatlar belgilab qo'yiladi.

MHTda daromadni hisoblash konsepsiyasi asosida Angliyalik iqtisodchi J.Xiks tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya yotadi. Bu konsepsiyaning ma'nosi quyidagicha: ma'lum bir davrda yaratilgan daromad miqdori, shu davr boshidagi kapitalning miqdorini kamaytirmagan holda, iste'mol uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan eng katta miqdordan iborat. Bu konsepsiyaga asosan daromad bu har qanday tushumlardan iborat emas. Institutsion birliklar tomonidan o'z mulkini boshqa institutsion birliklarga yoki mamlakat o'z boyliklarini boshqa mamlakatlarga sotish natijasida tushgan tushumlar yangi yaratilgan daromad sifatida qaralmaydi. Chunki, bu mulklar ilgaritdan yaratilgan

¹⁸ MHT ko'rsatkichlari deganda, mamlakat va uning tarmoqlari va sektorlari miqyosida hisoblanadigan ko'rsatkichlar nazarda tutilyapti.

bo'lib, bunday operatsiyalar natijasida mulkning shakli o'zgarayapti, xolos. Masalan bir institutsion birlik o'ziga tegishli uy (inshoat)ni boshqa birlikka sotsa va evaziga pul olsa, ilgari bu birlik uy sifatidagi aktivga ega edi, sotgandan keyin esa pul ko'rinishidagi aktivga ega bo'lib qoladi. Mamlakat zaxiradagi oltindan boshqa mamlakatga sotsa, mamlakatning oltin aktivlari kamayib, evaziga olgan pul yoki boshqa turdagi aktivlari ekvivalent miqdorda o'zgaradi. Xiks konsepsiyasiga asosan turli ko'rinishdagi daromad va moliya operatsiyalari, joriy va har zamonda tushadigan tushumlar, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish natijasida olingan daromadlar bilan qayta taqsimlash operatsiyalari natijasida hosil bo'lgan tushumlar bir-biridan farqlanadi. Bu konsepsiyaga asosan aktivlarning shaklan o'zgarishi va aktivlarning inflyatsiya jarayonlari (aktivlarning uzoq muddatda zaxirada turib qolishi) natijasida ularning qiymatining ko'payishi yoki kamayishi (holding foydasi yoki zarari) daromadning ko'payishi yoki kamayishi sifatida qaralmaydi. YUqorida aytilganlardan MHTda Xiks konsepsiyasi asosida hisoblanadigan daromad ko'rsatkichlari buxgalteriya hisobidagi daromad ko'rsatkichlaridan farqli ekanligi yaqqol ko'rinish turibdi.

MHT va buxgalteriya hisobidagi daromad ko'rsatkichlarining bir-biridan farq qilishi sababli amaliyotda ishlatilayotgan bir qancha ko'rsatkichlar (mahsulot, xarajat, foyda, aktivlar va h.k.) ikkala tizimda mazmunan va hisoblash usullari bilan farq qiladi. Keyingi mavzularda bu ko'rsatkichlardan ayrimlari ustida mufassalroq to'xtab o'tamiz.

2. Mahsulot konsepsiyasi va uning turlari

Mahsulot ko'rsatkichi MHT va buxgalteriya hisobida bir-biridan mazmunan va hisoblash (baholash) usuli bilan farq qiladi. MHTda ishlab chiqarish natijasini ifodalovchi ko'rsatkichlar sifatida yalpi mahsulot (tovarlar va xizmatlar umumiy qiymati), oraliq iste'mol va yalpi ichki mahsulot (qo'shilgan qiymat) ko'rsatkichlari tushuniladi. Buxgalteriya hisobida esa korxonaning xo'jalik yuritish faoliyati natijasi quyidagi ko'rsatkichlar tizimi orqali ifodalanadi: 1) sof sotilgan mahsulot (tovarlar va xizmatlar) qiymati; 2) asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar; 3) moliya faoliyatidan olingan daromadlar; 4) favqulodda olingan (yo'qotilgan) daromadlar. Bu guruhlarga kirgan ko'rsatkichlarning tarkibini tahlil etish natijasida ikkala tizimda ishlab chiqarish faoliyatining natijalari turlicha talqin etilishini ko'rish qiyinmas. Masalan: a) 1-guruhga kiruvchi ko'rsatkichlarni aniqlashda sotilayotgan mahsulot qaysi davrning

mahsuli ekanligi farqlanmaydi. Vaholanki, MHTda sotilayotgan mahsulot qaysi davrda ishlab chiqarilgan bo'lsa o'sha davrning mahsuli sifatida qaraladi; b) 2-guruhga kirgan ko'rsatkichlar tarkibida asosiy kapital (vosita)ni va boshqa mulkni sotishdan tushgan daromadlar, o'tgan davrlarga tegishli foyda (zarar), xo'jalik shartnomalariga rioya qilmaganligi va boshqa sabablarga ko'ra olingan (to'langan) jarimalar, keltirilgan zararni qoplash to'lovlari, penyalar va shu kabi ko'rsatkichlar bor. Bu ko'rsatkichlar MHTda ishlab chiqarish faoliyatining natijasi sifatida qaralmaydi; v) 3-guruh tarkibiga kirgan dividendlar, foizlar, valyuta kurslari o'zgarishi natijasida hosil bo'ladigan daromad(zarar)lar va boshqa shu kabi ko'rsatkichlar MHTda daromadlarni hosil bo'lish konsepsiyasi bo'yicha hisoblanadi. Korxonaning mulklaridan boshqa institutsion birliklar foydalanganliklari uchun olingan (to'langan) daromadlar, aksiyalardan tushgan dividendlar - mulkdan olingan daromad sifatida qayd etiladi. Valyuta kursining o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan "daromadlar (yoki zarar)" MHTda yashirin subsidiya (yoki yashirin soliq) sifatida talqin qilinadi.

Yuqoridagi keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, buxgalteriya hisobida bevosita ishlab chiqarish faoliyatining natijalari bilan korxonaning ma'lum bir davrda olgan daromadlari farqlanmaydi. MHTda esa ishlab chiqarish faoliyatining ko'rsatkichlari (yalpi ishlab chiqarilgan mahsulot, qo'shilgan qiymat) ishlab chiqarish konsepsiyasi asosida, daromad ko'rsatkichlari (yalpi milliy daromad, sektorlar bo'yicha birlamchi daromadlar saldosi, ixtiyordagi daromad) daromadning hosil bo'lish konsepsiyasi asosida hisoblanadi.

MHTda mahsulot (tovar va xizmatlar) pirovard iste'mol va oraliq iste'molga ajratiladi. Bunday ajratish buxgalteriya hisobida yo'q. Umuman aytganda, yalpi mahsulot va qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlarini buxgalteriya hisobidagi ko'rsatkichlardan foydalangan holda hisoblab topish mumkin. Masalan: yalpi mahsulot miqdorini topish uchun sotilgan mahsulot miqdoriga tayyor mahsulot zaxirasining o'zgarishini qo'shib qo'yish kerak. Qo'shilgan qiymat ko'rsatkichini hisoblash uchun buxgalteriya hisobidagi bir qancha ko'rsatkichlarni qayta baholash va qo'shimcha hisob-kitoblarni amalga oshirish kerak. Bundan tashqari, MHT va buxgalteriya hisobida mahsulot ko'rsatkichlari turli baholarda qayd etilganligi uchun hisob-kitoblar ancha qiyinlashadi. Masalan, buxgalteriya hisobida mahsulotlarning asosiy baholardagi qiymati mahsulot uchun subsidiyalarni qo'shgan holda hisoblanadi. Sotilgan mahsulot esa ishlab chiqaruvchi baholarida hisoblanadi. MHTda mahsulot miqdori asosiy

baholarda hisoblanganda mahsulot uchun subsidiyalar mahsulot miqdoriga ko'shilmaydi. Bundan tashqari, buxgalteriya hisobidagi ko'rsatkichlar tarkibi makroiqtisodiy darajada yalpi mahsulot miqdorini hisoblashda etarli emas. Masalan: korxonada ishlab chiqaradigan mahsuloti uchun xom ashyo va butlovchi materiallarni davlat chetdan sotib olib, korxonaga o'z qiymatidan arzonroq bahoda bergan bo'lsa, korxonaning ishlab chiqarayotgan mahsuloti qiymatida davlat tomonidan bilvosita berilgan subsidiya miqdori alohida hisobga olinmaydi va buxgalteriya hisoblarida qayd etilmaydi. MHT konsepsiyasi bo'yicha makroiqtisodiy hisoblarda bu ko'rsatkichlar alohida qayd etiladi.

MHT va buxgalteriya hisoblarida yalpi mahsulot ishlab chiqarish va qo'shilgan qiymat miqdorini baholash vaqti va uslubi bir-biridan tubdan farq qiladi. MHTda tovar va xizmatlar miqdori tovar va xizmatni ishlab chiqarilgan vaqtdagi bozor baholarida hisoblanadi. Buxgalteriya hisobida esa, mahsulotni haqiqiy sotilgan baholarida qayd etiladi. Ikkala tizimdagi mahsulot miqdorida asosan ikki sababga ko'ra farq bo'lishi mumkin. 1) inflyatsiya darajasi yuqori bo'lishi va mahsulot turib qolishi natijasida mahsulotni ishlab chiqarilgan va sotilgan vaqtdagi baholarda farq bo'ladi; 2) mahsulot bozor baholaridan past baholarda sotilsa. Buni quyidagi misollarda tushuntiramiz. 1) korxonada kuzatilayotgan davrda (oy) 1000 birlik mahsulot ishlab chiqardi. Bu davrda ishlab chiqarilgan mahsulot birligining bahosi 100 so'mdan bo'lsin. SHu oy mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulotning 900 birligi 100 so'mdan sotilgan. Qolgan 100 birlik mahsulot keyingi oyda sotilgan. Bu oyda mahsulot narxi 10%ga oshgan, ya'ni 110 so'mdan bo'lsin. Buxgalteriya hisobi bo'yicha yalpi ishlab chiqarish hajmi $900 \cdot 100 + 100 \cdot 110 = 101000$ so'mga teng, MHT bo'yicha esa $1000 \cdot 100 = 100000$ so'm. Oradagi farq 1000 so'm inflyatsiya natijasida (holding foydasi) hosil bo'ldi. Holding foydasi (1000 so'm) ishlab chiqarish faoliyatining mahsuli bo'lmaganligi uchun, bu qiymat yalpi ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga qo'shilmaydi.

2) korxonada kuzatilayotgan oyda 500 birlik mahsulot ishlab chiqargan. Mahsulotning 400 tasi har biri 100 so'mdan shu oyning o'zida bozor baholarida sotilgan. Qolgan 100 ta mahsulot shu korxonaning ishchilariga arzon narxda 80 so'mdan sotilgan. Buxgalteriya hisobida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori $400 \cdot 100 + 100 \cdot 80 = 48000$ so'm. MHT bo'yicha $500 \cdot 100 = 50000$ so'm.

Odatda, yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi sotilgan tovarlar va xizmatlar miqdori, hamda tayyor mahsulot zaxirasining o'zgarishi ko'rsatkichlari orqali hisoblanadi. Zaxiraning o'zgarishi ko'rsatkichini

hisoblayotganda holding foydasi yoki zararini hisobdan chiqarib tashlash kerak. Chunki holding foydasi(zarari) ishlab chiqarish faoliyatining natijasi emas.

3. Xarajatlar va ularning turlari

MHTda xarajatlar ikki turga ajratiladi: oraliq iste'mol va birlamchi xarajatlar. Oraliq iste'mol korxonaning tovar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun boshqa institutsion birliklardan sotib olgan tovar va xizmatlar(xom ashyo, butlovchi materiallar, auditorlik xizmati, ijara to'lovlari va h.k.) miqdoridan iborat. Birlamchi xarajatlar tarkibiga ishlab chiqarishda birlamchi omillarga bo'ladigan xarajatlar kiradi. Ular tarkibiga ish haqi (ijtimoiy sug'urta bilan birga), ishlab chiqarish soliqlari, asosiy kapitalning iste'moli kiradi. Birlamchi xarajatlar va oraliq iste'molning umumiy yig'indisi yalpi ishlab chiqarish hajmiga teng bo'ladi.

Buxgalteriya hisobida xarajatlar moddalar va elementlar bo'yicha guruhlanadi. Albatta, bu guruhlanish MHT prinsiplaridan tubdan farq qiladi. Bu guruhlanish korxonaning u yoki bu mahsulotni yetkazishga ketgan xarajatlari miqdorini aniqlash, mahsulot tannarxini bilish va foydadan soliq olish bazasini aniqlashga qaratilgan. Bu ko'rsatkichlardan MHTda to'g'ridan-to'g'ri foydalanish ancha mushkul. Bu ko'rsatkichlardan foydalanib MHT ko'rsatkichlarini hisoblash uchun bir qancha qo'shimcha hisob-kitoblarni bajarish kerak bo'ladi. Bundan tashqari, buxgalteriya hisobida xarajatlarni baholash vaqti va uslubi MHTdagidan ancha farq qiladi. MHTda tovar va xizmatlarning qiymati ishlab chiqarishda ishlatilayotgan vaqtdagi baholarda baholash tavsiya etiladi. Buxgalteriya hisobida esa, bu tovar va xizmatlarning qiymati sotib olingan vaqtdagi baholarda qayd etiladi. Buxgalteriya hisobida inflyatsiya jarayonlari natijasida va tovarning turib qolishi natijasida ularning baholaridagi o'zgarishlar hisobga olinmaydi.

Buxgalteriya hisobi bilan MHTda asosiy kapitalning qiymatini hisoblashda ham ancha farq bor. MHTda asosiy kapitalning iste'moli uning tiklanish qiymatida, buxgalteriya hisobida esa ularning boshlang'ich sotib olingan qiymatlarida hisoblanadi va ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shiladi. Asosiy kapitalning uzluksiz qayta baholanib turilmasligi ikki tizimda asosiy kapitalning iste'moli ko'rsatkichini turlicha baholanishiga olib keladi. Bundan tashqari, korxonalarda "tezlashtirilgan amortizatsiya" metodini qo'llanishi ham ikki tizimda asosiy kapitalning iste'moli ko'rsatkichi o'rtasida farq bo'lishiga sabab bo'ladi.

MHTda kapital ta'mirlash xarajatlari jamg'arish fondlarining o'sishi sifatida qaraladi. Buxgalteriya hisobida esa, bu xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shiladi. O'z navbatida, kapital ta'mirlash natijasida asosiy kapitalning qiymati o'sadi. Bu o'sgan qiymatdan ham amortizatsiya ajratmasi hisoblanib asosiy kapitalning iste'moliga qo'shib qo'yilishi kerak. Umuman aytganda, amortizatsiya ajratmalari buxgalteriya hisobida xarajat sifatida qaraladi. MHTda esa asosiy kapitalning iste'moli yangi yaratilgan qo'shilgan qiymatning elementi sifatida qaraladi.

MHT va buxgalteriya hisobida mehnat resurslariga bo'lgan xarajatlar turlicha talqin etiladi. MHTda ish haqi ko'rsatkichi tarkibiga bevosita ishchi-xizmatchilarga to'langan ish haqi (daromad solig'i bilan birga), majburiy va ixtiyoriy ravishda sotsial sug'urta fondlariga ish beruvchilar (korxonalar) tomonidan haqiqatda to'langan to'lovlar va shartli ravishda hisoblangan sotsial sug'urta ajratmalari kiradi. Buxgalteriya hisoblarida esa bu ajratmalar ish haqi fondiga kirmaydi. Bundan tashqari, buxgalteriya hisobida ishlab chiqarish bilan bog'liq safar xarajatlarining hammasi ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shiladi. MHTda esa safar xarajatlarining bir qismi - kunlik xarajatlar ish haqi deb talqin qilinadi, qolgan qismi - yo'l va yotoq xarajatlari, oraliq iste'mol sifatida hisoblanadi.

4. Foyda, aktivlar, investitsiyalar

Foyda. MHT va buxgalteriya hisobida foyda ko'rsatkichining iqtisodiy ma'nosi turlicha bo'lishiga asosiy sabab mahsulotning hajmini va xarajatlar miqdorini ikkala tizimlarda turlicha talqin etilishi va hisoblanishidir. Bundan tashqari, mayda xususiy korxonalarda korxona egalarning ish haqi foyda tarkibida bo'ladi. MHTda esa bu korxonalarining foyda ko'rsatkichi "aralash foyda" deb atalib, bu korxonalarining «daromadlarni hosil bo'lishi» schyotidagi muvozanatlashtiruvchi ko'rsatkich sifatida topiladi.

Aktivlar. MHTda aktivlar moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarga bo'linadi. Nomoliyaviy aktivlar esa ishlab chiqarilgan va ishlab chiqarilmagan aktivlarga bo'linadi. Ikkala tizimda aktivlar tasnifi biri-biriga o'xshash.

MHT va buxgalteriya hisobi bir-biridan asosan aktivlarni baholash uslubi bilan farq qiladi. MHTda aktivlar baholanayotgan davrdagi bozor baholarida baholanadi. Buxgalteriya hisobida esa, boshlang'ich sotib olingan vaqtdagi baholarda yoki qayta baholangan baholarida qayd etiladi.

Investitsiyalar. MHTda investitsiyalar quyidagicha guruhlanadi: asosiy kapitalning yalpi yig'ilmesi; material aylanma fondlarning o'sishi; qimmatli mulkni sotib olish; sof kreditlash. Birinchi uch ko'rsatkichlar davr mobaynida haqiqatda amalga oshirilgan investitsiyalar miqdorini ko'rsatadi va kapital operatsiyalar schyotida qayd etiladi. 4-ko'rsatkich moliyaviy investitsiyalar hajmini bildiradi. Mamlakatning chetdan moliya aktivlarini olgan miqdori va olgan moliyaviy majburiyatlarining miqdori moliya schyotida qayd etiladi.

Buxgalteriya hisobida investitsiyalar MHTdan birmuncha farqliroq guruhlarga ajratiladi: kapital sarmoyalari; material aylanma fondlarning o'sishi (tugallanmagan ishlab chiqarishni hisobga olgan holda); moliya sarmoyalari. Bu ko'rsatkichlar atalishiga ko'ra MHTdagiga o'xshash bo'lishiga qaramay, ularning tarkibi, mazmuni va baholash uslublari bir-biridan ancha farq qiladi. Masalan, buxgalteriya hisobida kapital sarmoyalar tarkibiga asosiy fondlarning haqiqiy qiymatini oshirmaydigan xarajatlar ham qo'shiladi. MHTda esa bunday xarajatlar asosiy kapitalning jamg'armasiga kiritilmaydi.

Material aylanma fondlar ikkala tizimda tarkibi va mazmuni bir xil bo'lishiga qaramay, ularni baholash usullari bir-biridan farq qiladi. YUqorida ta'kidlanganidek, ularning zaxirada ancha vaqt turib qolishi natijasida qiymatning o'sishi(kamayishi) MHTda ishlab chiqarishning natijasi sifatida hisobga olinmaydi. Buxgalteriya hisobida material aylanma fondlar boshlang'ich sotib olingan qiymatlarida qayd etilishi natijasida yashirin holda holding foydasi yuzaga keladi. Ma'lumki, holding foydasi MHTda chegirib tashlanadi.

Biz yuqorida, MHT va buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlari o'rtasidagi mavjud ayrim uslubiy va konseptual farqlar ustida qisqacha to'xtalib o'tdik. Buxgalteriya hisobotlaridan MHT schyotlarini tuzishda manba sifatida foydalanilayotgan vaqtda bu tafovutlarni hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

5. Buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlarini Milliy hisoblar tizimi konsepsiyasiga o'tkazish

Milliy hisobchilikda schyotlarni tuzishda turli axborot manbalaridan foydalaniladi. Bu manbalar qatoriga buxgalteriya hisobi asosida tayyorlangan korxonalarining statistika hisobotlari, davlat byudjeti va soliq statistikasi, aholi byudjetini kuzatish yakunlari, davlat va jamoat tashkilotlarining hisobotlari va boshqa axborot manbalari kiradi. Milliy

hisobchilar yuqorida keltirilgan axborot manbalaridan tashqari, qo'shimcha kuzatishlar o'tkazadilar, ekspert xulosalaridan foydalanadilar. Buxgalteriya hisobi milliy hisobchilik uchun asosiy manba bo'lishiga qaramay, uni yuritishda, ko'rsatkichlarning atalishida va hisobga olish uslublarida birmuncha farqlar mavjudligini yuqorida ko'rdik. Korxonaning ma'lum bir davr (oy, chorak, yil)dagi iqtisodiy faoliyati natijalarini buxgalteriya hisoblari bevosita ifodalamaydi. Chunki, buxgalteriya hisobida ishlab chiqarish hajmini ifodalovchi va boshqa birliklar bilan taqsimot va qayta taqsimot operatsiyalarini natijalarini yaqqol ifodalovchi ko'rsatkichlar yo'q. SHu sababli, korxonada, tashkilot (mikro darajada) yuritilayotgan hisoblarni MHT konsepsiyasi asosida ifodalash mikro darajada iqtisodiyotning holatini tahlil qilishga imkon yaratadi.

Buxgalteriya hisobidagi ko'rsatkichlarni MHT konsepsiyasiga o'tkazishda bir qancha uslubiy o'zgartirishlar va qo'shimcha hisoblarni bajarishga to'g'ri keladi. Buni bir korxonada misolida ko'rib chiqamiz.

A korxonaning daromadlari asosan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishdan, o'zida saqlanayotgan boshqa korxonalarining aksiyalaridan tushadigan daromadlardan iborat bo'lsin. Bundan tashqari, korxonada ishlab chiqarish uchun subsidiya oladi. Korxonada xarajatlarning asosiy qismini ishlab chiqarishda ishlatiladigan xom ashyo, butlovchi materiallar, materiallar va xizmatlar sarfi, ishlab chiqarish uchun to'langan soliqlar va korxonada xizmatchilarining ish haqi, sotsial sug'urta fondlariga to'lovlar tashkil qiladi. Korxonaning kuzatilayotgan davrdagi ko'rsatkichlari 6.1- jadvalda keltirilgan.

6.1- Jadval.

Korxonada to'g'risidagi ma'lumotlar

Ko'rsatkichlarning nomi	Qiyamati
I. 1. Tovar va xizmatlarni sotish	5000
shu jumladan, korxonada xizmatchilariga	300
2. Olingan foizlar	20
3. Olingan subsidiyalar	10
Joriy daromad (1 + 2 + 3)	5030
II. 1. Sotib olingan materiallar va xizmatlar	2000
2. Amortizatsiya ajratmasi	200
3. Soliqlar (ishlab chiqarish uchun)	130
4. Insonparvarlik fondiga to'lov	50
5.1. Ish haqi	1500
5.2. Natura bilan ish haqi	300
6. Sosstrax	60

7. To'langan foizlar	40
Umumiy xarajatlar(1+2+3+4+5+6+7)	4280
III. Korxonada foydasi (soliq olinguncha)	750
shu jumladan: foydadan soliq	150
dividendlar	200
qoldiq foyda	400

1-jadvaldagi ko'rsatkichlarni buxgalteriya hisobotlaridan olish mumkin. Bu ko'rsatkichlarni MHT tartibi bo'yicha T ko'rinishidagi schyotda resurslar va ularni ishlatilishi tartibida yozib chiqamiz (6.2-jadval).

6.2-Jadval.

Ishlatilishi		Resurslar	
Materiallar va xizmatlar	2000	Sotish hajmi	5000
Amortizatsiya	200	-tovarlar	3000
Soliqlar (ishlab chiqarish uchun)	130	-xizmatlar	2000
Insonparvarlik to'lovi	50	Olingan foizlar	20
Ish haqi	1500	Olingan subsidiyalar	10
Natura bilan ish haqi	300		
Sosstrax	60		
To'langan foizlar	40		
Korxonada foydasi (soliq olinguncha)	750		
shu jumladan:			
foydadan soliq	150		
to'langan dividendlar	200		
qoldiq foyda	400		
Jami:	5030	Jami:	5030

Biz yuqorida korxonaning daromadlari va xarajatlari haqida fikr yuritdik. Ma'lumki, mahsulotni sotishdan tushgan daromadlar korxonaning hisobot davrida ishlab chiqargan mahsulotidan tashqari, tayyor mahsulot zaxirasidagi mahsulotni sotish evaziga olingan bo'lishi mumkin. SHuning uchun, korxonaning hisobot davrida yaratgan daromadini bilish uchun, zaxiraning hisobot boshi va oxiridagi holati to'g'risidagi axborotlar kerak bo'ladi. Faraz qilaylik, tayyor mahsulot zaxirasining hisobot boshidagi holati 500 ga va oxirida 900 ga teng bo'lsin. Bundan xulosa shuki, zaxiraning o'zgarishi $900-500=400$ ga teng, ya'ni 400 birlik mahsulot hisobot davrida sotilmay zaxiraga tushgan. Bu mahsulot hisobot davrida ishlab chiqarilgani uchun uning miqdori yalpi ishlab chiqarish hajmiga qo'shiladi. Bu mahsulot xarajatlarini, bor axborotlardan foydalangan holda hisoblab chiqamiz.

Bu mahsulotni ishlab chiqarishda ketgan mahsulot va xizmatlar xarajati (oralik iste'mol): $2000/5000*400=160$;

Ish haqi $(1500+300)/5000*400=144$;

Ijtimoiy sug'urta $60/1800*144=5$;

Foydadan soliq $(400-160-144-5)*(150/750)=18$;

Qoldiq foyda $91-18=73$;

Bajarilgan hisoblar natijalarini mos ravishda guruhlaysiz, ya'ni daromad ko'rsatkichlarini resursga va xarajatlarni mos ravishda ishlatilishga yozib, 6.3-jadvalga ega bo'lamiz.

6.3-Jadval.

Ishlatilishi		Resurslar	
Materiallar va xizmatlar	2160	Sotish hajmi	5000
Amortizatsiya	200	-tovarlar	3000
Sof soliqlar (i/ch. uchun)	120	-xizmatlar	2000
Ijtimoiy sug'urta	65	Zaxiraning o'zgarishi	400
Sof foizlar 40-20	20		
Korxonada foydasi (foydadan soliq olinguncha)	841		
shu jumladan: foydadan soliq	168		
to'langan dividendlar	200		
qoldiq foyda	473		
Jami:	5400	Jami :	5400

6.3-jadvalda keltirilgan axborotlardan foydalanib korxonaning qo'shilgan qiymat ko'rsatkichi bo'yicha hisobotini tuzamiz (6.4-jadval).

6.4-Jadval.

Ishlatilishi		Resurslar	
Oraliq iste'mol	2160	Sotish hajmi	5000
Yalpi qo'shilgan qiymat (5400-2160)	3240	-tovarlar	3000
Asosiy kapitalning iste'moli	200	-xizmatlar	2000
Sof qo'shilgan qiymat (3240-200)	3040	Zaxiraning o'zgarishi	400
Jami:	5400	Jami:	5400

Topilgan yalpi (sof) qo'shilgan qiymat ko'rsatkichi korxonaning kuzatilayotgan davrdagi ishlab chiqarish faoliyatini xarakterlaydi. Bu ko'rsatkichda qayta hisoblar yo'q. U korxonada tomonidan yangi yaratilgan qiymatni miqdorini ifodalaydi.

Asosiy termin va tushunchalar

1. Buxgalteriya hisobi - korxonada miqyosida (mikro darajada) bo'lgan iqtisodiy jarayonlarni ifoda etadi. MHT - mamlakat miqyosida (makro darajada) bo'lgan iqtisodiy jarayonlarni ifoda etadi.

2. Buxgalteriya hisoboti MHT uchun asosiy axborot bazasi bo'lib xizmat qiladi. Lekin, bu axborotlar MHT uchun etarli emas.

3. MHTda daromad har qanday tushumlardan iborat emas.

4. Daromad ma'lum bir davrda yaratiladi. Davr - oy, chorak va yil bo'lishi mumkin.

5. Bir davrda yaratilgan daromad - birlikning davr boshi holatiga ega bo'lgan aktivini kamaytirmagan holda, ishlatishi mumkin bo'lgan maksimal miqdordan iborat. Bu fikrni soddaroq bir misolda ko'rib chiqamiz. Nonvoyxona hisobot boshida 10000 birlik qiymatdagi aktivga (tandirxona - 5000, o'tinxona - 3000, tandir - 1000, stol - 500, boshqa inventar - 500) ega bo'lsin. Hisobot davrida 100000 birlik qiymatda non yopib bozorda sotgan. Non tayyorlashga ketgan un, yog', xamirturush, sedana, o'tin-ko'mir va shu kabi xarajatlar (odatda oraliq iste'mol deyiladi) qiymati 60000 bo'lsin. Yalpi daromad = $90000 - 60000 = 30000$ bo'ladi. Bu daromad sof daromad emas, Chunki nonvoyxonaning davr boshidagi 10000 birlikka teng aktivi eskirdi, ya'ni o'z qiymatini yo'qotdi. Faraz qilaylik, agar aktivning qiymati 10 foizga kamaygan bo'lsa, yo'qotilgan qiymat 1000 ga teng bo'ladi. Bu qiymatni yalpi foydadan ayirsak sof qiymat ($30000 - 1000 = 29000$)ga ega bo'lamiz. Ya'ni, daromad konsepsiyasiga ko'ra, yangi yaratilgan daromad 39000ga teng bo'ladi.

6. Ishlab chiqarish natijasida mahsulot yaratiladi. Bu jarayon ishlab chiqaruvchi birlik buxgalteriya hisobotida aniq bir ko'rsatkich orqali ifodalanmaydi. MHTda bu jarayonni aniq bir ko'rsatkich orqali ifoda etish mumkin. Bu ko'rsatkich - *sof qo'shilgan qiymat* deb yuritiladi. Bu ko'rsatkich mamlakat miqyosida *sof ichki mahsulot* deb yuritiladi.

Sof qo'shilgan qiymat = yalpi mahsulot minus oraliq iste'mol minus asosiy kapitalning iste'moli.

7. Xolding foydasi (zarari) ishlab chiqarish faoliyatining mahsuli emas. Xolding foydasi - ishlab chiqarishdan olingan daromad emas.

8. Oraliq iste'mol - mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan material va nomaterial xizmatlarga qilingan xarajatlar yig'indisidan iborat.

9. Asosiy kapitalning iste'moli - buxgalteriya hisobotidagi amortizatsiya emas. U - asosiy kapitalning, mahsulot ishlab chiqarish jarayonida, qancha qiymatga eskirganligini ifodalaydi.

Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar

- 1. MHT va buxgalteriya hisobi o'rtasida qanday bog'liqliklar bor?*
- 2. Barcha institutsional birliklarning buxgalteriya ko'rsatkichlari MHT schyotlarini to'laqonli tuzish uchun etarlimi?*
- 3. Buxgalteriya hisobi va MHTdagi daromad konsepsiyasida qanday farq bor?*
- 4. Buxgalteriya hisobi va MHTdagi mahsulot konsepsiyasida qanday farq bor?*
- 5. Buxgalteriya hisobi va MHTdagi xarajatlar tushunchasidagi asosiy farqlar nimalardan iborat?*
- 6. Buxgalteriya hisobi va MHTda iqtisodiy operatsiyalarni baholash usullarida qanday farqlar bor?*
- 7. MHT metodologiyasidan korxonalarining iqtisodiy faoliyat natijalarini ifodalashda foydalanish mumkinmi? Misollar keltiring.*

VII-bob. Milliy hisoblar tizimi schyotlari tarkibi

1. Schyotlarni tuzishning umumiy qoidasi va sxemasi

MHTda schyotlar muhim o'rin tutadi. Ular rezident institutsion birliklar o'rtasida bo'ladigan o'zaro iqtisodiy operatsiyalarni qayd etish uchun ishlatiladi. qayd etilayotgan operatsiyalar rezident va norezident institutsion birliklar o'rtasida bo'layotgan iqtisodiy operatsiyalarni ham qamrab oladi. Schyotdagi yozuvlar sistemada qabul qilingan tarmoq, sektor (quyi sektor) va boshqa klassifikasiyalar bo'yicha (har bir iqtisodiy operatsiya bo'yicha emas) operatsiyalar guruhlari (yalpi ishlab chiqarish, iste'mol, eksport va h.k.) bo'yicha umumlashgan holda yozib boriladi. Ayrim yozuvlar ikki iqtisodiy birlik o'rtasidagi operatsiyalar natijalari bo'lmay, tabiiy ofat yoki inflyasion jarayonlar oqibatida aktivlarning o'zgarishi natijalarini ifodalaydi. Bundan tashqari, bir qancha ko'rsatkichlar iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, umumlashtirish va analitik hisoblash asosida topilib, schyotlarda yoziladi. Masalan: qo'shilgan qiymat, jamg'arma, birlamchi daromad ko'rsatkichlari balans metodi bo'yicha jami resurslar va ularning ishlatilishi o'rtasidagi farq sifatida hisoblab topiladi. MHTda eng muhim ko'rsatkichlar agregatlar deb yuritiladi. Bunga misol sifatida Yalpi ichki mahsulot, Yalpi milliy daromad, Milliy boyluk ko'rsatkichlarini keltirish mumkin.

Schyotlarning yozilish shakli buxgalteriya schyotlariga o'xshash. Ular T-ko'rinishda bo'lib, uning bir tomonida resurslarni, ikkinchi tomonida ularning ishlatilishini ifodalovchi ko'rsatkichlar yozib boriladi. Schyotlarning ikki tomoni har doim balanslashtiriladi. Balanslashtirish 2 xil usul bilan amalga oshiriladi: 1-balans usuli, ya'ni schyotning ishlatilishi tarafiga balanslashtiruvchi ko'rsatkich yoziladi. Bu ko'rsatkich keyingi schyotga resurs sifatida o'tkaziladi. Masalan, ishlab chiqarish schyotida qo'shilgan qiymat ko'rsatkichi balanslashtiruvchi ko'rsatkich sifatida aniqlanadi va keyingi daromadlarning hosil bo'lishi schyotiga resurs sifatida yozib qo'yiladi. 2-usul 1-usuldan farq qiladi. Bu usulda schyotlarning resurs va ishlatilishi tarkibida keltirilgan iqtisodiy ko'rsatkichlarning yig'indilari bir- biriga teng kelishi lozimligi asosida tuzilganligi, o'z-o'zidan bu schyotlarni muvozanatlashtiradi. Bunday schyotga misol tariqasida **Tovarlar va xizmatlar yig'ma** schyotini keltirish mumkin. Bu schyotning resurslar va ishlatilishi ko'rsatkichlar tarkibi shunday tanlanganki, ularni to'g'ri hisoblab topilganda ikkala tomon o'zaro muvozanatlashadi. Lekin, amaliyotda ko'rsatkichlarni

aniqlash manbalari turli va ko'rsatkichlarni hisoblashda ekspert baholash usullari qo'llanilgani sababli "resurslar" va "ishlatilishi" ko'rsatkichlari yig'indilari bir-biriga har doim ham teng (yoki yaqin) bo'lavermaydi. Oradagi farq odatda statistik xatolik deb ataladi. Bu xatolikni katta-kichikligiga qarab, hisoblarning qanday darajada aniq bajarilganligini bilish mumkin.

MHTda iqtisodiyot sektorlari, tarmoqlari, tashqi dunyo va butun mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha turli schyotlar tuziladi.

Iqtisodiyot sektorlari bo'yicha joriy schyotlar, jamg'arish schyotlari, aktivlar va passivlar balanslari tuziladi.

Joriy schyotlarga quyidagi schyotlar kiradi:

ishlab chiqarish;

daromadlarning shakllanishi;

birlamchi daromadlar taqsimoti;

daromadlarning qayta taqsimoti:

- pul holidagi daromadlarni qayta taqsimlash;

- natura holidagi daromadlarning qayta taqsimoti;

ixtiyordagi pul daromadlarining ishlatilishi;

tuzatilgan ixtiyordagi daromadning ishlatilishi.

Jamg'arish schyotlari quyidagilardan iborat:

kapital xarajatlar (operatsiyalar) schyoti;

moliya schyoti;

aktivlar va passivlarda boshqa o'zgarishlar schyoti:

a) aktiv va passiv hajmlarida boshqa o'zgarishlar schyoti;

b) aktiv va passivlarni qayta baholash schyoti.

Aktivlar va passivlar balanslariga quyidagilar kiradi:

davr boshiga aktivlar va passivlar balansi;

davr oxiriga aktivlar va passivlar balansi.

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha faqat 2ta schyot: ishlab chiqarish va daromadlarni shakllanishi schyotlari tuziladi.

Tashqi dunyo sektori bo'yicha joriy operatsiyalar schyoti, kapital xarajatlar schyoti va moliya schyoti tuziladi.

Mamlakat miqyosida yuqorida keltirilgan barcha schyotlar bilan birgalikda tovarlar va xizmatlar yig'ma schyoti tuziladi.

Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar

1. Schyotlarni tuzish tartibi qanday?

2. Schyot tomonlari qanday balanslashtiriladi?
3. Schyotlarda statistik xatolik qanday yuzaga keladi?
4. Qaysi schyotlar tarmoqlar miqyosida tuziladi?
5. Qaysi schyotlar sektorlar miqyosida tuziladi?
6. Qaysi schyotlar mamlakat miqyosida tuziladi?

2. Ishlab chiqarish schyoti

Bu schyot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan jarayonlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar (Yalpi ishlab chiqarish, oraliq iste'mol, qo'shilgan qiymat)ning hosil bo'lishini ifodalaydi.

Ishlab chiqarish schyoti tuzilishi sxemasi

Ishlatilishi	Resurslar
2. Oraliq iste'mol 3. Yalpi qo'shilgan qiymat(1-2) 4. Asosiy kapitalning iste'moli 5. Sof qo'shilgan qiymat(3-4)	1. Yalpi ishlab chiqarish (yalpi mahsulot).

Bu schyotning ko'rsatkichlari ishlab chiqarish natijalarini tahlil qilish imkonini beradi. Ishlab chiqarish natijalari birinchi bor **yalpi ishlab chiqarish (YAICH)**¹⁹ ko'rsatkichi orqali qayd etiladi. Umuman aytganda, bu ko'rsatkich barcha rezident institutsion birliklar tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatlarining yig'indisidan iborat. Ma'lumki, har bir ishlab chiqaruvchi birlik ishlab chiqarish jarayonida boshqa birliklarning tovar va xizmatlarini ishlatadilar. Yani, har bir ishlab chiqaruvchi birlik yalpi mahsuloti ko'rsatkichi tarkibida boshqa birliklarning mahsuloti qiymati bor. Ishlab chiqaruvchi birliklar yalpi mahsulotlarini tarmoqlar, sektorlar va mamlakat miqyosida jamlanganda, bu ko'rsatkichning tarkibida ishlab chiqarish davrida ishlatilgan tovarlar va xizmatlar qiymati borligi sababli, yalpi mahsulot ko'rsatkichi tarkibida qiymatlar qayta-qayta hisobga olingan bo'ladi. SHuning uchun, bu ko'rsatkich ishlab chiqarishning o'lchovi bo'la olmaydi. Bu ko'rsatkich ishlab chiqarishning haqiqiy hajmini hisoblashda foydalanish mumkin bo'lgan birinchi ko'rsatkichdir.

Yalpi mahsulot ko'rsatkichi iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlari hisoblarida tovar ishlab chiqarilgan davrdagi (sotilgan vaqtidagi emas) bozor baholarida (narxlarda) asosiy baholarda hisoblanadi. Shuni

¹⁹ YAlpi ishlab chiqarish va YAlpi mahsulot (YAM) ko'rsatkichlari adabiyotlarda teng ma'noda ishlatiladi

ta'kidlash lozimki, agar iqtisodiy birlikka davlat tomonidan bevosita ishlab chiqarish uchun subsidiya berilgan bo'lsa, bu qiymat ham yalpi mahsulot tarkibiga qo'shib hisoblanadi. Masalan: bolalar kiyimi tikadigan fabrika hisobot davrida 100 birlik miqdorda bevosita ishlab chiqarish uchun subsidiya olgan bo'lsin. Uning ishlab chiqarish xarajatlari xarajatlari: oraliq iste'molga 200, mehnat haqiga 150, bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar 50 birlik bo'lsin. Bunda fabrikaning asosiy baholardagi yalpi mahsuloti qiymati (YAM) quyidagicha hisoblanadi. $YAM=200+150+50+100=500$.

YAM ko'rsatkichining ahamiyatini e'tiborga olgan holda, uni iqtisodiyotning turli sektor va tarmoqlarida hisoblash usullari bilan yaqindan tanishib chiqamiz.

Iqtisodiyotning turli tarmoq va sektorlarida yalpi ishlab chiqarish (YAICH) ko'rsatkichini hisoblash metodlari turlicha. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish va moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, bozor va nobozor ishlab chiqarish sohalarida bu ko'rsatkichni hisoblash metodlari bir-biridan tubdan farq qiladi. Quyida iqtisodiyotning turli sektorlarida YAICH ko'rsatkichini hisoblash usullarini ko'rib chiqamiz.

Nomoliya korxonalariga kiruvchi tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar va tashkilotlar YAICH ko'rsatkichi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$R = S + Z, \quad (1)$$

bu formulada:

R - yalpi ishlab chiqarish (yalpi mahsulot);

S - sotilgan mahsulot va xizmatlar qiymati;

Z - tayyor mahsulot zaxirasining va tugallanmagan ishlab chiqarishning o'zgarishi.

Tayyor mahsulot zaxirasining o'zgarishi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Z = Z_1 - Z_0, \quad (2)$$

bu formulada:

Z_1 - zaxiradagi mahsulotning davr oxiridagi qiymati;

Z_0 - zaxiradagi mahsulotning davr boshidagi qiymati.

Yuqorida keltirilgan formulalardan foydalanilganda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim: 1) ma'lumki bu sektordagi korxonalar tovar yoki xizmatlar ishlab chiqaradilar. Tovarlar moddiy ne'mat bo'lgani uchun ularni saqlash mumkin. Tovarlar ishlab chiqarish va sotish davrlari har doim ham bir davrga mos kelavermaydi. Shuning uchun, YAICHni

hisoblaganda zaxiraning o'zgarishini hisobga olish kerak. Xizmatlar esa, moddiy emas. Ularni saqlab bo'lmaydi. YA'ni xizmatlar zaxirasi bo'lmaydi. Odatda xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish davri bir vaqtga to'g'ri keladi. 2) MHTda ishlab chiqarish natijalarini baholash iqtisodiy jarayon yuz bergan vaqtda va shu davrdagi bozor baholarida amalga oshirilishi talab etiladi. Shuning uchun YAICH ko'rsatkichini hisoblashda tovarni sotilgan vaqtidagi emas ishlab chiqarilgan vaqtidagi baholarda hisoblash kerak. Ayniqsa, inflyatsiya jarayonlari yuqori bo'lgan davrlarda (yoki mahsulotni uzoq davr mobaynida saqlanib qolishi natijasida uning sifati pasayishi yoki ortishi mumkin va natijada mahsulotning bahosi kamayishi yoki ortishi mumkin) YAICHni ishlab chiqarish va sotish davrlaridagi qiymatida farq katta bo'ladi. Bu farq MHTda holding foydasi(yoki zarari) deb yuritiladi. Bunday holatlarda zaxiradan sotishga olingan tayyor mahsulotning baholar o'zgarishi hisobiga hosil bo'lgan qo'shimcha (holding foydasi) yoki yo'qolgan qiymat (holding zarari) miqdorini quyidagi formula orqali hisoblash tavsiya etiladi:

$$X = L - M, \quad (3)$$

bu formulada:

X - holding foydasi(+) yoki zarari(-);

L - zaxiradan sotishga olingan tovarning zaxiradan olgan vaqtdagi baholardagi qiymati;

M - zaxiradan sotishga olingan tovarning zaxiraga jo'natilayotgan vaqtdagi bahodagi qiymati;

Inflyatsiya miqdori yuqori bo'lgan holatlarda YAICH ko'rsatkichini hisoblashda (3) formulani qo'llash mumkin. Buning uchun (1) formula bilan aniqlangan YAICH ko'rsatkichidan holding foydasi X ni ayirib tashlaymiz va natijada quyidagi formulaga ega bo'lamiz:

$$R = S + Z - X, \quad (4)$$

Shu o'rinda shuni aytish joizki, (3) formuladan foydalanganda holding foydasi plyus ishora bilan, holding zarari esa minus ishora bilan chiqadi. SHu munosabat bilan, holding foydasi (1) bilan aniqlangan YAICH ko'rsatkichidan ayirilgan, holding zarari esa qo'shib qo'yilgan bo'ladi. YUqorida aytilganlarni quyidagi misolda ko'ramiz. Misolda yuqorida ishlatilgan belgilardan foydalanamiz. Kuzatilayotgan (T) davrda korxonada 100 birlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Bu davrda mahsulot bahosi 10 so'mdan bo'lgan. SHu davrda sotilgan mahsulot miqdori 150 birlik, yoki $S = 150 \cdot 10$; Zaxiradan 50 birlik mahsulot olinganligini

hisobga olsak, zaxiraning boshlang'ich va shu davrning oxiridagi holati quyidagicha bo'ladi:

$$Z_0 = 200 \cdot 5; Z_1 = 150 \cdot 5;$$

Berilganlardan L, M va X larni topamiz:

$$L = 50 \cdot 10 = 500; M = 50 \cdot 5 = 250;$$

$$X = L - M = 500 - 250 = 250.$$

Topilganlarni (2) va (1)ga qo'yamiz:

$$Z = Z_1 - Z_0 = 750 - 1000 = -250;$$

$$R = S + Z - X = 1500 + (-250) - 250 = 1000;$$

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan misoldan ko'rinib turibdiki, YAICH hajmi 1000ga teng, zaxiraning o'zgarishi -250 ga teng, holding foydasi 250ga teng. Agarda (1) formulani to'g'ridan-to'g'ri qo'llaganimizda YAICH hajmi $(1500 - 250) = 1250$ ga teng bo'lar edi. Bu esa YAICH hajmini to'g'ri ifodalamaydi, Chunki bu ko'rsatkich xolding foydasi (250) hisobiga yalpi mahsulotni 250 miqdorga ko'p qilib ko'rsatyapti.

Moliya korxonalari sektoriga kiruvchi korxonalarining YAICH ko'rsatkichini (1) formula bilan hisoblab bo'lmaydi. Bank tashkilotlarining asosiy faoliyati moliya resurslarini ma'lum bir foiz stavkasida olib, yig'ilgan mablag'larni boshqa birliklarga olingan stavkadan yuqoriroq bo'lgan stavkada kredit sifatida berishdan iborat. Bunga ko'ra, ularning asosiy faoliyati bo'yicha YAICH ko'rsatkichi olingan kreditlarga to'langan va berilgan kreditlar uchun olingan foizlar o'rtasidagi farqdan iborat. Uni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$R = R_1 - R_0, \quad (5)$$

bu formulada:

R- bank tashkilotlarining YAICH ko'rsatkichi;

R_1 - banklar tomonidan qarz va kredit berganligi uchun olgan daromad (foiz)lari miqdori;

R_0 - banklar tomonidan olingan resurslar uchun to'langan xarajat(foiz)lar miqdori.

Formuladan ko'rinib turibdiki, banklarning o'z mablag'laridan qarz va kredit berib turganligidan oladigan foiz daromadlari va boshqa tushumlar (5) formulada hisobga olinmaydi. Bu daromadlar va tushumlar MHTda mulkdan olingan daromad hisoblanadi va YAICH hajmiga qo'shilmaydi. Chunki banklarning YAICH ko'rsatkichi, risolaga ko'ra, ularning vositachilik faoliyatlarining natijasini xarakterlovchi ko'rsatkichdir. Banklarning asosiy vazifasi bo'sh moliya resurslarini topib, jamlab

iste'molchilarga yetkazib berishdan iboratligini nazarga olsak, (5) formula ularning asosiy faoliyat natijasini to'g'ri ifodalaydi.

Shuni aytish lozimki, banklar yuqorida aytilgan faoliyatdan tashqari mijozlarga qo'shimcha turli xil moliyaviy xizmatlar ko'rsatadilar. Ularga misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin: - mijozning buyurtmasiga ko'ra pul o'tkazmalarini hisobdan-hisobga o'tkazish, qimmatli qog'ozlarini saqlash, valyutani almashtirish va boshqa moliyaviy xizmatlar. Ularning bu xizmatlari evaziga olgan daromadlari ham YAICH ko'rsatkichi sifatida hisobga olinadi.

Xulosa qilib aytganda, bank muassalarining yalpi mahsuloti foizlar o'rtasidagi marjadan va boshqa ko'rsatilgan moliyaviy xizmatlar yig'indisidan iborat.

Moliya korxonalari sektoriga kiruvchi sug'urta korxonalarining YAICH ko'rsatkichi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$R = R - K + Q - N, \quad (6)$$

bu formulada:

R - sug'urta korxonalarining YAICH ko'rsatkichi;

R - sug'urta korxonalariga to'langan sug'urta badallari;

K - sug'urta korxonasi tomonidan to'langan sug'urta qoplamasi;

Q - sug'urta korxonasining sug'urta rezervlarini investitsiya jarayonlariga jalb etib, olgan foizlari;

N - sug'urta texnik rezervlarining o'zgarishi.

Davlat boshqaruv tashkilotlari va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar tarkibiga kiruvchi birliklar YAICH ko'rsatkichini hisoblash qoidalari, yuqorida keltirilgan qoidalardan tubdan farq qiladi. Bu birliklar o'z faoliyati natijalarini bozorda sotmaydilar. Chunki, bu tashkilotlarda moddiy ne'mat (mahsulot)lar yaratilmaydi va o'z navbatida mahsulotlar zaxirasi ham yo'q. Ular bepul kollektiv va individual nobozor xizmatlar ko'rsatadilar. Bu birliklarning YAICH ko'rsatkichi ularning faoliyatini yuritishga sarf qilingan xarajatlari yig'indisi miqdorida aniqlanadi. Bu xarajatlar quyidagilardan iborat:

- oraliq iste'mol uchun sarf qilingan mahsulotlar va xizmatlarning bozor baholaridagi qiymati;

- faoliyat yuritishiga ketgan mehnat haqi xarajatlari miqdori;

- ishlab chiqarishni yuritish uchun to'langan soliqlar miqdori;

- asosiy ishlab chiqarish vositalarini tiklash uchun ajratilgan ajratmalar (asosiy kapitalning iste'moli).

Shuni ta'kidlash lozimki, agarda bu ikki sektorga kiruvchi birliklar o'zlariga qarashli ish joyida faoliyat ko'rsatsalar, ularning YAICHga shartli ravishda hisoblangan ijara xarajatlari qo'shib qo'yiladi²⁰. SHartli ijara xarajatlari miqdori egallab turgan ish joyini amaldagi bozor baholarida ijaraga olinganda to'lanishi lozim bo'lgan miqdorda hisoblanadi.

Ayrim hollarda, yuqorida keltirilgan nobozor xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar xizmatlari evaziga ma'lum miqdorda (odatda xizmat qiymatidan kam) haq olishlari va ayrim mahsulotlarni sotishlari mumkin. Masalan: bolalar bog'chalari ota-onalardan bolalari bog'chaga borgan uchun qisman haq (lekin bu to'langan haq bolalarning bog'chada bo'lgani uchun hamma xarajatni to'la qoplamaydi) oladilar. Kutubxonalar kitobni uyga berganligi uchun haq oladilar. Bundan tashqari muzeylar esdalik mahsulotlari (suvenirlar) sotishi mumkin. Bu amaliyotlardan tushgan mablag'lar YAICHga qo'shilmaydi. Bu birliklar ma'lum daromadga ega bo'lishlariga qaramay, YAICH miqdori bu birliklarning faoliyatlarini yuritishga ketgan sarf-xarajatlarning umumiy miqdori sifatida hisoblanadi.

Agarda davlat boshqaruv idoralari va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi sektorga kiruvchi birliklar bir vaqtning o'zida qo'shimcha nobozor ishlab chiqarish amaliyoti bilan shug'ullansalar, ular shartli ravishda ikkita hisobot birligiga ajratiladilar. Ularning nobozor va bozor faoliyatlari natijalari alohida hisoblanib, mos ravishda bozor faoliyatlari natijasi nomoliya korxonalari sektori tarkibida hisobga olinadi. Bu holda nobozor ishlab chiqarish miqdori korxonaning umumxarajatlaridan bozor ishlab chiqarishdan olingan daromadni ayirish orqali topiladi.

Milliy iqtisodiyotda **uy xo'jaliklari (UX)** juda katta o'rin tutadi. Chunki, har bir davlatning pirovard maqsadi xalqning farovon turmushini ta'minlashga qaratilgan. UXni MHTda iste'molchi va ishlab chiqaruvchi sifatida qaraladi. Uning iqtisodiy faoliyatini 2ga bo'lish mumkin: o'z iste'moli va boshqa iste'molchilar uchun tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish. Ma'lumki, UXda oila va oila a'zolarining o'zlari va oila a'zolariga ko'rsatgan xizmatlari MHTda ishlab chiqarish sifatida qaralmaydi. Lekin, UX tomonidan o'z iste'moli va bozor uchun ishlab chiqargan tovarlar ishlab chiqarish sifatida qaraladi. Chunki, ishlab chiqarilayotgan tovarlarni o'z iste'moli yoki bozor uchun ekanligini chegaralash qiyin. Masalan: oila tomorqasida oila iste'moli uchun

²⁰ Bu sektorlarga kiruvchi birliklar o'zlari egalik qilayotgan ish joyi, binolarda yoki ijaraga olingan joylarda faoliyat ko'rsatib, ijara xaqi to'laydilar. Ularning faoliyatlari natijalarini yagona mezonida, uslubda o'lchash uchun, o'z ish joylarida faoliyat ko'rsatayotgan birliklar uchun shartli ijara xaqi hisoblanadi.

kartoshka yetishtirdi va 200 kg kartoshka oldi. Olingan hosil mo'jallanganidan 50 kg ortiq chiqdi. 50 kg, oila iste'molidan ortiqcha, mahsulot bozorda sotildi. Shuning uchun, UXning quyidagi iqtisodiy faoliyatlari, o'zi yoki bozor uchun bo'lishidan qat'iy nazar, ishlab chiqarish sifatida qaraladi:

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazish va ularni saqlash. Har xil meva va ziravorlarni, o'rmon mahsulotlarini (do'lana, dorivor o'tlar, isiriq va h.k.) yig'ish. Daraxtlarni kesib yog'och va o'tin tayyorlash. Asalchilik, ovchilik va baliq tutish;

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, teri tayyorlash, go'shtli va mevali konservalar, qazi tayyorlash, tuzlamalar, murabbo va kompotlar, meva qoqilari, yog'juvozlari yog' olish, tort, pechen'e, qandolat mahsulotlari va turli pishiriq (non, somsa, patir, xasip va h.k.)lar tayyorlash va sotish, sut mahsulotlarini tayyorlash (saryog',suzma, qatiq, pishloq, qurt va h.k.), vino, pivo, spirt tayyorlash, savatchalar va har xil uy jixozlarini to'qish va boshqalar;

- har xil kiyim kechaklarni to'qish, tikish, oyoq kiyimlarini (tufli, maxsi, kovush va h.k.) tikish, o'ymakorlik ishlari, uy jixozlarini tayyorlash, mebel' tayyorlash, beshik va belanchaklar yasash va boshqalar.

Sirasini aytganda, yuqorida keltirilgan UXlarining ishlab chiqarish faoliyatlarini yana davom ettirish mumkin. Chunki ularning faoliyatlari ko'p qirrali va rang barang. O'ylaymizki, keltirilganlardan UXlarning ishlab chiqarish faoliyatlarining chegarasini bilib olish uncha qiyin emas.

Yuqorida aytilganlardan tashqari, yana quyidagi holatlarni ta'kidlab o'tishni zarur deb hisoblaymiz:

- aholining o'zi tomonidan o'z uyini mayda ta'mirlash, dekorasiya holatini o'zgartirish bilan bog'liq kichik hajmdagi ishlar **ishlab chiqarish** sifatida qaralmaydi. Lekin, bunday ishlarning ko'lami katta bo'lsa (uyni yangitdan suvash, bo'yash, tomni yangilash, yangi xonalar qurib kengaytirish kabi), bu holda bu ishlar ishlab chiqarish sifatida qaralib, UXning YAICH ko'rsatkichiga qo'shiladi;

- ko'p mamlakatlarda turar joylar asosan xususiy shaxslar (**uy egalari**)ga tegishli bo'lgani uchun, aksariyat aholi uylarda uy haqi (ijara) to'lab turadilar. Uy egalari uyni ijaraga berib turganliklari, MHTda uy egalari uyni xo'jaligiga ijaraga xizmati ko'rsatish deb talqin etiladi. Ijara xizmati esa, har doim ishlab chiqarish deb qaralgan. Shu munosabat bilan, MHTda o'z uylarida istiqomat qiluvchi uy xo'jaliklari uchun **shartli ravishda** ijaraga xizmati ko'rsatilgan deb hisoblanib, **shartli ijaraga haqi** ishlab chiqarish hajmiga qo'shib qo'yiladi;

- uy xo'jaligida (oilada) bajarilayotgan ishlar oila a'zolaridan boshqa shaxslar (yollangan uy xizmatchisi, bog'bon, shofyor va h.k.) tomonidan bajarilsa, xizmatning katta-kichikligidan qat'iy nazar (uy xo'jaligining xarajati miqdorida) ishlab chiqarish sifatida qaraladi.

Biz yuqorida mamlakat iqtisodiyotining turli tarmoq va sektorlarida yalpi ishlab chiqarish hajmini hisoblash usullari ustida qisqacha to'xtaldik. Ma'lumki, YAICH ko'rsatkichi orqali korxonalar, iqtisodiyotning tarmoq va sektorlari, hamda butun mamlakat iqtisodiyotining qanday rivojlanayotganligi to'g'risida to'la tasavvur hosil qila olmaymiz. Chunki, YAICH ko'rsatkichi o'z tarkibida ishlab chiqarish hajmlarini takror-takror hisobga oladi. Masalan: nonvoyxona YAICHni hisoblaganda non mahsulotini ishlab chiqarish uchun kerak bo'ladigan un, yog', achitqi (xamirturush), energiya resurslari va h.k.lar qiymati ham nonvoyxona YAICH hajmida va shu mahsulotlarni ishlab chiqargan korxonalarining ham YAICH hajmida hisobga olingan. Aslida, non ishlab chiqarish uchun sarf qilingan un va boshqa mahsulotlar boshqa korxonalar tomonidan yaratilgan qiymatdir. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, nonvoyxonaning iqtisodiy faoliyatini qanday kechayotganligini to'g'ri aniqlash uchun nonvoyxona YAICH ko'rsatkichidan boshqa korxonalar tomonidan qo'shilgan *ulushmi* ayirib tashlash lozim. MHTda ishlab chiqarish jarayonida iste'mol (ishlatilgan) tovar va xizmatlar qiymati **oralik iste'mol** (OI) deyiladi. Keltirilgan misolda, non mahsulotini ishlab chiqarish uchun ishlatilgan un va boshqa mahsulotlar qiymati OI bo'ladi.

Umuman aytganda, OIga ishlab chiqarish mobaynida ishlatilgan xom ashyo, butlovchi materiallar, yoqilg'i, elektroenergiya, mayda asbob-uskuna (asosiy fondlar (kapital) xarajatlaridan tashqari) xarajatlari, nomoddiy xizmatlar (reklama, auditorlik va yuridik xizmat va h.k.) xarajatlari va shu kabi xarajatlardan (ishlab chiqarish maydonlari, mashina va stanoklarni arenda xarajatlari) iborat. OIga asosiy kapitalning iste'moli (amortizatsiya) xarajatlari kirmaydi.

Oraliq iste'mol oxirgi iste'molchi sotib olgan baholarda, savdo-transport ustamasini qo'shgan holda baholanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, QQS to'lovchi birliklar uchun OI tarkibiga QQS kiritilmaydi ya'ni, OI asosiy baholarda hisoblanadi. QQS to'lamaydigan ishlab chiqaruvchi birliklar uchun, ularning OI ko'rsatkichi QQS qo'shib hisoblanadi.

Oraliq iste'molni hisoblashda, uning tarkibiga kiruvchi tovarlar qaysi narxlarda hisoblanishi muhim ahamiyatga ega. Qoidaga ko'ra, OI tarkibiga kiruvchi tovarlarning qiymati, ularni ishlab chiqarishda ishlatilgan (sotib olingan baholarida emas) vaqtdagi bozor baholarida hisoblanishi kerak.

Chunki, inflyatsiya jarayonlarining yuqori bo'lishi, oraliq iste'molga ishlatilayotgan tovarlarning sotib olish va ishlab chiqarishda ishlatilishi vaqtidagi baholarida ancha farq bo'lishi mumkin. Baholar o'rtasidagi farq natijasida korxonalar holding foydasi oladilar. Holding foydasi korxonaning iqtisodiy faoliyati natijasida hosil bo'lmagani uchun, ishlab chiqarish sifatida hisoblanmasligi kerak. MHTda bu holding foydasini ishlab chiqarish hajmidan ayirib tashlash kerak.

Shuni aytish joizki, bu qoidalarni amaliyotda to'raligicha qo'llash bir qancha qiyinchiliklarni tug'diradi. Jumladan, xolding foydasi yoki zararini, oraliq iste'mol xarajatlarini u ishlatilayotgan vaqtdagi bozor narxlarida hisoblash uchun bu jarayonlarni ifoda etuvchi qo'shimcha ma'lumotlarni topish talab etiladi. Bunday ma'lumotlar buxgalteriya hisobotida foydalanishga tayyor holda bo'lmaganligi uchun, ular milliy hisobchilar tomonidan ekspert baholash usulida hisoblanadi va tegishli asosiy ko'rsatkichlarga tuzatishlar kiritiladi.

Umuman aytganda, korxonalar, mamlakat iqtisodiyotining tarmoq va sektorlari, butun mamlakat miqyosida ishlab chiqarishning o'lchovi - **qo'shilgan qiymat** ko'rsatkichidir. U yalpi usulda yoki sof usulda hisoblanadi. Yalpi usulda YAIM va YAQQ ko'rsatkichlarida "yalpi" so'zini ishlatilishiga asosiy sabab, bu ko'rsatkichlarni hisoblaganda ular tarkibida asosiy kapitalning iste'moli (AKI) ko'rsatkichi qo'shib hisoblanganligidir. Aslida asosiy kapitalning iste'moli (AKI) miqdorini alohida hisoblash tavsiya etiladi. Lekin, amaliyotda bu ko'rsatkichni aniq va MHT talablari asosida hisoblash murakkab masala. Chunki, buxgalteriya hisoblaridagi asosiy kapitalning iste'moli (amortizatsiya)ni hisoblash usuli MHT qoidalariga mos kelmaydi. Buxgalteriya hisoblarida bu ko'rsatkich asosiy fondlarni boshlang'ich (sotib olingan) qiymatlarida, MHTda esa asosiy fondlarni ishlab chiqarishda ishlatilganda yo'qotgan, ya'ni ularni tiklash qiymatlarida (asosiy fondlarni yana o'z holiga keltirib qo'yishga ketadigan xarajat miqdorida) hisoblanadi.

Odatda butun mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish nazarda tutilganda bu ko'rsatkich **Yalpi ichki mahsulot (YAIM)** deb yuritiladi. Bu ko'rsatkich ishlab chiqarish schyotida muvozanatlashtiruvchi ko'rsatkich bo'lib, YAICHdan oraliq iste'molni ayirish orqali topiladi. YAICH ko'rsatkichi qanday baholarda (asosiy, ishlab chiqaruvchi) hisoblanishiga qarab, qo'shilgan qiymat ko'rsatkichi ham o'sha baholarda hisoblangan bo'ladi. Umuman mamlakatda iqtisodiy faoliyat ko'rsatayotgan barcha rezident institutsion birliklarning YAQQ ko'rsatkichlari yig'indisi YAIMga teng. Amaliyotda, YAQQ ko'rsatkichini hisoblashda

qo'llanilayotgan baho tizimiga mos ravishda YAIM ko'rsatkichini quyidagi formulalar orqali ifodalash mumkin:

$$YAIM = \Sigma YAQQ + N - S, \quad (7)$$

bu formulada:

$\Sigma YAQQ$ - mamlakat iqtisodiyotida faoliyat ko'rsatayotgan barcha rezident institutsion birliklarning YAQQ ko'rsatkichlarining yig'indisi (asosiy baholarda);

N - mahsulot uchun olingan soliqlar yig'indisi;

S - mahsulot uchun to'langan subsidiyalar yig'indisi.

Agarda YAQQ ishlab chiqaruvchilar baholarida hisoblangan bo'lsa, u holda quyidagi munosabat o'rinli bo'ladi:

$$YAIM = \Sigma YAQQ + QQS + U, \quad (8)$$

bu formulada:

$\Sigma YAQQ$ - mamlakat iqtisodiyotida faoliyat ko'rsatayotgan barcha rezident institutsion birliklarning YAQQ ko'rsatkichlarining yig'indisi (ishlab chiqaruvchilar baholarida);

QQS - qo'shilgan qiymat soliqlari yig'indisi;

U - mamlakat bo'yicha sof import (eksport-import) soliqlari;

Agarda AKIni to'g'ri hisoblab, YAIMdan chegirib tashlansa, hosil bo'lgan miqdor sof ichki mahsulot (SIM) deyiladi. O'z navbatida YAQQ ko'rsatkichi sof qo'shilgan qiymat (SQQ) deb ataladi. Sof ichki mahsulot asosiy kapitalning davr boshidagi qiymatini saqlagan holda mamlakatda yangitdan yaratilgan tovar va xizmatlarning bozor baholaridagi miqdorini ifodalaydi.

3. Iqtisodiyot tarmoqlarida yalpi mahsulotni hisoblashga doir o'ziga xos xususiyatlar

1. Qishloq xo'jaligi tarmog'iga kiruvchi birliklar yalpi mahsulot ko'rsatkichini hisoblash usullari

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi tarmog'i keng qamrovli, rangbarang tovar va xizmat ko'rsatish faoliyatlarini o'zida mujassamlantirgan. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi tarmog'ida bir hisobot davrida (oy, chorak, yil) iste'molchi talabini qondiradigan tayyor xolatda ishlab chiqarib bo'lmaydi. YA'ni, tayyor mahsulotni ishlab chiqarish jarayoni har doim ham bir hisobot davrida yakunlanmaydi, u bir necha hisobot davrlariga cho'zilishi

mumkin. Masalan, bug'doy urug'i kuzda sepildi, mahsulot keyingi yilning yozida yig'ib olinadi. Chorva mollarini go'shtga topshirish uchun bir necha yillar kerak bo'ladi. Bunday xolatlarda, ishlab chiqarishning oxirgi - mahsulot tayyor bo'lgan davridan oldingi hisobot davrlarida ishlab chiqarish hajmini o'lchash, ya'ni yalpi mahsulot qiymatini hisoblashda muayyan qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Odatda, mahsulot tayyor bo'lmagan davrlardagi ishlab chiqarishni **tugallanmagan ishlab** chiqarish deyiladi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishni hisobga olish tartib qoidalarini dehqonchilik va chorvachilik quyi tarmoqlari misolida bayon etamiz.

Dehqonchilik. Bu tarmoqda tugallanmagan ishlab chiqarish hajmini hisoblashda **xarajatlar usulidan** foydalanamiz. Xarajatlar usulining mohiyati quyidagicha. Unga ko'ra, yalpi ishlab chiqarish hajmi hisobot davrida ishlatilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (OI), mehnat haqi (MX) va o'rtacha (shartli) hisoblangan foyda (SHF) ko'rsatkichlarining yig'indisidan iborat.

$$YAICH = OI + MH + SHF, \quad (9)$$

bu erda,

OI - hisobot davrida ishlatilgan tovarlar va xizmatlarning qiymati;

MH - ishchi-xizmatchilarga yozilgan ish haqi, qo'shimcha va mukofotlar, majburiy sug'urta fondlariga ajratmalar;

SHF - shartli foyda.

Shartli foyda quyidagicha hisoblanadi:

- o'tgan davr(yil)dagi ma'lumotlardan foydalanib, bir birlik oraliq iste'mol va mehnat haqiga to'g'ri keladigan foyda (normasi) miqdori (FN) topiladi²¹.

- topilgan foyda normasini hisobot davri uchun hisoblangan oraliq iste'mol va mehnat haqi yig'indisiga ko'paytiriladi. Topilgan miqdor shartli foyda bo'ladi.

$$SHF = (OI + MX) \times FN / 100; \quad (10)$$

Yuqorida keltirilgan fikrlarni paxta xom ashyosini (bundan keyingi matnlarda qisqacha - paxta deb yuritamiz) yetishtiruvchi fermer xo'jaligi misolida ko'rib chiqamiz. Shuni alohida aytish lozimki, fermer er solig'i to'laydi. Bu soliq bevosita ishlab chiqarish uchun soliq hisoblanadi va YAICH tarkibiga kiradi. Bu soliq fermerga birlashtirilgan ekin maydoniga nisbatan belgilanadi va hamma davrlar uchun bir xil miqdorda bo'ladi. Keltirilayotgan misol murakkab bo'lib ketmasligi uchun bu omilni hisobga

²¹ Foyda normasi foizlarda hisoblanadi. Foyda normasini topish uchun, o'tgan yildagi foyda ko'rsatkichini mehnat haqi va oraliq iste'mol ko'rsatkichlari yig'indisiga bo'lib, 100ga ko'paytiriladi

olmaymiz. Bundan tashqari, fermer xo'jaligi qo'shilgan qiymat solig'i to'lamaganligi uchun, hisoblarda oraliq iste'mol tarkibiga kiruvchi materiallar va xizmatlar qiymati qo'shilgan qiymat solig'i qo'shib hisoblangan, deb hisoblaymiz.

Misolda hisobot davri o'lchov birligi sifatida - chorakdan, pul o'lchov birligi sifatida - mln.so'mdan foydalanamiz.

Paxtani yetishtirish, hosilini terib topshirish bir necha hisobot davrlarida amalga oshiriladi. SHuni e'tiborga olib quyidagi ma'lumotlardan foydalanamiz.

Fermer xo'jaligi 2008 yilda 100ga erda paxta yetishtirgan. Ja'mi 250 tn paxta sotgan. Uning umumiy qiymati 50 mln.so'm bo'lgan. Oraliq iste'molga xarajatlar - 25, mehnat haqi - 20, foyda - 5.2. Fermer xo'jaligi 2009 yilda 110 ga erda paxta yetishtirish bo'yicha dehqonchilik ishlarini boshlagan. Erni tekislash, xaydash ishlari 2008 yilning oxirgi choragida bajarilgan. Bu ishlarni bajarish uchun ja'mi 3 birlik sarf xarajat bo'lgan. SHu jumladan: 2.5 - oraliq iste'molga, 0.5 mehnat haqiga sarf bo'lgan.

Fermer xo'jaligining 2009 yil ma'lumotlariga ko'ra, 1-chorakda bajarilgan ishlarga ja'mi 2 birlik, shu jumladan oraliq iste'molga - 1.8, mehnat haqiga - 0.2 birlik sarf qilingan. Asosiy kapitalning iste'moli (AKI) 0.05 ga teng.

2-chorakda bajarilgan ishlarga ja'mi 10 birlik, shu jumladan oraliq iste'molga - 6, mehnat haqiga - 4 birlik sarf qilingan. O'tgan uch chorakda paxta mahsuloti sotilmagan. Asosiy kapitalning iste'moli (AKI) 0.1 ga teng.

3-chorakda bajarilgan ishlar jami 20 birlik, shu jumladan, oraliq iste'molga - 10, mehnat haqiga - 10 birlik sarf qilingan. Bu chorakda 120 tn paxtani 26 birlikka sotgan. Asosiy kapitalning iste'moli (AKI) 0.1 ga teng.

4-chorakda bajarilgan ishlar jami 28 birlik, shu jumladan, oraliq iste'molga - 12, mehnat haqiga - 16 birlik sarf qilingan. SHu jumladan, keyingi yil hosili uchun oraliq iste'molga 3, mehnat haqiga 1 birlik sarf qilingan. Asosiy kapitalning iste'moli (AKI) 0.1 ga teng. Bu chorakda 180 tn paxtani 40 birlikka sotgan. Barcha ishlab chiqarilgan paxta mahsuloti sotilganligi uchun zaxirada mahsulot qolmagan.

Fermer xo'jaligi 2009 yilda jami 300 tn paxta ishlab chiqarib davlatga sotgan, uning joriy baholardagi umumiy qiymati 66 mln. so'mga teng bo'lgan.

Berilgan ma'lumotlardan foydalanib, 2009 yilning har bir choragi bo'yicha fermer xo'jaligining ishlab chiqarish schyoti ko'rsatkichlarini hisoblaymiz.

YAICH ko'rsatkichini hisoblashda (9) formuladan, shartli foydani (SHF) hisoblashda (10) formuladan foydalanamiz. YUqorida berilgan ma'lumotlardan foydalanib, foyda normasini topamiz: $FN = 5/(25+20) \cdot 100\% = 11.1\%$. CHoraklar bo'yicha berilgan ma'lumotlardan foydalanib, tegishli ko'rsatkichlarni topamiz.

1- chorak

$$SHF = (OI+MX) \cdot FN/100 = (1.8+0.2) \cdot 11.1/100 = 0.22;$$

$$YAICH = OI + MX + SHF = 1.8 + 0.2 + 0.22 = 2.22;$$

$$YAQQ = YAICH - OI = 2.22 - 1.8 = 0.42;$$

$$SQQ = YAQQ - AKI = 0.42 - 0.05 = 0.37;$$

2 - chorak

$$SHF = (OI + MX) \cdot FN/100 = (6+4) \cdot 11.1/100 = 1.11;$$

$$YAICH = OI + MX + SHF = 6 + 4 + 1.11 = 11.11;$$

$$YAQQ = YAICH - OI = 11.11 - 6 = 5.11;$$

$$SQQ = YAQQ - AKI = 5.11 - 0.1 = 5.01;$$

3 - chorak

$$SHF = (OI+MX) \cdot FN/100 = (10+10) \cdot 11.1/100 = 2.22;$$

$$YAICH = OI + MX + SHF = 10 + 10 + 2.22 = 22.22;$$

$$YAQQ = YAICH - OI = 22.22 - 10 = 12.22;$$

$$SQQ = YAQQ - AKI = 12.22 - 0.1 = 12.12;$$

4 - chorak

$$SHF = (OI+MX) \cdot FN/100 = (12+16) \cdot 11.1/100 = 3.1;$$

$$YAICH = OI + MX + SHF = 12 + 16 + 3.1 = 31.1;$$

$$YAQQ = YAICH - OI = 31.1 - 12 = 19.1;$$

$$SQQ = YAQQ - AKI = 19.1 - 0.1 = 19;$$

Dastlabki tezkor ma'lumotlar asosida yillik hisoblarni (2009 yilga) barcha choraklar yig'indisi sifati hisoblash mumkin:

$$YAICH = 2.22 + 11.11 + 22.22 + 31.1 = 66,65 ;$$

$$OI = 1.8 + 6 + 10 + 12 = 29,8;$$

$$YAQQ = 0,42 + 5,11 + 12,22 + 19,1 = 36,85;$$

$$SQQ = 0,37 + 5,01 + 12,12 + 19,0 = 36,5;$$

Choraklar bo'yicha tezkor ma'lumotlar asosida qilingan hisoblarga ishlab chiqarish to'g'risidagi yillik ma'lumotlar asosida tuzatishlar kiritilishi talab etiladi. Tuzatishlar asosan foyda normasining o'zgarishi

hisobiga bo'ladi. Buning uchun, ushbu misoldagi ma'lumotlardan foydalanib 2009 yil uchun foyda normasi topiladi va har bir chorak hisoblarida tegishli tuzatishlar amalga oshiriladi. Sodda qilib aytganda, chorak hisoblarida foydalanilgan 2008 yil uchun topilgan foyda normasi o'rniga 2009 yil uchun topilgan foyda normasi qo'yib hisoblanadi.

2009 yil uchun haqiqiy YAICH ko'rsatkichi, oraliq iste'mol ma'lum bo'lgani uchun yillik hisoblarni amalga oshiramiz.

Yalpi yillik mahsulot 3- va 4-choraklarda sotilgan mahsulot qiymati va 4-chorakda 2010 yil hosili uchun bajarilgan ishlar yig'indisidan iborat.

$$\text{Sotilgan mahsulot qiymati} = 26+40=66;$$

Bu mahsulotni yetishtirishga ketgan:

$$\text{OI} = 2.5+1.8+6+10+12-3 = 29.3;$$

$$\text{MX} = 0.5+0.2+4+10+16-1 = 29.7;$$

$$\text{Yalpi foyda YAF} = 66-29.3-29.7=7;$$

2009 yil uchun foyda normasi (FN):

$$\text{FN} = 7/(29.3+29.7)*100=11.86\%;$$

Topilgan foyda normasini 1-4 chorak hisoblariga qo'yib chiqamiz.

1 - chorak

$$\text{SHF} = (\text{OI} + \text{MX}) \times \text{FN} / 100 = (1.8+0.2) \times 11.86/100 = 0.24;$$

$$\text{YAICH} = \text{OI} + \text{MX} + \text{SHF} = 1.8+0.2+0.24 = 2.24;$$

$$\text{YAQQ} = \text{YAICH} - \text{OI} = 2.24-1.8=0.44;$$

$$\text{SQQ} = \text{YAQQ} - \text{AKI} = 0.44-0.05=0.39;$$

Dastlabki hisoblarga nisbatan farq 0.02ni tashkil qildi.

2 - chorak

$$\text{SHF} = (\text{OI} + \text{MX}) \times \text{FN} / 100 = (6+4) \times 11.86/100 = 1.19;$$

$$\text{YAICH} = \text{OI} + \text{MX} + \text{SHF} = 6+4+1.19 = 11.19;$$

$$\text{YAQQ} = \text{YAICH} - \text{OI} = 11.19-6 = 5.19;$$

$$\text{SQQ} = \text{YAQQ} - \text{AKI} = 5.19-0.1 = 5.09;$$

Dastlabki hisoblarga nisbatan farq 0.08ni tashkil qildi.

3 - chorak

$$\text{SHF} = (\text{OI} + \text{MX}) \times \text{FN} / 100 = (10+10) \times 11.86/100 = 2.37;$$

$$\text{YAICH} = \text{OI} + \text{MX} + \text{SHF} = 10+10+2.37 = 22.37;$$

$$\text{YAQQ} = \text{YAICH} - \text{OI} = 22.37-10 = 12.37;$$

$$\text{SQQ} = \text{YAQQ} - \text{AKI} = 12.37-0.1 = 12.27;$$

Dastlabki hisoblarga nisbatan farq 0.15ni tashkil qildi.

4 - chorak

$$\text{SHF} = (\text{OI} + \text{MX}) \times \text{FN} / 100 = (12+16) \times 11.86/100 = 3.32;$$

$$\text{YAICH} = \text{OI} + \text{MX} + \text{SHF} = 12+16+3.32 = 31.32;$$

YAQQ = YAICH-OI = 31.32 - 12 = 19.32;
SQQ = YAQQ-AKI = 19.32 - 0.1 = 19.22;
Dastlabki hisoblarga nisbatan farq 0.22ni tashkil qildi.

2009 yil barcha choraklar yig'indisi:

YAICH = 2.24 + 11.19 + 22.37 + 31.32 = 67,12 ;
OI = 1.8 + 6 + 10 + 12 = 29,8;
YAQQ = 0,44 + 5,19 + 12,37 + 19,32 = 37,32;
SQQ = 0,39 + 5,09 + 12,27 + 19,22 = 36,97;

Dastlabki hisoblarni tuzatilgan hisoblar bilan solishtirish orqali har bir ko'rsatkich bo'yicha xatolik darajasini (XD) topish mumkin.

YAICH bo'yicha XD = 100% - 67,12/66.65 * 100% = 0.7%

OI bo'yicha XD = 100% - 29.8/29.8 * 100% = 0%

YAQQ bo'yicha XD = 100% - 37.37/36.85 * 100% = 1.4%

SQQ bo'yicha XD = 100% - 36.97/36.5 * 100% = 1.2%

Topilganlardan ko'rinib turibdiki xatolik darajasi uncha katta emas. Bu dastlabki tayyorlangan hisoblardan iqtisodiy tahlilda bemaol foydalanish mumkinligi bildiradi.

Shuni aytish joizki, yil yakuni bo'yicha olingan ma'lumotlardan foydalanib, yillik ko'rsatkichlarni quyidagicha hisoblash mumkin.

Yuqorida berilganlardan bizga kerak bo'lgan yillik ko'rsatkichlarni topamiz:

Sotilgan mahsulot = 66; Sotilgan mahsulotning YAICH ko'rsatkichini YAICH(T) bilan belgilaymiz. YAICH(T) = 66; Yiillik AKI = 0.35;

Bu mahsulotni ishlab chiqarishga sarf qilingan oraliq istemolni OI(T) bilan belgilaymiz va uni topamiz.

OI(T) = 2.5 + 1.8 + 6 + 10 + 12 - 3 = 29.3;

Bundan tashqari, 4-chorakda keyingi yil hosili uchun 3 birlik oraliq iste'molga va 1 birlik mehnat haqiga sarf bo'lgan. Bu faoliyatning YAICH ko'rsatkichini YAICH(1) bilan belgilaymiz. YAICH(1) = 3 + 1 + (3 + 1) * 11.86/100 = 4.46; Bu ishlab chiqarishda sarf bo'lgan oraliq iste'molni OI(1) bilan belgilaymiz va uni hisoblaymiz. OI(1) = 3;

2008 yilning 4-choragida 2.5 birlik oraliq iste'molga va 0.5 birlik mehnat sarfiga sarf bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotdan foydalanib, bu faoliyatning YAICH ko'rsatkichini YAICH(0) bilan belgilaymiz. YAICH(0) = 2.5 + 0.5 + (2.5 + 0.5) * 11.86/100 = 3.36;

Bu ishlab chiqarishda sarf bo'lgan oraliq iste'molni OI(0) bilan belgilaymiz va uni hisoblaymiz. $OI(0)=2.5$;

Bu ma'lumotlardan foydalanib YAICH, YAQQ va SQQ ko'rsatkichlarini hisoblaymiz (yuqorida choraklar yig'indisi sifatida hisoblangan yillik ko'rsatkichlar solishtirish uchun yangi topilgan ko'rsatkich yonida qavs ichida keltirilgan):

$$YAICH=YAICH(T)+YAICH(1)-YAICH(0) = 66+4.46-3.36=67.1;$$

(67,12)

$$OI = OI(T)+OI(1)-OI(0) = 29.3+3-2.5=29.8; \quad \mathbf{(29,8)}$$

$$YAQQ = 67.1-29.8=37.3; \quad \mathbf{(37,37)}$$

$$SQQ = 37.3-0,35=36.95; \quad \mathbf{(36,95)}$$

Ikki usul bilan hisoblangan natijalarni solishtirish orqali keltirilgan usullarning to'g'ri ekanligini bilish mumkin. SHuning uchun, bu usullarni o'zlashtirib bemaol ularni amaliyotda qo'llash mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida keltirilgan usullarni barcha tovar ishlab chiqarish tarmoqlarda ishlatish mumkin. Bu usulni ***tugallanmagan ishlab chiqarishni o'lchash usuli*** deb nomlaymiz. Bu nomdan keyingi mavzu va masalalarni yoritishda foydalanamiz.

Chorvachilik. Chorvachilik tarmog'ining quyi tarmoqlari juda ko'p. Uning ayrim tarmoqlarida (parrandachilik, sut ishlab chiqarish fermalari va h.k) bir hisobot davrida tayyor mahsulot ishlab chiqarilib, iste'molchilarga sotiladi. Chorvachilikning ko'plab tarmoqlarida, aksariyat tovar ishlab chiqarish sikli bir necha hisobot davrini o'z ichiga oladi. Shu sababli, bu tarmoqqa kiruvchi birliklarning iqtisodiy ishlab chiqarishini o'lchash ancha murakkab va keng qamrovli vazifa. Bu vazifani amalga oshirishda birinchi navbatda hisoblash usulini, unga zarur bo'lgan ma'lumotlar bazasini yaratish muhim ahamiyatga ega. Quyida chorvachilikning go'sht ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bir fermasi misolida uning ishlab chiqarish faoliyati natijalarini hisobot davrlarida hisobga olish usulini keltiramiz.

Ferma to'g'risidagi shartli statistik ma'lumotlar 1-jadvalda berilgan. Berilganlardan foydalanib fermaning ishlab chiqarish schyoti ko'rsatkichlarini hisoblash algoritmini 1-chorak ma'lumotlari asosida keltiramiz. Hisoblash formulalarini ifodalashda mos ravishda satr raqamlaridan va ustun belgilaridan foydalanamiz. Masalan: 1-chorakda

shoxli mollar soni A2, ularning tirik vazni A3, 2-chorakda V2, ularning tirik vazni V3 va h.k. Qiymat ko'rsatkichlari mln.so'mda hisoblanadi.

MHTda hisoblar tarmoqlar kesimida bajariladi. Berilganlardan ma'lumki, ma'lumotlar ikki tarmoq faoliyatini ifoda etgan: birinchi tarmoq chorvachilik, ikkinchisi transport tarmog'i. Hisoblarini tarmoqlar bo'yicha alohida-alohida bajaramiz.

1. Yalpi ichki mahsulot qiymatini hisoblash formulalari:

1.1. Sotilgan mahsulot (SM) qiymati tarmoqlar kesimida hisoblanadi. Berilgan ma'lumotlarga ko'ra chorvachilik va transport tarmoqlari bo'yicha alohida hisoblarni amalga oshirish lozim.

$$SM(ch) = A8 + A17 = 67,3 + 0,7 = 68;$$

$$SM(t) = A18 = 0,6;$$

1.2. Hisobot davrida mollar tirik vaznida bo'lgan o'zgarishlarni hisoblaymiz.

$$TVO' = A31 - A3 = 67 - 66 = 1 \text{ tn}$$

1.3. Hisoblangan tirik vazndagi o'zgarishni mahsulot sifatida o'rtacha bozor baholaridagi qiymati hisoblanadi.

$$TVO'Q = TVO' \times (A10/A9) = 1 \times (49.5/9) = 5,5 \text{ mln.so'm.}$$

1.4. CHorvachilik tarmog'i bo'yicha umumiy YAICH(CH)ni hisoblaymiz. Buning uchun, 22 satrda berilgan ma'lumotga ko'ra, veterinariya xizmati chorvachilik tarmog'iga kirganligi uchun, bajarilgan xizmat qiymatini tarmoq yalpi ishlab chiqarishida hisobga olamiz:

$$YAICH(CH) = SM(ch) + TVO'Q + A(17) = 68 + 5,5 + 0,7 = 74.2 \text{ mln.so'm}$$

1.5. Transport tarmog'i YAICH(t) = SM(t) = A18 = 0.6;

2. Oraliq iste'mol ko'rsatkichini hisoblash formulalari:

2.1. CHorvachilik tarmog'i bo'yicha:

$$OI(ch) = A(20) - A(21) + A(23) - A(24) = 40.4 - 0.2 + 3.4 - 0.2 = 43.4 \text{ mln.so'm;}$$

2.2. Transport tarmog'i bo'yicha:

$$OI(t) = A(21) + A(24) = 0.2 + 0.2 = 0.4 \text{ mln. so'm.}$$

3. Yalpi qo'shilgan qiymatni hisoblash formulalari.

3.1. CHorvachilik tarmog'i bo'yicha:

$$YAQQ(ch) = YAICH(ch) - OI(ch) = 74.2 - 43.4 = 30.8 \text{ mln.so'm}$$

3.2. Transport tarmog'i bo'yicha:

$$YAQQ(t) = YAICH(t) - OI(t) = 0.6 - 0.4 = 0.2 \text{ mln.so'm.}$$

3.3. Umumiy yalpi qshilgan qiymatni hisoblash:

$$YAQQ=YAQQ(ch)+YAQQ(t)=30.8+0.2=31\text{mln.so}^{\circ}\text{m.}$$

Qolgan chorak ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini mustaqil ravishda berilgan algoritmdan foydalanib, mustaqil ravishda hisoblash mumkin. Barcha choraklar bo'yicha hisoblash natijalarini 2-jadvalda berilgan ma'lumotlarga solishtirish mumkin.

1-Jadval.

"Yulduz" nomli go'sht va sut ishlab chiqarishga ixtisoslashgan fermaning 2009 yil ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

	Ko'rsatkichlar	O'lchov birliqi	qiymati			
			1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak
1.	Hisobot boshi xolatiga:					
2.	Shoxli mollar soni	dona	300	310	310	313
3.	Ularning tirik vazni	tn	66,0	66	68	71
4.	shundan: go'shtga boqilayotganlari soni	dona	200	208	205	208
5.	ularning tirik vazni	tn	36,0	35,0	36,0	38,0
6.	Sut beradigan mollar soni	dona	100	102	105	105
7.	Ularning tirik vazni	tn	30,0	31,0	32,0	33
8.	Sotilgan tovarlar, jami	mln. so'm	67,3	68,0	68,0	74,0
9.	shu jumladan: go'sht miqdori (tirik vaznda)	tn	9,0	8,8	9,0	9,6
10.	go'sht qiymati	mln. so'm	49,5	48,0	47,0	52,0
11.	sut miqdori	ming litr	81,0	90,9	102,1	93,6
12.	sut qiymati	mln. so'm	17,8	20,0	21,0	22,0
13.	Sotilgan mahsulotga kelib tushgan pul	mln. so'm	32,1	36,1	37,1	39,1
14.	shu jumladan go'shtga	mln. so'm	16,1	16,1	16,1	16,1
15.	sutga	mln. so'm	16,0	20,0	21,0	23,0
16.	Aholiga ko'rsatilgan pulli xizmatlar	mln. so'm	1,3	1,0	1,4	1,2
17.	shu jumladan: veterinariya xizmati	mln. so'm	0,7	0,6	0,8	0,7

18.	transport xizmati	mln. so'm	0,6	0,4	0,6	0,5
19.	Ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar,jami	mln. so'm	64,0	64,8	65,4	69,5
20.	shundan: Material xarajatlar, hammasi	mln. so'm	40,4	41,0	41,5	44,0
21.	sh.j. transport xizmatini ko'rsatishga	mln. so'm	0,2	0,3	0,5	0,4
22.	veterinariya xizmatini ko'rsatishga	mln. so'm	0,3	0,2	0,3	0,3
23.	Nomaterial xizmatlar	mln. so'm	3,4	3,3	3,2	3,5
24.	sh.j. transport xizmatini ko'rsatishga	mln. so'm	0,2	0,0	0,1	0,0
25.	veterinariya xizmatini ko'rsatishga	mln. so'm	0,1	0,2	0,0	0,0
26.	Mehnat haqi (sotsial sug'urta bilan)	mln. so'm	20,2	20,5	20,7	22,0
27.	sh.j. transport xizmatini ko'rsatishga	mln. so'm	0,1	0,2	0,2	0,3
28.	veterinariya xizmatini ko'rsatishga	mln. so'm	0,3	0,5	0,6	0,6
29.	Hisobot oxiri xolatiga:					
30.	SHoxli mollar soni	dona	310	310	313	317
31.	Ularning tirik vazni	tn	67,0	67,9	71,6	70,1
32.	shundan: go'shtga boqilayotganlari soni	dona	208	205	208	215
33.	ularning tirik vazni	tn	35,4	35,9	38,5	38,7
34.	Sut beradigan mollar soni	dona	102	105	105	102
35.	Ularning tirik vazni	tn	31,6	32,0	33,1	32,0

2-Jadval.

"Yulduz" nomli go'sht va sut ishlab chiqarishga ixtisoslashgan fermaning 2009 yil choraklari bo'yicha *yalpi qo'shilgan qiymat* ko'rsatkichini hisoblash natijalari

Hisoblash bosqichlari	Shartli belgilar	qiymati				yil
		1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak	
1. YAICH ni hisoblash						
1.1. Sotilgan mahsulot qiymatini hisoblash	SM(ch)	68,0	68,6	68,8	74,7	280,1
1.2. Hisobot davrida mollar tirik	TVO'	1,0	1,9	3,6	-0,9	5,6

vaznida bo'lgan o'zgarishni hisoblash						
1.3. Hisoblangan tirik vazndagi o'zgarishni mahsulot sifatida o'rtacha bozor baholarida hisoblash. Bu miqdor musbat yoki manfiy bo'lishi mumkin.	TVO'Q	5,5	10,4	18,8	-4,9	29,8
1.4. Chorvachilik tarmog'i bo'yicha YAICHni hisoblaymiz. Unga transport xizmati qo'shilmaydi.	YAIC H(ch)	74,2	79,0	87,6	69,8	310,6
1.5. Qo'shimcha faoliyat YAICHni hisoblash. Transport xizmati chorvachilik faoliyatidan farqli bo'lgani uchun u alohida faoliyat sifatida hisoblanadi.	YAIC H(t)	0,6	0,4	0,6	0,5	2,1
2. Oraliq iste'molni hisoblash						
2.1. Chorvachilik tarmog'i bo'yicha	OI(ch)	43,4	44,0	44,1	47,1	178,6
2.2. Transport tarmog'i bo'yicha	OI(t)	0,4	0,3	0,6	0,4	1,7
3. Yalpi qo'shilgan qiymatni hisoblash						
3.1. Yalpi qo'shilgan qiymat, jami	YAQQ	31,00	35,1	43,5	22,8	132,4
3.2. Chorvachilik tarmog'i bo'yicha	YAQ Q(ch)	30,8	35,0	43,5	22,7	132,0
3.2. Transport tarmog'i bo'yicha	YAQ Q(t)	0,2	0,1	0,0	0,1	0,4

2. Qurilish tarmog'iga kiruvchi birliklar yalpi mahsulot ko'rsatkichini hisoblash usullari

Ma'lumki, qurilish tarmog'i keng qamrovli, rang-barang bunyodkorlik faoliyatlarini o'zida mujassamlantirgan. Bundan tashqari, qurilish tarmog'ida bir hisobot davrida (oy, chorak, yil) hamma qurilish ob'ektlari iste'molchi talabini qondiradigan tayyor xolatda ishlab chiqarib bo'lmaydi. YA'ni, tayyor mahsulotni ishlab chiqarish jarayoni har doim ham bir hisobot davrida yakunlanmaydi, u bir necha hisobot davrlariga cho'zilishi mumkin. Masalan, aholi yashashi uchun mo'ljallangan ko'p qavatli binoni bitirish bir necha hisobot davrlariga cho'ziladi. Bundan oldingi mavzularda ta'kidlanganidek, bunday holatlarda, bino tayyor bo'lgan davrdan oldingi hisobot davrlarida ishlab chiqarish hajmini o'lchash, ya'ni

yalpi mahsulot qiymatini hisoblashda muayyan qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Bunday holatlarni nafaqat qurilish sohasida, undan boshqa ishlab chiqarish muddati uzoq bo'lgan - samolyot, dengiz kemalari, kosmik kemalar va yirik mahsulotlarni ishlab chiqarish sohalarida uchratish mumkin. Bunday sohalar ishlab chiqarishi hajmi dastlabki davrlarda tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida qayd etiladi.

Yuqorida keltirilgan sohalarida tugallanmagan ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini hisoblash dehqonchilik tarmog'i misolida keltirilgan usul va algoritmlar (9 va 10 formulalar) asosida bajarish mumkin. Bu usullar yuqorida mufassal yoritilgani sababli, tushuntirish va izohlarga ortiqcha to'xtalib o'tmaymiz.

Quyida qurilish tarmog'ida tugallanmagan ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini bino qurilishi misolida keltiramiz.

Qurilish tarmog'ida tugallanmagan ishlab chiqarish hajmini hisoblashda **xarajatlar usulidan** foydalanish tavsiya etiladi. Unga ko'ra, yalpi ishlab chiqarish hajmi hisobot davrida bino qurilishida ishlatilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (OI), mehnat haqi (MX) va o'rtacha (shartli) hisoblangan foyda (SHF) ko'rsatkichlarining yig'indisidan iborat.

$$YAICH = OI + MH + SHF, \quad (9)$$

bu erda,

OI - hisobot davrida ishlatilgan tovarlar va xizmatlarning qiymati;

MX - ishchi-xizmatchilarga yozilgan ish haqi, qo'shimcha va mukofotlar, majburiy sug'urta fondlariga ajratmalar;

SHF - shartli foyda.

Shartli foyda quyidagicha hisoblanadi:

- o'tgan davr(yil)dagi ma'lumotlardan foydalanib, bir birlik oraliq iste'mol va mehnat haqiga to'g'ri keladigan foyda (normasi) miqdori (FN) topiladi²².

- topilgan foyda normasini hisobot davri uchun hisoblangan oraliq iste'mol va mehnat haqi yig'indisiga ko'paytiriladi. Topilgan miqdor shartli foyda bo'ladi.

$$SHF = (OI + MX) \times FN / 100; \quad (10)$$

Misolida hisobot davri o'lchov birligi sifatida - chorakdan, pul o'lchov birligi sifatida - mln.so'mdan foydalanamiz.

Bino qurilishi bir necha hisobot davrlarida amalga oshiriladi. SHuni e'tiborga olib quyidagi ma'lumotlardan foydalanamiz.

²² Foyda normasi foizlarda hisoblanadi. Foyda normasini topish uchun, o'tgan yildagi foyda ko'rsatkichini mehnat haqi va oraliq iste'mol ko'rsatkichlari yig'indisiga bo'lib, 100ga ko'paytiriladi

Qurilish tashkilotining o'rtacha foyda normasini 30% deb olamiz va undan shartli foyda ko'rsatkichini hisoblashda foydalanamiz. Bundan tashqari, qurilish tashkilotining quyidagi ma'lumotlaridan foydalanamiz.

Qurilish ishlari 2008 yilning boshida boshlangan va 2009 yilning 1-choragi oxirida tugallangan.

Qurilish tashkilotining 2008 yil ma'lumotlari:

1-chorakda bajarilgan ishlarga jami 20 birlik, shu jumladan oraliq iste'molga - 18, mehnat haqiga - 2 birlik sarf qilingan. Asosiy kapitalning iste'moli (AKI) 1 ga teng.

2-chorakda bajarilgan ishlarga jami 100 birlik, shu jumladan oraliq iste'molga - 60, mehnat haqiga - 40 birlik sarf qilingan. Asosiy kapitalning iste'moli (AKI) 1 ga teng.

3-chorakda bajarilgan ishlar jami 120 birlik, shu jumladan, oraliq iste'molga - 100, mehnat haqiga - 20 birlik sarf qilingan. Asosiy kapitalning iste'moli (AKI) 2 ga teng.

4-chorakda bajarilgan ishlar jami 100 birlik, shu jumladan, oraliq iste'molga - 40, mehnat haqiga - 60 birlik sarf qilingan. Asosiy kapitalning iste'moli (AKI) 2 ga teng.

Qurilish tashkilotining 2009 yil ma'lumotlari:

2009 yilning 1-choragida qurilish tashkiloti tomonidan jami 110 birlik (shu jumladan, oraliq iste'molga - 50, mehnat haqiga - 60 birlik sarf qilingan) ish bajarilib, bino qurilishi yakunlangan va buyurtmachiga topshirilgan. Asosiy kapitalning iste'moli (AKI) bu chorakda 2 ga teng bo'lgan. Buyurtmachi tomonidan bino uchun jami 603 birlik haq to'langan.

Berilgan ma'lumotlardan foydalanib, qurilish tashkilotining ishlab chiqarish schyoti ko'rsatkich (YAICH, OI, YAQQ)larini hisoblaymiz.

YAICH ko'rsatkichini hisoblashda (9) formuladan foydalanamiz.

1 - chorak 2008 yil

$$SHF = (OI + MX) \times FN / 100 = (18 + 2) \times 30 / 100 = 6;$$

$$YAICH = OI + MX + SHF = 18 + 2 + 6 = 26;$$

$$YAQQ = YAICH - OI = 26 - 18 = 8;$$

$$SQQ = YAQQ - AKI = 8 - 1 = 7;$$

2 - chorak 2008 yil

$$SHF = (OI + MX) \times FN / 100 = (60 + 40) \times 30 / 100 = 30;$$

$$YAICH = OI + MX + SHF = 60 + 40 + 30 = 130;$$

$$YAQQ = YAICH - OI = 130 - 60 = 70;$$

$$SQQ = YAQQ - AKI = 70 - 1 = 69;$$

3 - chorak 2008 yil

$$\text{SHF} = (\text{OI} + \text{MX}) \times \text{FN} / 100 = (100 + 20) \times 30 / 100 = 36;$$

$$\text{YAICH} = \text{OI} + \text{MX} + \text{SHF} = 100 + 20 + 36 = 156;$$

$$\text{YAQQ} = \text{YAICH} - \text{OI} = 156 - 100 = 56;$$

$$\text{SQQ} = \text{YAQQ} - \text{AKI} = 56 - 2 = 54;$$

4 - chorak 2008 yil

$$\text{SHF} = (\text{OI} + \text{MX}) \times \text{FN} / 100 = (40 + 60) \times 30 / 100 = 30;$$

$$\text{YAICH} = \text{OI} + \text{MX} + \text{SHF} = 40 + 60 + 30 = 130;$$

$$\text{YAQQ} = \text{YAICH} - \text{OI} = 130 - 40 = 90;$$

$$\text{SQQ} = \text{YAQQ} - \text{AKI} = 90 - 2 = 88;$$

Dastlabki tezkor ma'lumotlar asosida yillik hisoblarni (2008 yilga) barcha choraklar yig'indisi sifati hisoblash mumkin:

$$\text{YAICH} = 26 + 130 + 156 + 130 = 442 ;$$

$$\text{OI} = 18 + 60 + 100 + 40 = 218;$$

$$\text{YAQQ} = 8 + 70 + 56 + 90 = 224; \text{ yoki } \text{YAQQ} = \text{YAICH} - \text{OI} = 442 - 218 = 224;$$

$$\text{SQQ} = 7 + 69 + 54 + 88 = 218; \text{ yoki } \text{SQQ} = \text{YAQQ} - \text{AKI} = 224 - 6 = 218;$$

1 - chorak 2009 yil

$$\text{SHF} = (\text{OI} \text{ plus } \text{MX}) \times \text{FN} / 100 = (50 + 60) \times 30 / 100 = 33;$$

$$\text{YAICH} = \text{OI} + \text{MX} + \text{SHF} = 50 + 60 + 33 = 143;$$

$$\text{YAQQ} = \text{YAICH} - \text{OI} = 143 - 50 = 93;$$

$$\text{SQQ} = \text{YAQQ} - \text{AKI} = 93 - 2 = 91;$$

Bino qurilishida bajarilgan ishlarning umumiy qiymati (qurilish davom etgan) barcha choraklar hisobot ko'rsatkichlari yig'indisidan iborat bo'ladi.

$$\text{YAICH} = 26 + 130 + 156 + 130 + 143 = 585 ;$$

$$\text{OI} = 18 + 60 + 100 + 40 + 50 = 268;$$

$$\text{YAQQ} = 8 + 70 + 56 + 90 + 93 = 317;$$

$$\text{SQQ} = 7 + 69 + 54 + 88 + 91 = 309;$$

$$\text{MX} = 2 + 40 + 20 + 60 + 60 = 182;$$

Bu ko'rsatkichlar dastlabki ma'lumotlar asosida binoning haqiqiy qiymati (603 birlik) aniq bo'lgunga qadar aniqlangan. Bunda o'rtacha foyda normasi avvalgi yil ma'lumotlaridan foydalangan holda 30% deb olingan edi. Binoning bozor baholaridagi haqiqiy qiymati ($\text{YAICH}(x) = 603$) to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lganimizdan so'ng, yuqoridagi hisoblarda foydalanilgan foyda normasi (30%)ni aniqlashtiramiz. Buning uchun, haqiqiy foyda (XF) ko'rsatkichini topamiz va (10) formuladan foydalanib haqiqiy foyda normasini (XFN) topamiz.

$$\text{XF} = \text{YAICH}(x) - \text{OI} - \text{MX} = 603 - 268 - 182 = 153;$$

$$XFN = XF / (OI + MX) \times 100\% = 153 / (268 + 182) \times 100 = 34\% ;$$

Yangi topilgan foyda normasi ko'rsatkichlaridan foydalanib, yuqorida choraklar bo'yicha tezkor ma'lumotlar asosida qilingan hisoblarga tuzatishlar kiritilishi talab etiladi. Tuzatishlar asosan foyda normasining o'zgarishi hisobiga bo'ladi. Buning uchun, chorak hisoblarida foydalanilgan 30% foyda normasi o'rniga yangi topilgan foyda normasi qo'yib hisoblanadi. Bu amaliyotlarni mustaqil ravishda bajarish tavsiya etiladi. Hisoblar to'g'ri va aniq bajarilganda beshta chorak hisoblari yig'indisi bo'yicha YAICH 603 ga, oraliq iste'mol 268 ga, YAQQ 335 ga va SQQ 327 ga teng bo'ladi.

Dastlabki hisoblarni tuzatilgan hisoblar bilan solishtirish orqali har bir ko'rsatkich bo'yicha xatolik darajasini topish mumkin. Xatolik darajasi unchalik katta emasligi, dastlabki tayyorlangan hisoblardan iqtisodiy tahlilda bemalol foydalanish mumkinligi bildiradi.

Asosiy termin va tushunchalar

1. Yalpi ishlab chiqarish yoki Yalpi mahsulot - mamlakatda (tarmoqda, sektorda) ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning ishlab chiqarilgan vaqtdagi bozor baholaridagi qiymati. Bu ko'rsatkich tarkibida ishlab chiqarish zanjirida ishtirok etgan birliklar yalpi mahsulot hajmlari qayta-qayta hisobga olingan. Misollar: nonvoy yalpi mahsulotida un, xamirturush, elektr, yoqilg'i va non ishlab chiqarishda foydalanilgan boshqa mahsulotlar qiymatlari bor. Un ishlab chiqaruvchi tegirmon yalpi mahsulotida bug'doy, elektr, yoqilg'i va un ishlab chiqarishda foydalanilgan boshqa mahsulotlar qiymatlari bor. Bug'doy ishlab chiqaruvchi birlik yalpi mahsulotida o'g'it, yoqilg'i va bug'doy ishlab chiqarishda foydalanilgan boshqa mahsulotlar qiymatlari bor. va h.k.

2. Oraliq iste'mol - tovar va xizmatni yaratuvchi birlik tomonidan shu tovar va xizmatni ishlab chiqarish uchun boshqa birliklardan olgan tovar va xizmatlar qiymatlari yig'indisiga teng. Masalan: oraliq iste'mol: avtomobil ishlab chiqaruvchi uchun - boshqa birliklardan olgan butlovchi materiallar, yoqilg'i, elektr energiyasi qiymatlari, transport xarajatlari, kommunal xarajatlar va boshqalar. Paxta xom ashyosini yetishtiruvchi fermer uchun - boshqa birliklardan olgan o'g'it, yoqilg'i, mashina va traktor xizmatlari xarajatlari, o'simliklarni himoya qilish preparatlari, transport xarajatlari va boshqalar. Transport xizmati ko'rsatuvchi avtopark

uchun - boshqa birliklardan olgan yoqilg'i va moylash materiallari, ehtiyot qismlar, mayda inventar' qiymati, kommunal xarajatlar va boshqalar.

3. Qo'shilgan qiymat - birlik tomonidan yangitdan yaratilgan qiymatdir. U iqtisodiy ishlab chiqarishning o'lchovidir. Uni ikki xil usulda - yalpi yoki sof usulda hisoblash mumkin. Yalpi mahsulot tarkibida asosiy kapitalning qiymati o'tirgan bo'lsa hisoblangan qo'shilgan qiymat *yalpi qo'shilgan qiymat* deyiladi. Yalpi mahsulot tarkibida asosiy kapitalning qiymati o'tirmagan bo'lsa, hisoblangan qo'shilgan qiymat - *sof qo'shilgan qiymat* deyiladi. Sof qo'shilgan qiymat iqtisodiy ishlab chiqarishning aniq o'lchovidir.

4. Iqtisodiy ishlab chiqarish natijalari bozor va nobozor ishlab chiqarish sifatida alohida hisoblanadi.

5. Tarmoq va sektorlar hisoblarida yalpi mahsulot va qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlari odatda *asosiy* baholarda hisoblanadi. Mamlakat miqyosidagi hisoblar tarmoqlar yig'indisi sifatida oxirgi bozor baholarida hisoblanadi.

6. Iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi oraliq iste'mol mahsulotlari oldi - sotdi operatsiyalari amaldagi oxirgi bozor baholarida amalga oshiriladi. Hisobotlar esa, ikki xil bahoda - asosiy va oxirgi bozor baholarida yuritiladi.

7. Mikrodarajada mahsulot oldi-sotdi hisobotlarda asosiy va oxirgi bozor bahosi o'rtasidagi farq qo'shilgan qiymat solig'idan iborat bo'lib, u alohida qatorda ko'rsatiladi. Bunday qayd etish yalpi mahsulot va oraliq iste'mol qiymatlarini asosiy va oxirgi bozor baholarida hisoblashga imkon yaratadi.

Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar

1. *YAICH va YAM o'rtasida qanday bog'liqliklar bor?*

2. *Ishlab chiqarishning o'lchovi sifatida qaysi ko'rsatkichdan foydalanish mumkin? Fikringizni asoslab bering.*

3. *Yalpi mahsulot ko'rsatkichini hisoblashda qanday usullardan foydalaniladi?*

4. *Tovar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar yalpi mahsuloti qanday hisoblanadi? Misollar bilan tushuntirib bering.*

5. *Xizmat ko'rsatish sohalarida yalpi mahsulot qanday hisoblanadi? Fikringizni misollar bilan tushuntirib bering.*

6. *Oraliq iste'mol qaysi baholarda hisoblanadi?*

7. Nima uchun oraliq iste'mol ayrim hollarda asosiy baholarda hisoblanadi. Buning mohiyati nimadan iborat? Misollar keltiring.

8. Tugallanmagan ishlab chiqarish nima? Misollar keltiring.

9. SHartli foyda va foyda normasi tushunchalarini o'rtasida nima farq bor?

10. Asosiy kapitalning iste'moli qo'shilgan qiymatmi? Fikringizni asoslab bering.

11. Ishlab chiqarishni o'lchashda nima uchun shartli (taqribiy) ma'lumotlardan foydalaniladi? Fikringizni asoslab bering?

4. Daromadlarning shakllanishi schyoti

Bu schyot mamlakat miqyosida, iqtisodiyot sektorlari va tarmoqlari kesimida tuziladi. Schyotni tuzishdan ko'zlangan maqsad, mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot hamda iqtisodiyot sektorlari va tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning tarkibini aniqlashdan iborat. SHu bilan birga, schyotdagi ko'rsatkichlar ishlab chiqarishda band bo'lgan barcha institutsion birliklarning birlamchi daromadlari tarkibini ifodalaydi.

Schyotni mamlakat miqyosida tuzilish sxemasi quyidagicha:

Ishlatilishi	Resurslar
2. Mehnat haqi	1. Yalpi ichki mahsulot (oxirgi bozor baholarida) (1.1+1.2)
3. Bevosita ishlab chiqarish uchun sof soliqlar : - bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar; - bevosita ishlab chiqarish uchun subsidiyalar (minus ishora bilan)	1.1. Yalpi qo'shilgan qiymat (asosiy bozor baholarida)
4. Asosiy kapitalning iste'moli	1.2. Mahsulot uchun sof soliqlar -mahsulot uchun ssoliqlar -mahsulot uchun subsidiyalar (minus ishora bilan)
5. Sof foyda va aralash daromad, hammasi Shu jumladan: 5.1. Shartli foyda	

Schyotning resurs qismidagi YAQQ ko'rsatkichi ishlab chiqarish schyotidan o'tadi. YAQQ ko'rsatkichi mamlakatdagi barcha rezident

institutsion birliklarning asosiy baholarda hisoblangan qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlarining yig'indisidan iborat bo'ladi.

Schyotning resurs qismida keltirilgan mahsulot uchun soliq ko'rsatkichi institutsion birliklarning davlat sektoriga mahsulot (xizmat)ni iste'molchiga yetkazilayotganda mahsulot (xizmat) birligiga nisbatan to'lanadigan soliqlardan iborat. Bu soliq tarkibiga qo'shilgan qiymat, aksiz, import, eksport soliqlari kiradi. Odatda bu soliqni iste'molchi to'laydi.

Mahsulot uchun subsidiyalar davlat tomonidan ishlab chiqaruvchilarga mahsulot (xizmat) ishlab chiqarganliklari va eksport va import qilganliklari uchun mahsulot (xizmat) birligiga nisbatan beriladigan subsidiyalardan iborat.

Mehnat haqi ko'rsatkichi buxgalteriya hisobida ishlatiladigan "mehnat haqi" ko'rsatkichidan birmuncha farq qiladi. MHT da mehnat haqi tarkibi ikki qismdan iborat: 1) ishchi-xizmatchilarga yoziladigan ish haqi, ularga ishlab chiqarishda qatnashganliklari uchun beriladigan mukofotlar va qo'shimchalar daromad solig'i bilan birga; 2) ish haqidan (majburiy) sotsial sug'urta fondlariga ajratma(sosstrax). Bu schyotdagi *mehnat haqi* tarkibiga ishlab chiqarishda qatnashgan barcha rezident va norezident birliklarga ish beruvchi birlik tomonidan mehnat haqi sifatida qilgan xarajatlari kiradi.

Bevosita ishlab chiqarish uchun sof soliqlar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar va ikkinchi qismda bevosita ishlab chiqarish uchun subsidiyalar qayd etiladi²³. Bevosita ishlab chiqarish uchun sof soliqlar bevosita ishlab chiqarish uchun to'langan soliqlardan olingan subsidiyalarni ayirish orqali topiladi. Bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar ishlab chiqarish faktorlari: er, ishlab chiqarish maydonlari, transport vositalari, ishchi kuchi va shu kabi ishlab chiqarish faktorlariga nisbatan qo'llaniladi. Odatda bu ko'rsatkich sof holda qayd qilinadi.

Shuni eslatib o'tish lozimki, mamlakat miqyosida daromadlarni shakllanishi schyotidagi bevosita ishlab chiqarish va mahsulot uchun subsidiyalar minus ishora bilan qayd etiladi. Bu degani, soliqlar sof holda qayd etiladi. Buning sababi, mamlakat miqyosida subsidiyalar yangitdan yaratilgan qiymat hisoblanmaydi va o'z navbatida yalpi mahsulot va YAIM tarkibiga kirmaydi.

²³ Bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar ayrim adabiyotlarda ishlab chiqarish uchun boshqa soliqlar yoki to'g'ri soliqlar, deb yuritiladi. Subsidiyalar esa, - ishlab chiqarish uchun boshqa subsidiyalar yoki to'g'ri subsidiyalar, deb yuritiladi

Keyingi ko'rsatkich asosiy kapitalning iste'moli ko'rsatkichi bo'lib, bu ko'rsatkich ishlab chiqarishda band bo'lgan (ishlatilgan) asosiy fondlarning(ishlab chiqarishda 1 va undan ortiq yil muddatda ishlatiladigan asosiy ishlab chiqarish vositalarining) ishlab chiqarish mobaynida yo'qotgan qiymatini tiklash uchun kerak bo'ladigan qiymatdan iborat. Bu ko'rsatkich MHTda asosiy vositalarni sotib olingan vaqtdagi boshlang'ich qiymatida emas, ishlatilgan hisobot davridagi bozor baholaridagi qiymatida eskirganligini tiklash uchun ketadigan xarajatlar miqdorida hisoblanadi. Bu ko'rsatkich, alohida hisoblangan bo'lmasa (AKI=0), foyda ko'rsatkichi yalpi foyda deb, aralash daromad - yalpi aralash daromad deb yoziladi.

Sof foyda ko'rsatkichi iqtisodiyot nomoliya va moliya sektorlarining daromadlarni shakllanishi schyotidagi muvozanatlashtiruvchi ko'rsatkich bo'lib, birliklarning mahsulot uchun soliqlar to'laguncha bo'lgan foydasidan iborat. Agarda bu ko'rsatkich yalpi usulda, ya'ni AKI bilan birgalikda hisoblangan bo'lsa, yalpi foyda deb yoziladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, aslini olganda davlat boshqaruv idoralari va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorlariga kiruvchi birliklar o'z mahsulotlarini bozorda sotmaganliklari uchun, ular birlamchi daromad sifatida real *sof foyda* olmaydilar. Lekin, bu sektorga kiruvchi birliklar o'zlariga qarashli (egalik qilayotgan) ishlab chiqarish binolarida faoliyat qo'rsatgan bo'lsalar *shartli ijara haqi* hisoblanib, bu sektorning yalpi ishlab chiqarish ko'rsatkichi tarkibiga kiritilgan bo'ladi (VII-bobning 2- bandiga qarang). Bunday hollarda, bu sektorlarning daromadlarni shakllanishi schyotida muvozanatlashtiruvchi ko'rsatkich *shartli foyda* qo'rsatkichi yuzaga keladi. O'z navbatida, bu ko'rsatkich birlamchi daromadlar taqsimoti schyotining resurs qismiga o'tadi.

Sof aralash daromad uy xo'jaligi sektoriga qarashli nokorporativ korxonalarining daromadlarni hosil bo'lishi schyotidagi muvozanatlashtiruvchi ko'rsatkichdir. Agarda, asosiy kapitalning iste'moli alohida hisoblanmagan, ya'ni aralash daromad tarkibida yotgan bo'lsa, u yalpi aralash daromad deb yoziladi.

Bundan tashqari, sof aralash tarkibida o'z uylarida turgan uy xo'jaliklarining shartli foyda ko'rsatkichi ham yotgan bo'ladi. Agarda bu ko'rsatkichni alohida ko'rsatish imkoni bor bo'lgan hollarda, uni alohida ko'rsatish tavsiya etiladi.

Yuqorida qayd etilgan uch sektorning ega bo'lgan shartli foydasi mos ravishda davlat boshqaruv idoralari, uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar va uy xo'jaligi sektorlarining yakuniy iste'moli

hisoblanadi va bu holat daromadlarni ishlatilishi schyotida schyotning “ishlatilishi” tarafida qayd etiladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, bu daromadlarni shakllanishi schyoti iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlari kesimida tuziladi. Iqtisodiyot sektorlari va tarmoqlarida schyotning umumiy tuzilish sxemasi quyidagicha bo’ladi:

Ishlatilishi	Resurslar
2. Mehnat haqi	1. Yalpi qo’shilgan qiymat (asosiy baholarda)
3. Bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar	
4. Asosiy kapitalning iste’moli	
5. Sof foyda, hammasi SHu jumladan:	
5.1. Shartli foyda (davlat boshqaruv idoralari sektori)	
5.2. Shartli foyda (uy xo’jaligiga xizmat ko’rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektori)	
6. Sof aralash daromad, hammasi Shu jumladan:	
6.1. Shartli foyda (uy xo’jaligi sektori)	

Shuni ta’kidlash lozimki, agar iqtisodiy birlik (korxonalar tarmoq, sektor)lar davlat tomonidan bevosita ishlab chiqarish uchun subsidiya olgan bo’lsa, bu subsidiya qiymati ham (ishlab chiqarish schyotida) yalpi mahsulot tarkibiga qo’shib hisoblangan bo’ladi. SHu sababli, iqtisodiyot birliklarining YAQQ ko’rsatkichlari tarkibida ham olgan subsidiyalari qiymati o’tirgan bo’ladi. SHu holatni e’tiborga olsak, iqtisodiyot birliklarining daromadlarni shakllanishi schyotida bevosita ishlab chiqarish uchun olgan subsidiyalarning qiymati qayd etilmaydi. Bunda faqat iqtisodiy birliklarning bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlari qayd etiladi.

Shuni aytish joizki, daromadlarni shakllanishi schyoti ko’rsatkichlaridan iqtisodiy tahlilda keng foydalanish mumkin. Ular orqali mamlakatda va iqtisodiyot sektorlarida bo’lgan tizimiy o’zgarishlarni, mamlakatda yuritilayotgan soliq, moliya va daromad siyosatining yaratilgan daromad tarkibiga ta’sirini va unda bo’lgan o’zgarish(siljish)larni bilish mumkin. Bundan tashqari, schyot ko’rsatkichlari dinamik qatorlarini tuzib, undan mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning istiqbollarni ifodalovchi indikatorlarni iqtisodiyot sektorlari kesimida prognoz qilishda foydalanish mumkin bo’ladi.

Asosiy termin va tushunchalar

1. Mehnat haqi - ish beruvchilarning yollanma ishchi-xizmatchilarga natura va pul ko'rinishida bergan ish haqi, mukofot pullari, ish haqi uchun to'langan daromad solig'i va ish haqidan (majburiy) sotsial sug'urta fondlariga to'langan to'lovlar yig'indisidan iborat. Bu schyotdagi *mehnat haqi* tarkibiga mamlakat iqtisodiy hududida ishlab chiqarishda qatnashgan barcha rezident va norezident birliklarning mehnat haqi kiradi. Chet mamlakatlar iqtisodiy hududida ishlagan rezidentlarning mehnat haqi bu schyotda hisobga olinmaydi. U keyingi schyotda qayd etiladi.

2. Bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar ishlab chiqarish institutsion birliklarning davlat sektoriga ishlab chiqarish faktorlariga majburiy ravishda to'lashi lozim bo'lgan to'lovlardan iborat.

3. Bevosita ishlab chiqarish uchun subsidiyalar davlat sektori tomonidan institutsion birliklarga ushbu faoliyat bilan shug'ullanganliklari uchun to'lashi lozim bo'lgan to'lovlardan iborat.

4. Sof soliqlar - soliqlardan subsidiyalarni ayirish orqali topiladi.

5. Asosiy kapitalning iste'moli - ishlab chiqarishda band bo'lgan (ishlatilgan) asosiy fondlarning ishlab chiqarish mobaynida bozor baholaridagi yo'qotgan (eskirish) qiymatidir.

6. Sof foyda ko'rsatkichi iqtisodiyot sektorlarining bevosita ishlab chiqarish faoliyati natijalariga ko'ra ixtiyorlarida qoladigan sof daromaddan iborat. Bu ko'rsatkich YAQQdan mehnat haqini, bevosita ishlab chiqarish solig'ini va AKIni ayirish orqali topiladi.

7. Sof aralash daromad uy xo'jaligi sektoriga qarashli nokorporativ korxonalarining daromadlarni hosil bo'lishi schyotidagi muvozanatlashtiruvchi ko'rsatkichdir.

8. Shartli foyda birlamchi daromadning bir elementi hisoblanadi. U real operatsiya emas. Uni buxgalteriya hisoblarida qayd etilmaydi.

9. Shartli foyda faqat uch sektor - davlat boshqaruv idoralari, uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar va uy xo'jaligi uchun ekspert baholash usuli bilan hisoblanadi.

10. Shartli foyda ko'rsatkichi hisoblanmagan mamlakatlarning ***Yalpi ichki mahsulot, Yalpi milliy daromad, Yalpi ixtiyordagi daromad, Yalpi tuzatilgan ixtiyordagi daromad va Yakuniy iste'mol*** ko'rsatkichlari iqtisodiy jarayon natijalarini to'liq ifoda etmaydi, mos ravishda ifoda etayotgan iqtisodiy jarayon natijalarini pasaytirib ko'rsatadi.

Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar

1. *YAIM va YAQQ o'rtasida qanday farq va bog'liqliklar bor? Fikringizni asoslab bering.*

2. *YAIM ko'rsatkichining tarkibi qaysi ko'rsatkichlardan iborat?*

3. *YAQQ ko'rsatkichining tarkibi qaysi ko'rsatkichlardan iborat?*

4. *Mehnat haqi qaysi sektorning daromadi? Fikringizni asoslab bering.*

5. *Sof soliqlar qaysi sektorning daromadi? Fikringizni asoslab bering.*

6. *Aralash daromad qaysi sektorning daromadi? Fikringizni asoslab bering.*

7. *Yalpi foyda qaysi sektorning daromadi? Fikringizni asoslab bering.*

8. *YAQQ qaysi sektorlarning daromadi? Fikringizni asoslab bering.*

9. *Yalpi foyda bilan sof foyda o'rtasida qanday farq bor? Misollar bilan tushuntirib bering.*

10. *AKI iqtisodiyot sektorlarining daromadi bo'la oladimi? Fikringizni misollar bilan tushuntirib bering.*

11. *Shartli foyda nima? U qaysi sektorlar uchun hisoblanishi kerak?*

12. *Daromadlarni shakllanishi schyoti ko'rsatkichlaridan nima maqsadda va qanday foydalaniladi?*

5. Birlamchi daromadlar taqsimoti schyoti

Bu schyotda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish mobaynida yaratilgan birlamchi daromadlarning ichki iqtisodiyot va tashqi dunyo sektorlari o'rtasida taqsimlanishi jarayoni ko'rsatiladi. Schyot mamlakat miqyosida va iqtisodiyot sektorlari uchun tuziladi.²⁴

Birlamchi daromad deganda - institutsion birliklarning boshqa birliklarning iqtisodiy faoliyatida bevosita va bilvosita (moliyaviy va ishlab chiqarilmagan aktivlari bilan) qatnashganliklari natijasida ega bo'ladigan daromadlarini tushunamiz.

Birliklarning iqtisodiy faoliyatida bevosita qatnashishlari quyidagi belgi va sifatlar bilan xarakterlanadi: ishlab chiqarishni tashkil qiluvchi va yurituvchi sifatida, yollanma mehnatchi sifatida, iqtisodiy faoliyat yuritish uchun huquqiy bazani yaratuvchi va infratuzilmani shakllantiruvchi sifatida.

²⁴ Yirik korxonalar va tarmoqlar uchun, ularning iqtisodiy faoliyatini chuqur tahlil qilish maqsadida, ushbu schyotni tuzish foydadan holi bo'lmaydi.

Birliklarning iqtisodiy faoliyatida bilvosita qatnashishlari quyidagi belgi va sifatlar bilan xarakterlanadi: o'z aktivlari bilan ishlab chiqaruvchi birlikning ustav kapitalini shakllantirishda qatnashish, moliya mablag'larini kelishilgan muddatga berish, asosiy vositalarni moliyaviy lizing asosida berish, birlikning aksiyalariga va qimmatli qog'ozlariga ega bo'lish, ishlab chiqarilmagan aktivlarni berish va sug'urta polislariga ega bo'lish.

Birlamchi daromadlar tarkibiga mehnat haqi, sof soliqlar, foyda, aralash daromad va mulk uchun daromad kiradi.

Quyida birlamchi daromadlarni xarakterlovchi ko'rsatkichlarning ma'nosini yoritishga harakat qilamiz.

Mehnat haqi uy xo'jaligi sektorining birlamchi daromadi hisoblanadi. Mehnat haqi ko'rsatkichi bu schyotda mamlakatdagi barcha rezident birliklarining mamlakat iqtisodiy hududida va tashqarisida ishlab chiqarishda ko'rsatgan faoliyatlarini natijasida olgan mehnat haqlarining (ish haqi, mukofotlar, qo'shimchalar soliqlar, majburiy sug'urta badallari va fondlarga to'lovlar bilan) yig'indisidan iborat. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, bu ko'rsatkich daromadlarning shakllanishi schyotidagi mehnat haqi ko'rsatkichidan farq qiladi. Chunki, daromadlarning shakllanishi schyotida mehnat haqi mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarishda qatnashgan rezident va norezident birliklarning mehnat haqi yig'indisidan iborat edi.

Sof soliqlar davlat boshqaruv idoralari sektorining birlamchi daromadi hisoblanadi. Sof soliqlar ikki qismdan: soliqlar va subsidiyalardan iborat.

Soliqlar institutsion birliklar tomonidan davlat birliklariga majburiy ravishda to'lanadigan to'lovlardir.

Subsidiyalar esa davlat tomonidan institutsion birliklarga ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash maqsadida beriladigan to'lovlardan iborat. Subsidiyalar o'z xarakteriga ko'ra mamlakatning (davlat boshqaruv idoralari sektorining) birlamchi daromadlari hisobidan boshqa sektorlarga berilgani uchun minus ishora bilan yoziladi. Soliqlar va subsidiyalar ayirmasi odatda **sof soliqlar** deb yuritiladi va u davlat boshqaruv idoralari sektorining *birlamchi daromadi* hisoblanadi.

Shuni aytish joizki, hamma soliqlar ham birlamchi daromad bo'lavermaydi (IV-bobning 2-bandiga qarang). Jumladan, daromad va mulk soliqlari (foydadan soliq, daromad solig'i, ishlab chiqarishda foydalanilmagan aktivlardan mulk solig'i), kapital soliqlar (merosga qolgan, sovg'aga berilgan mulkni rasmiylashtirishda to'lanadigan soliq) (davlat tashkilotlariga to'lanishiga qaramay) birlamchi daromad sifatida

qaralmaydi. Ular qayta taqsimlash operatsiyalari (joriy yoki kapital transfert) sifatida qayd etiladi.

Xulosa qilib aytganda, davlat boshqaruv idoralarining birlamchi daromadi tarkibiga soliq turlaridan faqat ***ishlab chiqarish va import uchun soliqlar plyus ishora bilan subsidiyalar minus ishora bilan kiradi.***

Ishlab chiqarish va import uchun soliq (subsidiya)lar soliqlar va subsidiyalar tasnifiga asosan ikki qismga bo'linadi:

- a. mahsulot va import uchun soliq (subsidiya)lar;
shu jumladan:
 - mahsulot uchun soliqlar (subsidiyalar);
 - import uchun soliqlar (subsidiyalar)
- b. bevosita ishlab chiqarish uchun soliq (subsidiya)lar.

Mahsulot uchun soliqlar rezident birliklar tovar yoki xizmatni ishlab chiqarganda va uni sotganda mahsulot birligiga nisbatan bevosita va yashirin to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan emas) soliqlar miqdoridan iborat. Ular tarkibiga qo'shilgan qiymat, aksiz, mahsulot narxiga ustama va qo'shimchalar va yashirin soliqlar kiradi (IV- bobga qarang).

Mahsulot uchun subsidiyalar rezident birliklariga davlat byudjeti tomonidan tovar yoki xizmatni ishlab chiqarganda yoki uni sotganda mahsulot birligiga nisbatan bevosita va yashirin to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan emas) subsidiyalar miqdoridan iborat. Ular tarkibiga bevosita davlat tomonidan berilayotgan va yashirin ko'rinishdagi subsidiyalar kiradi. Ularni mahsulot va import uchun subsidiyalar sifatida guruhlash mumkin. Ularga misol tariqasida, mahsulotni sotganda yoki import qilganda korxonaga davlat tomonidan beriladigan mablag'larni keltirish mumkin.

Bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar rezident institutsion birliklarning ishlab chiqarish faktorlariga to'laydigan to'lovlaridan iborat. Ular tarkibiga er solig'i, ishlab chiqarishda foydalanilgan mulk (asosiy vositalar) solig'i, mehnat resurslariga to'lovlar, foydali qazilma boyliklarini topish maqsadida bajariladigan geologiya-qidiruv ishlari uchun ajratmalar, yakka tartibda faoliyat ko'rsatish uchun patent to'lovlari, obodonlashtirish uchun soliqlar, qurilish ob'ektlari egalaridan olinadigan soliq, import va davlat bojlari, bozorlardan yig'imlar, transport solig'i, o'rmon solig'i va boshqalar kiradi.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, ayrim soliqlar va subsidiyalar amaliyotda operatsiya sifatida yaqqol ko'rinishda bo'lmasligi

mumkin, ya'ni ular soliq tashkilotlarida va ishlab chiqaruvchi birliklar hisoblarida qayd etilmagan bo'lishi mumkin. Masalan, paxta tolasi markazlashgan tarzda davlatga tegishli savdo kompaniyalari orqali sotiladi. Bunda paxta tolasini savdo kompaniyalariga etib kelgandagi tola qiymati (narxi) eksportga sotgandagi qiymatdan kam yoki ko'p bo'lishi mumkin. Narxlardagi farq asosida hosil bo'lgan qiymat eksport narxi yuqori bo'lsa musbat qoldiq hosil bo'ladi, aks holda manfiy qoldiq hosil bo'ladi. MHT metodologiyasiga asosan musbat qoldiq mahsulot uchun soliq olingan, manfiy qoldiq esa - mahsulot uchun subsidiya berilgan deb talqin qilinadi. Chunki bu qoldiqlar davlat byudjetiga borib qo'shiladi yoki hosil bo'lgan zarar byudjetdan qoplanadi. Bunday holatlar yuzaga kelganda milliy hisobchilar tegishli hisoblarni amalga oshirib, tegishli hisoblarda o'zgartirishlar kiritishlari lozim.

Sof foyda nomoliya, moliya, davlat boshqaruv idoralari va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarning birlamchi daromadi hisoblanadi. MHT metodologiyasiga asosan birlamchi daromad sof holda hisoblanishi tavsiya etiladi. Lekin, amaliyotda asosiy kapitalning iste'moli ko'rsatkichini hisoblash qiyin bo'lgani sababli, sof foyda ko'rsatkichi bilan AKI birga qo'shib hisoblanadi. Hosil bo'lgan ko'rsatkich **yalpi foyda** deb yuritiladi. Bu ko'rsatkich, yuqorida zikr etilgan sektorlarning bevosita ishlab chiqarish faoliyatlari natijasida ega bo'lgan daromadlaridan iborat. Nazariy jihatdan qaraganda, uning qiymati daromadlarni shakllanishi schyotidagi saldo ko'rsatkichiga teng bo'ladi.

Aralash daromad uy xo'jaliklariga tegishli nokorporativ korxonalarining birlamchi daromadi hisoblanadi. Ko'rsatkichning "aralash daromad" deb atalishiga asosiy sabab, bu ko'rsatkich tarkibida mehnat haqi va yalpi foyda qo'shib ketgan bo'ladi yoki ularni alohida hisoblash amaliy jihatdan qiyin bo'ladi. Masalan, uy xo'jaligiga qarashli ustaxonada yollangan ishchilar bilan birgalikda uy xo'jaligi a'zolari faoliyat ko'rsatadilar. Yollangan ishchilar ish haqi oladilar, uy xo'jaligi a'zolari esa odatda ish haqi olmaydi. Natijada, bunday korxonalarda foyda ko'rsatkichi tarkibida uy xo'jaligi a'zolari tomonidan olinmagan ish haqi yotga bo'ladi va uni ajratishning zarurati bo'lmaydi. SHu sababli, bunday korxonalarining foyda ko'rsatkichi aralash daromad deb yuritiladi.

Aralash daromadni MHT metodologiyasiga ko'ra sof usulda hisoblash tavsiya etiladi. Lekin, amaliyotda uy xo'jaliklari uchun asosiy kapitalning iste'moli ko'rsatkichini hisoblash qiyin bo'lgani sababli, aralash daromad tarkibida AKI yotgan bo'ladi. SHu sababli, bu ko'rsatkichni **yalpi aralash daromad deb atash metodologik jihatdan to'g'ri bo'ladi.** Bu

ko'rsatkich, uy xo'jaligi sektorlarining bevosita ishlab chiqarish faoliyatlari natijasida ega bo'lgan daromadlaridan iborat. Nazariy jihatdan qaraganda, uning qiymati uy xo'jaligi sektorining daromadlarni shakllanishi schyotidagi saldo ko'rsatkichiga teng bo'ladi.

Mulk uchun daromad deganda, - institutsion birliklarning boshqa birliklar iqtisodiy faoliyatida o'zlariga tegishli bo'lgan moliyaviy va ishlab chiqarilmagan aktivlari bilan qatnashganliklari natijasida ega bo'ladigan daromadlarini tushunamiz.

Birliklarning iqtisodiy faoliyatida moliyaviy va ishlab chiqarilmagan aktivlari bilan qatnashishlari quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin: o'z aktivlari bilan ishlab chiqaruvchi birlikning ustav kapitalini shakllantirishda qatnashish, moliya mablag'larini kelishilgan muddatga berish, asosiy vositalarni moliyaviy lizing asosida berish, boshqa birlikning aksiyalariga va qimmatli qog'ozlariga ega bo'lish, ishlab chiqarilmagan aktivlarni berish, sug'urta polislariga ega bo'lish.

Bu faoliyat natijasida birliklar quyidagi ko'rinishdagi daromadlarga ega bo'lishlari mumkin: moliyaviy aktivlar berganliklari uchun foiz to'lovlari, to'g'ri investitsiyalar va aksiyalar uchun dividendlar, foydadagi ulushlar, renta, sug'urta polisidan daromad.

Mulk uchun daromadlar oldi-berdi operatsiyalari mamlakat rezidentlari o'rtasida va rezidentlar bilan norezidentlar o'rtasida bo'lishi mumkin.

Rezident birliklar bir-birlariga bir vaqtning o'zida mulk uchun daromad to'laganliklari va olganliklari uchun mamlakat miqyosidagi hisoblarda daromadlar olingani to'langaniga teng bo'ladi. Shuning uchun, ichki iqtisodiyot sektorlarining mulk uchun daromadlar saldosi nolga teng bo'ladi va mamlakat miqyosidagi hisoblarda ularni qayd etish zarurati qolmaydi.

Norezidentlar ichki iqtisodiyot sektorlari bir-birlariga mulk uchun daromadni to'laganlari va olganlari uchun, umumiy to'langani olinganiga teng bo'lgani uchun mamlakat ichida

Shuni ta'kidlash lozimki, uy-joy va ishlab chiqarish maydonlari (joylari)ni ijaraga berganligi uchun olinadigan ijara haqi mulkdan olingan daromad sifatida talqin etilmaydi. Bunday hollarda, ijara haqi - xizmat uchun to'lov sifatida tasniflanadi.

Schyotning mamlakat miqyosida tuzilish sxemasi quyidagicha ifoda etish mumkin:

Mamlakat bo'yicha birlamchi daromadlar taqsimoti schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
5. Mulk uchun daromadlar (tashqi dunyoga to'langani) 5.1. Foizlar	1. Rezident birliklarning ishlab chiqarishdan olgan yalpi foydasi
5.2. Dividendlar	2. Yalpi aralash daromad
5.3. To'g'ri investorning foydadagi ulushi	3. Mulk uchun daromadlar (tashqi dunyodan olingani) 3.1. Foizlar
6.4. Renta	3.2. Dividendlar
6.5. Sug'urta polisidan olingan daromad	3.3. To'g'ri investorning foydadagi ulushi
	3.4. Renta
	3.5. Sug'urta polisidan olingan daromad
	4. Ishlab chiqarish va import uchun sof soliqlar (soliqlar-subsidiyalar)
	4.1. Bevosita ishlab chiqarish uchun sof soliqlar - soliqlar; - subsidiyalar (-)
	4.2. Mahsulot uchun sof soliqlar - soliqlar; - subsidiyalar (-)
	5. Mehnat haqi (rezidentlar olgani) 5.1. mamlakat iqtisodiy hududida 5.2. tashqi dunyodan
7. Birlamchi daromadlar saldosi (1+2+3+4-5) yoki yalpi milliy daromad	
8. Asosiy kapitalning iste'moli (AKI)	
9. Sof milliy daromad (7-8)	

Milliy daromad agregati mohiyati va uni hisoblash usuli. Milliy daromad mamlakat rezident birliklarining hisobot davrida yaratgan daromadlarining yig'indisidan iborat. Bu ko'rsatkich mamlakat miqyosida hisoblanganligi uchun uni odatda agregat ko'rsatkich deb yuritiladi.

MHTda daromadni hisoblash usuli sifatida J.Hiksning daromadni hisoblash konsepsiyasi qabul qilingan. Unga ko'ra, daromadni sof usulda hisoblash tavsiya etiladi. Bunga ko'ra, daromad tarkibiga asosiy kapitalning iste'moli kiritilmaydi. Sof usulda hisoblangan milliy daromad Sof milliy daromad (SMD), yalpi usulda hisoblangan milliy daromad Yalpi milliy daromad (YAMD) deb ataladi.

Rezident birliklarning chet eldan olgan va norezidentlarga bergan birlamchi daromadlarining farqi mamlakatning chet eldan olgan sof daromadi (birlamchi daromadlar saldosi (CHEBDS)), deb ataladi. Bu ko'rsatkich musbat yoki manfiy miqdor bo'lishi mumkin.

Milliy daromad agregati mamlakatdagi barcha rezident birliklarning olgan birlamchi daromadlarining yig'indisidan iborat bo'lib, bu agregat yalpi va sof usullarda, ya'ni asosiy kapitalning iste'moli ko'rsatkichi qo'shilgan yoki qo'shilmagan holda hisoblash mumkin. Yalpi ichki mahsulot (YAIM) va YAMD ko'rsatkichlari bir-biridan rezident birliklarning tashqi dunyodan olgan va bergan birlamchi daromadlarining saldosisiga farq qiladi. Bu holatni bunday ifodalash mumkin:

$$YAMD = YAIM + CHEBDS \text{ yoki } SMD = SIM + CHEBDS;$$

Odatda rivojlanayotgan mamlakatlarning YAMD ko'rsatkichi YAIM ko'rsatkichidan kichik bo'ladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda esa, YAMD YAIMga nisbatan ko'proq bo'lishi mumkin. Chunki, rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy aktivlar kiritib, shu mamlakatning YAIMni yaratishda qatnashadilar va birlamchi daromadlar oladilar. Bu daromadlar norezident mamlakatning chet eldan olgan sof daromadini ko'paytiradi. Natijada, norezident mamlakatning YAMD ko'rsatkichi yalpi ichki mahsulotga nisbatan kattaroq bo'ladi.

MHTda milliy daromad (YAMD, SMD) ko'rsatkichi Xalq xo'jaligi balansi (XXB) tizimidagi milliy daromad ko'rsatkichidan tubdan farq qiladi. Bu farq bu ikkala tizimlardagi ishlab chiqarish va daromadni hosil bo'lishi metodologiyasining turlicha ekanligidan kelib chiqadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda MHTning amaliyotga tatbiq etila borishi, milliy daromad ko'rsatkichini MHT metodologiyasi asosida o'tgan yillar uchun (dinamik qatorlarni tiklash maqsadida) hisoblashni taqozo etadi. O'tgan yillarda XXB metodologiyasi asosida hisoblangan milliy daromad va boshqa axborot manbalaridan foydalangan holda, MHTning milliy daromad ko'rsatkichini hisoblash mumkin. 7.1-jadvalda MHTdagi milliy daromad ko'rsatkichini XXB tizimi ko'rsatkichlaridan foydalangan holda hisoblash usuli keltirilgan. 7.2–7.6-jadvallarda esa mamlakat iqtisodiyoti sektorlarining birlamchi daromad ko'rsatkichlarini XXB tizimi axborot manbalaridan foydalangan holda hisoblash usullari keltirilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, keltirilgan hisoblash usullaridan foydalanilganda bir qancha ko'rsatkichlarga MHT metodologiyasi asosida tuzatishlar kiritilishi lozim. Misol tariqasida bunday ko'rsatkichlar qatoriga xizmat safari xarajatlari (turar joy xarajatini oraliq iste'molga, kunlik xarajatiga berilgan pulni mehnat haqi sifatida qayd etish kerak), zaxiraning

o'zgarishi (narx-navo o'zgarishi bilan tayyor mahsulot va xom ashyo zaxiralarini hisoblashda xolding foydasi yoki zararini hisobga olish, mahsulot sifati buzilishi va boshqa sabablar orqali zaxiraning kamayishi) va noishlab chiqarish sohalardagi ish haqi ko'rsatkichlarini keltirish mumkin.

7.1-Jadval.

Milliy hisoblar tizimidagi SMD ko'rsatkichini XXB tizimi axborot bazasidan foydalanib hisoblash usuli

Belgisi	Ko'rsatkichlar	Ishorasi
A	XXB tizimidagi milliy daromad	plyus
B	Noishlab chiqarish sohalaridagi ishchi-xizmatchilarning ish haqi	plyus
V	Noishlab chiqarish sohalarining foyda va aralash daromadlari	plyus
G	Moddiy ishlab chiqarish sohalariga ko'rsatilgan nomoddiy xizmatlar	minus
D	Nomoddiy xizmatlar sohalarining ishlab chiqarish va import uchun sof soliqlari	plyus
E	Rezidentlarning chet eldan mulklari uchun olgan daromadlari	plyus
J	Norezidentlarning mamlakatdan mulklari uchun olgan daromadlari	minus
Z	Rezidentlarning chet eldan olgan ish haqlari	plyus
I	Norezidentlarning mamlakatdan olgan ish haqlari	minus
K	Mamlakatning norezidentlardan olishi lozim bo'lgan ishlab chiqarish va import uchun sof soliqlar	plyus
L	Rezidentlarning norezidentlarga to'lashi lozim bo'lgan ishlab chiqarish va import uchun sof soliqlar	minus
M	Sof milliy daromad (A+B +V-G+D+E-J+Z-I+ K-L)	

7.2-Jadval.

Moliya korxonalarini sektorining birlamchi daromadlarini XXB tizimi ko'rsatkichlaridan keltirib chiqarish usuli

Belgisi	Ko'rsatkichlar	Ishorasi
A	Moliya korxonalarining birlamchi daromadlari (XXBda hisoblanmaydi)	
B	Moliya korxonalarining foydasi	plyus
V	Moliya korxonalarining mulkdan oladigan daromadlari	plyus
G	Moliya korxonalarining mulk uchun to'laydigan daromadlari	minus
D	Moliya korxonalarini sektorining birlamchi daromadlar saldosi (B+V-G)	

7.3-Jadval.

Nomoliya korxonalari sektorining birlamchi daromadlarini XXB tizimi ko'rsatkichlaridan keltirib chiqarish usuli

Belgisi	Ko'rsatkichlar	Ishorasi
A	XXB metodologiyasi asosida hisoblangan birlamchi daromad	plyus
B	Noishlab chiqarish sohalari korxonalarining foydalari	plyus
V	Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining ishlab chiqarish va import uchun soliqlari	minus
G	Moddiy ishlab chiqarish sohalariga qarashli korxonalarining ko'rsatgan nomoddiy xizmatlar miqdori	minus
D	Moddiy ishlab chiqarish sohalari korxonalarining sotsial sug'urta fondlariga to'lagan badallari	minus
E	SHu sektorga qarashli korxonalarining mulk uchun oladigan daromadlari	plyus
J	SHu sektorga qarashli korxonalarining mulk uchun to'laydigan daromadlari	minus
Z	Nomoliya korxonalari sektorining birlamchi daromadlar saldosi (A+B-V-G-D+E-J)	

7.4-Jadval.

Uy xo'jaligi sektorining birlamchi daromadlarini XXB tizimi ko'rsatkichlaridan keltirib chiqarish usuli

Belgisi	Ko'rsatkichlar	Ishorasi
A	XXB bo'yicha aholining birlamchi daromadlari	plyus
B	Noishlab chiqarish sohalardagi ishchi-xizmatchilarning ish haqi	plyus
V	Noishlab chiqarish sohalardagi aralash daromad	plyus
G	Uy egalaring o'z uylarida turganligi uchun shartli foyda	plyus
D	Rezident uy xo'jaliklarining mulkdan olgan daromadlari	plyus
E	Rezident uy xo'jaliklarining mulk uchun to'lagan daromadlari	minus
J	Norezident birliklarga to'lanadigan ish haqi	minus
Z	Rezidentlarning chet eldan oladigan ish haqlari	plyus
I	Uy xo'jaligi sektorining birlamchi daromadlar saldosi (A+B+V+G+D-E-J+Z)	

7.5-Jadval.

Davlat boshqaruv idoralari sektorining birlamchi daromadlarini XXB tizimi ko'rsatkichlaridan keltirib chiqarish usuli

Belgisi	Ko'rsatkichlar	Ishorasi
A	Davlat boshqaruv idoralarining (DBI) birlamchi daromadlari (XXBda hisoblanmaydi)	
B	Ishlab chiqarish va import soliqlari	plyus
V	DBIlarining mulk uchun olgan daromadlari	plyus
G	DBIlarining to'lagan mulk uchun daromadlari	minus
D	DBI sektoridagi tashkilotlarning shartli foydalari	plyus
E	Davlat boshqaruv idoralarining birlamchi daromadlari saldosi (B+V-G+D)	

7.6-Jadval.

Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorining birlamchi daromadlarini XXB tizimi ko'rsatkichlaridan keltirib chiqarish usuli

Belgisi	Ko'rsatkichlar	Ishorasi
A	Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar (UXXKNT) sektorining birlamchi daromadlari (XXBda hisoblanmaydi)	
B	UXXKNT sektoriga kiruvchi tashkilotlarning mulk uchun olgan daromadlari	plyus
V	UXXKNT sektoriga kiruvchi tashkilotlarning mulk uchun to'lagan daromadlari	minus
G	UXXKNT sektoriga kiruvchi tashkilotlarning shartli foydalari	plyus
D	Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorining birlamchi daromadlari saldosi (B - V + G)	

Yuqoridagi jadvallarni keltirishdan maqsad MHTdagi milliy daromad va birlamchi daromadlarni XXB ko'rsatkichlari bilan qay darajada bog'liq ekanligini ko'rsatishdir. Xozirgi kunda mamlakatimizda MHT schyotlarini to'g'ridan-to'g'ri MHT usullari bilan hisoblash amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

Iqtisodiyot sektorlari birlamchi daromadlar taqsimoti schyotlarini tuzish usullari.

Iqtisodiy tahlil uchun iqtisodiyot sektorlari kesimida birlamchi daromadlar taqsimoti schyotini tuzish katta ahamiyatga ega. Schyotdagi ma'lumotlar sektorlararo birlamchi daromadlarni taqsimoti jarayonini ifodalaydi.

Har bir sektor birlamchi daromadlar saldosing miqdori va dinamikada o'zgarishlari orqali malakatda yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning natijalarini bilish mumkin. SHu bilan birga, bir necha yillik ma'lumotlar asosida malakat iqtisodiyotining kelgusi davrlar uchun istiqbolini modellashtirish mumkin. Mamlakat iqtisodiyotining iqtisodiy-matematik modelidan foydalanib, turli ssenariylar asosida iqtisodiyotning holatini ifoda etuvchi agregat ko'rsatkichlarni hisoblash mumkin.

Iqtisodiyot sektorlari birlamchi daromadlarini taqsimoti schyoti ko'rsatkichlaridan iqtisodiy tahlilda foydalanish masalalari ilmiy adabiyotlarda deyarli uchramaydi. Shu sababli, har bir sektorning birlamchi daraomadlari mazmuni va mohiyatini o'quvchiga yetkazish va uning yangi qirralarini ochib berish foydadan holi bo'lmaydi, deb o'ylaymiz.

1. Nomoliya korxonalar sektori birlamchi daromadlar taqsimoti schyoti

Bu sektorga kiruvchi institutsion birliklarning asosiy vazifasi bozor uchun tovarlar ishlab chiqarish va nomoliyaviy xizmatlar ko'rsatishdan iborat. Ular iqtisodiyotning o'zagini tashkil qiladilar desa, bu mubolag'a bo'lmaydi. SHu sababli, ularning iqtisodiy-moliyaviy ahvoli ko'p jihatdan ishlab chiqarish faoliyatlarining natijalariga bog'liq. Bu birliklarning kelajagi bor-yo'qligi, ularning birlamchi daromadlari miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.

Bu sektor birliklari birlamchi daromad sifatida sof foyda va mulk uchun daromadlar oladilar. Ega bo'lgan birlamchi daromadlaridan bir qismini mulk uchun daromad sifatida boshqa birliklarga beradilar. Olgan va bergan birlamchi daromadlari o'rtasidagi farq, sektorning birlamchi daromadlar saldosini, yoki haqiqatda ega bo'lgan daromadi hisoblanadi. Bu daromad miqdori, sektorning hisobot davrida boshqa birliklardan qarz bo'lmasdan maksimal ishlatishi mumkin bo'lgan qiymatdan iboratdir.

Bu holat schyot ko'rinishida quyidagicha ifodalanadi:

Nomoliya korxonalar sektorining birlamchi daromadlar taqsimoti schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
	1.Nomoliya korxonalar sektoriga kiruvchi rezident institutsion birliklarnig ishlab chiqarishdan olgan sof foydasi ²⁵

²⁵ Daromad konsepsiyasiga ko'ra, birlamchi daromadlar sal'dosini hisoblashda sof daromad terminidan foydalanish to'g'ri bo'ladi. Agarda buning iloji bo'lmasa, yalpi usulda hisoblangan yalpi foyda ko'rsatkichidan foydalanish

3.Mulk uchun daromadlar (boshqa iqtisodiyot sektorlariga va tashqi dunyoga to'langani) 3.1. Foizlar	2.Mulk uchun daromadlar (boshqa iqtisodiyot sektorlaridan va tashqi dunyodan olingani) 2.1. Foizlar
3.2. Dividendlar	2.2. Dividendlar
3.3.To'g'ri investorning foydadagi ulushi	2.3.To'g'ri investorning foydadagi ulushi
3.4.Renta	2.4.Renta
3.5.Sug'urta polisidan olingan daromad	2.5.Sug'urta polisidan olingan daromad
4.Birlamchi daromadlar saldosi (1+2-3)	
Ja'mi (3+4)	Ja'mi (1+2)
Statistik xatolik	Statistik xatolik

2. Moliya korxonalar sektori birlamchi daromadlar taqsimoti schyoti

Bu sektorga kiruvchi institutsion birliklarning asosiy vazifasi bozor uchun nomoliyaviy xizmatlar ko'rsatishdan iborat. Ular iqtisodiyotning yuragi bo'lgan moliya oqimlarining harakatini, iqtisodiyotni moliya resurslari bilan ta'minlaydilar. Ular ko'rsatgan moliyaviy xizmatlari uchun sof foyda sifatida va o'z mulklarini boshqa birliklarga bergani uchun mulk uchun daromad sifatida birlamchi daromad oladilar. SHu bilan birga, boshqalar mulkidan foydalanganliklari uchun ularga mulk uchun daromad to'laydilar. Olgan va bergan birlamchi daromadlari o'rtasidagi farq, sektorning birlamchi daromadlar saldosi, yoki haqiqatda ega bo'lgan daromadi hisoblanadi. Bu daromad miqdori, sektorning hisobot davrida boshqa birliklardan qarz bo'lmasdan maksimal ishlatishi mumkin bo'lgan qiymatdan iboratdir.

Bu holat schyot ko'rinishida quyidagicha ifodalanadi:

Moliya korxonalar sektorining birlamchi daromadlar taqsimoti schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
	1. Moliya korxonalar sektoriga kiruvchi rezident institutsion birliklarnig ishlab chiqarishdan olgan sof foydasi
3.Mulk uchun daromadlar (boshqa	2.Mulk uchun daromadlar (boshqa iqtisodiyot

mumkin. Bu ko'rsatkichdan iqtisodiy tahlilda foydalanilganda, bu ko'rsatkich tarkibida asosiy kapitalning iste'moli borligini umutmaslik kerak. Chunki, tahlil xulosasi mazmuni mantiqan butunlay noto'g'ri bo'lishi mumkin

iqтisodiyot sektorlariga va tashqi dunyoga to'langani)	sektorlaridan va tashqi dunyodan olingani)
3.1. Foizlar	2.1. Foizlar
3.2. Dividendlar	2.2. Dividendlar
3.3. To'g'ri investorning foydadagi ulushi	2.3. To'g'ri investorning foydadagi ulushi
3.4. Renta	2.4. Renta
3.5. Sug'urta polisidan olingan daromad	2.5. Sug'urta polisidan olingan daromad
4. Birlamchi daromadlar saldosi (1+2-3)	
Jami (3+4)	Jami (1+2)
Statistik xatolik	Statistik xatolik

3. Davlat boshqaruv idoralari sektori birlamchi daromadlar taqsimoti schyoti

Davlat boshqaruv idoralari sektoriga mamlakat aholisiga kollektiv va individual nobozor xizmatlar ko'rsatuvchi birliklar kiradi. Bu birliklar bir tomondan boshqaruv, mudofaa, milisiya xizmati va qonun bilan belgilangan tartibda davlat zimmasiga olgan boshqa xizmatlarni amalga oshiradilar.

Bu birliklar faoliyati MHT ishlab chiqarish konsepsiyasiga asosan ishlab chiqarish faoliyati deb tan olingani uchun, bu birliklar daromad yaratishda qatnashadilar. Ular o'z mahsulotlarini bozorda sotmaganliklari uchun, ularning faoliyati natijalari xarajatlar usulida hisoblanadi va ular birlamchi daromad sifatida amalda *sof foyda* olmaydilar. Lekin, bu sektorning birliklari shartli foyda olishlari mumkin.

Shartli foyda - ushbu sektorga kiruvchi va o'zlariga qarashli (egalik qilayotgan) ishlab chiqarish binolarida faoliyat qo'rsatgan birliklarning *shartli ijara haqi* sifatida hisoblanib, bu sektorning yalpi ishlab chiqarish ko'rsatkichi tarkibiga kiritilgan bo'ladi (VII -bobning 2- bandiga qarang). Bunday hollarda, bu sektorning daromadlarni shakllanishi schyotida muvozanatlashtiruvchi ko'rsatkich - *shartli foyda* qo'rsatkichi yuzaga keladi. O'z navbatida, bu ko'rsatkich birlamchi daromadlar taqsimoti schyotining resurs qismiga o'tadi.

Bundan tashqari, davlat boshqaruv idoralari sektoriga tegishli birliklar o'z mulklarini boshqa birliklarga bergani uchun mulk uchun daromad sifatida birlamchi daromad oladilar. Shu bilan birga, ular boshqalar mulkidan foydalanganliklari uchun ularga mulk uchun daromad to'laydilar. Olgan va bergan birlamchi daromadlari o'rtasidagi farq, sektorning birlamchi daromadlar saldosi, yoki haqiqatda ega bo'lgan

daromadi hisoblanadi. Bu daromad miqdori, Hiks daromad konsepsiyasiga ko'ra sektorning hisobot davrida boshqa birliklardan qarz bo'lmasdan maksimal ishlatishi mumkin bo'lgan qiymatdan iboratdir.

Bu holat schyot ko'rinishida quyidagicha ifodalanadi:

Davlat boshqaruv idoralari sektori birlamchi daromadlar taqsimoti schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
	1.Shartli foyda
4.Mulk uchun daromadlar (boshqa iqtisodiyot sektorlariga va tashqi dunyoga to'langani)	2.Mulk uchun daromadlar (boshqa iqtisodiyot sektorlaridan va tashqi dunyodan olingani)
4.1. Foizlar	2.1. Foizlar
4.2. Dividendlar	2.2. Dividendlar
4.3.To'g'ri investorning foydadagi ulushi	2.3.To'g'ri investorning foydadagi ulushi
4.4.Renta	2.4.Renta
4.5.Sug'urta polisidan olingan daromad	2.5.Sug'urta polisidan olingan daromad
5.Birlamchi daromadlar saldos (1+2+3+4-5)	3.Ishlab chiqarish va import uchun sof soliqlar (soliqlar-subsidiyalar)
	3.1. Bevosita ishlab chiqarish uchun sof soliqlar -soliqlar; -subsidiyalar (-)
	3.2. Mahsulot uchun sof soliqlar -soliqlar; -subsidiyalar (-)
Ja'mi (4+5)	Ja'mi (1+2+3)
Statistik xatolik	Statistik xatolik

4. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektori birlamchi daromadlar taqsimoti schyoti

Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektoriga aholining ayrim qatlamlariga nobozor xizmatlar ko'rsatuvchi birliklar kiradi. Bu birliklar odatda o'z a'zolariga va aholining yordamga ehtiyoji bor guruhlariga beg'araz, moddiy va bepul xizmatlar ko'rsatadilar. Bu birliklar faoliyati MHT ishlab chiqarish konsepsiyasiga asosan ishlab chiqarish faoliyati, deb tan olingan. Ular milliy daromad yaratishda boshqa sektorlar qatori teng qatnashadilar. Bu sektorga kiruvchi birliklar o'z mahsulotlarini bozorda sotmaganliklari uchun, ularning faoliyati natijalari

xarajatlar usulida hisoblanadi va ular birlamchi daromad sifatida amalda **sof foyda** olmaydilar. Lekin, bu sektorning birliklari **shartli foyda** olishlari mumkin.

Masalan, ma'lum bir partiya tashkiloti o'z ish joyiga (binosiga) ega bo'lsa, bu birlik uchun shartli foyda ko'rsatkichi **shartli ijara haqiga** teng bo'ladi. Shartli ijara haqi xuddi shu binoni ijaraga olganda to'lanishi mumkin bo'lgan qiymat miqdorida hisoblanadi. Bunday hollarda, bu sektorning daromadlarni shakllanishi schyotida muvozanatlashtiruvchi ko'rsatkich - **shartli foyda** qo'rsatkichi yuzaga keladi. O'z navbatida, bu ko'rsatkich birlamchi daromadlar taqsimoti schyotining resurs qismiga o'tadi.

Bundan tashqari, uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektoriga tegishli birliklar o'z mulklarini boshqa birliklarga bergani uchun mulk uchun daromad sifatida birlamchi daromad oladilar. Shu bilan birga, agarda ular o'z faoliyatlarida boshqalar mulkidan foydalangan bo'lsalar, ularga mulk uchun daromad to'laydilar. Olgan va bergan birlamchi daromadlari o'rtasidagi farq, sektorning birlamchi daromadlar saldosi, yoki haqiqatda ega bo'lgan daromadi hisoblanadi. Yuqori bo'limlarda ta'kidlanganidek, bu daromad miqdori, Xiks daromad konsepsiyasiga ko'ra sektorning hisobot davrida boshqa birliklardan qarz bo'lmasdan maksimal ishlatishi mumkin bo'lgan qiymatdan iboratdir.

Bu holat schyot ko'rinishida quyidagicha ifodalanadi:

Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektori birlamchi daromadlar taqsimoti schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
	1.Shartli foyda
4.Mulk uchun daromadlar (boshqa iqtisodiyot sektorlariga va tashqi dunyoga to'langani)	2.Mulk uchun daromadlar (boshqa iqtisodiyot sektorlaridan va tashqi dunyodan olingani)
4.1. Foizlar	2.1. Foizlar
4.2. Dividendlar	2.2. Dividendlar
4.3.To'g'ri investorning foydadagi ulushi	2.3.To'g'ri investorning foydadagi ulushi
4.4.Renta	2.4.Renta
4.5.Sug'urta polisidan olingan daromad	2.5.Sug'urta polisidan olingan daromad
5.Birlamchi daromadlar saldosi (1+2+3+4-5)	
Ja'mi (4+5)	Ja'mi (1+2+3)
Statistik xatolik	Statistik xatolik

5. Uy xo'jaligi sektori birlamchi daromadlar taqsimoti schyoti

Uy xo'jaligi sektoriga mamlakatning rezident birliklari bo'lgan uy xo'jaliklari kiradi. Uy xo'jaligi - o'zlari tasarrufidagi daromadlarni birgalikda tasarruf etuvchi alohida oila, oilalar guruhi yoki yakka shaxs bo'lishi mumkin. Ular iste'molchi, tovar va xizmatni yaratuvchi, investor hamda ishchi kuchini beruvchi sifatida namoyon bo'ladilar. Uy xo'jaliklarining o'z uylaridagi moddiy mahsulot ishlab chiqarish va kapital qurilish faoliyati MHT ishlab chiqarish konsepsiyasiga asosan ishlab chiqarish faoliyati deb tan olingan. Ular milliy daromad yaratishda boshqa sektorlar qatori teng qatnashadilar. Bu sektorga kiruvchi birliklar o'z mahsulotlarini bozorda sotadilar yoki o'zlarining yakuniy iste'moli uchun foydalanadilar.

Uy xo'jaliklari o'z faoliyatlari natijasida mehnat haqi, aralash daromad va mulk uchun daromad oladilar. Bundan tashqari, o'z uylarida istiqomat qiluvchi uy xo'jaliklari *shartli foyda* oladilar.

Yuqoridagi mavzularda aytib o'tilganidek, shartli foyda - o'z uylarida yashayotgan uy xo'jaliklarining *shartli ijara haqidir*. (Bu sektorning ishlab chiqarish schyotida ijara haqi yalpi ishlab chiqarish ko'rsatkichi tarkibiga kiritilgan bo'ladi (VII-bobning 2-bandiga qarang)). Uy xo'jaligining shartli ijara haqi u yashayotgan uyni ijaraga olgan (bergan)da to'lanishi mumkin bo'lgan qiymat miqdorida hisoblanadi. Bunday hollarda, bu sektorning daromadlarni shakllanishi schyotida muvozanatlashtiruvchi ko'rsatkich - aralash daromad bilan birgalikda *shartli foyda* qo'rsatkichi yuzaga keladi. O'z navbatida, bu ko'rsatkichlar (aralash daromad va shartli foyda) birlamchi daromadlar taqsimoti schyotining resurs qismiga o'tadi.

Uy xo'jaligi sektorining mulk uchun daromad ko'rsatkichi ularning fond bozoridagi daromadlaridan, bank muassalarida saqlanayotgan jamg'armalariga beriladigan foiz to'lovlaridan, sug'urta polisi egalari oladigan sug'urta mukofotlaridan va to'g'ri investor sifatida oladigan foydalaridan iborat.

Shu bilan birga, uy xo'jaliklari boshqalar mulkidan foydalangan bo'lsalar ularga mulk uchun daromad to'laydilar. Olgan va bergan birlamchi daromadlari o'rtasidagi farq, sektorning birlamchi daromadlar saldosi hisoblanadi.

Bu holat schyot ko'rinishida quyidagicha ifodalanadi:

**Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tijorat tashkilotlar sektori
birlamchi daromadlar taqsimoti schyoti**

Ishlatilishi	Resurslar
	1.Shartli foyda
4.Mulk uchun daromadlar (boshqa iqtisodiyot sektorlariga va tashqi dunyoga to'langani)	2.Mulk uchun daromadlar (boshqa iqtisodiyot sektorlaridan va tashqi dunyodan olingani)
4.1. Foizlar	2.1. Foizlar
4.2. Dividendlar	2.2. Dividendlar
4.3.To'g'ri investorning foydadagi ulushi	2.3.To'g'ri investorning foydadagi ulushi
4.4.Renta	2.4.Renta
4.5.Sug'urta polisidan olingan daromad	2.5.Sug'urta polisidan olingan daromad
5.Birlamchi daromadlar saldosi (1+2+3+4-5)	
Ja'mi (4+5)	Ja'mi (1+2+3)
Statistik xatolik	Statistik xatolik

Asosiy termin va tushunchalar

1. Birlamchi daromad - institutsion birlikning ishlab chiqarishda bevosita va bilvosita ishtiroki uchun unga tegishli bo'lgan qiymatdan iborat.

2. Mulk uchun daromad - hamma sektorlarga tegishli ko'rsatkich. Har bir birlik mulk uchun daromad olishi va berishi mumkin.

3. Iqtisodiyot birliklari mulk uchun daromatlarni foiz to'lovlari, dividendlar, foydadagi ulushlar, renta, sug'urta polisidan daromad ko'rinishlarida oladilar.

4. Mulk uchun daromadlar oldi-berdi operatsiyalari mamlakat rezidentlari o'rtasida va rezidentlar bilan norezidentlar o'rtasida bo'lishi mumkin.

5. Foiz to'lovlari - uzoq va qisqa muddatli kreditlar, savdo kreditlari, moliyaviy lizing asosida ishlab chiqarilgan aktivlar olinganda to'lanadi olinganda to'lanishi lozim bo'lgan qiymatdan iborat.

6. Dividendlar - institutsion birlikning aksiyasi birligiga nisbatan hisoblangan foyda ulushidan iborat.

7. Foydadagi ulushlar - institutsion birlik ta'sischilarining korxonaga so'f foydasidagi ulushi. Odatda bu ulush miqdori shartnomaga asosan ajratiladi.

8. Renta - ishlab chiqarilmagan aktivlarni (konlar, o'rmonlar, ekinzorlar va h.k.) berish evaziga olinadigan qiymatdan iborat. Odatda, rentani davlat boshqaruv idoralari sektori oladi.

9. Sug'urta polisidan daromad -sug'urta polisi egalarining sug'urta shartnomasiga ko'ra oladigan daromadlari.

10. Birlamchi daromad sifatida mehnat haqi - rezident birliklarning mamlakat iqtisodiy hududida va tashqi dunyodan ish haqi sifatida olgan daromadlaridan iborat.

11. Birlamchi daromad sifatida soliqlar - bevosita ishlab chiqarish uchun va mahsulot uchun soliqlardan iborat. Mulk va daromad soliqlari birlamchi daromad hisoblanmaydi.

12. Milliy daromad - mamlakat rezident birliklarining birlamchi daromadlar saldosi yig'indisidan iborat.

13. Sof milliy daromad mamlakat rezident birliklarining yangitdan yaratgan daromadidir.

Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar

1. *YAIM va YAMD o'rtasida qanday farq va bog'liqliklar bor? Fikringizni asoslab bering.*

2. *YAMD ko'rsatkichining tarkibi qaysi ko'rsatkichlardan iborat?*

3. *SMD ko'rsatkichining tarkibi qaysi ko'rsatkichlardan iborat?*

4. *Mehnat haqi qaysi sektorning birlamchi daromadi? Fikringizni asoslab bering.*

5. *Sof soliqlar qaysi sektorning birlamchi daromadi? Fikringizni asoslab bering.*

6. *Aralash daromad qaysi sektorning birlamchi daromadi? Fikringizni asoslab bering.*

7. *Yalpi foyda qaysi sektorning birlamchi daromadi? Fikringizni asoslab bering.*

8. *Mulk uchun daromad qaysi sektorlarning daromadi? Fikringizni asoslab bering.*

9. *YAMD bilan SMD o'rtasida qanday farq bor? Misollar bilan tushuntirib bering.*

10. *Aralash daromad qaysi iqtisodiyot sektorining daromadi? Fikringizni misollar bilan tushuntirib bering.*

11. *Shartli foyda ham birlamchi daromadmi? U qaysi sektorlarning birlamchi daromadi?*

6. Daromadlarni qayta taqsimlash schyotlari

Iqtisodiyot sektorlari o'rtasida bo'ladigan daromadlarni qayta taqsimlash operatsiyalari ikki schyotda ifoda etiladi. Birinchi schyot **Pul holiday daromadlarni qayta taqsimlash schyoti** ikkinchisi **Natura holatidagi daromadlarni qayta taqsimlash schyoti** deb ataladi.

Bu schyotlarni tuzishdan ko'zlangan asosiy maqsad, iqtisodiyot sektorlarining ishlab chiqarish faoliyatlari natijasida topgan birlamchi daromadlarini qayta taqsimlash jarayoni ifoda etishdan iborat. Qayta taqsimlash jarayoni rezident birliklar o'rtasida va rezidentlar bilan norezidentlar o'rtasida bo'lishi mumkin. Quyida har ikkala schyotni alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

5.1. Pul holiday daromadlarni qayta taqsimlash schyoti

Bu schyotda mamlakat rezident birliklari o'rtasida va rezidentlar bilan norezidentlar o'rtasida joriy transfertlar ayirboshlash operatsiyalari natijasida mamlakat va iqtisodiyot sektorlarining ixtiyordagi daromadining hosil bo'lish jarayonlari aks ettiriladi.

Bu schyot mamlakat miqyosida va iqtisodiyot sektorlari kesimida tuziladi. Qayta taqsimlash jarayonlari joriy transfertlar ko'rsatkichi orqali amalga oshiriladi.

Transfertlar - bir tomonlama iqtisodiy operatsiyalardan iborat. Bu operatsiyalar orqali bir institutsion birlikning boshqa institutsion birliklarga tovar va xizmatlarni, moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni, egalik huquqini bepul berish jarayonlari aks ettiriladi.

Transfertlar pul va natura holatida berilishi mumkin. Pul holatidagi transfertlar bir birlikning ikkinchi birlikka naqd pul yoki hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan bergan pul miqdoridan iborat. Natura holatidagi transfertlar deganda, bir birlikning ikkinchi birlikka evaziga hech narsa olmay, tovar va aktivlarni berish, hamda xizmatlarni ko'rsatish jarayoni tushuniladi.

Natura holatidagi transfertlar olingan (berilgan) tovarlar, aktivlar va ko'rsatilgan xizmatlarning shu davrdagi bozor baholaridagi miqdorida qayd qilinadi. Pul va natura holatidagi transfertlar joriy va kapital xarakterda bo'lishi mumkin. Ularni bir-biridan farqlash juda muhim. Chunki, joriy transfertlar pul holiday daromadlarni qayta taqsimlash schyotida, kapital transfertlar esa kapital xarajatlar schyotida qayd qilinadi.

Joriy transfertlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- daromad va mulk uchun joriy soliqlar;
- sotsial sug'urta ajratmalari;
- sotsial to'lovlar;
- sug'urta mukofotlari va qoplamalari;
- turli qayta taqsimlash to'lovlari (jarimalar, nafaqalar, insonparvarlik yordamlari, a'zolik badallari, xayr-ehson va h.k.).

Iqtisodiyot sektorlarining olgan va bergan joriy transfertlar miqdorlari har doim ham bir-biriga teng bo'lavermaydi. Chunki, joriy transfertlar operatsiyalarining bir qismi mamlakat ichki sektorlari (rezident) va norezident birliklar o'rtasida sodir bo'ladi. Joriy transfertlar olingani va berilgani o'rtasidagi farqni birlamchi daromadlar saldosi qo'shib ixtiyordagi daromad ko'rsatkichiga ega bo'lamiz.

Iqtisodiyot sektorlari pul holidayi daromadlarni qayta taqsimlash schyoti.

Schyotning mamlakat miqyosida tuzish sxemasi quyidagicha:

Mamlakatning Pul holidayi daromadlarni qayta taqsimlash schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
4. Joriy transfertlar (<i>ichki iqtisodiyot sektorlariga to'langani</i>)	1. Birlamchi daromadlar saldosi
5. Joriy transfertlar (tashqi dunyo sektoriga to'langani)	2. Joriy transfertlar (<i>ichki iqtisodiyot sektorlaridan olingani</i>)
	3. Joriy transfertlar (tashqi dunyo sektoridan olingani)
6. Ixtiyordagi daromad (1+3-5)	

Iqtisodiyot ichki sektorlari o'rtasidagi joriy transfertlar ayirboshlash operatsiyalari mamlakat miqyosida olingani berilganiga teng bo'ladi. SHu sababli, mamlakat miqyosidagi schyotda "resurs"dagi ichki iqtisodiyot sektorlaridan olgan joriy transfertlari "ishlatilishi"dagi ichki iqtisodiyot sektorlari bergan joriy transfertlarga teng bo'ladi. Natijada, bu operatsiyalarning ko'lami mamlakatning ixtiyordagi daromad ko'rsatkichiga ta'siri bo'lmaydi.

Mamlakat miqyosida barcha iqtisodiyot sektorlarining ixtiyordagi daromadlari yig'indisi milliy ixtiyordagi daromad (MID) deyiladi. Bu YAIM va YAMD agregatlari kabi muhim agregatlardan hisoblanadi. Bu agregat ham yalpi (YAMID) va sof (SMID) usullarda hisoblanadi. Tashqi dunyodan olingan va tashqi dunyoga to'langan joriy transfertlar o'rtasidagi farq tashqi dunyo joriy transfertlar saldosi (TDJTS) deyiladi. U musbat

yoki manfiy bo'lishi mumkin. YAMID va YAMD o'rtasida quyidagi munosabat o'rinli: $YAMID = YAMD + TDJTS$. Bunga ko'ra, tashqi dunyodan olingan joriy transfertlar berilganiga nisbatan qancha ko'p bo'lsa, mamlakatning ixtiyordagi daromadi shuncha ko'p bo'ladi.

Iqtisodiyot sektorlari pul holiday daromadlarni qayta taqsimlash schyoti. Iqtisodiyot sektorlari o'rtasidagi joriy transfertlar operatsiyalarining natijalari iqtisodiy tahlilda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki, bu schyotda aniqlangan ixtiyordagi daromad ko'rsatkichi nomoliya va nomoliya korxonalarini sektorlarning kengaytirilgan ishlab chiqarishni tashkil qilishga kapital xarajatlar uchun ishlatishi mumkin bo'lgan maksimal qiymatni ifodalaydi.

Schyotning sektorlar miqyosida tuzish umumiy sxemasi quyidagicha:

Iqtisodiyot sektorlarining Pul holiday daromadlarni qayta taqsimlash schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
4. Joriy transfertlar (ichki iqtisodiyot sektorlariga to'langani)	1. Birlamchi daromadlar saldosi
5. Joriy transfertlar (tashqi dunyo sektoriga to'langani)	2. Joriy transfertlar (ichki iqtisodiyot sektorlaridan olingani)
	3. Joriy transfertlar (tashqi dunyo sektoridan olingani)
6. Ixtiyordagi daromad (1+2+3-4-5)	

Iqtisodiyot sektori schyotlari bir-biridan joriy transfertlar tarkibi bilan farq qiladi. Hamma sektorlar schyotlarida ham birlamchi daromadlar saldosi ko'rsatkichi mos ravishda bundan oldingi schyotdan - birlamchi daromadlar taqsimoti schyotidan - schyotning resurs qismiga o'tadi.

Shuni aytish lozimki, yuqorida qayd etilgan schyotlarning nomi "Pul holiday daromadlarni qayta taqsimlash schyoti" deb atalishiga qaramay, qayta taqsimot jarayonlari faqat pul ko'rinishida bo'lmaydi. Ular natura holida, ya'ni - tovar yoki xizmat ko'rinishida ham bo'lishi mumkin. Shu sababli yuqoridagi schyotlarda faqat pul ko'rinishidagi joriy transfertlar beriladi yoki olinadi deb qarash noto'g'ri bo'ladi. Agarda, joriy transfert natura holida berilgan bo'lsa, uning joriy bozor baholaridagi qiymati qayd etiladi. Masalan, korxonada shu korxonada ilgari ishlab ketgan ishchisiga televizor sovg'a qilgan bo'lsa, shu televizorni sotib olishga korxonada tomonidan qilingan xarajat qiymati korxonada uchun joriy transfert (berilgan) deb schyotning "ishlatilishi" tarafida, uy xo'jaligi sektori uchun joriy transfert (olingan) deb schyotning "resurs" qismida qayd etiladi.

Bundan tashqari, bepul ko'rsatilgan xizmatlar (transport, madaniy, o'quv va boshqa xizmatlar) ham iqtisodiyot sektorlari schyotlarida yuqorida ko'rsatilganidek qayd etiladi.

5.2. Natura holidayi daromadlarni qayta taqsimlash schyoti

Davlat boshqaruv idoralari va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorlariga kiruvchi birliklar o'zlariga tegishli ixtiyordagi daromadlarining bir qismini uy xo'jaliklarining yakuniy iste'moli uchun sarflaydilar. Bu xizmatlar odatda individual (kollektiv emas) tarzda ko'rsatiladi. U pul yoki natura (tovar yoki xizmat) ko'rinishida bo'lishi mumkin. Bu transfertlar aholining ayrim guruhlarini ijtimoiy himoyalash va yordam maqsadida amalga oshiriladi va **natura holidayi sotsial transfertlar** deb ataladi.

Natura holidayi sotsial transfertlar davlat byudjeti va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar mablag'lari hisobiga uy xo'jaliklariga bepul ko'rsatiladigan meditsina va o'quv xizmatlaridan, sotsial, diniy, siyosiy va madaniy xizmatlardan, turli xil tovarlarni (dori-darmonlar, nogironlar aravachalari va avtomobillari va h.k.) bepul berishdan iborat. MHTda bunday jarayonlar maxsus schyotda yozib boriladi. Bu schyotning umumiy tuzilish sxemasi quyidagicha:

Natura holidayi daromadlarni qayta taqsimlash schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
3.Natura holidayi sotsial transfertlar (berilgani) 3.1. Davlat boshqaruv idoralari sektoridan 3.2. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektoridan	1. Ixtiyordagi daromad
	2. Natura holidayi sotsial transfertlar (olingani) 2.1. Davlat boshqaruv idoralari sektoridan 2.2. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektoridan
4. Tuzatilgan ixtiyordagi daromad (1+ 2 - 3)	

Natura holidayi transfertlarning qayta taqsimoti hamma iqtisodiyot sektorlarida ham bo'lavermaydi. Bu transfertlarning oluvchisi uy xo'jaligi

sektoridan, ya'ni aholidan iborat. Sotsial transfertlarni beruvchilar esa, *davlat boshqaruv idoralari* va *uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar* sektorlaridan iborat. Demak, bu schyot asosan Davlat boshqaruv idoralari, Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektori va uy xo'jaligi sektorlari uchun tuziladi.

Shuni aytish joizki, bu schyotni mamlakat miqyosida yuqorida keltirilgan sxemada tuzish tavsiya etiladi. Mamlakat miqyosida olingan va berilgan sotsial transfertlarning miqdori bir-biriga teng bo'ladi. Natijada, ixtiyordagi daromad tuzatilgan ixtiyordagi daromadga teng bo'ladi. SHU bilan birga, schyotni mamlakat miqyosida tuzganda schyotning "resursi"dagi ixtiyordagi daromad ko'rsatkichi mamlakat barcha iqtisodiyot sektorlari ixtiyordagi daromad ko'rsatkichlari yig'indisiga teng bo'ladi.

Quyida iqtisodiyot sektorlarining natura holidayi sotsial transfertlarni qayta taqsimlash schyotlarini tuzish sxemasini keltiramiz.

Davlat boshqaruv idoralari sektori *Natura holidayi daromadlarni qayta taqsimlash schyoti*

Ishlatilishi	Resurslar
2.Uy xo'jaliklariga berilgan natura holidayi sotsial transfertlar	1. Ixtiyordagi daromad
2.1. Tovarlar	
2.2. Xizmatlar	
3.Tuzatilgan ixtiyordagi daromad (1+ 2)	

Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektori

Natura holidayi daromadlarni qayta taqsimlash schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
2. Uy xo'jaligi tomonidan olingan natura holidayi sotsial transfertlar, hammasi	1. Ixtiyordagi daromad
2.1. Davlat boshqaruv idoralari sektori tomonidan berilgan natura holidayi sotsial transfertlar	
2.2. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektori tomonidan berilgan natura holidayi sotsial transfertlar	
3. Tuzatilgan ixtiyordagi daromad (1+ 2)	

Uy xo'jaligi sektorining Natura holidayi daromadlarni qayta taqsimlash schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
	1. Ixtiyordagi daromad
	2. Natura holidayi sotsial transfertlari(olingani) 2.1. Davlat boshqaruv idoralari sektoridan 2.2. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektoridan
3. Tuzatilgan ixtiyordagi daromad (1+ 2)	

Shuni aytish joizki, Davlat boshqaruv idoralari, Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorlari tomonidan Uy xo'jaligi sektoriga berilgan natura holidayi sotsial transfertlar uy xo'jaligi sektorining daromadlarni ishlatilishi schyotida yakuniy iste'mol sifatida qayd etiladi.

Uy xo'jaliklari sektorining tuzatilgan ixtiyordagi daromad ko'rsatkichi aholining umumiy daromadlari miqdorini va ularning pirovard iste'mol va jamg'arish imkoniyatlari qay darajada ekanligini bildiradi. O'z navbatida bu ko'rsatkich orqali aholining turmush darajasi qanday o'zgarayotganligini tahlil etish imkoniyatini yaratadi.

Davlat boshqaruv idoralari va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorlarining *tuzatilgan ixtiyordagi daromadlari* shu sektorlarning ixtiyordagi daromadidan aholiga bergan *natura holidayi sotsial transfertlarni* chegirib tashlash orqali topiladi.

Nomoliya va moliya korxonalarini sektorlarining tuzatilgan ixtiyordagi daromadlari pul holidayi ixtiyordagi daromadlariga teng bo'ladi. Chunki bu sektorlar natura holidayi sotsial transfert olmaydilar va bermaydilar. Ular o'rtasidagi natura shaklida olingan (berilgan) transfertlar joriy va kapital transfertlar sifatida qayd etiladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu schyotni tuzishdan ko'zlangan maqsad, bir tomondan uy xo'jaligi sektorining keng ma'nodagi daromadini va yakuniy iste'molini aniqlashdan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan davlat boshqaruv idoralari va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorlarining oxirgi iste'molga va jamg'armaga yo'naltiradigan mablag'larini hisoblashdan iborat.

Asosiy termin va tushunchalar

1. Davlat boshqaruv idoralari sektori o'ziga tegishli bo'lgan ixtiyordagi daromadning bir qismini umummamlakat aholisiga sarflaydi.

2. Bu xarajatlar evaziga bajarilgan faoliyatni ikkiga ajratish mumkin: kollektiv xizmatlar va individual iste'mol uchun tovarlar va xizmatlar.

2. Kollektiv xizmatlar Davlat boshqaruv idoralari sektorining mudofaa, chegarani qo'riqlash, xavfsizlikni ta'minlash, qonunchilikni yaratish va ijrosini ta'minlash, ilm va fan, boshqaruv xizmati va shu kabi faoliyatlardan iborat. Bu faoliyatlar individual shaxs uchun emas, butun mamlakat aholisiga va uning manfaati nuqtai nazaridan amalga oshiriladi. Bu faoliyatlar miqdorini alohida olingan fuqaro uchun taqsimlab bo'lmaydi va uning yakuniy iste'moli sifatida hisoblashning imkoniyati va mantiqi yo'q.

3. Individual tovarlar va xizmatlar Davlat boshqaruv idoralari sektori tomonidan alohida olingan fuqaroning yakuniy iste'moli uchun bepul beriladigan xizmatlar va tovarlardan iborat. Bunday tovarlar va xizmatlar natijasidan alohida olingan shaxslar bahramand bo'ladilar. Bunday xizmatlar tarkibiga meditsina, maorif, madaniyat, sport va shu kabi sohalarda davlat boshqaruv idoralari sektori tomonidan moliyalashtirilgan xizmatlar va tovarlar kiradi. Bu faoliyatlar natijasini alohida olingan fuqaro uchun hisoblash mumkin. Bu hisoblar, aholining haqiqiy iste'molini aniq ifodalaydi. Uning pirovard natijada ega bo'lgan daromadi miqdorini hisoblashga imkon yaratadi.

4. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar tomonidan uy xo'jaligi sektoriga bepul berilgan xizmatlar va tovarlar natura holidayi sotsial transfert sifatida schyotning "ishlatilishi" tarafida qayd etiladi. Uy xo'jaligi sektorining schyotida esa, resursda ko'rsatiladi.

5. Uy xo'jaligi sektorining haqiqatda ega bo'lgan daromadi uning ixtiyordagi daromadiga olgan natura holidayi sotsial tranfertlarni qo'shish orqali topiladi.

6. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorining oxirgi iste'moli bo'lmaydi, Chunki ularning faoliyati uy xo'jaligiga bepul xizmatlar va tovarlar berishdan iborat. Ular xizmat va tovarlarni natura holidayi transfert sifatida uy xo'jaliklariga bepul beradilar.

7. Iqtisodiyot sektorlari tashqi dunyodan natura holidayi sotsial tranfertlar olmaydilar va ularga bermaydilar.

Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar

- 1. Kollektiv xizmatlar nima? Misollar bilan fikringizni asoslab bering.*
- 2. Individual xizmatlar va tovarlar qaysi sektorning daromadi va yakuniy iste'moli? Ularga misollar keltiring.*
- 3. Natura holidagi sotsial transfertlarni qaysi sektorlar beradi?*
- 4. Davlat boshqaruv idoralari sektorining natura hoida uy xo'jaligiga bergan sotsial transfertlari tarkibini qanday tovar va xizmatlar tashkil qiladi?*
- 5. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektoridan uy xo'jaligi olgan natura xolidagi sotsial transfertlar qaysi tovar va xizmatlardan iborat? Misollar keltiring.*
- 6. Jamg'arma nima? Fikringizni misollar bilan asoslab bering.*
- 7. Uy xo'jaligi sektorining jamg'armasi tarkibi nimalardan iborat? Fikringizni misollar bilan asoslab bering.*
- 8. Davlat boshqaruv idoralari sektorining jamg'armasi bo'ladimi? Fikringizni asoslab bering.*
- 9. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorining jamg'armasi bo'ladimi? Fikringizni asoslab bering.*
- 10. Mamlakat miqyosida jamg'arma musbat bo'lgani yoki manfiy bo'lgani nimani bildiradi?*
- 11. Nima uchun natura holidagi sotsial transfertlar uy xo'jaligining sektorining daromadi bo'ladi?*

7. Daromadlarni ishlatilishi schyoti

Daromadlarni ishlatilishi schyotida mamlakat miqyosida hamda uy xo'jaligi va davlat boshqaruv idoralari sektorlarining pirovard (yakuniy) iste'mol va jamg'arma ko'rsatkichlari hajmi aniqlanadi. Nomoliya, moliya va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorlarining yakuniy iste'moli bo'lmaydi. Shu sababli, yuqorida qayd etilgan ikki sektorning jamg'arma ko'rsatkichi ixtiyordagi daromad ko'rsatkichiga teng bo'ladi. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorining yakuniy iste'moli bo'lmaganligi uchun uning jamg'armasi tuzatilgan ixtiyordagi daromadga teng bo'ladi.

Schyotning mamlakat miqyosida tuzilish sxemasi quyidagicha:

Mamlakat miqyosida daromadlarni ishlatilishi schyoti

Schyotning umumiy tuzilish sxemasi quyidagicha:

Ishlatilishi	Resurslar
2. Haqiqiy yakuniy iste'mol, hammasi Shu jumladan: 2.1. Uy xo'jaligi sektori 2.2. Davlat boshqaruv idoralari	1. Ixtiyordagi daromad
3. Jamg'arma (1-2)	

Schyotdagi birinchi ko'rsatkich - ixtiyordagi daromad ko'rsakichi daromadlarni qayta taqsimlash schyotidagi muvozanatlashtiruvchi ko'rsatkich bo'lib, bu schyotga resurs sifatida o'tgan.

Ikkinchi ko'rsatkich - pirovard iste'mol ko'rsatkichi uy xo'jaliklari va davlat boshqaruv idoralari sektorlariga kiruvchi birliklarning kuzatilayotgan davrda o'zlarining iste'moli uchun qilgan sarf - xarajatlari (aholi xarajatlari) va davlat idoralarining o'z faoliyatlarini yuritish mobaynida qilgan xarajatlaridan iborat.

Keyingi ko'rsatkich - jamg'arma ko'rsatkichi bu schyotning muvozanatlashtiruvchi ko'rsatkichi hisoblanadi. Iqtisodiy ma'nosiga ko'ra, bu ko'rsatkich mamlakat bo'yicha kapital xarajatlar uchun sarflanishi mumkin bo'lgan (qarz bo'lmasdan) maksimal miqdordan iborat. Bu ko'rsatkich sof usulda hisoblangan bo'lsa *sof jamg'arma*, yalpi usulda (AKI bilan birga) hisoblangan bo'lsa *yalpi jamg'arma*, deb ataladi.

Jamg'arma odatda ishlab chiqaruvchi birliklarning ishlab chiqarishlarini kengaytirish va takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan sarf xarajatlarga ishlatiladi.

Iqtisodiyot sektorlari daromadlarni ishlatilishi schyotini tuzish.

Daromadlarni ishlatilishi schyotini nomoliya va moliya korxonalarini sektorlari uchun tuzish zarurati bo'lmaydi. Chunki, bu sektorlarda pirovard iste'mol bo'lmaydi. Bu korxonalarining ishlab chiqarish uchun sarf etgan tovar va xizmatlar xarajatlari oraliq iste'mol hisoblanadi. Garchi bu korxonalar o'z ishchi - xizmatchilari uchun tovar va xizmatlarni pirovard iste'mol uchun bergan bo'lsalar ham, bu tovar va xizmatlar miqdori ishchi - xizmatchilarga berilgan natura holidayi ish haqi deb ta'riflanadi. Bu sektorlarning ixtiyordagi daromadlari jamg'armaga teng bo'ladi.

Davlat boshqaruv idoralari sektori tuzatilgan ixtiyordagi daromadga egaligi oldingi mavzulardan bizga ma'lum. Shu sababli, bu sektor uchun tuzatilgan ixtiyordagi daromadni ishlatilishi schyoti tuziladi. Schyotni tuzish sxemasi quyidagicha:

Davlat boshqaruv idoralari sektorining tuzatilgan ixtiyordagi daromadni ishlatilishi schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
2. Mamlakat aholisiga bepul ko'rsatilgan kollektiv xizmatlar (yakuniy iste'mol), hammasi Shu jumladan: 2.1. Boshqaruv xizmatlari 2.2. Mudofaa va xavfsizlik xizmatlari 2.3. Huquq va tartibot xizmatlari 2.4. Ilm va fan xizmatlari 2.5. Atrof muhitni muhofaza qilish xizmati 2.6. Radio va televidenie 2.7. Boshqa kollektiv xizmatlar	1. Tuzatilgan ixtiyordagi daromad
3. Yalpi jamg'arma (1-2)	

Bundan avvalgi mavzularda (Natura holidayi daromadlarni qayta taqsimlash schyoti) davlat boshqaruv idoralari sektori o'ziga tegishli ixtiyordagi daromadning bir qismini (individual ko'rsatilgan xizmatlar va tovarlar) uy xo'jaligi sektorining yakuniy iste'moli uchun natura holidayi sotsial transfert sifatida uy xo'jaligi sektoriga berganligi aytib o'tgan edik. Shu sababli, bu schyotda Davlat boshqaruv idoralari sektori tomonidan hisobot davrida aholiga ko'rsatilgan kollektiv xizmatlar va saldo ko'rsatkich bo'lgan jamg'arma miqdori ifoda etiladi.

Davlat boshqaruv idoralari sektori tomonidan aholiga ko'rsatilgan kollektiv xizmatlar uning yakuniy iste'moli hisoblanadi.

Kollektiv xizmatlar mamlakat aholisining hammasiga birvarakayiga va bir vaqtda bepul ko'rsatilgan xizmatlardan iborat. Bu xizmat bilvosita ko'rsatiladi va uning ko'rsatilishida aholining roziligi talab qilinmaydi. Bundan tashqari, bu xizmatlar bir birlik va aholi guruhlari tomonidan iste'mol qilinishi boshqa aholining bu xizmatlardan foydalanishiga to'sqinlik qilmaydi.

Davlat boshqaruv idoralarining yalpi jamg'arma ko'rsatkichi bu sektorning ishlab chiqarish vositalarini tiklash va yangilashga sarflagan xarajatlari miqdorini ifodalaydi. Bu miqdor manfiy yoki musbat bo'lishi mumkin. Bu miqdorning manfiy bo'lishi hisobot davrida sektorning asosiy kapitali emirilganligini bildiradi. Asosiy vositalarni tiklash va yangilashga sarflangan xarajatlar davlat boshqaruv idoralari sektorining kapital xarajatlar schyotida qayd etiladi.

Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorining tuzatilgan ixtiyordagi daromadni ishlatilishi schyoti.

Yuqorida keltirilgan natura holidayi daromadlarni qayta taqsimlash schyotida uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar sektori o'ziga tegishli ixtiyordagi daromadi hisobidan uy xo'jaligi sektorining yakuniy iste'moli uchun natura holidayi sotsial transfert sifatida uy xo'jaligi sektoriga berganligi aytib o'tgan edik. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektori birliklarining asosiy maqsadi va vazifasi hamma aholiga yoki aholi guruhlari nabo'zor xizmatlar ko'rsatish bo'lganligi uchun, ularning pirovard iste'mol uchun xarajatlari aksariyat uy xujaliklari tomonidan o'zlashtiriladi. Shu sababli, va MHTdagi kelishuvga asosan, ularning **haqiqiy pirovard iste'mollari** bo'lmaydi.

Bu sektorning tuzatilgan ixtiyordagi daromad ko'rsatkichi jamg'armaga teng bo'ladi.

Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorining tuzatilgan ixtiyordagi daromadni ishlatilishi schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
2. Yalpi jamg'arma (=1)	1. Tuzatilgan ixtiyordagi daromad

Uy xo'jaligi sektorining tuzatilgan ixtiyordagi daromadni ishlatilishi schyoti.

YUqorida keltirilgan schyotlardan ma'lum bo'ldiki, Davlat boshqaruv idoralari va Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorlari o'zlariga tegishli ixtiyordagi daromad hisobidan uy xo'jaligiga yakuniy iste'mol uchun natura holidayi sotsial transfert sifatida tovarlar va xizmatlar bergan. Natijada uy xo'jaligi sektorining daromadi va yakuniy iste'moli mos ravishda oshgan. Bunday hisoblash usuli uy xo'jaliklari tomonidan yakuniy iste'mol uchun o'zlashtirilgan mablag'lar va ular tomonidan yakuniy iste'molga sarflangan tovarlar va xizmatlar miqdorini aniq ifodalashga imkon yaratadi. Bunday usulda topilgan yakuniy iste'mol uy xo'jaliklarining **haqiqiy pirovard iste'moli, deb ataladi.**

Uy xo'jaliklarining *haqiqiy pirovard iste'moli* ularning o'z mablag'lariga va joriy transfertlar sifatida olgan tovar va xizmatlar miqdoridan hamda davlat boshqaruv idoralari va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorlaridan natura holatida olgan sotsial transfertlar yig'indisidan iborat bo'ladi. Davlat boshqaruv idoralari

sektorining *haqiqiy pirovard iste'mol* ko'rsatkichi davlat tomonidan mamlakat aholisiga ko'rsatilgan kollektiv xizmatlar ko'lamini ifodalaydi.

Asosiy termin va tushunchalar

1. Daromadlarni ishlatilishi deganda - iqtisodiy birliklar tomonidan tovar va xizmatlarni taassaruf etish tushuniladi.

2. Yakuniy iste'mol - qiymati boshqa tovar va xizmat qiymatiga o'tmaydigan tovar va xizmatlardan iborat.

3. Uy xo'jaligi sektorining yakuniy iste'moli - aholi tomonidan o'z mablag'lari evaziga sotib olgan tovarlar va xizmatlar, davlat byudjeti hisobiga aholiga bepul berilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar, notijorat tashkilotlar tomonidan bepul berilgan tovarlar va xizmatlar yig'indisidan iborat.

4. Davlat boshqaruv idoralari sektori tomonidan uy xo'jaligi sektoriga yakuniy iste'mol uchun bepul berilgan individual tovarlar va xizmatlar - meditsina, maorif, madaniyat, sport va shu kabi sohalarida davlat boshqaruv idoralari sektori tomonidan moliyalashtirilgan xizmatlar va tovarlardan iborat.

5. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar yakuniy iste'moli bo'lmaydi. Ularning aholi iste'moli uchun qilgan sarf xarajatlari uy xo'jaligining yakuniy iste'moli hisoblanadi.

6. Yakuniy iste'molni oxirgi iste'molchi nuqtai nazaridan hisoblash natijasida, aholining, davlat boshqaruv idoralari va notijorat tashkilotlarning yakuniy iste'molining haqiqiy hajmi aniq ifodalanadi.

7. Yakuniy iste'mol to'g'risidagi aniq ma'lumotlardan aholining turmush darajasi holatini baholashda va taqqoslashda, davlat tomonidan yuritilayotgan ijtimoiy siyosat natijalarini bilishda, davlat xarajatlari ulushini aniqlashda foydalanish mumkin.

8. Jamg'arma - mamlakatning va iqtisodiyot sektorlarining hisobot davrida ega bo'lgan daromadlaridan uni yakuniy iste'molga ishlatganlaridan keyin qolgan qoldiq miqdoridan iborat.

9. Nomoliya va moliya korxonalar sektorlarining yakuniy iste'moli bo'lmaydi.

10. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorining oxirgi iste'mol uchun qilgan xarajatlari uy xo'jaligi sektorining oxirgi iste'moli sifatida hisoblanadi va uy xo'jaligi sektori schyotida qayd etiladi.

Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar

1. Kollektiv xizmatlar qaysi sektorning yakuniy iste'moli? Misollar bilan fikringizni asoslab bering.
2. Individual xizmatlar va tovarlar qaysi sektorning oxirgi iste'moli? Ularga misollar keltiring.
3. Natura holiday sotsial transfertlar daromadmi yoki yakuniy iste'molmi?
4. Davlat boshqaruv idoralari sektorining yakuniy iste'moliga qanday xizmatlar kiradi?
5. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorining yakuniy iste'moli bormi?
6. Jamg'arma nima? Fikringizni asoslab bering.
7. Uy xo'jaligi tuzatilgan ixtiyordagi daromadi ixtiyordagi daromaddan nima bilan farq qiladi? Fikringizni asoslab bering.
8. Davlat boshqaruv idoralari sektorining jamg'arma ko'rsatkichi qanday aniqlanadi? Fikringizni misollar bilan asoslab bering.
9. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorining jamg'armasi bormi?
10. Mamlakat miqyosida yakuniy iste'mol qanday aniqlanadi?
11. Nima uchun natura holiday sotsial transfertlar uy xo'jaligi sektorining yakuniy iste'moli bo'ladi?

8. Kapital sarflar schyoti

Bu schyotda mamlakat miqyosida va iqtisodiyot sektorlari o'rtasida kapital xarajatlarning manbalari va ularning qanday kapital xarajatlar turlariga ishlatilishi jarayonlari yozib boriladi.

Mamlakat miqyosida kapital qo'yilmalar hajmini tiklash va ko'paytirishning asosiy manbaasi iqtisodiyot birliklarining *yalpi jamg'armasi* va chet eldan olingan *sof kapital transfertlardan* iborat. Odatda, barcha rezident birliklarning yalpi jamg'armalari yig'indisi Yalpi milliy jamg'arma (YAMJ), deb ataladi. Bu ko'rsatkich sof usulda (AKI alohida hisoblangan bo'lsa) Sof milliy jamg'arma (SMJ), deb ataladi. SMJning musbat bo'lishi mamlakatda o'z kapitalini ko'paytirishga yoki chet elga investitsiyalar kiritish uchun mablag'lari borligini (sof investor

bo'lishi mumkinligini) bildiradi. Oxirgi fikr, ushbu schyotning saldo ko'rsatkichida (sof kreditlar shaklida) namoyon bo'ladi.

Agarda SMJ manfiy ishora bilan chiqsa, mamlakatda o'z kapitalini tiklashga o'z mablag'larining etishmasligini yoki chet eldan sof qarzdor bo'lishi mumkinligini bildiradi.

Bu holatni schyotning tuzilish sxemasida yaqqol ko'rish mumkin.

Mamlakat miqyosida kapital xarajatlar schyotining umumiy tuzilish sxemasi quyidagicha:

Ishlatilishi	Resurslar
3.Asosiy kapitalning yalpi yig'ilmasi	1. Yalpi milliy jamg'arma
4.Moddiy aylanma mablag'lar zaxirasining o'zgarishi	2. Sof kapital transfertlar (2.1+2.2)
5.Sotib olingan qimmatbaho buyumlar sof miqdori (chet eldan olingani-sotilgani)	2.1. Kapital transfertlar (chet eldan olingani +)
6.Sof olingan er va boshqa aktivlar (chet eldan olingani-sotilgani)	2.2. Kapital transfertlar (chet elga berilgani -)
V. Kapital xarajatlar, hammasi	A. Kapital resurslar, hammasi
7.Sof kreditlash, agarda $(A-V)>0$ Sof qarzlar, agarda $(A-V)<0$	

Ichki iqtisodiyot birliklari o'rtasidagi kapital transfertlar, qimmatbaho buyumlar, er va shu kabi aktivlar oldi-berdi operatsiyalari saldosi nolga teng bo'ladi. Shu sababli, mamlakat miqyosida tuzilgan schyotda bu operatsiyalar ko'rinmaydi.

Kapital xarajatlarning asosiy manbasi bo'lgan jamg'arma ko'rsatkichi ixtiyordagi daromadni ishlatilishi schyotidan resurs sifatida o'tadi. Kapital transfertlar mamlakat sektorlari o'rtasidagi o'zaro qayta taqsimlash operatsiyalari va tashqi dunyo sektori birliklaridan olingan va ularga berilgan kapital xarakterdagi operatsiyalar natijalaridan iborat.

Kapital transfertlar 3 turga bo'linadi: kapital uchun soliq; investitsiya subsidiyalari; boshqa kapital transfertlar.

Kapital uchun soliqlar tarkibiga ishlab chiqarishda foydalanilmaydigan mulklari uchun aholi va institutsion birliklar tomonidan to'lanadigan soliqlar, mulklarini bir-birlariga bepul berganliklari uchun to'lanadigan to'lovlar, meros uchun qoldiriladigan yoki beriladigan uy-joy yoki boshqa mol-mulk uchun to'lanadigan to'lovlar kiradi.

Investitsiya subsidiyalariga davlat byudjetidan rezident yoki norezident birliklarga asosiy fondlarni sotib olish uchun beriladigan moliya resurslari va natura holidayi (ish joylari, transport vositalari, qurilmalar va h.k.) transfertlar kiradi.

Bunga misol sifatida davlat byudjeti tomonidan korxonalariga kapital xarakterdagi xarajatlar (ish maydonlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ma'lum bir loyihalarni to'raligicha yoki qisman moliyalashtirishda qatnashish va h.k.)ni qoplash uchun beriladigan mablag'larni va davlat tomonidan korxonalariga bepul beriladigan ish joylari, avtomobillar, stanoklar va qurilmalar, komp'yuterlar kabi asosiy vositalarni keltirish mumkin. Bu misolda davlat boshqaruv idoralari sektori uchun resursda transfertlar berilgan deb yoziladi. Korxonalar sektori uchun resursda transfertlar olingan deb va ishlatilishida asosiy kapitalning yig'ilmasida yozib qo'yiladi.

Boshqa kapital transfertlarga kapital uchun soliqlar va investitsiya subsidiyalariga kiritilmagan boshqa kapital transfertlar kiradi. Bunga misol tariqasida davlat tomonidan korxonalariga va quyi bo'g'in boshqaruv idoralariiga asosiy kapital uchun qarzlarni yopib yuborish yoki to'lab qo'yish, korxonalar va uy xo'jaliklarining boshqa tashkilotlarga uy-joylarni yoki kapital xarakterdagi mahsulotlarni xadya etish yoki meros qoldirish operatsiyalarini keltirish mumkin.

Asosiy kapitalning yalpi yig'ilmasi ko'rsatkichi yangitdan (kuzatilayotgan davrda) qurilgan uy-joy va inshootlarning, sotib olingan mashinalar, qurilmalar, transport vositalari, stanoklar va va shularga o'xshash asosiy ishlab chiqarish vositalarining qiymatlarining yig'indisidan iborat.

Moddiy aylanma mablag'lar zaxirasining o'zgarishi ko'rsatkichi orqali xom ashyo va butlovchi materiallar, yoqilg'i, asbob-uskunalar, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor (sotilmagan) mahsulotlarning hisobot boshidan oxiriga qadar miqdorlarining o'zgarishlari (ko'paygan bo'lsa +(plyus), aks holda -(minus)) yoziladi.

Sotib olingan qimmatbaho buyumlar sof miqdori ko'rsatkichi barcha sotib olingan qimmatbaho buyumlar miqdoridan sotilganini ayirib topiladi. Bunday qimmatbaho buyumlar qatoriga qimmatbaho esdalik sovg'alari, zebi-ziynatlar, san'at asarlari, oltin va kumush kabi metallar, boshqa o'z qiymatini uzoq vaqt yo'qotmaydigan buyumlar kiradi.

Sof olingan er va boshqa aktivlarga sof olingan er qiymati va nomoddiy ishlab chiqarilmagan aktivlar (patentlar, litsenziyalar, mualliflik huquqlari) qiymati kiradi. Bu ko'rsatkich sof holda yoki sotib olingan er va

boshqa aktivlar qiymatidan sotilganlari qiymatini chegirib tashlagan holda hisoblanadi.

Sof kreditlash yoki qarzar (qarz olish) bu schyotning muvozanatlashtiruvchi ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich u yoki bu sektorning boshqa sektorlarga kapital xarajatlarini moliyalashtirish uchun resurslarini berib turganligini yoki olganligini bildiradi.

Kapital xarajatlar schyotini iqtisodiyot sektorlari kesimida tuzish iqtisodiy tahlil va mamlakat iqtisodiyotini rivojlanish istiqbollarini bilish uchun juda muhim ma'lumotlarni beradi. Shu sababli, iqtisodiyot sektorlari kapital xarajatlar schyotlarini tuzilish sxemasini yoritishga harakat qilamiz.

Iqtisodiyot sektorlari kapital xarajatlar schyotining umumiy tuzilish sxemasi quyidagicha:

Ishlatilishi	Resurslar
3.Asosiy kapital yalpi yig'ilmasining o'zgarishi (ko'payishi yoki kamayishi)	1. Yalpi jamg'arma
4.Moddiy aylanma mablag'lar zaxirasining o'zgarishi (ko'payishi yoki kamayishi)	
5.Qimmatbaho buyumlar sof miqdori, hammasi (5.1+5.2)	2. Sof kapital transfertlar, hammasi (2.1+2.2)
5.1. CHet eldan qiimmatbaho buyumlar sof miqdori (5.1.1+5.1.2)	2.1. Chet eldan sof kapital transfertlar
5.1.1. Rezidentlardan olgani +	2.1.1. Rezidentlardan olgani +
5.1.2. Rezidentlarga bergani -	2.1.2. Rezidentlarga bergani -
5.2. Ichki iqtisodiyotdan qiimmatbaho buyumlar sof miqdori (5.2.1+5.2.2)	2.2. Ichki iqtisodiyotdan sof kapital transfertlar
5.2.1. Rezidentlardan olgani +	2.2.1. Rezidentlardan olgani +
5.2.2. Rezidentlarga bergani -	2.2.2. Rezidentlarga bergani -
6.Sof olingan er va boshqa aktivlar	
V. Kapital xarajatlar, hammasi	A. Kapital resurslar, hammasi
7.Sof kreditlash, agarda (A-V)>0 Sof qarzarlar, agarda (A-V)<0	

Shuni aytish joizki, iqtisodiyot sektorlari kapital xarajatlar schyoti tuzilish sxemasi bir xil bo'lishiga qaramay, har bir sektor schyotida operatsiyalar tarkibi va mazmuni turlicha bo'lishi mumkin. Jumladan, faqat davlat boshqaruv idoralari sektori kapital uchun soliqlar va boj to'lovlarini boshqa iqtisodiyot va tashqi dunyo birliklaridan oluvchi hisoblanadi. Bundan tashqari, bu sektor boshqa birliklarga investitsiya subsidiyalarini beruvchi yagona sektor hisoblanadi.

Asosiy termin va tushunchalar

1. Kapital xarajatlar deganda - bir hisobot davridan ko'proq vaqtda ishlab chiqarishda foydalanish mumkin bo'lgan moddiy va nomoddiy aktivlarni kapital tiklash, ularni yaratish uchun qilingan sarflarga aytiladi.

2. Kapital transfertlar - bepul berilgan (olingan) ishlab chiqarish vositasi sifatida ishlatiladigan moddiy va nomoddiy aktivlardan iborat.

3. Harbiy maqsadlarda foydalanish uchun berilgan (olingan) kapital aktivlar (samolyotlar, tanklar, harbiy uskuna va mexanizmlar va boshqalar) kapital transfer hisoblanmaydi. Ular, joriy transfertlar tarkibiga kiradi.

4. Kapital transfertlar uch turga bo'linadi:

- kapital uchun soliqlar;

- investitsiya subsidiyalari;

- boshqa kapital transfertlar.

5. Kapital uchun soliqlar tarkibiga davlat sektoriga boshqa birliklar tomonidan to'lanadigan quyidagi to'lovlar kiradi: kapital uchun davriy bo'lmagan to'lovlar, kapital aktiv bir birlikdan ikkinchi birlikka (bepul yoki pulli) o'tganda to'lanadigan to'lovlar, kapital aktiv sovg'a yoki meros qilib berilganda bir marotaba to'lanadigan to'lovlar, uy xo'jaliklari tomonidan o'zlariga tegishli er va uy-joylari tijorat va ishlab chiqarishda (tadbirkorlik faoliyatida) foydalanishga rasmiylashtirishda to'lanadigan to'lovlar, qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan erlarni uy-joy qurishga ruxsat berilishi bilan bog'liq to'lovlar. Kapital uchun soliqlar tarkibiga davriy ravishda to'lanadigan mulk soliqlari kirmaydi. Ular joriy transfert hisoblanadi.

6. Investitsiya subsidiyalari - *davlat byudjeti hisobidan* rezident va norezident birliklarga asosiy kapitalni moliyalashtirish uchun sarf qilingan xarajatlardan, bepul berilgan natura holdagi kapital transfert (mashinalar, uskunalar, binolar, inshootlar va boshqalar)lardan iborat. Investitsiya subsidiyalari tarkibiga korxonalar tasarrufida qoldiriladigan soliq, davlat birliklarining foydadagi ulushlari miqdori ham kiritilishi MHT metodologiyasiga mos keladi. MHT schyotlarida korxonalar tasarrufida qoldirilgan mablag'lar davlat sektorining birlamchi daromadi sifatida qayd etiladi. So'ng, bu mablag'lar davlat boshqaruv idoralari sektori kapital xarajatlar schyotida davlat tomonidan korxonalarga berilgan investitsiya subsidiyalari va korxonalar sektorida olingan investitsiya subsidiyalari sifatida qayd etilishi o'rinli bo'ladi.

7. Investitsiya subsidiyalarining hajmini aniqlashda davlat byudjetining quyidagi yo'nalishdagi sarf xarajatlaridan foydalanish mumkin:

- mashina va uskunalar, uzoq muddatda foydalanishga mo'ljallangan tovarlarga sarflar;

- qaytarib olinmaydigan davlat investitsiyalari (kapital qurilish);

- kapital ta'mirlashga sarflar;

- geologiya-qidiruv ishlariga sarflar.

Bundan tashqari, investitsiya subsidiyalari tarkibiga quyidagi byudjet harajatlari kiradi:

- aholi uy-joylarini kapital ta'mirlash xarajatlari;

- ipoteka kreditlarining davlat byudjeti tomonidan qoplanadigan qismi;

- aholining uy-joylarini tiklashga byudjet tomonidan berilgan yordam (pul va natura ko'rinishida);

- favqulodda yuz bergan xodisalardan jabrlanganlarga byudjet hisobidan berilgan kapital xarajatlar;

- ekin ekishga yaroqsiz bo'lib qolgan ekin maydonlarini tiklash uchun qilingan byudjet xarajatlari.

8. Boshqa kapital transfertlar tarkibiga yuqorida keltirilgan kapital uchun soliqlar va investitsiya subsidiyalari tarkibiga kirmagan kapital transfertlar kiradi. Bunday ayirboshlash operatsiyalari barcha iqtisodiyot sektorlari va tashqi dunyo o'rtasida sodir bo'lishi mumkin. Ular tarkibiga quyidagilar kiradi:

- meros olish va berish;

- yirik miqdorda sovg'alar olish va berish;

- davlat tomonidan uy xo'jaligiga uylarni bepul berish yoki uy haqining bir qismini to'lashdan ozod etish;

- aholiga tegishli uy-joylar va bog'larni buzib, o'rnidan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun korxonalar tomonidan to'langan qoplamalar;

- uy xo'jaligi va boshqa korxonalar tomonidan kapital xarakterdagi tovarlarni sotib olishga hamda maktablar, kutubxonalar va shunga o'xshash kapital qurilish ob'ektlariga berilgan xayriya mablag'lari;

- uy xo'jaligi va boshqa korxonalar tomonidan notijorat tashkilotlarga, o'quv dargohlariga, bolalar uylariga, tibbiyot maskanlariga xayriya tariqasida berilgan kapital aktivlar;

- kelishilgan holda qarz to'lovlarini to'lashdan (olishdan) voz kechish.

9. Sof kreditlar va sof qarzlar - birlikning boshqa birliklarga bergan va ulardan olgan mablag'lari o'rtasidagi farqdir. Natija musbat bo'lsa, u sof kreditlar, aks holda sof qarzlar deb ataladi.

Bilimlarni mustaxkamlash va takrorlash uchun savollar

1. Kapital transfertlar nima va uning joriy transfertdan qanday farqi bor? Misollar bilan fikringizni asoslab bering.

2. Davlat birliklari boshqa birliklarga qanday kapital transfertlar beradi? Ularga misollar keltiring.

3. Kapital uchun soliqlar nima va ularni kimlar to'laydi?

4. Investitsiya subsidiyalari tarkibiga qanday investitsiyalar kiradi?

5. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektori qanday kapital transfertlar oladi va beradi?

6. Chet eldan qanday kapital transfertlar olinadi? Fikringizni misollar bilan asoslab bering.

7. Uy xo'jaligi qanday kapital transfertlar oladi va beradi? Fikringizni misollar bilan asoslab bering.

8. Davlat boshqaruv idoralari sektori kapital transfert oladimi? Fikringizni misollar bilan asoslab bering.

9. Tashqi dunyo sektori kapital transfert oladimi?

10. Asosiy kapital yig'ilmasining o'zgarishi nimani anglatadi?

11. Aylanma mablag'larning o'zgarishi deganda nimani tushunasiz?

12. Qimmatbaho buyumlarga nimalar kiradi?

9. Moliya schyoti

Yuqorida keltirilgan schyotlarda iqtisodiyot sektorlari o'rtasidagi iqtisodiy ishlab chiqarish va qayta taqsimlash operatsiyalari natijasida daromadlarni hosil bo'lishi va ularni ishlatilishi jarayonlari qayd etilgan. Bu operatsiyalarni hisobga olishda tovar va xizmatlarga egalik huquqining o'zgarishi vaqti asos qilib olingan. Tovlar va xizmatlar uchun to'lanishi lozim bo'lgan pul hisob-kitoblari qachon va kim tomonidan to'langanligi e'tiborga olinmaydi. YA'ni sodir bo'lgan iqtisodiy operatsiyalarning moliyaviy jihatlari yuqorida keltirilgan schyotlarda o'z ifodasini topmagan. Iqtisodiyot sektorlarining moliyaviy holatlarining o'zgarishi **moliya schyotida** o'z aksini topadi.

Moliya schyotini barcha iqtisodiyot sektorlari, tarmoqlari va yirik korxonalar uchun tuzishni tavsiya etamiz. Chunki, bu schyot ko'rsatkichlari har bir birlikning moliyaviy aktivlarida va passiv (majburiyat)larida iqtisodiy operatsiyalar natijasida sodir bo'lgan o'zgarishlarni ifoda etadi. Bu ma'lumotlar mikro va makro darajadagi iqtisodiy tahlil uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Schyotni tuzishda moliyaviy aktivlar (passivlar) tasnifidan (IV-bobga qarang) foydalanish tavsiya etiladi. Schyotning "resurs" tarafida birlikning moliyaviy majburiyatlaridagi o'zgarishlar qayd etiladi. Schyotning "ishlatilishi" qismida birlikning moliya aktivlaridagi o'zgarishlar qayd etiladi. Bu schyotni tuzishdan ko'zlangan maqsad, iqtisodiyot sektorlarining o'zaro iqtisodiy operatsiyalari natijasida ularning hisobot davrida moliya aktivlari va majburiyatlari qiymatining qancha miqdorga ko'payganligini yoki kamayganligini hisobga olishdir.

Iqtisodiyot sektorlari uchun moliya schyotini quyidagi tartibda tuzish tavsiya etiladi.

Iqtisodiyot sektorlari moliya schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
Aktivlar	Majburiyatlar
6. Boshqa birliklarga kiritilgan kreditlar, (6.1-6.2)	1.O'zlashtirilgan kreditlar, (1.1-1.2)
6.1. Berilgan kreditlar	1.1. Olingan kreditlar
6.1.1. Norezidentlarga	1.1.1. Norezidentlardan
6.1.2. Rezidentlarga	1.1.2. Rezidentlardan
6.2. Qaytarilgan kreditlar	1.2. Qaytarilgan kreditlar
6.2.1. Norezidentlardan	1.2.1. Norezidentlarga
6.2.2. Rezidentlardan	1.2.2. Rezidentlarga

<p>7. Nomonetar oltin (7.2-7.1) 7.1. Hisobot boshida 7.2. Hisobot oxirida</p>	<p>2. O'zi chiqargan qimmatbaho qog'ozlar (portfel investitsiyalar) (2.1-2.2) 2.1. Hisobot davrida sotilgani 2.1.1. Norezidentlarga 2.1.2. Rezidentlarga 2.2. Hisobot davrida qaytarib berilgani 2.2.1. Norezidentlardan 2.2.2. Rezidentlardan</p>
<p>8. Horijiy valyutadagi naqd pullar hajmining o'zgarishi (8.2-8.1) 8.1. Hisobot boshida 8.2. Hisobot oxirida</p>	<p>3. O'zi chiqargan aksiyalar (3.1-3.2) 3.1. Hisobot davrida sotilgan aksiyalar 3.1.1. Norezidentlarga 3.1.2. Rezidentlarga 3.2. Hisobot davrida qaytarilgan aksiyalar 3.2.1. Norezidentlardan 3.2.2. Rezidentlardan</p>
<p>9. Milliy valyutadagi depozitlar hajmining o'zgarishi (3.2-3.1) 9.1. Hisobot boshida 9.2. Hisobot oxirida</p>	<p>4. Sug'urta tashkilotlarining texnik rezervlari o'zgarishi (4.2-4.1) 4.1. Hisobot boshida 4.2. Hisobot oxirida</p>
<p>10. Xorijiy valyutadagi depozitlar hajmining o'zgarishi (10.2-10.1) 10.1. Hisobot boshida 10.2. Hisobot oxirida</p>	<p>5. Boshqa kreditorlik qarzlari (5.2-5.1) 5.1. Hisobot boshida 5.2.1. Norezidentlardan 5.2.2. Rezidentlardan 5.2. Hisobot oxirida 5.2.1. Norezidentlardan 5.2.2. Rezidentlardan</p>
<p>11. Boshqa birliklar chiqargan qimmatbaho qog'ozlar (portfel investitsiyalar) (11.1-11.2) 11.1. Hisobot davrida olingani 11.1.1. Norezidentlardan 11.1.2. Rezidentlardan 11.2. Hisobot davrida qaytarib berilgani 11.2.1. Norezidentlarga 11.2.2. Rezidentlarga</p>	
<p>12. Boshqa birliklar aksiyalari (12.1-12.2) 12.1. Hisobot davrida olingani 12.1.1. Norezidentlardan 12.1.2. Rezidentlardan 12.2. Hisobot davrida qaytarib berilgani 12.2.1. Norezidentlarga 12.2.2. Rezidentlarga</p>	

13. Boshqa debitorlik qarzlari(13.2-13.1) 13.1. Hisobot boshida 13.2.1. Norezidentlarning 13.2.2. Rezidentlarning 13.2. Hisobot oxirida 13.2.1. Norezidentlarning 13.2.2. Rezidentlarning	
A. Sof aktivlar (6+7+8+9+10+11+12+13)	V. Sof majburiyatlar (1+2+3+4+5)
S = (A-V) ≥ 0 bo'lsa, Sof aktivlar deyiladi. Aks holda, sof passivlar deyiladi.	

Schyotni tuzishda har bir birlik uchun aktivlar nima, majburiyatlar nima ekanligini aniq bilib olish kerak. Odatda, bir birlik uchun aktiv bo'lgan operatsiya boshqa birlik uchun passiv yoki majburiyat sodir bo'ladi. Rezident birlik ega bo'lgan chet el valyutalari rezident uchun aktiv bo'lsa, norezident uchun majburiyat bo'ladi. Milliy valyutani norezident qo'liga o'tishi valyuta egasi bo'lgan mamlakat uchun majburiyat hosil qiladi. Boshqa birlik tomonidan kiritilgan investitsiyalar olgan birlik uchun majburiyat bo'ladi, bergan birlik uchun aktiv bo'ladi. Kreditorlik qarzlari qarzдор uchun majburiyat, qarz beruvchi uchun aktiv bo'ladi. Barter operatsiyalarida mahsulotni birliklar bir-birlariga yetkazish bir hisobot davriga to'g'ri kelmay qolishi mumkin. Buning natijasida, mahsulotni to'laligicha yetkazmagan birlikda majburiyat va qarshi tomonda talab (debitorlik) yuzaga keladi. SHuni e'tiborga olish lozimki, faqat monetar oltin egasi uchun aktiv bo'ladi va boshqa birlik uchun majburiyat hosil qilmaydi. Odatda, monetar oltin bilan bo'ladigan operatsiyalar mamlakatlar markaziy banklari o'rtasida amalga oshiriladi va mamlakat miqyosida moliya schyotida qayd etiladi.

Mamlakat miqyosida moliya schyotini tuzishda ichki iqtisodiyot sektorlari o'rtasidagi operatsiyalarni qaytarish zarurati yo'q. Chunki, bu operatsiyalar bir tomonda majburiyat va ikkinchi tomonda aktiv sifatida yoziladi. Ularning absolyut qiymati bir-biriga teng bo'lganligi uchun, ularning sof qiymati nolga teng bo'ladi.

Moliya schyotini mamlakat miqyosida quyidagi tartibda tuzish tavsiya etiladi.

Mamlakat miqyosida moliya schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
Aktivlar	Majburiyatlar
<p>8. Ichki iqtisodiyot birliklari tomonidan tashqi dunyoga kiritilgan kreditlar (8.1-8.2)</p> <p>8.1. Berilgan kreditlar</p> <p>8.2. Qaytarilgan kreditlar</p>	<p>1. Milliy iqtisodiyotda o'zlashtirilgan kreditlar, (1.1+1.2)</p> <p>1.1. Olingan kreditlar</p> <p>1.2. Qaytarilgan kreditlar</p>
<p>9. Chet el valyutasidagi naqd pullar (9.2-9.1)</p> <p>9.1. Hisobot boshida</p> <p>9.2. Hisobot oxirida</p>	<p>2. Tashqi dunyo ixtiyoridagi milliy naqd pullar hajmining o'zgarishi (2.1-2.2)</p> <p>2.1. Chet elga chiqib ketgan milliy naqd pullar</p> <p>2.2. Chet eldan qaytib kelgan milliy naqd pullar</p>
<p>10. Chet el valyutasidagi depozitlar (10.2-10.1)</p> <p>10.1. Hisobot boshida</p> <p>10.2. Hisobot oxirida</p>	<p>3. Tashqi dunyo ixtiyoridagi milliy valyutadagi depozitlar hajmining o'zgarishi (3.1-3.2)</p> <p>3.1. Chet elga chiqib ketgan milliy valyutadagi depozitlar</p> <p>3.2. Chet eldan qaytib kelgan milliy valyutadagi depozitlar</p>
<p>11. Rezidentlar ixtiyoridagi norezidentlar chiqargan qimmatbaho qog'ozlar (portfel investitsiyalar) (11.1-11.2)</p> <p>11.1. Hisobot davrida sotilgani</p> <p>11.2. Hisobot davrida qaytarib olingani</p>	<p>4. Tashqi dunyo ixtiyoridagi mamlakat rezident birliklari chiqargan qimmatbaho qog'ozlar (portfel investitsiyalar) (4.1-4.2)</p> <p>4.1. Hisobot davrida norezidentlarga sotilgani</p> <p>4.2. Hisobot davrida norezidentlardan qaytarib olingani</p>
<p>12. Rezidentlar ixtiyoridagi norezidentlar chiqargan aksiyalar (to'g'ri investitsiyalar) (12.1-12.2)</p> <p>12.1. Hisobot davrida kiritilgan investitsiyalar</p> <p>12.2. Hisobot davrida qaytarilgan investitsiyalar</p>	<p>5. Tashqi dunyo ixtiyoridagi mamlakat rezident birliklari chiqargan aksiyalar (to'g'ri investitsiyalar) (5.1-5.2)</p> <p>5.1. Hisobot davrida norezidentlarga sotilgani</p> <p>5.2. Hisobot davrida norezidentlardan qaytarib olingani</p>
<p>13. Norezident sug'urta tashkilotlarining rezidentlarni sug'urtalashda yuzaga kelgan texnik rezervlaridagi o'zgarish (13.2-13.1)</p> <p>13.1. Hisobot boshida</p> <p>13.2. Hisobot oxirida</p>	<p>6. Milliy sug'urta tashkilotlarining norezidentlarni sug'urtalashda yuzaga kelgan texnik rezervlaridagi o'zgarish (6.2-6.1)</p> <p>6.1. Hisobot boshida</p> <p>6.2. Hisobot oxirida</p>
<p>14. Mamlakat norezident birliklarining rezidentlardan (yuqorida qayd etilmagan) boshqa kreditorlik qarzlari</p>	<p>7. Mamlakat rezident birliklarining norezidentlardan (yuqorida qayd etilmagan) boshqa kreditorlik qarzlari</p>

(14.2-14.1) 14.1. Hisobot boshida 14.2. Hisobot oxirida	(7.2-7.1) 7.1. Hisobot boshida 7.2. Hisobot oxirida
A. Aktivlar hammasi (8+9+10+11+12+13+14)	V. Majburiyatlar hammasi (1+2+3+4+5+6+7)
S = (A-V) ≥ 0 bo'lsa, Sof aktivlar deyiladi. Aks holda, sof passivlar deyiladi.	

Shuni aytish joizki, amaliyotda iqtisodiy sektorlari aktivlarida kuzatilayotgan davrda odatdagi iqtisodiy jarayonlardan farqli bo'lgan holatlar natijasida institutsion birliklarning aktivlari hajmlarida o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bunday o'zgarishlar aktivlar va passivlarda boshqa o'zgarishlar schyotida hisobga olinadi.

Asosiy termin va tushunchalar

1. Moliya schyotida iqtisodiy birliklar, tarmoqlar, sektorlar va mamlakat miqyosida birliklarning moliyaviy aktivlaridagi va passivlaridagi o'zgarishlar qayd etiladi.

2. Moliyaviy aktivlar - birlikning o'z mablag'laridan iborat. Ular monetar oltin, naqd pul, depozit, investitsiya, kreditlar, qimmatli qog'ozlar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

3. Monetar oltindan boshqa moliyaviy aktivlar egasi uchun aktiv hisoblanadi, boshqa tomon uchun majburiyat hosil qiladi. Monetar oltin alohida aktiv turi bo'lib, u egasi uchun aktiv bo'ladi. Lekin boshqa tomon uchun majburiyat hosil qilmaydi.

4. Qimmatli qog'ozlar davlat obligasiyalari sifatida moliya vazirligi tomonidan ma'lum bir muddatga chiqariladi va belgilangan marja to'lash sharti bilan qaytib sotib olinadi.

5. Aksiyalar - iqtisodiy birliklar tomonidan qo'shimcha investitsiya mablag'lariga ega bo'lish uchun chiqariladi. Aksiyador - aksiya egasi aktivga ega bo'ladi, aksiyani sotgan birlik aksiyador oldida majburiyatga ega bo'ladi.

6. Chet eldan to'g'ri investitsiyalar - investorning korxonani boshqarish niyatida uning aksiyalarini sotib olishga sarflagan xarajatlaridan iborat. Investor aktivga ega bo'ladi, investitsiya kiritilgan birlik majburiyatga ega bo'ladi.

7. Mamlakat milliy valyutasining norezident birlikka o'tishi, mamlakatning majburiyati bo'ladi. Norezident aktivga ega bo'ladi.

8. Chet el valyutasiga rezident birliklarning ega bo'lishi ularning aktivlari bo'ladi, valyuta egasi bo'lgan mamlakatning majburiyati hisoblanadi.

9. Birlikning kreditorlik qarzi - uning kredit olgan birlik oldidagi majburiyati bo'ladi. Qarzni uzish majburiyatni kamaytirish demakdir.

10. Birlikning debitorlik qarzi - uning qarzi emas. Bu - birlikning aktivi bo'ladi. Debitorlikning kamayishi birlikning debitor birlikka nisbatan talabi kamayishini bildiradi.

11. Birlikning majburiyatlari - uning boshqalar oldidagi qarzlaridan, majburiyatlaridan iborat.

12. Birlikning aktivlari - birlikning o'z mablag'laridan, boshqalarga nisbatan bo'lgan talab (haq)lardan iborat.

13. Sof aktivlar - birlikning hisobot davrida majburiyatlariga nisbatan aktivlarini ko'payganligini ifodalaydi.

14. Sof majburiyatlar - birlikning hisobot davrida aktivlariga nisbatan majburiyatlari ko'payganligini bildiradi.

Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar

1. *Aktivlar nima? Misollar bilan fikringizni asoslab bering.*
2. *Passivlar nima? Ularga misollar keltiring.*
3. *Moliyaviy aktivlarga qanday aktivlar kiradi? Ularga misollar keltiring.*
4. *Moliyaviy passivlar nima? Ularga misollar keltiring.*
5. *Aksiyalar, qimmatli qog'ozlar nima? Ularga misollar keltiring.*
6. *Monetar oltin egasi uchun aktivmi? Boshqa birliklar uchun passivmi?*
7. *Aksiyalarni sotib oluvchi uchun aktivmi yoki passivmi?*
8. *Sof aktiv nima?*
9. *Sof passiv nima?*
10. *Iqtisodiyot birliklari sof aktivlari oshgani yaxshimi yoki aksincha? Fikringizni asoslab bering.*
11. *Birliklar qaysi majburiyatlarini oshirishga harakat qiladilar?*

10. Aktivlar va passivlarda boshqa o'zgarishlar schyoti

Hayotimizda inflyatsiya jarayonlarining mavjudligi va bizga bog'liq bo'lmagan va hoxishimizga qarama-qarshi o'laroq tabiiy ofatlarning, urush

va to's to'palonlarning, yong'inlarning sodir bo'lishi mumkinligi institutsion birliklarning aktiv va passivlarida ma'lum o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Bunday jarayonlar natijasida aktivlar va passivlar holati va ularning hajmlarida bo'lgan o'zgarishlar 2ta schyotda qayd etiladi.

Odatdagi iqtisodiy jarayonlardan farqli bo'lgan holatlar natijasida masalan: tabiiy ofatlar, urushlar, turli falokatlar va yong'inlar natijasida institutsion birliklarning aktivlari yaroqsiz holga kelib qoladi. Bunday o'zgarishlar **aktivlar va passivlarda boshqa o'zgarishlar** schyotida hisobga olinadi.

Bu schyotning tuzilish sxemasi quyidagicha:

Ishlatilishi	Resurslar
Aktivlar qiymatining o'zgarishi: -tabiiy ofatlar natijasida; -yong'inlar sababli; -urushlar natijasida; -boshqa falokatlar natijasida.	Passivlar qiymatining o'zgarishi: -tabiiy ofatlar natijasida; -yong'inlar sababli; -urushlar natijasida; -boshqa falokatlar natijasida.

Inflyatsiya jarayonlari natijasida aktivlar va passivlarning qiymatlarining o'zgarishi **aktiv va passivlarni qayta baholash** schyotida hisobga olinadi.

Bu schyotning tuzilish sxemasi quyidagicha:

Ishlatilishi	Resurslar
Qayta baholash natijasida aktivlar qiymatining o'zgarishi	Qayta baholash natijasida passivlar qiymatining o'zgarishi

Bu schyot ko'rsatkichlari orqali institutsion sektorlar aktivlarining joriy baholardagi haqiqiy qiymati miqdorining inflyatsiya jarayonlari natijasida qanday o'zgariganligini ko'rish mumkin.

Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar

1. Schyotni tuzishdan ko'zlangan maqsad nima? Misollar bilan fikringizni asoslab bering.

2. Inflyatsiya nima? Unga misollar keltiring.

3. Kurslar o'zgarishining ta'sirida qanday aktivlar va passivlar qiymati o'zgaradi? Ularga misollar keltiring.

4. Tabiiy jarayonlar natijasida aktivlar qiymatini o'zgarishiga misollar keltiring.

5. Tabiiy jarayonlar natijasida passiv (majburiyat)lar qiymatini o'zgarishiga misollar keltiring.

6. Qaysi nomoddiy aktivlarning qiymati baholar o'zgarishi natijasida o'zgaradi? Misollar keltiring.

7. Ishlab chiqarilmagan aktivlarning qiymati baho o'zgarishlari natijasida qiymati o'zgarishi mumkinmi? Misollar keltiring.

8. Bino-inshootlarning qiymati baho o'zgarishlari natijasida qiymati o'zgaradimi?

9. Aksiyalarning qiymati qanday holatlarda o'zgarishi mumkin?

10. Naqd pullarning qiymati qanday holatlarda ko'payadi?

11. Monetar oltin qiymatini yo'qotadimi?

11. Aktivlar va passivlar balansi schyoti

YUqorida ko'rib chiqqan mavzulardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatning, shu jumladan iqtisodiyot birliklarining moliya va nomoliya aktivlarining va passivlarining miqdori hisobot davrida iqtisodiy operatsiyalar, baho va valyuta kursi o'zgarishlari, favqulodda hodisalar natijasida ko'payishi va kamayishi mumkin ekan. Bu aktiv va passivlarning ma'lum bir sanadagi holati **aktivlar va passivlar balansi** schyotida hisobga olinadi.

Schyotning tuzilish sxemasi quyidagicha:

Ishlatilishi	Resurslar
3. Moliya majburiyatlari (hisobot oxirida)	1. Nomoliya aktivlar (hisobot oxirida)
4. O'z kapitalining sof qiymati (1+2-3)	2. Moliya aktivlar (hisobot oxirida)

Bu schyot kuzatilayotgan davr boshi (yoki oxiri) holatiga tuziladi. Schyotda mavjud aktivlarning va moliya majburiyatlarining tarkibi va miqdori, hamda o'z kapitalining sof qiymati miqdori ko'rsatiladi. Aktivlar deganda, egalik huquqi tarqatilishi mumkin bo'lgan va uni ishlatish natijasida iqtisodiy manfaat olish mumkin bo'lgan iqtisodiy ob'ektlarga aytiladi. Ulardan ishlab chiqarish jarayonida foydalanish, ularni boshqalarga berib turish evaziga daromadlar (foizlar, dividendlar, ijara to'lovlari) olish mumkin va ularni jang'arish vositasi sifatida ishlatish mumkin. Ular moddiy (nomoliya) va moliyaviy bo'ladi.

Nomoliya aktivlarga ishlab chiqariladigan aktivlar, asosiy kapital (fondlar), moddiy asosiy fondlar, ishlab chiqarilmaydigan (er, o'rmonlar, konlar, suv resurslari, patentlar, ijara shartnomalari va h.k.lar) aktivlar kiradi.

Moliya aktivlariga monetar oltin, naqd pullar, qimmatbaho qog'ozlar, aksiyalar, sug'urta rezervlari, tijorat kreditlari, debitorlik va kreditorlik qarzlari va boshqalar kiradi.

Moliya majburiyatlari bir institutsion birlikning ikkinchi birlikka tovar va xizmatlarni sotganda, moliya va nomoliya aktivlarini berganda yuzaga keladi. Aktivlarni olgan birlik shartnomaga binoan o'ziga moliya majburiyatlarini olgan bo'ladi.

Institutsion sektorlar kapitalining sof qiymati uning barcha aktivlari yig'indisidan boshqa sektorlar oldidagi majburiyatlari qiymatini chegirish orqali topiladi.

Biz yuqorida keltirgan schyotlarni iqtisodiyot sektorlari bo'yicha tuzish mumkinligini e'tirof etdik. Ma'lumki, MHTda sektorlar klassifikasiyasidan tashqari tarmoq klassifikasiyasi ham mavjud. Odatda, tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarish va daromadlarning shakllanishi schyotlari tuziladi. Bu schyotlar yuqorida keltirilgan sxema va tartibda tuziladi. Rezident birliklar bilan nerezidentlar o'rtasidagi operatsiyalar tashqi dunyo sektori schyotlarida qayd etiladi.

Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar

1. Schyotni tuzishdan ko'zlangan maqsad nima? Misollar bilan fikringizni asoslab bering.

2. Valyuta kurslarini o'zgarishi deganda nimani tushunasiz? Unga misollar keltiring.

3. Kurslar o'zgarishining ta'sirida aktivlar va passivlar qiymati o'zgaradimi? Ularga misollar keltiring.

4. Tabiiy jarayonlar natijasida majburiyatlar qiymatini o'zgarishi mumkinmi? Unga misollar keltiring.

5. Tabiiy jarayonlar natijasida aktivlar qiymatini o'zgarishiga misollar keltiring.

6. Qaysi ishlab chiqarilmagan aktivlarning qiymati baholar o'zgarishi natijasida o'zgaradi? Misollar keltiring.

7. Ishlab chiqarilmagan aktivlarning qiymati valyuta kurslari o'zgarishlari natijasida qiymati o'zgarishi mumkinmi?

8. Bino-inshootlarning qiymati valyuta kursi o'zgarishlari natijasida hisobot oxiridagi qiymati o'zgaradimi?

9. Aksiyalarning hisobot boshi va oxiridagi qiymati o'zgarishi daromadmi?

10. Naqd pullarning hisobot boshi va oxiridagi qiymatining o'zgarishi daromadmi?

11. Monetar oltin qiymatining operatsiyalar natijasida ko'payishi qaysi schyotda qayd etiladi?

12. TASHQI DUNYO SEKTORI SCHYOTLARI

12.1. Milliy hisoblar tizimida tashqi iqtisodiy faoliyat schyotlari tarkibi va ularni tuzish uslublari

Hozirgi davrda har bir mamlakat iqtisodiyoti boshqa chet el mamlakatlari iqtisodiyoti bilan har tomonlama bog'lanib ketgan. SHU sababli, mamlakatda kechayotgan iqtisodiy jarayonlarda tashqi iqtisodiy faoliyat mamlakat iqtisodiyotida salmoqli o'rinni egallaydi. Masalan, O'zbekistonda oxirgi 5 yilda yaratilayotgan tovar va xizmatlarning o'rta hisobda uchdan biridan ko'prog'i (2008 yilda 39%) eksport qilinmoqda, asosiy kapitalga qo'yilgan yalpi investitsiyalarning to'rtidan biridan ko'prog'ini (2008 yilda 29%) chet el investitsiyalari tashkil qiladi, chet eldan ish haqi sifatida olinayotgan daromadlar yalpi milliy daromadning (YAMD) taxminan o'ndan birini (2008 yilda 13%) tashkil qiladi. Bundan tashqari, mamlakatimizda 4 mingdan ortiq (2009 yilning 1 yanvar holatiga 4312 chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar ro'yxatga olingan) chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

TIFning mamlakat iqtisodiyotidagi nufuzini e'tiborga olsak, uning statistikasini va hisobotini xalqaro talablar asosida tashkil qilish qanchalik dolzarb masalalardan biri ekanligini xis qilish qiyinmas. Mamlakat miqyosida TIF statistikasini va hisobotini yuritish, xalqaro andozalar talabiga ko'ra, MHT metodologiyasi va konsepsiyasi qoidalariga asosan amalga oshirilishi talab etiladi.

MHT schyotlari majmuasi yagona yopiq tizimni tashkil qiladi. YOpiqlikni ta'minlash maqsadida *milliy* va *tashqi* iqtisodiyot tushunchalari kiritilgan. Rezident birliklar birgalikda yagona birlikni, ya'ni *milliy iqtisodiyotni* tashkil qiladi. Milliy iqtisodiyot 5 ta sektorga ajratilgan. Mamlakat rezident birliklarining tashqi iqtisodiy faoliyatlarida ishtirok etuvchi norezidentlar birgalikda yagona birlik sifatida tashqi dunyo sektori sifatida qaraladi.

Milliy iqtisodiyot va *tashqi dunyo* sektorlari o'rtasida bo'ladigan iqtisodiy operatsiyalar milliy iqtisodiyot sektorlari va (yoki) tashqi dunyo sektori schyotlarida qayd etiladi. Milliy iqtisodiyot va tashqi dunyo o'rtasida bo'ladigan barcha operatsiyalar milliy iqtisodiyot sektorlari schyotlarida har doim ham yaqqol holda namoyon bo'lavermaydi. Tovarlardan va xizmatlardan eksporti va importi operatsiyalari tashqi dunyo sektori schyotlarida yaqqol holda qayd etiladi, ichki iqtisodiyot sektori schyotlarida esa, bu operatsiyalar yaqqol holda qayd etilmaydi. Masalan,

odatda eksport qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati YAİM tarkibida hisobga olingan bo'ldi. Import qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati esa oraliq yoki yakuniy iste'mol tarkibida hisobga olingan bo'ldi.

Milliy iqtisodiyot va tashqi dunyo o'rtasidagi investitsiyalar kiritish bilan bog'liq bo'lgan (mulk uchun daromadlar) va daromadlar ayirboshlash operatsiyalari (ishchi kuchi eksporti va importidan olingan va berilgan daromadlar) milliy iqtisodiyot va tashqi dunyo sektorlari schyotlarida yaqqol holda qayd etiladi.

Tashqi dunyo va ichki iqtisodiyot sektorlari o'rtasidagi operatsiyalar rezident va norezident birliklar orqali namoyon bo'ldi. SHu jihatdan, tashqi iqtisodiy operatsiyalarni hisobga olishda institutsion birliklarni rezident yoki norezident birlik ekanligini ajrata bilish muhim ahamiyatga ega bo'ldi²⁶.

Rezident va norezident o'rtasidagi operatsiyalar turli xil valyuta birliklarida amalga oshirilgan bo'ldi. Ularni yagona mezonga (yagona valyuta birligiga) keltirish uchun odatda mamlakatda amalda bo'lgan milliy valyuta birligidan foydalaniladi. Buning uchun, har bir operatsiya qiymati sodir bo'lgan vaqtdagi mavjud ayirboshlash kurslari²⁷ orqali milliy valyutaga o'tkaziladi. Agarda operatsiyalar horijiy valyutada ma'lum davr uchun guruhlangan holda hisobga olingan bo'lsa, operatsiya qiymati milliy valyutaga shu davrdagi o'rtacha valyuta ayirboshlash kurslari orqali o'tkaziladi. Bundan tashqari, har bir operatsiya haqiqatda sodir bo'lgan davrda amalda bo'lgan bozor baholaridagi qiymatida baholanadi. Operatsiyalarni qayd etishda o'tkazish usuli qo'llaniladi.

Tashqi dunyo sektori schyotlari o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan schyotlardan iborat bo'lib, ularda rezident va norezident institutsion birliklar o'rtasida bo'layotgan iqtisodiy operatsiyalar qayd etiladi. Schyotdagi yozuvlar MHTda (va xalqaro amaliyotda) qabul qilingan va har bir mamlakatning axborotga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda amalda bo'lgan tasniflar bo'yicha guruhlangan holda yozib qo'yiladi.

Hozirgi vaqtda xalqaro amaliyotda bo'lgan asosiy tasniflar qatorida quyidagilarni keltirish mumkin:

- tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar va xizmatlar ro'yxati;
- investitsiyalar tarkibi (to'g'ri va portfel investitsiyalar, kreditlar turlari);

²⁶ Rezident va norezident tushunchalari ushbu kitobning III-bobida keltirilgan

²⁷ Agarda, iqtisodiyotda yagona bozor baholaridagi ayirboshlash kursi bo'lmasa, operatsiyani milliy valyutaga o'tkazishda (va aksincha) o'zi sodir bo'lgan bozor segmentidagi ayirboshlash kurslaridan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, jismoniy shaxslar import uchun AQSH dollarini «qo'ra bozordan» harid qilgan bo'lsalar, ularning importlari qiymati «qo'ra bozor»dagi ayirboshlash kursi orqali milliy valyutaga o'tkaziladi

- iqtisodiy operatsiyalar (tovar va xizmatlar ayirboshlash, moliya va taqsimot operatsiyalari va h.k.);

- mamlakatlar va ularning guruhleri (mustaqil hamdo'stlik davlatlari (MHD), Evropa ittifoqi (EI) mamlakatlari, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo mamlakatlar, Markaziy va sharqiy Evropa mamlakatlari va h.k.)

Yuqorida keltirilgan va boshqa xalqaro amaliyotda bo'lgan tasniflar va talablar qatori har bir mamlakat axborotga bo'lgan o'z ehtiyojidan kelib chiqqan holda o'ziga xos tasnif va guruhlashlardan foydalanishi mumkin. Bunga misol tariqasida O'zbekistonda amalda bo'lgan korxonalarining ma'muriy va hududiy tasnifini, chet el mamlakatlarini guruhlash (uzoq va yaqin xorijiy, MDH va h.k.) amaliyotini keltirish mumkin.

TIF operatsiyalarini schyotlarda aks ettirishdagi umumiy qoidalar.

TIF operatsiyalarini baholashda ishlatiladigan narxlar. MHT metodologiyasiga ko'ra operatsiyalar sodir bo'lgan vaqtdagi bozor baholarida²⁸ hisoblanishi va joriy davr (oy, chorak, yil) hisobotlarida qayd etilishi talab etiladi. Lekin, amaliyotda rezident va norezidentlar o'rtasida sodir bo'ladigan operatsiyalardagi narxlar bozor baholaridan bir muncha farq qilishi mumkin. Masalan, ma'lum bir hisobot davrida O'zbekiston davlatlararo shartnoma asosida Ukrainaga gazni har bir birligini (ming kub metr) 42 AQSH dollari hisobida sotgan, boshqa mamlakatlarga esa gazning har bir birligini 45 AQSH dollari miqdorida sotgan bo'lsin. Bu operatsiyalarda gazning narxi turlicha bo'lsada, ikkala operatsiya (narx) ham bozor bahosida amalga oshirilgan deb talqin qilinadi. Bundan ko'rinib turibdiki, operatsiyalar haqiqatda amalga oshirilgan yoki shartnoma baholaridagi qiymatlarida qayd etilishi to'g'ri bo'ladi.

Shuni aytish joizki, hamma TIF operatsiyalari ham bozor bahosiga mos ravishda aniqlangan qiymatda amalga oshirilavermaydi. Bulardan amaliyotda eng ko'p uchraydiganlarini keltiramiz.

1) Barter operatsiyalari. Odatda bu operatsiyalar pul ishtirokisiz bo'ladi. Bu operatsiyalarda tomonlar o'rtasida o'zaro teng qiymatli²⁹ bo'lgan tovarlar, xizmatlar va turli aktiv (passiv)lar ayirboshlanadi. Bu operatsiyalar hajmi ko'p hollarda yuqori yoki past narxlarda baholangan bo'lishi mumkin. Bu operatsiyalarning hajmini bozor baholarida aniqlash uchun, barter tarkibiga kiruvchi tovarlar, xizmatlar va boshqa aktivlarni

²⁸ Ushbu kitobning II-bobiga qarang

²⁹ Amaliyotda «o'zaro teng qiymat» prinsipi buzilgan hollar ko'p uchraydi. Natijada bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga kapitalning noqonuniy ko'chishi sodir bo'ladi. SHu sababli, ko'p mamlakatlarda barter operatsiyalari ta'qiqlangan yoki chegaralangan bo'ladi

barter bo'lgan vaqtdagi bozor baholarida baholash kerak bo'ladi. Operatsiya hajmini baholashda ikkala tomon uchun barterning bozor baholaridagi qiymatining (eksportning importga) tengligini ta'minlash kerak bo'ladi.

2) Bir tomonning ikkinchi tomonga majburiy ravishda (qonun bilan belgilangan tartibda) to'laydigan to'lovlari. Bunga soliqlar, jarimalar, badallar to'lash kiradi. Bunday to'lovlar haqiqatdagi qiymatida qayd etiladi.

3) Bosh korxonalar bilan ularning chet eldagi nokorporativ filial (bo'linma)lari o'rtasidagi operatsiyalar. Bunday operatsiyalarda har doim ham operatsiya qiymati «bozor baholari» tamoyiliga mos tushavermaydi. Masalan, bosh korxonaga o'zining chet eldagi nokorporativ filialiga mashina va mexanizmlarni bozor bahosidan past narxlarda eksport qilgan bo'lishi mumkin. Eksport miqdori bojxona statistikasida bojxona deklarasiyasida ko'rsatilgan qiymatda qayd etiladi.

TIF operatsiyalarini qayd etish vaqti. Aslida MHT tamoyillariga ko'ra, eksport va import operatsiyalari mahsulotga egalik huquqi o'tish vaqtida qayd etilishi kerak. Lekin, statistika amaliyotida har doim ham buni ta'minlash qiyin. Hozirgi kunda, ko'pchilik mamlakatlarda tovarlar eksport va import operatsiyalari bojxona chegarasidan o'tgan vaqtda qayd etiladi. SHuni aytish kerakki ayrim tovarlar bojxona chegarasidan chetga o'tgani bilan hali sotilmagan bo'lishi mumkin. Bunday tovarlarga, misol tariqasida konsignasiya shartnomasi asosida savdo uylarida sotishga mo'ljallangan tovarlarni, shartnomaga ko'ra mahsulotni ko'rsatilgan joyga olib borilgandan keyin narxi belgilanadigan tovarlarni keltirish mumkin. SHu va shunga o'xshash hollarda, bojxona statistikasida tovar sotilgandan keyin qaytadan deklarasiya qilish orqali avval berilgan ma'lumotlarga tuzatishlar kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

TIF operatsiyalarini hisobga olishda ishlatiladigan valyuta birligi. TIF operatsiyalari haqiqatda turli xil valyuta birliklarida amalga oshiriladi. Hisobotda esa, ularni yagona valyuta birligida ifodalash lozim. MHT tashqi dunyo schyotlari ichki iqtisodiyot sektorlari schyotlari tuzilgan valyuta birligida hisoblanadi. Ma'lumki, dunyoning deyarli hamma mamlakatlarda bu schyotlar har bir mamlakatning milliy valyuta birligida tuziladi. SHuni aytish joizki, operatsiyalarni milliy valyuta birligiga o'tkazishda *valyuta o'tkazish kursi* sifatida, operatsiya sodir bo'lgan kundagi ayirboshlash kurslaridan foydalanish kerak. Agarda, buning iloji bo'lmasa, o'rtacha oylik (choraklik) ayirboshlash kurslardan foydalanish tavsiya etiladi.

MHTda tashqi dunyo sektori schyotlari tarkibi. MHT schyotlari tuzilishiga ko'ra mantiqan yopiq yagona tizimni tashkil qiladi. Tizimdagi yopiqlik tashqi dunyo schyotlari orqali ta'minlanadi. Tashqi dunyo schyotlarida milliy iqtisodiyot yagona birlik sifatida ifodalanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat natijasida nafaqat milliy iqtisodiyot (rezident birliklar) balki tashqi dunyo sektori (nerezident birliklar) aktivlarida va passivlarida ham mos o'zgarishlar bo'ladi. Bu o'zgarishlar tashqi dunyo schyotlarida qayd etiladi.

Tashqi dunyo schyotlari orqali milliy iqtisodiyot aktivlarining va passivlarining hisobot davrida qanchaga ko'payganligini yoki kamayganligini bilish mumkin.

Tashqi dunyo sektori bo'yicha *tovarlar va xizmatlar, birlamchi daromadlar taqsimoti, joriy transfertlar taqsimoti, kapital operatsiyalar va moliya* schyotlari tuziladi. Bu schyotlar bir-biri bilan mantiqan bog'liq bo'lib, yagona bir zanjirni hosil qiladi.

MHT tashqi dunyo schyotlari yozilish shakli T ko'rinishida bo'lib, ikki qismdan iborat. Har bir schyotning o'ng qismida tashqi iqtisodiy faoliyat natijasida resurs sifatida kirib kelgan aktivlar miqdori qayd etiladi. Schyotning chap tomonida esa mavjud resurslarning nimaga ishlatilganligini ifoda etuvchi operatsiyalar natijalari qayd etiladi.

Shuni aytish joizki, tashqi dunyo barcha schyotlari nerezident nuqtai nazaridan tuziladi. Bunga ko'ra, schyotning resursida nerezidentlarning resurs sifatida olgan aktivlari yoziladi. Resurs ko'rsatkichlari mos ravishda rezident mamlakat uchun ishlatilishi bo'ladi yoki aksincha. Schyotning musbat saldosi tashqi dunyo uchun ijobiy, rezident mamlakat uchun salbiy bo'ladi. Va aksincha, saldo manfiy bo'lsa rezident mamlakat uchun ijobiy, tashqi dunyo uchun salbiy holat hisoblanadi.

Tashqi dunyo schyotlarini tuzish tartibiga ko'ra, har bir schyotda muvozanatlashtiruvchi ko'rsatkich bor. Shu sababli, schyotlarning o'ng va chap tomonlari bir-biriga teng bo'ladi. Ularning tuzilishi tartibi, ko'rsatkichlarining tarkibi va mazmunini, ulardan iqtisodiy tahlilda foydalanish usullarini keyingi mavzularda mufassalroq ko'rib chiqamiz.

12.2. Tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyoti

Tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyotida rezident va nerezident birliklar o'rtasidagi tovar va xizmatlar ayirboshlash operatsiyalari qayd etiladi. Schyotni tuzishdan ko'zlangan asosiy maqsad, mamlakat iqtisodiyotining chet el mamlakatlari bilan bo'lgan tovarlar va xizmatlar

ayirboshlash natijasida mamlakatga kirib kelgan (yoki chiqib ketgan) resurslar ko'lamini bilishdan iborat.

Schyotning umumiy tuzilish sxemasi quyidagicha:

Tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
A. Tovarlar va xizmatlar eksporti	V. Tovar va xizmatlar importi
shu jumladan:	shu jumladan:
-tovarlar	- tovarlar
-xizmatlar	- xizmatlar
S. Tovarlar va xizmatlar saldosi (S=V-A)	

Schyotda operatsiyalar norezident nuqtai nazaridan qayd etiladi. Bunga ko'ra, cchyotning *resurslar* tarafida norezidentlarning rezidentlar (O'zbekiston)dan olgan iqtisodiy qiymatlari, ya'ni O'zbekistonning «tashqi dunyo»ga import qilgan tovarlar va xizmatlari miqdori yoziladi. Cchyotning *ishlatilishi* tarafida norezidentlarning rezidentlarga bergan iqtisodiy qiymatlari, ya'ni O'zbekistonning «tashqi dunyo»ga qilgan eksporti miqdori yoziladi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda O'zbekistonning tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyotini quyidagi ko'rinishda yozish mumkin.

O'zbekistonning tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
A. O'zbekistonning tashqi dunyoga eksporti, ja'mi shu jumladan:	V.O'zbekistonning tashqi dunyodan importi, ja'mi shu jumladan:
- tovarlar eksporti	- tovarlar importi
- xizmatlar eksporti	- xizmatlar importi
S. Tovarlar va xizmatlar saldosi (S=V-A)	

Tovarlar eksporti va importi FOB (chegara) baholarida hisoblanadi (1 sharxga qarang). Bunday baholash usulini amalda qo'llash savdo balansini va xizmatlar balansini³⁰ to'g'ri baholashga imkon beradi. Bu ko'rsatkichlar orqali, biz mamlakatdan chiqib ketayotgan (yoki kirib kelayotgan) tovarlarning va xizmatlarning haqiqiy miqdorini aniqlay olamiz.

Schyotning *tovarlar va xizmatlar saldosi* ko'rsatkichi schyotning resurs tomonida keltirilgan ko'rsatkichlar yig'indisidan ishlatilishi tomonidagisini ayirish orqali topiladi. Bu ko'rsatkich mazmuniga ko'ra,

³⁰ MHTda savdo balansini deganda tovarlar eksporti va importi sal'dosi tushuniladi. Xizmatlar balansini deganda esa, xizmatlar eksporti va importi sal'dosi tushuniladi. Sal'donu topish uchun eksportdan import ayiriladi.

tovarlar va xizmatlar ayirboshlash operatsiyalari bo'yicha O'zbekiston rezident institutsion birliklarining norezidentlardan olgan yoki bergan *sof iqtisodiy qiymatlari* hajmini ifodalaydi. Tovarlar va xizmatlar saldosingin musbat ishorali bo'lishi tashqi dunyoning O'zbekistondan (tovarlar va xizmatlar ko'rinishida) olgan sof resurslari miqdorini bildiradi, aks holda esa, tashqi dunyoning O'zbekistonga bergan resurslarning sof miqdorini ifoda etadi. Boshqacha qilib aytganda, saldongin musbat bo'lishi tashqi dunyo uchun aktiv (ijobiy) saldo hisoblanadi, rezident mamlakat (O'zbekiston) uchun esa passiv (salbiy) saldo hisoblanadi. Agarda saldo manfiy bo'lsa teskarisi bo'ladi.

Schyotni tuzishda har bir mamlakat axborotga bo'lgan o'z ehtiyojidan kelib chiqqan holda eksport va import operatsiyalarini mamlakatda qabul qilingan tovarlar va xizmatlar tasnifi asosida qayd etadi. Schyot ko'rsatkichlari milliy valyuta birligi «so'm»da qayd etiladi.

O'zbekistonda amalda bo'lgan TIF statistikasi tizimi axborot bazasi «tashqi dunyo» tovarlar va xizmatlar schyotini amalda bo'lgan *TIF tovarlar ro'yxati* (TIFTR) va xizmatlar ro'yxati (TIFXR) bo'yicha tuzish imkonini yaratadi. Statistika amaliyotida bu tasniflarga asosan qayd etiladigan tovarlar va xizmatlar soni juda ko'p bo'lganligi uchun, tovar va xizmatlarni guruhlangan holda qayd etish tavsiya etiladi. Bu guruhlashda tovar yoki xizmatning turi eksport yoki import miqdoridagi salmog'iga qarab, katta ulushga ega bo'lgan tovar yoki xizmatlar (yoki ularning guruhlari) turlari tanlab olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekistonning *Tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar* schyotini tuzishda 2-sharhda keltirilgan tovarlar va xizmatlar tasnifidan foydalanish tavsiya etiladi. Bu tasnif O'zbekistonning oxirgi besh yildagi tovarlar eksporti va importi hajmlari tarkibini tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan.

Bu tasniflarda keltirilgan alohida tovarlar va ularning guruhlari O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatida muhim o'rin tutadi. Jumladan, eksport va import hajmlarida tasnifda keltirilgan tovarlarning ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Masalan, 2010 yilda umumiy eksportda paxta va undan tayyorlangan mahsulotlarning ulushi 14,7 foizni (shundan paxta tolasi 11,3%), energetika va yoqilg'i mahsulotlari 24,8 foizni, mashina va uskunalar 5,5 foizni, qora va rangli metal va ulardan tayyorlangan mahsulotlar ulushi 6,8 foizni, oziq-ovqatlar 9,72 foizni va ximiya mahsulotlari 5,1 foizni tashkil qilgan.

Tovarlar importida iqtisodiyotni yanada rivojlanishiga turtki bo'ladigan va asosiy vosita hamda butlovchi material sifatida mamlakatga kirib kelayotgan mashina va uskunalarining (44,1%), qora metal va undan

tayyorlangan mahsulotlarning (8,4%) hamda ximiya mahsulotlarining (5,9%) ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Mamlakatimizda iste'mol tovarlarini ko'paytirishga qaratilgan tadbirlar natijasida oziq-ovqat tovarlarining ulushi (2010 yilda 10,9%, 1998 yilda 14.9% bo'lgan) yildan yilga kamayib bormoqda.

O'zbekistonda xizmatlar eksportida transport, kommunikasiya va turizm xizmatlarining ulushi katta miqdorni tashkil qiladi. Importda esa transport, kommunikasiya, moliya va sug'urta xizmatlari ulushi boshqa xizmat turlariga nisbatan yuqori bo'lgan. 2010 yilda umumiy eksportda xizmatlar ulushi 9.1 foizni, importda esa – 4.7 foizni tashkil qilgan.

Schyot ko'rsatkichlarining bu tasnif orqali berilishi tashqi iqtisodiy faoliyatda bo'layotgan jarayonlarni qanday kechayotganligini bilishga, ularning dinamikada rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishga va bu sohada mavjud kamchiliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

1-sharh. Eksport va import operatsiyalarini baholashga oid tushunchalar

Odatda, TIF statistikasida tovarlar eksporti FOB (chegara), import esa CIF (chegara) baholarida qayd etish tavsiya etilgan. MHT va to'lov balansi qoidalariga ko'ra tovarlar eksporti va importi qiymatlarini FOB (chegara) baholarida hisoblanishi va qayd etilishi talab etiladi. Chunki, savdo balansi odatda FOB (chegara) baholarida hisoblanadi. Bu holat mamlakatlararo tovar ayirboshlash jarayonini aniqroq ifoda etishga imkon beradi. Tovarlarni bilan xizmatlarning CIF (chegara) baholarida aralash holda ifodalanishi mamlakatlararo va dunyo miqyosida tovar ayirboshlash jarayonini buzib ko'rsatadi. Bundan tashqari, bu holat mamlakat miqyosida ham tovarlar iste'molini buzib ko'rsatadi. Masalan, O'zbekistonga shakar asosan import orqali kirib keladi. 1 kg shakarning dunyo bozorida (masalan Kubadagi) FOB bahosi 20 sent bo'lsin. Bu tovarni O'zbekistonga keltirguncha tashish, sug'urta, ortish va tushirish xarajatlari har kilogramm shakarga 5 sent bo'lsin. Bir kishi o'rtacha yil davomida 30 kg shakar iste'mol qilsin. Agarda kishi boshiga to'g'ri keladigan shakar qiymatini hisoblasak, har ikkala mamlakat (Kuba va O'zbekiston)da ham FOB baholaridagi shakarning qiymati taxminan teng ($30 \cdot 20 = 600$ sent) bo'ladi. CIF baholarida esa, Kubada 600 sent, O'zbekistonda esa 750 sent bo'ladi. Bu esa shakar iste'molini qiymat ko'rsatkichlari orqali tahlil qilishda chalkashlikni keltirib chiqaradi. Keltirilgan misoldan ko'rinib turibdiki, tovarlar eksporti va importini FOB baholarida hisoblanishi iqtisodiy tahlilda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu masalaga dunyo miqyosida yondashsak, aslini olganda butun dunyo mamlakatlari miqyosida tovarlar eksporti va importi (ular to'g'ri hisoblangan bo'lsa) bir-biriga teng bo'lishi kerak. Bu tenglik faqat FOB baholarida hisoblangan bo'lsagina yuzaga keladi. Shu sababli, xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari eksport va import operatsiyalarini tovarlar va xizmatlar bo'yicha alohida-alohida hisoblashni va tovarlarni FOB baholarida qayd etishni tavsiya qiladilar.

2-sharh

O'zbekistonning tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyotida ishlatiladigan tovarlar va xizmatlar tasnifi

Jami eksport	Jami import
A. Tovarlar hammasi	A. Tovarlar hammasi
1. Paxta mahsulotlari shu jumladan: paxta tolasi paxta tolasidan tayyorlangan mahsulotlar boshqalar.	1. Mashina va uskunalar shu jumladan: -mexanik uskunalar; -elektr uskunular I. avtomobillar II. uchish apparatlari va uning qismlari III. traktorlar va uning qismlari IV. teleradio apparatlari V. boshqalar.
2. Nomonetar oltin	2. qora metal va undan tayyorlangan mahsulotlar
3. Oziq-ovqat mahsulotlari shu jumladan: mevalar sabzavotlar qayta ishlangan qishloq xo'jalik mahsulotlari boshqalar.	shu jumladan: VI. Tayyor mahsulotlar (TIFTR, 72 xos raqamga kiruvchi tovarlar) ³¹ VII. qayta ishlanadigan mahsulotlar (TIFTR, 73) VIII. mis mahsulotlari (TIFTR,74)
4. Ximiya mahsulotlari shu jumladan: mineral o'g'itlar polietilin kimyoviy tolalar farmasevtika mahsulotlari boshqalar.	3. Rangli metal va undan tayyorlangan mahsulotlar shu jumladan: IX. mis mahsulotlari (TIFTR, 74) X. alyumin mahsulotlari (TIFTR, 76) XI. boshqalar
5. Energetika va yoqilg'i mahsulotlari shu jumladan: tabiiy gaz benzin, kerosin qayta ishlanmagan neft' elektroenergiya	4. Ximiya mahsulotlari shu jumladan: XII. mineral o'g'itlar XIII. polietilin

³¹ Ushbu va keyingi bamlarda ham Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasida amalda bo'lgan Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar ro'yxati (TIFTR)dagi ko'rsatilgan xos raqamga kiruvchi tovarlar nazarda tutilaydi

boshqalar. 6. Qora metal va undan tayyorlangan mahsulotlar 7. Rangli metal va undan tayyorlangan mahsulotlar shu jumladan: mis mahsulotlari sink mahsulotlari alyumin mahsulotlari boshqalar 8. Mashina va uskunalar shu jumladan: avtomobillar uchish apparatlari va uning qismlari traktorlar va uning qismlari teleradio apparatlari boshqalar. 9. Boshqa tovarlar (1-8 ga kirmagan)	XIV. kimyoviy tolalar XV. farmasevtika mahsulotlari XVI. boshqalar. 5. Oziq-ovqat mahsulotlari shu jumladan: XVII. shakar XVIII. bug'doy uni XIX. go'sht mahsulotlari XX. boshqalar. 6. Boshqa tovarlar(1-5 ga kirmagan)
V. Xizmatlar hammasi	V. Xizmatlar hammasi
1. Transport xizmatlari - temir yo'l transporti xizmati; - aviasiya transporti xizmati; - avtomobil transporti xizmati; - trubadan o'tkazish xizmati 2. Sayyohlik (turizm) 3. Boshqa xizmatlar	Transport xizmatlari XXI. temir yo'l transporti xizmati XXII. aviasiya transporti xizmati XXIII. avtomobil transporti xizmati XXIV. trubadan o'tkazish xizmati Sayyohlik (turizm) Boshqa xizmatlar

12.3. Tashqi dunyo birlamchi daromadlar schyoti³²

Bu schyotda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish natijasida yaratilgan daromadlarning tashqi dunyo va ichki iqtisodiyot sektorlari o'rtasida birlamchi daromad sifatida taqsimlanishi jarayoni ko'rsatiladi. *Birlamchi daromad deganda rezident va norezident institutsion birliklarning ishlab chiqarishda qatnashganliklari va ishlab chiqarishda o'z aktivlarini ishlatganliklari uchun olishlari lozim bo'lgan daromadlar tushuniladi.* Birlamchi daromadlar bilan bog'liq ta'rif va tushunchalar 3-sharhda keltirilgan.

Mamlakatda tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonida rezident institutsion birliklar bilan bir qatorda norezident institutsion

³² Ko'pchilik adabiyotlarda [10,15] tashqi dunyo birlamchi daromadlar va joriy transfertlar taqsimoti schyotlari birgalikda bitta schyot ko'rinishida keltirilgan. Bu erda o'quvchiga oson va soddaroq holda tushunarli bo'lishini nazarda tutib uni ikkita schyot ko'rinishida keltirildi

birliklar qatnashishi mumkin. Shu sababli, ichki iqtisodiyot sektorlari - rezidentlar bilan bir qatorda tashqi dunyo sektori – norezidentlar ham tegishli ravishda birlamchi daromadlarga ega bo'ladilar.

Tashqi dunyo sektori va mamlakat ichki iqtisodiyot sektorlari o'rtasida birlamchi daromad sifatida mehnat haqi, bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar va subsidiyalar hamda mulk uchun daromadlar ayirboshlanishi mumkin. Bu ayirboshlashuv operatsiyalari natijalari tashqi dunyo birlamchi daromadlar taqsimoti schyotida qayd etiladi.

Schyotning umumiy tuzilish sxemasi quyidagicha:

O'zbekistonning tashqi dunyo birlamchi daromadlar taqsimoti schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
1. O'zbekistonning norezidentlardan olgan mulk uchun daromadlari miqdori shu jumladan: - foizlar; - dividendlar; - renta	4. O'zbekistonning norezidentlarga to'lagan mulk uchun daromadlari miqdori shu jumladan: - foizlar; - dividendlar; - renta
2. O'zbekistonning norezidentlardan olgan mehnat haqlari miqdori shu jumladan: - ish haqi; - sotsial sug'urta	5. O'zbekistonning norezidentlarga to'lagan mehnat haqlari miqdori shu jumladan: - ish haqi; - sotsial sug'urta
3. O'zbekistonning norezidentlardan olgan bevosita ishlab chiqarish uchun sof soliqlari miqdori shu jumladan: - bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar; - bevosita ishlab chiqarish uchun subsidiyalar(-)	6. O'zbekistonning norezidentlarga to'lagan bevosita ishlab chiqarish uchun sof soliqlari miqdori shu jumladan: - bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar; - bevosita ishlab chiqarish uchun subsidiyalar (-)
A. O'zbekistonning norezidentlardan olgan jami birlamchi daromadlari miqdori =1+2+3	V. O'zbekistonning norezidentlarga to'lagan jami birlamchi daromadlari miqdori=4+5+6
<i>Birlamchi daromadlar saldosi =V-A</i>	

Schyot norezident nuqtai nazaridan tuzilgani sababli, schyotning ishlatilishi tarafida O'zbekiston rezident institutsion birlik (ichki iqtisodiyot sektor)larining norezidentlar (tashqi dunyo)dan birlamchi

daromad sifatida olgan daromadlari qiymati qayd etiladi. Boshqacha qilib aytganda, norezident birliklarning O'zbekistonning rezident birliklariga birlamchi daromad sifatida bergan to'lovlari tushuniladi. Resurs tarafida esa, aksincha, ya'ni O'zbekiston uchun norezident bo'lgan institutsion birliklar (tashqi dunyo sektori)ga O'zbekiston rezident institutsion birlik (ichki iqtisodiyot sektor)lari tomonidan birlamchi daromad sifatida bergan daromadlari qiymati yoziladi. Quyida bu daromadlar tarkibi va mazmunini yoritishga harakat qilamiz.

Umuman aytganda ***mulk uchun daromad*** deganda, institutsion birliklarining o'ziga qarashli bo'lmagan mulklaridan o'z faoliyatlarida foydalanganliklari uchun to'lagan va o'zlariga qarashli bo'lgan mulklaridan boshqa institutsion birliklar foydalanganliklari uchun olgan daromadlari tushuniladi. Mulk uchun daromadlar foiz to'lovlari, dividendlar, sug'urta polisi egalarining mulk uchun daromadlari va renta ko'rinishlarida bo'lishi mumkin.

O'zbekiston rezident institutsion birliklarining norezidentlar (tashqi dunyo)dan olgan foiz, dividend, sug'urta polisi egalarining mulk uchun daromadlari va renta ko'rinishidagi daromadlari tashqi dunyo birlamchi daromadlar taqsimoti schyotining resurs tarafida qayd etiladi. Bu daromadlar qaysi ichki iqtisodiyot sektori olganiga qarab, mos ravishda birlamchi daromadlar taqsimoti schyotining resurs qismida qayd etiladi.

O'zbekiston rezident birliklarining norezidentlar (tashqi dunyo)ga bergan foiz, dividend, sug'urta polisi egalarining mulk uchun daromadlari va renta ko'rinishidagi daromadlari schyotning ishlatilishi tarafida qayd etiladi. Bu daromadlar qaysi ichki iqtisodiyot sektori tomonidan berilganiga qarab, mos ravishda birlamchi daromadlar taqsimoti schyotining ishlatilishi qismida qayd etiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, uy-joy va ishlab chiqarish maydonlari (joylari)ni ijaraga berganligi uchun olinadigan ijara haqi mulk uchun daromad sifatida talqin etilmaydi. Bunday hollarda, ijara haqi - xizmat uchun to'lov sifatida qaraladi. Bu operatsiyalar rezident va norezident birliklar o'rtasida sodir bo'lgan bo'lsa, ular xizmatlar eksporti yoki importi sifatida qaraladi.

Mamlakatda ichki iqtisodiyot sektorlari bir-birlariga mulk uchun daromadni to'laganlari va olganlari uchun, umumiy to'langani olinganiga teng bo'lib, mamlakat ichida mulkdan olingan sof daromadlar yig'indisi nolga teng bo'ladi. Mamlakat rezident va norezident birliklarning olgan va bergan mulk uchun daromadlar saldosi – musbat ishorali bo'lsa

mamlakatning tashqi dunyodan olgan (saldo manfiy bo'lsa tashqi dunyoga bergan) mulk uchun sof daromadi deb ataladi.

Mehnat haqi – rezident (nerezident) institutsion birliklarning nerezident (rezident) institutsion birliklarga yollanma ishchi sifati ishlaganliklari uchun ularga to'lanishi lozim bo'lgan qiymatdan iborat. Mehnat haqi bevosita ishchiga to'lanadigan ish haqi va sotsial sug'urta to'lovlaridan iborat. Ishchi kuchini eksport (import) qilishni tashkil qilishda qatnashgan tashkilotlarning oladigan ulushlari (xizmat haqlari) mehnat haqi hisoblanmaydi va mos ravishda xizmatlar eksporti yoki importi sifatida qayd etiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, rezident ishchilar bir yildan ortiq muddatga chet elga ketsalar, ular ishlayotgan mamlakatlarning rezidentiga, ya'ni o'z mamlakatlari uchun nerezidentga aylanadilar. Shu sababli, ularning o'z mamlakatlariga jo'natayotgan pullari birlamchi daromad hisoblanmaydi va mehnat haqi sifatida qayd etilmaydi. Bunday pul jo'natishlar joriy transfertlar hisoblanadi va tashqi dunyo joriy transfertlar taqsimoti va ichki iqtisodiyot daromadlarni qayta taqsimlash schyotlarida qayd etiladi.

Bu schyotning resurs tarafidagi *mehnat haqi* ko'rsatkichi mamlakatdagi barcha rezident yollanma ishchilarning (mamlakat ichida va tashqarisida) nerezident institutsion birliklardan (korxonalarda va uy xo'jaliklarida ishlab chiqarishda ko'rsatgan faoliyatlari natijasida) olishlari lozim bo'lgan mehnat haqlarining yig'indisidan iborat. Schyotning ishlatilishi tarafidagi *mehnat haqi* ko'rsatkichi esa mamlakatdagi barcha rezident institutsion birliklar (korporatsiyalar va uy xo'jalik)larning nerezident yollanma ishchilarga to'lashlari lozim bo'lgan mehnat haqlarining yig'indisidan iborat bo'ladi.

Rezident va nerezident institutsion birliklar tomonidan davlat sektoriga (qonun bilan belgilangan tartibda) to'lanadigan va o'rni qoplanmaydigan majburiy to'lovlarga **solliqlar** deb ataladi. Ushbu schyotda birlamchi daromad sifatida **bevosita ishlab chiqarish uchun solliqlar va subsidiyalar** operatsiyalari qayd etiladi.

Schyotning resurs tarafida, O'zbekiston rezident institutsion birliklarining nerezidentlardan olishi lozim bo'lgan bevosita ishlab chiqarish uchun *solliqlari* plyus ishora bilan qayd etiladi. O'zbekistonning nerezidentlarga bergan bevosita ishlab chiqarish uchun *subsidiyalari* esa minus ishora bilan qayd etiladi. Nerezidentlardan olingan solliqlar va ularga to'langan subsidiyalari yig'indisi (agarda u musbat bo'lsa) O'zbekistonning nerezidentlardan olgan *sof solliqlarini* tashkil qiladi.

Schyotning ishlatilishi tarafida O'zbekiston rezident birliklarining norezidentlarga to'lagan bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlari plyus ishora bilan qayd etiladi. Norezident institutsion birliklarning rezidentlarga to'lagan bevosita ishlab chiqarish uchun subsidiyalari esa minus ishora bilan qayd etiladi. O'zbekistonning chet elga bergan soliqlari va chet eldan olgan subsidiyalari yig'indisi norezidentlarga to'lagan *sof soliqlarini* tashkil qiladi. Olingan va to'langan sof soliqlar musbat yoki manfiy ishorali bo'lishi mumkin. Schyotning resurs tarafida sof soliqning musbat bo'lishi O'zbekistonning resursi ko'payganligini (manfiy bo'lsa kamayganligini) bildiradi. Schyotning ishlatilishi tarafidagi sof soliqning musbat bo'lishi norezidentlarning resursi ko'payganligini (manfiy bo'lsa kamayganligini) bildiradi.

Schyotning resurs tarafidagi *sof soliqlardan* schyotning ishlatilishi tarafidagi *sof soliqlarni* ayirganda hosil bo'lgan miqdor musbat bo'lsa, O'zbekiston bevosita ishlab chiqarish soliqlardan birlamchi daromad sifatida sof daromad olgan hisoblanadi. Aks holda, ushbu band bo'yicha, O'zbekiston chet elga sof daromad bergan hisoblanadi.

Schyotning resurs tarafida keltirilgan O'zbekistonning norezidentlardan olgan jami birlamchi daromadlari miqdori ko'rsatkichi O'zbekistonning norezidentlardan birlamchi daromad sifatida olgan daromadini bildiradi. Schyotning ishlatilishi tarafida keltirilgan O'zbekistonning norezidentlarga bergan jami birlamchi daromadlari miqdori ko'rsatkichi esa O'zbekistonning norezidentlarga birlamchi daromad sifatida bergan daromadlari miqdorini ifoda etadi. O'zbekistonning norezidentlardan olgan birlamchi daromadlaridan norezidentlarga to'langanini ayirsak ***tashqi dunyo birlamchi daromadlar saldosiga (TDBDS)*** ega bo'lamiz. Bu ko'rsatkich musbat bo'lsa O'zbekistonning chet eldan birlamchi daromad sifatida olgan sof daromadini bildiradi. Aksincha, bu ko'rsatkich manfiy bo'lsa, O'zbekiston rezident birliklarining chet elga (norezidentlarga) birlamchi daromad sifatida to'lagan sof to'lovlarini ifoda etadi.

TDBDS ko'rsatkichi MHTda muhim agregatlardan biri bo'lgan ***Yalpi milliy daromad (YAMD)***ni hisoblashga imkon beradi. YAMD mamlakatda yaratilgan YAIM va chet eldan olingan sof birlamchi daromadlar yig'indisidan iborat, ya'ni $YAMD = YAIM + TDBDS$ formula o'rinli bo'ladi. Agarda, TDBDS musbat bo'lsa, YAMD YAIMdan shunchaga ko'p bo'ladi. TDBDS manfiy bo'lsa, YAMD YAIMdan shunchaga kam bo'ladi.

Milliy daromad agregatini yalpi va sof usullarda hisoblash mumkin³³. Agarda yalpi ichki mahsulotni sof usulda hisoblab, topilgan sof ichki mahsulot (SIM)ga TDBDSni qo'shsak *sof milliy daromad* (SMD) ko'rsatkichiga ega bo'lamiz.

Yuqorida bayon qilingan fikrlarga ko'ra, YAIM (SIM) va YAMD (SMD) ko'rsatkichlari mamlakat rezident birliklarining chet eldan olgan sof daromadlariga farq qilishini bilish qiyin emas.

Odatda rivojlanayotgan mamlakatlarning YAMD ko'rsatkichi YAIM ko'rsatkichidan kichik, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda esa aksincha bo'ladi. Chunki rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlarga moliya kiritib, shu mamlakatning YAIMni yaratishda qatnashadilar va foizlar hamda dividendlar ko'rinishida birlamchi daromadlar oladilar. Bu esa, daromadlar oluvchi mamlakatning YAMDni ko'paytiradi, daromad beruvchi mamlakatning YAMD esa - shu miqdorga kamayadi. Bundan tashqari, mamlakatlar ishchi kuchini eksport qilish, er va konlarni ijaraga berish orqali mehnat haqi va renta ko'rinishida birlamchi daromad olib, yalpi milliy daromadlarini ko'paytiradilar. YAMDni aholi soniga bo'lish orqali jon boshiga hisoblangan YAMD ko'rsatkichini topib, bu ko'rsatkichdan aholi turmush darajasining o'zgarishini tahlil qilishda foydalanish mumkin.

Schyotda ko'rsatkichlar o'tkazish usulida (kassa usulida emas) qayd etiladi. Hayotda esa, har doim ham to'lovlar o'z vaqtida bo'lavermaydi. Masalan, mehnat haqi, foiz to'lovlari bir necha kun va oylab kechikib berilishi mumkin. Bunday holatlarda, birlamchi daromadlar taqsimoti schyotida mehnat haqi, foiz to'lovlarini to'lash qancha miqdorda lozim bo'lsa, shuncha miqdorda qayd etiladi. To'lanmagan qismi esa, tashqi dunyo moliya schyotida, mos ravishda debitorlik yoki kreditorlik qarzi sifatida qayd etiladi.

3-sharh. Birlamchi daromadlar bilan bog'liq ta'rif va tushunchalar

Tashqi dunyo va ichki iqtisodiyot o'rtasida birlamchi daromadlar ayirboshlash operatsiyalari rezident va norezident institutsion birliklar o'rtasida ham yuzaga kelishi mumkin.

Mulk uchun daromad.

Rezident institutsion birliklar o'zlariga qarashli bo'lgan moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarini norezident birliklarga berishlari evaziga tashqi dunyodan daromad oladilar yoki aksincha norezident institutsion birliklar

³³ YAIMdan asosiy kapitalning iste'molini ayusak SIM ko'rsatkichiga ega bo'lamiz

o'zlariga qarashli bo'lgan moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarini rezident birliklarga berishlari evaziga tashqi dunyodan daromad oladilar. MHTda bu daromad – mulk uchun daromad deb yuritiladi.

Mulk uchun daromadlar tarkibiga foiz to'lovlari, dividendlar, sug'urta polisi egalarining mulk uchun daromadlari va renta.

Foiz to'lovlari - bir institutsion birlik ikkinchi institutsion birlikka o'z mablag'larini vaqtinchalik qarzga berganda yuzaga keladi. Odatda bu *qarzar* tijorat kreditlari, qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlar, moliyaviy lizing operatsiyalari ko'rinishida bo'ladi.

Tijorat kreditlari tarkibiga tovar va xizmatlarni ayirboshlash vaqtida mahsulotni yetkazuvchi tomonidan mahsulotni oluvchiga bevosita berilgan kreditlar, oluvchi tomonidan mahsulot uchun avvaldan avans (bo'nak)lar to'lash natijasida tomonlar o'rtasida paydo bo'ladigan talablar va majburiyatlar kiradi.

Qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlar tarkibiga kreditorning shartnoma asosida qarzdor (qarz oluvchi)ga shartnomada ko'rsatilgan shart va muddatga bergan pul mablag'lari, kreditor tomonidan qarzdorning savdo bitimlarini (ishlarini) moliyalashtirishi hamda xalqaro moliya tashkilotlari va valyuta fondi tomonidan berilgan kreditlar kiradi. Kreditlar bevosita moliya mablag'larini berish (kredit liniyalari orqali) va moliyaviy lizing shartnomalari asosida amalga oshiriladi. Moliyaviy lizing shartnomalariga ko'ra oluvchi beruvchiga olinayotgan aktivning qiymatini shartnomada ko'rsatilgan davrlarda bo'lib-bo'lib to'laydi. Bu operatsiyani mohiyatiga ko'ra, aktivni beruvchi tomonidan oluvchining xarajatlarini moliyalashtirganligiga qiyoslash mumkin. Bunday operatsiyalar odatda ishlab chiqarish vositalarini olish (berish)da yuzaga keladi. Masalan, samolyotlar, traktorlar, avtobuslar va shu kabi tovarlar ko'p hollarda moliyaviy lizing shartnomalari asosida amalga oshiriladi. Misol uchun, O'zbekiston («O'zbekiston havo yo'llari» kompaniyasi) chet eldan Boing rusumidagi samolyotlarni, Keys traktorlarini moliyaviy lizing shartnomalari asosida sotib olgan. Kredit sifatida olingan qarzar uchun to qarz uzulguncha kredit va moliyaviy lizing shartnomalarida ko'rsatilgan muddatlarda va miqdorda foiz va qarzni uzish to'lovlari to'lab turiladi.

Yuqorida keltirilgan foiz to'lovlari yuzaga keladigan holatlardan tashqari, qimmatli qog'ozlarni (aksiyalardan tashqari) qaytib sotib olish (REPO) shartnomalari ham qarzar berish (olish) operatsiyalari sanaladi. Bu operatsiyalarda qimmatli qog'ozlarni sotish va qaytib sotib olish narxlari o'rtasida farq bo'ladi. Bu farq asosida yuzaga kelgan qiymat qimmatli

qog'ozning egasi uchun foiz to'lovi va qimmatli qog'ozni oluvchi uchun olingan foizlar sifatida tasniflanadi.

Dividendlar deganda, aksioner institutsion birliklarning o'z mablag'larini korporatsiyalar ixtiyoriga berib qo'yish natijasida ushbu korporatsiyalardan olgan daromadlariga aytiladi. Dividendlar mablag'larni berib qo'yish turlariga qarab har xil bo'ladi. Masalan, aksioner birlik o'z mablag'lariga boshqa korxonaning 10%dan kam aksiyasini sotib olgan bo'lsa, u portfel investor hisoblanadi. Agarda korxonalar chorak, yil yakunlariga ko'ra har bir aksiyaga daromad to'lasa, aksiyadorlar o'z aksiyalari uchun ma'lum daromadga ega bo'lishlari mumkin. Bu olingan daromad portfel investitsiyalardan olingan dividendlar deb ataladi. Agarda aksiyador to'g'ri investor (korxonaning 10%dan ortiq aksiyasiga ega) bo'lsa olgan daromadlari to'g'ri investitsiyalardan olingan dividendlar deb ataladi.

Sug'urta polisi egalarining mulk uchun daromadlari. Sug'urta kompaniyalari fuqarolarning hayotini sug'urta qiladilar. Natijada yig'ilgan mablag'lar investitsiya sifatida ishlatilib evaziga ma'lum bir daromad keltiradilar. Sug'urta kompaniyalarining bu daromadlari (aslida sug'urta qilingan fuqarolarning mablag'lari evaziga kelgani uchun va MHT qoidalariga ko'ra) uy xo'jaligi sektorining mulkdan olgan daromadi sifatida talqin qilinadi. Chunki, bu mablag'lar provardida sug'urta polisiga ega bo'lgan fuqarolarga sug'urta mukofoti sifatida beriladi.

Renta – mulk uchun daromadning bir turi bo'lib, bu daromad bir institutsion birlikning boshqa birlikka o'ziga tegishli bo'lgan ishlab chiqarilmagan aktivlari (er va konlar)ni foydalanishga berishi evaziga oladigan daromadlaridan iborat. Renta ikki xil bo'ladi: er uchun renta va kon uchun renta.

Er uchun renta deb, er egasining erini arendatorga ma'lum bir muddatga foydalanishga berishi evaziga oladigan daromadiga aytiladi. Renta er egasiga arenda muddati tugaguncha daromad keltiradi. Uning miqdori (bir varakayiga yig'ib to'lansa ham) hisobot davrida to'lanishi lozim bo'lgan summadan iborat bo'lib, har bir hisobot davri uchun alohida qayd etib boriladi. Renta naqd pul yoki natura holda to'lanishi mumkin.

Kon uchun renta deb, kon egasining boshqa institutsion birliklarga kondan ma'lum muddatga foydalanishiga litsenziya (ruxsatnoma) berishi evaziga oladigan daromadiga aytiladi. Renta to'lovlari bir marotabalik yoki kondan qazib olingan mahsulot miqdoriga bog'liq ravishda to'lanadigan to'lovlardan iborat. Renta bilan foydali qazilmalar (neft, gaz, oltin, rangli metallar va boshqalar) ishlab chiqargani uchun muntazam

ravishda davlat sektoriga to'lanadigan to'lovlarni farqiga borish kerak. Chunki, oxirgi aytilgan to'lovlar mahsulot uchun soliq sifatida talqin qilinadi.

Mehnat haqi.

MHTda *mehnat haqi* deganda ish beruvchi institutsion birlik (korxonalar va uy xo'jalik)larning yollanma ishchilarga qilgan barcha xarajatlari miqdori tushuniladi. Mehnat haqi ikki qismdan: *ish haqi va sotsial sug'urta ajratmalaridan* iborat.

Ish haqi – bu korporatsiyaning yollanma ishchilarga ularning ishlaganliklari uchun to'lagan haqlaridan iborat. Ish haqi tarkibiga korporatsiya tomonidan ishchilarga berilgan barcha pul (maosh, maoshga qo'shimchalar, mukofotlar) va natura ko'rinishida (tovar yoki xizmatlar (dam olish va davolanish uchun bepul yo'llanmalar) holatidagi mablag'lar kiradi.

Sotsial sug'urta ajratmalari - korporatsiya tomonidan har bir mamlakatda qonun bilan belgilangan tartibda to'lanadigan majburiy sug'urta to'lovlardan iborat. Ishchi – xizmatchilarning ixtiyoriy ravishda sug'urta korporatsiyalariga to'lagan sug'urta badallari bunga kirmaydi. Ular joriy transfert sifatida qayta taqsimlash operatsiyalari hisoblanadi.

Bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar – institutsion birliklarning iqtisodiy faoliyatlari natijalariga bog'liq bo'lmagan holda to'lanadigan soliqlardan iborat, amaliyotda u to'g'ri soliq deb ham yuritiladi. Bu soliq tarkibiga mahsulot uchun soliqlardan tashqari, (rezident va norezident) institutsion birliklarning ishlab chiqarishda qatnashganligi uchun to'laydigan hamma soliqlari kiradi. Bu soliq institutsion birliklarning erdan, ish joylaridan, inshootlardan, binolardan va ishchi kuchidan foydalanganliklari uchun to'lanadigan soliqlardan iborat. SHu bilan birga bu soliq tarkibiga, litsenziya to'lovlari, moliya va kapital operatsiyalariga (kapital transfertlardan tashqari) to'lanadigan soliqlar, gerb yig'imlari (hujjatlar va cheklarni muhrlash), atrof-muhitni ifloslantirgani uchun (ekologiya) va xalqaro operatsiyalar (chet el valyutasini oldi-sotti operatsiyalari, rezident va norezidentlarning chet elga bordi – keldilari va shu kabi boshqa operatsiyalar) uchun belgilangan soliqlar kiradi.

Bevosita ishlab chiqarish uchun subsidiyalari – rezident va norezident institutsion birliklarning ma'lum bir iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanganliklarini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan (qonun bilan belgilangan tartibda) beriladigan subsidiyalardan iborat. Bu subsidiyalarga mahsulot uchun subsidiyalardan tashqari, (rezident va norezident) institutsion birliklarning ishlab chiqarishda qatnashganligi

uchun oladigan barcha subsidiyalari kiradi. Bu subsidiyalar tarkibiga korporatsiyalarning ayrim turdagi ishchi kuchlari (nogironlar, mahalliy yoki chet el ishchilari)ni ishlab chiqarishga jalb qilgani hamda ishsizlarni kasb o'rgatishga bo'lgan harakatlarini qo'llab -quvvatlash maqsadida beriladigan subsidiyalar, ayrim ishlab chiqarish faktorlarini ishlatganliklari uchun to'lanadigan qoplamalar (masalan gaz o'miga ko'mir ishlatgani, import tovarlari o'miga mahalliy xom ashyo ishlatgani uchun) va atrof-muhitni ifloslantirishni kamaytirgani uchun to'lanadigan to'lovlar kiradi.

Shuni aytish joizki, daromad va boylik uchun soliqlar (davlat tashkilotlariga to'lanishiga qaramay) birlamchi daromad sifatida qaralmaydi. Ular qayta taqsimlash operatsiyalari hisoblanib, joriy va kapital transfert sifatida ichki iqtisodiyot *birlamchi daromadlarni qayta taqsimoti va kapital xarajatlar* schyotlarida hamda tashqi dunyo *joriy transfertlar va kapital xarajatlar* schyotlarida qayd etiladi.

12.4. Tashqi dunyo joriy transfertlar taqsimoti schyoti

Bu schyotda rezident va norezident institutsion birliklar o'rtasida sodir bo'lgan *joriy transfertlar* ayirboshlash operatsiyalari qayd etiladi (4-sharhga qarang).

Tashqi dunyo bilan bo'ladigan joriy transfertlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- daromad va mulk (boylik) uchun joriy soliqlar;
- ijtimoiy sug'urta badallari, mukofotlari (qoplamalari) va to'lovlari;
- xalqaro joriy hamkorlik;
- boshqa joriy transfertlar.

Daromad va mulk uchun joriy soliqlar tarkibiga korporatsiyalarning va uy xo'jaliklarining o'z ixtiyoridagi daromadlaridan va mulklaridan to'laydigan joriy soliqlari hamda shu turdagi boshqa soliq va yig'imlar kiradi (13-sharhga qarang). Bu soliqlarni norezidentlar rezidentlarga to'lashi yoki aksincha rezidentlar norezidentlarga to'lashi mumkin. SHuni aytish joizki, soliqni vaqtida to'lamaslik natijasida to'lanishi lozim bo'lgan barcha soliq bilan bog'liq jarimalar, foizlar va shu kabi to'lovlar soliq sifatida talqin qilinadi va soliq summasiga qo'shiladi.

Ijtimoiy sug'urta badallari va mukofotlari sug'urta qilinuvchining sug'urta badali sifatida bergan to'lovlardan va sug'urta qoplamasi sifatida olgan qiymatdan iborat. Sug'urta xizmati uchun to'langan haq joriy transfert hisoblanmaydi va mos ravishda sug'urta xizmati eksporti yoki

importi hisoblanadi. Sug'urta badallari mamlakatlardagi mavjud ijtimoiy sug'urta dasturlariga asosan bevosita sug'urtalanuvchi tomonidan yoki bilvosita ish beruvchi tashkilotlar tomonidan to'lanishi mumkin. Sug'urta qoplamalari sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan holat yuz berganda sug'urta tashkiloti tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan qiymatdan iborat. Bundan tashqari, sug'urta shartnomasi bo'lmasa ham qonun bilan belgilab qo'yilgan holatlarda (masalan tabiiy ofatlar suv toshqini, yong'in, samolyot va poezd halokati natijasida uy joyni buzilishi inson o'limi yoki nogiron bo'lib qolishi) sug'urta qoplamalari to'lanishi mumkin. Sug'urta qoplamalari natura (meditsina xizmati, uy-joy va h.k.) yoki pul holatida berilishi mumkin.

Xalqaro joriy hamkorlik operatsiyalariga quyidagi operatsiyalar kiradi:

bir mamlakatning boshqa mamlakatga joriy sarf-xarajatlarini moliyalashtirish uchun bergan barcha mablag'lari va favqulotda holatlar yuz berganda beriladigan yordamlar (oziq-ovqatlar, dori-darmonlar, mashina va mexanizmlar, asbob-uskunalar va h.k.);

xalqaro tashkilotlarga to'lanadigan a'zolik badallari;

ayrim davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan texnik yordam loyihalarida faoliyat ko'rsatayotgan rezident birliklarning mehnat haqi xarajatlarini qoplash uchun berilgan mablag'lar.

Boshqa joriy transfertlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarga (NT) beriladigan joriy transfertlar; ular tarkibiga bu tashkilotlarning faoliyatlari xarajatlarini qoplash uchun berilgan mablag'lar va ular tomonidan aholi guruhlariga bepul tarqatish maqsadida berilgan natura holidagi tovarlar (dori-darmonlar, oziq-ovqatlar, nogironlar aravachalari va shu kabilar) kiradi;

2) rezident va norezident uy xo'jaliklari o'rtasidagi pul yuborishlar; Bunday pul yuborishlar odatda qarindosh va tanish oilalar o'rtasida bo'ladi. SHuni aytish joizki, qisqa (1 yildan kam) muddatga ishlashga ketganlarning o'z oila a'zolariga yuborgan pullari joriy transfert hisoblanmaydi. U mehnat haqi hisoblanadi;

3) cud organlari va shunday vakolatga ega bo'lgan tashkilotlar tomonidan belgilangan jarimalar va shu kabi majburiy to'lovlar (ustama haqlar (penya), soliqlardan tashqari);

4) lotareya va shu kabi o'yinlar yutuqlari; Bunga misol qilib rezident birliklarning chet el lotareyalaridan, ot choparda va kazinoda yutgan yutuqlarini keltirish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan joriy operatsiyalar tasniflaridan foydalangan holda O'zbekistonning tashqi dunyo joriy transfertlar schyotini quyidagicha ifodalash mumkin.

O'zbekistonning tashqi dunyo joriy transfertlar taqsimoti schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
1. O'zbekistonning davlat boshqaruv idoralari sektoriga norezidentlardan kelib tushgan daromad va boyluk uchun joriy soliqlari	5. O'zbekiston institutsion birliklarining daromad va boyluk uchun norezidentlarga to'lagan joriy soliqlari
2. O'zbekiston institutsion birliklariga norezidentlardan kelib tushgan ijtimoiy sug'urta badallari va mukofotlari	6. O'zbekiston institutsion birliklarining norezidentlarga to'lagan ijtimoiy sug'urta badallari
3. O'zbekistonga xalqaro joriy hamkorlikdan kelib tushgan joriy transfertlar	7. O'zbekistondan xalqaro joriy hamkorlik asosida chiqib ketgan joriy transfertlar
4. O'zbekistonga norezidentlardan kelib tushgan boshqa (1-3 ga kirmagan) joriy transfertlar	8. O'zbekiston institutsion birliklarining norezidentlarga to'lagan boshqa (1-3 ga kirmagan) joriy transfertlari
A. O'zbekistonning norezidentlardan olgan jami joriy transfertlari miqdori (1+2+3+4)	V. O'zbekistonning norezidentlarga bergan jami joriy transfertlari miqdori (5+6+7+8)
Joriy transfertlar saldosi (V-A)	

Schyotni ifodalashda norezident nuqtai nazaridan yondashilgani sababli, schyotning resurs tomonida O'zbekiston uchun norezident bo'lgan institutsion birliklarining O'zbekiston rezidentlaridan joriy transfert sifatida olgan iqtisodiy qiymatlari yoziladi. Schyotning resurs tomonida qayd etilgan joriy transfertlar yig'indisi O'zbekistonning tashqi dunyoga bergan joriy transfertlarini bildiradi.

4-sharh. Transfertlarga oid tushunchalar va ta'riflar

Transfertlar - bir tomonlama iqtisodiy operatsiyalardan iborat. Bu operatsiyalar orqali bir institutsion birlikning boshqa institutsion birliklarga tovar va xizmatlarni, moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni, nomoddiy aktivlarga egalik huquqini bepul berish operatsiyalari aks ettiriladi.

Transfert operatsiyalari mamlakat iqtisodiyotida ishtirok etuvchi rezident institutsion birliklar va rezidentlar bilan norezidentlar o'rtasida

bo'lishi mumkin. Norezidentlar bilan rezidentlar o'rtasida bo'ladigan transfert operatsiyalari to'lov balansida va MHTning tashqi dunyo schyotlarida qayd etiladi.

MHTda transfertlar xarakteriga ko'ra *joriy* va *kapital* transfertlarga ajratiladi. To'lov balansi metodologiyasida ular 1993 yilgacha joriy va kapital transfertlarga ajratilmagan. To'lov balansining 1993 yilgi nashrida transfertlar MHTdagi kabi joriy va kapital transfertlarni alohida-alohida operatsiyalar sifatida qayd etiladigan bo'ldi.

MHTda joriy transfertlar *pul va natura holiday daromadlarni qayta taqsimlash* va tashqi dunyo joriy transfertlar schyotlarida qayd qilinsa, kapital transfertlar ichki iqtisodiyot va tashqi dunyo kapital xarajatlar schyotlarida qayd qilinadi. To'lov balansida esa, joriy transfertlar *joriy operatsiyalar* schyotida, kapital *transfertlar kapital operatsiyalar* schyotida qayd etiladigan bo'ldi.

Transfertlarning joriy va kapital transfertlarga ajratilishining sababi ularning keyinchalik qay tarzda ishlatilishiga bog'liq. Agarda transfert sifatida berilayotgan yoki olinayotgan aktivlar ishlab chiqarish vositasi sifatida ishlatilsa, bunday aktivlar kapital transfertlar, oraliq va yakuniy iste'mol sifatida ishlatilsa - joriy transfertlar hisoblanadi. Odatda, kapital transfertlar bir hisobot yilidan ko'proq vaqtda³⁴ ishlatiladigan aktivlardan iborat bo'ladi. YA'ni, bu aktivlar bir hisobot yilida o'z qiymatini yo'qotmaydi va keyingi davrlarda ham ishlab chiqaruvchi asosiy vosita sifatida ishlatiladi. Joriy transfertlar – bir hisobot davrida iste'mol qilingani uchun, keyingi davrlarda ularning qiymati nolga teng bo'ladi. Ular schyotlarda oraliq va pirovard iste'mol sifatida qayd etiladi.

Kapital transfert operatsiyalariga kapital tovarlar va ular bilan bog'liq transfert operatsiyalar kiradi. Ularga ishlab chiqarilmagan (masalan, er va konlardan foydalanish huquqi), nomoddiy xarakterdagi aktivlar (masalan, patentlar, tovar belgilaridan va avtorlik huquqidan foydalanish huquqi), ish joylari, inshootlar, stanoklar, mashina va mexanizmlar, texnologik liniyalar va shu kabi aktivlar bilan bog'liq operatsiyalar kiradi³⁵. Bulardan tashqari, kapital transfertlarni norezidentlarga berilganda olinadigan soliqlar³⁶ (merosga va sovg'a sifatida berilganda olinadigan soliq,

³⁴ Uy xo'jaliklarning o'z a'zolari foydalanishlari uchun sotib olingan avtomobillar, televizorlar, muzlatgichlar va boshqa ro'zg'orda foydalaniladigan texnik asbob-uskunalar kapital transfert sanalmaydi.

³⁵ Harbiy maqsadlarda foydalanish uchun berilgan harbiy texnika va qurollar kapital transfertlar hisoblanmaydi. Ular qabul qilingan qoidaga ko'ra, asosiy fondlar qatoriga qo'shilmaydi va joriy transfert sifatida hisoblanadi. Agarda, ilgari harbiy maqsadlarda foydalanilgan mashina va boshqa texnika vositalari boshqa ishlab chiqaruvchi birliklarga bepul berilsa, bu kapital transfert hisoblanadi va oluvchining asosiy vositasi hisoblanadi.

³⁶ Masalan, uy-joy chet eldagi merosxo'rga berilgan vaqtda shu davlat qonunlarida belgilangan tartibda merosxo'r - norezident soliq to'laydi. Keyinchalik merosxo'r-norezident uy-joy uchun mulk solig'i to'lab turadi. Agarda, keyinchalik merosxo'r-norezident rezidentga aylansa, mulk solig'i kapital transfert bo'lmaydi.

berilgan mulkdan soliq) va qarzdin voz kechish operatsiyalari ham kapital transfert operatsiyalari hisoblanadi.

Joriy transfertlarga kapital transfert hisoblanmagan (tarkibiga kiritilmagan) barcha transfert operatsiyalar kiradi. Ularga iste'mol tovarlarini va xizmatlarni boshqa birliklarga bepul berish va ko'rsatish; insonparvarlik va texnik yordamlar ko'rsatish misol bo'la oladi.

Joriy transfert operatsiyalari qanday birliklar o'rtasida bo'lishiga qarab ikkiga bo'linadi. Birinchisi, turli davlat tashkilotlari (davlat boshqaruv idoralari sektoriga kiruvchi institutsion birliklar) o'rtasida va davlat va halqaro tashkilotlar o'rtasida bo'ladigan joriy transfert operatsiyalaridan iborat bo'lib, odatda **xalqaro joriy hamkorlik** deb yuritiladi. Ikkinchisi, rezident va norezidentlar o'rtasida (davlat tashkilotlaridan tashqari) bo'ladigan turli xil joriy transfert operatsiyalaridan iborat bo'lib, odatda **boshqa joriy transfertlar** deb ataladi.

Xalqaro joriy hamkorlik operatsiyalariga quyidagi operatsiyalar kiradi:

bir mamlakatning boshqa mamlakatga joriy sarf xarajatlarini moliyalashtirish uchun bergan barcha mablag'lari va favqulotda holatlar yuz berganda beriladigan yordamlar (oziq-ovqatlar, dori-darmonlar, mashina va mexanizmlar, asbob-uskunalar va h.k.);

xalqaro tashkilotlarga to'lanadigan a'zolik badallari;

ayrim davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan texnik yordam loyihalarida faoliyat ko'rsatayotgan rezident birliklarning mehnat haqi xarajatlarini qoplash uchun berilgan mablag'lar.

Boshqa joriy transfertlar qatoriga quyidagilar kiradi:

1) mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarga (NT) beriladigan joriy transfertlar; ular tarkibiga bu tashkilotlarning faoliyatlari xarajatlarini qoplash uchun berilgan mablag'lar va ular tomonidan aholi guruhlariga bepul tarqatish maqsadida berilgan natura holiday tovarlar (dori-darmonlar, oziq-ovqatlar, nogironlar aravachalari va shu kabilar) kiradi;

2) rezident va norezident uy xo'jaliklari o'rtasidagi pul yuborishlar; Bunday pul yuborishlar odatda qarindosh va tanish oilalar o'rtasida bo'ladi. Shuni aytish joizki, qisqa (1 yildan kam) muddatga ishlashga ketganlarning o'z oila a'zolariga yuborgan pullari joriy transfert hisoblanmaydi. U mehnat haqi hisoblanadi;

3) sud organlari va shunday vakolatga ega bo'lgan tashkilotlar tomonidan belgilangan jarimalar va shu kabi majburiy to'lovlar (ustama

haqlar (penya), soliqlardan tashqari);

4) lotareya va shu kabi o'yinlar yutuqlari; Bunga misol qilib rezident birliklarning chet el lotareyalaridan, otchoparda va kazinoda yutgan yutuqlarini keltirish mumkin.

Transfertlar pul va natura holatida berilishi mumkin. Pul holatidagi transfertlar bir birlikning ikkinchi birlikka naqd pul yoki hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan bergan pul miqdoridan iborat. Natura holatidagi transfertlar deganda, bir birlikning ikkinchi birlikka evaziga hech narsa olmay, tovar va aktivlarni berish, hamda xizmatlarni ko'rsatish jarayoni tushuniladi. Natura holatidagi transfertlar ularning olingan (berilgan) davrdagi bozor baholaridagi miqdorida qayd etiladi.

MHTda har bir operatsiya 2 martadan qayd etiladi. Ikki tomonlama operatsiyalarda aktivni bergan birlik uchun bu holat uning schyotida "*ishlatilishi*" tarafida qayd etiladi. Aktivni olgan birlik uchun - schyotning "resurs" tarafida qayd etiladi. Transfertlar esa, mos ravishda olingani "resurs"da, berilgani "*ishlatilishi*"da "transfertlar" deb qayd etiladi.

Operatsiyalarni qayd etishda joriy va kapital xarajatlarni farqlash lozim. Kapital operatsiyalarga ikki birlik o'rtasidagi ishlab chiqarish vositalarini ayirboshlash jarayonlari kiradi. Ishlab chiqaruvchi birliklar o'rtasidagi kapital operatsiyalar natijasida bir tomonning asosiy kapitali qanchaga ko'paysa, ikkinchi tomonniki shunchaga kamayadi. Ularga ishlab chiqarilmagan (masalan, er va konlardan foydalanish huquqi), nomoddiy xarakterdagi aktivlar (masalan, patentlar, tovar belgilaridan va avtorlik huquqidan foydalanish huquqi), ish joylari, inshootlar, stanoklar, mashina va mexanizmlar, texnologik liniyalar va shu kabi aktivlar bilan bog'liq operatsiyalar kiradi.

Operatsiyalarni qayd etishda, ularning qaysi guruhga va qaysi birliklarga tegishligini bilish muhim ahamiyatga ega. Masalan, tovar va xizmatlarni sotishdan, transfertlar sifatida, taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida olingan daromadlarni bir-biridan farqlash lozim. Ularning farqanmasligi mamlakat miqyosida daromadlarni hisoblashda noaniqliklarga olib keladi. Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish natijasida yaratilgan daromadlarni iqtisodiy birliklar o'rtasida shakllanishi, taqsimot va qayta taqsimoti operatsiyalarini belgilangan tartibda mos schyotlarda alohida-alohida qayd etilishi lozim.

Schyotning ishlatilishi tarafida esa O'zbekiston rezident birliklarining norezidentlardan olgan joriy transfertlari miqdori qayd etiladi. Schyotning ishlatilishi tomonida qayd etilgan joriy transfertlar yig'indisi

O'zbekistonning tashqi dunyodan olgan joriy tarnsfertlari miqdorini bildiradi.

Joriy transfertlar saldosi O'zbekistonning bergan va olgan joriy taransfertlari o'rtasidagi farqdan iborat. Bu ko'rsatkichning musbat bo'lishi O'zbekistonning chet elga joriy transfert sifatida bergan sof daromadlari miqdorini bildiradi, aks holda esa, ya'ni saldoning manfiy bo'lishi, O'zbekistonning chet eldan joriy transfert sifatida olgan sof iqtisodiy qiymat miqdorini ifodalaydi.

Yuqorida keltirilgan tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar, birlamchi daromadlar hamda joriy transfertlar taqsimoti schyotlarining har birida mos ravishda saldo ko'rsatkichlariga ega bo'ldik. Bu saldo ko'rsatkichlarning yig'indisi odatda **joriy operatsiyalar saldosi** (JOS) deb ataladi. Bu ko'rsatkich mamlakat institutsion birliklarining chet el mamlakatlari (nerezidentlar) bilan sodir bo'lgan joriy operatsiyalarning natijasini bildiradi. Bu ko'rsatkichning musbat bo'lishi O'zbekistonning tovarlar va xizmatlar, joriy transfertlar va birlamchi daromadlar ayirboshlash natijasida nerezidentlarga bergan sof iqtisodiy qiymat miqdorini bildiradi. Aks holda esa, ya'ni saldo manfiy bo'lsa, O'zbekistonning chet eldan olgan sof qiymat miqdorini bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, mazmuniga ko'ra bu ko'rsatkichning hisobot davrida musbat bo'lishi rezident mamlakatning joriy operatsiyalar bo'yicha passiv (manfiy) saldoga va tashqi dunyo sektorining aktiv saldoga erishganliklarini bildiradi.

Tashqi dunyo sektorining aktiv saldoga ega bo'lishi nerezidentlarning rezident mamlakat birliklarini aktiv saldo miqdorida sof (mutlaq) moliyalashtirganini bildiradi.

Moliyalashtirish investitsiyalar kiritish (portfel va to'g'ri investitsiya, kreditlar berish), debitorlik yoki kreditorlik qarzlarning o'zgarishi orqali, qarzni uzish to'lovlari (foiz va bo'nak to'lash)ni to'lash orqali amalga oshgan bo'lishi mumkin.

Tashqi dunyo JOSning rezident mamlakat uchun aktiv (tashqi dunyo uchun manfiy saldo) bo'lishini har doim ham ijobiy holat deb bo'lmaydi. Masalan, mamlakatga xorijiy investitsiyalarning kirib kelmasligi va natijada importning kamayishi sababli tashqi savdo balansi katta miqdorda aktiv saldo bo'lishi natijasida JOS aktiv bo'lishi mumkin. Odatda iqtisodiyoti yuqori rivojlangan mamlakatlarda JOSning aktiv bo'lishi kuzatiladi. Bunga asosiy sabab, bu mamlakatlar hisobot davrida va undan ilgari boshqa mamlakatlarga ko'p miqdorda investitsiyalar kiritib, kiritgan investitsiyalari evaziga ko'plab miqdorda mulk uchun daromad (foizlar,

dividendlar) oladilar. Iqtisodiyoti hali rivojlanmagan mamlakatlarda iqtisodiyotni tiklash va rivojlantirish uchun o'z mablag'lari etarli bo'lmaydi. Shu sababli, ular chetdan sarmoyalar jalb qilishga majburlar (bo'lmasa iqtisodiyotni tiklash va rivojlantirish davri uzoqqa cho'zilib ketadi). Natijada bunday mamlakatlarning joriy operatsiyalar saldosi manfiy bo'lishi mumkin. Rezident mamlakatning JOS manfiy bo'lishiga qaramay o'zlashtirilayotgan chet el investitsiyalari samarali loyihalarga yo'naltirilayotgan bo'lsa, bu holatni ijobiy deb baholash mumkin (agarda, investitsiyalar samarali loyihalarga ishlatilmayotgan bo'lsa mamlakat qarzga botishi mumkin).

Yuqorida aytib o'tilganidek, joriy transfertlar uni bergan mamlakatning daromadini kamaytiradi va olgan mamlakatning daromadini ko'paytiradi. Joriy transfertlar saldosi esa, agarda u rezident mamlakat uchun ijobiy (tashqi dunyo uchun manfiy saldo) bo'lsa uning daromadini mutlaq ko'paytiradi.

Agarda mamlakatning daromadlari manbalariga e'tiborni qaratsak, har bir mamlakat *birinchi* navbatda iqtisodiy ishlab chiqarish natijasida daromad yaratadi va bu daromad YAIMga teng. *Ikkinchidan*, mamlakat chet eldan birlamchi daromadlar oladi va chet elga beradi. Bu turdagi sof daromad birlamchi daromadlar saldosi teng. *Uchinchidan*, mamlakat chet eldan joriy transfertlar oladi va ularga beradi. Natijada, bu turdagi sof daromad joriy transfertlar saldosi teng.

Yuqoridagi mavzularda YAIM va BDS yig'indisi YAMD ekanligini aytib o'tgan edik. Agarda, YAMD ko'rsatkichiga JTSni qo'shsak, yana bir muhim bo'lgan agregat ko'rsatkich – yalpi milliy ixtiyordagi daromad (YAMID) ko'rsatkichiga ega bo'lamiz. Bu ko'rsatkich iqtisodiy mazmuniga ko'ra mamlakatning xisobot davrida o'z mulkini yo'qotmagan va chet eldan (qo'shimcha) qarz bo'lmagan holda sarf qilishi mumkin bo'lgan eng ko'p miqdordan iborat bo'ladi.

Bu agregat ham yalpi (YAMID) va sof (SMID) usullarda hisoblanadi. SMIDni topish uchun YAMIDdan mamlakat bo'yicha asosiy kapitalni tiklashga ketadigan xarajatlar miqdori (AKI)ni ayirish kerak bo'ladi.

5 sharh. Daromad va mulk uchun joriy soliqlar tarkibi va unga oid tushunchalar

Daromad soliqlari daromad, foyda va kapitalning baho o'zgarishlari natijasida ko'payishidan to'lanadigan soliqlardan iborat. Bu soliqqa alohida shaxslar, uy xo'jaliklari, notijorat tashkilotlari, nomoliya va moliya korxonalari tortilishi mumkin. Bu soliqlarni yuqorida sanab o'tilgan

birliklarning daromadga, mulkka, erga va boshqa ko'chmas mulkka ega bo'lganlarida to'laydilar.

Daromad soliqlariga quyidagi turdagi soliqlar kiradi:

- 1) uy xo'jaliklarining ish haqi, mulk uchun daromad va nokorporativ korxonalaridan aralash daromad sifatida olgan daromadlaridan to'lanadigan soliqlar;
- 2) korporatsiyalarning ishlab chiqarishda va boshqa barcha faoliyatlari natijasida olgan daromadlaridan va foydalaridan to'lanadigan soliqlar;
- 3) lotareya va shunga o'xshash o'yinlarda yutuq egalarining yutuqdan to'lagan soliqlari;
- 4) kapitalning baho o'zgarishlari natijasida ko'payishidan to'lanadigan soliqlar³⁷.

Boshqa joriy soliqlar kapital uchun joriy soliqlardan va boshqa joriy soliqlardan iborat.

Kapital uchun joriy soliqlar tarkibiga institutsion birliklar tomonidan o'zlari egalik qilayotgan va ijaraga olgan mulklari (er va inshootlar³⁸), sof boyliklari va boshqa qimmatbaho buyumlari uchun muntazam ravishda (odatda yilda bir marta) to'laydigan soliqlari kiradi.

Boshqa joriy soliqlar tarkibiga quyidagi joriy soliqlar va yig'imler kiradi:

- *jon boshiga soliqlar*: fuqarolarning daromadlariga bog'liq bo'lmagan holda kishi boshiga to'lanadigan soliqlardan iborat;

- *xarajat solig'i*: uy xo'jaliklari qimmatbaho buyumlar harid qilganlarida tortiladigan soliqlardan iborat (yuqorida sanab o'tilgan bu ikki soliq turi amaliyotda kam uchraydi. Masalan bunday soliq turlari O'zbekistonda qo'llanilmaydi);

- *uy xo'jaliklarining litsenziya to'lovlari*: uy xo'jaliklari tomonidan avtomobillarga, qayiq'larga, samolyot'larga va boshqa shu kabilarga egalik va foydalanish huquqini olish uchun to'laydigan to'lovlari, ov qilish huquqini beradigan litsenziyani olish to'lovlaridan iborat³⁹;

- *moliya va kapital operatsiyalar uchun soliqlar*: ular moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni sotganda yoki sotib olganda to'lanadigan soliqlardan iborat. Bu soliq turiga merosga qolgan va sovg'a sifatida olingan mulklar uchun to'lanadigan soliqlar kirmaydi. Bu soliqlar kapital soliqlar hisoblanadi;

³⁷ Amaliyotda bunday soliqlar kamdan kam uchraydi

³⁸ Korxonalarining ishlab chiqarishda foydalanayotgan er va inshootlariga to'laydigan soliqlar bunga kirmaydi

³⁹ Qurol-yarog'ga ega bo'lish litsenziyalari, pasport va shofyorlik guvohnomalarini uchun yig'imler, aeroportdagi yig'imler soliq hisoblanmaydi. Ular xizmat ko'rsatish sifatida talqin qilinadi. To'langan yig'imler xizmatga to'langan xaq sifatida qaraladi

- *gerb yig'implari*: bu turdagi soliqlarga yakka shaxs va uy xo'jaliklari talablari asosida mas'ul yoki vakolatli idora va tashkilotlar tomonidan vasiyatnoma va hujjatlarni rasmiylashtirgani uchun olinadigan yig'implar kiradi. Bunga ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish xarajatlari kirmaydi. Chunki, korxonalarining bunday to'lovlari bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar sifatida talqin qilinadi;

- xalqaro operatsiyalar uchun soliqlar: bu turdagi soliqlar tarkibiga yakka shaxs va uy xo'jaliklari tomonidan chet el valyutasini oldi-sotti, pul o'tkazish operatsiyalari uchun to'lagan to'lovlari, ularning chet el sayohatiga chiqishlari uchun to'lagan soliqlari kiradi. Bu soliqlar korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatlarini bilan bog'liq bo'lgan valyuta oldi-sotti va pul o'tkazish operatsiyalari uchun to'lagan to'lovlari kirmaydi. Bu to'lovlar, bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar tarkibiga kiradi.

12.5. Tashqi dunyo jamg'arish schyotlari

Tashqi dunyo jamg'arish schyotlarida rezident va norezident birliklar o'rtasida bo'lgan kapital va moliya operatsiyalarining natijalari, ular aktiv va passivlarida tabiiy jarayonlar (yong'in, suv toshqinlari, er qimirlashlar va h.k.), urushlar va baho va valyuta kursi o'zgarishlari natijasida aktiv va passivlar holatida bo'lgan o'zgarishlar natijalari qayd etiladi. Jamg'arish schyotlari quyidagi schyotlardan iborat: kapital xarajatlar schyoti, moliya schyoti, aktiv va passivlarda boshqa o'zgarishlar schyotlari (aktiv hajmlarida boshqa o'zgarishlar va aktiv va passivlarni qayta baholash schyotlari), tashqi aktiv va passiv balanslari schyotlari (boshlang'ich balans, balansning o'zgarishi va oxirgi balans).

Jamg'arish schyotlarining tuzilishi avvalgi schyotlar tuzilishidan birmuncha farq qiladi. Bu schyotlarda ko'rsatkichlar resurs va ishlatilishi sifatida ifodalanmaydi. Schyotlarning odatdagi *resurs* tarafi ***o'z kapitalining va majburiyatining o'zgarishi*** deb ataladi. Ishlatilishi tarafi esa ***aktivlarning o'zgarishi*** deb ataladi⁴⁰.

Quyida bu schyotlar bilan tanishib chiqamiz.

⁴⁰ Keyinchalik tashqi dunyo jamg'arish schyotlarini yoritishda soddalikka erishish maqsadida schyotlarning *o'z kapitalining va majburiyatining o'zgarishi tarafini* passivlar va *aktivlarning o'zgarishi tarafini* **aktivlar** deb ataymiz

Kapital xarajatlar schyoti

Kapital xarajatlar schyotida rezident va nerezident birliklar o'rtasida bo'lgan kapital transfertlar va ishlab chiqarilmagan nomoliya aktivlarning ayirboshlash operatsiyalari natijalari qayd etiladi.

Schyotning *o'z kapitalining va majburiyatining o'zgarishi (passivlar)* tarafida nerezident birliklarning olgan va bergan *kapital transfertlari* hamda *tashqi dunyo joriy operatsiyalar saldosi* qayd etiladi. Schyotning *aktivlarning o'zgarishi* (aktivlar) tarafida esa, ularning kuzatilayotgan davrda sotib olgan va sotib yuborgan *ishlab chiqarilmagan aktivlarining* ayirmasi miqdori yoziladi.

Schyotning tuzilish sxemasi quyidagicha:

Tashqi dunyo kapital xarajatlar schyoti

Aktivlarning o'zgarishi (aktivlar)	O'z kapitalining va majburiyatining o'zgarishi (passivlar)
A.1. Sotib olingan ishlab chiqarilmagan aktivlar (+);	V.1. Tashqi dunyo joriy operatsiyalar saldosi
A.2. Sotib yuborilgan ishlab chiqarilmagan aktivlar (-).	V.2 Kapital transfertlar nerezidentlar olgani (+)
	V.3. Kapital transfertlar nerezidentlar bergani (-)
A. Sof sotib olingan ishlab chiqarilmagan aktivlar (A.1+A.2)	V. Kapital qiymatining sof o'zgarishi (V.1.+ V.2+ V.3.)
Sof kreditlash (+) yoki sof qarzlilar (-) (V-A)	

Schyotning «aktivlar» tarafida nerezidentlarning rezident mamlakat birliklaridan sotib olgan ishlab chiqarilmagan aktivlari miqdori (+) plyus ishora bilan, rezident mamlakat birliklarining nerezidentlardan sotib olgan ishlab chiqarilmagan aktivlari miqdori (-) minus ishora bilan yozib qo'yiladi. Ular o'rtasidagi farq *sof sotib olingan ishlab chiqarilmagan aktivlar* deyiladi. *Sof sotib olingan ishlab chiqarilmagan aktivlar* ko'rsatkichi manfiy yoki musbat bo'lishi mumkin. Ko'rsatkichning musbat bo'lishi nerezidentlarning rezident mamlakatdan olgan ishlab chiqarilmagan aktivlarining sof miqdorini ifodalaydi. Ko'rsatkichning manfiy bo'lishi esa, rezident mamlakatning shu turdagi aktivlarining ortganligini bildiradi.

Schyotning «passivlar» tarafida yuqorida tanishib chiqqan tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar, birlamchi daromadlar va joriy transfertlar schyotlarining saldosi bo'lgan *joriy operatsiyalar saldosi* ko'rsatkichi

yoziyadi. Bundan tashqari, schyotning bu tarafida norezident birliklarning rezident mamlakat birliklariga bergan kapital transfertlari miqdori (-) minus ishora bilan, olganlari esa – (+) plyus ishora bilan yozib qo'yiladi. Schyotning «*passivlar*» tarafidagi ko'rsatkichlarining yig'indisi **kapital qiymatining sof o'zgarishi** deb ataladi va bu ko'rsatkich norezident va rezident birliklar o'rtasida kapital transfertlar ayirboshlash va tashqi joriy operatsiyalar natijasida norezidentlar kapitalining qay miqdorda o'zgarganligini bildiradi. Ko'rsatkichning musbat bo'lishi norezidentlarning kapitalining ko'payganligini, manfiy bo'lishi esa rezident mamlakat kapitalining ko'payganligini bildiradi.

Schyotning saldo ko'rsatkichi passivlardan aktivlarni ayirish orqali aniqlanadi. Saldo ko'rsatkichining musbat ishorali bo'lishi tashqi dunyoning aktivlari mutlaq oshganligini, rezident mamlakatning esa majburiyatlari oshganligini bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, saldo ko'rsatkichining musbat ishorali bo'lishi norezidentlarning rezident mamlakatga hisobot davrida bergan sof resurslarining miqdorini ifodalaydi. Ko'rsatkichning manfiy bo'lishi esa, aksincha rezident mamlakatning norezidentlarga bergan sof resurslarining miqdorini ifodalaydi.

Sof resurslarning ko'payishi yoki kamayishi turli xil ko'rinishda sodir bo'lishi mumkin. Masalan, hisobot davrida rezident mamlakatga to'g'ri investitsiyalarning, kreditlarning kirib kelishi, rezident mamlakat savdo balansining saldosi, foiz va dividend to'lovlari, joriy transfertlar, qarzni to'lash bo'yicha to'lovlar miqdori, kreditorlik yoki debitorlik qarzlarning o'zgarishi sof resurslarning o'zgarishiga ta'sir qilishi mumkin.

Qisqacha aytganda saldo ko'rsatkichning musbat bo'lishi hisobot davrida rezident mamlakatning sof qarzi (majburiyati)ning oshganligini yoki tashqi dunyoga talabining kamayganligini, tashqi dunyoning rezident mamlakatga talabi oshganligini bildiradi. Ko'rsatkichning manfiy bo'lishi esa, rezident mamlakatning hisobot davrida tashqi dunyoga talabi oshganligini yoki norezidentlarning majburiyati oshganligini bildiradi.

Tashqi dunyo moliya schyoti

Moliya schyotida rezident mamlakat institutsion birliklari va norezident birliklar o'rtasida sodir bo'lgan moliya aktivlari ayirboshlash operatsiyalarining natijalari qayd etiladi. Schyotning aktivlar tarafida norezidentlarning hisobot davrida rezident mamlakat birliklaridan olgan moliya aktivlari plyus ishora bilan va aksincha, bergan moliya aktivlari minus ishora bilan qayd etiladi. Schyotning passivlar tarafida

norezidentlarning hisobot davrida (rezident mamlakat oldida) majburiyatlarining ko'payishi plyus ishora bilan va mavjud majburiyatlarini uzish (majburiyatlarining kamayishi) miqdori minus ishora bilan qayd etiladi. Aktivlarning va majburiyat (passiv)larning o'zgarishi ularning turlari bo'yicha guruhlangan holda qayd etiladi.

Schyotning tuzilish sxemasi quyidagicha:

Tashqi dunyo moliya schyoti

Aktivlarning o'zgarishi (aktivlar)	O'z kapitalining va majburiyatining o'zgarishi (passivlar)
A.1. Monetar oltin va SDR ⁴¹	V.2. Naqd pullar va depozitlar
A.2. Naqd pullar va depozitlar	V.3. Qimmatbaho qog'ozlar
A.3. Qimmatbaho qog'ozlar (aksiyalardan tashqari)	(aksiyalardan tashqari)
A.4. Aksiyalar va boshqa aksiyadorlik kapitaliga egalik huquqini beradigan qog'ozlar	V.4. Aksiyalar va boshqa aksiyadorlik kapitaliga egalik huquqini beradigan qog'ozlar
A.5. Berilgan kreditlar	V.5. Olingan kreditlar
A.6. Sug'urta rezervlari	V.6. Sug'urta rezervlari
A.7. Debitorlik qarzlar	V.7. Kreditorlik qarzlar
A.8. Boshqa moliyaviy aktivlar	V.8. Boshqa moliyaviy passivlar
A. Sof ega bo'lingan moliya aktivlari	Sof ega bo'lingan majburiyatlar
	S = A - B > 0 bo'lsa Sof kreditlash deb ataladi, S = A - B ≤ 0 sof qarzlar deb ataladi.

Schyotning aktivlar tarafining yig'indisi norezidentlarning hisobot davrida moliya aktivlarining sof o'zgarishini ifoda etadi. Passivlar tarafining yig'indisi esa, norezidentlarning hisobot davrida moliya majburiyatlarining sof o'zgarishini ifoda etadi.

Moliya schyotining muvozanatlashtiruvchi ko'rsatkichi (ya'ni aktivlar minus passivlar) tashqi dunyo kapital xarajatlar schyotining saldo ko'rsatkichiga teng bo'ladi. Bu ko'rsatkichning musbat ishora bilan chiqishi hisobot davrida norezidentlarning rezident mamlakat birliklariga bergan moliya aktivlarining olgan majburiyatlaridan ko'pligini bildiradi va "sof kreditlash" deb ataladi. Boshqacha qilib aytgandi, rezident mamlakat birliklari norezidentlar tomonidan moliyalashtirilganligini bildiradi. Aks

⁴¹ SDR (Special drawing rights – maxsus qarz olish huquqi) XVF tomonidan xalqaro rezerv aktivi sifatida chiqariladi. Bu aktiv XVF rezervi hisoblanadi. Har bir mamlakat XVF belgilagan kvota miqdordagi mablag'ni o'z milliy valyutasida XVF maxsus schyotiga o'tkazadi. SDR XVFning majburiyati hisoblanmaydi. Uning miqdori XVF tomonidan bir necha nufuzli valyuta kurslarining kunlik o'zgarishlarini inobatga olgan holda aniqlangan ayirboshlash kursi orqali har bir kundagi holati hisoblanadi.

holda, saldoning manfiy ishora bilan chiqishi hisobot davrida norezidentlarning rezident mamlakat birliklari oldida majburiyatlarining oshganligini bildiradi va “sof qarzarlar” deb ataladi. Boshqacha qilib aytganda, tashqi dunyoning rezident mamlakatdan sof qarz bo’lishi, rezident mamlakat birliklari tashqi dunyoni moliyalashtirganini yoki rezident mamlakatning tashqi dunyodan (ilgari olgan) qarzlari (majburiyatlari) kamayganligi bildiradi.

Moliya aktivlarining va majburiyatlarining o’zgarishi ularning turlari bo’yicha guruhlangan holda alohida-alohida qayd etiladi.

Moliya schyoti ko’rsatkichlari odatda rezident mamlakat milliy pul birligida operatsiya sodir bo’lgan vaqtdagi bozor baholarida hisoblanadi. Milliy valyutaga o’tkazishda operatsiya sodir bo’lgan vaqtdagi ayirboshlash kurslaridan foydalaniladi.

Shuni aytish joizki moliya aktivlarining hammasi ham ikkinchi tomon uchun majburiyat bo’lavermaydi. Bunday aktivlarga mamlakat rezerv aktivlaridagi monetar oltin va XVFDagi SDR misol bo’laoladi. Chunki, monetar oltin boshqa birliklarga berilganda (sotilganda)gina boshqa birliklarda majburiyat hosil qiladi. Rezident va norezident birliklar o’rtasidagi monetar oltin bilan bo’ladigan operatsiyalar mamlakatlarning markaziy banklari o’rtasida yoki markaziy bank bilan xalqaro moliya tashkilotlari o’rtasida sodir bo’lishi mumkin. Bu operatsiyalar natijalari schyotning chap tomonida qayd etiladi. Oltinning boshqa rezident va norezident birliklar o’rtasidagi ayirboshlash operatsiyalari mos ravishda eksport yoki import operatsiyalari sifatida *tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyotida* qayd etiladi.

SDR xalqaro rezerv aktivi hisoblanadi. Uning miqdori Xalqaro valyuta fondiga a’zo mamlakatlarning mos ravishda belgilangan kvota asosida o’z valyutalari birligida tashkil qilinadi va vaqti-vaqti bilan to’ldirib turiladi. Har bir mamlakat hisobot yilida o’z kvotasi miqdorida chet el valyutasini sotib olishi va foydalanishi mumkin. Va XVFD tomonidan belgilangan muddatda o’z kvotasini tiklab qo’yishi lozim. Hisobot davridagi o’zgarishlar moliya schyotining chap tomonida qayd etiladi.

Bu schyotni tuzishdan ko’zlangan maqsad, mamlakat rezident birliklarining norezidentlar bilan hisobot davrida sodir bo’lgan iqtisodiy operatsiyalar natijasida rezident mamlakatning moliya aktivlari va passivlari qiymatining o’zgarishini hisobga olishdir.

Tashqi dunyo sektori schyotlarida Yalpi ichki mahsulot (YAIM), Yalpi milliy daromad (YAMD), Yalpi ixtiyordagi milliy daromad

(YAIMD) va Yalpi milliy jamg'arma (YAMJ) ko'rsatkichlarini hisoblashda foydalaniladigan muhim ko'rsatkichlar bor. Ular qatorida eksport va import ko'rsatkichlari, rezident birliklarning tashqi dunyodan olgan va tashqi dunyoga to'lagan birlamchi daromadlari (ish haqi, mulkdan olingan daromadlar, soliqlar va subsidiyalar), olingan va berilgan kapital va joriy transfertlar bor. Bu ko'rsatkichlardan foydalanib, yuqorida sanalgan ko'rsatkichlarni hisoblash usullarini keltiramiz.

$YAIM = \text{pirovard iste'mol (S)} + \text{yalpi jamg'arma (I)} + \text{tovar va xizmatlar eksporti (X)} - \text{tovar va xizmatlar importi (M)}$;

$$YAIM = S + I + X - M;$$

$YAMD = YAIM + \text{rezidentlarning norezidentlardan olgan va ularga to'lagan birlamchi daromadlari saldosi (BDS)}$;

$BDS = \text{rezidentlarning norezidentlardan olgan ish haqi} - \text{norezidentlarning rezidentlardan olgan ish haqi} + \text{rezidentlarning norezidentlardan mulk uchun olgan daromadlari} - \text{norezidentlarning rezidentlardan mulk uchun olgan daromadlari} + \text{mahsulot va import uchun soliqlar (norezidentlardan olingani} +, \text{ularga to'langani} -) \text{saldosi} + \text{mahsulot va import uchun subsidiyalar (norezidentlardan olingani} +, \text{ularga to'langani} -) \text{saldosi}$; $YAMD = YAIM + BDS$;

$YAIMD = YAMD + \text{norezidentlardan olingan (+) va ularga to'langan (-) joriy transfertlar saldosi (mahsulot va import uchun soliqlar va subsidiyalar ayirmasini qo'shmagan holda)}$;

$$YAIMD = YAMD + JTS;$$

Yalpi milliy jamg'arma (YAMJ) YAIMDdan pirovard iste'mol (S)ni ayirish orqali topiladi. $YAMJ = YAIMD - S$; Yuqoridagi ifodalardan foydalanib quyidagiga ega bo'lamiz:

$$YAMJ = S + I + X - M + BDS + JTS - S = I + X - M + BDS + JTS.$$

Bu ifodadan, yalpi milliy jamg'armaning mamlakatdagi barcha investitsiyalar, sof eksport, birlamchi daromadlar va joriy transfertlar saldolari yig'indisidan iborat ekanligini bilamiz. Hosil bo'lgan ifodadan yalpi milliy jamg'arma va yalpi milliy yig'ilma ayirmasi tashqi dunyo joriy (TDJOS) operatsiyalar saldosisiga teng ekanligini topamiz:

$$YAMJ - I = X - M + BDS + JTS \text{ yoki } YAMJ - I = TDJOS.$$

Milliy boylikning jamg'arma va kapital transfertlar hisobiga o'zgarishi (MBO')ni yalpi milliy jamg'arma va kapital transfertlar saldosi (KTS) yig'indisidan asosiy kapitalning iste'moli (AKI)ni ayrilganiga teng bo'ladi.

$$MBO' = YAMJ - AKI + KTS;$$

Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar

1. *Tashqi dunyo deganda nimani tushunasiz?*
2. *Tashqi dunyo operatsiyalarida qaysi birliklar qatnashadilar?*
 1. *Rezident birliklarga misollar keltiring.*
 2. *Norezident birliklarga misollar keltiring.*
3. *Tashqi iqtisodiy faoliyat nima? Unga misollar keltiring.*
4. *Ekspordta tovarlar qaysi baholarda qayd etiladi?*
5. *Importda tovarlar qaysi baholarda qayd etiladi?*
6. *Operatsiyalarni baholash vaqti deganda nimani tushunasiz?*
7. *Tashqi savdo balansi nima?*
8. *Birlamchi daromadlarga misollar keltiring?*
9. *Birlamchi daromadlar saldosi nima?*
10. *Tashqi dunyo joriy operatsiyalariga qanday turdagi operatsiyalar kiradi?*
 11. *Joriy transfertlarning qanday turlarini bilasiz?*
 12. *Moliya schyotining mohiyati nimadan iborat?*
 13. *Tashqi dunyodan sof qarz deganda nimani tushunasiz?*
 14. *Sof qarzlar qanday holatlarda yuzaga kelishi mumkin? Izohlab bering.*
 15. *Milliy boylik deganda nimani tushunasiz?*
 16. *Yalpi milliy daromad qanday aniqlanadi?*
 17. *Yalpi milliy ixtiyordagi daromad va yalpi milliy daromadni hisoblashda tashqi dunyo sektorining qaysi ko'rsatkichlaridan foydalaniladi?*
 18. *Sof kreditlash deganda nimani tushunasiz?*

13. Tovarlar va xizmatlar yig'ma schyoti

Tovarlar va xizmatlar yig'ma schyoti o'z nomiga monand ravishda yuqorida keltirilgan ichki iqtisodiyot va tashqi dunyo schyotlari ko'rsatkichlaridan foydalangan holda tuziladi. Schyotning resurs tarafida mamlakat bo'yicha tovarlar va xizmatlar resurslari, ishlatilishi tarafida bor tovar va xizmatlarni qanday maqsadlarda ishlatilganligi qayd etiladi.

Schyotning tuzilish sxemasi yalpi ishlab chiqarish (YAICH) ko'rsatkichining qanday baholarda hisoblanishiga ko'ra turlicha bo'ladi.

Agarda YAICH ko'rsatkichi asosiy baholarda hisoblangan bo'lsa schyotning tuzilish sxemasi quyidagicha:

Tovarlar va xizmatlar yig'ma schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
4. Oraliq iste'mol	1. Yalpi ishlab chiqarish (asosiy baholarda) - tovarlar; - xizmatlar
5. Pirovard iste'mol	2. Import
6. Yalpi jamg'arish 7. Eksport	3. Mahsulot uchun sof soliqlar
Ishlatilgani hammasi (4+5+6+7)	Jami resurslar (1+2+3)

Agarda YAICH ko'rsatkichi ishlab chiqaruvchi baholarida hisoblangan bo'lsa schyotning tuzilish sxemasi quyidagicha bo'ladi:

Ishlatilishi	Resurslar
4. Oraliq iste'mol	1. Yalpi ishlab chiqarish (ishlab chiqaruvchi baholarida) - tovarlar; - xizmatlar
5. Pirovard iste'mol	2. Import
6. Yalpi jamg'arish 7. Eksport	3. Qo'shilgan qiymat solig'i va import uchun sof soliq (soliq-subsidiya)
Ishlatilgani hammasi (4+5+6+7)	Jami resurslar (1+2+3)

Schyotning ko'rsatkichlari yordamida Yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichini ikki xil usulda: iste'mol va ishlab chiqarish usullarida hisoblash mumkin. YAICH iste'mol usuli bilan quyidagicha hisoblanadi: $YAICH = 5 + 6 + 7 - 2$;

Ishlab chiqarish usuli orqali esa quyidagicha aniqlanadi: $YAICH = 1 - 4 + 3$.

Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar

1. Schyotni tuzishdan ko'zlangan maqsad nimadan iborat?
2. Yalpi ichki mahsulotni hisoblashda ishlab chiqarish usulining mohiyati nimadan iborat?
3. Yalpi ichki mahsulotni hisoblashda iste'mol usulining mohiyati nimadan iborat?

4. Asosiy baholarda hisoblangan YAIM oxirgi bozor baholarida hisoblangan YAIMdan nimalar bilan farqlanadi?

5. Tovarlar va xizmatlar yig'ma schyotini tuzishda qaysi schyotlar ko'rsatkichlaridan foydalanilgan?

**Iqtisodiyot sektorlari va tarmoqlari schyotlarining mazmunini
yoritishga qaratilgan mashq va misollar**

1-Jadval.

**Nomoliya korxonalar sektorining ishlab chiqarish faoliyati
to'g'risidagi ma'lumotlar**

№	Ko'rsatkichlarning nomi	miqdori
1.	Tovar ishlab chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlar (asosiy baholarda):	
	Sotilgan mahsulotlar:	
	ichki bozorga	5500
	tashqi bozorga (eksport)	1760
	Bepul berilgan tovarlar	55
	Ish haqi sifatida natura holida berilgan tovarlar	80
	Tayyor tovarlar zaxirasi, xisobot boshiga	803
	hisobot oxiriga	995
	Tayyor tovarni ishlab chiqarilgan va uni sotish vaqtidagi narxlar o'rtasidagi farq hisobiga olingan daromad	10
	Yarim tayyor tovarlar, hisobot boshiga	517
	hisobot oxiriga	290
	<i>Tovar ishlab chiqarish jarayonida boshqa birliklardan olingan tovar va xizmatlar uchun sarf etilgan xarajatlar</i>	
	tovarlar:	
	xom ashyo materiallari	2750
	yoqilg'i mahsulotlari	440
	elektrenergiyasi	123
	mayda inventar	55
	arenda xarajatlari	143
	boshqaruvda ishlatilgan tovarlar	28
	Kapital remont uchun ishlatilgan tovarlar	100
	xizmatlar:	
transport xizmatlari	99	
auditorlik xizmatlari	26	
aloqa xizmatlari	33	
kommunal xizmatlar	24	
buxgalteriya uchun komp'yuter xizmatlari	8	
Uskunalarni joriy remont uchun sarflar	2	
Kapital remont uchun xizmatlar sarflari	13	
2.	Xizmatlar ishlab chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlar:	
	Ko'rsatilgan xizmatlar:	
	ichki bozorga sotilgani	1438
	tashqi bozorga (eksport)	264
	Bepul ko'rsatilgan xizmatlar	33

	Xizmatlar ishlab chiqarish uchun sarf etilgan tovar va xizmatlar xarajatlari	
	tovarlar:	
	xom ashyo materiallari	123
	yoqilg'i mahsulotlari	50
	elektrenergiyasi	55
	mayda inventar	33
	arenda xarajatlari	55
	boshqaruvda ishlatilgan tovarlar	28
	Uskunalarni joriy remont uchun sarflar	12
	Kapital remont uchun tovarlar sarflari	50
	xizmatlar:	
	transport xizmatlari	26
	auditorlik xizmatlari	11
	aloqa xizmatlari	9
	kommunal xizmatlar	13
	Uskunalarni joriy remont uchun sarflar	1
	Kapital remont uchun xizmatlar sarflari	12
3.	Davlat sektoriga to'langan to'lovlar:	
	Hisobot davrida to'lanishi lozim bo'lgan bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar, hammasi	28
	shu jumladan: to'langani	20
	to'lanmagani	5
	o'tgan hisobot davridan o'tgan qoldiq	3
	Soliqni kechikib to'lagani uchun jarimalar	0.2
	Mahsulot uchun soliqlar	30
	Ishlab chiqarishda foydalanilmagan mulk uchun to'langan soliq	7
4.	Mehnat haqi xarajatlari:	
	Asosiy ish haqi (daromad solig'i bilan)	2000
	Ish haqiga qo'shimcha va mukofotlar	400
	Natura ko'rinishida berilgan ish haqi	45
	Ijtimoiy sug'urta fondiga to'lov	600
5.	Sektorning mulk uchun olgan va chetga bergan daromadlari	
	Olgani:	100
	foizlar	60
	dividendlar	40
	Bergani	110
	foizlar	75
	dividendlar	35
6.	Xayriya va insonparvarlik yordamlariga xarajatlari	95
	Bepul berilgan tovarlar	55
	Bepul ko'rsatilgan xizmatlar	33
	Xayriya fondiga	7
	Sektorning boshqa birliklardan bepul olgan mablag'lari, tovarlari va xizmatlari	10
7.		

8.	Kapital xarajatlar:	
	Asosiy kapital yig'ilmasi	
	hisobot boshida	3000
	hisobot oxirida	3500
	Material aylanma mablag'lar	
	hisobot boshida	400
	hisobot oxirida	350
	Sotib olingan er (qurilish uchun)	500

1-jadvalda berilgan ma'lumotlardan foydalanib, quyidagi mashq va misollarni eching.

1. Tayyor mahsulot zahirasiining o'zgarishini aniqlang.

Javob: $995-803=192$

2. Yarim tayyor mahsulot zahirasiining o'zgarishini hisoblang.

Javob: $290-517=-227$

3. Zahiraniing o'zgarishini hisoblang. Javob: $192+(-227)=-35$

4. Xolding foydasini hisoblang. Javob: $XF=10$

5. Ishlab chiqarilgan tovarlar bo'yicha Yalpi mahsulot ko'rsatkichini hisoblang.

Javob: $YAM(t) = 5500+1760+55+80-10=7385$

6. Ishlab chiqarilgan xizmatlar bo'yicha Yalpi mahsulot ko'rsatkichini hisoblang.

Javob: $YAM(x) = 1438+264+33=1735$

7. Ishlab chiqarilgan Yalpi mahsulot miqdorini hisoblang.

Javob: $YAM = YAM(t) + YAM(x) = 7385+1735=9120$

8. Ishlab chiqarilgan tovar uchun oraliq iste'mol tovarlari miqdorini hisoblang. Javob: $OI(t) = 2750+440+123+55+143+28=3539$

9. Ishlab chiqarilgan tovar uchun oraliq iste'mol xizmatlari miqdorini hisoblang. Javob: $OI(x) = 99+26+33+24+8+2=192$

10. Tovar ishlab chiqarish uchun oraliq iste'molni hisoblang.

Javob: $OIT=OI(t)+OI(x)= 3539+192=3731$

11. Tovar ishlab chiqarishda yaratilgan Yalpi qo'shilgan qiymat ko'rsatkichini hisoblang. Javob: $YAQQ(T) = YAM-OI=7385-3731=3654$

12. Xizmat ko'rsatish faoliyati bo'yicha oraliq iste'molni hisoblang.

Javob:

$OI(t) = 123+50+55+33+55+28+12=356$

$OI(x) = 26+11+9+13+1=60;$

$OIX=OI(t)+OI(x)=416.$

13. Tovar va xizmat ishlab chiqarishda yaratilgan Yalpi qo'shilgan qiymat ko'rsatkichini hisoblang.
Javob: YAQQ = YAM-OIT+OIX=9120-3731-416=4973
14. Bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar miqdorini hisoblang.
Javob: ICHS = (28-3)=25;
15. Mehnat haqi ko'rsatkichini hisoblang.
Javob: MH=(2000+400+45+600)=3045;
16. Yalpi foyda ko'rsatkichini hisoblang.
Javob: YAF=YAQQ-MH-ICHS =4973-3045-25=1903;
17. Sektorning mulk uchun daromadlarini hisoblang.
Javob: MUD(olgani)=100; MUD(bergani)=110;
18. Sektorning birlamchi daromadlar saldosi hisoblang.
Javob: BDS=YAF+ MUD(olgani)- MUD(bergani)=1903+100-110=1893;
19. Sektorning olgan va bergan joriy transfertlarini hisoblang. Javob: JT(olgani)=10; JT(bergani)=95;
20. Sektorning ixtiyordagi daromad ko'rsatkichini hisoblang.
Javob: YAID=BDS+JT(olgani)- JT(bergani)=1893+10-95=1808;
21. Sektorning yalpi jamg'arma ko'rsatkichini hisoblang. Bu sektorda yakuniy iste'mol bo'lmagani uchun, uning jamg'arma ko'rsatkichi yalpi ixtiyordagi daromadiga teng bo'ladi. YAJ=ID=1808;
22. Sektorning kapital xarajatlarini hisoblang.
KX=(3500-3000)+(350-400)+500=950;
23. Yalpi jamg'arma va kapital xarajatlar o'rtasidagi farq (moliyalashtirish saldosi)ni hisoblaymiz. MS=YAJ-KX=1808-950=858; MS>0 bo'lgani uchun, hisobot davrida sektor boshqa birliklarga 858 miqdorda mablag' berib qo'rganligini bildiradi.

2-Jadval.

Nomoliya korxonalar sektorining mehnat haqi, soliqlar va boshqa daromadlarni taqsimlash operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar

№	Ko'rsatkichlarning nomi	miqdori
1.	Mehnat haqi to'g'risidagi ma'lumotlar:	
	Ishchi xizmatlarga hisobot davrida naqd pulda to'langan ish haqi (daromad solig'i bunga kirmaydi)	1650
	Ushlab qolingani daromad solig'i, % (transfert)	313
	Berilmay qolgan ish haqi (daromad solig'i bilan birga)	220
	Pensiya fondiga majburiy to'lovlar	50
	Majburiy ijtimoiy to'lovlar (sosstrax)	350

	Ish haqi sifatida natura holida berilgan tovarlar	80
	Jami mehnat haqi hisobidan norezidentlarga berilgan mehnat haqi	31
	Korxonada tomonidan shartnoma asosida chet elga yuborilgan ishchilarga chet el korxonasi tomonidan korxonada schyotiga o'tkazilgan mablag'lar, hammasi	200
	CHet eldan o'tkazilgan mablag'lar hisobidan ishchilarga berilgan ish haqi	60
2.	Hisobot davrida to'langan soliqlar:	
	Qo'shilgan qiymat solig'i	1535
	Aksiz solig'i	26
	Er solig'i	440
	Transport solig'i	264
	Uy-joy, binolar solig'i	272
	Litsenziya to'lovlari	55
	Ekologiya solig'i	22
	Yo'l solig'i	33
	Foydadan soliq (transfert)	220
3.	CHetdan olingan va chetga berilgan daromadlar	
	Rezidentlar olgani:	
	foizlar	110
	dividendlar	154
	mehnat haqi	44
	Norezidentlarga to'langani:	
	foizlar	66
	dividendlar	110
	mehnat haqi, hammasi	66
	shu jumladan rezidentlar olgani	60
4.	Xayriya va insonparvarlik yordamlari	
	Olingani:	
	Dori-darmonlar	143
	SHprislar	50
	Kiyim-kechaklar	26
	O'quv-seminar mashg'ulotlari	17
	Komp'yuter tomografiya apparatlari	334
	Tez yordam mashinalari	770
	Oziq-ovqatlar	118
	CHetga berilgani	
	Dori-darmonlar	110
	SHprislar	44
	Kiyim-kechaklar	66
	O'quv-seminar mashg'ulotlari	33
	Komp'yuter tomografiya apparatlari	270
	Tez yordam mashinalari	558
	Oziq ovqatlar	143

2-jadvalda berilgan ma'lumotlardan foydalanib, quyidagi mashq va misollarni eching.

1. Sektorning daromadlarni shakllanishi schyotidagi mehnat haqi ko'rsatkichini hisoblang. Javob: $MX=1650+313+220+350+80=2613$;
2. Uy xo'jaligining shu sektordan birlamchi daromad sifatida olgan mehnat haqi ko'rsatkichini hisoblang. Javob: $MX=1650+313+220+50+350+80-31=2632$;
3. Sektorning daromadlarni shakllanishi schyotidagi bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar ko'rsatkichini hisoblang. Javob: $BIS=440+264+272+22+33=1031$;
4. Sektorning mahsulot uchun soliqlar ko'rsatkichini hisoblang. Javob: $MUS=1535+26=1561$;
5. Sektorning mulk uchun olgan daromadlarini hisoblang. Javob: $MUD(\text{olgani})=110+154=264$;
6. Sektorning mulk uchun to'lagan daromadlarini hisoblang. Javob: $MUD(\text{to'lagani})=66+110=176$;
7. Sektorning olgan joriy transfertlar miqdorini hisoblang. Javob: $JT(\text{olgani})=143+50+26+17+118=354$;
8. Sektorning bergan joriy transfertlar miqdorini hisoblang. Javob: $JT(\text{bergani})=110+44+66+33+143=396$;
9. Sektorning olgan kapital transfertlar miqdorini hisoblang. Javob: $KT(\text{olgani})=334+770=1104$;
10. Sektorning bergan kapital transfertlar miqdorini hisoblang. Javob: $KT(\text{bergani})=270+558=828$;

3-Jadval.

**Davlat boshqaruv idoralari sektorining xarajatlari
to'g'risida ma'lumot**

№	Ko'rsatkichlarning nomi	miqdori
1.	Davlat idoralari tomonidan axolining ayrim qatlamlariga berilgan mahsulotlar, pul holidagi sovg'alar	
	1- sinf o'quvchilariga berilgan o'quv qurollari	22
	Nogironlarga berilgan aravachalar, boshqa uskunalar	440
	Faxriylarga berilgan sovg'alar	660
	Davlat tomonidan berilgan individual tovarlar va	
2.	xizmatlar xarajatlari:	
	Maktabgacha bo'lgan muassasalarga (bog'chalar va	500

	boshqalar)	
	O'rta va maxsus ta'lim sohasiga	700
	Oliy ta'lim sohasiga	300
	Madaniy-maishiy xizmatlarga	200
	Ommaviy sportni rivojlantirishga	100
	Aholining dam olish maskanlariga	50
	YUqori satlarda hisobga olinmagan boshqa individual tovarlar va xizmatlar	150
	Davlat tomonidan kollektiv tovarlar va xizmatlarga sarflangan xarajatlar:	
3.	Mudofaa xizmati	200
	Xavfsizlikni ta'minlash	150
	Chegara xizmati	120
	Huquqni himoyalash xizmati	70
	Yuqori satlarda hisobga olinmagan boshqa kollektiv xizmatlar	115
	Davlat boshqaruv idoralarining yuqorida hisobga olinmagan boshqa xarajatlari, hammasi	900
4.	Shu jumladan: to'langan foiz va dividendlar	22
5.	Boshqa birliklardan sotib olingan tovarlar va xizmatlar:	
	Tovarlar	600
	Xizmatlar	330
6.	Davlat sektorining mehnat haqi xarajatlari	
	Davlat sektorining boshqa birliklardan olgan va ularga bergan mulk uchun daromadlari	
7.	Olgani:	
	foizlar	10
	dividendlar	11
	foydadagi ulushlar	13
	To'langani:	
	foizlar	20
	dividendlar	2
8.	Xayriya va insonparvarlik yordamlari	
	Chet eldan olingani:	
	Tibbiyot sohasida ishlatiladigan texnik vositalar	50
	Shprislar	10
	Kiyim-kechaklar	5
	O'quv-seminar mashg'ulotlari	1
	Komp'yuter tomografiya apparatlari	2

Tez yordam mashinalari	15
Chegara xizmati uchun mashina va mexanizmlar	30
Qishloq xo'jaligi texnikalari	25
Xavfsizlik xizmati uchun maxsus transport vositalari	12
Oziq-ovqatlar	3
Chetga elga berilgani	
Meditsina xizmati	2
Qutqaruv xizmati	3
Kiyim kechaklar	4
CHet ellik talabalarni bepul o'qitish	1
Don mahsulotlari	6
Traktorlar	7
Oziq-ovqatlar	8
9. Kapital xarajatlar:	
Asosiy kapital yig'ilmasi	
hisobot boshida	1000
hisobot oxirida	1100
Material aylanma mablag'lar	
hisobot boshida	600
hisobot oxirida	700
Qimmatli qog'ozlar (davlat obligasiyalari)	
hisobot boshida	400
hisobot oxirida	300
Nomonetar oltin	
hisobot boshida	400
hisobot oxirida	350
Sotib olingan chet elning qimmatli qog'ozlari	20
Sotib olingan er (chet elda)	50

3-jadvalda berilgan ma'lumotlardan foydalanib, quyidagi mashq va misollarni eching.

1. Davlat boshqaruv idoralari sektorining Yalpi mahsulot, Oraliq iste'mol, Yalpi qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlarini hisoblang.

YAM=22+440+660+500+700+300+200+100+50+150+200+150+120+70
+200+150+120+70+115+900-22=5095;

OI=600+330=930;

YAQQ=5095-930=4165.

2. Davlat boshqaruv idoralari sektorining uy xo'jaligi sektoriga bergan joriy transfertlari miqdorini hisoblang.
 $JT=22+440+660=1122$.
3. Mehnat haqi ko'rsatkichini hisoblang. Javob: MH=3000;
4. Yalpi foyda ko'rsatkichini hisoblang.
 Javob: YAF=YAQQ-MH =4165-3000=1165;
5. DBI sektorining mulk uchun daromadlarini hisoblang.
 Javob: MUD(olgani)=34; MUD(bergani)=22;
6. DBI sektorining birlamchi daromadlar saldosi hisoblang.
 Javob: BDS=YAF+MUD(olgani)- MUD(bergani)=1265+34-22=1277;
7. DBI sektorining chet eldan olgan va chet elga bergan joriy transfertlarini hisoblang. Javob: JT(olgani)=(10+5+1+3)=19; JT(chet elga bergani)=24;
8. DBI sektorining jami bergan joriy transfertlar miqdorini hisoblang.
 $JT(\text{jami bergani}) = JT(\text{chet elga bergani})+JT(\text{uy xo'jaligiga bergani})=24+1122=1146$;
9. DBI sektorining ixtiyordagi daromad ko'rsatkichini hisoblang.
 Javob: YAID=BDS+JT(olgani)- JT(bergani)=1893+10-95=1808;
10. DBI sektorining uy xo'jaligi sektoriga bergan natura holidayi sotsial transfertlari miqdorini hisoblang.
 Javob: NST=500+700+300+200+100+50+150=2000.
11. DBI sektorining ixtiyordagi daromad ko'rsatkichini hisoblang.
 Javob: YAID=BDS+JT(olgani)- JT(bergani)=1893+10-95=1808;
12. DBI sektorining yakuniy iste'mol ko'rsatkichini hisoblang.
 $YAI =200+150+120+70+115+900-22=1533$;
13. DBI sektorining yalpi jag'arma ko'rsatkichini hisoblang.
 Javob:YAJ=ID- NST =1808-1533=275;
14. DBI sektorining kapital xarajatlarini hisoblang.
 $KX=(1100-1000)+(700-600)+(300-400)+(350-400)+20+50=120$;
15. DBI sektorining yalpi jamg'arma va kapital xarajatlar o'rtasidagi farq (moliyalashtirish saldosi)ni hisoblaymiz.
 $MS=YAJ-KX=275-120=155$; $MS>0$ bo'lgani uchun, hisobot davrida sektor boshqa birliklarga 155 miqdorda mablag' berib qo'yganligini bildiradi.
16. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, mustaqil ravishda sektorning ishlab chiqarish, daromadlarni shakllanishi, birlamchi daromadlar taqsimoti, qayta taqsimlash, daromadlarni ishlatilishi va kapital xarajatlar schyotlarini tuzing.

4-Jadval.

**Uy xo'jaliklari sektori xarajatlari va daromadlari to'g'risida
ma'lumot**

№	Ko'rsatkichlarning nomi	miqdori
1.	Uy xo'jaligi sektorining ishlab chiqarish ko'rsatkichlari	
1.1.	Ishlab chiqarilgan mahsulot	1000
	shu jumladan: sotilgani	800
	zaxirada qolgani	200
1.2.	Sotib olgan xom-ashyo va materiallar	400
	Shundan: ishlab chiqarishga sarflangani	300
	zaxirada qolgani	100
1.3.	Yollangan ishchilarga mehnat haqi (daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta bilan)	150
	shu jumladan: daromad solig'i	30
	majburiy ijtimoiy sug'urta	20
1.4.	Ishlab chiqarishga to'langan soliqlar	80
1.5.	Ishlab chiqarish jihozlarini joriy ta'mirlash	50
1.6.	Ishlab chiqarish jihozlarini kapital ta'mirlash	120
1.7.	Tomorqada yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olgan daromadi	250
1.8.	O'zi yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan o'z iste'moli uchun qoldirgani	30
1.9.	Tomorqada ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar (plyonka, o'g'it, gerbisid va h.k.)	20
2.	Uy xo'jaligi sektorining xarajatlari:	
	Oziq -ovqatlarni xarid qilishga	2000
	Kiyim-kechak, kundalik xarid mollariga qilingan xarajatlar	600
	Sotib olingan uy jihozlari	300
	Engil avtomobil va mototsikl sotib olishga xarajatlar	200
	Maishiy texnika (televizor, muzlatgich va boshqalar)	80
	Maishiy xizmatlarga to'lovlar	15
	Xayriya xarajatlari	12
	Xususiyl nafaqa fondiga to'lov (joriy transfert)	8
	Merosga berilgan uy uchun boj to'lovi (kapital transfert)	7
	Yangi uy solishga qilingan xarajatlar	450
	Soliq xarajatlari (ishlab chiqarishdan tashqari):	
	Daromad solig'i xarajatlari (yollanma mehnat haqidan)	2000
	Ijtimoiy sug'urta to'lovlari (yollanma mehnat haqidan)	2200
	Uy-joy solig'i	140
	Er solig'i	90
	Transport solig'i	70
	Bankdan olgan kreditlari uchun foiz to'lovlari	6
	Nafaqa fondiga majburiy to'lov	60

2.	Uy xo'jaligining daromadlari:	
	Yollanma mehnatdan olgan ish haqi (daromad solig'i va ijtimoiy sug'urtasiz)	5000
	Yalpi aralash daromad (ishlab chiqarish faoliyatidan)	730
	Tashqi dunyodan olgan ish haqi	25
	Mulkdan olgan daromadlar:	
	Tijorat bankidan olgan foizlar	4
	Aksiyaga berilgan dividendlar	3
	Korxonada foydasidan olgan ulushi	2
	Korxonada va tashkilotlardan bepul olgan tovarlar va xizmatlar	300
	Davlat tomonidan berilgan individual xizmatlar va tovarlar	1500
	Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar tomonidan berilgan individual xizmatlar va tovarlar	100
3.	Uy xo'jaligi aktivlaridagi o'zgarishlar:	
	Tijorat banklaridagi depozitlar:	
	- hisobot boshida;	2200
	- hisobot oxirida	2150
	Uy xo'jaligi qo'lidagi naqd pullar:	
	- hisobot boshida;	1200
	- hisobot oxirida	1450
	Uy xo'jaligi qo'lidagi aksiyalar:	
	- hisobot boshida;	800
	- hisobot oxirida	900
	Uy xo'jaligiga to'lanmagan ish haqi:	
	- hisobot boshida;	700
	- hisobot oxirida	1100
4.	Uy xo'jaligining majburiyatlari:	
	Uy xo'jaligi sektori olgan iste'mol kreditlari:	
	- hisobot boshida;	5200
	- hisobot oxirida	4500
	Uy xo'jaligi sektorining ishlab chiqarish uchun olgan kreditlari:	
	- hisobot boshida;	1600
	- hisobot oxirida	2000

4-jadvalda berilgan ma'lumotlardan foydalanib, quyidagi mashq va misollarni eching.

1. Uy xo'jaligi sektorining ishlab chiqarish schyoti ko'rsatkichlarini hisoblang.

Ishlatilishi	Resurslar
2.Oraliq iste'mol	1. Yalpi mahsulot
OI=300+20=320;	YAM=1000+250+30=1280;
3.Yalpi qo'shilgan qiymat	

YAAQ=1280-320=960.

2. Uy xo'jaligi sektorining daromadlarni shakllanishi schyotini tuzing.

Ishlatilishi	Resurslar
2. Mehnat haqi MH=150;	1. Yalpi qo'shilgan qiymat YAAQ=1280-320=960.
3. Bevosita ishlab chiqarish uchun sof soliqlar BISS=80;	
4. Yalpi aralash daromad YAAD=960-150-80=730.	

3. Uy xo'jaligi sektorining birlamchi daromadlar taqsimoti schyotini tuzing.

Ishlatilishi	Resurslar
4. Mulk uchun bergan daromadlari MUD=6;	1. Yalpi aralash daromad YAAD=730;
5. Birlamchi daromadlar saldosi BDS=730+9375+9=10114.	2. Mehnat haqi MH=150+2000+2200+5000+25=9375;
	3. Mulkdan olgan daromadlari MUD=4+3+2=9;

4. Uy xo'jaligi sektorining pul holidayi daromadlarni qayta taqsimlash schyotini tuzing.

Ishlatilishi	Resurslar
3. Joriy transfertlar (bergani) JT=8+2000+2200+140+90+70+60+30+20=4618;	1. Birlamchi daromadlar saldosi BDS=730+9375+9=10114.
4. Ixtiyordagi daromad ID=10114+300-4618=5796;	2. Joriy transfertlar (olgani) JT=300;

5. Uy xo'jaligi sektorining natura holidayi sotsial transfertlarni qayta taqsimlash schyotini tuzing.

Ishlatilishi	Resurslar
3. Tuzatilgan ixtiyordagi daromad TID=5796+1500+100=7396;	1. Ixtiyordagi daromad ID=10114+300-4618=5796;
	2. Natura holidayi sotsial transfertlar (olgani) - DBI dan NXST=1500; - UXXKNTdan NXST=100;

6. Uy xo'jaligi sektorining daromadlarni ishlatilishi schyotini tuzing.

Ishlatilishi	Resurslar
2. Uy xo'jaligining ixtiyordagi daromadi hisobidan yakuniy iste'molga xarajatlar.	1. Tuzatilgan ixtiyordagi daromad TID=5796+1500+100=7396;

YAI=2000+600+300+200+80+15=3195; 3. DBI sektori bergan natura holidayi sotsial transfertlar YAI(DBI)=1500; 4. UXXKNT sektori bergan natura holidayi sotsial transfertlar YAI(UXXKNT)=100;	
5. Haqiqiy yakuniy iste'mol XYAI=YAI+YAI(DBI)+YAI(UXXKNT)=3195+2500+100=5795;	
6. Yalpi jamg'arma YAJ=7396-5795=1601;	

7. Uy xo'jaligi sektorining kapital xarajatlar schyotini tuzing.

Ishlatilishi	Resurslar
3. Kapital xarajatlar KX=120+450=570;	1. Yalpi jamg'arma YAJ=7396-5795=1601;
4. Sof aktivlar (kreditlash) SK=1601-7-570=1031;	2. Sof kapital transfertlar SKT=-7

8. Uy xo'jaligi sektorining moliya schyotini tuzing.

Aktivlar	Majburiyatlar
1. Tijorat bankidagi depozitlar -hisobot boshida 2200 -hisobot oxirida 2150	1. Uy xo'jaliklari olgan iste'mol kreditlari -hisobot boshida 5200 -hisobot oxirida 4500
2. Uy xo'jaligi qo'lidagi naqd pullar -hisobot boshida 1200 -hisobot oxirida 1450	2. Uy xo'jaliklarining ishlab chiqarish uchun olgan kreditlari -hisobot boshida 1600 -hisobot oxirida 2000
3. Uy xo'jaligi qo'lidagi aksiyalar -hisobot boshida 800 -hisobot oxirida 900	
4. To'lanmagan ish haqi -hisobot boshida 700 -hisobot oxirida 1100	
A. Aktivlar, hammasi =(2150-2200)+(1450-1200)+(900-800)+(1100-700)=700;	V. Majburiyatlar, hammasi =(4500-5200)+(2000-1600)=-300;
5. Moliyalashtirish saldosi MS=A-V=700-(-300)=1000;	
6. Sof aktivlar SA=1024;	
Balans MS-SA=1000-1024=-24; Statistik xatolik =24;	

**Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar (NT)
sektorining xarajatlari to'g'risida ma'lumot**

No	Ko'rsatkichlarning nomi	miqdori
1.	NT sektorining daromadlari	
	A'zolik badallari	1000
	Tijorat banklarining xayriya o'tkazmalari	800
	Korxon va tashkilotlarning xayriya o'tkazmalari	350
	Nobozor narxlarda sotilgan tovar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun tushumlar	400
	Korxon va tashkilotlarning ajratmalari	300
	Uy xo'jaliklarining xayriya to'lovlari	100
	Bepul olingan tovar va xizmatlar	2000
	Olingan foizlar va dividendlar	50
	Bepul olingan kapital tovarlar (transport vositalari, komp'yuterlar, ofis mebellari va h.k.)	333
2.	NT sektorining xarajatlari	
	Faoliyatini yuritish uchun sotib olgan tovarlar, hammasi	3000
	shundan: hisobot davrida ishlatilgani	2900
	Transport, aloqa va boshqa xizmatlar	500
	Ish haqi (daromad solig'i bilan)	600
	Majburiy ijtimoiy sug'urta fondiga ajratmalar	100
	Asosiy kapitalga xarajatlar, hammasi	700
	shu jumladan: transport vositalari, komp'yuterlar	255
	binolar	445
	Mayda inven'tar, qog'oz	40
	Kommunal to'lovlar	20
	Ishlab chiqarishda foydalanilgan mulk uchun soliq	10
	Kam ta'minlangan aholiga yordam pullari, sovg'alar	200
	Nogironlarga berilgan aravachalar	150
	Aholiga yakka tartibda bepul berilgan boshqa tovarlar va xizmatlar	700
	Aholi guruhlariga berilgan kollektiv va individual tovarlar va xizmatlar (bepul oshxonalar va meditsina xizmatini tashkil qilish, bayram kechalari, seminarlar va h.k.)	2800
	Asosiy kapitalning iste'moli (amortizatsiya)	220
	NT sektorining yuqorida hisobga olinmagan boshqa ishlab chiqarish xarajatlari, hammasi	300
	SHu jumladan: to'langan foiz va dividendlar	12
3.	NT sektorining moliyaviy operatsiyalari	
	Olgan kreditlari:	
	-hisobot boshida	250
	-hisobot oxirida	260

Bergan kreditlari:	
-hisobot boshida	360
-hisobot oxirida	400
Kassadagi naqd pullar	
-hisobot boshida	5
-hisobot oxirida	6
Tijorat bankidagi depozitlar	
-hisobot boshida	90
-hisobot oxirida	150

5-jadvalda berilgan ma'lumotlardan foydalanib, quyidagi mashq va misollarni eching.

1.NT sektorining ishlab chiqarish schyoti ko'rsatkichlarini hisoblang.

Eslatma: Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorining YAICH (YAM) ko'rsatkichi davlat boshqaruv idoralari sektori kabi xarajatlar usulida hisoblanadi. Unga ko'ra, YAM sektorning mehnat haqi, oraliq iste'mol, bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar, asosiy kapitalning iste'moli hamda aholiga bepul va arzon narxlarda (yakka tartibda, kollektiv va individual) berilgan tovarlar va xizmatlar (BBTX) yig'indisidan iborat. YAICH ko'rsatkichi, odatda asosiy baholarda hisoblanadi. Bepul va arzon narxlarda berilgan tovarlar qiymati shunga o'xshagan tovar va xizmatlarning o'rtacha bozor baholarida hisoblanishi lozim. Bu sektorlarning oraliq iste'mol ko'rsatkichi oxirgi bozor baholarida hisoblanadi.

Javob:

NT sektorining ishlab chiqarish schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
2. Oraliq iste'mol	1. Yalpi mahsulot
$OI=2900+500+40+20+300-12=3748;$	$YAM=MH+OI+BIS+BBTX=600+100+900+500+40+20+10+220+200+150+700+2800+300-12=6528;$
3. Yalpi qo'shilgan qiymat $YAQQ=6528-3748=2780;$	
4. AKI =220;	
5. Sof qo'shilgan qiymat $SQQ=2560;$	

2. NT sektorining daromadlarni shakllanishi schyotini tuzing.

Javob:

NT sektorining daromadlarni shakllanishi schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
2. Mehnat haqi $MH=600+100=700$;	1. Sof qo'shilgan qiymat $SQQ=2560$
3. Bevosita ishlab chiqarish uchun sof soliqlar $BISS=10$;	
4. Sof foyda $SF=2560-700-10=1850$;	

3. NT sektorining birlamchi daromadlar taqsimoti schyotini tuzing.

Javob:

NT sektorining birlamchi daromadlar taqsimoti schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
3. Mulk uchun bergan daromadlari $MUD=12$;	1. Sof foyda $SF=2560-700-10=1850$;
4. Birlamchi daromadlar saldosi $BDS=1850+50-12=1888$;	2. Mulkdan olgan daromadlari $MUD=50$;

4. NT sektorining pul holidayi daromadlarni qayta taqsimlash schyotini tuzing.

Javob:

NT sektorining pul holidayi daromadlarni qayta taqsimlash schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
3. Joriy transfertlar (bergani) $JT=200+150+700=1050$;	1. Birlamchi daromadlar saldosi $BDS=1850+50-12=1888$;
4. Ixtiyordagi daromad $ID=1888+2650-1050=3488$;	2. Joriy transfertlar (olgani) $JT=1000+800+350+300+100+200=2650$;

5. NT sektorining natura holidayi sotsial transfertlarni qayta taqsimlash schyotini tuzing.

Javob:

NT sektorining natura holidayi sotsial transfertlarni qayta taqsimlash schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
3. Natura holidayi sotsial transfertlar (bergani) $NXST=2800$;	1. Ixtiyordagi daromad $ID=1888+2650-1050=3488$;
4. Tuzatilgan ixtiyordagi daromad $TID=3488+0-2800=688$;	2. Natura holidayi sotsial transfertlar (olgani) $NXST=0$;

6. NT sektorining daromadlarni ishlatilishi schyotini tuzing.

Javob:

NT sektorining daromadlarni ishlatilishi schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
2. NT sektorining yakuniy iste'moli nol'ga teng. YAI=0;	1. Tuzatilgan ixtiyordagi daromad TID=3488+0-2800=688;
3. Yalpi jamg'arma YAJ=688;	

7. NT sektorining kapital xarajatlar schyotini tuzing.

Javob:

NT sektorining kapital xarajatlar schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
3. Kapital xarajatlar KX=700+333=1033;	1. Yalpi jamg'arma YAJ=688;
4. Sof qarzlilar SQ=688+333-1033=-12;	2. Sof kapital transfertlar SKT=333;

8. NT sektorining moliya schyotini tuzing.

Javob:

NT sektorining moliya schyoti

Aktivlar	Majburiyatlar
1. Tijorat bankidagi depozitlar -hisobot boshida 90 -hisobot oxirida 150	1. NT sektori olgan kreditlari -hisobot boshida 250 -hisobot oxirida 360
2. Kassadagi naqd pullar -hisobot boshida 5 -hisobot oxirida 6	
3. NT sektori bergan kreditlari -hisobot boshida 360 -hisobot oxirida 400	
A. Aktivlar, hammasi $= (150-90) + (6-5) + (400-360) = 101$;	V. Majburiyatlar, hammasi $= (360-250) = 110$;
4. Moliyalashtirish saldosi MS=A-V=101-110=-9;	
5. Sof qarzlilar SQ=-9;	
Balans MS-SQ=12-(-9)=3; Statistik xatolik =3;	

Tijorat banklari ishlab chiqarish faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar

№	Ko'rsatkichlarning nomi	miqdori
1.	TB daromadlari	
	Boshqa birliklardan olgan mablag'lar hisobidan berilgan kreditlarga olgan foizlari	9000
	O'z mablag'lari hisobidan berilgan kreditlarga olgan foizlari	1000
	Tijorat banklarining moliya xizmatlari	800
	Ko'rsatilgan konsalting xizmatlari	350
	Korxonalar foydasidagi ulushlar, dividendlar	300
	Rezidentlardan bepul olingan tovar va xizmatlar	10
	Mahalliy xokimiyat tomonidan bank filiallariga bepul berilgan binolar	500
	Boshqa birliklarga sotilgan bank aksiyalari	400
2.	TB xarajatlari	
2.1.	Boshqa birliklardan olgan mablag'lar uchun foiz to'lovlari	6000
2.2	<i>Bank faoliyati jarayonida sarf etilgan xarajatlar</i>	
	arenda xarajatlari	2000
	mayda inventar	200
	transport xizmatlari	440
	auditorlik xizmatlari	23
	aloqa xizmatlari	55
	kommunal xizmatlar	143
	boshqaruvda ishlatilgan tovarlar	28
	buxgalteriya uchun komp'yuter xizmatlari	12
	Uskunalarni joriy remont uchun sarflar	8
	Kapital remont uchun ishlatilgan tovarlar	90
	shu jumladan: kapital tovarlarni tashish xizmati	11
	Kapital remont uchun xizmatlar sarflari	20
	Sug'urta xizmatlari	22
	Qorovullik xizmati xarajatlari	8
	Sotib olingan oltin qiymati	65
	Oltinni sotib olish bilan bog'liq xarajatlar (qo'riqlash va tashish xizmati)	15
	O'quv dargohlariga bepul berilgan komp'yuterlar	14
	Aholiga bepul berilgan komp'yuterlar	7
	O'z xizmatchilarining dam olishlari uchun dam olish maskanlariga o'tkazilgan mablag'lar	13
	Asosiy kapitalning iste'moli (amortizatsiya)	22
2.3.	Davlat sektoriga to'langan to'lovlar:	33
	Hisobot davrida to'lanishi lozim bo'lgan bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar, hammasi	35
	shu jumladan: to'langani	33

	to'lanmagani (kreditorlik qarzi)	3
	o'tgan hisobot davridan o'tgan qoldiq	5
	Soliqni kechikib to'lagani uchun jarimalar	1
	Ishlab chiqarishda foydalanilmagan mulk uchun to'langan soliq	2
2.4.	Mehnat haqi xarajatlari:	
	Asosiy ish haqi (daromad solig'i bilan)	185
	shu jumladan: ish haqidan qarz (kreditorlik qarzi)	4
	Ish haqiga qo'shimcha va mukofotlar	20
	Ijtimoiy sug'urta fondiga to'lov	8
2.5.	Qarzdan voz kechish	10
2.6.	Kapital xarajatlar:	
	Asosiy kapital yig'ilmesi	
	hisobot boshida	5000
	hisobot oxirida	5500
	Material aylanma mablag'lar	
	hisobot boshida	400
	hisobot oxirida	350
	Sotib olingan er (qurilish uchun)	500
	Sotib olingan boshqa birliklar aksiyalari	100
3.	TB moliyaviy operatsiyalari holati	
	Olgan kreditlari:	
	-hisobot boshida	250
	-hisobot oxirida	260
	Bergan kreditlari:	
	-hisobot boshida	360
	-hisobot oxirida	400
	Kassadagi naqd pullar	
	-hisobot boshida	6
	-hisobot oxirida	4
	Tijorat banki depozitlari	
	-hisobot boshida	130
	-hisobot oxirida	120
	Tijorat banki debitorlik qarzlari	
	-hisobot boshida	250
	-hisobot oxirida	230
	Tijorat banki kreditorlik qarzlari	
	-hisobot boshida	300
	-hisobot oxirida	250

6-jadvalda berilgan ma'lumotlardan foydalanib, TB misolida moliya sektorining schyotlarini tuzing.

Eslatma: Moli sektoriga kiruvchi tijorat banklarining asosiy faoliyati kredit resurslarini yig'ish va ularni boshqa birliklarga berishdan iborat. Ularning o'z mablag'larini boshqalarga kredit sifatida berishi natijasida olgan foizlari mulkdan olgan daromad hisoblanadi.

Javob:

TB ishlab chiqarish schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
2. Oralik iste'mol $OI=2000+200+440+23+55+143+28+12+8=2909$;	1. Yalpi mahsulot $YAM=YAM$ (asosiy faoliyat) + YAM (yordamchi faoliyat)+AKI $= (9000-6000)+800+350+22=4172$;
3. Yalpi qo'shilgan qiymat $YAQQ=4172-2909=1263$;	
4. AKI =22;	
5. Sof qo'shilgan qiymat $SQQ=1241$;	

2. TB daromadlarni shakllanishi schyotini tuzing.

Javob:

TB daromadlarni shakllanishi schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
2. Mehnat haqi $MH=185+20+8+13=226$;	1. Sof qo'shilgan qiymat $SQQ=1241$;
3. Bevosita ishlab chiqarish uchun sof soliqlar $BISS=35-5=30$;	
4. Sof foyda $SF=1241-226-30=985$;	

3. TB birlamchi daromadlar taqsimoti schyotini tuzing.

Javob:

TB birlamchi daromadlar taqsimoti schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
3. Mulk uchun bergan daromadlari $MUD=7$;	1. Sof foyda $SF=1241-226-30=985$;
4. Birlamchi daromadlar saldosi $BDS=985+1300-7=2278$;	2. Mulkdan olgan daromadlari $MUD=1000+300=1300$;

4. TB pul holidayi daromadlarni qayta taqsimlash schyotini tuzing.

Javob:

TB pul holidayi daromadlarni qayta taqsimlash schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
3. Joriy transfertlar (bergani) $JT=7+1+2=10$;	1. Birlamchi daromadlar saldosi $BDS=985+1300-7=2278$;
4. Ixtiyordagi daromad	2. Joriy transfertlar (olgani) $JT=10$;

ID=2278+10-10=2278;	
---------------------	--

5. TB daromadlarni ishlatilishi schyotini tuzing.

Javob:

TB daromadlarni ishlatilishi schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
2. TB sektorining yakuniy iste'moli nol'ga teng. YAJ=0;	1. Ixtiyordagi daromad ID=2278+10-10=2278;
3. Yalpi jamg'arma YAJ=2278;	

6. TB kapital xarajatlar schyotini tuzing.

Javob:

TB kapital xarajatlar schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
3. Kapital xarajatlar KX=90+20=110;	1. Yalpi jamg'arma YAJ=2278;
4. Sof kreditlar SK=2278+486-110=2654;	2. Sof kapital transfertlar - olgani KT=500; - bergani KT=14; SKT=500-14=486;

8. TB moliya schyotini tuzing.

Javob:

TB moliya schyoti

Aktivlar	Majburiyatlar
1. TB depozitlari -hisobot boshida 130 -hisobot oxirida 2120	1. TB olgan kreditlari -hisobot boshida 250 -hisobot oxirida 260
2. Kassadagi naqd pullar -hisobot boshida 6 -hisobot oxirida 4	2. TB kreditorlik qarzlari -hisobot boshida 300 -hisobot oxirida 250
3. TB bergan kreditlari -hisobot boshida 360 -hisobot oxirida 900	
4. Sotib olingan oltin O= 65+15=80;	
A. Aktivlar, hammasi =(2120-130)+(4-6)+(900-360)+80=2608;	V. Majburiyatlar, hammasi =(260-250)+(250-300)=-40;
5. Moliyalashtirish saldosi MS=A-V=2608-(-40)=2648;	
6. Sof kreditlar SK=2655;	
Balans MS-SK=2648-2655=-7;	
Statistik xatolik =-7;	

Tashqi dunyo schyotlarining mazmunini yoritishga qaratilgan mashq va misollar

1. Tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyoti mazmunini yoritishga qaratilgan mashq va misollar

Shartli ravishda rezident mamlakatning nomini Andora deb ataymiz. Mamlakat pul birligi **and** bo'lsin. Bu mamlakat 2000-2004 yillarda chet el bilan savdo-sotiq qilgan. Bu faoliyat natijalari statistika ma'lumotlarida quyidagicha hisobga olingan bo'lsin (1-jadval).

1-Jadval.

Andoraning eksport va import operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumot (ming and hisobida)

	2002 y.	2003 y.	2004 y.
1. Eksport, hammasi	2500	2700	2900
- tovarlar (FOB) ⁴²	2000	2100	2200
- xizmatlar	500	600	700
<i>Shu jumladan gumanitar yordam sifatida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar, hammasi</i>	250	260	270
- tovarlar	200	210	220
shundan			
tez yordam mashinalari, meditsina uskunalari;	100	110	90
oziq-ovqatlar, dori-darmonlar va boshqalar.	100	100	130
- xizmatlar	50	50	50
Barter shartnomasiga ko'ra qilingan eksport	60	100	150
2. Import	2300	2800	3000
- tovarlar (CIF)	1900	2300	2450
- xizmatlar	400	500	550
Shu jumladan:			
gumanitar yordam sifatida import qilingan tovarlar va xizmatlar, hammasi	50	70	300
- tovarlar	45	40	250
shundan			
tez yordam mashinalari, meditsina uskunalari;	20	25	150
oziq ovqatlar, dori darmonlar va boshqalar.	25	15	100
- xizmatlar	5	30	50
barter shartnomasiga ko'ra qilingan import	60	130	120

⁴²Matnlarda alohida qayd etilmasa FOB va CIF baholari sifatida mamlakatning bojhona chegarasidagi baholar nazarda tutilgan

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tovarlar importi CIF baholarida, ya'ni tovarlar qiymati mamlakat chegarasidagi baholarda berilgan. Schyotda tovarlar FOB baholarida qayd etilishi kerak. SHu sababli, tovarlar importini FOB baholariga o'tkazamiz. Buning uchun, bojxona ma'lumotlaridan foydalanib, import qilinayotgan tovarlarning eksport qilayotgan mamlakat chegarasidan import qilayotgan mamlakat chegarasigacha olib kelishda bo'lgan transport, sug'urta va boshqa xarajatlari hisoblanadi. Import operatsiyalarining juda ko'pligi uchun hisoblarni bajarishda tanlab kuzatish usulidan foydalanish tavsiya qilinadi. Hisoblashlar natijasida bir birlik SIF bahosidagi tovar importiga nisbatan mamlakat chegarasigacha olib kelishda bo'lgan transport, sug'urta va boshqa xarajatlar ulushini topamiz. Bu ulush 10 foiz bo'lsin. Bu degani, SIF dan FOBga o'tish uchun CIF bahosidagi qiymatni 0,9ga ko'paytirish kifoya. Mos ravishda 1-jadvalda berilgan tovarlar importi ko'rsatkichlarini CIF bahodan FOB bahoga o'tkazamiz. $1900 \cdot 0,9 = 1710$; $2300 \cdot 0,9 = 2070$; $2450 \cdot 0,9 = 2205$. CIF va FOB baholari o'rtasidagi farqni mos ravishda xizmatlar importiga qo'shib qo'yamiz. Ma'lumotlarni schyotda qayd etamiz.

Andoraning tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyoti

Ishlatilishi				Resurslar			
A. Andoraning tashqi dunyoga eksporti				V. Andoraning tashqi dunyodan importi			
	2002 y.	2003 y.	2004 y.		2002 y.	2003 y.	2004 y.
jami	2500	2700	2900	jami	2300	2800	3000
tovarlar	2000	2100	2200	tovarlar	1710	2070	2205
xizmatlar	500	600	700	xizmatlar	590	730	795
S. Tovarlar va xizmatlar saldosi							
	2002 y.	2003 y.	2004 y.				
Saldo	-200	100	100				

Schyot ko'rsatkichlaridan Tashqi Dunyo sektorining Andoraga nisbatan tovarlar va xizmatlar saldosi 2002 yilda manfiy (-200) va 2003-2004 yillarda esa musbat (100) saldogaga ega bo'lganligini ko'rish mumkin.

Schyot ko'rsatkichlaridan foydalanib, Andoraning tashqi savdo faoliyati rivojlanish tendensiyalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarni topamiz.

Андоранинг ташқи савдо фаолияти ривожланиш тенденциялари (ўтган йилга нисбатан, %)

	2002й	2003й.	2003й ўтган йилга нисбатан, %	2004й	2004й ўтган йилга нисбатан, %
Экспорт	2500	2700	108,0%	2900	107,4%
- товарлар	2000	2100	105,0%	2200	104,8%
- хизматлар	500	600	120,0%	700	116,7%
Импорт	2300	2800	121,7%	3000	107,1%
- товарлар	1710	2070	121,1%	2205	108,5%
- хизматлар	590	730	123,7%	795	108,9%
Сальдо	-200	100	-50,0%	100	100,0%

2. Tashqi dunyo birlamchi daromadlar taqsimoti schyotini yoritishga qaratilgan mashq va misollar

Andora va chet el mamlakatlari birliklari o'rtasida investitsiyalar, ishchi migrasiyasi va boshqa birlamchi daromadlar oldi-berdi operatsiyalari sodir bo'lgan bo'lsin. Ularning natijalari 2-jadvalda berilgan.

2-Jadval.

Андоранинг Tashqi Dunyo bilan bo'lgan birlamchi daromadlar oldi-berdi operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumot (ming and hisobida)

	2002 y.	2003 y.	2004 y.
1. Andoraning chet elga bergan kreditlari uchun olgan foiz daromdlari miqdori	30	31	32
2. Andoraning chet elda tashkil qilgan korxonalarini foydasidagi ulushi	5	6	7
3. Andoraning portfel investitsiyalardan olgan daromadi	3	4	5
4. Andoraliklarning chet elda vaqtincha (1 yilgacha) yashab olgan mehnat haqlari (yashash xarajatlaridan tashqari)	35	36	37
5. Andoraning norezidentlardan olgan bevosita ishlab chiqarish uchun olgan soliqlari miqdori	2	2	2
6. Andoraning norezidentlarga bergan bevosita ishlab chiqarish uchun subsidiyalari miqdori	1	1	1
7. Andoraning chet eldan olgan kreditlari uchun to'lagan foiz to'lovlari miqdori	150	160	170
8. Andorada chet el kapitali asosida tashkil qilingan korxonalar foydasida xorijiy sarmoyadorlarning ulushi	40	41	42

9. Tashqi dunyoning Andoraga kiritgan portfel investitsiyalaridan olgan daromadi	10	11	12
10. Andoraga chet eldan vaqtincha (1 yilgacha) muddatga kelib ishlagan chet elliklarning olgan mehnat haqlari (yashash xarajatlaridan tashqari)	2	2	2
11. Andoraning tashqi dunyoga bergan bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlari miqdori	1	1	1
12. Andoraning tashqi dunyodan olgan bevosita ishlab chiqarish uchun subsidiyalar miqdori	3	3	3

Jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib 2004 yil uchun Andoraning tashqi dunyo birlamchi daromadlar taqsimoti schyotini tuzamiz.

Andoraning 2004yildagi tashqi dunyo birlamchi daromadlar taqsimoti schyoti

(ming and hisobida)

Resurslar	Ishlatilishi
1. Andoraning norezidentlardan olgan mulk uchun daromatlari miqdori shu jumladan: foizlar 32 dividendlar 12 renta 0	4. Andoraning norezidentlarga to'lagan mulk uchun daromatlari miqdori shu jumladan: foizlar 170 dividendlar 54 renta 0
2. Andoraning norezidentlardan olgan mehnat haqlari miqdori 37	5. Andoraning norezidentlarga to'lagan mehnat haqlari miqdori 2
3. Andoraning norezidentlardan olgan bevosita ishlab chiqarish uchun sof soliqlari miqdori 1 shu jumladan: bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar 2 bevosita ishlab chiqarish uchun subsidiyalar(-) -1	6. Andoraning norezidentlarga to'lagan bevosita ishlab chiqarish uchun sof soliqlari miqdori -2 shu jumladan: bevosita ishlab chiqarish uchun soliqlar 1 bevosita ishlab chiqarish uchun subsidiyalar(-) -3
A. Andoraning norezidentlardan olgan jami birlamchi daromatlari miqdori =1+2+3=82	V. Andoraning norezidentlarga to'lagan jami birlamchi daromadlari miqdori=4+5+6=224
<i>Birlamchi daromadlar saldosi =V-A=142</i>	

2-jadvalda berilgan ma'lumotlardan foydalanib mustaqil ravishda 2002-2003 yillar uchun Andoraning tashqi dunyo birlamchi daromadlar taqsimoti schyotini tuzing. Natijalarni tekshirish uchun javoblar 2002 yil

uchun birlamchi daromadlar saldosi 126 ga teng, 2003 yil uchun 134 ga teng bo'ladi.

3. Tashqi dunyo joriy transfertlar taqsimoti schyotini yoritishga qaratilgan masala va mashqlar

3-Jadval.

Andoraning tashqi dunyo bilan bo'lgan joriy transfertlar oldi-berdi operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumot (ming and hisobida)

	2002 y.	2003 y.	2004 y.
1. Andoraning davlat boshqaruv idoralari sektoriga norezidentlardan kelib tushgan daromad va boylik uchun joriy soliqlari	1	2	3
2. Andora institutsion birliklariga norezidentlardan kelib tushgan ijtimoiy sug'urta badallari va mukofotlari	3	4	2
3. Andoraga xalqaro joriy hamkorlikdan kelib tushgan joriy transfertlar	10	11	12
4. Andoraga norezidentlardan kelib tushgan boshqa (1-3ga kirmagan) joriy transfertlar	5	6	7
5. Andora institutsion birliklarining daromad va boylik uchun norezidentlarga to'lagan joriy soliqlari	2	2	2
6. Andora institutsion birliklarining norezidentlarga to'lagan ijtimoiy sug'urta badallari	1	1	1
7. Andoradan xalqaro joriy hamkorlik asosida chiqib ketgan joriy transfertlar	0	0	0
8. Andora institutsion birliklarining norezidentlarga to'lagan boshqa (1-3ga kirmagan) joriy transfertlari	1	2	3

Schyotning ko'rinishi 2004 yil uchun quyidagicha bo'ladi:

Andoraning 2004 yildagi tashqi dunyo joriy transfertlar taqsimoti schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
1. Andoraning davlat boshqaruv idoralari sektoriga norezidentlardan kelib tushgan daromad va boylik uchun joriy soliqlari 3	5. Andora institutsion birliklarining daromad va boylik uchun norezidentlarga to'lagan joriy soliqlari 2
2. Andora institutsion birliklariga norezidentlardan kelib tushgan ijtimoiy sug'urta badallari va mukofotlari 2	6. Andora institutsion birliklarining norezidentlarga to'lagan ijtimoiy sug'urta badallari 1
3. Andoraga xalqaro joriy hamkorlikdan kelib tushgan joriy transfertlar 12	7. Andoradan xalqaro joriy hamkorlik asosida chiqib ketgan joriy transfertlar 0
4. Andoraga norezidentlardan kelib	8. Andora institutsion birliklarining norezidentlarga to'lagan boshqa (1-3ga

tushgan boshqa (1-3ga kirmagan) joriy transfertlar 7 A. Andoraning norezidentlardan olgan jami joriy transfertlari miqdori $(1+2+3+4)=24$	kirmagan) joriy transfertlari 3 V. Andoraning norezidentlarga bergan jami joriy transfertlari miqdori $(5+6+7+8)=6$
Joriy transfertlar saldosi =-18	

3-jadvalda berilgan ma'lumotlardan foydalanib mustaqil ravishda 2002-2003 yillar uchun Andoraning tashqi dunyo joriy transfertlar taqsimoti schyotini tuzing. Natijalarni tekshirish uchun javoblar 2002 yil uchun birlamchi daromadlar saldosi -15 ga teng, 2003 yil uchun -18 ga teng bo'ladi.

4. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib Andoraning tashqi dunyo joriy operatsiyalar schyotini tuzing

Buning uchun Andoraning tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar, birlamchi daromadlar va joriy transfertlar taqsimoti schyotlari ko'rsatkichlaridan foydalanamiz.

Andoraning 2004 yildagi tashqi dunyo joriy operatsiyalar schyoti

Ishlatilishi	Resurslar
1. Andoraning norezidentlardan olgan jami birlamchi daromadlari miqdori = 82 2. Andoraning norezidentlardan olgan jami joriy transfertlari miqdori = 24	3. Tovarlar va xizmatlar saldosi 100 4. Andoraning norezidentlarga to'lagan jami birlamchi daromadlari miqdori = 224 5. Andoraning norezidentlarga bergan jami joriy transfertlari miqdori = 6
A. Hammasi = 82+24=106	V. Hammasi = 100+224+6=330
Joriy operatsiyalar saldosi = 330-106=224	

Andoraning 2002-2003 yillardagi tashqi dunyo joriy operatsiyalar schyotini mustaqil ravishda tuzing. Tekshirish uchun javoblar: joriy operatsiyalar saldosi 2002 yilda minus 89 ga teng, 2003 yilda 216.

5. Tashqi dunyo kapital xarajatlar schyotini yoritishga qaratilgan mashq va misollar

Ushbu schyotni tuzish uchun yuqorida berilgan ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda Andoraning Tashqi Dunyo bilan bo'lgan kapital

transfertlar oldi-berdi operatsiyalari va aktivlaridagi o'zgarishlar to'g'risidagi axborotlar kerak bo'ladi. Faraz qilaylik bu axborotlar 4-jadvalda berilgan bo'lsin. Bu ma'lumotlar o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun operatsiyalar va aktivlar turiga qarab guruhlangan. Bu guruhlash schyotni tuzishda birmuncha qulaylik tug'diradi.

4-Jadval.

Andoraning tashqi dunyo bilan bo'lgan kapital transfertlar oldi-berdi operatsiyalari va aktivlaridagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumot

(ming and hisobida)

	2002 y.	2003 y.	2004 y.
<i>Kapital transfert operatsiyalari</i>			
1. Andoraga chet mamlakatlardan bepul yuborilgan meditsina apparaturalari	12	5	15
2. Andoradan chet mamlakatlarga bepul yuborilgan o'quv adabiyotlari	3	2	4
3. Andoraning chet eldan bepul olgan komp'yuter dasturiy ta'minotlari	45	25	30
<i>Ishlab chiqarilmagan aktivlardagi o'zgarishlar</i>			
4. Andoraning chet el kompaniyalariga uzoq muddatda foydalanish uchun sotgan neft' va gaz konlari	200	100	0
5. Andoraning chet el mamlakatlaridan elchixonalar uchun sotib olgan erlari	15	3	4
6. Andoraning ishlab chiqarilmagan aktivlaridagi boshqa o'zgarishlar	3	2	1

Andoraning tashqi dunyo joriy operatsiyalar schyoti va 4-jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib Andoraning tashqi dunyo kapital xarajatlar schyotini tuzamiz. Schyotning ko'rinishi 2004 yil uchun quyidagicha bo'ladi:

Andoraning 2004 yildagi tashqi dunyo kapital xarajatlar schyoti

(ming and hisobida)

Aktivlarning o'zgarishi (aktivlar)	O'z kapitalining va majburiyatining o'zgarishi (passivlar)
A.1. Sotib olingan ishlab chiqarilmagan aktivlar (+)=4	V.1. Tashqi dunyo joriy operatsiyalar saldosi 224
A.2. Sotib yuborilgan ishlab chiqarilmagan	V.2 Kapital transfertlar norezidentlar olgani (+)=4

aktivlar (-).=- $(0+1)$ =-1	
	V.3. Kapital transfertlar nerezidentlar bergani(-) =- $(15+30)$ =-45
A. Sof sotib olingan ishlab chiqarilmagan aktivlar (A.1+A.2)=4-1=3	V. Kapital qiymatining sof o'zgarishi (V.1.+ V.2+ V.3.)=183
Sof kreditlash (V-A) =183-3=180	

Saldo ko'rsatkichi musbat (180) ishora bilan chiqqanligi tashqi Dunyo sektorining Andorani sof kreditlaganini bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, 2004 yilda tashqi dunyoning Andoraga talabi 180 ming andga oshganligini yoki shu miqdorga Andoraning tashqi dunyo oldida majburiyati oshganligini bildiradi.

Andoraning 2002-2003 yillardagi tashqi dunyo kapital xarajatlar schyotini mustaqil ravishda tuzing. Tekshirish uchun javoblar: kapital xarajatlar schyoti saldosi 2002 yilda minus 45 ga teng, 2003 yilda 287.

6. Andoraning Tashqi dunyo moliya schyotini yoritishga qaratilgan mashq va misollar

6.1. Hisobot davrida Andoraning 10 mln.and miqdoridagi milliy valyutadagi naqd pullari nerezidentlar qo'liga o'tganligi ma'lum bo'ldi. Bu operatsiya schyotda qanday qayd etiladi?

Bu operatsiya nerezidentlar (Tashqi dunyo)ning rezident mamlakatga talabi oshganligi yoki Andoraning naqd pul ko'rinishida Tashqi dunyo oldida majburiyati oshganligini bildiradi. Bu holat Tashqi dunyoning aktivlari ko'payganligini bildirib schyotning chap tarafida (naqd pullar va depozitlar qatorida) plyus ishora bilan qayd etiladi.

6.2. Hisobot davrida Andoraning 5 mln.and miqdoridagi milliy valyutadagi naqd pullari nerezidentlardan mamlakatga qaytgan bo'lsin. Bu operatsiya schyotda qanday qayd etiladi?

Bu operatsiya nerezidentlarning rezident mamlakatga talabi kamayganligini yoki Andoraning naqd pul ko'rinishida tashqi dunyo oldida majburiyati kamayganligini bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, bu operatsiya Tashqi dunyoning aktivlari kamayganligini bildirib schyotning chap tarafida (naqd pullar va depozitlar qatorida) minus ishora bilan qayd etiladi.

6.3. Hisobot davrida Andoraning Markaziy banki rezerv aktivlariga tegishli va miqdori 25 mln.and bo'lgan monetar oltinni chet mamlakat

markaziy bankiga sotdi va miqdori 10 mln.and bo'lgan monetar oltinni boshqa mamlakat markaziy bankidan sotib olgan bo'lsin. Bu operatsiyalar schyotda qanday qayd etiladi?

Javob: Bu operatsiyalar schyotning chap tarafida monetar oltin qatorida sotilgani (25) plyus ishora bilan olingani minus ishora bilan qayd etiladi. Sof holdagi monetar oltin ko'rinishidagi aktivning o'zgarishi plyus 15 mln.andga teng bo'ladi. Bu tashqi dunyo aktivlarining shu miqdorga ko'payishini anglatadi.

6.4. Hisobot davrida Andoraning chet el valyutasidagi aktivlari 30 mln.andga ko'paygan bo'lsin. Bu operatsiya schyotda qanday qayd etiladi?

Rezident mamlakat aktivlarining ko'payishi tashqi dunyoning majburiyati oshganligini bildiradi. Bu operatsiya schyotning o'ng tarafida plyus ishora bilan qayd etiladi.

6.5. Hisobot davrida Andoraning chet el valyutasidagi aktivlari 20 mln.andga kamaygan bo'lsin. Bu operatsiya schyotda qanday qayd etiladi?

Rezident mamlakat aktivlarining kamayishi tashqi dunyoning majburiyati kamayganligini bildiradi. Bu operatsiya schyotning o'ng tarafida minus ishora bilan qayd etiladi.

6.6. Hisobot davrida Andora chet elga (nerezidentlarga) 50 mln.and miqdorida kredit bergan bo'lsin. Bu operatsiya schyotda qanday qayd etiladi?

Rezident mamlakatning kredit berishi natijasida tashqi dunyoning majburiyati oshadi. Bu operatsiya schyotning o'ng tarafida plyus ishora bilan qayd etiladi.

6.7. Hisobot davrida Andoraning chet elga (nerezidentlarga) o'tgan hisobot davrida berilgan kreditning bir qismi (20 mln.and) qaytib kelgan bo'lsin. Bu operatsiya schyotda qanday qayd etiladi?

Rezident mamlakatga tashqi dunyoning kreditni qaytarib berishi (qarzni uzishi) natijasida tashqi dunyoning majburiyati kamayadi. Bu operatsiya schyotning o'ng tarafida minus ishora bilan qayd etiladi.

6.8. Hisobot davrida xorijiy investor Andoraga 40 mln.and miqdorida kredit bergan bo'lsin. Bu operatsiya schyotda qanday qayd etiladi?

Rezident mamlakatning kredit olishi natijasida tashqi dunyoning aktivi oshadi. Bu operatsiya schyotning chap tarafida plyus ishora bilan qayd etiladi.

6.9. Hisobot davrida Andora horijiy investordan o'tgan hisobot davrida olgan kreditning bir qismi (18 mln.and)ni qaytarib bergan bo'lsin. Bu operatsiya schyotda qanday qayd etiladi?

Rezident mamlakatning tashqi dunyo oldidagi qarzini uzishi natijasida tashqi dunyoning aktivi kamayadi. Bu operatsiya schyotning chap tarafida minus ishora bilan qayd etiladi.

6.10. Hisobot davrida Andoraning chet elga (nerezidentlarga) 80 mln.and miqdorida to'g'ri investitsiya (sarmoya) kiritgan bo'lsin. Bu operatsiya schyotda qanday qayd etiladi?

Rezident mamlakatning to'g'ri investitsiya kiritishi natijasida tashqi dunyoning majburiyati oshadi. Bu operatsiya schyotning o'ng tarafida (aksiyalar sifatida) plyus ishora bilan qayd etiladi.

6.11. Hisobot davrida Andoraga horijiy investor 150 mln.and miqdorida to'g'ri investitsiya (sarmoya) kiritgan bo'lsin. Bu operatsiya schyotda qanday qayd etiladi?

Rezident mamlakatga to'g'ri investitsiya kiritishi natijasida tashqi dunyoning aktivi oshadi. Bu operatsiya schyotning chap tarafida (aksiyalar sifatida) plyus ishora bilan qayd etiladi.

6.12. Hisobot davrida Andoraning debitorlik qarzlari Evropa mamlakatlaridan 17 mln.andga ko'payganligi va Osiyo mamlakatlaridan 3 mln.andga kamayganligi ma'lum bo'ldi. Bu operatsiyalar schyotda qanday qayd etiladi?

Andoraning debitorlik qarzi bu mamlakat uchun aktiv bo'ladi. O'z navbatida Andoraning aktivi tashqi dunyo uchun passiv (majburiyat) bo'ladi. SHu sababli, Andoraning debitorlik qarzining ko'payishi va kamayishi tashqi dunyo schyotining o'ng tarafida (tashqi dunyoning majburiyatlari o'zgarishi sifatida) mos ravishda majburiyatlarning ko'payishi (17) plyus ishora bilan va majburiyatlarning kamayishi (-3) minus ishora bilan qayd etiladi. Sof o'zgarish $17+(-3)=14$ ga teng bo'ladi. Bu, tashqi dunyo majburiyatlarining 14 ga ko'payganligini bildiradi.

6.13. Hisobot davrida Andoraning kreditorlik qarzlari Evropa mamlakatlaridan 23 mln.andga ko'payganligi va Osiyo mamlakatlaridan 8 mln.andga kamayganligi ma'lum bo'ldi. Bu operatsiyalar schyotda qanday qayd etiladi?

Andoraning kreditorlik qarzi bu mamlakat uchun passiv bo'ladi. O'z navbatida Andoraning passivi tashqi dunyo uchun aktiv (talab) bo'ladi. SHu sababli, Andoraning kreditorlik qarzining ko'payishi va kamayishi tashqi dunyo schyotining chap tarafida (tashqi dunyoning aktivlari o'zgarishi sifatida) mos ravishda aktivlarning ko'payishi (23) plyus ishora bilan va aktivlarning kamayishi (-8) minus ishora bilan qayd etiladi. Sof

o'zgarish $23+(-8)=15$ ga teng bo'ladi. Bu tashqi dunyo aktivlarining 15 ga ko'payganligini bildiradi.

6.14. Hisobot davrida Andoraga qarashli sug'urta kompaniyalarining texnik rezervlari chet el aktivlari hisobiga 11 mln.andga ko'payganligi va xorijiy mamlakatlardagi norezident sug'urta kompaniyalarining texnik rezervlari Andoraga tegishli aktivlar hisobiga 9 mln.andga kamayganligi ma'lum bo'ldi. Bu operatsiyalar schyotda qanday qayd etiladi?

Andoraga qarashli sug'urta kompaniyalarining texnik rezervlarining oshishi (11) tashqi dunyoning majburiyatlarini oshishini bildiradi va schyotning o'ng tarafida plyus ishora bilan qayd etiladi. Norezident sug'urta kompaniyalarining texnik rezervlarining kamayganligi (9) tashqi dunyo aktivlarining kamayganligini bildiradi va schyotning chap tarafida minus ishora bilan qayd etiladi.

Quyida yuqoridagi misollarda keltirilgan operatsiyalarni tashqi dunyo moliya schyotida ketma-ket qayd etamiz.

Andoraning tashqi dunyo moliya schyoti

Aktivlarning o'zgarishi (aktivlar)	O'z kapitalining va majburiyatining o'zgarishi (passiv)
A.1. Monetar oltin va SDR =25-10=15	
A.2. Naqd pullar va depozitlar =10-5=	V.2.Naqd pullar va depozitlar=30-20=10
A.3. Qimmatbaho qog'ozlar (aksiyalardan tashqari)=0	V.3. Qimmatbaho qog'ozlar (aksiyalardan tashqari)=0
A.4. Aksiyalar va boshqa aksiyadorlik kapitaliga egalik huquqini beradigan qog'ozlar=150	V.4. Aksiyalar va boshqa aksiyadorlik kapitaliga egalik huquqini beradigan qog'ozlar =80
A.5. Berilgan kreditlar -tashqi dunyoning bergani=40 -qarzni uzish= -18	V.5. Olingan kreditlar -tashqi dunyoning olgani=50 -qarzni uzish=-20
A.6. Sug'urta rezervlari=(-9)=-9	V.6. Sug'urta rezervlari=11
A.7. Debitorlik yoki kreditorlik qarzlari =23+(-8)=15	V.7. Debitorlik yoki kreditorlik qarzlari =17+(-3)=14
A.8. Boshqa moliyaviy aktivlar=0	V.8. Boshqa moliyaviy passivlar=0
A. Sof olingan moliya aktivlari=198	V. Sof olingan majburiyatlar=145
	Sof kreditlash (+) yoki sof qarzlari (-) =198-145=53

Schyot ko'rsatkichlaridan shuni bilish mumkinki, tashqi dunyoning hisobot davridagi sof majburiyatlari 145 ga va sof aktivlari 198 ga teng bo'lgan ekan. Schyotning saldo ko'rsatkichi plyus ishora bilan chiqqanligi uchun u tashqi dunyoning Andoraning rezident birliklarini 53 mln.and miqdorida sof kreditlaganini bildiradi. Boshqacha qilib aytganda rezident mamlakat Andoraning hisobot davridagi tashqi dunyo oldidagi sof moliyaviy majburiyatlari 53 mln.andga oshganligini ma'lum bo'ldi.

VIII-bob. Milliy hisoblar tizimida ko'rsatkichlarni o'zgarmas baholarda hisoblash

1. Ko'rsatkichlarni o'zgarmas baholarda hisoblash zarurati

Milliy hisoblar tizimi ko'rsatkichlari birinchi navbatda joriy bozor baholarida hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar kuzatilayotgan davrda xalq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning amaldagi qiymatini va ishlab chiqarishda qatnashuvchilarning olgan daromadlarining amaldagi miqdorini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichlar orqali iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlarining strukturasi, ya'ni ularning milliy iqtisodiyotga qo'shgan xissalarini, mamlakatda ishlab chiqarilgan va iste'mol qilingan mahsulot va xizmatlar proporsiyalari, iste'mol va jamg'arma o'rtasidagi munosabatlarni ko'rish mumkin. Bundan tashqari, Yalpi ichki mahsulot bilan davlat byudjeti, byudjet kamomadi, davlat qarzi, pul massasi ko'rsatkichlari o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish mumkin. Lekin, joriy baholardagi ko'rsatkichlar orqali ishlab chiqarilgan va iste'mol qilingan tovar va xizmatlarning fizik hajmlarini ko'paygan yoki kamayganligini, xalq xo'jaligining tarmoqlarida ishlab chiqarishning haqiqiy hajmlari o'tgan davrlarga nisbatan o'sgan yoki kamayganligini bilish imkoniyati yo'q. Shu munosabat bilan, joriy baholardagi ko'rsatkichlarni o'zgarmas (qiyosiy) baholarda baholash zarurati tug'iladi.

Joriy baholardagi ko'rsatkichlarni o'zgarmas baholarda hisoblash natijasida bu ko'rsatkichlar orqali ifodalanayotgan iqtisodiy jarayonlarni sifat va miqdor jihatdan qanday o'zgarganligi to'g'risida tasavvurga ega bo'lamiz. Bu jarayonlarning bir necha yillar (chorak, oy) mobaynida rivojlanish tendensiyalarini ifodalovchi dinamik qatorlarga ega bo'lamiz. Bu esa kechayotgan iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish, chuqur tahlil qilish, kelajakda bu jarayonlarni qanday rivojlanishini ko'rsatuvchi istiqbol ko'rsatkichlarini aniqlashga imkon yaratadi. Bunday axborot bazasidan foydalanilgan holda, mamlakatda o'tkazilayotgan islohotlarning natijalarini bashorat qilish, turli ssenariylar asosida iqtisodiy islohotlar o'tkazish yo'llarini (iqtisodiy-matematik modellar yordamida) sinovdan o'tkazishga yo'l ochib beradi.

MHT tavsiyasiga ko'ra, ko'rsatkichlarni o'zgarmas baholarda hisoblashda o'zgarmas baho sifatida 2 xil davrdagi baholar asos qilib olinishi mumkin: 1) hamma ko'rsatkichlar uchun ma'lum bir yil asos (basis) qilib olinib, joriy bahodagi ko'rsatkichlar shu yilning o'rtacha baholarida baholanadi. Odatda basis yili har 5 yilda o'zgartirib turiladi;

2) hamma ko'rsatkichlar o'tgan yilning o'rtacha baholarida baholanadi. Odatda inflyatsiya jarayonlari yuqori bo'lgan mamlakatlarda 2-usulni qo'llash tavsiya etiladi. Chunki, bunday vaqtda 1-usul bilan o'zgarmas baholarda baholashda yo'l qo'yiladigan xatolik 2-usulga nisbatan kattaroq bo'ladi.

O'zgarmas baholarda baholash metodlarini ko'rib chiqishdan avval qaysi ko'rsatkichlarni o'zgarmas baholarda baholash mumkin va maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqamiz.

Umuman aytganda, MHTning hamma ko'rsatkichlarini o'zgarmas baholarda baholash mumkin. Amaliyotda esa, ko'rsatkichlarni "miqdor" va "baho" elementlariga ajratish mumkin bo'lgan (ya'ni statistikada miqdori va bahosi bor) ko'rsatkichlarni o'zgarmas baholarda baholash nisbatan engilroq. Bunday ko'rsatkichlar qatoriga Yalpi ishlab chiqarish (YAICH), oraliq iste'mol (OI), import, eksport, ish haqi, milliy boylikni tashkil qiluvchi ko'rsatkichlar va boshqalarni qo'shish mumkin.

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) yoki yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) kabi agregatlarni o'zgarmas baholarda baholashda ularni tashkil qiluvchi element (YAICH, OI yoki ish haqi, ishlab chiqarish uchun sof soliqlar, asosiy kapitalning iste'moli, foyda yoki aralash daromad)larni alohida-alohida o'zgarmas baholarda baholab, keyin bu agregatlar o'zgarmas baholarda hisoblanadi.

YAIM ko'rsatkichining fizik hajmining o'sishi (kamayishi) mamlakat miqyosida ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning o'sganligini (kamayganligini) ifodalaydi. Tarmoqlar va sektorlar YAQQ ko'rsatkichining fizik hajmini o'sishi (kamayishi) esa xalq xo'jaligining tarmoq va sektorlarida ishlab chiqarishning o'sgan (kamaygan)ligini ko'rsatadi.

Ish haqining fizik hajmi uy xo'jaligining real daromadlarining o'zgarishini ko'rsatuvchi miqdor bo'lmay, u ishlab chiqarishga ketgan xarajatning miqdorini ko'rsatuvchi ulushning o'zgarishini ifodalaydi. Chunki, ish haqi ishlab chiqarishda xarajat sifatida o'sishi mumkin, lekin xuddi shu davrda ish haqining sotib olish qobiliyati pasaygan bo'lishi mumkin.

Ish haqining o'zgarmas baholardagi qiymati orqali mehnatning mahsuldorligi va ishlab chiqarishning samaradorligini tahlil qilishda foydalaniladi. Masalan, jamiyat mehnatining mahsuldorligi indeksini topish uchun YAIM fizik hajmi indeksini ish haqi fizik hajmi indeksiga bo'lib topiladi. Hozirgi vaqtda, amaliyotda bu ko'rsatkich YAIM fizik hajmi indeksini ishlab chiqarishda bandlik soni indeksiga bo'lib topiladi.

Bu usulda ishchi-xizmatchilarning malakalarini oshganligi faktori hisobga olinmaydi va natijada inson mehnatining mahsuldorligi dinamikasi aniq hisoblanmaydi.

MHTda ayrim ko'rsatkichlarning fizik hajmlarini o'zgarmas baholarda baholab bo'lmaydi. Bunday ko'rsatkichlar qatoriga transfertlarni, investitsiya, qarz berish va olish manbalarini qo'shish mumkin.

2. Milliy hisoblar tizimi ko'rsatkichlarini o'zgarmas baholarda baholash usullari

O'zgarmas baholarda hisoblashning bir necha usullari mavjud. Ulardan asosiylari quyidagilar:

- baholar indeksi orqali deflyatsiya usuli;
- fizik hajm indeksi yordamida bazis davridagi ko'rsatkichlar orqali ekstropolyasiya qilish usuli (qisqacha **ekstropolyasiya usuli**);
- to'g'ridan-to'g'ri o'zgarmas baholarda baholash usuli;
- ko'rsatkichlarni xarajat elementlarini deflyatsiya qilish usuli;
- ikki marotaba deflyatsiya usuli (2D).

Baholar indeksi orqali deflyatsiya usuli baholar statistikasida ma'lum bo'lgan Laspeyres, Paashe va Fisher indeksleri orqali ko'rsatkichlarni o'zgarmas baholarda hisoblashga asoslangan. Bu usulni quyidagi formula orqali ifodalash mumkin⁴³:

$$\sum q_1 p_1 : I_r = \sum q_1 p_0 ,$$

bu formulada

q_1, q_0 - ko'rsatkichning kuzatilayotgan va bazis davridagi miqdori;

r_1, r_0 - ko'rsatkichning kuzatilayotgan va bazis davridagi bahosi;

$\sum q_1 p_1$ - ko'rsatkichning joriy baholardagi qiymati;

$\sum q_1 p_0$ - ko'rsatkichning o'zgarmas baholardagi qiymati;

I_r - Laspeyres, Paashe, Fisher baho indeksleri.

O'zgarmas baholarda topilgan ($\sum q_1 p_0$) qiymatni bazis (yoki o'tgan) davrdagi qiymat ($\sum q_1 p_0$) ga bo'lib fizik hajm indeksini topamiz:

$$I_q = \sum q_1 p_0 : \sum q_0 p_0$$

Baholar statistikasi nazariyasidan ma'lumki, baholarning qanday va qancha miqdorda o'zgarganligini baholar indeksi orqali ifodalanadi.

⁴³ Formulalarni yozishda soddalikka erishish uchun ko'rsatkichlarning indeksleri yozilmagan.

Yuqorida qayd etilgan baho indeksining va fizik hajm indekslarining 3 xil usuli ustida qisqacha to'xtab o'tamiz.

Laspeyres formulasi. Bu formula ko'rsatkichning bazis yilidagi miqdorini bazis va kuzatilayotgan davr baholarida baholashga asoslangan. Bu usulda **baholanayotgan miqdor** sifatida bazis (o'tgan yil) davridagi miqdor olingan. Baho indekslarini aniqlash uchun bazis davridagi ko'rsatkichning miqdorini bazis va kuzatilayotgan davr baholarida hisoblab olinadi. So'ngra kuzatilayotgan davr baholaridagi ko'rsatkichning qiymati bazis baholaridagi ko'rsatkichning qiymatiga bo'linadi. Natijada baho indeksiga ega bo'lamiz. Bu indeks quyidagicha ifodalanadi:

$$ILr = \sum q_{0p_1} : \sum q_{0p_0}$$

Paashe formulasi. Bu formula ko'rsatkichning kuzatilayotgan davrdagi miqdorini bazis va kuzatilayotgan davr baholarida baholashga asoslangan. Bu usulda **baholanayotgan miqdor** sifatida kuzatilayotgan davrdagi miqdorlar olingan. Baho indekslarini hisoblash uchun kuzatilayotgan davrdagi ko'rsatkichning miqdorini bazis va kuzatilayotgan davr baholarida hisoblanadi. Va kuzatilayotgan davr baholaridagi ko'rsatkichning qiymati bazis baholaridagiga bo'linadi. Natijada baho indeksiga ega bo'lamiz. Bu indeks quyidagicha ifodalanadi:

$$IPr = \sum q_{1p_1} : \sum q_{1p_0}$$

Fisher formulasi Laspeyres va Paashe baho indekslarini o'rtacha arifmetigini olishga asoslangan. Bu formula quyidagicha ifodalanadi:

$$IFr = (\sum q_{0p_1} : \sum q_{0p_0} + \sum q_{1p_1} : \sum q_{1p_0}) / 2 = (ILp + IPp) / 2;$$

Yuqorida biz Laspeyres, Paashe va Fisher tomonidan taklif etilgan baho indekslarini aniqlash formularini keltirdik. Xuddi shu tartibda ularning fizik hajmlarning indekslarini aniqlash formulalarini keltirish mumkin. Bu formulalar yuqorida keltirilgan uslubda qurilgan. Faqat bu formulalarda har ikkala ko'rsatkich miqdorlari, ya'ni kuzatilayotgan va bazis davrlaridagi ko'rsatkichlar miqdorlari **bazis baholarida** (Laspeyres usulida) va **kuzatilayotgan davr baholarida** (Paashe usulida) baholanadilar. Bu formulalar quyidagicha ifodalanadilar:

$$ILq = \sum q_{1p_0} : \sum q_{0p_0}, \text{ (Laspeyres)}$$

$$IPq = \sum q_{1p_1} : \sum q_{0p_1}, \text{ (Paashe)}$$

$$IFq = (\sum q_{1p_0} : \sum q_{0p_0} + \sum q_{1p_1} : \sum q_{0p_1}) / 2 = (ILq + IPq) / 2; \text{ (Fisher)}$$

Ekstropolyasiya usuli. Bu usulda, kuzatilayotgan davrdagi ko'rsatkichning o'zgarish baholaridagi qiymatini topish uchun, kuzatilayotgan davr fizik hajm indeksini (FHI) bazis davridagi

ko'rsatkichning joriy (amaldagi) baholardagi qiymatiga ko'paytirish yo'li bilan topiladi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\sum q_0 p_0 \times I_q = \sum q_1 p_0$$

bu formulada

$\sum q_0 p_0$ - ko'rsatkichning bazis davridagi qiymati, joriy baholarda;

I_q - fizik hajmning indeksi;

$\sum q_1 p_0$ - kuzatilayotgan davrdagi ko'rsatkichning o'zgarmas baholardagi qiymati.

Bu usulning afzalligi shundan iboratki, ko'p hollarda aniq baho indekslarini hisoblash qiyin. Fizik hajm indeksini yuqorida keltirilgan usullardan tashqari, miqdoriy ko'rsatkichlar (ishchi-xizmatchilar indeksi, xizmatdan foydalanayotganlar (masalan: kasallar, tomoshabinlar soni va h.k.) indeksi yordamida hisoblash mumkin. Masalan: nobozor xizmat ko'rsatuvchi davlat tashkilotlarining ko'rsatayotgan xizmatlarining miqdori o'zgarganligini bu tashkilotlarda ishlayotgan xodimlarning bazis va kuzatilayotgan davrlardagi sonlarini solishtirish orqali xizmatchilar indeksini topib, fizik hajm indeksi sifatida foydalanish mumkin. Kinoteatrlar, kasalxonalar, maktablar, bog'cha va shu kabilarning FHllarini bu tashkilotlar xizmatidan foydalanayotganlarning solishtirilayotgan va kuzatilayotgan davrlardagi sonlarini taqqoslash orqali aniqlash mumkin.

To'g'ridan-to'g'ri o'zgarmas baholarda baholash usuli ko'rsatkichlarni miqdorini to'g'ridan-to'g'ri o'zgarmas baholarga ko'paytirish yo'li bilan ko'rsatkichlarni o'zgarmas baholarda aniqlashga asoslangan. Bu usulda o'zgarmas baholar sifatida ma'lum bir davrdagi tovar va xizmatlarning preyskurant yoki ulgurji baholari, smeta baholari olinadi. Bu usul asosan qishloq xo'jaligi, qurilish tarmoqlarida keng qo'llanib kelingan. Masalan, qishloq xo'jaligida o'zgarmas baholar sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 1983 yildagi, qurilish tarmog'ida qurilish materiallarining 1991 yildagi smeta baholari ishlatilib kelinyapti. Shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotda baholarning va tovarlar tarkibining o'zgarishi uzoq davrlar mobaynida kam bo'lgan taqdirda bu usuldan foydalanish mumkin. Inflyatsiya darajalari yuqori va tovarlar tarkibi tez o'zgaradigan hollarda bu usulda hisoblangan FHllari haqiqiy baho o'zgarishlarini aks ettirmaydi.

Ko'rsatkichlarni xarajat elementlari bo'yicha deflyatsiya qilish usulida o'zgarmas baholarda baholanadigan ko'rsatkichning tarkibini tashkil qiluvchi xarajatlarni turlari bo'yicha FHllarini topib, ko'rsatkich

shu indekslar orqali (har bir xarajat turining ulushiga qarab) deflyatsiya qilinadi. Bu usul asosan nobozor xizmatlar ko'rsatuvchi tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmini o'zgarmas baholarda hisoblashda ishlatiladi. Chunki, nobozor ishlab chiqarish sohalarida mahsulot yoki xizmat asosan bepul ko'rsatiladi (yoki mahsulot va xizmat uchun olingan qiymat mahsulot va xizmatning haqiqiy bozor bahosini aks ettirmaydi).

Bu usulda asosiy ko'rsatkichning FHI shu ko'rsatkichning tarkibiga kiruvchi xarajatlarning turlari bo'yicha fizik hajmlarining o'sishi bilan barobar⁴⁴ deb shartli ravishda faraz qilinadi. Xulosa qilib aytganda, bu usulda xarajatlar dinamikasi asosiy ko'rsatkich dinamikasiga ko'chiriladi.

Biz yuqorida, amaliyotda qo'llanilib kelinayotgan o'zgarmas baholarda hisoblash usullariga to'xtalib o'tdik. Bu usullar iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'zgarmas baholarda baholashda ishlatiladi. MHTda agregat ko'rsatkichlar (YAIM, YAMD, YAMD) yuqorida keltirilgan usullar bilan o'zgarmas baholarda baholanmaydi. Agregatlar **ikki marotaba deflyatsiya** usuli orqali o'zgarmas baholarga o'tkaziladi. Bu usulning asosiy mohiyati quyidagicha: agregatlarni tashkil qiluvchi elementlari alohida-alohida yuqorida keltirilgan usullar yordamida o'zgarmas baholarda baholanadi va hosil bo'lgan miqdorlar asosida agregatlar o'zgarmas baholarda hisoblanadi. Masalan: YAQQ ko'rsatkichini o'zgarmas baholarda hisoblash uchun: 1) yalpi ishlab chiqarish va oraliq iste'mol ko'rsatkichlari alohida-alohida o'zgarmas baholarda baholanadi; 2) o'zgarmas baholardagi YAICHdan o'zgarmas baholardagi OI ayiriladi. Hosil bo'lgan natija o'zgarmas baholardagi YAQQ bo'ladi.

Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar

- 1. Ko'rsatkichlarni o'zgarmas baholarda hisoblashdan ko'zlangan maqsad nimadan iborat?*
- 2. Fizik hajm indeksining mazmuni nimadan iborat?*
- 3. Baho indeksi nimani bildiradi?*
- 4. Ekstropolyasiyaning mohiyati nima?*
- 5. Deflyatsiya usulining mazmuni nimadan iborat?*
- 6. Layspeyres baho indeksleri qanday hisoblanadi?*
- 7. Fisher hajm indeksleri qanday hisoblanadi?*
- 8. To'g'ridan-to'g'ri hajm indekslarini hisoblashga misollar keltiring.*

⁴⁴ Bu usulda ishlab chiqarish samaradorligi, ya'ni ishlab chiqarishda qatnashayotganlarning malakasi va texnika quvvatlarini o'sishi hisobga olinmaydi.

9. Paashe usulining mohiyati nimadan iborat?

Ko'rsatkichlarni o'zgarish baholarida hisoblash usullarini amaliyotga qo'llashga qaratilgan misol va masalalar

1. 1-jadvalda berilgan (shartli) ma'lumotlardan foydalangan holda ishlab chiqarishning fizik hajm indeksini aniqlang.

1-jadvalda berilgan (shartli) ma'lumotlardan foydalangan holda 3-jadvalga ega bo'lamiz (jadvalga qarang). Jadvalning 3,6,7 va 8-ustunlarida bajarilgan amallar formulalari keltirilgan. 7-ustunda bajarilgan amaliyotlarda Laspeyres formulasidan va 8-ustunda esa Paashe formulasidan foydalanib ustunning oxirida $\sum q_1 p_0$ va $\sum q_0 p_1$ topilgan. Topilganlardan foydalanib Laspeyres ($I_{lq} = 6240,9/6450 = 0,97$) va Paashe ($I_{pq} = 6095/6384,9 = 0,95$) hajm indekslariga ega bo'lamiz. Bu ikkala indekslardan foydalanib Fisher indeksini topamiz. $IFq = (0,97 + 0,95)/2 = 0,96$.

2. 2-jadvalda berilgan (shartli) ma'lumotlardan foydalangan holda importning fizik hajmini qanchaga o'zgariganligini aniqlang.

2-jadvalda berilgan (shartli) import to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalangan holda 4-jadvalga ega bo'lamiz (jadvalga qarang). Jadvalning 3,6,7 va 8-ustunlarida bajarilgan amallar formulalari keltirilgan. 7 - ustunda bajarilgan amaliyotlarda Laspeyres formulasidan va 8-ustunda esa Paashe formulasidan foydalanib ustunning oxirida $\sum q_1 p_0$ va $\sum q_0 p_1$ topilgan. Topilganlardan foydalanib Laspeyres ($I_{lq} = 7504/6900 = 1,088$) va Paashe ($I_{pq} = 7670/7252 = 1,058$) hajm indekslariga ega bo'lamiz. Bu ikkala indekslardan foydalanib Fisher indeksini topamiz. $IFq = (1,088 + 1,058)/2 = 1,073$.

3-jadvalda berilgan ma'lumotlardan foydalangan holda ishlab chiqarish fizik hajmini o'zgarishi indeksini aniqlang.

Jadvaldagi ma'lumotlarni Laspeyres formulasi ($I_{Lr} = \sum q_0 p_1 : \sum q_0 p_0$) ga qo'yib quyidagiga ega bo'lamiz. $I_{Lr} = 6384,9/6450 = 0,989$. Bu indeksni foizlarda ifodalasak 98,9%ga ega bo'lamiz.

Paashe baho indeksini topish uchun $I_{Pr} = \sum q_1 p_1 : \sum q_1 p_0$ formuladan foydalanamiz va $I_{Pr} = 6095/6240,9 = 0,976$ ga ega bo'lamiz. Bu indeksni foizlarda ifodalasak 97,6% ga ega bo'lamiz.

Fisher baho indeksi $I_{Fr} = (I_{Lp} + I_{Pp})/2 = (0,989 + 0,976)/2 = 0,983$ ga teng bo'ladi. Bu indeksni foizlarda ifodalasak 98,3% ga ega bo'lamiz. Baho indeksidan foydalanib 2004 yildagi eksportning 2003 yil bahosidagi qiymatini topish mumkin. $6095/0,983 = 6200,4$. Topilgan qiymatni 2003

yildagi eksport qiymatiga bo'lib 2004 yilda ishlab chiqarishning qanchaga o'zgarganligini topamiz. $6200,4/6450=0,96$ yoki 96% ya'ni 2004 yilda ishlab chiqarish hajmi 4%ga kamaygan.

4. Xuddi shu usul bilan 4-jadvalda berilgan ma'lumotlardan foydalangan holda ishlab chiqarishning baho indeksini mustaqil aniqlashingiz va 2004 yilda ishlab chiqarishning 2003 yilga nisbatan qanday o'zgarganligini bilishingiz mumkin. Tekshirish uchun natijalarni keltiramiz. $ILr=1,09$; $Ipr=1,06$; $IFr=1,07$;

1-Jadval.

Tovarlar ishlab chiqarish to'g'risidagi ma'lumot

Tovarlar turlari	Tovarning hajmi (q_0)	Tovarning qiymati, ming AQSH dollari (q_0p_0)	Tovarning hajmi (q_1)	Tovarning qiymati, ming AQSH dollari (q_1p_1)
	2003 yil (baza yili)		2004 yil (joriy yil)	
Tovar 1	10	100	12	200
Tovar 2	15	200	18	250
Tovar 3	16	300	10	275
Tovar 4	18	400	15	420
Tovar 5	19	500	18	400
Tovar 6	20	550	20	500
Tovar 7	21	600	25	550
Tovar 8	22	650	21	600
Tovar 9	23	700	22	650
Tovar 10	24	750	23	700
Tovar 11	24	800	25	750
Tovar 12	30	900	26	800
Hammasi		$\sum q_0p_0$ 6450		$\sum q_1p_1$ 6095

2-Jadval.

Tovarlar importi to'g'risidagi ma'lumot

Tovarlar turlari	Tovarning hajmi (q ₀)	Tovarning qiymati, ming AQSH dollari (q ₀ p ₀)	Tovarning hajmi (q ₁)	Tovarning qiymati, ming AQSH dollari (q ₁ p ₁)
	2003 yil (baza yili)		2004 yil (joriy yil)	
Tovar 1	13	300	13	300
Tovar 2	18	220	19	450
Tovar 3	12	320	15	350
Tovar 4	6	250	17	420
Tovar 5	17	550	18	600
Tovar 6	19	630	20	650
Tovar 7	20	600	22	750
Tovar 8	21	650	21	700
Tovar 9	33	800	29	780
Tovar 10	35	750	36	820
Tovar 11	42	880	45	950
Tovar 12	32	950	30	900
Hammasi		Σq ₀ p ₀ 6900		Σq ₁ p ₁ 7670

3-Jadval.

Tovarlar eksporti to'g'risida ma'lumot

Tovarlar turlari	Tovarning hajmi (q)	Tovarning qiymati	2003 yili bir birlik tovarning bahosi	Tovarning hajmi (q)	Tovarning qiymati	2004 yili bir birlik tovarning bahosi	2004 yildagi tovarning 2003 (bazi) yili bahosidagi qiymati	2003 yildagi tovarning 2004 yil bahosidagi qiymati
	2003 yil (baza yili)			2004 yil (joriy yil)				
A	1	2	3	4	5	6	7	8
			=2/1			=5/4	=4*3	=1*6
Tovar 1	10	100	10,0	12	200	16,7	120,0	166,7
Tovar 2	15	200	13,3	18	250	13,9	240,0	208,3
Tovar 3	16	300	18,8	10	275	27,5	187,5	440,0
Tovar 4	18	400	22,2	15	420	28,0	333,3	504,0
Tovar 5	19	500	26,3	18	400	22,2	473,7	422,2
Tovar 6	20	550	27,5	20	500	25,0	550,0	500,0
Tovar 7	21	600	28,6	25	550	22,0	714,3	462,0
Tovar 8	22	650	29,5	21	600	28,6	620,5	628,6

Tovar 9	23	700	30,4	22	650	29,5	669,6	679,5
Tovar 10	24	750	31,3	23	700	30,4	718,8	730,4
Tovar 11	24	800	33,3	25	750	30,0	833,3	720,0
Tovar 12	30	900	30,0	26	800	30,8	780,0	923,1
Hammasi		6450			6095		6240,9	6384,9
Fizik hajm indekslari					0,945		0,97	0,955

4-Jadval.

Tovarlar turlari	Tovarning hajmi (q)	Tovarning qiymati	2003 yili bir birlik tovarning bahosi	Tovarning hajmi (q)	Tovarlarning qiymati	2004 yili bir birlik tovarning bahosi	2004 yildagi tovarning 2003 (bazis) yili bahosidagi qiymati	2003 yildagi tovarning 2004 yil bahosidagi qiymati
	2003 yil (baza yili)			2004 yil (joriy yil)				
A	1	2	3	4	5	6	7	8
			=2/1			=5/4	=4*3	=1*6
Tovar 1	13	300	23,1	13	300	23,1	300,0	300,0
Tovar 2	18	220	12,2	19	450	23,7	232,2	426,3
Tovar 3	12	320	26,7	15	350	23,3	400,0	280,0
Tovar 4	6	250	41,7	17	420	24,7	708,3	148,2
Tovar 5	17	550	32,4	18	600	33,3	582,4	566,7
Tovar 6	19	630	33,2	20	650	32,5	663,2	617,5
Tovar 7	20	600	30,0	22	750	34,1	660,0	681,8
Tovar 8	21	650	31,0	21	700	33,3	650,0	700,0
Tovar 9	33	800	24,2	29	780	26,9	703,0	887,6
Tovar 10	35	750	21,4	36	820	22,8	771,4	797,2
Tovar 11	42	880	21,0	45	950	21,1	942,9	886,7
Tovar 12	32	950	29,7	30	900	30,0	890,6	960,0
Hammasi		6900			7670		7504,0	7252,0
Fizik hajm indekslari					111,2%		1,09	1,06

IX-bob. To'lov balansi - tashqi iqtisodiy faoliyat hisobot tizimi

1. To'lov balansining qisqacha mohiyati va rivojlanish tarixi

To'lov balansi milliy hisobchilikning ajralmas qismi hisoblanadi. U mamlakat iqtisodiyoti holatini ifodalovchi muhim ma'lumotlarni beradi. To'lov balansi MHTni tashqi iqtisodiy aloqalar to'g'risidagi muhim ma'lumotlar bilan to'ldiradi. U mamlakat iqtisodiyotini tahlil va bashorat qilishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Uning yordamida iqtisodiy natijalar qanday shart-sharoitda va nimalar evaziga erishilganligini bilish mumkin. To'lov balansi mamlakatda iqtisodiy o'sish (kamayish) qay tarzda bo'lganligini, ya'ni, tashqi dunyodan olingan qarz evazigami yoki mamlakat oltin va valyuta zaxiralarining kamayishi hisobigami yoki malakatning tashqi dunyo oldida sof majburiyatlarini ko'paytirmay o'z imkoniyatlari ishga solgan holda erishilganligini bilish mumkin. To'lov balansi ayni vaqtda, mamlakatda iqtisodiy o'sish yoki kamayish qaysi yo'l bilan erishilganligini ko'rsatib beradi. U tub ma'noda iqtisodiy o'sish yoki kamayish bo'lganligini bilishga imkon beradi.

To'lov balansi mamlakat rezident birliklarining norezidentlar bilan bo'lgan iqtisodiy munosabatlari natijalarining ma'lum bir davr (oy, chorak, yil) davomidagi o'zgarishlarini ifoda etadi.

Iqtisodiy nazariyada «to'lov balansi» atamasi ilk bor XVIII – asrning oxirlarida ishlatilgan. Dastlabki davrlarda to'lov balansi deganda asosan tashqi savdo balansi saldosi nazarda tutilgan. Keyingi davrlarda mamlakatlararo tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanib borishi natijasida to'lov balansining mazmuni kengayib borgan. Birinchi marta to'lov balansi Amerikada tuzildi va rasmiy ravishda 1923 yilda chop etildi. 1943 yilda amerikalik iqtisodchi Leri Amerika Qo'shma Shtatlarining 1919-1939 yillarga to'lov balanslarini tuzdi. Albatta, bu balanslar to'lov balansi metodologiyasini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Xalqaro to'lov tizimining rivojlanishi va kengayib borishi, xalqaro moliya-kredit tashkilotlarining yuzaga kelishi to'lov balansini tuzish tartibi va metodologiyasini ma'lum bir andozaga keltirishni taqozo etdi. To'lov balansini tuzish tartibi ilk bor xalqaro andoza sifatida 1947 yilda Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan chop etilgan. Shundan keyin to hozirgi davrgacha to'lov balansini tuzish tartibi va qoidalarini takomillashtirish vazifasini Xalqaro valyuta fondi amalga oshirib kelyapti. O'tgan davrda to'lov balansini tuzish tartibi hammasi bo'lib besh marotaba o'zgartirilgan. Oxirgi tuzish tartibi 1993 yilda chop etilgan. Amaliyotdagi

to'lov balansi bilan MHT asosiy tushunchalari, ularda ishlatiladigan tasniflar, operatsiyalarni hisobga olish usullari va vaqti MHT metodologiyasi bilan uyg'unlashtirib qurilgan.

2. To'lov balansini tuzish tartibi

To'lov balansini tuzish buxgalteriya hisobotlarida qo'llaniladigan ikkiyoqlama yozish prinsipiga asoslangan. Har bir operatsiya to'lov balansida ikki marta – kreditda (plyus ishora bilan) va debetda (minus ishora bilan) qayd etiladi. Shu sababli, to'lov balansining kredit va debet ko'rsatkichlari yig'indisi nolga teng (balans) bo'ladi. Shuni aytish joizki, to'lov balansi operatsiyalari buxgalteriya operatsiyalari kabi alohida-alohida qayd etilmaydi. Operatsiyalar guruhlangan holda va sof holda qayd etiladi. Masalan, minglab tovarlar turli davrlarda minglab shartnomalar asosida eksport qilinadi. Mos ravishda ularning to'lovlari ham turli davrlarga to'g'ri keladi. Bu operatsiyalar to'lov balansida har bir tovar va har bir eksport operatsiyasi bo'yicha alohida-alohida qayd etilmaydi. To'lov balansida bu operatsiyalar tuzilayotgan davr uchun bir marta qayd etiladi. Eksport va import operatsiyalari eksport va import qilingan davrda joriy operatsiyalar schyotida yozib qo'yiladi (birinchi qayd etish). Bu operatsiyaning hisob-kitobi natijalari moliya schyotida yozib (ikkinchi qayd etish) qo'yiladi. Eksport operatsiyalari kreditda, import esa debetda yozib qo'yiladi. Eksport operatsiyasi birinchi qayd etishda joriy operatsiyalar schyotida yoziladi. Ikkinchi qayd etishda, shu davrda eksport evaziga qaytib kelmagan aktiv miqdori (to'lanmagan qismi) moliya schyotida yoziladi. Bu operatsiya eksport qilgan tomonning talabi oshganligini yoki eksportni olgan mamlakatning majburiyati oshganligini bildiradi. Misol, 2000 yili O'zbekiston Amerikaga 800 mln. so'mlik paxta eksport qildi. Shu yilning o'zida paxta uchun 750 mln. so'm to'landi. Qolgan 50 mln.so'm 2001 yilda to'landi. O'zbekistonning to'lov balansida bu operatsiya quyidagicha yoziladi:

2000 yil to'lov balansi

	mln.so'm		
	Kredit	Debet	Saldo
Tovarlar	800		800
Moliya schyoti			
Aktivlar			
-tijorat kreditlari;		50	-50
- naqd pul, depozitlar		750	-750
Balans	800	800	0

2001 yil to'lov balansi

mln.so'm

	Kredit	Debet	Saldo
Moliya schyoti			
Aktivlar			
- tijorat kreditlari;	50		50
- naqd pul, depozitlar		50	-50
Balans	50	50	0

Iqtisodiy nazariyada transfertlar bir tomonlama operatsiya hisoblanadi. To'lov balansida bunday operatsiyalar o'ziga xos tartibda qayd etiladi. Agarda, transfert tovar yoki xizmat ko'rinishida bo'lsa, u birinchi marta eksport yoki import sifatida va ikkinchi marta transfertlar qatorida qayd etiladi. Transfert moliya (naqd pul, aksiya, qimmatli qog'oz, depozit) ko'rinishida bo'lsa, to'lov balansining transfertlar qatorida va moliya schyotida aktivning turiga qarab tegishli qatorda qayd etiladi. Masalan, O'zbekistonga Amerikadan hammasi bo'lib 500 birlik insonparvarlik yordami keldi. SHu jumladan, mos ravishda 360 va 40 birlik tovar va xizmat ko'rinishida, 30 birlik naqd pul birlik ko'rinishida keldi. Bundan tashqari, Amerika o'ziga tegishli 70 birlik aksiyani bolalar bog'chasiga sovg'a qildi. Bu operatsiyalarni O'zbekistonning va Amerikaning to'lov balanslarida qayd etilishi quyida keltirilgan.

O'zbekistonning to'lov balansi

	Kredit	Debet
<i>Import</i>		
-tovarlar;		360
-xizmatlar		40
Transfertlar	500	
Moliya schyoti		
-naqd pullar, depozitlar;		30
-portfel investitsiyalar		70
Balans	500	500

Amerikaning to'lov balansi

	Kredit	Debet
<i>Ekspart</i>		
-tovarlar;	360	
-xizmatlar	40	
Transfertlar		500
Moliya schyoti		
-naqd pullar, depozitlar;	30	

-portfel investitsiyalar	70	
Balans	500	500

To'lov balansida norezidentlardan rezidentlarga kelgan daromadlar kreditda, norezidentlarga to'langani debetda yoziladi. Transfertlarning kelgani kreditda, ketgani debetda yoziladi.

Nomoliyaviy ishlab chiqarilmagan aktivlarni sotish kreditda, sotib olish debetda qayd etiladi. Moliyaviy aktivlar va majburiyatlar bilan bo'ladigan operatsiyalar natijalari ularning natijasiga qarab - norezidentlarga nisbatan majburiyatlar oshganda yoki talab kamaygan hollarda kreditda yoziladi. Aks holda, ya'ni norezidentlarga talab oshganda yoki majburiyatlar kamayganda debetda qayd etiladi.

3. To'lov balansininig ko'rsatkichlar tarkibi

To'lov balansini tuzishdan asosan ikki maqsad ko'zlanadi. Birinchidan, har bir mamlakat mamlakatning tashqi dunyo bilan bo'lgan iqtisodiy munosabatlarini natijalarini bilishi mumkin, ikkinchidan, boshqa mamlakatlar to'lov balansidan foydalangan holda dunyo miqyosida tovarlar, xizmatlar, investitsiya va kreditlar bozorida bo'layotgan jarayonlarni bilishga imkon bo'ladi. SHu sababli, hamma mamlakatlarda to'lov balansi yagona andoza asosida tuziladi. Bu andozani ishlab chiqish, takomillashtirish va amaliyotga tatbiq etishda ko'mak berish vazifasini Xalqaro valyuta fondi bajaradi. To'lov balansining qisqartirilgan ko'rinishdagi tarkibi 9.1-jadvalda keltirilgan.

To'lov balansi joriy operatsiyalar, kapital va moliyaviy operatsiyalar schyotidan iborat. Joriy operatsiyalar schyotida tovarlar va xizmatlar hamda daromadlar va joriy transfertlar bilan bo'ladigan operatsiyalar alohida-alohida kichik schyotlarda qayd etiladi.

Tovarlar schyotida egalik huquqi mutloq tovarni olayotgan birlik foydasiga o'tayotgan tovarlar, qayta ishlash va tuzatishga mo'ljallangan tovarlar, portda transport tashkilotlari tomonidan sotib olingan tovarlar (benzin, kerosin va h.k.) alohida-alohida qayd etiladi. Bundan tashqari, nomonetar oltin⁴⁵ bilan bo'lgan operatsiyalar ham alohida qayd etiladi.

Xizmatlar schyotida rezident va norezidentlar o'rtasidagi xizmatlar ayirboshlash operatsiyalari xizmatlarning guruhlari bo'yicha qayd etiladi. Masalan, transport, sayyohlik, sug'urta, qurilish, aloqa va h.k. xizmatlar.

Daromadlar schyotida rezident va norezident birliklarning tashqi

⁴⁵ Tovar sifatida eksport (import) qilinadigan oltin.

dunyo iqtisodiyotida ishtirok etib olgan va bergan daromadlari qayd etiladi. Daromadlar odatda ikki turga bo'linadi: 1) *ish haqi* bilan bog'liq daromadlar (keyinchalik qisqacha - ish haqi); va 2) *investitsiyalardan olingan* yoki berilgan daromadlar⁴⁶.

Ish haqi tarkibiga bevosita ish haqi va unga qo'shimchalar, mukofotlar kiradi. Bundan tashqari, ish haqiga qo'shimcha ish beruvchilarning ishchilar

9.1-Jadval .

To'lov balansi

	Kredit	Debet	Saldo
1. Joriy operatsiyalar schyoti			
A. Tovarlar va xizmatlar			
a. Tovarlar			
1. Eksport va import tovarlari			
2. Qayta ishlanadigan tovarlar			
3. Tuzatilgan mashina va uskunalar			
4. Portda sotib olingan tovarlar			
5. Nomonetar oltin			
b. Xizmatlar			
B. Daromadlar			
V. Joriy transfertlar			
Kapital va moliyaviy operatsiyalar schyoti			
A. Kapital operatsiyalar schyoti			
1. Kapital transfertlar			
2. Ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlar			
B. Moliya schyoti			
1. To'g'ri investitsiyalar			
2. Portfel investitsiyalar			
3. Boshqa investitsiyalar			
<i>3.1. Aktivlar</i>			
3.1.1. Kommersiya kreditlari			
3.1.2. Ssuda va qarzarlar, chetga berilgani			
3.1.3. Naqd pullar va depozitlar			
3.1.4. Boshqa aktivlar			
<i>3.2. Majburiyatlar</i>			
3.2.1. Kommersiya kreditlari			
3.2.2. Ssuda va qarzarlar, chetdan olingani			
3.2.3. Naqd pullar va depozitlar			
3.2.4. Boshqa aktivlar			
4. Rezerv aktivlari			
Statistik hatoliklar			

⁴⁶ MHTda mulk uchun olingan yoki to'langan daromadlar deb yuritiladi.

foydasiga berayotgan natura holidagi daromadlari⁴⁷, sug'urta badallari va nafaqa fondlariga ajratmalari ham kiradi.

Investitsiyalardan daromadlarga ishlatilgan kreditlar va depozitlar uchun foiz to'lovlari, to'g'ri va portfel investitsiyalardan olingan (yoki berilgan) dividendlar kiradi.

Rezidentlarning olgan daromadlari kreditda, berganlari – debetda yozib qo'yiladi.

Joriy transfertlar⁴⁸ schyotida rezident va norezident birliklar o'rtasidagi insonparvarlik va texnik yordamlari, xalqaro tashkilotlar va uyushmalarga to'langan a'zolik badallari kabi operatsiyalar qayd etiladi. Bundan tashqari, chet elda ishlayotgan migrantlarning⁴⁹ ona yurtiga pul o'tkazishlari ham joriy transfert sifatida qayd etiladi. Rezidentlarning olgan joriy transfertlari kreditda, berganlari – debetda yozib qo'yiladi.

Kapital va moliyaviy operatsiyalar schyoti *kapital operatsiyalar va moliya schyotidan* iborat.

Kapital operatsiyalar schyoti ikki qismdan iborat: 1) kapital transfertlar va 2) ishlab chiqarilmagan nomoliya aktivlarni sotish yoki sotib olish.

*Kapital transfertlar*⁵⁰ davlat boshqaruv idoralari sektori va boshqa hamma sektorlar bo'yicha tuziladi. Davlat boshqaruv idoralari sektori bo'yicha bu sektorga kiruvchi institutsion birliklarning norezident birliklar bilan bo'lgan kapital xarakterdagi operatsiyalari qayd etiladi. Uning tarkibiga qarz beruvchining qarzdin voz kechishi, investitsiya transfertlari, kapital transfertlarga soliqlar va davlat tomonidan tasodifiy hodisalar natijasida keltirilgan zararni qoplash operatsiyalari kiradi.

Boshqa sektorlar bo'yicha kapital transfertlar sifatida qarz beruvchining qarzdin voz kechishi, migrasiya⁵¹ bilan bog'liq transfertlar, investitsiya transfertlari operatsiyalari qayd etiladi. Rezidentlarning olgan kapital transfertlari kreditda, berganlari – debetda yozib qo'yiladi.

Schyotning *ishlab chiqarilmagan nomoliya aktivlarni sotish yoki sotib olish* qismida rezident va norezident birliklar o'rtasida moddiy (er va konlar) va nomoddiy (patent, mualliflik huquqi, savdo belgilari va h.k.) aktivlarni sotish va sotib olish operatsiyalari qayd etiladi. Bu

⁴⁷ Ishchi – xizmatchilarga bepul berilgan tovarlar va xizmatlar, ularga va ularning oila a'zolariga davolanish, malakalarini oshirish va shu kabilar bilan bog'liq xarajatlarini qoplash nazarda tutilyapti.

⁴⁸ Joriy transfertlar to'g'risidagi to'liq ma'lumotlar IV – bobning 2 – bandida berilgan.

⁴⁹ Migrant deb, bir mamlakat fuqarosining boshqa mamlakat hududida bir yil va undan ortiq vaqtda yashayotgan (yoki yashashni mo'ljallagan) fuqarolariga aytiladi.

⁵⁰ Kapital transfertlar to'g'risidagi to'liq ma'lumotlar IV – bobning 2 – bandida berilgan.

⁵¹ Migrasiya natijasida migrantga tegishli aktivlar boshqa mamlakatning aktivi bo'lib qoladi. SHu sababli, bu aktivning kamayishi kapital transfert sifatida qayd etiladi.

operatsiyalarga misol sifatida elchixonona binosini qurish uchun er sotib olish va sotish operatsiyalarini keltirish mumkin.

Moliya schyotida to'g'ri, portfel va boshqa investitsiyalar hamda rezerv aktivlari bilan bo'ladigan operatsiyalar qayd etiladi. Bu schyotda norezidentlar oldida majburiyatlarning oshishi va norezidentlarga bo'lgan talablarning kamayishi *kreditda* qayd etiladi. *Debetda* norezidentlarga bo'lgan talabning ko'payishi va norezidentlar oldida majburiyatlarning kamayishiga olib keladigan operatsiyalar qayd etiladi.

To'g'ri investitsiyalarga rezident va norezidentlar o'rtasida institutsion birlikning faoliyatini boshqarishda qatnashish va korxonaga foydasidan dividendlar olish maqsadida asosiy kapitalga qo'yilgan investitsiyalar kiradi. Bu qo'yilmalar natura yoki moliya holida qo'yilishi mumkin. Bu guruhga korxonaga asosiy kapitalining 10 va undan ortiq foizini tashkil qiladigan investitsiyalar kiradi.

Portfel investitsiyalarga korxonaga asosiy kapitalining 10 foizidan kam bo'lgan asosiy kapitalga qo'yilgan investitsiyalar kiradi. Portfel investor korxonaga faoliyatini boshqarishda qatnashishni ko'zlamaydi. Uning asosiy maqsadi qo'ygan investitsiyasi evaziga dividendlar olish bilan kifoyalanadi. Agar portfel investorning ulushi ma'lum muddatdan so'ng korxonaning asosiy kapitalida 10 foizdan oshsa, u to'g'ri investor hisoblanib, to'lov balansida tegishli o'zgartirishlar qilinadi. Masalan, investor birinchi davrda korxonaning 7 foiz aksiyasini 1000 birlikka sotib oldi, so'ng keyingi davrda yana 5 foiz aksiyani 714 birlikka sotib oldi. Bu operatsiyalar to'lov balansida quyidagicha yoziladi.

To'lov balans (birinchi davr)

Ko'rsatkichlar	kredit	debet
To'g'ri investitsiyalar	0	0
Portfel investitsiyalar	1000	0
Ikkinchi davr		
To'g'ri investitsiyalar	1714	
Portfel investitsiyalar		1000

To'g'ri va portfel investitsiyalar pul yoki depozit sifatida qo'yilsa 2-yozuv to'lov balansining *moliya* schyotidagi mos qatorida yoziladi. Tovar yoki xizmat ko'rinishida bo'lsa, *tovarlar va xizmatlar* eksporti yoki importi sifatida qayd etiladi. Kapital transfertlar sifatida qo'yilsa, kapital operatsiyalar schyotining *kapital transfertlar* qatoriga yoziladi.

Boshqa investitsiyalar guruhida savdo kreditlari, qisqa va uzoq muddatga olingan va berilgan pul - kredit operatsiyalari, tovar va xizmat

operatsiyalari natijasida ikki tomonning aktiv va majburiyatlarida sodir bo'ladigan o'zgarishlar qayd etiladi. Aktivlar va majburiyatlar bilan bo'ladigan operatsiyalar alohida-alohida qayd etiladi.

Rezerv aktivlari⁵² guruhida mamlakatning rezerv aktivlarida bo'ladigan o'zgarishlar qayd etiladi. Operatsiyalar rezervga kiruvchi har bir aktiv bo'yicha qayd etiladi.

4. To'lov balansida operatsiyalarni baholash

To'lov balansi odatda milliy valyuta birligida tuziladi. Agar mamlakatda milliy valyuta barqaror bo'lmasa yoki inflyatsiya darajasi katta bo'lsa to'lov balansini barqaror qattiq valyuta birligida tuzish tavsiya etiladi. Ma'lumki, amaliyotda tashqi iqtisodiy operatsiyalar turli xil valyutalarda amalga oshiriladi. SHu sababli, to'lov balansida operatsiyalar qayd etilayotganda, bo'lgan operatsiyalar iloji boricha to'lov balansi tuzilayotgan valyuta birligiga operatsiyalar bo'lgan vaqtdagi ayirboshlash kurslarida⁵³ o'tkazish tavsiya etiladi. Buning iloji bo'lmagan hollarda o'rtacha ayirboshlash kurslari qo'llaniladi.

To'lov balansida va xalqaro savdo statistikasi qoidalarida tovarlar qiymatini baholashda birmuncha farq bor. To'lov balansida tovarlar FOB⁵⁴ baholarida qayd etiladi. Xalqaro savdo hisobotlarida tovarlar eksporti FOB baholarida, import - CIF⁵⁵ baholarida hisobga olinadi. Shu sababli, to'lov balansida tovarlarni qayd etishda o'zgartirishlar kiritiladi. Buning uchun, import qilinayotgan tovarning CIF qiymatidan chet mamlakat bojxona cherasidan tovarni import qilayotgan mamlakat bojxona chegarasigacha bo'lgan transport, ortish-tushirish va sug'urta xarajatlari ayirib tashlanadi va xizmatlar importi sifatida qayd etiladi. Masalan, O'zbekiston Kubadan 1000 tonna shakar import qilgan. Shartnomaga ko'ra Kuba tomoni shakarni O'zbekistonning bojxona chegarasigacha keltirib berishi ko'zda tutilgan. Kuba bojxona portidan yukni O'zbekiston bojxona

⁵² Rezerv aktivlari tarkibi va u to'g'risidagi to'liq tushunchalar shu bobning 7 – bandida keltirilgan.

⁵³ Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida mamlakatlarda turli xil valyuta ayirboshlash kurslari mavjud bo'lishi mumkin. SHu sababli, operatsiyalarni bir valyuta birligidan ikkinchisiga o'tkazishda muammolar paydo bo'ladi. Bunday hollarda sodir bo'lgan operatsiyaning mohiyatini bilgan holda ayirboshlash kurslarini tanlash tavsiya etiladi. Masalan, jismoniy shaxs milliy valyutada eksport qildi. Bu operatsiyani AQSH dollaridagi qiymatga o'tkazishda shu birlikning haqiqatda qanday ayirboshlash kursida AQSH dollarga ega bo'lishga qarab ayirboshlash kursi tanlanadi.

⁵⁴ FOB - tovar qiymatida tovarni mamlakat bojxona chegarasiga olib borilguncha bo'lgan transport, ortish va tushirish hamda sug'urta xarajatlari qo'shilgan bo'ladi.

⁵⁵ CIF - tovar qiymatida tovarni mamlakat bojxona chegarasiga olib kelinguncha bo'lgan transport, ortish va tushirish hamda sug'urta xarajatlari qo'shilgan bo'ladi.

chegarasigacha yetkazish bo'yicha transport va sug'urta xizmatlarini 80 foizini Rossiya, 20 foizini Qozog'iston transport va sug'urta kompaniyalari bajarishi ko'zda tutilgan. Shartnoma qiymati 300000 Amerika dollariga teng. Bu operatsiyani to'lov balansida qayd etish uchun, 1 tonna shakarning Kuba portidagi bahosi va shakarni O'zbekistonning bojxona chegarasiga etib kelguncha bo'lgan transport, ortish-tushirish, sug'urta xarajatlari aniqlanadi. Misol uchun 1 tonna shakarning Kuba portidagi bozor bahosi 220 AQSH dollari bo'lsin. SHu shartga ko'ra import qilinayotgan shakarning qiymati 220 ming AQSH dollari, transport-sug'urta xizmatlari 80 ming AQSH dollari bo'ladi. Bu operatsiya shu operatsiyada qatnashuvchi mamlakatlar to'lov balanslarida quyidagicha qayd etiladi.

O'zbekistonning to'lov balansi (ming AQSH dollari)

	Kredit	Debet
<i>Import</i>		
-tovarlar;		220
-xizmatlar		80

Kubaning to'lov balansi

	Kredit	Debet
<i>Eksport</i>		
-tovarlar	220	

Rossiyaning to'lov balansi

	Kredit	Debet
<i>Eksport</i>		
-xizmatlar	64	

Qozog'istonning to'lov balansi

	Kredit	Debet
<i>Eksport</i>		
-xizmatlar	16	

Ayrim mamlakatlarda tashqi savdo statistikasida eksport va import operatsiyalari shartnoma baholarida qayd etiladi. Bunday hollarda, to'lov balansida bu operatsiyalar bozor baholariga o'tkazilib qayd etiladi. Masalan, eksport shartnomasida paxta tolasi har tonnasiga 1250 Amerika dollari hisobida ko'rsatilgan bo'lib, yakuniy hisob-kitob Liverpool' birjasidagi narxda amalga oshirilishi ko'rsatilgan. Tolani import qiluvchi norezident olgan vaqtdagi tolaning narxi Liverpool' birjasida 1300 Amerika

dollariga teng bo'lgan. Norezident o'z to'lov balansida bu operatsiyani olgan bahosidagi miqdorda, ya'ni Liverpool' birjasidagi bahoda qayd etadi. Shu sababli, eksport qiluvchi mamlakat ham bu operatsiyani birjadagi qiymatda qayd etishi kerak bo'ladi.

Ayrim hollarda, barter operatsiyalari qiymati shartnomada bozor baholarida ko'rsatilmagan bo'lishi mumkin. Bunday hollarda barter miqdori mos ravishda bozor baholarida⁵⁶ baholanib to'lov balansida qayd etilishi kerak. Transfertlarning qiymatini aniqlashda ham ayrim muammolar tug'ilishi mumkin. Masalan, bir mamlakat ikkinchi mamlakatga insonparvarlik yordami ko'rsatayotganda yordam qiymati yordam beruvchi tomonidan (bir tomonlama) baholanadi. Bu baho, bozor baholaridan ancha farq qilishi mumkin. Shu sababli, bunday operatsiyalarni baholashda qo'shimcha axborotlardan foydalanish kerak bo'ladi. Masalan, yordam hajmini ifodalovchi natura ko'rsatkichlaridan (qancha tonna, dona, metr va h.k.), ularning berilgan davridagi bozor baholaridan foydalanib operatsiyalar qiymatini aniqlash to'lov balansining aniqliligini oshiradi.

Joriy daromadlar va moliyaviy operatsiyalar qiymati ularning operatsiya o'tkazilgan haqiqiy qiymatlarida baholanadi. Boshqa valyuta birligiga ham operatsiyalarning turiga va mohiyatiga qarab, sodir bo'lgan vaqtdagi ayirboshlash kurslarida o'tkazish tavsiya etiladi.

Mamlakatning oltin-valyuta zaxiralari qiymati zaxira holati aniqlanayotgan kundagi bozor baholaridan va valyuta ayirboshlash kurslaridan kelib chiqqan holda baholanadi.

5. To'lov balansining axborot bazasi

To'lov balansi mamlakat rezidentlarining chet el norezidentlari o'rtasidagi bo'lgan operatsiyalarning majmuidan iborat. Shu sababli, to'lov balansini tuzishda turli xil axborotlar kerak bo'ladi. To'lov balansi axborot bazasini hamma mamlakatlar uchun yagona tarkibga va andozaga keltirish amaliy jihatdan mumkin emas. Chunki, dunyoda iqtisodiyoti bir xil ikki mamlakatni topish mushkil ish. Bundan tashqari, har bir olingan axborot to'lov balansida qayd etishdan oldin mohiyatiga qarab, to'lov balansi nuqtai nazaridan qarab chiqilishi kerak. Masalan, bojxona va korxonalar statistikasida ko'rsatilgan eksport yoki import to'g'risidagi

⁵⁶ Bozor bahosi deganda har doim ham dunyo bozoridagi narxlarini tushunish kerak emas. Bozor bahosi tovarning operatsiya bo'layotgan joydagi talab va taklifdan kelib chiqqan narxi bo'ladi. Masalan, Markaziy Osiyo mamlakatlarida meva narxi 30–50 sent, Evropada 1–1,5 AQSH dollari bo'lishi mumkin. Ikkala baho ham bozor bahosi hisoblanadi.

axborotlarni to'g'ridan-to'g'ri to'lov balansida qayd etib bo'lmaydi. Chunki, bojxona statistikasida tovarlar bojxona chegarasidan o'tganda, korxonada statistikasida esa korxonadan ketganda (hisobidan chiqarilganda) hisobga olinadi. Bundan tashqari, tovarni jo'natish shartiga ko'ra, shartnoma qiymatida tovarlar bilan xizmatlar aralash ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Bu operatsiyalar to'lov balansida davriy va tarkibiy o'zgartirishlar kiritilgandan keyingi baholarda qayd etiladi.

Shu kunga qadar, to'lov balansini axborot bazasini bir tizimga solish maqsadida, xalqaro moliya tashkilotlari, iqtisodchi olimlar tomonidan bir qancha qo'llanma va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tashqi savdo va xizmatlar, tashqi qarz, investitsiyalar va kreditlar, xalqaro rezervlar va boshqa statistika tizimlari ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilyapti.

O'zbekistonda to'lov balansini tuzishda quyidagi axborotlar ishlatiladi:

- tovarlar va xizmatlar eksporti va importi bo'yicha tashqi savdo statistikasi, Davlat bojxona qo'mitasi, Moliya vazirligi (markazlashgan eksport) ma'lumotlaridan va boshqa qo'shimcha axborotlardan foydalangan holda hisoblanadi;

- daromadlar bo'yicha axborotlar (foiz to'lovlari, dividendlar, ish haqi) Moliya vazirligi, Mehnat va sotsial ta'minot vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi ma'lumotlari va boshqa statistik ma'lumotlar yordamida hisoblanadi;

- transfertlar bo'yicha axborotlar bojxona statistikasi, xalqaro tashkilotlar va boshqa ma'lumotlar yordamida hisoblanadi;

- investitsiya va kreditlar to'g'risidagi axborotlar statistika, tijorat banklari ma'lumotlaridan va boshqa axborotlardan foydalanib hisoblanadi.

YUqorida keltirilganlardan tashqari, to'lov balansini tuzishda mamlakatning boshqa mamlakat va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik natijalarini ifodalovchi axborotlardan ham foydalaniladi. Doimiy hisoboti tashkil qilinmagan yoki statistikada qayd etilmagan xalqaro iqtisodiy munosabatlar natijalari tanlab kuzatish yoki ekspert baholash usullari bilan hisoblanadi va to'lov balansida qayd etiladi.

To'lov balansining axborot bazasi qanchalik darajada aniq bo'lsa, joriy operatsiyalar va kapital xarajatlar va moliya schyoti ko'rsatkichlari bir-biriga yaqin va to'lov balansining xatoligi kam bo'ladi.

6. To'lov balansida operatsiyalarni qayd etish

To'lov balansini tuzish tartibidan kelib chiqqan holda operatsiyalarni ularning umumiy belgilariga qarab guruhlash mumkin. Bunday guruhlash ularning qayd etish qoidalarini eslab qolishni birmuncha engillashtiradi. Operatsiyalarni guruhlari bo'yicha qayd etish tartibi quyidagicha bo'ladi:

- tovarlar va xizmatlar eksporti - kreditda (+);
- tovarlar va xizmatlar importi – debetda (-);
- moliya majburiyatlarining ko'payishi – kreditda(+);
- moliya aktivlarining ko'payishi – debetda (-);
- majburiyatlarning kamayishi – debetda (-);
- aktivlarning kamayishi - kreditda (+).

Operatsiyalar to'lov balansi tuzilayotgan davr uchun jamlangan holda yoziladi. Bu to'lov balansini ixcham va tahlil uchun qulay bo'lishini ta'minlaydi. Operatsiyalarni jamlashda eksport va import operatsiyalari bo'yicha o'zaro hisob–kitoblarning natijalari sof holda qayd etiladi. YA'ni, eksport va import uchun shu davrda mos ravishda to'lanmagan qismigina qayd etiladi.

Operatsiyalarning qayd etish yo'llarini 9.2-jadvalda berilgan axborotlardan foydalangan holda ko'rib chiqamiz. Jadvalda eksport miqdori FOB baholarida berilgani uchun hech qanday o'zgarishsiz to'lov balansida (9.3-jadval) qayd etiladi. Import SIF baholarida berilgani uchun FOB bahosiga o'tkazamiz. Buning uchun, import shartnomalari tahlil qilinib, tovar importida transport va sug'urta xarajatlarining ulushini topamiz. Faraz qilaylik bu miqdor 8% bo'lsin. Bundan foydalanib, tovarlar importini FOB bahosiga o'tkazamiz. $Tovar\ importi\ (FOB) = 9500 \times (100 - 8) / 100 = 8740$. Xizmatlar importi qayta tasniflash evaziga $9500 - 8740 = 760$ ga ko'payadi. Tovarlar va xizmatlarni bunday aniqlikda sof holda qayd etishning ahamiyati juda katta. Buning ahamiyati ayniqsa ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlari tahlil etishda va bashorat qilishda yaqqol seziladi. Tovar bilan xizmatning aralash holda ifodalanishi turli chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Ishlab chiqaruvchi birliklarga eksport va import tovarlari hajmi va baholari haqida to'g'ri tasavvur bermaydi. Masalan, import qilinayotgan tovarning yo'l xarajatlari ko'p bo'lsa, shu tovarni joyida ishlab chiqarish yoki yo'l xarajatlarini kamaytirish chora-tadbirlari ko'rilishi kerak. Tovar qiymatida yo'l xarajatlarining bo'lishi tarmoqlarning oraliq iste'molini buzib ko'rsatadi. Masalan, ikki mamlakatda bir xil texnologiyada paxtadan mato ishlab chiqariladi. Paxta tolasining dunyo bozorida narxi ikkala mamlakat uchun bir xil. Birinchi

mamlakat o'z tolasiga ega, ikkinchi mamlakat esa to'lani import qiladi. Agar yo'l xarajatlarini 10% deb olsak, ikkinchi mamlakatda tola importidan yo'l xarajatlarini ajratmasak, bu mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mato birligiga paxta tolasiga ko'p ishlatilayotganday ko'rinadi. Aslida esa bunday bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun, tovarlar qiymatini baholashda transport, sug'urta va ortish tushirish xarajatlarini iloji boricha aniq ajratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

9.2-Jadval.

O'zbekiston va Rossiyaning iqtisodiy aloqalarini xarakterlovchi ko'rsatkichlar (raqamlar shartli keltirilgan)

Ko'rsatkichlar	Miqdori, mln.so'm
1. Eksport, hammasi	10600
Tovarlar eksporti (FOB)	9600
Xizmatlar	1000
2. Import, hammasi (CIF)	10700
Tovarlar importi (CIF)	9500
Xizmatlar	1200
3. Daromadlar	
Rossiyaga to'langani	130
- foiz to'lovlari	100
- dividendlar	10
- ish haqi	20
Rossiyadan olingani	115
- foiz to'lovlari	60
- dividendlar	5
- ish haqi	50
4. Transfertlar	
Rossiyaga berilgani	3
- insonparvarlik yordami	2
- texnik yordam	1
Rossiyadan olingani	4
- insonparvarlik yordami	3
- texnik yordam	1
5. Kapital transfertlar	
- Rossiyaga berilgani	3
- Rossiyadan olingani	3
6. To'g'ri investitsiyalar	
- Rossiyaga kiritilgani	18
- O'zbekistonga kiritilgani	112
7. Portfel investitsiyalar	

-Rossiyaga sotilgan aksiyalar	5
-Rossiyadan olingan aksiyalar	8
8. Ssuda va qarzlari	
Rossiya rezidentlari: - olgani	50
-asosiy qarzning qaytarilishi	5
O'zbekiston rezidentlari: - olgani	55
-asosiy qarzning qaytarilishi	10

9.3-Jadval.

O'zbekistonning to'lov balansi

	Kredit	Debet	Saldo
I. Joriy operatsiyalar schyoti	10719	10833	-114
A. Tovarlar va xizmatlar	10600	10700	-100
a. Tovarlar	9600	8740	860
1. Eksport va import tovarlari	9600	8740	860
b. Xizmatlar	1000	1960	-960
B. Daromadlar	115	130	-15
1. Chet eldan kelgani	115		115
2. Chet elga to'langani		130	-130
V. Joriy transfertlar	4	3	1
1. Chet eldan olingani	4		4
2. Chet elga to'langani		3	-3
II. Kapital va moliyaviy operatsiyalar schyoti	252	132	120
A. Kapital bo'yicha operatsiyalar schyoti	3	3	0
1. Kapital transfertlar	3	3	0
B. Moliya schyoti	249	129	120
1. To'g'ri investitsiyalar	112	18	-6
1.1 Chet elga		18	
1.2 O'zbekiston iqtisodiyotiga	112		
2. Portfel investitsiyalar	5	8	-3
3. Boshqa investitsiyalar	132	103	29
3.1. Aktivlar	50	93	-43
3.1.1 Kommersiya kreditlari	45	40	5
- eksport uchun kelib tushmagan to'lovlar;		40	
- oldingi yilgi eksport uchun to'lovlar	45		
3.1.2. Ssuda va qarzlari, chetga berilgani	5	53	-48
- o'zlashtirilgan kreditlar;		50	
- asosiy qarzning qaytarilgani	5		
3.1.3. Naqd pullar va depozitlar		3	
3.2. Majburiyatlari	82	10	72
3.2.1 Tijorat kreditlari	25		25
3.2.2 Ssuda va qarzlari, chetdan olingani	55	10	45
- o'zlashtirilgan kreditlar;	55		
- asosiy qarz qaytarilgani		10	

3.1.3 Naqd pullar va depozitlar	2		2
4. Rezerv aktivlari			0
Statistik hatolik		6	-6

Jadvalda berilgan axborotlarda eksport va import evaziga to'lovlar bo'lganligi haqida ma'lumotlar yo'q. Bu ma'lumotlarni korxonalaridan moliya statistikasi orqali topish mumkin. Faraz qilaylik, bu davrda ikkala tomon birliklari to'lovlarni belgilangan muddatlarda bajarganlar. Shu bilan birga, import operatsiyalari bo'yicha to'lov muddati o'tmagan qarzi 25 mln.so'mga ko'paygan, bu yilgi eksportga tushmagan to'lovlar 40 mln.so'm bo'lgan. O'tgan yilda eksport qilingan tovarlar uchun 45 mln.so'm kelib tushgan. Tijorat banklarining axborotlariga ko'ra ularning naqd pul, depozit ko'rinishidagi majburiyatlari 2 mln.so'mga va aktivlari miqdori esa 3 mln.so'mga ko'paygan. Rezerv aktivlari miqdori o'zgarimagan deb faraz qilamiz. Berilgan ma'lumotlarni to'lov balansida qayd etamiz (9.3-jadvalga qarang).

To'lov balansining joriy operatsiyalar bo'yicha saldosi minus 114 ga, kapital va moliyaviy operatsiyalar schyoti saldosi 120 ga teng bo'ldi. Nazariy jihatdan ular bir-biriga teng bo'lishi kerak edi. Lekin amaliyotda ko'rsatkichlarning ko'pchiligi baholash usullari bilan aniqlanganligi uchun, ular o'rtasida farq bo'lishi mumkin. Odatda bu farq statistik xatolik deb yuritiladi.

7. To'lov balansi va xalqaro investitsiyalar balansi

To'lov balansi ma'lum bir davr (oy, chorak, yil)ga tuziladi. SHuning uchun, u tuzilayotgan davrda mamlakat va chet el iqtisodiyoti o'rtasida sodir bo'lgan ***o'zgarishlarni*** ifoda etadi. Masalan, yanvar oyiga tuzilgan to'lov balansi yanvar oyidagi, chorakka tuzilgani chorakdagi, yilga tuzilgani yillik o'zgarishlarni ifoda etadi. Bu o'zgarishlar kuzatilgan davrda mamlakatning majburiyatlari va aktivlarining qay miqdorda oshgan yoki kamayganligini bildiradi. Yillar davomida bu o'zgarishlarning yig'ilmasi mamlakat iqtisodiyotining chet elga bog'liqlik darajasini belgilaydi. Mamlakat va chet el o'rtasidagi aktivlar va majburiyatlarning yig'ilmasi xalqaro *investitsiya balansi* (XIB)da qayd etiladi. XIB odatda yilning oxiridagi holatiga tuziladi. Aktivlar va majburiyatlarning miqdori yilning oxiridagi baholarda qayd etiladi. Xalqaro investitsiyalar balansi mamlakatning aktivlari va majburiyatlarining statistik hisobotidan iborat

bo'lib, u bir qator tashqi iqtisodiy schyotlar majmuidan iborat. Uning qisqartirilgan ko'rinishdagi tarkibi 9.4-jadvalda keltirilgan.

9.4-Jadval.

Xalqaro investitsiyalar balansi						
	Yil boshi dagi holat	Opera-siya-lar	Narxlar-ning o'zgarishi	Valyuta kursining o'zgarishi	Boshqa o'zgar-tirishlar	Yil oxiri-dagi holat
A. Aktivlar						
1. CHet elga to'g'ri investitsiyalar						
2. <i>Portfel investitsiyalar</i>						
3. <i>Boshqa investitsiyalar</i>						
3.1 Kommersiya kreditlari						
3.2 Ssudalar						
3.3 Naqd pul va depozitlar						
3.4 Boshqa aktivlar						
4. Rezerv aktivlari						
4.1 Monetar oltin						
4.2 Maxsus qarz olish huquqi (SDR)						
4.3 XVFDagi rezerv pozitsiyasi						
4.4 CHet el valyutasi						
4.5 Boshqa talablar						
B. Majburiyatlar						
1. Iqtisodiyotga to'g'ri investitsiyalar						
2. Portfel investitsiyalar						
3. Boshqa investitsiyalar						
3.1 Kommersiya kreditlari						
3.2 Ssudalar						
3.3 Naqd pul va depozitlar						
3.4 Boshqa majburiyatlar						

XIB schyotlari ikki tomonli jadval ko'rinishida yoziladi. Bir tomonda, aktivlar va majburiyatlar tarkibi keltirilgan. Ikkinchi tomonda, mos ravishda ularning yil boshiga bo'lgan holati, yil davomida ularning o'zgarishi (turlari bo'yicha) va yil oxiridagi holati yoziladi. Aktivlar va majburiyatlar tarkibi to'lov balansining moliya schyoti tarkibi bilan mos keladi. Ularning o'zgarishlari iqtisodiy operatsiyalar natijasida, baho va valyuta ayirboshlash kursining o'zgarishlari va boshqa tuzatishlar

natijasida sodir bo'ladi. Masalan, to'g'ri investitsiyalarning yil davomida mamlakatga kelishi XIBning majburiyatlar qatorida *operatsiyalar* ustunida, moliya bozorida aksiyalarning narxi ko'tarilishi yoki pasayishi – *baholar o'zgarishi* ustunida qayd etiladi. Chet el valyutasidagi zaxiralarning nominal qiymati valyuta kursi o'zgarishi natijasida o'zgaradi. Bu o'zgarish *valyuta kursi o'zgarishlari* ustunida qayd etiladi. O'tgan yillarda hisobga olinmagan aktivlar va majburiyatlar, ularning bir kategoriyadan ikkinchisiga o'tkazilishi (masalan, portfel investitsiyalarning yillar davomida yig'ilib to'g'ri investitsiyalarga aylanishi) va qarzdan voz kechish holatlari *boshqa tuzatishlar* ustunida yoziladi. Bulardan tashqari, monetar oltin miqdorida oltinni chetga sotish va zaxiraga sotib olish bilan bog'liq va mamlakatning *maxsus qarz olish huquqi (SDR)da*⁵⁷ bo'ladigan o'zgarishlar ham boshqa tuzatishlar ustunida qayd etiladi. Aktivlar va majburiyatlar o'rtasidagi farq sof investitsiya holatini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich aktivlar miqdori majburiyatlardan ko'p bo'lgan holda musbat bo'ladi. Sof investitsiya holati musbat bo'lishi, mamlakatning tashqi dunyoga nisbatan talabi, aks holda majburiyati ko'payganligini bildiradi. Xulosa qilib aytganda, xalqaro investitsiya balansi yil davomida mamlakatning chet el bilan bo'lgan moliyaviy operatsiyalarining, aktiv va majburiyatlarda baho o'zgarishlari va boshqa tuzatishlarning majmuidan iborat. Aktivlar va majburiyatlar yig'indisi mos ravishda mamlakatning yalpi tashqi aktivlar (YATA) va yalpi tashqi majburiyatlar (YATM) miqdorini bildiradi.

Shuni aytish lozimki, YATM bilan tashqi qarz tushunchalarini bir biridan farqlash kerak. Chunki, har doim ham majburiyatlar qarz bo'lavermaydi. Qarz tarkibiga portfel va to'g'ri investitsiyalar bo'yicha majburiyatlar kirmaydi.

Bundan tashqari, monetar oltin va SDR aktiv hisoblansada, norezidentlar uchun majburiyat hisoblanmaydi. SHu sababli, *sof tashqi aktivlar tarkibiga* monetar oltin va SDR kirmaydi.

Sof va yalpi tashqi aktivlardan *tashqi rezerv aktivlarni* (TRA) farqlash lozim. TRA mamlakatning rezerv aktivlari hisoblanadi. Har qanday aktiv ham TRA bo'lavermaydi. Rezerv aktivlariga davlatning pul-kredit siyosat yurituvchi tashkilotlari tasarrufida bo'lgan va ularni, kerak bo'lganda hech bir to'siqsiz ishlatish mumkin bo'lgan moliyaviy aktivlar kiradi. Bu moliyaviy aktivlar yuqori darajada xaridorgir va har qanday vaziyatda ham

⁵⁷ SDR XVf tomonidan xalqaro rezerv aktivi sifatida chiqariladi. Bu aktiv XVf rezervi hisoblanadi. Har bir mamlakat XVf belgilagan kvota miqdoridagi mablag'ni o'z milliy valyutasida XVf maxsus schyotiga o'tkazadilar. SDR XVfning majburiyati hisoblanmaydi. Uning kursi bir necha nufuzli valyuta kurslarining kunlik o'zgarishlarini inobatga olgan holda har bir kunga hisoblanadi.

qattiq valyutaga tez sotilishi yoki boshqa turdagi rezerv aktivga almashilishi mumkin bo'lishi kerak. Rezerv aktivlari tarkibiga monetar oltin⁵⁸, SDR, XVFdagi aktivlar⁵⁹, chet el valyutasi, qimmatli qog'ozlar va boshqalar kiradi. Bu tarkibga faqat rezerv aktivlarga qo'yilgan talabga javob beradigan aktivlarga kiradi. Masalan, chet el valyutasi guruhiga qattiq va barqaror valyutalar: AQSH dollari, nemis markasi, evro va shu kabilar) kirishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar guruhiga yuqori likvidli chet el qimmatli qog'ozlari kiradi. Boshqa rezerv aktivlar guruhiga, yuqorida qayd etilmagan rezerv aktivlar kiradi.

Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar

1. *To'lov balansini tuzishdan ko'zlangan maqsad nimadan iborat?*
2. *To'lov balansini qanday operatsiyalarni o'z ichiga oladi?*
3. *Joriy operatsiyalarga qanday operatsiyalar kiradi?*
4. *Joriy operatsiyalar saldosi qanday iqtisodiy mazmuni nimadan iborat?*
5. *Savdo balansini nima?*
6. *Xizmatlar balansining mazmunini yoritib bering?*
7. *Daromadlar schyotida qanday operatsiyalar qayd etiladi?*
8. *Joriy transfertlar tarkibiga qanday operatsiyalar kiradi?*
9. *Joriy operatsiyalar schyotida operatsiyalar qanday tartibda qayd etiladi?*
10. *FOB va CIF baholari mazmunini yoritib bering?*
11. *Kapital transfertlar tarkibiga qanday operatsiyalar kiradi?*
12. *Moliya schyoti tarkibiga qanday operatsiyalar kiradi?*
13. *To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar deganda nimani tushunasiz?*
14. *Portfel investitsiyalarga qanday investitsiyalar kiradi?*
15. *Ssuda va qarzlarni nima, ular qanday tartibda qayd etiladi?*
16. *Rezerv aktivlari tarkibiga qanday aktivlar kiradi?*
17. *Umumiy balans deganda nimani tushunasiz?*
18. *Xalqaro investitsiya balansini nima?*

⁵⁸ Xalqaro talablarga ko'ra monetar oltin tozaligi kamida 99,5% dan kam bo'lmashligi kerak

⁵⁹ XVf umumiy resurslarida har bir a'zo mamlakat qattiq valyutada o'z mablag'lariga ega bo'lishi mumkin. Odatda, bu mablag'lar boshqa mamlakatlarning valyutalarini sotib olish va to'lovlarni tez bajarish uchun saqlab turiladi.

To'lov balansi sohasidagi bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan mashq va misollar

Mashq va misollarni yoritishda shartli ravishda rezident mamlakatni nomini Andora deb ataymiz. Andoraning pul birligi And bo'lsin va uning to'lov balansi AQSH dollarida tuziladi deb faraz qilamiz. Ayirboshlash kursi yillik o'rtacha 1 AQSH dollari = 1100 and. Sonlarning birligi alohida ko'rsatilmagan bo'lsa mln.AQSH dollari deb tushunish kerak.

1. Andoraga tegishli korxonada 2004 yilda chet el korxonasiga 50 birlik eksport qilgan. SHartnomaga ko'ra chet ellik korxonada mahsulotni korxonadan o'zi tashib ketadi. Norezident birlik Andoraning bojxona chegarasigacha transport, ortish-tushirish va sug'urta uchun qo'shimcha 5 birlik xarajat qildi. Transport, ortish-tushirish va sug'urta ishlari rezident birliklar tomonidan bajarilgan. Hisobot davrida norezident birlik eksport uchun eksport hajmining 75% miqdorida pul o'tkazgan va qolgan qismini 2005 yilda to'lashini bildirgan. Andoraning to'lov balansida bu operatsiyalar qanday qayd etiladi.

Javob: Tovarlar eksportini FOB (chegara) bahosida hisoblab olamiz. Buning uchun eksport qilinayotgan tovarning korxonadagi qiymatiga tovarni mamlakat bojxona chegarasigacha etib borguncha bo'lgan xarajatlarni qo'shamiz va $50+5=55$ ga ega bo'lamiz va to'lov balansining joriy operatsiyalar schyotida kreditda qayd etiladi.

2004 yilda eksport uchun korxonaga to'lov $50 \times 0,75 + 5 = 42,5$ ga teng bo'ladi. Bu operatsiya to'lov balansi moliya schyotining *aktivlar* bandida to'lovning turiga qarab naqd pullar yoki depozitlar qatorida debetda qayd etiladi va rezident mamlakatning moliya aktivlarining ko'payishini bildiradi. Norezidentning 2004 yildagi qarzi $50 \times 0,25 = 12,5$ ga teng bo'ladi. Bu operatsiya to'lov balansi moliya schyotida tijorat kreditlari yoki debitorlik qarzining oshishi sifatida debetda qayd etiladi va rezident mamlakatning tashqi dunyoga moliyaviy talabining oshganligini ifoda etadi. Agarda qolgan qiymat (12.5) 2005 yilda to'lansa, 2005 yilning to'lov balansida moliya schyotining tijorat kreditlari qarzini uzish yoki debitorlik qarzining kamayishi sifatida kreditda qayd etiladi. Berilgan javobdan foydalanib operatsiyalarni to'lov balansi schyotlarida qayd eting.

2. Andoraga tegishli A korxonada 2003 yilda chet el korxonasi V bilan 2004 yilda 100 tonna shakar mahsulotini 33 ming AQSH dollari evaziga importyorning bojxona chegarasigacha olib kelib berishi va import uchun to'lovlarning 10 ming dollarini 2003 yilda va qolgan qismi (23 ming AQSH dollari)ni 2004 yilda to'lash to'g'risida shartnoma tuzdi. Import

qilinayotgan tovarning eksportyor mamlakatdagi qiymati 30 ming AQSH dollariga teng. Demak norezident birlik Andoraning bojxona chegarasigacha transport, ortish-tushirish va sug'urta uchun 3 birlik xarajat qilgan. Shartnoma to'la bajarilgandan keyin Andoraning to'lov balansida bu operatsiyalar qanday qayd etiladi.

Javob: Import qilingan tovarning CIF (chegara) qiymati 33 ming AQSH dollariga teng, FOB (chegara) bahosida esa 30 ming AQSH dollariga teng va xizmatlar importi 3 ming AQSH dollariga teng. Bu operatsiya 2004 yildagi to'lov balansida joriy operatsiyalar schyotida debetda tovarlar importi (30 ming AQSH dollari) va xizmatlar importi (3 ming AQSH dollari) deb qayd etiladi. Operatsiyaning moliyaviy tomoni to'lov balansining moliya schyotida qayd etiladi. Jumladan, 2003 yildagi to'lov balansida debetda avans to'lovlari norezidentlarga tijorat kreditlari berish sifatida (10 ming AQSH dollari) qayd etiladi. 2004 yildagi to'lov balansida moliya schyotida 23 ming AQSH dollarining to'langanligi kreditda va 2003 yilda berilgan avans hisobiga import qilinishi (10 ming AQSH dollari miqdorida) norezidentlarga berilgan tijorat kreditlarining kamayishi sifatida kreditda qayd etiladi.

3. Andoraga kelgan sayyohlar mehmonxona xizmati uchun 10 birlik va muzey va tomoshagohlar uchun 1 birlik sarf qilganlar. Bundan tashqari, sayyohlar Andora bozorlaridan 2 birlik va magazinlardan 3 birlik tovarlar sotib olganlar. To'lovlarning hammasi naqd pulda amalga oshirilgan. Bu operatsiyalar to'lov balansida qanday qayd etiladi?

Javob: To'lov balansining joriy operatsiyalar schyotida tovarlar eksporti (2+3) 5 birlik kreditda va xizmatlar eksporti (10+1) 11 birlik kreditda qayd etiladi. To'lovlar miqdori moliya schyotida naqd pullarda aktivlarning ko'payishi sifatida (5+11) 16 birlik debetda qayd etiladi.

4. Hisobot davrida Andoralik ishchilardan 2000 nafari shartnoma asosida Koreyada 11 oy davomida ishlaganlar va har oyiga 500 AQSH dollari miqdorida ish haqi olganlar. Ular Koreyada turgan vaqtlarida yashash uchun oyiga o'rtacha 100 AQSH dollari miqdorida sarf qilganlar. SHartnoma muddati tugagandan so'ng, ular vatanlariga qaytish chog'ida har birlari o'rtacha 200 AQSH dollarilik sovg'a-salomlar(tovarlar) bilan va qolgan ish haqlarini naqd pul holda olib kelganlar. Bu operatsiyalar Andoraning va Koreyaning to'lov balanslarida qanday qayd etiladi?

Javob: Andoraning to'lov balansida bu operatsiyalar quyidagicha qayd etiladi. Andoralik ishchilarning olgan ish haqlari (2000x500x11) 11 mln.AQSH dolari joriy operatsiyalar schyotining *daromadlar* kichik schyotida daromadlarning olingani sifatida kreditda qayd etiladi. Ularning

mamlakatga olib kelgan tovarlari miqdori ($2000 \times 200 = 400000$ AQSH dollari) va Koreyada yashash xarajatlari ($2000 \times 100 \times 11 = 2,2$ mln. AQSH dollari)⁶⁰ tovarlar kichik schyotida tovarlar importi sifatida debetda qayd etiladi. Ishchilarning vatanlariga olib kelgan naqd pullari miqdori ($2000 \times 400 - 2000 \times 200$) 8,4 mln. AQSH dollari moliya schyotida debetda qayd etiladi. Bu naqd pullarda norezidentlarga talabning oshishini bildiradi. Berilganlardan foydalanib, Koreyaning to'lov balansida operatsiyalarni qayd eting. Javobni tekshirishda rezident mamlakat debet (kredit) operatsiyalari yig'indisi norezident mamlakat kredit (debet) operatsiyalari yig'indisiga teng degan ayniyatdan foydalaning.

5. Andoralik bemor Germaniyada 2 yil davomida davolanishda bo'lgan va 1-yili 2000 AQSH dollari va 2-yili 3000 AQSH dollari sarf qilgan. Bu operatsiyalar Andoraning va Germaniyaning to'lov balanslarida qanday qayd etiladi?

Javob: Ikkala hisobot yili uchun ham bemor Andoraning rezidenti sifatida qoladi va operatsiyalar Andoraning 1- va 2-yil to'lov balanslarida joriy operatsiyalar schyotida import sifatida qayd etiladi. Moliya schyotida esa, to'lovning turiga qarab aktivlarning (naqd pul yoki depozitlar) kamayishi sifatida kreditda qayd etiladi. Berilganlardan foydalanib, Germaniyaning to'lov balansida operatsiyalarni qayd eting. Javobni tekshirishda rezident mamlakat debet (kredit) operatsiyalari yig'indisi norezident mamlakat kredit (debet) operatsiyalari yig'indisiga teng degan ayniyatdan foydalaning.

6. Andoralik talaba 2 yil davomida Germaniyada o'qigan. O'quv xarajatlarini Amerikaga qarashli tashkilot moliyalashtirgan. Bu operatsiyalar Andoraning, Amerikaning va Germaniyaning to'lov balanslarida qanday qayd etiladi?

Javob: Ushbu misoldagi operatsiyalar uch mamlakat to'lov balanslarida qayd etiladi. Talaba necha yil chet mamlakatda o'qishidan qat'iy nazar Andoraning rezidenti bo'lib qolaveradi. Bunga ko'ra, Andoraning to'lov balansida talabaning chet elda o'qishi xarajatlari miqdorida xizmatlar importi sifatida debetda qayd etiladi. O'quv harajatlari grand sifatida chet mamlakat tashkiloti to'lagani uchun joriy transfert sifatida kreditda qayd etiladi. Moliya schyotida operatsiya yo'q.

Amerikaning to'lov balansida o'quv xarajatlarining moliyalashtirilishi joriy tranfertlar sifatida debetda va moliya schyotida to'lov turiga qarab kreditda aktivlarning kamayishi sifatida qayd etiladi.

⁶⁰ Agarda yashash xarajatlarida tovarlar va xizmatlar ulushini ajratish imkoniyati bo'lsa, ularni alohida qayd etish to'g'riroq bo'ladi

Germaniyaning to'lov balansida bu holat quyidagicha qayd etiladi. Birinchi qayd joriy operatsiyalar schyotida xizmatlar eksporti sifatida kreditda va ikkinchi qayd esa moliya schyotida (chet elga talabning oshishi) debetda yoziladi. Mustaqil ravishda operatsiyalarni 3 mamlakat to'lov balanslarida ifodalang.

7. Andora chet elga 100 mln. and miqdorida insonparvarlik yordami jo'natdi, shundan 35 mln. and miqdoridagisi harbiy texnikadan, 40 mln. and miqdoridagisi maktablarda foydalanish uchun komp'yuterlardan va qolgan qismi oziq-ovqatdan iborat. Bu faoliyat Andoraning to'lov balansida qanday qayd etiladi?

Javob: YUborilgan tovarlar umumiy hajmi ($100000000/1100=90,9$ ming AQSH dollarida) dastlab joriy operatsiyalar schyotida tovarlar importi sifatida debetda qayd etiladi. Keyingi qaydlarda tovarlarning bir qismi bo'lgan komp'yuterlar ($40 \text{ mln. and}/1100=36,4$ ming AQSH dollarida) kapital tovar hisoblanganligi uchun kapital transfert sifatida kapital xarajatlar schyotida kreditda yoziladi. Tovarlarning qolgan qismi ($(35+25)/1100=54,5$ ming AQSH dollarida) joriy transfert sifatida kreditda qayd etiladi. Mustaqil ravishda operatsiyalarni to'lov balansida ifodalang.

8. Andoralik Amerikaga borib bankda 1 mln. andni 900 AQSH dollariga aylantirdi va shundan 800 dollarini Amerikada sarflab, qolgan 100 AQSH dollari bilan vataniga qaytib kelgan. Andoraning to'lov balansida bu operatsiyalar qanday qayd etiladi?

Javob: Bu operatsiyalar birinchi bor joriy operatsiyalar schyotida debetda import sifatida 800 (AQSH dollarida) qayd etiladi. Keyingi qayd etish moliya schyotida naqd pullar qatorida milliy valyutada passiv (majburiyat)larning oshishi 900 (AQSH dollarida) kreditda va debetda 100 (AQSH dollarida) chet el valyutasidagi aktivlarning oshishi sifatida qayd etiladi. Mustaqil ravishda operatsiyalarni Amerika to'lov balansida ifodalang.

9. Andoraning fuqarosi Amerikaga 1 yildan oshiq bo'lgan muddatga ishlash uchun ketgan. U Amerikada turgan vaqtida yashash uchun yiliga o'rtacha 6000 AQSH dollari miqdorida sarf qilgan. U Amerikaga bo'lgan yillarida o'rtacha yiliga 15 ming AQSH dollari ishlab topgan va yiliga 5000 AQSH dollarida Andoradagi qarindoshlariga jo'natib turgan. Amerikadan vataniga qaytgan oxirgi yili ishlab topgan pullariga 10 ming AQSH dollariga teng qiymatdagi tovarlar olib kelgan. Bundan tashqari 1 ming AQSH dollarini naqd pul ko'rinishida va 12 ming AQSH dollarini Andoradagi bankdagi schyotiga o'tkazgan. Andoraning to'lov balansida bu operatsiyalar qanday qayd etiladi?

Javob: Birinchidan Andoralik fuqaro 1 yildan oshiq muddatga ishlash uchun Amerikaga ketganligi uchun (vataniga qaytadigan kungacha) u Andora uchun norezident hisoblanadi. Bunga ko'ra, uning vatanidagi oilasiga pul o'tkazishlari (hamma yillarda ham) joriy transfert hisoblanadi va mos ravishda joriy operatsiyalar schyotida kreditda (5000) pul o'tkazishlar sifatida qayd etiladi. Ikkinchi qayd moliya schyotida debetda (5000) chet el valyutasidagi aktivlarning ko'payishi sifatida yoziladi.

Oxirgi yili vataniga qaytgan vaqtida fuqaro Andoraning rezidentiga aylanib qoladi va bu yildagi to'lov balansida yuqoridagiga qo'shimcha quyidagi qaydlar o'rinli bo'ladi. Tovarlar olib kelishi (10000) debetda import sifatida qayd etiladi. Ushbu operatsiyaning ikkinchi qaydi daromadlar kichik schyotida ish haqi (10000) sifatida kreditda qayd etiladi. Olib kelgan naqd pullari (1000) va bank schyotiga o'tkazmasi (12000) ham ish haqi sifatida daromadlar kichik schyotida kreditda qayd etiladi. Ushbu summa yig'indisi ($1000+12000=13000$) moliya schyotida debetda naqd pullar va depozitlar qatorida aktivlarning ko'payishi sifatida qayd etiladi. Berilgan javobdan foydalanib Andoraning to'lov balansida operatsiyalarni qayd eting. Tekshirish uchun kreditlar va debetlar yig'indisi 28000.

10. Andoraning rezident birliklari 100 birlik miqdorida chet elga to'g'ri investiya kiritgan. Ushbu investitsiya hisobidan 80 birlikka teng miqdorda mashina va uskunalar eksport qilgan va qolgan 20 birlikni chet el valyutasiga o'tkazib investitsiya kiritilgan korxonaning bankdagi schyotiga depozitga qo'ygan. Andoraning to'lov balansida bu operatsiyalar qanday qayd etiladi?

Javob: Joriy operatsiyalar schyotida eksport kreditda (80), moliya schyotida to'g'ri investitsiyalar debetda (100) va qo'yilgan depozit esa aktivlarning kamayishi (yoki chet elga talabning kamayishi) sifatida debetda (20) qayd etiladi.

X-bob. Milliy hisoblar tizimi va to'lov balansidan amaliyotda foydalanish yo'nalishlari

MHT hayotimizda bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarning qanday kechayotganligi to'g'risidagi ko'rsatkichlarni o'zida mujassamlashtirgan. U deyarli hamma xo'jalik sub'ektlaridagi iqtisodiy operatsiyalarni umumlashgan holda, o'zaro bir-biriga bog'liq schyotlarda ifodalaydi. Har bir schyot ma'lum bir iqtisodiy jarayonni aks ettiradi. Hamma schyotlar birgalikda mamlakat iqtisodiyotining holatini yaxlit tarzda ifodalaydi. To'lov balansi esa, mamlakat iqtisodiyotining tashqi dunyo bilan bo'lgan iqtisodiy faoliyat natijalarini ifodalaydi. MHT va to'lov balansi birgalikda yopiq tizimni tashkil qiladi.

MHTning o'zagini Yalpi ichki mahsulot (YAIM), Yalpi milliy daromad (YAMD), Yalpi ixtiyordagi daromad (YAID), Yalpi milliy jamg'arma (YAMJ) va boshqa yirik agregat ko'rsatkichlar tashkil qiladi. MHT va to'lov balansi ko'rsatkichlaridan iqtisodiyotni tahlil qilishda foydalanishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. YAIM ko'rsatkichi kuzatilayotgan davr (oy, chorak, yil)da mamlakat miqyosida ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar miqdorini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichning dinamikada tahlil etish natijasida, mamlakatda o'tkazilayotgan islohotlarning natijalari qanday bo'layotganligini va mamlakatda ishlab chiqarishning o'sgan (kamaygan)ligini bilish mumkin. YAIMni aholi soniga nisbati orqali aholining turmush darajasining o'zgarishi (boshqa mamlakatlarga va o'tgan davrlarga nisbatan) to'g'risidagi tasavvurga ega bo'lamiz. Bu ko'rsatkichning o'zgarmas baholardagi qiymatining mehnat bilan bandlik ko'rsatkichiga nisbati orqali mamlakatda mehnat unumdorligining o'sishi (kamayishi) qanday bo'layotganligini bilish mumkin.

2. YAIM ko'rsatkichini tarmoqlar va iqtisodiyot sektorlari strukturasi o'rganish natijasida, qaysi tarmoq yoki sektor, qay darajada mamlakat rivojiga o'z hissasini qo'shayotganligini tahlil qilish mumkin. Bu ko'rsatkichlarni o'tgan davrlar bilan solishtirish natijasida, milliy iqtisodiyot strukturasi o'zgarish tendensiyalarini kuzatish mumkin.

3. YAIM ko'rsatkichi kuzatilayotgan davrda mamlakatning mahsulotlar va xizmatlar bozorini qay darajada to'ldirilganligini bildiradi. Yoki boshqacha qilib aytganda, YAIM mamlakatning mahsulot va xizmatlar bozori ko'lamini ko'rsatuvchi indikatoridir. Mahsulotlar va xizmatlar tarkibini tahlil qilish natijasida mamlakat iqtisodiyotining tarmoq strukturasi, qaysi iqtisodiy faoliyat turlari rivojlanayotganligi

yoki rivojlanmayotganligini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, mahsulot va xizmat turlariga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi munosabatlarni bilish natijasida u yoki bu tarmoqni rivojlanishini va bozor talabidan ortiqcha mahsulot ishlab chiqarishning oldini oluvchi, iqtisodiy jihatdan asoslangan, tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish mumkin bo'ladi.

4. Ishlab chiqarilgan YAIMning iste'mol tarkibi, ya'ni qanchasi pirovard iste'molga (aholi daromadlarining ko'p qismini oziq-ovqat va kundalik iste'mol mollariga sarflanishi, davlat byudjeti mablag'larining aholi iste'moli mahsulotlariga ishlatilishi), qanchasi jamg'arishga (asosiy kapitalni ko'paytirishga) ishlatilganligiga qarab, mamlakat iqtisodiyoti hozirgi kun uchun (ya'ni yaratilgan mahsulotning ko'p qismi pirovard iste'molga to'g'ri kelsa) yoki kelajak avlod taraqqiyotini ko'zlab (yangi ishlab chiqarish maydonlarining qurilishi, yangi texnika vositalari boshqa asosiy fondlarni tashkil qiluvchi qurilmalarning ko'payishi) rivojlantirilayotganligi, aholi daromadlarining sarflanishi strukturasi (pirovard iste'mol, jamg'arish) qarab turmush darajasining qanday o'zgarayotganligi to'g'risidagi tasavvurlarga ega bo'lish mumkin.

5. Mamlakatda yaratilgan YAIMni mamlakat bo'yicha sarf qilingan mehnat sarfiga va umumiy sarf xarajatlar (mehnat va kapital sarfi)ga solishtirish natijasida mamlakatda mehnat unumdorligini va samaradorligini o'sishi (yoki kamayishi) to'g'risidagi tasavvurlarga ega bo'lamiz.

6. Daromadlarning shakllanishi, taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi schyotlari ko'rsatkichlarini solishtirish natijasida mamlakat va iqtisodiyot sektorlarining daromadlari strukturasi (birlamchi, ikkilamchi va ixtiyordagi daromadlar) o'zgarishi tendensiyalarini tahlil qilish mumkin. Bundan tashqari, mamlakatda yaratilgan YAIMga nisbatan yalpi milliy daromad (YAMD) va yalpi ixtiyordagi daromad (YAID) ko'rsatkichlarni solishtirish yo'li bilan mamlakat iqtisodiyotida norezidentlarning ishtiroki evaziga ularning olayotgan birlamchi daromadlarining o'zgarish tendensiyalarini kuzatish mumkin. Qilingan tahlillar xulosasi asosida rezident birliklarning birlamchi daromadlarini oshirish tadbirlarini (masalan ishchi kuchlarini eksport qilish, mamlakatga chetdan malakasiz ishchi kuchlarini kirib kelishini chegaralash va h.k.) ishlab chiqish mumkin.

7. Uy xo'jaligi sektori schyotlari ko'rsatkichlarini tahlil qilish natijasida ularning mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish sohasida tutgan mavqelarini va yillar davomida ularning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissalarining o'zgarishi jarayonlarini ko'rish mumkin.

Ularning daromadlari tarkibini (ish haqi, mulkdan olingan daromad, transfertlar) va ularning hosil bo'lish manbalarini bilish mumkin. Bundan tashqari, mamlakat aholisi tomonidan haqiqatda iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar miqdorida o'zlarining daromadlari evaziga sotib olingan, davlat va notijorat tashkilotlar tomonidan natura holidayi sotsial transfertlar va ko'rsatilgan nobozor xizmatlar hissalarining o'zgarishi tendensiyasini ifodalovchi va kuzatishga imkon beruvchi axborotlar bor.

8. Yillar davomida investitsiya mablag'larining YAIMga nisbatan ulushining o'zgarishiga qarab, mamlakatda investitsiya jarayonlarining qanday kechayotganligini kuzatish mumkin. Iqtisodiy tahlilni engillashtirish uchun MHT schyotlarida investitsiyaga jalb qilingan moliya manbalarining tarkibi (mamlakat mablag'lari, shu jumladan byudjet, korxonalar va aholi mablag'lari; chet el mablag'lari) va investitsiya tarkibini ko'rsatuvchi axborotlar bor.

9. Mamlakatda moliya jarayonlarining qanday kechayotganligini tahlil qilish uchun MHTda iqtisodiyot sektorlarining moliya aktivlarini va moliya majburiyatlarini olganliklari to'g'risidagi ko'rsatkichlar bor. Bu ko'rsatkichlar orqali iqtisodiyot sektorlarida moliya mablag'larining qanday ishlatilayotganligini, ulardagi ortiqcha moliya resurslarining miqdorini va boshqa sektorlarga berilgan moliya mablag'larining miqdorini bilish mumkin. Moliya mablag'larining harakatini kuzatish natijasida kuzatilayotgan davrda mamlakatning chet el mamlakatlari iqtisodiyotini qay darajada moliyalashtirganligini (sof kreditlash) yoki aksincha, chet el mamlakatlari mamlakat iqtisodiyotini qancha miqdorda moliyalashtirganligini (sof qarzlar) kuzatish mumkin.

10. MHTda keng ma'noda milliy boylik, uning strukturasi va yillar davomida milliy boylikning o'zgarishi to'g'risidagi axborotlar bor. Bu axborotlar orqali mamlakatda mavjud resurslarning qay darajada tasarruf etilayotganligini (tabiiy resurslarning tejab - tergap yoki aksincha ishlatilayotganligi, moddiy resurslar miqdorining oshgan yoki kamayganligi), asosiy kapital miqdorining o'zgarish tendensiyalarini bilish mumkin. Mamlakatning aktivlari va chet el oldidagi majburiyatlari holati to'g'risida tasavvurlarga ega bo'lamiz.

11. Tashqi dunyo schyotlari va to'lov balansi ko'rsatkichlari orqali mamlakatning tashqi mamlakatlar bilan bo'lgan iqtisodiy hamkorlikning natijalarini ko'rish mumkin. Mamlakatning chet el mamlakatlari bilan tovarlar va xizmatlar eksporti va importi natijalarini, mulkdan olingan daromadlar, ish haqi, joriy va kapital transfertlar oqimi ko'lam haqidagi tasavvurlarga ega bo'lamiz. Bundan tashqari, mamlakat rezident

birliklarining norezident birliklar bilan bo'lgan hamkorliklarining moliyaviy natijalarini, ularning aktivlari va passivlaridagi boshqa o'zgarishlarni kuzatish mumkin.

12. Tarmoqlar o'rtasidagi iqtisodiy bog'liqlik masalalari tarmoqlararo balans jadvallari orqali tahlil qilinadi. Bu jadvallar asosida mamlakatda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish, ularning mamlakat ichida iste'mol qilingan, eksport va import hajmlarini aniqlash mumkin. Bu axborotlar keyingi davrlarda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ustuvor yo'nalishlarni belgilashga imkon yaratadi.

13. MHT metodologiyasi asosida regional hisoblarning bajarilishi natijasida, viloyatlarning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissalarini, joylardagi ishlab chiqarish strukturasi va yaratilgan qo'shilgan qiymat miqdoriga bog'liq ravishda markaziy byudjet mablag'larining taqsimoti mutanosibligini tahlil qilish mumkin.

14. MHTda mamlakat iqtisodiyotining holatini, aholining turmush darajasi hamda boshqa iqtisodiy va sotsial holatlarni xarakterlovchi ko'rsatkichlarni boshqa mamlakatlar bilan solishtirish natijasida, mamlakatning dunyoda tutgan mavqei va o'rni, turmush tarzining va aholi turmush darajasining boshqa mamlakatlarga nisbatan qanday o'zgarayotganligini tahlil qilish mumkin.

15. Sektor schyotlari ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosida mamlakatda bozor munosabatlarining tarkib topish tendensiyalarini va mamlakatda yuritilayotgan iqtisodiy-sotsial siyosatning ustuvor yo'nalishlarini bilish mumkin. Bozor va nobozor ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini solishtirish orqali hamda davlat boshqaruv idoralari sektorining aholiga ko'rsatayotgan kollektiv xizmatlarining miqdoriga qarab, hukumat yuritayotgan iqtisodiy siyosatning mohiyatini tahlil qilish mumkin.

16. YAIM ko'rsatkichini byudjet kamomadiga, to'lov balansidagi joriy operatsiyalar saldosisiga, pul massasiga, sarflangan energiya va metal miqdoriga solishtirish yo'li bilan mamlakatda yuritilayotgan pul-kredit, moliya siyosati, hamda mamlakatda energiya va xom ashyolardan foydalanish darajalari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

17. MHT schyotlarining ko'rsatkichlari mamlakatning bosib o'tgan yo'li to'g'risida muhim ma'lumotlar beribgina qolmay, uning kelajakdagi iqtisodiy-sotsial rivojlanish tendensiyalarini belgilashda va hukumatning kelajak uchun yuritadigan siyosiy va iqtisodiy yo'lini ishlab chiqishda axborot bazasi sifatida muhim qurol bo'lib xizmat qiladi. Bu axborotlar yordamida mamlakatning iqtisodiy rivojlanish modelini yaratish mumkin.

Va bu model orqali belgilangan maqsadlarni amalga oshirish natijalarini oldindan hisoblash va tahlil qilib, maqbul yo'lni tanlab olish mumkin.

18. MHT kapital xarajatlar schyoti ko'rsatkichlari orqali iqtisodiyot sektorlarining asosiy ishlab chiqarish vositalarining yangilanish darajasini bilish mumkin.

19. Moliya schyoti ko'rsatkichlari orqali iqtisodiyot sektorlarining, mamlakatning sof aktivlarlaridagi va majburiyatlaridagi o'zgarishlarni tahlil qilish uchun ma'lumotlar bor. Ular orqali mamlakatning sof kreditor yoki qarzdorligi bilish mumkin.

20. Aktiv va passivlardagi o'zgarishlar schyotlari orqali mamlakat va iqtisodiyot sektorlarining aktivlari va majburiyatlarining holati qay ahvolda ekanligini va ular nimalar evaziga ko'payganligini yoki kamayganligini bilish mumkin.

21. Tashqi dunyo schyotlari ko'rsatkichlari orqali tashqi iqtisodiy faoliyat natijalarini tahlil qilish mumkin.

22. To'lov balansi ko'rsatkichlari bir tomondan MHT tashqi dunyo schyotlari uchun axborot bazasi bo'lib xizmat qilsa, ikkinchi tomondan tezkor tashqi iqtisodiy faoliyat, valyuta siyosatini yuritishda muhim bo'lgan ma'lumotlarni o'zida mujassamlantirgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda dunyoning juda ko'p mamlakatlarida, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda MHT uslublari va qoidalari asosida bir necha o'n yillar uchun axborot bazalari to'plangan. Bu axborotlarni o'rganadigan ilmgohlar mavjud. Bu axborotlardan oqilona foydalanish natijasida mamlakat iqtisodiyotining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari va rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish mumkin.

Bilimlarni mustaqil tekshirish uchun test savollari

1. Xalq xo'jaligi balansi (XXB) va milliy hisoblar tizimi (MHT) bir-biridan quyidagilar bilan farqlanadi:

- a) XXB tizimi mamlakat iqtisodiyotini markazlashgan ma'muriy - buyruq bilan boshqarish sharoitiga moslab qurilgan;
- b) a) ga qo'shimcha MHT bozor iqtisodiyotiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlanish yo'nalishlarni real aks ettirishga asoslangan;
- c) ikki tizimning bir-biridan farqi yo'q;
- d) to'g'ri javob yo'q.

2. MHTda ishlab chiqarish deganda:

- a) tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish tushuniladi;
- b) moddiy ne'matlar ishlab chiqarish tushuniladi;
- c) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.
- d) to'g'ri javob yo'q.

3. MHT - yaxlit jamlama iqtisodiy - statistik ko'rsatkichlar to'plami bo'lib...

- a) mamlakatda moddiy ne'matlarni yaratish, ulardan olingan daromadlarni hisoblash, hosil bo'lgan daromadlarni taqsimlash, qayta taqsimlash aholini turmush darajasini belgilovchi ko'rsatkichlar tizimidir;
- b) tayyor mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, natijada yalpi milliy daromadni yaratish, ularni taqsimlash, qayta taqsimlash va iste'mol jarayonini o'zida mujassamlashtirilgan hisobot va statistika tizimidir;
- c) a) ga qo'shimcha bozor ishlab chiqarish bilan band bo'lgan rezidentlarning ham faoliyatini o'zida mujassamlashtiradi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

4. MHTni amaliyotga tatbiq etish

- a) mustaqil respublikamizning hisobot va statistika tizimini xalqaro tashkilotlar talabiga moslashtirish maqsadidagi harakatidir;
- b) mamlakatimizdagi bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarni to'la aks ettirishga qaratilgandir;
- c) mamlakatimizdagi bo'layotgan iqtisodiy ko'rsatkichlarini yig'ish, ishlab chiqarish uslublarini xalqaro qoidalarga mos ravishda takomillashtirishdan iborat;
- d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

5. Institutsional birlik deb...

a) bozor uchun tovar va xizmatlar ko'rsatish natijasida foyda olishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi xo'jalik birliklariga aytiladi;

b) huquqiy va jismoniy shaxslarga aytiladi;

c) iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan va boshqa iqtisodiy birliklar bilan o'zaro iqtisodiy faoliyatda va operatsiyalar qilish huquqiga ega bo'lgan ishlab chiqaruvchi birliklarga aytiladi;

d) to'g'ri javob yo'q.

6. Rezident deb...

a) shu mamlakatda joylashgan korxonalar va fuqarolarga aytiladi;

b) a)ga qo'shimcha: qisqa muddatga kelib ishlab chiqarish bilan band bo'lgan chet el fuqarolari ham;

c) iqtisodiy manfaati shu mamlakatning iqtisodiy hududiga qaratilgan (yoki joylashgan) institutsional birliklarga aytiladi;

d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

7. Iqtisodiy hudud (territoriya)...

a) shu mamlakat hududida faoliyat yuritayotgan rezidentlar va mamlakat tashqarisida shu mamlakatning iqtisodiy faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan hududlari majmuasi;

b) shu mamlakatning geografik hududi bilan mamlakat tashqarisida iqtisodiy faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan hududlari majmuasi;

c) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

8. Iqtisodiy faoliyat deganda...

a) tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish tushuniladi;

b) a) ga qo'shimcha: iste'mol va jamg'arish jarayonlari tushuniladi;

c) institutsion birlikning foyda olishga qaratilgan faoliyati tushuniladi;

d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

9. Iqtisodiy ishlab chiqarish institutsional birlik tomonidan mehnat yoki mablag' sarfi, tovarlar va xizmat sarfi natijasida...

a) boshqa turdagi tovar va xizmatni iste'molchiga (pul yoki tovar evaziga, bepul) yetkazib beradigan faoliyat natijasidir;

b) mahsulot yetkazib, foyda olishga qaratilgan faoliyatdir;

c) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri;

d) to'g'ri javob yo'q.

10. MHTda institutsion birliklar

a) bozor ishlab chiqarish bilan shug'ullanadilar;

b) a)ga qo'shimcha: nobozor ishlab chiqarish bilan ham shug'ullanadilar;

c) bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagina nobozor ishlab chiqarish bo'ladi;

d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

11. Kuzatilayotgan davrda ishlab chiqarishning hajmi, ya'ni yalpi ishlab chiqarish

a) shu davrda yaratilgan mahsulot yoki xizmatning shu davrdagi bozor baholaridagi qiymatiga teng;

b) sotilgan mahsulot yoki xizmatning qiymatiga teng;

c) korxonaga hisobi (schiyoti)ga kelib tushgan pul miqdoriga teng;

d) to'g'ri javob yo'q.

12. Yalpi ishlab chiqarish hajmini hisoblashda quyidagi ma'lumotlar kerak bo'ladi:

a) sotish hajmi va zahiraning o'zgarishi;

b) a) ga qo'shimcha: barter operatsiyalari, natura bilan to'langan ish haqi, xali tayyor bo'lmagan (tugallanmagan qurilmalar, inshootlar va h.k.) mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

c) yuqorida (quyida) keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

13. Oraliq iste'mol deb...

a) ishlab chiqarish jarayonida iste'mol bo'lgan tovarlar va xizmatlar bahosiga aytiladi;

b) hisobot davrida ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan (ishlatilgan) tovarlar va xizmatlar qiymatiga aytiladi;

c) b)ga qo'shimcha: ishchi va xizmatchilarga bepul berilgan tovarlar qiymati ham kiradi;

d) to'g'ri javob yo'q.

14. Qo'shilgan qiymat qancha bo'ladi?

Quyidagilar berilgan: sotish hajmi - 5000, hisobot davri boshida zahira - 1000, hisobot davri oxirida zahira - 1500, ishlab chiqarishga ishlatilgan tovarlar qiymati - 1000, xizmatlar - 1000.

a) $5000 + (1500 - 1000) - (1000 - 1000) = 3500$;

b) $5000 - (1000 - 1000) = 3000$;

c) $5000 + (1500 - 1000) - 1000 = 4500$;

d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

15. Yalpi ishlab chiqarish qancha bo'ladi?

Quyidagilar berilgan: sotish hajmi - 5000, hisobot davri boshida zahira - 1000, hisobot davri oxirida zahira - 1500, ishlab chiqarishga ishlatilgan tovarlar qiymati - 1000, xizmatlar - 1000.

a) 5000;

b) $5000 + (1500 - 1000) = 5500$;

c) $5000+1500=6500$;

d) to'g'ri javob yo'q.

16. Mamlakat ekonomikasi qo'yidagi sektorlarga bo'linadi:

a) 1) nomoliya korxonalari, 2) moliya korxonalari, 3) davlat boshqaruv tashkilotlari, 4) uy xo'jaligi, 5) tashqi dunyo;

b) a)ga qo'shimcha: uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar;

c) sanoat, qishloq xo'jaligi xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar;

d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

17. Nomoliya korxonalar sektoriga asosiy vazifasi tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdan iborat bo'lgan.

a) davlatdan dotasiyalar olmaydigan, ishlab chiqarish uchun kerak bo'lgan resurslarni asosan tovar va xizmatlarni sotish evaziga hosil qiladigan korxonalar kiradi;

b) va faoliyati uchun zarur bo'lgan mablag'lar (resurslar)ni asosan tovar ishlab chiqarish, sotish hamda xizmat ko'rsatishdan tushgan mablag'lar hisobiga qoplaydigan korxonalar kiradi;

c) b) ga qo'shimcha: ayrim holda ishlab chiqarish harajatlarini davlat tomonidan berilgan dotasiyalar hisobiga qoplanishi mumkin;

d) to'g'ri javob yo'q.

18. Moliya korxonalar sektoriga moliya operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi...

a) va shu operatsiyalardan tushgan tushumlar hisobiga faoliyat yurituvchi tashkilotlar kiradi;

b) va davlat byudjeti hisobiga ko'rsatuvchi banklar kiradi;

c) a) bilan b) birgalikda to'g'ri;

d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

19. Tashqi dunyo sektoriga

a) shu mamlakatda faoliyat ko'rsatuvchi qo'shma korxonalar, chet el moliyasiga qurilgan korxonalar kiradi;

b) rezidentlar bilan iqtisodiy operatsiyalar (iqtisodiy faoliyat) yurituvchi norezident korxonalar kiradi;

c) b) ga qo'shimcha: bu sektor schyotlarida milliy iqtisodiyot bilan tashqi dunyo o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar aks ettiriladi;

d) to'g'ri javob yo'q.

20. Yalpi ichki mahsulot (YAIM) ko'rsatkichini quyidagi hisoblash usullari mavjud:

a) ishlab chiqarish (proizvodstvo), iste'mol (ispol'zovaniya) va daromadlar (doxodov) bo'yicha hisoblash usullari;

b) sarf-harajatlar, ishlab chiqarish va daromadlar usullari;

c) yuqorida (quyida) keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

21. YAIM ko'rsatkichini hisoblashning ishlab chiqarish metodi barcha tarmoqlarning qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlari yig'indisi asosida hisoblanadi. YAQQ quyidagicha aniqlanadi.

a) barcha institutsion birliklarning qo'shilgan qiymatlari yig'indisidan iborat;

b) a) to'g'ri bo'ladi, agarda barcha institutsion birliklar qo'shilgan qiymat ko'rsatkichi ishlab chiqaruvchi baholarida bo'lsa;

s) a) to'g'ri bo'ladi, agarda barcha institutsion birliklar qo'shilgan qiymat ko'rsatkichi asosiy baholarda bo'lsa;

d) to'g'ri javob yo'q.

22. YAIM ko'rsatkichi ishlab chiqarish usulida yalpi ishlab chiqarish asosiy baholarda hisoblangan bo'lsa quyidagicha aniqlanadi

a) YAIM *barobar* barcha tarmoqlar qo'shilgan qiymatlari *plyus* import bojlari *plyus* mahsulot uchun soliqlar *minus* subsidiyalar;

b) YAIM *barobar* barcha institutsional birliklar qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlari yig'indisi;

c) YAIM *barobar* aholi iste'moli *plyus* jamg'armalar;

d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

23. YAIM ko'rsatkichi iste'mol (sarf-harajatlar) usulida quyidagicha aniqlanadi:

a) uy xo'jaligi, davlat boshqaruv organlari, notijorat ijtimoiy tashkilotlar (uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi) iste'moli *plyus* asosiy kapital yig'ilmasi – aylanma materiallar zahirasi o'zgarishi *plyus* eksport - import;

b) mamlakat bo'yicha iste'mol qilingan barcha tovarlar va xizmatlar qiymati;

c) mamlakat bo'yicha iste'mol qilingan barcha tovarlar va xizmatlar qiymati *plyus* asosiy kapital yig'ilmasi;

d) to'g'ri javob yo'q.

24. YAIMni hisoblashning daromad usuli mamlakatdagi hamma sektorlar daromadlarining yig'ilmasi sifatida ifodalanadi:

a) YAIM barobar yollanma ishchi – xizmatchilar ish haqi *plyus* ish beruvchilarning ijtimoiy sug'urtaga ajratmasi *plyus* soliqlar – subsidiyalar *plyus* yalpi foyda (aralash daromad);

b) a) ga qo'shimcha: yollanma ishchi - xizmatchilar ish haqi deganda ishchi-xizmatchilar tomonidan olingan pul daromatlari va moddiy xizmat

ko'rinishdagi olingan daromadlar (zarplata v natural'noy forme) tushuniladi;

c) yollanma ishchi-xizmatchilar ish haqiga moddiy va xizmat ko'rinishdagi olingan daromadlar kirmaydi;

d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

25. Tayyor mahsulot zaxirasini o'zgarishini baholashda asosiy qoida etib:

a) mahsulotni zahiradan olib sotilayotgan vaqtidagi qiymati bo'yicha baholash belgilangan;

b) mahsulotni ishlab chiqarilgan vaqtidagi baholarda baholash belgilangan;

s) zahiradan olingan mahsulotni tannarxi miqyosida baholash belgilangan;

d) to'g'ri javob yo'q.

26. Mahsulotni ishlab chiqarilgan va sotish vaqtlari uzoq bo'lganda inflyatsiya ta'siri natijasida ishlab chiqarilgan va sotish vaqtlaridagi baholarda tafovut bo'ladi. Bu tafovut MHTda:

a) korxonada foydasi deb hisoblanadi;

b) qo'shilgan qiymat tarkibiga kiritiladi;

s) "xolding foydasi" deb yuritilib, u ishlab chiqarish hajmiga qo'shilmaydi;

d) hamma javob to'g'ri.

27. Ayrim mahsulotlarni ishlab chiqarish muddati uzoq bo'lib, bir necha hisobot davrlarni tashkil qilishi mumkin. Bunday hollarda ishlab chiqarish hajmi:

a) mahsulot tayyor bo'lganidan keyin ishlab chiqarish hajmiga qo'shiladi;

b) mahsulot to'lovga tayyor bo'lgunga qadar tugallanmagan ishlab chiqarish (TICH) sifatida har bir hisobot davrida bajarilgan ish hajmiga qarab aniqlanadi;

s) alohida hisobot davrlarida hisoblanmaydi;

d) to'g'ri javob yo'q.

28. Sotish hajmini o'lchash vaqti etib:

a) sotilgan mahsulotga pul o'tkazilgan vaqti etib belgilangan;

b) mahsulotni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga egalik huquqi o'tish vaqti belgilangan;

s) a) bilan v) birgalikda to'g'ri;

d) hamma javob to'g'ri.

29. Hisobot davrida ishlab chiqarish jarayonida to'raligicha iste'mol bo'lmagan mahsulotlar:

- a) oraliq iste'mol hisoblanmaydi;
- b) asosiy kapital (fond)ni tashkil qiladi;
- s) a va b javob to'g'ri;
- d) to'g'ri javob yo'q.

30. Oraliq iste'mol uchun ishlatilgan tovar va xizmatlar bu tovarlarni va xizmatlarni:

- a) sotib olingan vaqtidagi baholarda hisoblanadi;
- b) to'langan pul miqdori hisoblanadi;
- s) ishlab chiqarishda ishlatilgan davrida hisoblanib, sotib olingan va ishlatilgan davrlardagi baholar o'rtasidagi tafovut natijasida hosil bo'lgan qiymat xolding foydasi (yoki zarari) deb yuritiladi;
- d) hamma javob to'g'ri.

31. Oraliq iste'mol uchun ishlatiladigan mahsulotlar zahirasi o'zgarishi quyidagicha aniqlanadi:

- a) zahiraning o'zgarishi barobar hisobot davrida sotib olingan mahsulotlar – ishlab chiqarishga olingani;
- b) zahiraning o'zgarishi barobar hisobot davri boshigacha zahiradagi mahsulot miqdori plyus hisobot davrida sotib olingan mahsulotlar – ishlab chiqarishga olingani;
- s) v) sha qo'shimcha: minus yaroqsiz va yo'qolgan mahsulotlar;
- d) to'g'ri javob yo'q.

32. Korxonalar ayrim tovar va xizmatlarni ishchi-xizmatchilar iste'moli uchun sotib oladi:

- a) agarda bu tovar va xizmatlar ishchi tomonidan ishi bilan bog'liqmas holatda iste'mol qilinsa, bu ish haqi (natura bilan) hisoblanadi;
- b) agarda bu tovar va xizmatlar harajati ishni bajarish texnologiyasida ko'zda tutilgan bo'lsa oraliq iste'mol harajatiga qo'shiladi;
- c) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.
- d) to'g'ri javob yo'q.

33. Davlat tashkilotlari sektoriga butun mamlakat aholisiga xizmatlar ko'rsatuvchi davlat korxonalarini kiradi va...

- a) bu korxonalar resurslarini mahsulot va xizmatlarni sotishdan mablag'lar tashkil qiladi;
- b) bu korxonalar resurslarini asosan davlat byudjeti tashkil qiladi;
- c) bu sektorga davlat yoki kollektiv mulkga asoslangan korxonalar kiradi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

34. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat ijtimoiy tashkilotlar:

a) aholining individual va umum talablarini qondirish maqsadida faoliyat yuritadilar;

b) bu sektorga davlat tomonidan kontrol va pul bilan ta'minlanmaydigan tashkilotlar kiradi;

c) a) va b) ga qo'shimcha: bu tashkilotlar resurslarni asosan ixtiyoriy to'lovlar (vznoslar), o'z mulklaridan olingan daromadlar va ixtiyoriy to'lovlar (transfert)lar hisobiga hosil bo'ladi;

d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

35. Uy xo'jaligi sektoriga:

a) ishlab chiqaruvchi va iste'molchi bo'lgan alohida shaxslar, oilalar kiradi;

b) a)ga qo'shimcha: mustaqil huquqiy statusga ega bo'lmagan lekin ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi oilalarni o'z ichiga oladi;

c) xususiy mulkga asoslangan ishlab chiqarish bilan mashg'ul bo'lgan oilalar kiradi;

d) to'g'ri javob yo'q.

36. MHT rivojining asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

a) Keyns nazariyasi;

b) Leont'evning "harajatlar - ishlab chiqarish" jadvallari";

c) A.Marshall, K.Klark va S.Kuznesning milliy daromadni hisoblash prinsiplari;

d) yuqorida ko'rsatilgan barcha yo'nalishlar.

37. Davlat byudjetining kamomadi paydo bo'ladi:

a) harajatlar daromadlardan oshib ketganda;

b) pul emissiyasi ko'payganda;

c) yalpi jamgarmalar yalpi investitsiyalardan oshib ketganda;

d) to'g'ri javob yo'q.

38. Davlat byudjeti shakllanadi:

a) MHT moliya schyotlari asosida;

b) to'lov balansi asosida;

c) davlat daromadlari va harajatlari schyoti asosida;

d) milliy daromad va milliy mahsulot cchetlari asosida.

39. Yalpi ixtiyordagi daromad 20 mlrd., yakuniy iste'mol 15 mlrd., davlat qarzi - 5 mlrd.ga oshgan bo'lsa, mamlakatning yalpi investitsiyasi qancha bo'lgan:

a) 40 mlrd.,

b) 15 mlrd.,

c) 5 mlrd.,

d) 10 mlrd.

40. Yalpi ichki mahsulot- 150 mlrd., sof ichki mahsulot 130 - mlrd. bo'lsa, asosiy kapitalning istemoli qancha bo'lgan:

a) 20 mlrd.;

b) 280 mlrd.;

c) YAIMga nisbatan 15%;

d) uni hisoblash uchun ma'lumotlar etarli emas.

41. MHTda bajaradigan asosiy iqtisodiy vazifasiga va ishlab chiqarish uchun resurslar manbaiga ko'ra tasniflanadi:

a) institutsion sektorlarga;

b) iqtisodiy operatsiyalarga;

c) tovar va xizmatlar bilan operatsiyalarga;

d) moliyaviy operatsiyalarga.

42. Quyidagi ma'lumotlardan foydalanib asosiy kapitalning yig'ilmasi hisoblansin: YAIM-100 mlrd., xususiy va davlat iste'moli - 80 mlrd., sof eksport - 5 mlrd., chetdan olingan kreditlar - 20 mlrd.

a) 205 mlrd.;

b) 5 mlrd.;

c) 155 mlrd.;

d) 35 mlrd.

43. YAIM yalpi qo'shilgan qiymatdan quyidagi ko'rsatkichga farqlanadi:

a) sof egri soliqlar miqdoriga;

b) ular bir-biriga teng;

c) bozor baholarining o'zgarishiga;

d) to'g'ri soliqlarning miqdoriga.

44. Mamlakatda ishlab chiqarishni holatini ifodalovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich quyidagidir:

a) yalpi milliy daromad;

b) yalpi ijtimoiy mahsulot;

c) yalpi ishlab chiqarish;

d) yalpi ichki mahsulot.

45. MHTda iqtisodiy faoliyat deganda quyidagi faoliyat turlari tushuniladi:

a) ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish va iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish;

b) daromad yaratishga qaratilgan faoliyat;

c) tovar va xizmatlarga harajatlar: aholi va davlatning provard iste'moli, milliy boylikni jamg'arish;

d) tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish, iste'mol va jamg'arish jarayonlari.

46. MHTda ishlab chiqarish sohasi qamrab oladi:

- a) faqat moddiy ishlab chiqarishni;
- b) faqat xizmat ko'rsatish sohasini;
- c) ikkala sohani;
- d) to'g'ri javob yo'q.

47. Oqimlarga quyidagilar misol bo'la oladi:

- a) YAIM, YAMD;
- b) Mamlakatning pul-valyuta rezervlari;
- c) Baho indeksleri;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

48. Zaxiralarga quyidagilar misol bo'la oladi:

- a) YAIM, YAMD;
- b) ombordagi tovarlarning hisobot boshidagi va oxiridagi holati;
- c) Baho indeksleri;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

49. MHTda asosiy kategoriyalar bo'lib hisoblanadi:

- a) sektorlar;
- b) tarmoqlar;
- c) operatsiyalar;
- d) hamma javoblar to'g'ri.

50. Omil baholari deganda quyidagi tushuncha to'g'ri:

- a) faqat birlamchi harajatlar (oraliq iste'mol, ish haqi, yalpi foyda);
- b) a) ga qo'shimcha, sof egri soliqlar;
- c) faqat egri soliqlar;
- d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri..

51. MHTda bajaradigan asosiy iqtisodiy funksiyasiga ko'ra ajratiladi:

- a) institutsional sektorlar;
- b) iqtisodiy operatsiyalar;
- c) tovar va xizmatlar bilan operatsiyalar;
- d) moliyaviy operatsiyalar.

52. Zahiralariga quyidagilar misol bo'la oladi:

- a) YAIM, YAMD;
- b) mamlakatning pul-valyuta rezervlari;
- c) baho indeksleri;

d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

53. Qo'shilgan qiymat tarkibiga quyidagilar kiradi:

a) YAIM, YAMD;

b) ish haqi, soliqlar, yalpi foyda;

c) ish haqi, soliqlar, yalpi foyda, xizmatlar sarfi;

d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

54. Sof qo'shilgan qiymat tarkibiga quyidagilar kiradi:

a) ish haqi, soliqlar, sof foyda va aralash daromad;

b) ish haqi, soliqlar, sof foyda va aralash daromad, asosiy kapitalning iste'moli;

c) ish haqi, soliqlar, yalpi foyda, xizmatlar sarfi;

d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

55. Sof qo'shilgan qiymat tarkibiga quyidagilar kirmaydi:

a) ish haqi, soliqlar, sof foyda va aralash daromad;

b) yalpi foyda, asosiy kapitalning iste'moli;

c) ish haqi, soliqlar, sof foyda;

d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

56. Yalpi milliy daromad tarkibiga quyidagilar kirmaydi:

a) yalpi ichki mahsulot;

b) chetdan olingan transfertlar;

c) iqtisodiyot ichki sektorlarining sof birlamchi daromadlari (ish haqi, soliqlar, foiz va dividend to'lovlari);

d) b) ga qo'shimcha, mulkdan olingan daromadlar.

57. Yalpi milliy daromad tarkibiga quyidagilar kiradi:

a) ish haqi, soliqlar, sof foyda va aralash daromad;

b) yalpi foyda, asosiy kapitalning iste'moli;

c) iqtisodiyot ichki sektorlarining sof birlamchi daromadlari (ish haqi, soliqlar, foiz va dividend to'lovlari);

d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

58. Yalpi milliy daromad:

a) ish haqi, soliqlar, sof foyda va aralash daromadlar yig'indisidan iborat;

b) yalpi ichki mahsulot va tashqi dunyo bilan iqtisodiyot sektorlarining birlamchi daromadlar saldosi yig'indisiga teng;

c) rezident birliklarning barcha daromadlari (transfertlardan tashqari) yig'indisidan iborat;

d) b) va c) javoblar to'g'ri.

59. Yalpi milliy daromad yalpi ichki mahsulotdan katta bo'ladi, agarda:

- a) iqtisodiyot ichki sektorlarining sof birlamchi daromadlari (ish haqi, soliqlar, foiz va dividend to'lovlari) manfiy bo'lsa;
- b) tashqi dunyo bilan iqtisodiyot sektorlarining birlamchi daromadlar saldosi manfiy bo'lsa;
- c) iqtisodiyot ichki sektorlarining sof birlamchi daromadlari (ish haqi, soliqlar, foiz va dividend to'lovlari) musbat bo'lsa;
- d) a) va b) javoblar to'g'ri.

60. Yalpi milliy daromad yalpi ichki mahsulotdan ham katta bo'ladi, agarda:

- a) iqtisodiyot ichki sektorlarining sof birlamchi daromadlari (ish haqi, soliqlar, foiz va dividend to'lovlari) manfiy bo'lsa;
- b) tashqi dunyo bilan iqtisodiyot sektorlarining birlamchi daromadlar saldosi manfiy bo'lsa;
- c) iqtisodiyot ichki sektorlarining sof birlamchi daromadlari (ish haqi, soliqlar, foiz va dividend to'lovlari) musbat bo'lsa;
- d) a) va b) javoblar to'g'ri.

61. Mamlakat rezident birliklarining yaratgan daromadlarini holatini ifodalovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich quyidagidir:

- a) yalpi milliy daromad;
- b) iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatayotgan barcha korxonalar va tashkilotlarning barcha daromadlari yig'indisi;
- c) yalpi ishlab chiqarish;
- d) yalpi ichki mahsulot.

62. Institutsion birliklar qanday belgilar asosida tarmoqlarga guruhlanadi:

- a) ishlab chiqarish texnologiyalarining o'xshashligiga qarab;
- b) oldiga qo'ygan vazifalarining o'xshashligiga qarab;
- c) faoliyat yuritish uchun resurslar manbaiga qarab;
- d) mulk shakliga qarab.

63. Institutsion birliklar qanday belgilar asosida sektorlarga guruhlanadi:

- a) b) va c) javoblar birgalikda;
- b) oldiga qo'ygan vazifalarining o'xshashligiga qarab;
- c) faoliyat yuritish uchun resurslar manbaiga qarab;
- d) ishlab chiqarish texnologiyalarining o'xshashligiga qarab.

64. Tugallanmagan ishlab chiqarish:

- a) c) va d) javoblar to'g'ri;
- b) ishlab chiqarish hisoblanmaydi;
- c) tugallangandan keyin ishlab chiqarish hisoblanadi;

d) ishlab chiqarish hisoblanadi.

65. MHTda hisobga olinmaydigan faoliyat turlari:

a) oila azolari tomonidan o'zlari uchun bajariladigan xizmatlar;
b) oila azolari tomonidan o'zlari uchun ishlab chiqilgan mahsulotlar va bajariladigan xizmatlar;

c) tabiiy jarayonlar natijasida mahsulotlarning ko'payishi;

d) a) va c) javoblar birgalikda.

66. Oqimlar, ularning mazmuni, hisoblash usullari quyidagi fikrlar to'g'ri:

a) oqimlar davr mobaynidagi o'zgarishlarni ifodalaydi;

b) zahiraning o'zgarishi oqimga misol bo'la oladi;

c) oqimlar iqtisodiy jarayonlar natijalarini ifodalamaydi;

d) a) va b) javoblar birgalikda.

67. Zahiralar, ularning mazmuni, hisoblash usullari quyidagi fikrlar to'g'ri:

a) zahiralar iqtisodiy jarayonlarni ma'lum bir muddatdagi holatini ifodalaydi;

b) zahiraning o'zgarishi oqimga misol bo'la oladi;

c) a) va b) javoblar birgalikda;

d) zahiralar kuzatilayotgan davrdagi iqtisodiy jarayonlar natijalarini ifodalaydi.

68. Tayyor mahsulot zahirasi:

a) kuzatilayotgan davrda tayyorlangan tayyor mahsulotlar miqdoridan iborat;

b) davr boshi (oxiridagi) tayyor mahsulotlar miqdori;

c) b) va d) javoblar birgalikda to'g'ri;

d) ma'lum bir muddatga nisbatan sotilmay qolgan mahsulotlar miqdori qoldig'i.

69. Qaysi sektorlarda yakuniy iste'mol bo'lishi mumkin:

a) uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorida;

b) uy xo'jaligi sektorida;

c) davlat boshqaruv idoralari sektorida;

d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

70. Kapital transfert nima:

a) kapital qurilishda ishlatiladigan tovar;

b) institutsion birliklarga bepul berilgan ishlab chiqarish vositalari;

c) harbiy maqsadlarda foydalanish maqsadida bepul berilgan qurollar;

d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

71. Tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyoti:

a) qo'shma korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar hisobi yuritiladi;

b) tovarlar va xizmatlar importi operatsiyalari qayd etiladi;

c) mamlakat hududidagi chet el korxonalarida ishlab chiqilgan tovar va xizmatlar hisobi yuritiladi;

d) a) va b) javob birgalikda to'g'ri.

72. MHT o'zagini qanday agregat ko'rsatkichlar tashkil qiladi?

a) sof daromad, yalpi boylik, milliy boylik;

b) yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy daromad, yalpi ixtiyordagi daromad;

c) qo'shilgan qiymat, xalq xo'jaligi balansi, to'lov balansi;

d) inflyatsiya, deflyatsiya, mul'tiplikator effekti.

73. MHTda asosiy kapital:

a) ishlab chiqarish jarayonida 1 yildan ortiq davrda ishlatiladigan aktivlardan iborat;

b) ishlab chiqarish jarayonida eng yuqori qiymatdagi oborot mablag'laridan iborat;

c) tugallanmagan ishlab chiqarishdagi vositalar va xom ashyolardan iborat;

d) faqat bino, er shaklidagi asosiy qurollardan iborat.

74. Asosiy kapital xizmat muddati qanday va u qanaqa xususiyatda?

a) xizmat muddati bir hisobot davridan (1 yildan) ortiq va bu davrda u o'z qiymatini butkul yo'qotmaydi;

b) xizmat muddati 1 oydan ortiq va bu davrda u o'z qiymatini butkul yo'qotadi;

c) xizmat muddati 6 oydan ortiq va bu davrda u o'z qiymatini butkul yo'qotmaydi;

d) xizmat muddati 9 oydan ortiq va bu davrda u o'z qiymatini butkul yo'qotmaydi.

75. Asosiy kapitalning iste'moli deb...

a) uni 1 yil davomida ishlatmasdan ijarachiga topshirish va foyda olish tushuniladi;

b) hisobot davrida asosiy kapitalning (ishlab chiqarishda ishlatilganda) eskirishi natijasida joriy bahosining kamayishi tushuniladi;

c) hisobot davrida asosiy aylanma kapitalning ustav fondiga ko'chirilishi tushuniladi;

d) 1 yil davomida ishlatilgan barcha xom ashyo va materiallar tushuniladi.

76. Asosiy kapitalning yalpi yig'masi.

- a) ustav fondidan chiqarilgan qo'shimcha qiymat miqdori tushuniladi;
- b) yalpi ichki mahsulotning qo'shimcha qiymatga nisbati tushuniladi;
- c) ma'lum bir davr mobaynida asosiy kapitalning qanchaga o'zgarishini ifodalovchi miqdor tushuniladi;
- d) milliy hisoblar tizimida bunday tushuncha yo'q.

77. Milliy hisoblar tizimida patentlangan iqtisodiy ob'ektlar kapital aktiv hisoblanadimi?

- a) yo'q, mutlaqo;
- b) ha, albatta;
- c) yo'q, u passiv hisoblanadi;
- d) oraliq iste'mol hisoblanadi.

78. Milliy hisoblar tizimida barter operatsiyalari...

- a) bir turdagi tovar va xizmatlar evaziga mos qiymatdagi boshqa tovar va xizmatlar olishni nazarda tutadi;
- b) qishloq xo'jalik mahsulotlarni noekvivalent almashinuvi tushuniladi;
- c) tovarlar standartlarga mos kelmasligi oqibatida boshqa davlatga o'tkazib yuborilishi tushuniladi;
- d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

79. Barqaror valyuta deb...

- a) AQSH dollariga nisbatan yuqori miqdorda almashinuv kursidagi arab davlatlarining pul birliklari tushuniladi;
- b) yil davomida ayirboshlash kursi juda oz (3% dan kam) va hamma operatsiyalar bo'yicha ayirboshlash imkoniyati bor bo'lgan valyuta tushuniladi;
- c) valyuta bozorida doimiy sotuvda bo'lgan, almashinish kursining o'zgarishi 10%dan yuqori bo'lgan valyutalar hisoblanadi;
- d) Shveysariya frankiga nisbatan yuqori miqdorda almashinuv kursidagi arab davlatlarining pul birliklari tushuniladi.

80. MHTda bozor munosabati...

a) institutsion birliklar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning talab va taklifdan kelib chiqqan baholarda amalga oshirilishi demakdir;

b) firmalar va davlat o'rtasida soliq, boj to'lovi va litsenziyalar uchun to'lovlar sohasidagi ayirboshlashdir;

c) uy xo'jaliklari va davlat o'rtasida soliq, boj to'lovi va litsenziyalar uchun to'lovlar sohasidagi ayirboshlashdir;

d) institutsion birliklar o'rtasida davlatning barqaror narxlarini o'rnatish va bozor munosabatlariga o'tish tizimidir.

81. Institutsion birliklar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar talab va taklifdan kelib chiqqan baholarda amalga oshirilsa, u...

a) barter operatsiyalari deyiladi;

b) transfer operatsiyalari deyiladi;

c) bozor munosabatlari deyiladi;

d) aralash daromad deyiladi.

82. Valyutaning yil davomida ayirboshlash kursining o'zarishi juda oz (3 % dan kam) va hamma operatsiyalar bo'yicha ayirboshlash imkoniyati mavjud bo'lsa, u...

a) transfert to'lovi deyiladi;

b) dezinflyatsiya deyiladi;

c) barqaror valyuta deyiladi;

d) institutsional valyuta deyiladi.

83. Institutsional birliklarning ishlab chiqarish faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash va ish uslublarida ma'lum talablarni bajarganliklari uchun to'lanadigan miqdor...

a) bevosita ishlab chiqarish subsidiyalari deyiladi;

b) bevosita transfert solig'i deyiladi;

c) barter operatsiyalari deyiladi;

d) daromadlar deyiladi.

84. Birlamchi daromadlar kimlar tomonidan shakllangan bo'ladi?

a) faqat uy-xo'jaliklari tomonidan;

b) korporativ xo'jaliklar tomonidan;

c) barcha institutsional birliklar tomonidan;

d) faqat nokorporativ xo'jaliklar tomonidan.

85. Birlamchi daromadlarga ta'rif bering.

a) aksionerlik kapitali sifatida berilgan avans;

b) institutsional birliklarning ichki va tashqi iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish faoliyatidan va mulk uchun olgan daromadlari;

c) uy xo'jaliklarining o'z ixtiyoridagi mulkdan olgan daromadlari;

d) valyuta kurslarining o'zgarishi natijasida Markaziy bankning olgan foydasi.

86. MHTda daromadlar...

- a) institutsional birliklar tomonidan soliqlar hisobiga olinadi;
- b) kapital quyilmalar darajasining o'zgarishi hisobiga olinadi;
- c) iqtisodiy faoliyat va transfertlar evaziga olinadi;
- d) ishlab chiqarishga subsidiyalar hisobigagina olinadi.

87. MHTda jamg'arma...

- a) ixtiyordagi daromadning yakuniy iste'molga ishlatilgandan so'ng qolgan qismi hisoblanadi;
- b) soliqlarni pasaytirish evaziga banklardagina to'planadigan kredit resurslari hisoblanadi;
- c) aksionerlik jamiyatlarida yig'iladigan daromad hisoblanadi;
- d) transfert to'lovlari uchun ajratilgan kredit resurslari hisoblanadi.

88. Bevosita ishlab chiqarish soliqlari nimadan olinadi?

- a) faqat xom ashyo resurslardan;
- b) ishlab chiqarish omillaridan (faktorlaridan);
- c) sotib olingan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlardan;
- d) yuqorida (quyida) keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

89. MHTda devidentlar qanday talqin etiladi?

- a) uy xo'jaliklarining jamg'armalari sifatida;
- b) transfert to'lovlarining foizi sifatida;
- c) aksionerning o'z mablag'ini boshqa birlikka berib qo'yishi evaziga olgan daromadlari;
- d) aksionerlik kompaniyalarining aksionerlardan oladigan solig'i.

90. Joriy operatsiyalar schyoti va to'lov balansi schyoti o'rtasida farq mavjudmi?

- a) ha, joriy operatsiyalar to'lov balansining schyoti hisoblanadi;
- b) yo'q, bu bir xil tushunchalar;
- c) ha, to'lov balansi joriy operatsiyalarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

91. MHTda zahiralalar deb...

- a) to'liq ishlab chiqarishda qatnashgan asosiy kapital tushuniladi;
- b) iqtisodiy o'zgarishlarni ma'lum bir sanadagi holatiga aytiladi;
- c) uy xo'jaliklarining jamg'armalariga aytiladi;
- d) joriy transfertlardagi qoldiqqa aytiladi.

92. MHTda yer va konlarni ijaraga berish qanday tavsiflanadi?

- a) daromad solig'i hisoblanadi;
- b) foyda solig'i hisoblanadi;

- c) mulki tan olingan daromad (renta) hisoblanadi;
- d) oborot mablag'dan olingan daromad hisoblandi.

93. MHTda ijara deb...

- a) ish o'rinlari, uy-joylarni ijaraga berish, xizmat ko'rsatish hisoblanadi;
- b) faqat erni ijaraga berish tushuniladi;
- c) asosiy vositalarni (erdan tashqari) ijaraga berish tushuniladi;
- d) aylanma mablag'larni ijaraga berish tushuniladi.

94. Import subsidiyasi...

- a) davlat kompaniyalariga beriladigan transfert;
- b) uy xo'jaliklariga to'lanadigan transfert;
- c) institutsion birliklariga ma'lum tovar va xizmatni chetdan keltirgani uchun beriladigan subsidiyalar;
- d) moddiy boylikni xorijiy mamlakatga chiqargani uchun daromad.

95. MHTda mustaqil xo'jalik yurituvchi deb...

- a) agentlar nomlanadi;
- b) uy xo'jaliklari nomlanadi;
- c) korporativ birliklar nomlanadi;
- d) institutsion birliklar nomlanadi.

96. MHTda individual iste'mol tovarlari...

- a) faqat davlat savdo tashkilotlari tomonidan sotib olingan tovarlardir;
- b) faqat uy xo'jaliklari tomonidan sotib olinadigan tovarlardir;
- c) faqat korporativ birliklar tomonidan sotib olinadigan tovarlardir;
- d) mavjud emas.

97. MHTda investitsiyalar deb...

- a) iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirish tushuniladi;
- b) yalpi ichki mahsulotdagi tebranishi tushuniladi;
- c) yalpi milliy daromadga soliqlar ulushi tushuniladi;
- d) milliy boylikda jamg'armalarning foizdagi ifodalanishi tushuniladi.

98. MHTda iste'mol jarayoni va tushunchasi...

- a) faqat uy xo'jaliklariga xosdir;
- b) faqat korporativ birliklarga xosdir;
- c) barcha institutsional birliklarga xosdir;
- d) norezident birliklarga xosdir.

99. Iste'mol tovarlari va xizmatlari ishlab chiqarish jarayonida...

- a) qayta-qayta ishlatiladigan resurslardir;
- b) ishlatilmaydigan iste'mol mahsulotlari va xizmatlardir;
- c) bir yil mobaynida foydalanilgan kapitaldir;
- d) o'sish ahamiyatida bo'lgan aylanma mablag'lar qismidir.

100. MHTda iste'mol baholari indeksi...

- a) tovarlar va xizmatlarni iste'mol (xarid) baholaridagi o'zgarishlarini ifodalaydi;
- b) investitsiya va tovarlarni boshlang'ich, tiklash baholaridagi farqni ifodalaydi;
- c) xizmatlar qiymatining pasayishini ifodalaydi;
- d) eksport va import operatsiyalarida CIF va FOB narxlari o'rtasidagi tafovutni belgilaydi.

101. MHTda ishlab chiqarish...

- a) doimiy va uzluksiz turlardan iborat;
- b) bozor va nobozor turlardan iborat;
- c) rezident va norezident turlardan iborat;
- d) mutlaq va nisbiy turlardan iborat.

102. MHTda yer, konlar...

- a) ishlab chiqarilgan aktivlar hisoblanadi;
- b) notijorat fondlar hisoblanadi;
- c) iqtisodiy ishlab chiqarish natijasida yaratilmagan nomoliyaviy aktivlar hisoblanadi;
- d) aylanma mablag'lar hisoblanadi.

103. MHTda ixtiyordagi daromad qanday aniqlanadi?

- a) institutsion birliklarning ichki va tashqi iqtisodiyotdagi faoliyatlari natijasida olgan birlamchi daromadlari va joriy transfertlar saldosi yig'indisidan iborat;
- b) o'z ixtiyoridagi qolgan yalpi foydasiga sof soliqlar summasini qo'shish orqali aniqlanadi;
- c) institutsion birliklarning faqat ichki bozor faoliyati natijasida olgan birlamchi daromadlari saldosi sifatida aniqlanadi;
- d) institutsion birlikning investitsiyalari va sof harajatlari o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

104. MHTda nomoliyaviy aktivlar tarkibiga...

- a) ishchi kuchi kiradi;
- b) iqtisodiy ishlab chiqarish natijasida yaratilmagan aktivlar, ya'ni er, konlar, o'rmonlar kiradi;
- c) subsidiyalar kiradi;
- d) oborot va asosiy aktivlar kiradi.

105. MHTda mehnat haqi haqi...

- a) ishchi va xizmatchilarning yollanma mehnatdan olgan daromadlari (daromad solig'i bilan birgalikda) hisoblanadi;
- b) uy xo'jaliklariga berilgan barcha transfert va subsidiyalardan iborat;

- c) institutsional birliklardan soliq sifatida undiriladigan to'lovlar;
- d) kategoriya hisoblanmaydi.

106. MHTda ishlab chiqarish bahosi deb...

- a) mahsulot tannarxiga 20 foizni ustama qo'shimchasiga aytiladi;
- b) korxonaga yalpi daromadiga aytiladi;
- c) tovar va xizmatning ishlab chiqaruvchidan chiqib ketayotgandagi bahosiga aytiladi;
- d) iste'molchi bahosiga aytiladi.

107. Birliklar ish joylarining mamlakat iqtisodiy hududida bo'lishi, ularning doimiy yoki bir yildan ortiq muddatda mamlakatda yashashi MHTda...

- a) rezident deyiladi;
- b) iqtisodiy qiziqishi bor deyiladi;
- c) norezident deyiladi;
- d) deportasiya deyiladi.

108. MHTda tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, iste'mol va jamg'arish jarayonlari...

- a) iqtisodiy ishlab chiqarish deyiladi;
- b) iqtisodiy faoliyat deyiladi;
- c) moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish deyiladi;
- d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

109. MHTda mehnat, mablag', tovar va xizmatlar sarflab yangi sifatdagi tovarlar yaratish va xizmatlar ko'rsatish.

- a) iqtisodiy ishlab chiqarish deyiladi;
- b) iqtisodiy manfaat deyiladi;
- c) iqtisodiy faoliyat deyiladi;
- d) ish haqi topish deyiladi.

110. MHTda ish haqi...

- a) pul yoki natura xolida bo'lishi mumkin;
- b) faqat pul ko'rinishida bo'lishi mumkin;
- c) transfert va notransfert bo'lishi mumkin;
- d) soliq va daromad ko'rinishida bo'lishi mumkin.

111. MHTda rezident birliklarining mamlakatda va uning tashqarisida hech qanday to'siqsiz faoliyat yuritishi huquqi bo'lgan hududlarning majmuasi - ...

- a) iqtisodiy ishlab chiqarish deyiladi;
- b) bunday tushuncha mavjud emas;
- c) tashqi dunyo sektori deyiladi;
- d) iqtisodiy hudud deyiladi.

112. Boshqa institutsion birlikka berganda biror iqtisodiy naf keltirishi mumkin bo'lgan iqtisodiy ob'ektlar - ...

- a) iqtisodiy hudud deyiladi;
- b) iqtisodiy aktivlar deyiladi;
- c) tovar deyiladi;
- d) tovar va xizmatlar deyiladi.

113. Asosiy kapital (ishlab chiqarish vositalari)ni bepul olinishi va berilishi

- a) kredit deyiladi;
- b) regress deyiladi;
- c) kapital transfertlar deyiladi;
- d) tovar va xizmatlar olish deyiladi.

114. MHTda korporatsiya deb - ...

a) kollektiv mulkka asoslangan, tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi va huquqiy birlik maqomini olgan korxonalar va tashkilotlarga aytiladi;

b) xususiy mulkka asoslangan norezident - xorijiy korxonalar va tashkilotlarga aytiladi;

c) moddiy va nomoddiy mulkka ega bo'lgan uy xo'jaliklarining uyushmasiga aytiladi;

d) faqat aholiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarga aytiladi.

115. MHTda majburiyatlar - ...

a) o'z aktivini kamayishi hisobiga boshqa birlikka qaytarib berilishi kerak bo'lgan iqtisodiy ob'ektlardir;

b) faqat kreditlar demakdir;

c) shartnoma shartidan tashqari belgilangan mulkiy mas'uliyat;

d) doimiy rezervda bo'lgan aylanma mablag'lar (aktivlar)dir.

116. MHTda mamlakatning yalpi rezerv aktivlari deb...

a) konlardagi tabiiy gaz va ko'mir zahiralari aytiladi;

b) davlat ixtiyorida bo'lgan rezerv aktivlarga aytiladi;

c) harbiy mudofaa uchun zaruriy tovarlar va xizmatlar yig'indisiga aytiladi;

d) o'rmon va baliq xo'jaligi zahiralari aytiladi.

117. MHTda maxsus qarz olish huquqi (ruscha spetsial'noe pravo zaimstvovaniya)...

a) xalqaro valyuta fondiga a'zo mamlakatlarning XVF schyotiga belgilangan kvota miqdorida milliy valyuta o'tkazib qo'ygan mablag'lari;

b) jahon savdo tashkilotlari kredit mablag'lari;

c) jahon savdo tashkiloti schyotiga o'tkazilgan a'zolik badallari;

d) XVF oldidagi qarzlar.

118. MHTda mahsulotlar uchun subsidiyalar

a) tayyor mahsulot birligiga nisbatan davlat tomonidan to'lanadigan to'lovlar;

b) faqat eksportga chiqariluvchi mahsulot hajmiga to'lanadi;

c) faqat import tovarlari hajmiga to'lanadi;

d) bunday tushuncha mavjud emas.

119. O'z aktivlarini boshqa iqtisodiy birlikka berib qo'yish evaziga olinadigan daromadlar...

a) mahsulot uchun soliqlar deyiladi;

b) mulkdan olingan daromadlar hisoblanadi;

c) ijara haqi hisoblanadi;

d) ish haqi hisoblanadi.

120. MHTda mahsulot uchun soliqlar...

a) iqtisodiy birlikning ustav fondiga nisbatan belgilanadi;

b) iqtisodiy birlikning ishlab chiqarish quvvatiga nisbatan belgilanadi;

c) tayyor mahsulot birligiga nisbatan belgilanadi;

d) MHTda mavjud emas.

121. MHTda monetar oltin...

a) tushunchasi mavjud emas;

b) davlatning rezerv aktivlari tarkibiga kirgan oltin zahirasi;

c) davlatning pul massasini oltindagi qiymati;

d) mamlakat oltin konlari zahirasi.

122. MHTda xo'jalik yurituvchi birliklar iqtisodiyoti...

a) korxonalar iqtisodiyoti deyiladi;

b) uy xo'jaliklari iqtisodiyoti deyiladi;

c) makroekonomika deyiladi;

d) mikroekonomika deyiladi.

123. MHTda kapital tovarni kelishilgan muddat ichida to'la sotib olish sharti bilan boshqa iqtisodiy birlikka berish

a) moliyaviy lizing deyiladi;

b) kredit berish deyiladi;

c) kreditga olish deyiladi;

d) kapital transfert deyiladi.

124. Transfertlar qanday shaklda bo'ladi?

a) pul va natura shaklida;

b) kredit va lizing shaklida;

c) subsidiya va kredit shaklida;

d) pul va foiz shaklida.

125. Nobozor ishlab chiqarish deb nimaga aytiladi?

- a) bunday tushuncha MHTda yo'q;
- b) iqtisodiy birlikning mamlakat ichidagi tijorat faoliyati;
- c) iqtisodiy birlikning mamlakat tashqarisidagi tijorat faoliyati;
- d) iqtisodiy birlikning ishlab chiqargan tovar va xizmatlarni sotishdan foyda ko'zlamagan faoliyat turi.

126. Natura holida ish haqi bo'lishi mumkinmi?

- a) ha, albatta;
- b) yo'q, mutlaqo;
- c) ish haqi faqat pul ko'rinishida bo'ladi;
- d) natura shaklida transferlar bo'ladi, ish haqi esa faqat pul shaklida bo'ladi.

127. MHTda nomoliyaviy aktivlar deb...

- a) kreditlarga aytiladi;
- b) moliya aktivlari hisoblangan barcha aktivlarga aytiladi;
- c) subsidiyalarga aytiladi;
- d) faqat oltin zahiralarga aytiladi.

128. MHTda omil bahosi...

- a) tovar yoki xizmatning bevosita ishlab chiqarish solig'i olinguncha va subsidiyasi berilguncha bo'lgan qiymati nazarda tutiladi;
- b) tovar yoki xizmatning eksportga jo'natishdagi bahosidir;
- c) tovar yoki xizmatni import bahosidir;
- d) tovar yoki xizmatning qo'shimcha qiymat solig'i bilan birga qo'shilgan qiymati.

129. MHTda operasion lizing o'z mohiyatiga ko'ra...

- a) ishlab chiqarish faoliyati hisoblanadi;
- b) subsidiyalash sohasi hisoblanadi;
- c) transfert sohasi hisoblanadi;
- d) moliyaviy lizing hisoblanadi.

130. MHTda portfel investitsiyalar deb...

- a) institutsion birlik asosiy kapitalning 10 foizigacha miqdordagi investitsiyalariga aytiladi;
- b) aksiyalar kursidagi farqqa aytiladi;
- c) portfelga solib, saqlab qo'yilgan aksiyalarga aytiladi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

131. MHTda renta deb...

- a) banklardan undiriladigan daromadga aytiladi;
- b) sug'urta kompaniyalaridan undiriladigan foiz stavkalariga aytiladi;

- c) ishlab chiqarilmagan aktiv bo'lgan er va konlarni boshqa iqtisodiy birlikka foydalanishga berilganda olinadigan daromadlarga aytiladi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

132. MHTda reinvestitsiya qilingan daromadlar deb...

- a) olingan dividendlarga aytiladi;
- b) investorning investitsiyadan olgan daromadlarini qayta investitsiya qilishiga aytiladi;
- c) davlatning iqtisodiy sub'ektga bergan subsidiyasiga aytiladi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

133. MHTda sektorlar deb...

- a) uy xo'jaliklari va davlat sektorlariga aytiladi;
- b) kredit va tijorat sektoriga aytiladi;
- c) iqtisodiy va ijtimoiy sektorga aytiladi;
- d) iqtisodiy vazifasiga qarab guruhlangan institutsion birliklarga aytiladi.

134. MHTda sof aktivlar deb...

- a) iqtisodiy birlik aktivlarning majburiyatlaridan ko'p bo'lgan qismiga aytiladi;
- b) er va binolarni to'liq qiymatiga aytiladi;
- c) er, kon va o'rmonlardagi zahiralarning bahosiga aytiladi;
- d) iqtisodiy birlikning ustav fondi summasiga aytiladi.

135. MHTda tarmoqlar deb...

- a) davlat va uy xo'jaligi tarmoqlariga aytiladi;
- b) kredit va bank tarmog'iga aytiladi;
- c) faoliyat turlarining o'xshashligiga qarab guruhlangan institutsion birliklar majmuasiga aytiladi;
- d) sanoat va tog'-kon tarmoqlariga aytiladi.

136. MHTda har qanday ko'rinishdagi aktivlarni bepul berish va olish operatsiyalariga:

- a) savdo operatsiyalari deyiladi;
- b) transfertlar deyiladi;
- c) aktivlarni ayirboshlash deyiladi;
- d) to'g'ri investitsiyalar deyiladi.

137. To'lov balans...

- a) mamlakatning chet el bilan bo'lgan iqtisodiy faoliyati natijalarini ifoda etuvchi schyotlardan iborat bo'lib, MHTning axborot bazasi hisoblanadi;
- b) mamlakatning barcha kredit resurslari schyotlaridan iborat;
- c) moddiy va nomoddiy boyliklarni taqsimlash schyotlaridan iborat;

d) eksport-import schyoti hisoblandi.

138. MHTda bir necha hisobot davrlariga cho'ziladigan ishlab chiqarish jarayonlari

- a) uy xo'jaligidagi faoliyat deyiladi;
- b) sanoatdagi zahira deyiladi;
- c) cho'zilgan ishlab chiqarish deyiladi;
- d) tugallanmagan ishlab chiqarish deyiladi.

139. Mamlakat rezident birliklarining (tashqi dunyoga nisbatan) operatsiyalarini hamda aktivlari va majburiyatlari holatini ifoda etuvchi balans...

- a) to'lov balansi deyiladi;
- b) xalqaro investitsiyalar balansi deyiladi;
- c) xolding foydasi deyiladi;
- d) joriy foyda balansi deyiladi.

140. MHTda tovar qiymatining ishlab chiqarilgan va sotish vaqtlari oralig'idagi baho o'zgarishlari natijasida ko'payishi (kamayishi)...

- a) aktivning ko'payishi deyiladi;
- b) majburiyatning kamayishi deyiladi;
- c) xolding foydasi (zarari) deyiladi;
- d) joriy daromad deyiladi.

141. Kuzatilayotgan davr uchun ishlab chiqarishning hajmi qanday hisoblanadi?

- a) sotilgan tovarlar va xizmatlar miqdorida;
- b) faqat tovarlar qiymati;
- c) sotilgan tovarlar va xizmatlar miqdoriga zahiraning o'zgarishi qo'shiladi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

142. Sof soliqlar qanday hisoblanadi?

- a) to'g'ri va egri soliqlar yig'indisidan iborat;
- b) barcha soliqlardan subsidiyalar ayirib tashlanadi;
- c) mahsulot uchun soliqlardan subsidiyalar ayirib tashlanadi;
- d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

143. Ishlab chiqarish schyotida qaysi ko'rsatkichlar bor:

- a) yalpi mahsulot;
- b) qo'shilgan qiymat;
- c) oraliq iste'mol;
- d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

144. Ishlab chiqarish schyotida qaysi ko'rsatkichlar yo'q:

- a) yalpi ishlab chiqarish hajmi;
- b) qo'shilgan qiymat;
- c) mulkdan olingan daromadlar;
- d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

145. Daromadlarni shakllanishi schyotida qaysi ko'rsatkichlar yo'q:

- a) yalpi ishlab chiqarish hajmi;
- b) qo'shilgan qiymat;
- c) mulk uchun daromadlar;
- d) a) va c) javoblar to'g'ri.

146. Daromadlarni shakllanishi schyotida qaysi ko'rsatkichlar bor:

- a) yalpi ishlab chiqarish hajmi;
- b) qo'shilgan qiymat;
- c) mulk uchun daromadlar;
- d) transfertlar.

147. Birlamchi daromadlarni taqsimoti schyotida qaysi ko'rsatkichlar bor:

- a) yalpi mahsulot;
- b) oraliq iste'mol;
- c) mulk uchun daromadlar;
- d) transfertlar.

148. Birlamchi daromadlarni taqsimoti schyotida qaysi ko'rsatkichlar yo'q:

- a) ish haqi;
- b) oraliq iste'mol;
- c) mulk uchun daromadlar;
- d) foyda yoki aralash daromad.

149. Birlamchi daromadlarni taqsimoti schyotida qaysi ko'rsatkichlar bor:

- a) birlamchi daromadlar saldosi;
- b) foyda yoki aralash daromad;
- c) mulk uchun daromadlar;
- d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

150. Birlamchi daromadlarni taqsimoti schyotida:

- a) iqtisodiyot sektorlarining iqtisodiy faoliyatda bevosita va bilvosita qatnashib olgan va bergan birlamchi daromadlari qayd etiladi;
- b) faqat ishlab chiqarishdan olgan birlamchi daromadlar qayd etiladi;
- c) faqat chet eldan olingan daromadlar qayd etiladi;

d) to'g'ri javob yo'q.

151. Birlamchi daromadlarni taqsimoti schyotida:

a) ish haqi uy xo'jaligi sektori birlamchi daromadi hisoblanadi;

b) sof soliqlar davlat boshqaruv idoralari sektori birlamchi daromadi hisoblanadi;

c) mulk uchun daromadlar hamma sektorlar uchun birlamchi daromad hisoblanadi;

d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

152. Pul holiday daromadlarni qayta taqsimoti schyotida:

a) tovar ayirboshlash natijalari qayd etiladi;

b) iqtisodiyot sektorlarining ixtiyordagi daromad qo'rsatkichi hisoblanadi;

c) mulkdan olingan daromadlar hamma sektorlar bo'yicha hisoblanadi;

d) a) va c) javob to'g'ri.

153. Pul holiday daromadlarni qayta taqsimoti schyotida quyidagi ko'rsatkichlar bor:

a) birlamchi daromadlar saldosi;

b) joriy transfertlar olingani va to'langani;

c) ixtiyordagi daromad;

d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

154. Natura holiday daromadlarni qayta taqsimoti schyotida quyidagi ko'rsatkichlar bor:

a) tuzatilgan ixtiyordagi daromad;

b) natura holatidagi sotsial transfertlar olingani va to'langani;

c) ixtiyordagi daromad;

d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

155. Natura holiday daromadlarni qayta taqsimoti schyotida:

a) tovar ayirboshlash natijalari qayd etiladi;

b) davlat boshqaruv idoralari va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorlarining ixtiyordagi daromadlarining bir qismini uy xo'jaligi sektoriga qayta taqsimoti natijalari qayd etiladi;

c) natura holiday sotsial transfertlar qayta taqsimoti hamma sektorlar bo'yicha hisoblanadi;

d) a) va c) javob to'g'ri.

156. Pul holiday ixtiyordagi daromadni ishlatilishi schyotida quyidagi ko'rsatkichlar bor:

a) yakuniy iste'mol;

b) joriy transfertlar olingani va to'langani;

c) ixtiyordagi daromad;

d) a) va c) javob to'g'ri.

157. Tuzatilgan ixtiyordagi daromadni ishlatilishi schyotida quyidagi ko'rsatkichlar bor:

a) tuzatilgan ixtiyordagi daromad;

b) jamg'arma;

c) haqiqiy yakuniy iste'mol;

d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

158. Kapital xarajatlar schyotida:

a) tovar ayirboshlash natijalari qayd etiladi;

b) asosiy ishlab chiqarish vositalarida va boshqa aktivlarda bo'lgan o'zgarishlar qayd etiladi;

c) faqat asosiy kapitalning tiklanishiga bo'lgan xarajatlar qayd etiladi;

d) a) va c) javob to'g'ri.

159. Kapital xarajatlar schyotida quyidagi ko'rsatkichlar yo'q:

a) jamg'arma;

b) joriy transfertlar olingani va to'langani;

c) ixtiyordagi daromad;

d) b) va c) javob to'g'ri.

160. Kapital xarajatlar schyotida quyidagi ko'rsatkichlar bor:

a) jamg'arma;

b) joriy transfertlar olingani va to'langani;

c) ixtiyordagi daromad;

d) b) va c) javob to'g'ri.

161. Norezident birliklarga qanday institusion birliklar kiradi?

a) qo'shma korxonalar;

b) mamlakat hududidagi 100% chet el kapitaliga qurilgan korxonalar;

c) iqtisodiy manfaati chet elga qaratilgan (yoki joylashgan) institutsion birliklar;

d) a) va b) javob to'g'ri.

162. Norezident birliklarga qanday institusion birliklar kirmaydi?

a) qo'shma korxonalar;

b) mamlakat hududidagi 100% chet el kapitaliga qurilgan korxonalar;

c) iqtisodiy manfaati chet elga qaratilgan (yoki joylashgan) institutsion birliklar;

d) a) va b) javob to'g'ri.

163. Rezident birliklarga qanday institusion birliklar kirmaydi?

a) qo'shma korxonalar;

- b) mamlakat hududidagi 100% chet el kapitaliga qurilgan korxonalar;
- c) chet eldan musobaqaga kelgan sportchilar;
- d) chet elda o'qiyotgan o'zbekistonlik talabalar.

164. Rezident birliklarga qanday institusion birliklar kiradi?

- a) qo'shma korxonalar;
- b) mamlakat hududidagi 100% chet el kapitaliga qurilgan korxonalar;
- c) hamma javob to'g'ri;
- d) chet elda o'qiyotgan o'zbekistonlik talabalar.

165. Institusion birlik hisoblanmaydi?

- a) qo'shma korxonalar;
- b) korxonalar bo'limlari;
- c) uy xo'jaligi;
- d) chet elda o'qiyotgan o'zbekistonlik talabalar.

166. Rezident institusion birlik hisoblanadi?

- a) qo'shma korxonalar;
- b) a) va c) javob to'g'ri;
- c) uy xo'jaligi;
- d) chet ellik investor.

167. Norezident institutsion birlik hisoblanadi?

- a) qo'shma korxonalar;
- b) korxonalar bo'limlari;
- c) uy xo'jaligi;
- d) chet ellik investor.

168. Iqtisodiy hudud bilan geografik hududning nima farqi bor?

- a) farqi yo'q;
- b) farqi bor, iqtisodiy hudud geografik hududdan katta yoki kichik bo'lishi mumkin;

c) b)ga qo'shimcha, iqtisodiy hudud rezident birliklarning erkin iqtisodiy faoliyat yuritishlari mumkin bo'lgan hududlardan iborat;

- d) to'g'ri javob yo'q.

169. Mulk uchun daromadlar tarkibi quyidagilardan iborat:

- a) aksiyalardan olingan dividend;
- b) kreditlardan olingan foizlar;
- c) ijaraga berilgan joydan ijara haqi;
- d) a) va b) to'g'ri javob.

170. Mulkdan olingan daromadlar tarkibiga kirmaydi:

- a) aksiyalardan olingan dividend;
- b) kreditlardan olingan foizlar;
- c) ijaraga berilgan joydan ijara haqi;

d) to'g'ri javob yo'q.

171. Qaysi sektorlar natura holida sotsial transfertlarni berishi mumkin?

- a) moliya sektori;
- b) uy xo'jaligi;
- c) tashqi dunyo sektori;
- d) davlat boshqaruv idoralari sektori.

172. Qaysi sektor natura holida sotsial transfertlarni olishi mumkin?

- a) moliya sektori;
- b) uy xo'jaligi;
- c) tashqi dunyo sektori;
- d) davlat boshqaruv idoralari sektori.

173. Qaysi sektorlar asosan bozor ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi?

- a) nomoliya korxonalar sektori, moliya sektori, uy xo'jaligi;
- b) uy xo'jaligi, uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar;
- c) hamma sektorlar;
- d) davlat boshqaruv idoralari sektori.

174. Qaysi sektorlar asosan nobozor ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi?

- a) nomoliya korxonalar sektori, moliya sektori, uy xo'jaligi;
- b) uy xo'jaligi, uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar;
- c) hamma sektorlar;
- d) uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar, davlat boshqaruv idoralari sektori.

175. Qaysi sektorlarda yakuniy iste'mol bo'lmaydi?

- a) nomoliya korxonalar sektori, moliya sektori;
- b) uy xo'jaligi, uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar;
- c) hamma sektorlar;
- d) uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar, davlat boshqaruv idoralari sektori.

176. Qaysi sektorlarda oraliq iste'mol bo'ladi?

- a) nomoliya korxonalar sektori, moliya sektori;
- b) uy xo'jaligi, uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar;

- c) hamma sektorlar;
- d) uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar, davlat boshqaruv idoralari sektori.

177. Qaysi sektorda aralash daromad bo'ladi?

- a) nomoliya korxonalar sektorida, moliya sektorida;
- b) uy xo'jaligi sektorida;
- c) hamma sektorlarda;
- d) uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar va davlat boshqaruv idoralari sektorlarida.

178. Nima uchun sektorlar va tarmoqlar schyotlari asosiy baholarda tuziladi?

- a) axborot yo'qligi uchun;
- b) hisoblar iqtisodiy jarayonni aniqroq ifodalashi uchun;
- c) hisoblarni soddalashtirish maqsadida;
- d) to'g'ri javob yo'q.

179. Nima uchun sektorlar va tarmoqlar schyotlari asosiy baholarda tuziladi?

- a) axborot yo'qligi uchun;
- b) hisoblar iqtisodiy jarayonni aniqroq ifodalashi uchun;
- c) hisoblarni soddalashtirish maqsadida;
- d) to'g'ri javob yo'q.

180. Sektorlar va tarmoqlar schyotlarini asosiy baholarda tuzishdan asosiy maqsad?

- a) mahsulot uchun soliqlar stavkalaridagi o'zgarishlar ta'sirini kamaytirish;
- b) chalkashliklardan qutulish;
- c) hisoblarni soddalashtirish;
- d) to'g'ri javob yo'q.

181. Mamlakat miqyosida ixtiyordagi daromad (ID) va tuzatilgan ixtiyordagi daromad (TID) ko'rsatkichlari o'rtasidagi munosabat qanday?

- a) ID TIDdan katta;
- b) ID TIDdan kichik;
- c) ID TIDga baravar;
- d) to'g'ri javob yo'q.

182. Sof kreditlar ko'rsatkichi musbat bo'lsa:

- a) mamlakatning chetga majburiyati ko'payganligini bildiradi;
- b) mamlakatning chetga talabi oshganligini bildiradi;
- c) mamlakatning resurslari ko'payganligini bildiradi;

d) to'g'ri javob yo'q.

183. Sof kreditlar ko'rsatkichi manfiy bo'lsa:

a) mamlakatning chetga majburiyati ko'payganligini bildiradi;

b) mamlakatning chetga talabi oshganligini bildiradi;

c) sof qarz deb yuritiladi;

d) a) va c) to'g'ri javob.

184. Sotish hajmi – 5000ga, hisobot davri boshida zahira – 1000ga, hisobot davri oxirida zahira – 1500ga, ishlab chiqarishga ishlatilgan tovarlar qiymati – 1000ga, xizmatlar - 1000ga teng bo'lsa, zahiraning o'zgarishi qancha bo'ladi?

a) 1500;

b) 500;

c) 2500;

d) to'g'ri javob yo'q.

185. Sotish hajmi – 5000ga, hisobot davri boshida zahira – 1000ga, hisobot davri oxirida zahira – 1500ga, ishlab chiqarishga ishlatilgan tovarlar qiymati – 1000ga, xizmatlar - 1000ga teng bo'lsa, yalpi ishlab chiqarish hajmi qancha bo'ladi?

a) 1500;

b) 500;

c) 5500;

d) to'g'ri javob yo'q.

186. Sotish hajmi – 5000ga, hisobot davri boshida zahira – 1000ga, hisobot davri oxirida zahira – 1500ga, ishlab chiqarishga ishlatilgan tovarlar qiymati – 1000ga, xizmatlar - 1000ga teng bo'lsa, yalpi qo'shilgan qiymat qancha bo'ladi?

a) 3500;

b) 2000;

c) 5500;

d) to'g'ri javob yo'q.

187. Sotish hajmi – 5000ga, hisobot davri boshida zahira – 1000ga, hisobot davri oxirida zahira – 1500ga, ishlab chiqarishga ishlatilgan tovarlar qiymati – 1000ga, xizmatlar - 1000ga teng bo'lsa, oraliq iste'mol qancha bo'ladi?

- a) 3500;
- b) 2000;
- c) 5500;
- d) to'g'ri javob yo'q.

188. Tomorqada yetishtirilgan mahsulot miqdori qaysi sektor schyotlarida qayd etiladi?

- a) nomoliya korxonalar sektorida;
- b) umuman hisobga olinmaydi;
- c) uy xo'jaligi sektorida;
- d) to'g'ri javob yo'q.

189. Aholining uy-joylarini ijaraga berishi ishlab chiqarish hisoblanadimi?

- a) mulkdan olingan daromad hisoblanadi;
- b) xizmat hisoblanadi;
- c) ishlab chiqarish hisoblanmaydi.

190. Tomorqada yetishtirilgan mahsulot bozorda sotilmagan bo'lsa ham yalpi ichki mahsulot tarkibiga kiritiladimi?

- a) kiritiladi;
- b) kiritilmaydi;
- c) ishlab chiqarish hisoblanmaydi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

191. Korxonada asosiy ishlab chiqarish vositalarining bir qismini sotib yubordi. Bu operatsiya:

- a) ishlab chiqarish hisoblanadi;
- b) ishlab chiqarish hisoblanmaydi;
- c) transfert hisoblanadi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

192. Oraliq iste'mol deganda nimani tushunasiz?

- a) bevosita ishlab chiqarishga qilingan material xarajatlarni;
- b) bevosita ishlab chiqarishga qilingan nomaterial xarajatlarni;
- c) yordamchi faoliyat (buxgalteriya, boshqaruvga va h.k.)ga qilingan material va nomaterial xarajatlarni;
- d) yuqorida (quyida) keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

193. Repititorlik xizmati ishlab chiqarish hisoblanadimi?

- a) yo'q;

- b) ha;
- c) transfert sifatida qayd etiladi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

194. Yakka tartibda ko'rsatilgan tibbiy xizmat ishlab chiqarish hisoblanadimi?

- a) ha;
- b) yo'q;
- c) transfert sifatida qayd etiladi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

195. Traktorni 5 yil muddatga lizing asosida foydalanishga berish ishlab chiqarish hisoblanadimi?

- a) ha;
- b) oluvchi uchun investitsiya olish hisoblanadi;
- c) beruvchi uchun investitsiya kiritish hisoblanadi;
- d) yuqorida (quyida) keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

196. Mashina traktor parki traktorni er xaydash uchun shartnoma asosida foydalanishga berdi. Bu ishlab chiqarish hisoblanadimi?

- a) ha;
- b) oluvchi uchun investitsiya olish hisoblanadi;
- c) beruvchi uchun investitsiya kiritish hisoblanadi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

197. Bir korxonaga asosiy kapitali bo'lgan avtomobilni ikkinchi korxonaga 5 yil muddatga foydalanishga berdi. Lizing shartnomaga ko'ra foydalanuvchi avtomobil haqini har chorakda teng miqdorda 5 yil muddatda to'lashi kerak. Bu qanday operatsiya?

- a) mahsulotni sotish;
- b) oluvchi uchun investitsiya olish hisoblanadi;
- c) beruvchi uchun investitsiya kiritish hisoblanadi;
- d) lizing operatsiyasi hisoblanadi.

198. Avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonaga avtomobilni ikkinchi korxonaga 5 yil muddatda haqini to'lash sharti bilan berdi. Lizing shartnomaga ko'ra foydalanuvchi avtomobil haqini har chorakda teng miqdorda 5 yil muddatda to'lashi kerak. Bu avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonaga uchun qanday operatsiya?

- a) mahsulotni lizing usulida sotish;
- b) oluvchi uchun investitsiya olish hisoblanadi;
- c) investitsiya kiritish hisoblanadi;
- d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

199. Avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonaga avtomobilni ikkinchi korxonaga 5 yil muddatga foydalanishga berdi. Lizing shartnomaga ko'ra foydalanuvchi avtomobil haqini va foiz to'lovlarini har chorakda teng miqdorda 5 yil muddatda to'lashi kerak. Bu oluvchi uchun qanday operatsiya?

- a) transfert;
- b) investitsiya olish hisoblanadi;
- c) otaliq yordami hisoblanadi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

200. Avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonaga avtomobilni ikkinchi korxonaga 5 yil muddatga foydalanishga berdi. Lizing shartnomaga ko'ra foydalanuvchi avtomobil haqini va foiz to'lovlarini har chorakda teng miqdorda 5 yil muddatda to'lashi kerak. Bu avtomobilni beruvchi uchun olingan foiz to'lovlari qanday operatsiya?

- a) mulkdan olingan daromad;
- b) investitsiya olish hisoblanadi;
- c) otaliq yordami hisoblanadi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

201. Avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonaga avtomobilni ikkinchi korxonaga 5 yil muddatga foydalanishga berdi. Lizing shartnomaga ko'ra foydalanuvchi avtomobil haqini va foiz to'lovlarini har chorakda teng miqdorda 5 yil muddatda to'lashi kerak. Bu avtomobilni olgan korxonaga uchun foiz to'lovlari qanday operatsiya?

- a) mulkdan olingan daromad;
- b) investitsiya olish hisoblanadi;
- c) mulk uchun to'langan to'lov hisoblanadi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

202. Avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonaga ishlab chiqarish tartibiga ko'ra o'z ishchilariga bir yilda 1 marta bepul ish kiyimlari beradi. Ish kiyimlariga bo'lgan xarajat qanday qayd etiladi?

- a) oraliq iste'mol sifatida;
- b) ish haqi sifatida;
- c) otaliq yordami sifatida;
- d) to'g'ri javob yo'q.

203. Savdo korxonasi o'z xizmatchilariga kamyob bo'lgan matodan bepul tarzda beradi. Matolarga bo'lgan xarajat qanday qayd etiladi?

- a) oraliq iste'mol sifatida;
- b) ish haqi sifatida;

- c) otaliq yordami sifatida;
- d) to'g'ri javob yo'q.

204. Avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonada o'z ishchilariga sanatoriyaga bepul yo'llanma berdi. Yo'llanma xarajatlari qanday qayd etiladi?

- a) oraliq iste'mol sifatida;
- b) ish haqi sifatida;
- c) otaliq yordami sifatida;
- d) to'g'ri javob yo'q.

205. Qaysi ko'rsatkich ishlab chiqarish miqdorini o'lchovi hisoblanadi?

- a) yalpi ishlab chiqarish hajmi;
- b) yalpi foyda;
- c) qo'shilgan qiymat;
- d) sof foyda.

206. Qaysi agregat mamlakat miqyosida yaratilgan daromadni xarakterlaydi?

- a) yalpi ishlab chiqarish hajmi;
- b) yalpi ichki mahsulot;
- c) yalpi milliy mahsulot;
- d) yalpi milliy daromad.

207. Subsidiyalar qaysi sektorlarning resursi hisoblanishi mumkin?

- a) davlat boshqaruv idoralari sektorining;
- b) faqat nomoliya korxonalari sektorining;
- c) davlat boshqaruv idoralari sektoridan boshqa hamma sektorlarning;
- d) hamma sektorlarning.

208. Chet mamlakatda ishlab topilgan ish haqi qaysi schyotda qayd etiladi?

- a) ishlab chiqarish schyotida;
- b) daromadlarni shakllanishi schyotida;
- c) tashqi dunyo sektori schyotida;
- d) birlamchi daromadlarning taqsimoti schyotida.

209. Tashqi dunyodan olingan birlamchi daromadlarga qaysi daromadlar kiradi?

- a) ish haqi;
- b) dividendlar;
- c) foizlar;

d) yuqorida (quyida) keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

210. Mulk uchun to'langan daromadlarga qaysi daromadlar kiradi?

- a) ish haqi;
- b) ijara haqi;
- c) foizlar, dividendlar;
- d) yuqorida (quyida) keltirilgan barcha javoblar to'g'ri.

211. Banklar ishlab chiqarishi qanday hisoblanadi?

- a) xarajatlari miqdorida;
- b) foizlar o'rtasidagi farq (marja) va boshqa moliyaviy xizmatlar miqdorida;
- c) to'g'ri javob yo'q.

212. Vazirliklar va boshqa boshqaruv idoralari qo'shilgan qiymat yaratadilarmi?

- a) yo'q;
- b) ular nobozor xizmatlar ko'rsatadilar;
- c) b) ga va qo'shilgan qiymat yaratadilar;
- d) to'g'ri javob yo'q.

213. Partiyalar va diniy tashkilotlar qo'shilgan qiymat yaratadilarmi?

- a) yo'q;
- b) ular aholi guruhlariga nobozor xizmatlar ko'rsatadilar;
- c) b) ga va qo'shilgan qiymat yaratadilar;
- d) to'g'ri javob yo'q.

214. Uy xo'jaliklari qo'shilgan qiymat yaratadilarmi?

- a) yo'q;
- b) ha, qo'shilgan qiymat yaratadilar;
- c) ular daromadlarni o'zlashtiradilar;
- d) to'g'ri javob yo'q.

215. Harbiy maqsadlarda ishlatish uchun avtomobil sovg'a tariqasida olindi. Bu operatsiya qaysi schyotda qayd etiladi?

- a) joriy transfert sifatida daromadlarni ikkilamchi taqsimot schyotida,
- b) kapital transfert sifatida kapital xarajatlar schyotida,
- c) tashqi dunyo schyotida import sifatida,
- d) a) va c) javoblar to'g'ri.

216. Nomoliya korxonasiga avtomobil sovg'a tariqasida olindi. Bu operatsiya qaysi schyotda qayd etiladi?

- a) joriy transfert sifatida daromadlarni ikkilamchi taqsimot schyotida;
- b) kapital transfert sifatida kapital xarajatlar schyotida,

- c) otaliq yordami sifatida,
- d) a) va c) javoblar to'g'ri.

217. Uy xo'jaligiga avtomobil sovg'a tariqasida olindi. Bu operatsiya qaysi schyotda qayd etiladi?

- a) joriy transfert sifatida daromadlarni ikkilamchi taqsimot schyotida,
- b) kapital transfert sifatida kapital xarajatlar schyotida,
- c) otaliq yordami sifatida,
- d) a) va c) javoblar to'g'ri.

218. Mamlakat ichida rezident birlik norezident birlikka mahsulotni milliy pul(so'm)ga sotdi. Bu eksportmi?

- a) yo'q;
- b) ha;
- c) ichki operatsiya;
- d) to'g'ri javob yo'q.

219. Mamlakat ichida rezident birlik rezident birlikka mahsulotni AQSH dollariga sotdi. Bu eksportmi?

- a) yo'q;
- b) ha;
- c) ichki operatsiya;
- d) to'g'ri javob yo'q.

220. Mamlakatdagi qo'shma korxonaning yil davomida olgan dividendning 49%ini chet ellik hamkorga berildi. Bu holat qaysi schyotda qayd etiladi?

- a) birlamchi daromadlarni taqsimoti schyotida;
- b) daromadlarni shakllanishi schyotida;
- c) ishlab chiqarish schyotida;
- d) to'g'ri javob yo'q.

221. MHTda devidendlar qanday talqin etiladi?

- a) uy xo'jaliklarining jamg'armalari sifatida;
- b) joriy transfert sifatida;
- c) mulk uchun olingan daromad sifatida;
- d) aksionerlik kompaniyalarining aksionerlardan oladigan solig'i.

Bilimlarni tekshirish uchun test javoblari

1 b	47 a	93 a	139 b	185 c
2 a	48 b	94 c	140 c	186 a
3 b	49 d	95 d	141 c	187 b
4 c	50 a	96 b	142 b	188 c

5 c	51 a	97 a	143 d	189 b
6 c	52 b	98 c	144 c	190 a
7 a	53 b	99 b	145 d	191 b
8 b	54 a	100 a	146 b	192 d
9 a	55 b	101 b	147 c	193 b
10 b	56 b	102 c	148 b	194 a
11 a	57 cd	103 a	149 d	195 d
12 b	58 cd	104 b	150 a	196 a
13 b	59 b	105 a	151 d	197 d
14 a	60 a	106 c	152 b	198 d
15 b	61 a	107 b	153 d	199 b
16 b	62 a	108 b	154 d	200 a
17 c	63 d	109 a	155 b	201 c
18 a	64 d	110 a	156 d	202 a
19 c	65 d	111 d	157 d	203 b
20 c	66 d	112 b	158 b	204 b
21 c	67 c	113 c	159 d	205 c
22 a	68 c	114 a	160 a	206 d
23 a	69 d	115 a	161 c	207 c
24 b	70 b	116 b	162 d	208 d
25 b	71 b	117 a	163 c	209 d
26 c	72 b	118 a	164 c	210 c
27 b	73 a	119 b	165 b	211 b
28 b	74 a	120 c	166 b	212 c
29 c	75 b	121 b	167 d	213 c
30 c	76 c	122 d	168 c	214 b
31 c	77 b	123 a	169 d	215 d
32 c	78 a	124 a	170 c	216 b
33 b	79 b	125 d	171 d	217 a
34 c	80 a	126 a	172 b	218 b
35 b	81 c	127 b	173 a	219 b
36 d	82 c	128 a	174 d	220 a
37 a	83 a	129 a	175 a	221 c
38 c	84 c	130 a	176 c	
39 d	85 b	131 c	177 b	
40 a	86 c	132 b	178 b	
41 a	87 a	133 d	179 b	
42 d	88 b	134 a	180 a	
43 a	89 c	135 c	181 c	

44 d	90 a	136 b	182 b
45 d	91 b	137 a	183 d
46 c	92 c	138 d	184 b

Milliy hisobchilikda ishlatiladigan asosiy terminlar va ularning qisqacha ta'riflari

Terminlar	Mazmuni
Asosiy kapital Osnovnoy kapital	Ishlab chiqarish jarayonida bir yil muddatdan ortiq davrda ishlatiladigan ishlab chiqarilgan aktivlardan iborat. Ular bir yilda butkul qiymatlarini yo'qotmaydigan ishlab chiqarish vositalaridan iborat.
Asosiy kapitalning iste'moli Potreblenie osnovnogo kapitala	Hisobot davrida asosiy kapitalning eskirishi natijasida joriy bahosining kamayishi. Uning miqdori asosiy kapitalning eskirishini tiklashga ketadigan xarajat miqdorida hisoblanadi.
Asosiy kapitalning yalpi yig'ilmasi Valovoe nakoplenie osnovnogo kapitala Aslini va nusxa ishlab chiqarish Proizvodstvo originalov i kopiy	Ma'lum bir davr mobaynida asosiy kapitalning qanchaga o'zgarganligini ifodalovchi miqdor. Bu ishlab chiqarish ikki bosqichdan iborat. 1-bosqichda "asl nusxa" (asli) yaratiladi. 2-bosqichda aslidan foydalanib nushalar tayyorlanadi. Asli - kapital aktiv hisoblanadi. Uni foydalanishga berib turish xizmat ko'rsatish deb talqin qilinadi. Ko'chirilgan nushalar kapital aktiv hisoblanmaydi.
Aralash daromad Smeshanniy doxod	Uy xo'jaliklariga tegishli nokorporativ korxonalarining foyda ko'rsatkichi.
Barter operatsiyalari Barternie operatsii	Bir turdagi tovar va xizmatlar evaziga mos qiymatdagi boshqa tovar va xizmatlar olish.
Barqaror (qattiq) valyuta Tverdaya valyuta	Yil davomida ayirboshlash kursi o'zgarishi juda oz (3%dan kam) va hamma operatsiyalar bo'yicha ayirboshlash imkoniyati bor bo'lgan valyutalar.
Bozor munosabati Rinochnoe otnoshenie	Institutsion birliklar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning talab va taklifdan kelib chiqqan baholarda amalga oshirilishi
Bozor iqtisodiyoti Rinochnaya ekonomika	Iqtisodiy operatsiyalarning aksariyat ko'p qismi bozor munosabatlari asosida amalga oshiriladigan iqtisodiyot.
Bozor ishlab chiqarish Rinochnoe proizvodstvo	Ishlab chiqargan tovar va xizmatlarni talab va taklifdan kelib chiqqan baholarda ayirboshlashga asoslangan faoliyat turlari.
Bevosita ishlab chiqarish solig'i Prochie nalogi na proizvodstva	Ishlab chiqarish faktorlariga to'lanadigan soliqlar. Ularni institutsion birliklar to'laydilar.

Bevosita ishlab chiqarish subsidiyalari Prochie subsidii na proizvodstva	Institutsion birliklarning ishlab chiqarish faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash va ish uslublarida ma'lum talablarni bajarganliklari uchun to'lanadigan miqdor.
Birlamchi daromadlar Pervichnie doxodi	Institutsion birliklarning ichki va tashqi iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish faoliyatlaridan va mulkdan olgan daromadlaridan iborat.
Daromadlar Doxodi	Iqtisodiy faoliyat natijasida va transfertlar evaziga ega bo'lingan naf miqdori.
Dividendlar Dividendi	Aksionerning o'z mablag'ini boshqa birlikka berib qo'yishi evaziga olgan daromadlari.
Jamg'arma Nakoplenie	Ixtiyordagi daromadning yakuniy iste'molga ishlatilgandan so'ng qolgan qismi.
Joriy operatsiyalar schyoti Schyot tekushix operatsiy	To'lov balansining schyoti. Bu schyotda joriy operatsiyalar qayd etiladi.
Joriy transfertlar Tekushie trasferti	Kapital transfert tarkibiga kiritilmagan boshqa transfertlar.
Zaxiralar Zapasi	Iqtisodiy o'zgarishlarning ma'lum bir sanadagi holatini ifodalaydi.
Ijara Arenda	Ish o'rinlarini, uy joylarni ijaraga berish xizmat ko'rsatish hisoblanadi. Er va konlarni ijaraga berish mulkdan olingan daromad (renta) hisoblanadi.
Import subsidiyasi Subsidii na import	Institutsion birliklarga ma'lum tovar va xizmatni chetdan keltirgani uchun beriladigan subsidiyalar.
Institutsion birlik Institutsionnaya edinitsa	Mustaqil xo'jalik yurituvchi birliklar, ular milliy hisobchilikda hisobga olish birligi sanaladi.
Individual iste'mol tovarlari Individual'nie potrebitel'skie tovari	Uy xo'jaliklari tomonidan sotib olingan tovarlar. Bu tovarlar o'z a'zolarining iste'moli va talabini qondirish maqsadida ishlatiladi.
Individual xizmatlar Individual'nie uslugi	Uy xo'jaliklarining xohish-talabi asosida ko'rsatilgan xizmatlar.
Investitsiya Investitsiya	Iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirish.
Iste'mol Potreblenie	Tovar va xizmatlarni ishlatish, o'zlashtirish, tasarruf etish.

Iste'mol - faoliyat turi Potreblenie kak deyatel'nost	Iste'mol faoliyati tovar va xizmatlarni aholining individual va kollektiv talab va xohishini qondirish uchun ishlatilishidan iborat.
Iste'mol tovarlari va xizmatlari Potrebitelskie tovari i uslugi	Ishlab chiqarish jarayonida qayta ishlatilmaydigan iste'mol mahsulotlari va xizmatlar (yakuniy iste'molga qarang).
Iste'mol baholari indeksi Indeks potrebitelskix sen	Tovar va xizmatlarni iste'mol (harid) baholaridagi o'zgarishlarni ifodalaydi.
Ixtiyordagi daromad Raspolagaemiy doxod	Institutsion birliklarning ichki va tashqi iqtisodiyotda faoliyatlari natijasida olgan birlamchi daromadlari va joriy transfertlar saldosi yig'indisidan iborat.
Ishlab chiqarish Proizvodstvo	Bozor va nobozor ishlab chiqarishdan iborat.
Ishlab chiqarish chegarasi Granista proizvodstva	MHTda ishlab chiqarish sifatida qaraladigan faoliyat turlari.
Ishlab chiqarilmagan aktivlar Neproizvedyonnie aktivi	Iqtisodiy ishlab chiqarish natijasida yaratilmagan nomoliyaviy aktivlardan iborat (masalan er, konlar, o'rmonlar).
Ish haqi Zarabotnaya plata	Ishchi xizmatchilarning yollanma mehnatdan oladigan daromadlari (daromad solig'i bilan birgalikda). Ish haqi pul yoki natura holida bo'lishi mumkin.
Ishlab chiqaruvchi bahosi Sena proizvoditelya	Tovar va xizmatning ishlab chiqaruvchidan chiqib ketayotgandagi bahosi.
Iqtisodiy qiziqish (manfaat) Ekonomicheskii interes	Institutsion birlikning qaysi iqtisodiyot manfaatini ko'zlab faoliyat yuritayotganligini ifodalovchi omillar (ish joylarining mamlakat iqtisodiy hududida bo'lishi, doimiy yoki bir yildan ortiq muddatda mamlakatda yashashi).
Iqtisodiy faoliyat Ekonomicheskaya deyatel'nost'	Tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, iste'mol va jamg'arish jarayonlari.
Iqtisodiy ishlab chiqarish Ekonomicheskoe proizvodstvo	Mehnat, mablag', tovar va xizmatlar sarflab yangi turdagi yoki sifatdagi tovarlar yaratish va xizmatlar ko'rsatish.
Iqtisodiy hudud Ekonomicheskaya territoriya	Rezident birliklarning mamlakatda va uning tashqarisida hech qanday to'siqsiz iqtisodiy faoliyat yuritish huquqi bo'lgan hududlarning majmuasidan iborat.
Iqtisodiy aktivlar Ekonomicheskii aktiv	Boshqa birlikka berganda biror iqtisodiy naf keltirishi mumkin bo'lgan iqtisodiy ob'ektlar.

Kapital transfertlar Kapitalnie trasferti	Asosiy kapital (ishlab chiqarish vositalari)ni bepul olinishi va berilishi.
Kvazikorporatsiya Kvazikorporatsiya	Norezidentlarga tegishli bo'lgan nokorporativ rezident birlik yoki o'zini xuddi mustaqil institutsion birlikday tutayotgan rezidentlarga tegishli bo'lgan nokorporativ korxonalar.
Korporatsiya Korporatsiya	Kollektiv mulkka asoslangan, tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi va huquqiy birlik maqomini olgan korxonalar va tashkilotlar.
Kollektiv xizmatlar Kollektivnie uslugi	Bir vaqtning o'zida aholining hammasiga yoki ma'lum bir aholi guruhlariga ko'rsatilgan xizmatlar.
Majburiyatlar Obyazatelstvo (passiv)	O'z aktivini kamayishi hisobiga boshqa birlikka qaytarib berilishi kerak bo'lgan iqtisodiy ob'ektlar.
Makroiqtisodiyot Makroekonomika	Mamlakat, uning tarmoqlari, sektorlari va hududlari iqtisodiyoti yaxlit (yagona) tizimi.
Mamlakatning yalpi rezerv aktivlari Valovie vneshnie rezervnie aktivlari	Davlat ixtiyorida bo'lgan rezerv aktivlar.
Maxsus qarz olish huquqi (SDR) Spetsialnoe pravo zaimstvovaniya (SDR)	XVFGa a'zo mamlakatlarning uning schyotiga u belgilagan kvota miqdorida o'tkazib qo'ygan mablag'lari.
Mahsulotlar uchun soliqlar Nalogi na produkti	Mahsulot tayyor bo'lgandan so'ng mahsulot birligiga nisbatan to'lanadigan soliq. Soliqni iste'molchi to'laydi.
Mahsulotlar uchun subsidiyalar Subsidii na produkti Mulkdan daromadlar Doxodi ot sobstvennosti	Tayyor mahsulot birligiga nisbatan to'lanadigan subsidiyalar. O'z aktivlarini boshqa birlikka berib qo'yish evaziga olinadigan daromadlardan iborat.

Mehnat haqi Oplata truda	Ishchi-xizmatchilarning yollanma mehnatdan oladigan ish haqlari (daromad solig'i bilan birgalikda) va majburiy sotsial sug'urta ajratmalari.
Mustaqil ishlovchilar Samozanyatie rabotniki	Kvazikorporatsiya hisoblanmagan uy xo'jaliklarining nokorporativ korxonolari egalari.
Monetar oltin Monetarnoe zoloto	Davlatning rezerv aktivlari tarkibiga kirgan oltin zaxirasi.
Mikroekonomika Mikroekonomika	Xo'jalik yurituvchi birliklar iqtisodiyoti.
Moliyaviy lizing Finansoviy lizing	Kapital tovarni kelishilgan muddat ichida to'la sotib olish sharti bilan olish. To'lov haqi bo'lib-bo'lib to'lanadi. Tovarni qiymati to'la qoplanmaguncha oluvchi foizlar to'lab turadi. Bu operatsiya ishlab chiqarish hisoblanmaydi. Mohiyatiga ko'ra kredit olish-berish operatsiyasi sanaladi.
Natura holidayagi transfert Transfert v naturalnoy forme	Pul holidayagi transfertlardan boshqa transfertlar. Odatda, transfert oluvchi tovar yoki xizmatga ega bo'ladi.
Natura holidayagi ish haqi Zarabotnaya plata v nature	Ish haqiga qo'shimcha va ish haqi sifatida berilgan tovarlar va xizmatlar.
Natura holidayagi sotsial transfertlar Sotsialnie transferti v natural'noy forme	Davlat boshqaruv idoralari va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektoriga kiruvchi institutsion birliklarning uy xo'jaliklariga bergan individual iste'mol tovarlari va xizmatlaridan iborat.
Nobozor ishlab chiqarish Nerinochnoe proizvodstvo	Ishlab chiqargan tovar va xizmatlarni sotishdan foyda ko'zlamagan faoliyat turlari.
Nomoliya aktivlar Nefinansovie aktivi	Moliya aktivlari hisoblanmagan hamma aktivlar.
Notijorat tashkilotlar Nekommercheskie organizatsii	Tovar yoki xizmatlar ishlab chiqaruvchi huquqiy yoki jamoatchilik asosida tashkil etilgan birliklar. Ular tashkilotchilari talabiga asosan faoliyat yuritadilar. Ular mavqelariga ko'ra foyda olishlari mumkin emas.
Omil bahosi Faktornaya stoimost	Tovar yoki xizmatning bevosita ishlab chiqarish solig'i olinguncha va subsidiyasi berilguncha bo'lgan qiymati.
Oraliq iste'mol Promejutochnoe potreblenie	Tovar va xizmatlarni sifat jihatdan yangi turdagi tovarlar ishlab chiqarishda va xizmat ko'rsatishda

	sarflash.
Operatsiyalar (iqtisodiy) Operatsii (ekonomicheskije)	Iqtisodiy ma'noga ega bo'lgan o'zgarishlarni yoki holatlarni ifoda etadi.
Oqimlar Potoki	Ma'lum bir davrdagi o'zgarishlarni ifodalaydi.
Operatsion lizing Operatsionniy lizing	Asosiy ishlab chiqarish vositalari bo'lgan tovarlarni boshqa birlikka ma'lum muddatga ijaraga berib turish. Operatsion lizing ishlab chiqarish faoliyati hisoblanadi.
Pul holidagi transfert Transfert v denejnoy forme	Naqd pul yoki hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan berilgan yoki olingan transfertlar.
Portfel investitsiyalar Portfelnie investitsii	Institutsion birlik asosiy kapitalning 10 foizigacha bo'lgan miqdordagi investitsiyalar.
Rezerv aktivlari Rezervnie aktivi	To'lov qobiliyati yuqori bo'lgan aktivlar.
Rezident birliklar Rezidentnie edinisi	Iqtisodiy manfaat (qiziqish)i mamlakatning iqtisodiy hududiga qaratilgan institutsion birliklar
Renta Renta	Ishlab chiqarilmagan aktiv bo'lgan er va konlarni boshqa birliklarga foydalanishga berilganda olinadigan daromadlar. Bu mulkdan olingan daromad hisoblanadi.
Reinvestitsiya qilingan daromadlar Reinvestiruemie doxodi	Investorning investitsiyadan olgan daromadlarini qayta investitsiya qilish.
Savdo kreditlari Torgovie krediti	Savdo-sotiq operatsiyalarini moliyalashtirish uchun foydalanilgan qisqa muddatli kreditlar, tovar va xizmat sotib olish natijasida yuzaga keladigan majburiyatlar.
Sektorlar Sektori	Iqtisodiy vazifasiga qarab guruhlangan institutsion birliklar.
Sotib oluvchi bahosi Sena potrebitelya Sotib olish (tovarlar va xizmatlar) Priobretenie	Tovar va xizmatning oraliq va yakuniy iste'moldagi qiymati. Tovarni sotib olayotgan institutsion birlikka egalik huquqining mutloq o'tishi va xizmatlarning to'la ko'rsatilishi.
Sof aktivlar CHistie aktivi	Iqtisodiy birlik aktivlarining majburiyatlaridan ko'p bo'lgan qismi.
Sof ichki mahsulot Chistiy vnutrenniy produkt	Yalpi ichki mahsulotdan asosiy kapital iste'molining ayirilgani.

Sof qarzar Chistie dolgi	Iqtisodiy birlik majburiyatlarining aktivlaridan ko'p bo'lgan qismi.
Sof kreditlash Chistoe kreditovanie	Iqtisodiy birlikning ma'lum bir davrdagi iqtisodiy faoliyati natijasida boshqa birliklarga bergan sof aktivlarini miqdorini ifodalaydi.
Sof qarz olish Chistoe zaimstvovanie	Iqtisodiy birlikning ma'lum bir davrdagi iqtisodiy faoliyati natijasida boshqa birliklardan olgan sof qarzlarini miqdorini ifodalaydi.
Subsidiyalar Subsidii	Davlat tomonidan institutsion birliklarga ishlab chiqarish faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida beriladigan to'lovlardan iborat.
Tarmoqlar Otrasli	Faoliyat turlarining o'xshashligiga qarab guruhlangan institutsion birliklar majmuasi.
Tarixiy obidalar Istoricheskie pamyatniki	Milliy, ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy yodgorliklar. Bu yodgorliklar pulli ziyoratgoh sifatida ishlatilsa, asosiy kapital qatoriga kiritiladi.
Tashqi dunyo Ostal'noy mir	Rezident birliklar bilan operatsiyalar va boshqa iqtisodiy aloqalar qiladigan norezidentlar majmuasidan iborat.
Tovarlar Tovari	Egalik huquqi tarqatilishi mumkin bo'lgan fizik predmetlar.
Transfertlar Transferti	Har qanday ko'rinishdagi aktivlarni evaziga hech qanday aktiv bermay va majburiyatlar olmay olish va berish operatsiyalaridan iborat.
To'lov balansi Platejnyi balans	Mamlakatning chet el bilan bo'lgan iqtisodiy faoliyati natijalarini ifoda etuvchi schyotlardan iborat.
To'g'ri investitsiyalar Pryamie investitsii	Institutsion birlikning faoliyatini boshqarishda qatnashish va dividendlar olish maqsadida qo'yilgan investitsiyalar.
Tugallanmagan ishlab chiqarish Nezavershennoe proizvodstvo	Bir necha hisobot davrlariga cho'ziladigan ishlab chiqarish jarayonlari.
Tuzatilgan ixtiyordagi daromad Skorrektirovanniy raspologаемiy doxod	Davlat boshqaruv idoralari, uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar va uy xo'jaligi sektorlarining ixtiyordagi daromad ko'rsatkichlarini natura holidayi sotsial transfertlar hisobiga o'zgartirilgan qiymati.
Uy xo'jaligi Domashnie xozyaystva	a) mamlakat iqtisodiyotidagi institutsion sektor; b) daromadlarini birgalikda tasarruf etadigan alohida shaxslar va oilalar guruhi.

Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar. Nekommercheskie organizasii obslujivayushie domashnie xozyaystva	Faoliyatlarini a'zolik badallari, xayriya to'lovlari va boshqa transfertlar hisobiga yuritadigan va uy xo'jalik-lariga, aholi guruhlariga nobozor baholarda tovarlar yetkazib beradigan va xizmatlar ko'rsatadigan notijorat tash-kilotlar kiradi.
Uyida ishlovchi Nadomnik	Uyida tovar va xizmatlarni tayyorlab va bajarib boshqa birlikka shartnoma asosida yetkazib beruvchilar.
Ulgurji baho indeksi Indeks optovix sen	Tovarlarni ulgurji harid baholaridagi o'zgarishlarni ifodalaydi.
Faktor bahosi Faktornaya stoimost	Tovar va xizmatning ishlab chiqarish faktorlariga bo'lgan xarajatlar va korxonada ixtiyorida qoladigan foyda yig'indilaridan iborat.
Fizik hajm indeksi Indeks fizicheskogo ob'ema	Tovar va xizmatlarning hajmiy miqdorini o'zgarishlarini ifodalaydi.
Foizlar Protsenti	Debitorning kreditor foydasiga olgan qarzi evaziga to'lovlaridan iborat. Foiz to'lash asosiy qarz miqdorini kamaytirmaydi.
Foyda (yalpi) Pribil	Ishlab chiqarish faoliyati natijasida institutsion birlik ixtiyorida qoladigan qiymat.
Xalqaro investitsiya balansi Balans mejdunarodnix investitsiy	Mamlakat rezident birliklarining aktivlari va majburiyatlari holatini ifoda etuvchi balans. Odatda yilning oxiridagi holatida baholanadi.
Xizmatlar Uslugi	Iste'molchi talabi asosida bajariladigan yumushlar (nomoddiy faoliyatlar).
Xolding foydasi (zarari) Xoldingovaya pribil' (ubitok)	Tovar qiymatining ishlab chiqarilgan va sotish vaqtlari oralig'ida baho o'zgarishlari natijasida ko'payishi (kamayishi).
Yakuniy (pirovard) iste'mol Konechnoe potreblenie	Uy xo'jaliklarining o'z daromadlari hisobidan ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatgan tovar va xizmatlar miqdori.

Yalpi milliy daromad Valovoy natsional'niy doxod	Rezident institutsion birliklarning birlamchi daromadlari yig'indisidan iborat. Yalpi milliy daromad yalpi ichki mahsulotdan chet eldan olingan va berilgan birlamchi daromadlar saldosisiga farq qiladi.
Yalpi milliy ixtiyordagi daromad Valovoy natsional'niy raspolagaemiy doxod	Rezident institutsion birliklarning ixtiyorida qolgan daromadlari yig'indisidan iborat. Uni yalpi milliy daromadga chet eldan olingan barcha joriy transfertlarni qo'shish va chetga berilganlarini ayirish orqali topish mumkin.
Yalpi tashqi aktivlar Valovie vneshnie aktivi	Mamlakat rezident birliklarining norezidentlarga bo'lgan talablarining yig'indisidan iborat.
Yalpi tashqi majburiyatlar Valovie vneshnie obyazatel'stva	Mamlakat rezident birliklarining norezidentlar oldidagi majburiyatlarining yig'indisidan iborat.
Yalpi ishlab chiqarish Valoviy vipusk	Mamlakatda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning ishlab chiqaruvchi bahosidagi qiymati.
Yalpi ichki mahsulot Valoviy vnutrenniy produkt	Mamlakatda ma'lum bir davrda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning bozor baholaridagi qiymati.
Yalpi ichki mahsulot deflyatori Deflyator valovogo vnutrennego produkta	Yalpi ichki mahsulotning joriy baholardagi qiymatini kuzatilayotgan davrda qanchaga o'zgarganligini ifodalaydi.
Qimmatli buyumlar Sennosti	O'tgan vaqtga nisbatan o'z qiymatini yo'qotmaydigan tovarlar. Bunday buyumlardan ishlab chiqarishda va iste'molda foydalanilmaydi.
Qo'shilgan qiymat (yalpi, sof) Dobavlenneya stoimost (valoviy, chistiy)	Institutsion birlikning ishlab chiqarish faoliyati natijasida yaratilgan yangi daromad. Bu daromad tarkibida asosiy kapitalning iste'moli bo'lsa yalpi, bo'lmasa sof qo'shilgan qiymat deyiladi.
Eksport subsidiyasi Subsidii na eksport	Institutsion birliklarga ma'lum tovar va xizmat eksportini ko'paytirish maqsadida belgilangan to'lovlar yoki eksport qilishdan ko'rgan zararni qoplash.
Haqiqiy yakuniy iste'mol Fakticheskoe konechnoe potreblenie	Uy xo'jaliklarining o'z daromadlari va natura holidagi sotsial transfertlar hisobidan ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatgan tovar va xizmatlar miqdori.
Hisob birligi Raschyotnaya edinisa	Hisobotlarni tuzishda qabul qilingan valyuta birligi ⁶¹ .

⁶¹ Inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda hisoblar milliy valyutada emas, boshqa biror barqaror valyuta birligida tuzilishi mumkin

Xotima

Hurmatli kitobxon!

Har bir narsaning ibtidosi bo'lganidek, uning intihosi ham muqarrar. Kitobni o'qib chiqdingiz, bozor iqtisodiyoti uning hisobot tizimi to'g'risidagi tasavvurlaringiz biroz bo'lsada yangilandi. Oldingizda turgan ayrim muammo va savollarga javob topgandaysiz. Shu bilan bir qatorda, qalbingizda yechimini topmagan yangi savollar va ularni chuqurroq anglash hissi paydo bo'ldi. Kitobda yoritilgan mavzular bo'yicha e'tirozlaringiz borligi o'z-o'zidan bizga ayon. Chunki, to'g'ri fikrlash bilan uni «egasi»ga yetkazishda hali ancha masofa borligini his qilib turibmiz. Bu kamchiliklarni bartaraf etishga albatta Siz ham yordamingizni ayamaysiz degan umiddamiz. Sizdan fikr va mulohazalar kutib qoluvchi

Muallif

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2011 yil 22 yanvar.

2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. - T.: O'zbekiston, 2005. 153 b.

3. I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: O'zbekiston, 2009.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barkamol avlod yili» davlat dasturi to'g'risidagi qarori. -Toshkent oqshomi, 2009 yil 28 yanvar.

5. Система национальных счетов.- Статистический департамент ООН.: Вашингтон, 1993.

6. Руководство по платежному балансу. - Международный валютный фонд. Пятое издание, 1993.

7. Рябушкин Б.Т., Хоменко Т.А. Система национальных счетов. - М.: ФиС, 1993.

8. Б.Т.Рябушкин, Т.А.Хоменко. Система национальных счетов. Учебное пособие.- М.: Финансы и статистика, 1993.

9. Национальные счета в переходный период. Материал Организации экономического сотрудничества и развития (ОЭСР), 1994.

10. Б.М.Махмудов. Зачем нужна Система национальных счетов. Журнал "Экономика и статистика". - Т, 1994.

11. Б.М. Махмудов. Институциональные структуры по наблюдению, сбору, анализу и прогнозированию экономических индикаторов. Тезисы семинара "Прогнозирование на макроэкономическом уровне", Ташкент, 6-10 февраля 1995. стр.13

12. В.М.Махмудов. Statistika: Muammolar va echimlar (hisobot va statistika tizimini takomillashtirish - bozor iqtisodi davrida zaruratdir) Jurnal "Iqtisod va hisobot", 1995, №3.

13. Ю.Н.Иванов и др. Система национальных счетов - инструмент макроэкономического анализа. Учебное пособие/ Под редакцией Ю.Н.Иванова. - М.: Финстатинформ, 1996.

14. Б.М.Махмудов. Проблемы перехода на Систему национальных счетов в Узбекистане. Проблема углубления экономических реформ на новом этапе развития. Сборник научных трудов НИИ экономики и развития производительных сил. - Т, 1996.

15. Б.М. Махмудов. Внедрение СНС в переходной экономике. Материалы семинара “Социальная политика в переходной экономике”, Ташкент, 3-7 сентября 1996 года.

16. Сафронова В.П. Показатели системы национальных счетов в отечественной статистике. – М.: Финстатинформ, 1996.

17. X.Nabiev, A.Nabixo‘jaev, V.Mahmudov. Milliy hisoblar tizimi. O‘quv qo‘llanma / - Т.,1998.

18. Б.М. Махмудов. Прогнозирование платежного баланса. Материалы семинара «Прогнозирование макроэкономических и отраслевых показателей». ЮСАИД/Международный проект обучения для развития «ГЛОБАЛ». Ташкент 12-15 декабря 2000г. стр.42-45.

19. Б.Т.Рябушкин. Национальные счета и экономические балансы. – М.: ФиС, 2002.

20. В.Махмудов. Milliy hisobchilik asoslari. – Т.: Akademiya, 2003.

21. Татаринов А. Субнациональные счета: проблемы разработки и использование в региональном анализе. – М.: ИЭПП, 2005.

22. Иванов Ю.Н., Казаринова С.Е. и др. Основы национального счетоводства. – М.: ИНФРА-М, 2005.

23. Национальное счетоводство. /Под ред. Б.Н.Башкатова. – М.: ФиС, 2005.

24. Салин В.Н., Кудряшова С.И. Система национальных счетов. – М.: ФиС, 2006.

25. Есипова Э.Ю. Система национальных счетов: краткий курс. – М.: ФиС, 2007.

26. О.И.Образцова, О.В.Копейкина. Система национальных счетов. – М.: Издательский дом ГУ ВШЭ, 2008.

B.M. Mahmudov. Milliy hisoblar tizimi. Darslik. – T.: TDIU, 2011, 323 b.

Ushbu darslik Milliy hisoblar tizimi metodologiyasi asosida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash uslublarini yoritishga qaratilgan o'ziga xos qo'llanma hisoblanadi. Darslikni yozishdan ko'zlangan asosiy maqsad - o'quvchilarni mamlakatimizda bozor munosabatlarining yuzaga kelishi va tarkib topishi bilan uyg'unlashgan holda bozor iqtisodiyoti va unga asoslangan iqtisodiyotning xalqaro standarti hisoblangan milliy hisoblar tizimining muhim tushunchalari, kategoriyalari, tasniflari hamda mamlakatda kechayotgan iqtisodiy jarayonlarni Milliy hisoblar tizimi va To'lov balansi schyotlarida ifodalash usullari bilan tanishtirishdan iborat.

Darslik iqtisod, bank va moliya yo'nalishlaridagi oliy o'quv yurtlari (bakalavriat va magistratura) talabalariga, malaka oshirish institutlari tinglovchilariga, iqtisodchi olimlarga, iqtisodiyot va statistika yo'nalishidagi vazirliklar va idoralar, banklar, muassasalar va korxonalarining mutaxassislariga hamda bozor iqtisodiyoti nazariyasi va hisoboti tizimi metodologiyasi bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrirlar: Iskandarova D.B.,
kat. o'q. Yaminova G.Sh.

Taqrizchilar: i.f.d., prof. Nabiev H.,
i.f.n, dosent Qoraboev A.R.

Bosishga ruxsat etildi 20.12.2011 yil.

Qog'oz bichimi 60x84 1G'8.

Times New Roman garniturasida. Nashr 3 b.t.

Shartnoma № 689 – 2011.500 nusxada Buyurtma № 1648

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qoshidagi
“Iqtisodiyot” nashriyoti, Toshkent shahri, O'zbekiston ko'chasi, 49.

